Kokand University

Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari

XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA TO‘PLAMI



Qo‘qon-2025



“GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOIY AHAMIYATI VA UNI SAQLASH TAMOYILLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Qo‘qon-2025

UO‘K: 316.422.42
KBK 60.56(5Ў)

Qo‘qon universiteti direktori
G‘.E.Zohidov tahriri ostida

TAHRIR KENGASHI

1. Zeboxon Qobilova – Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor

2. Shuhrat To‘xtasimov – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor.

3. Akhlaq Ahmad Ahan – Jawaharlal Nehru universiteti Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, professor.

4. Maqsud Asadov –O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor.

5. Bahodir Karim – Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

6. Minhojiddin Mirzo – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

7. G‘ayrat Majidov – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari**.**

8. Botirjon Ergashev – Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori.

9. Hulkar Hamroyeva – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.

10. Shahlo Naraliyeva – Qozog‘iston Respublikasi Jumabek Tashenev universiteti Xalqaro hamkorlik departamenti direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

11. Rustam Sharipov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi direktori, filologiya fanlari doktori.

12. Salimjon G‘aniyev – Qo‘zog‘iston Respublikasi Amir Temur jamg‘armasi xalqaro bo‘lim boshlig‘ining o'rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

To‘plamni nashrga tayyorlaganlar: Sh.Jumanova, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, Sh.Payg‘amova, S.Ergasheva, N.Javharova, X.Raimova.

ONA TILI — MILLATNING RUHI

G‘ofurjon Zohidov,
Qo‘qon universiteti rekrori

Assalomu alaykum, hurmatli ilm ahli, muhtaram mehmonlar, hamkor tashkilotlar vakillari, aziz ustozlar va talabalar!

Har bir xalqning yuragi — uning tili, ruhi esa — adabiyotidadir. Til orqali millat yashaydi, so‘z orqali esa, uning ruhi avloddan-avlodga o‘tadi. Bugungi globallashuv davrida esa bu so‘z, bu ruhni asrash — bizning eng muhim burchimiz, eng yuksak mas’uliyatimizdir. Bugungi anjuman respublika miqyosida tashkil etilgan “Adabiyot bayramlari”ning mantiqiy davomi bo‘lsa, mamlakat miqyosida o‘tkaziladigan - **O‘zbek tili bayrami kuni** bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki ushbu tadbirlar xalqimizning ma’naviy yuksalishida, milliy g‘urur va o‘zligimizni mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Anjumandan ko‘zlangan asosiy maqsad — ona tilimiz va milliy adabiyotimizning jamiyat hayotidagi o‘rni va ijtimoiy ahamiyatini yanada chuqur o‘rganish, ularni globallashuv jarayonlarida asrab-avaylash hamda rivojlantirish tamoyillarini ilmiy asosda muhokama etishdan iboratdir.

Ushbu tadbirda mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning nufuzli ilmiy markazlari vakillari, taniqli adabiyotshunoslar, tilshunos olimlar hamda iqtidorli yosh tadqiqotchilar ishtirok etmoqda. Bu esa til va adabiyot sohasidagi dolzarb masalalarni xalqaro miqyosda muhokama qilish, yangi ilmiy g‘oyalarni ilgari surish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Ona tili — har bir millatning ruhi, tafakkurining ko‘zgusi, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy mustaqilligining poydevoridir. Tilda xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari, orzu-umidlari mujassam. Shu bois tilni asrash — millatni asrash, uni rivojlantirish esa kelajakni yoritish demakdir.

Bugungi globallashuv davrida milliy tillar oldida jiddiy sinovlar paydo bo‘lmoqda. Jahon axborot makonining kengayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji, xalqaro aloqa va ta’lim tizimlarining integratsiyalashuvi natijasida ko‘plab tillar o‘z tabiiy rivoj yo‘lini yo‘qotish xavfiga duch kelmoqda. Shunday bir vaziyatda ona tilini saqlash va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ta’kidlash zarur:

— avvalo, ta’lim tizimida davlat tilining ustuvor mavqeini mustahkamlash;

— adabiyot, madaniyat va san’at orqali tilning badiiy boyligini targ‘ib etish;

— ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda o‘zbek tilining faol qo‘llanish doirasini kengaytirish;

— ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida ham o‘zbek tilining terminologik imkoniyatlarini boyitish.

Bu borada adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Adabiyot — nafaqat estetik zavq manbai, balki milliy o‘zlikni anglash va uni mustahkamlash vositasidir. Har bir ijod namunasi xalqning ruhiy qiyofasini aks ettiradi, uning orzu-intilishlarini ifoda etadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida bildirilgan fikr-mulohazalar, ilmiy qarashlar va tajriba almashuvlar shubhasiz, ona tilimiz va milliy adabiyotimizni yanada rivojlantirishga, ularning globallashuv sharoitidagi barqaror mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu anjumanning muvaffaqiyatli tashkil etilishida yaqindan ko‘maklashgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston davlat universiteti, Javoharlal Neru universiteti, Jumabek Tashenev nomidagi universitet, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Bugun bizning asosiy vazifamiz — yosh avlodni ilmga, adabiyotga, va eng avvalo, ona tiliga sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Chunki tilni sevgan avlod — millatning ertangi ishonchi, adabiyotga mehr qo‘ygan yosh — xalq ruhiyatining davomchisidir.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda, ijodiy faoliyatingizda yuksak muvaffaqiyatlar tilayman!

GLOBALLASHUV JARAYONIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOIY ROLI

Ma’rufjon Usmonov,
Qo‘qon shahar hokimi

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, ilm-fan sohasining peshqadamlari, aziz yoshlar va mehmonlar!

Sizlar bilan xalqaro miqyosda ahamiyatga ega bo‘lgan, “Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ko‘rishib turganimizdan juda ham xursandman. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi barcha jarayonlar, shu jumladan globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar, til va madaniyatimizga yangicha qarashlarni keltirib chiqarayotgan bir vaqtda, aynan bunday konferensiyalar nafaqat ilm ahlining, balki jamiyatning til va madaniyatga bo‘lgan munosabatini qayta

tiklash, ularni saqlash va rivojlantirish masalalarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim vosita bo‘ladi, deb ishonch bilan ayta olaman!

Hurmatli qatnashchilar!

Bunday keng ko‘lamli ilmiy munozara va fikr almashish orqali biz til va adabiyotning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga, shu bilan birga uning saqlanishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zamonaviy tamoyillarni belgilashda muhim qadamlar tashlashga erishamiz. Ahamiyatli jihati shundaki, bugungi global dunyoda til faqatgina kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki milliy o‘zlikni, madaniyatni, tarixni va umuman insoniyatning ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi inshoot sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, ona tilining saqlanishi nafaqat tilshunoslar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Konferensiyaning asosiy maqsadi — til va adabiyotning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy ahamiyati hamda globalizatsiya jarayonida milliy til va madaniyatning saqlanish tamoyillarini ishlab chiqishdir. O‘zbek tili va adabiyoti tarixan boy va rang-barang merosga ega bo‘lgan til sifatida, xalqimizning tarixiy, madaniy va ma’naviy xazinasining ajralmas qismidir. Tilda nafaqat xalqimizning o‘ziga xos dunyoqarashi, balki butun bir millatning qadriyatlari, urf-odatlari, tarixi va tajribalari saqlanib qolgan. Shuning uchun, ona tilini asrab-avaylash va uning rivojlanishini ta’minlash, avvalo, milliy o‘zlikni saqlash, keyinchalik esa, butun insoniyatning madaniy merosini rivojlantirish masalasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, konferensiyaning asosiy g‘oyalaridan biri — globalizatsiyaning til va madaniyatga ta’sirini yoritish va bu jarayonda o‘zbek tilining saqlanish tamoyillarini ishlab chiqishdir. Global muhitda tilning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar mavjud bo‘lib, ular orasida texnologik o‘zgarishlar, ommaviy kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi, madaniyatlar o‘rtasidagi integratsiya kabi masalalar mavjud. Shuning uchun bizning tilimiz, adabiyotimiz va madaniyatimiz, albatta, bunday global jarayonlarda o‘z o‘rnini topishi, ammo shu bilan birga uning ajralmasligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu masala nafaqat tilshunoslik sohasida, balki barcha sohalarda, ayniqsa **ta’lim, madaniyat, san’at** va **adabiyot**da jiddiy muhokama qilishni talab etadi.

Konferensiya davomida shu kungacha olib borilgan ilmiy izlanishlar va taqdim etilgan ma’ruzalar orqali biz o‘zbek tilining nafaqat jamiyatdagi o‘rni, balki uning global sharoitda qanday rivojlanishini va uni saqlash uchun qanday tamoyillarni ishlab chiqishimiz kerakligini ham o‘rganish imkoniga ega bo‘lamiz. Til va adabiyotning jamiyatdagi o‘rni va uning ijtimoiy ahamiyati shunchalik ulug‘ki, uning saqlanishi va rivojlanishiga qaratilgan har bir ilmiy izlanish, millatimizning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Yurtimizning madaniy, tilshunoslik va adabiy merosini saqlashda olib borayotgan ilmiy faoliyatingiz nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun insoniyatga xizmat qiladi. Bugun biz Sizlar bilan birgalikda til va adabiyotning global sharoitdagi o‘rni, ularning saqlanishi va rivojlanishi masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqurroq o‘rganishga hissa qo‘shishimizga ishonaman.

Til va adabiyot, milliy madaniyatimizni saqlash, rivojlantirish va global dunyoda o‘z o‘rnini topish yo‘lida olib borayotgan izlanishlaringizda muvaffaqiyatlar yor bo‘lsin!

TIL MAVQEI – EL MAVQEI

Nizomiddin Mahmudov,
O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, direktori

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, ilmiy va badiiy sohaning zabardast vakillari, aziz mehmonlar, talaba-yoshlar!

Bugun bizning oldimizda nafaqat ilmiy-amaliy muhokamalar, balki ona tilimiz va adabiyotimizning ijtimoiy ahamiyati, uning xalqlar o‘rtasidagi muloqotdagi o‘rni, va shu bilan birga xalqimizning madaniyati va tarixiy merosini saqlash borasidagi masalalar eng dolzarb mavzulardan biri sifatida turibdi.

Til – bu nafaqat so‘zlar yig‘indisi, balki millatning ruhini, uning tarixini, qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, uni dunyoga tanituvchi vositadir. Ona tili, albatta, har bir xalqning o‘zligining ramzi, uni saqlash va rivojlantirish esa, o‘z navbatida, nafaqat madaniyatning, balki milliy mustaqillikning, erkin fikr va ijodning, hamda zamonaviy dunyoda xalqimizning o‘z o‘rnini mustahkamlashning asosiy shartlaridan biridir.

Adabiyot esa tilning eng mukammal va chuqur ifodalanishi bo‘lib, insoniyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida ajralmas rol o‘ynaydi. U nafaqat tilni boyitadi, balki fikrlarni shakllantiradi, milliy tafakkurni rivojlantiradi, xalqning o‘z-o‘zini anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, adabiyot orqali biz o‘z tariximizni, qadriyatlarimizni, tilimizni dunyoga tanitishga erishamiz.

Dunyoqarash, ilm-fan va san’atni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, tilning, ayniqsa ona tilining saqlanishi, uning obodligi va taraqqiyoti, bizning tarixiy majburiyatimizdir. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ona tili, nafaqat milliy birlikning, balki xalqaro aloqalar va madaniyatlararo muloqotning ajralmas qismiga aylanishi kerak. Shu bois, bizning burchimiz, ona tilimizni faqatgina uning so‘z boyligi va grammatik tuzilmalari nuqtai nazaridan emas, balki uning ma’naviy,

ijtimoiy hamda zamon va makon o‘rtasidagi muvozanatni saqlash borasidagi ahamiyatida ko‘ramiz.

Bugungi konferensiya, aynan shu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy ishlar natijalarini muhokama qilish, global o‘lchovdagi til va madaniyat muammolarini hal etish uchun yangi yo‘nalishlar va uslublarni kashf etish maqsadida o‘tkazilmoqda. Bu bizga xalqaro tajribalarni o‘rganish, so‘nggi yutuqlarni tahlil qilish, hamda kelajakda bizning til va adabiyotimizning holati haqida yangi va to‘liq qarashlarni shakllantirish imkonini yaratadi.

Xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqot tilning global maydonda o‘z o‘rnini topishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, har bir millatning til va adabiyotini saqlash va rivojlantirish mas’uliyati nafaqat o‘zgaruvchan zamon sharoitida, balki xalqlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmat nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, bugungi konferensiyaning har bir ishtirokchisi, ilmiy va badiiy sohalarda olib borayotgan faoliyatlari bilan tilimiz va adabiyotimizni rivojlantirishga, uning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirishga, yangi yondashuvlar va tajribalarni o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shishi kerak.

Yana bir bor, barcha ishtirokchilarni ushbu ilmiy-amaliy konferensiyada faol ishtirok etishga, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, yangi g‘oyalar va yondashuvlar bilan boyitishga chaqiraman. Barchangizga muvaffaqiyatlar tilayman!

BUYUK NE‘MAT

G‘ayrat Majid,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, muhtaram ustozlar!

Hurmatli o‘zbek tili va adabiyotining targ‘ibotchilari – ilm-fan filoyilari, o‘zbek adabiyoti muhiblari!

“Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari!

Tangrining insonga bergan eng buyuk ne’mati bu – til. Eng muborak imkoniyat insonlarning bir-birlari bilan suhbati, so‘zlashuvidir. Mir Alisher Navoiy hazratning bir ruboiylari bor:

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdurki, xabar berur jong‘a jonondir,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin,

Adabiyotning o‘zagi esa so‘zdir. Demak, adabiyot so‘z vositasida yaratiladi. Albatta, adabiyot inson ruhini tarbiyat etadi, uni kamolat sari yetaklaydi. Ijodkorman, degan kishi borki, yagona orzu-maqsadi shu. Biroq shoiru yozuvchining yana bir o‘ta muhim vazifasi, xizmati ham bo‘ladiki, buni ham ko‘proq adabiyotshunos olimlar, tilshunoslar bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, ilm-fan fidoyilari juda yaxshi bilishadi. Savol tug‘ilishi tabiiy, u nima ekan. Bu tilni asrash, boyitish, taraqqiyotiga xizmat qilishdir. Bu xizmatni adiblar o‘z asarlari orqali ro‘yobga chiqaradilar. Yozuvchi bu vazifani ongli ravishda tushunib, ba’zan esa o‘zi ham o‘ylamay Xudo bergan ilhom bilan amalga oshiradi, desam to`g`ri bo`ladi.

Men bir ijodkor, ilmga rag`bati bor kishi sifatida Qo`qon universitetining faoliyatini doimo kuzatib boraman. Keyingi yillarda bu universitet jamoasi ko`p xayrli ishlarni qilmoqda. Filologiya mutaxassisligi faoliyatining yo`lga qo`yilishi ham e’tiborga, ham e’tirofga munosib. Yaqinda, oktabr oyining boshida O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va boshqa hamkor tashkilotlar Farg`ona viloyatida adabiyot kunlarini ko`tarinki ruhda o`tkazishdi. Adabiyot kunlari xuddi shu oliy o`quv yurtidan boshlandi. Bugun esa katta ahamiyatga va chuqur mazmunga ega xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga mezbonlik qilib turibdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi farmoni, “O`zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy hayotdagi

mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi, “O`zbekistonning madaniy merosini saqlash va uni jahon miqyosida targ`ib qilish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash barobarida o`zbek adabiyotining yetuk vakili A’zam O`ktam tavvaludining 65 yilligini keng nishonlash maqsadida Qo`qon universiteti hamda hamkor tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga muvaffaqqiyat, ilm-fan jonkuyarlarining ilmiy faoliyatlariga ulkan yutuqlar tilayman.

1-SHO‘BA: ONA TILI VA MILLIY O‘ZLIK

TIL VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATNING IFODALANISHI
(O‘zbek tili maqol va topishmoqlari asosida)

Muqimova Zohida Rasulovna,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Til birliklarida u yoki bu shaklda madaniyat o‘z aksini namoyon qiladi. Ayniqsa, barqaror birliklarda madaniyat atroflicha o‘z aksini ko‘rsatadi. Xalqning qadriyatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi xalq maqollari, topishmoqlari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Maqollar, topishmoqlar tarkibidagi milliy-madaniy so‘zlarni tadqiq etish ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlari tarkibida qatnashgan milliy-madaniy so‘zlarning madaniy xususiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy-madaniy so‘z, qadriyat, lingvomadaniyatshunoslik, paremiologiya, maqol, topishmoq, lingvomadaniy kod.

Annotation: In language units, culture manifests itself in one form or another. Especially in stable units, culture is reflected in its entirety. Proverbs and riddles, which concisely convey the values of the people, play a leading role in expressing the mentality of the nation. Studying the national and cultural words within proverbs and riddles helps to demonstrate their unique national and cultural characteristics. This article highlights the cultural features of the national and cultural words that appear in Uzbek proverbs and riddles.

Key words: national-cultural word, value, linguocultural studies, paremiology, proverb, riddle, linguocultural code.

Aksiologiya ham, lingvomadaniyatshunoslik ham antropotsentrik tilshunoslikning yo‘nalishlaridir. Har ikkalasi tilni uning egasi bilan bog‘liqlikda o‘rganadi. “Lingvomadaniyatshunoslik filologik fan sifatida oldindan tanlangan ma’naviy qadriyatlar to‘plamini va ma’lum bir milliy-madaniy jamoaning tilshunoslik tajribasini o‘rganadi, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqlik belgilariga bevosita e’tibor qaratadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat muammolari lingvomadaniyatshunoslik doirasida ustunlik qiladi. Demak, lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning ifodachisi sifatida o‘rganadi” [2:31].

“Keyingi o‘n yillikda amalga oshirilgan tadqiqotlarda universal hamda milliy-madaniy lingvokulturemalarning milliy-madaniy tarjimaviy xususiyatlari, leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememalarining lingvomadaniy xususiyatlari, ayrim fe’llarning milliy-madaniy xoslangan

ma’noviy xususiyatlari, xalq maqollari, turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari, antropotsentrik metaforalarning lingvomadaniy, kommunikativ, pragmatik jihatlariga e’tibor qaratildi. Mazkur ishlarda o‘zbek tili birliklari xalq mentaliteti, tafakkur tarzi, olamni idrok etishidagi o‘ziga xosliklari, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, yashash tarzi bilan uzviylikda tadqiq qilindi. Natijada fanda lingvomadaniy tadqiqotlar ko‘lami kengaydi, tilshunosligimiz lingvomadaniyatshunoslikka oid bo‘lgan yangi nazariy qarashlar bilan boyidi” [2:34].

Bugungi kunda faqat lingvomadaniyatshunoslik borasidagi ishlarda emas, aksiologik jihatdan yondashilayotgan tadqiqotlarda ham xalq milliy mentaliteti bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror birliklarga, jumladan, maqollarga, topishmoqlarga ham e’tibor qaratilmoqda. Bunday tadqiqotlarning aksariyatida maqollar va topishmoqlar tadqiqot obyekti sifatida tanlanganini kuzatish mumkin.

Tilshunosligimizda milliy-madaniy so‘zlar tadqiqqa tortilgan ishlar ko‘p emas. O‘zbek tilshunosligida milliy-madaniy so‘z sanaluvchi turg‘un o‘xshatishlargina lingvomadaniy jihatdan ko‘p o‘rganilgan. Tilshunos olim D.Rustamovning “Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti” nomli tadqiqotida ayrim til birliklarining milliy va madaniy komponentlari tahlilga tortilgan [3:129]. “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)” o‘zbek tilidagi milliy-madaniy birliklar bilan assotsiativ munosabatga kirishuvchi til birliklari haqida ma’lumot beruvchi ilk lug‘atdir. Mazkur lug‘atda milliy-madaniy birliklar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan, o‘zbek milliy-madaniy birliklariga namunalar keltirilgan. Lug‘at o‘zbek milliy-madaniy birliklar haqidagi tasavvurimizni boyitishi bilan ahamiyatlidir. “Ma’lumki, muayyan xalqqa xos milliy madaniyat elementlarini aks ettiruvchi birliklar milliy-madaniy birliklar sanaladi. Bunday birliklar muayyan xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, milliy an’analar, udumlar, odob-axloq, muloqot me’yorlari kabilarni anglatadi. Bu kabi ekstralingvistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan leksik birliklarni milliy-madaniy leksika yoki milliy-madaniy birliklar deyish mumkin” [4:16]. Lug‘atda berilgan javob reaksiyalarida til egalarining, ya’ni xalqimizning tashqi olam haqidagi tasavvurlari, bilimi, dunyoqarashi, ruhiyati, voqelikka munosabati, hayotiy tajribalari, o‘y-xayollari, tashvish-muammolari ham aks etgan” [2:132].

Xalqning qadriyatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Xalqning dunyoni idrok etishi o‘z maqollarida ham o‘z tajassumini topadi. Ayonki, semantikasida madaniy axborot aks etuvchi birliklar qatoriga maqollar ham kiradi. Maqollar tarkibidagi milliy-madaniy so‘zlarni tadqiq

etish ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Har bir millat o‘ziga xos *idrok intizomi* [5:6]ga ega ekan, bu ularning maqol-u topishmoqlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Quyidagi topishmoqlarda buning isbotini ko‘rishimiz mumkin. *Ko‘k beqasam* ***to‘n****im bor*, *Ichim baxmal lolazor Mazam shirin, go‘yo qand, Meni yegan tortmas dard* (*Tarvuz*); *Pak-pakana bo‘yi bor, Yetti qavat* ***to‘ni*** *bor* (*Karam*); *Yer tagida yo‘li bor, Ustida po‘lat* ***to‘ni*** *bor. Shamoldan tez yeladi, Buxorodan keladi* (*Gaz*); *Yo‘l-yo‘l* ***to‘ni*** *bor, Odam qo‘rqar turqi bor* (*Yo‘lbars*); *Makonidir dalalar, Pushtalarda bolalar. **To‘ni** yo‘l-yo‘l beqasam, Go‘shti suvli va asal* (*Tarvuz*); *Bir barmoqcha bo‘yi bor,* ***Qizil baxmal to‘ni*** *bor* (*Garmdori*); *Osmondan tushdi bir* ***tugun****, Usti baxmal, ichi un* (*Jiyda*); *Eshik orqasida chiroyli* ***kelin*** *(****Supurgi****);* *Suv tagida* ***oltin baldoq*** (*Baliq*); *Yer tagida qator* ***qoziq*** (*Sabzi*). Mazkur topishmoqlar tarkibidagi *to‘n, tugun, baldoq, kelin, qoziq* kabi lingvomadaniy kodlar o‘zbekona tafakkur hosilasidir.

Yotar yumshoq ***ko‘rpa****da, Qator o‘sar har safda. Barglari ham yam-yashil, Tusi tilladan asil* (*Sabzi*). Ushbu topishmoqda *ko‘rpa* narsa-buyum lingvomadaniy kodi orqali ko‘rpacha shakldagi yer emas, ko‘rpa shaklidagi kengroq yer nazarda tutilmoqda hamda sabzining tuproq ostida bo‘lishiga ishora qilingan.

O‘zbek tili paremiologiya fondida lingvomadaniy belgilarni o‘zida yaqqol ifodalagan milliy-madaniy so‘zlar qatnashgan maqollar talaygina. Masalan, *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi* maqolida *do‘ppi*, *Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga* maqolida *g‘alvir*, *Chiqqan qiz chiyiriqdan tashqari* maqolida *chiyiriq*, *Insof sari – baraka* maqolida *insof*, *Tappi tapidan uzoqqa tushmaydi* maqolida *tappi*, *Amal tegdi hinduga, boshini suqdi yundiga* maqolida *yundi* (yuvundi) leksemalari lingvomadaniy qimmatga ega.

Agar bo‘lsa oqliging, bilinmaydi yo‘qliging maqolida *oqlik*, *Sallaga ishonma, kallaga ishon* maqolida *salla* milliy-madaniy so‘zdir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqliq so‘zining dastlabki ma’nosi sifatida “1 Sut va sutdan tayyorlanadigan mahsulotlar (qatiq, qaymoq va sh.k.)” [6:107] berilgan. *Agar bo‘lsa oqlig‘ing, bilinmaydi yo‘qlig‘ing* maqolidan ayonki, o‘zbek xonadonida sut mahsulotlari xonadon xazinasi deb, qadrlangan; sut va undan tayyorlangan mahsulotlar bor xonadon boy hisoblangan; oyoqostiga, ya’ni odam yuradigan joy-yo‘laklarga sut to‘kish gunoh sanalgan. Yozuvchi S.Ahmadning “Hukm” asaridan olingan ushbu *Echki bo‘lsa hamki, bola-chaqaga* ***oqliq*** *o‘zimizdan chiqib turgan edi, go‘sht-po‘shtini olib, bitta sog‘in echki bersanglar*, gapidan ham sut qanchalik ro‘zg‘orga kerakli mahsulot ekanligini, qanchalik kerakliligini bilsak bo‘ladi.

Sallaga ishonma, kallaga ishon maqolida *salla* milliy-madaniy so‘zdir. Bunda bu so‘z narsa-buyum lingvomadaniy kodi (kiyim-kechak lingvomadaniy kodi) bo‘lib, maqolda umuman kiyim, boylik ma’nosida, *kalla* somatik lingvomadaniy kodi esa aql, tafakkur ma’nosida qo‘llangan. Ya’ni boshingda sallang bo‘lsa-da, u zardan bo‘lsa-da, unga emas aqlga ishonish lozimligi uqtirilgan. Demak, *kalla* somatik lingvomadaniy kodi vositasida ilm olish, ilmni o‘rganishga chaqiriq oliy qadriyatlardan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, *kepak* so‘zi ham milliy-madaniy so‘zdir. Bilamizki, kepak “Bug‘doy, jo‘xori kabi donlar tortilganda (un qilinganda), ulardan chiqadigan po‘sti va un bo‘lmagan don chiqitlari” [7:811]. Bu so‘z o‘zbek xalq maqollarida ko‘p qo‘llangan. Masalan, *Ba’zi xurmada qatiq bo‘ladi, ba’zi xurmada – kepak* yoki *Kepak yegan ot yugurik bo‘lmas. Kepak yegan ot yugurik bo‘lmas* maqolida *kepak* lingvomadaniy kodi to‘yimli bo‘lmagan taomning badiiy obrazidir.

Bir odam omoch bilan, yettovlon cho‘mich bilan maqolini yodga olishimiz bilan *O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir* (Ma’lumki, “Mashoq – bug‘doy o‘rib yig‘ib olingandan keyin yerga to‘kilib qolgan boshoqlarni terib olish” [8:36]); *Ot topadi, eshak yeydi*; *Ariqni kimlar qaziydi, Suvni kimlar ichadi*; *Chigirtkalar ekin yer, Ekmay-tikmay tekin yer*; *Dehqon ishi bilan ovora, Sichqon teshigi bilan ovora*; *Tayyor oshga – bakovul, Sho‘rlik oshga – yasovul* maqollari esga tushadi. Berilgan maqollardagi *omoch, cho‘mich, o‘roq, mashoq* milliy-madaniy so‘zlari mehnat tushunchasini esga soladi. Mazkur maqollarda qo‘llangan *omoch, cho‘mich, mashoq, o‘roq, bakovul, yasovul* kabi milliy-madaniy so‘zlar ma’lum ma’noda o‘zbek xalqining tarixini, turmush tarzini aks ettiradi.

Aytish o‘rinliki, yuqoridagi maqollar-u topishmoqlar tarkibidagi lingvomadaniy kodlar o‘zi ifodalovchi madaniyat haqida tasavvur uyg‘ota oladi. Ularda milliy-madaniy mazmun muhrlangan bo‘ladi.

Maqollar va topishmoqlarda mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ular takbibidagi obrazlar betakrorligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvir bu birliklardagi milliy-madaniy buyoqni ta’minlaydi.

Xalqning madaniyatini, o‘tmishi va qadriyatlarini ixcham tarzda yetkazib beruvchi bunday barqaror birliklar xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Maqollar-u topishmoqlardagi milliy-madaniy so‘zlarning tadqiqi ular tili, qolaversa, ularning milliy-madaniy xosligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. doktori …diss. – Toshkent, 2024. – B.18-19-20.

2. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоетик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (ПҳД) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б.31-34-132.

3. Rustamov D. Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti: Filol. fanlari bўyiча falsafa d-ri (PhD) ...diss. – Farғona, 2018. – 129 b.
4. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. “Ўзбек тили ассотсиатив луғати” ҳақида / Ўзбек тили ассотсиатив луғати (миллий-маданий бирликлар). /луғат/ –Тошкент: “Навоий университети”, НМУ, 2019. –Б. 16.
5. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. – №3. – Б. 6.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – Б.107.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – Б.811.
8. Маънолар махзани. Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 36.

“SEN – MUHABBAT TILI HAMDA ERK TILI…”

Boltayeva Gulchehra Shokirovna,
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o‘zligini, ruhiy-ma’naviy dunyosini o‘zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og‘ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug‘lasak arziydi ***(Sh.M.Mirziyoyev).***

Annotatsiya: O‘zbek tili asrlar osha xalqimiz tarixi, badiiy tafakkuri, madaniyatining aksi o‘laroq dunyo tillari bo‘yicha tirik tillar sirasida yashab kelmoqda. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbekistonda muhim tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Millatimizning asrlar davomidagi orzu amalga oshib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Mustaqilligimizning huquqiy asoslari dastlab shu dadil qadam bilan tashlandi. Mazkur tarixiy hujjat o‘zbek tilining huquqiy asosi va maqomini belgilab berib, tilimiz ravnaqi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar barqarorligi uchun xizmat qila boshladi. Mustaqillik yillarida olimlar, yozuvchilar, tadqiqotchilarimiz uchun o‘z ona tilida ijod qilish erkining berilishi – tilimiz nufuzi va amaliy qimmatini kuchaytirdi. Bugun o‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Maqolada o‘zbek tili, davlat tili sifatida unga munosabat, tilimizning taqdiri va kelajagi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, muloqot, til boyligi, til birliklari, Turk mushtarak o‘rtoq alifbosi til va tafakkur.

Annotation: Over the centuries, the Uzbek language has reflected the history, artistic thinking and culture of our people in different ways. On October 21, 1989, an important historical event took place in Uzbekistan. The centuries-old dream of our people has come true, the Uzbek language has been given the status of a state language. This bold move laid the legal foundations for our independence. This historical document determined the legal basis and status of the Uzbek language, began to serve the development of our language, the stability of national and universal values. During the years of independence, giving scholars, writers and researchers the freedom to create in their native language increased the prestige and practical value of our language. Today, the Uzbek language is actively used in the political and legal, socio-economic, spiritual and educational spheres, and is widely heard in international stands. The article refers to “the Uzbek language, the attitude towards it as a state language, the fate and future of our language”.

Keywords: uzbek language, communication, language richness, language units, general Turkish alphabet, language and thinking.

Til kishilarning o‘zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo‘lgan ehtiyoji o‘laroq ijtimoiy hodisa ekan, inson dunyo yuzini ko‘rmasdanoq tilga ehtiyoj sezadi, bizningcha. Bugungi kunda ilm-fanning yuksak yutuqlari asosida ona qornidagi homila va uning rivojlanish bosqichlari ham bo‘lajak farzandning ona suhbatini, uning kitob o‘qishi-yu, kuy tinglashi, xirgoyi qilishi, yaxshi-yomon fikrlarni aytganda unga reaksiya berishi, oilada bo‘ladigan noxush holatlarni seza olishi va shunga mutanosib ravishda rivojlanishi fan tomonidan isbotlangan. Inson dunyoga kelishi bilan esa til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar, to‘plangan tajribalar avloddan-avlodga yetkaziladi.

Tilda insonning eng go‘zal, beg‘ubor tuyg‘ulari mujassam bo‘ladi, turfa fazilatlari ona allasi va ertaklar olami orqali shakllanadi. Har bir millat egasining ong-u shuuriga til birliklari tarx, qolip sifatida avlodlarning tafakkur va ma’rifat karvoni orqali o‘tib boradi. Unda xalqning o‘y-fikri, orzu-umidlari, his-tuyg‘ulari aks etadi. Til millatning milliyligini ta’minlovchi asosiy omildir. Zero, har qanday jamiyatda o‘sha tilda so‘zlovchi millat vakillari yashaydi va jamiyat rivoji uchun mehnat qiladi. Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Til va jamiyat chambarchas bog‘lik ekan, uning a’zolari ham tilning rivojlanishiga yoxud tanazzulga uchrashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarixdan necha tillarning iste’moldan chiqib, o‘lik tilga aylangani bunga yorqin dalildir. Sobiq SSSR davrida “ruslashtirish siyosati” mustaqil

davlatlar hamdo‘stligiga kiruvchi davlatlarning tili, urf-odati va madaniyatiga jiddiy xavf soldi. Bu siyosat, ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy sohada halokatli oqibatlarga olib kela boshladi. Turkiy millatlar, turkiy xalqlar birdamligiga putur yetdi. Ana shunda jamiyatimizning ilg‘or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg‘urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Bu Qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Mazkur Qonunning 1-moddasi va Konstitutsiyamizning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili” ekanligi va O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishi ham belgilab qo‘yildi. 2020-yil 10-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor, uning nufuzini mustahkamlash yo‘lidagi qat’iy qadam edi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktyabrni “O‘zbek tili bayrami kuni” etib nishonlash belgilandi. Mamlakatimizning har go‘shasida, korxona va muassasalar, ta’lim maskanlari, mahalla-u ovullarda til bayrami keng nishonlanadi. Bu esa, barchamiz uchun ona tilimizni qay darajada ardoqlashimiz va hurmat qilishimizni bildiradi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi asnosida ona tilimiz obro‘si, nufuzi, go‘zalligi va jozibasini namoyon etish bilan birga, uni ilmiy-ommaviy ravish rivojlantirish nazarda tutildi. Shuningdek, davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlab, uni o‘rgatuvchilarga barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. O‘zbek tili va adabiyoti fanidan milliy sertifikatga ega o‘qituvchi-murabbiylarning oylik maoshiga qo‘shimcha haq to‘lash, o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligidan doktoranturaga o‘qishga kirmoqchi bo‘lgan talabgorlarga mutaxassislik imtihonidan 100 % ball berilishi shular jumlasidandir. Abituriyentlar ham bilim va malakalarini oshirib, ona tili va adabiyoti fanidan bilimlarini sertifikatlashga intilishi, 2024-2025-o‘quv yili kirish imtihonlarida milliy sertifikat uchun tushgan arizalarning katta qismi ona tili va adabiyoti faniga to‘g‘ri kelishi, quvonarli hol, albatta. Eng ko‘p ariza topshirilgan fanlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. O‘zbek tili va adabiyoti: 17 316 ta ariza.
2. Kimyo: 13 446 ta ariza.
3. Matematika: 8 272 ta ariza.

Hududlar bo‘yicha sertifikat olishda **Farg‘ona viloyati** yetakchilik qilgan (8 034 ta ariza, 5 216 ta sertifikat), keyingi o‘rinlarda **Toshkent shahri** (6 667 ta ariza, 3 996 ta sertifikat) va **Buxoro viloyati** (5 725 ta ariza, 3 916 ta sertifikat) joylashgan. Ko‘rinadiki, bu kabi bilimlarni malakalash imtihonlari tilimizni chuqur o‘rganishga, uning bo‘limlari bilan batafsil tanishishga imkon yaratib, ona tili va adabiyotini o‘rganuvchilar

auditoriyasining kengayishiga olib keladi. Hozir juda ko‘p yoshlarimiz turkiy tillarni, jumladan turk tilini o‘rganishga qiziqishmoqda. Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilar orasida ham bu tilni o‘zlashtirishga intiluvchilar soni ancha yuqori. Bu esa qardosh xalqlar tili, madaniyati, urf-odatlari, ilm-fani, ilg‘or tajribalari bilan tanishish imkonini beradi. Zero, turkiy tillar birdamligi, tilimizni o‘ziga yaqin bo‘lgan qardosh tillar bilan uyg‘unlashtirish, turkiy dunyoni yagona til va maslak ostida birlashtirish masalasi jadidlar davridayoq boshlangan edi. Ana shu xayrli sa’yi harakatning natijasi bugungi kunga kelib, barcha turkiy millatlar uchun “o‘rtoq alifbo”ning qabul qilinishi haqidagi taklifga turtki bo‘ldi. Ammo 5 marta alifbo almashtirgan O‘zbekiston uchun bu masala ham ancha qiyin kechadi, bizningcha. Turkiy alifbo, uning tarixi va kechmishi haqida taniqli turkolog olim, AQSh davlat Michigan universiteti professori Temur Xo‘ja o‘g‘li fikr bildirib, shunday deydi: “SSSRning dastlabki yillarida SSSR tarkibidagi barcha turkiy respublikalar O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston va hatto Yoqutiston, Chuvash, Tuva – hammasi 1926-yilgi konferensiyada bu masalani muhokama qilganlar. Ular ziyolilar, ko‘pincha jadidchilar edi. O‘shanda arab alifbosini davom qildiraylik, yoki lotin alifbosinimi, degan munozara kechadi. Ko‘pchilik lotin alifbosini yoqlaydi. Dastlab, Ozarbayjonda bu alifbo tatbiq qilindi, O‘zbekiston ham 1928-yilda shu alifboga o‘tdi. Bu barcha turkiy xalqlar uchun bitta lotin alifbosi edi. Ya’ni “Turk mushtarak o‘rtoq alifbosi”, deb nomlangan. Barcha turkiy xalqlar o‘shanda mazkur alifboda yozishni boshladi. Alifbo juda mukammal edi. Chunki, u tovushlarni juda yaxshi berardi. Bu alifbo 1940-yillargacha amalda bo‘lgan. Faqat o‘sha yillar Turkiya lotin alifbosiga yaqin bir alifboga o‘tganda bu Moskvani tashvishlantirib qo‘ygan. Chunki Turkiya marksizm bo‘lmagan respublika, sovetlar uni kapitalistik burjuaziya deb o‘ylaydi o‘shanda. Va alifbo bir bo‘lganda turkiy xalqlar turkcha yozuvlarni ham o‘qishi mumkin. U holda SSSR tarkibidagi turkiy xalqlar sovet mafkurasidan uzoqlashib qolarmikan, degan xavotirda Moskva lotin yozuvini kirillga o‘tkazadi”[10].

Darhaqiqat, til tafakkur mahsuli sifatida, millatning ruhini, intilishlarini, dunyoqarashi va orzu-umidlarini o‘zida aks ettirar ekan, albatta, har qanday millatni yer yuzidan yo‘qotish, uning milliyligini buzish uchun boshqa til va yozuvni joriy qilishning o‘ziyoq millatga nisbatan xiyonat, uni yemirishning yashirincha bir ko‘rinishi edi. O‘zbek millati ham ona tili, milliy madaniyat va urf-u odatlarini yo‘q qilishga qaratilgan ana shunday tahlikali urinishlarni boshidan o‘tkazgan. Ammo xalqimizning mustahkam irodasi va sabr-bardoshi, betakror tarixi, boy madaniy merosi, jahonni larzaga solgan sportchilari tufayli bugungi kunga kelib dunyoda o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lgan davlat sifatida shuhrat qozonishi quvonarli hol, albatta.

Bugungi kunda o‘zbek tilini dunyo minbarlarida yangratish, xorijiy fuqarolarga o‘rgatish va uning nufuzini oshirish borasida qator xayrli ishlar qilinmoqda. Turli multimedia dasturlari, tarjima va matn tuzishni o‘rgatuvchi elektron platformalar, innovatsion roliklar, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi videodarslar shular jumlasidandir. Ammo yoshlarimizda ona tilini o‘rganishga qiziqish, e’tibor so‘nganday, nazarimda. Ularning nutqida turli tillarga oid so‘zlarni qo‘shib, tilni buzib gapirish, yozganda esa bir qancha imlo va ishoraviy xatolar bilan yozish, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlarda shevada, o‘zi xohlagandek fikrini bayon qilish holatlari kishini hayratga soladi. O‘zbek tili va adabiyoti, ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan taniqli olim, millatimizning birinchi professori, tarixchi, tarjomon, dramaturg va shoir Fitrat bundan 106 yil burun tilimizning kelajagi haqida qayg‘urib, uni arab va fors tili unsurlaridan tozalash haqida fikr bildirgan. “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 12-iyundagi 32-sonida e’lon qilingan katta ijtimoiy va ilmiy ahamiyatga ega “Tilimiz” maqolasi bugun ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Maqolada “shoirlik qilmoqchi emasligini” uqtirgan professor Fitratning ona tilimiz taqdiri, buguni va ertasi haqidagi qat’iy qarashlari, millat vakili sifatida kuyinishlari aks etgan. Maqola shunday so‘zlar bilan boshlanadi: “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoni eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yona xud (yana shu) turkchadir. Boylarning baxtsizligi sovet hukumati chog‘inda bo‘lg‘on bir ishdir. Bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizning holini bilmasdan gapuralar. Bir tilning boyligi u tildagi so‘zning ko‘pligi (kasrati kalimot), undirish kengligi (vus’ati ishtiqoq), yusup tugalligi (mukammalliyati qavoid) bilan bo‘lur.

Bir tilning boyligi u tildagi so‘zning ko‘pligi (kasrati kalimot), undirish kengligi (vus’ati ishtiqoq), yusup tugalligi (mukammalliyati qavoid) bilan bo‘lur.” [10]

Maqolada Fitrat tomonidan hissiyotga berilmasdan (“Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir”), ona tilimiz – turkchaning “eng boy” va “baxtsiz tili” sifatida baholanishi olimning yetuk tilshunos sifatidagi ilmiy qarashlarini, ona tilimizning o‘sha davrdagi, qolaversa, bugungi ahvolini yorqin ifodalaydi, desak yanglishmaymiz. Jadidchi sifatida millat jonkuyari va tilimizning sofligi uchun kurashchi olim mulohazalari o‘zbek tilining so‘z va lug‘at qatlami nihoyatda boyligi (kasrati kalimot), so‘z yasalish doirasining kengligi (vus’ati ishtiqoq), tilning grammatik qoidalar tizimi mukammalligi (mukammalliyati qavoid) asosida misollar orqali ilmiy-amaliy jihatdan isbotlab berilgan. Oradan bir asrdan ziyod vaqt o‘tibdi-ki, ona tilimizga munosabatimizda haliyam kemtik nuqtalar, o‘g‘riqli o‘rinlar bor. Bugun aksariyat o‘zbeklar bolasi ona tilini mukammal bilmay turib, jigarbandining rus va ingliz tillariga ixtisoslashgan bog‘chalarda tarbiyalanishini istaydi. Tilimizni mukammal

o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqning so‘nishi ayni shu nuqtadan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Bugun ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar, sms xabarlardagi xatoliklar, yoshlarimiz tomonidan o‘ylab topilgan alfavitda yo‘q harflar buning yorqin isbotidir…

Yetuk adabiyotshunos va tilshunos olim Abdurauf Fitratning ilmiy merosini yuqori baholagan taniqli olim Ozod Sharafiddinov “Fitratning ikki maqolasi” xususidagi ilmiy mushohadalarida ijodkorning juda murakkab, qaltis hayot yo‘li haqida fikr bildirib, shunday yozadi: “Fitratning maqolasi o‘zbek tilining ravnaqini o‘ylab yozilgan. O‘sha vaqtda bunday maqola g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Chunki adabiy tilimiz juda g‘ariblashib qolgan, boshqa chet tillaridan kirgan so‘zlar hisobiga ancha buzilish darajasiga borib yetgan edi. Bunga amin bo‘lish uchun professor Borovkovning keyinroq yozilgan “1905-1907-yillarda o‘zbek adabiy tili” degan kitobini eslash kifoya. Unda konkret misollar bilan, gazeta va kitoblardan olingan namunalar bilan tilning nochor ahvoli ayon ko‘rsatib berilgan. Shuning uchun 1918-19-yillarda o‘zbek tilini soflashtirish, tatbiq ko‘lamini kengaytirish, uning hamma ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish g‘oyat muhim edi. Aytgancha, bu vazifa bugun ham o‘zining aktualligini yo‘qotgani yo‘q.”[9]

Darhaqiqat, XX asr boshlarida tilimiz fors va arab tillarining ta’siri ostida bo‘lsa, bugun ona tilimizga rus va yevropa tillarining unsurlari shiddat bilan kirib kelmoqda. Eng achinarlisi, bunday so‘z qo‘shilmalari televideniyaning taniqli diktorlari, el suygan xonandalar, tadbirkorlar, siyosat va jamoat arboblari, rahbar xodimlarning nutqlarida emin-erkin, hech istiholasiz qo‘llanilmoqda. Toshkent shahriga borgan insonning nomlari inglizcha yozilgan joylarning ko‘pligidan ensasi qotishi tayin…Navoiy va Fitrat o‘zbek tilining arab va fors tillari unsurlaridan toza bo‘lishi uchun kurashgan bir paytda, nahotki, biz o‘z tilimiz va imlomizga shu darajada e’tiborsizmiz, hatto maktabda o‘rgatilgan savodxonlik qoidalarini bilmaymiz, deya fig‘on qilging keladi…

To‘g‘ri, xorijiy tillarni o‘rganish, rivojlangan davlatlarning boy tajribasi va innovatsiyalarini yurtimizga olib kelishimiz mumkindir, ammo bu ona tilimizni kamsitish, unga befarqlik asosida bo‘lmasligi kerak. Biz tilimizga hurmat bilan qarasak, unda onamizga, Vatanimizga sadoqatimizni izhor etgan bo‘lamiz. Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon G‘aybulla as-Salom ta’kidlaganidek: “Ona tilida fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo‘lmasin, ona tili kamsitilishiga yo‘l qo‘ymasin. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Onaizor, Vatan, millat har biri bittadan, Ona tili ham bitta. Agar o‘z xalqingiz orasida gungalak-soqov va yot bo‘lishini istamasangiz, ona tilini puxta o‘rganing. Boshingizga ko‘taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo‘la oladi, ammo faqat o‘z tilida bekamu-ko‘st bo‘lishi mumkin”. Darhaqiqat,

inson boshqa tilni mukammal o‘rganishi mumkin, ammo faqatgina ona tilida betakrorlik, mehrni tuyushi, o‘zligidan faxrlanishi, zarra ma’nodan tortib ulkan tushunchani ham qiynalmay, yurakdan his qilishi mumkin. Zero, ona tilimizning jozibasi yuragimizga onamiz, vatanimiz qadar yaqin va azizdir. Uning qadri, onamiz qadar azuz-u mukarramligi “begona osmon ostida bilinadi”. Shunday bo‘lmaganda, Amerika yoki Rossiyada yurgan millatdoshimiz o‘zbek tilida so‘zlayotgan yurtdoshini ko‘rganda entikmagan, unga intilmagan, yuragi sog‘inch va mehrdan orziqib, ko‘zi yoshlanmagan bo‘larmidi?!

Ona tili jozibasini insonga hech bir narsa bera olmaydi. Chunki bu joziba, bu go‘zallik, bu sehr kishi qalbiga ona allasi, beg‘ubor bolalikdagi pok tuyg‘ular, hayratu savollarga to‘la dunyoqarash, oila davrasidagi nuroniy bobo-yu buvijonlar o‘gitlari, yaqinlarining cheksiz mehr-yu muruvvati, birinchi muallimning yorug‘ chehrasi-yu, ilk bora tanitgan harflari, sodda va betakror hislar orqali muhrlanadi. Zero, kishi dunyoga kelib eshitgan birinchi so‘zi, allasi ham ona tilida bo‘lib, shu til orqali u dunyoni anglaydi, Olloh bergan betakror ne’mat – nutqdan foydalanadi. Taniqli shoira Zebo Mirzo ta’kidlaganidek:

Hali bashariyat murg‘ak uyquda
Bilmaganda Qalam, harfu imloni.
U tog‘lar ko‘ksiga gul qilib chizdi,
Gul deya anglatdi yorug‘ dunyoni…
Bobolar tili bu, ey Ona tilim,
Sendan kelar olis dala-dasht isi.
Uchar arg‘umoqlar qanotida sen
Qoldirgan izlarda kurashlar izi…
Sen – muhabbat tili hamda erk tili,
Sen borki, Haq bilan sirlashamiz biz!
Sen jasorat tili va mardlik tili,
Sen borki, xalq bo‘lib birlashamiz biz! [8,155]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 167- 1-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 140-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili” haqidagi Qonuni qabul qilinganligining 30-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4279-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850- sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 20-yanvaridagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ozbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 10-aprel, O‘RQ-615-son.

7. Milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – 120 b.

8. Ona tilim – mangu makonim: she’rlar / To‘plab nashrga tayyorlovchilar: M.Zohidova va boshq. Mas’ul muharrir A.Said va boshq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 384 b.

ONA TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA MILLIY O‘ZLIKNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna,
Qo‘qon universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ona tilini o‘rganish jarayonida shaxsning milliy o‘zligini shakllantirishning psixolingvistik va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Ona tili nafaqat kommunikativ vosita, balki shaxsning milliy, madaniy va ma’naviy identitetini belgilovchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda tilni o‘zlashtirishning uch bosqichi – til sezgirligini shakllantirish, til orqali milliy qadriyatlarni anglash va milliy o‘zlikni ongli ravishda namoyon etish jarayonlari izchil yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy o‘zlikni shakllantirishda ona tili ta’limining mazmuniy va tarbiyaviy imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada zamonaviy psixolingvistika, etnopedagogika va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlillar olib borilib, milliy o‘zlikni rivojlantirishning samarali bosqichlari va metodik yondashuvlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, milliy o‘zlik, identitet, psixolingvistika, etnopedagogika, madaniy qadriyatlar, til sezgirligi, milliy tafakkur, ta’lim jarayoni.

Annotation: The article analyzes the psycholinguistic and pedagogical foundations of the formation of a person's national identity in the process of learning the native language. The native language is considered not only as a means of communication, but also as a key factor determining the national, cultural and spiritual identity of a person. The study consistently covers the three stages of language acquisition - the formation of language sensitivity, the understanding of national values

through language and the conscious manifestation of national identity. It also reveals the substantive and educational possibilities of native language education in the formation of national identity in students. The article analyzes from the perspective of modern psycholinguistics, ethnopedagogy and cultural studies, and substantiates effective stages and methodological approaches to the development of national identity.

Keywords: mother tongue, national identity, identity, psycholinguistics, ethnopedagogy, cultural values, language sensitivity, national thinking, educational process.

Ona tili har bir millatning eng muhim ma’naviy boyligi, milliy o‘zlik va tafakkurining tayanchidir. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va ijtimoiy ahamiyati yildan-yilga ortib borayotgani, til siyosatiga davlat miqyosida yondashilayotgani bu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va uning jamiyatdagi mavqeini tubdan yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850-sonli Farmonda ona tilini milliy o‘zlik va ma’naviyatning eng muhim poydevori sifatida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ona tilini o‘qitish jarayonida yosh avlodda milliy g‘urur, o‘zligini anglash, ona tiliga hurmat va mas’uliyat hissini tarbiyalash zarurligi alohida ta’kidlangan. Mazkur hujjatlar, o‘z navbatida, tilni o‘rganish jarayonida shaxsning milliy o‘zligini shakllantirish masalasini zamonaviy pedagogika, psixolingvistika va madaniyatshunoslik kontekstida tahlil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ona tili — shaxsning jamiyatdagi ijtimoiylashuvi, milliy qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishi va madaniy meros bilan uzviy bog‘lanishining asosiy vositasi hisoblanadi. Shu bois, ona tilini o‘rganish jarayonida milliy o‘zlikni shakllantirish bosqichlarini aniqlash, ularning psixologik va pedagogik asoslarini ochib berish bugungi kunda ta’lim tizimida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqotda ona tilini o‘zlashtirishning bosqichma-bosqich jarayoni orqali shaxsda milliy o‘zlik qanday shakllanishi, til sezgirligi, til orqali milliy qadriyatlarni anglash va milliy ongni mustahkamlash mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi.

Ona tili va milliy o‘zlik o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, bu munosabat turli ilmiy yo‘nalishlarda – lingvistika, pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslikda keng tadqiq etilgan. Tilshunos olimlar ona tilining nafaqat kommunikativ, balki identifikatsion vazifasini ham alohida ta’kidlashadi.

Nizomiddin Mahmudov o‘zining *“Ona tili va milliy o‘zlik”* nomli asarida ona tilini millat ruhining ko‘zgusi sifatida talqin etib, tilni o‘rganish jarayoni orqali shaxsning milliy dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy xulqining shakllanish mexanizmlarini tahlil qilgan. [1:18–24]

Shuningdek, N.Karimov *“Til va tafakkur uyg‘unligi”* nomli tadqiqotida tilni o‘rganishning psixolingvistik xususiyatlarini ochib bergan. Muallif fikricha, bolalarda til sezgirligi dastlab idrok, so‘ngra fikrlash orqali milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi. [2:42–47].

M.Qosimova esa ona tili ta’limi orqali milliy o‘zlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan bo‘lib, u o‘quvchilarda tilga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalashning amaliy modellarini tavsiya etadi. Psixolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan, Vygotsky tilni shaxsning tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni milliy ong va identitetning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, S.Hall milliy identitetni tilda ifodalanadigan madaniy kodlar tizimi sifatida talqin etib, ona tilini ijtimoiy “men”ni anglash vositasi sifatida baholaydi.[3:45–48] Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ona tilini o‘rganish jarayoni — bu faqat grammatik yoki leksik bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki shaxsning milliy o‘zligini shakllantiruvchi murakkab psixolingvistik tizimdir. Ona tili ta’limi shaxsning milliy o‘zligini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Til orqali shaxs o‘z millatiga xos qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy identifikatsiyani o‘zlashtiradi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, *“til – tafakkurning ijtimoiy shaklidir, inson tafakkuri tildan tashqarida shakllanmaydi”*. [4:57] Shu bois, ona tilini o‘zlashtirish – bu nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik jarayondir.

Milliy o‘zlikning shakllanish mexanizmlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

1. Kognitiv-madaniy mexanizm – til orqali milliy bilimlar, qadriyatlar va madaniy ma’lumotlarning ongda mustahkamlanishi.
2. Emotsional-identifikatsion mexanizm – til birliklari orqali millatga mansublik tuyg‘usining shakllanishi.
3. Kommunikativ-ijtimoiy mexanizm – ona tili orqali shaxsning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini anglash jarayoni.
4. Aksiologik mexanizm – milliy qadriyatlarni til orqali qabul qilish va ularni shaxsiy e’tiqodga aylantirish.

A. G‘ulomov fikricha, *“ona tili ta’limi shaxs nutq madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda, milliy g‘urur va ma’naviy o‘zlikni mustahkamlovchi asosiy omildir”.* [5:24] Ona tili ta’limidagi milliy o‘zlikni shakllantirish mexanizmlari o‘qituvchi faoliyatining maqsadli, tizimli va ma’naviy yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi. Bu mexanizmlar

o‘quvchilarning tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy o‘zlik ifodasi sifatida anglashlariga zamin yaratadi.

Milliy o‘zlikning shakllanishi izchil bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo‘lib, u bolaning ona tilini o‘rganish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Psixolingvistik yondashuvga ko‘ra, shaxs o‘z tilining semantik tizimini o‘zlashtirar ekan, asta-sekin milliy tafakkur tizimiga kiradi.[6:93] Quyidagi uch bosqichni ajratish mumkin: Idrok bosqichi (3–7 yosh): bola ona tili orqali o‘z millatiga mansubligini his eta boshlaydi; milliy ramzlar, so‘zlar, ohanglar orqali “men kimman?” savoliga javob izlaydi. Aqliy o‘zlashtirish bosqichi (7–15 yosh): ona tili darslarida xalq og‘zaki ijodi, maqol, matallar orqali milliy qadriyatlar tushunchasi kengayadi; til bilan birga milliy tafakkur shakllanadi. Madaniy-identifikatsion bosqich (16 yosh va undan keyin): shaxs til orqali milliy o‘zligini ongli ravishda anglaydi, millatga daxldorlik, g‘urur va fuqarolik o‘zligini mustahkamlaydi.

R. S. Sodiqov o‘z tadqiqotlarida milliy o‘zlikni *“ijtimoiy xotira va madaniy kodni o‘zlashtirish jarayoni”* sifatida talqin etadi. Milliy o‘zlikni shakllantirishda ona tilining roli evolyutsion xarakterga ega — u idrokdan anglashga, anglashdan esa identifikatsiyaga o‘tadi. Shu bois ona tili ta’limi bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslangan holda tashkil etilishi zarur.

Bundan tashqari, milliy o‘zlikni shakllantirish – bu insonning o‘z tilini, tarixini, madaniyatini va jamiyatdagi o‘rnini ongli ravishda anglab borish jarayonidir. Bu jarayonning asosiy omili sifatida ona tili nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy tafakkur va o‘zlikni identifikatsiya qiluvchi psixolingvistik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Tilni o‘zlashtirish orqali shaxs o‘zini milliy-madaniy kontekstda qayta “yaratadi”, ya’ni til orqali millat a’zosi bo‘lish hissi shakllanadi. Shu jarayon uch bosqichda kechadi, ularning har biri o‘zining kognitiv, affektiv va aksiologik (qadriyatlarga oid) o‘ziga xos mexanizmlariga ega.

1-bosqich – til idroki bosqichi: bolaning milliy mansublikni sezish darajasi.

Bu bosqichda bola tilni fonetik va semantik darajada idrok etadi, ammo bu jarayonning chuqur ijtimoiy-psixologik mohiyati ham mavjud. Ona tili bolaning “men” konsepsiyasini shakllantiruvchi birinchi vositadir. Shu sababli bu bosqich “til orqali millatni sezish” davri deb ataladi. Bu bosqichda tilni o‘rganish nafaqat nutqni o‘zlashtirish, balki “milliy sezgirlik (lingvokultural sezgi)” ning shakllanishi bilan kechadi. Bola so‘zlarni faqat ma’nosiga ko‘ra emas, balki ularning madaniy konnotatsiyasini his qiladi. Masalan, “ona”, “Vatan”, “bayroq” kabi birliklar orqali milliy hissiyot uyg‘onadi.

O‘qituvchi bu bosqichda intonatsion va emotsional til elementlariga urg‘u berish orqali milliy tuyg‘uni uyg‘otadi. Ta’lim muhiti esa milliy ruhda boyitilgan, iliq, xavfsiz va ma’naviy kontekstli bo‘lishi zarur.

Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola nutqni o‘zlashtirar ekan, jamiyatning ijtimoiy tajribasini o‘z shaxsiyatiga singdiradi – bu jarayon milliy tafakkurning dastlabki qatlamidir.

2-bosqich – ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish bosqichi. Bu bosqichda shaxs tilni ma’no jihatidan chuqurroq o‘zlashtira boshlaydi. Til so‘zlari, iboralari va maqollar orqali jamiyatning aksiologik (qadriyatlar tizimi) modelini o‘zlashtiradi. Endi til faqat aloqa vositasi emas, balki ma’naviy tafakkurning kodlash tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichda shaxsning milliy o‘zligi semiotik identifikatsiya orqali shakllanadi, ya’ni til belgilarining ichki ma’no qatlamlarini o‘zlashtirish orqali milliy tafakkur modeli mustahkamlanadi. Bu bosqichni “madaniy ma’no shakllanish davri” deb ham atash mumkin.

Masalan, “el-yurt”, “or-nomus”, “mehmondo‘stlik” kabi tushunchalar bola ongida axloqiy-me’yoriy standart sifatida shakllanadi. Shaxs tilni o‘zlashtirish orqali o‘zining madaniy “men”ini quradi. O‘qituvchi bu bosqichda tilning ma’naviy qatlamini ochuvchi metodik vositalardan foydalanadi: xalq maqollari, milliy matnlar, afsona va ertaklar orqali qadriyatlarni kontekstual o‘rganish.

3-bosqich – madaniy va fuqarolik o‘zlikni anglash bosqichi. Bu bosqich shaxsning ona tilini to‘liq anglagan va uni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ongli qo‘llay oladigan bosqichidir. Endi til shaxsning ijtimoiy identitetini belgilovchi vositaga aylanadi. Til orqali shaxs nafaqat “men kimman?” savoliga, balki “men qaysi jamiyatning a’zosiman?”, “mening tarixim va madaniy javobgarligim nimada?” degan savollarga ham javob topadi.

Bu bosqichda milliy o‘zlik fuqarolik identiteti bilan uyg‘unlashadi. Ya’ni, tilni o‘zlashtirgan shaxs endilikda millat manfaatini anglovchi, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etuvchi subyektga aylanadi. Bu jihatdan ona tili shaxsni madaniy faollikka va ijtimoiy ishtirokga yo‘naltiruvchi psixokognitiv omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi bu bosqichda kritik fikrlash, milliy tarixni til kontekstida o‘rganish, ijodiy yozuv usullarini joriy etishi kerak. Ta’lim muhiti esa erkin fikr, ochiq muloqot va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda shakllanishi lozim.

Har bir bosqichning muvaffaqiyati o‘qituvchining psixolingvistik sezgirligi, ya’ni til o‘rganish jarayonini shaxs rivojlanish darajasi bilan uyg‘unlashtira olish qobiliyatiga bog‘liq. Birinchi bosqichda – o‘qituvchi hissiy idrokni qo‘llab-quvvatlaydi.Ikkinchi bosqichda – u qadriyatlarni kontekstual ifodalashga o‘rgatadi. Uchinchi bosqichda – o‘qituvchi tilni fuqarolik ongini shakllantiruvchi vosita sifatida taqdim etadi. Ta’lim muhiti esa faqat o‘quv joyi emas, balki milliy tafakkur laboratoriyasiga aylanishi lozim.

Ona tilini o‘rganish – bu milliy o‘zlikni izchil shakllantirish jarayonidir. Tilning idrok, qadriyat va fuqarolik bosqichlari bir-biri bilan

genetik bog‘langan tizim bo‘lib, shaxsni milliy ongli mavjudotga aylantiradi. Bu yondashuv til ta’limi metodikasida “identitetga yo‘naltirilgan model” yoki ona tili darslarida milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar yaratish zaruratini ko‘rsatadi. Quyida ayrim tavsiya etilgan metodlarni ko‘rib chiqamiz.

Ona tili ta’limi — bu shunchaki til birliklarini o‘rgatish emas, balki milliy tafakkur, qadriyatlar va o‘zlikni shakllantirish tizimidir. Har bir metod o‘quvchini nafaqat lingvistik kompetensiyaga, balki milliy-madaniy identitetga ega shaxs sifatida rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

1. Milliy matnlar, maqollar va xalq og‘zaki ijodi namunalari asosidagi metod

Bu metodning ilmiy asosi lingvokulturologik yondashuv bo‘lib, tilni madaniyat va xalq ruhining ifodasi sifatida ko‘radi.Milliy matnlar, dostonlar, ertaklar, maqollar va topishmoqlar orqali shaxs ona tili orqali milliy ma’naviy kodni o‘zlashtiradi. Masalan, “Alpomish” dostonidagi vatanparvarlik, “Go‘ro‘g‘li”dagi or-nomus va jasorat, xalq maqollaridagi hayotiy donoliklar o‘quvchida milliy o‘zlikni anglash hissini uyg‘otadi.

Bu metodni zamonaviy tilshunoslikda “semantik rezonans metodi” deb atash mumkin. Chunki o‘quvchi matn mazmunini faqat o‘qimaydi, balki u orqali milliy hissiy rezonansni boshdan kechiradi – bu esa psixolingvistik identifikatsiyaning asosiy bosqichidir.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (person-centered approach)ning mohiyati – o‘quvchini milliy madaniyatni subyektiv tarzda anglaydigan faol ishtirokchiga aylantirishdir. Bu yondashuvda o‘qituvchi tayyor bilimni emas, milliy mazmunni shaxsiy tajriba orqali kashf ettiradi. Masalan, o‘quvchilarga o‘z mahallasidagi toponimlar yoki oila qadriyatlariga oid so‘zlarni tahlil ettirish, milliy iboralarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatish orqali o‘zlikni anglashni individuallashtirish mumkin.

Bu texnologiya doirasida “milliy refleksiya metodi”ni taklif etish mumkin. Unda o‘quvchi til orqali o‘zining milliy shaxsiyati haqida fikr yuritadi, tilni o‘zi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy tajriba vositasi sifatida ko‘radi.

3. Milliy qadriyatga asoslangan kommunikativ yondashuv. Kommunikativ yondashuv tilni amaliy muloqot vositasi sifatida o‘rgatadi. Ammo milliy qadriyatga asoslangan kommunikativ yondashuvda diqqat markazida nafaqat til, balki madaniyatli muloqotning milliy modeli turadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga muloqotda o‘zbek millatiga xos muomala, hurmat, ehtirom, muloyimlik, kinoya, kinoya bilan so‘zlash madaniyatini o‘rgatadi. Masalan, “Yo‘q demay, aytingchi...” kabi ifodalar tilning madaniyatli muloqot kodlarini o‘zida mujassam etadi.

Bu yondashuv orqali o‘quvchilar “lingvokulturniy kompetensiya”ni egallaydi, ya’ni tilni nafaqat grammatik, balki axloqiy-madaniy tizim

sifatida o‘zlashtiradi. Shuningdek, o‘quvchi tildagi milliy etik normalarni ichki me’yor sifatida qabul qiladi.

Zamonaviy ta’lim vositalari — multimedia, integrativ metodlar, interaktiv platformalar — milliy o‘zlikni shakllantirishda yangi imkoniyatlarni ochadi. Ular o‘quvchiga tilni faqat o‘qish emas, balki ko‘rish, eshitish, his qilish orqali o‘zlashtirish imkonini beradi.

1.Multimedia texnologiyalari yordamida milliy matnlar, qo‘shiqlar, teatr parchalari, tarixiy filmlar orqali tilni his qilish tajribasi shakllanadi. Bunda o‘quvchi tildagi milliy estetikani ko‘rish va eshitish orqali o‘zlashtiradi.

Multimedia vositalari asosida “krossmodal o‘zlik shakllanishi” tushunchasini joriy etish mumkin. Bu holatda o‘quvchi milliy obrazlarni nafaqat so‘z orqali, balki ko‘p sezgi (multisensor) tajriba orqali anglaydi. Bu esa milliy o‘zlikni chuqurroq hissiy darajada mustahkamlaydi.

2. Integrativ metodlar orqali milliy o‘zlikni mustahkamlash Integrativ yondashuvda ona tili darslari tarix, adabiyot, musiqa, san’at bilan uzviy bog‘lanadi. Bunda o‘quvchi milliy madaniyatning yaxlit manzarasini hosil qiladi. Masalan, o‘zbek adabiyoti darslarida tilning badiiy obrazlarini tarixiy kontekstda tahlil qilish, xalq kuylarining matnidagi milliy ramzlarni o‘rganish orqali til–madaniyat–tarix sintezi yuz beradi.

Bu metodni “intermadaniy sintez modeli” sifatida tavsiflash mumkin. U o‘quvchiga tilni madaniy tizimlararo ko‘prik sifatida ko‘rish imkonini beradi, bu esa global davrda milliy o‘zlikni saqlashning innovatsion yo‘lidir.

Ona tili ta’limi orqali milliy o‘zlikni shakllantirishning samaradorligi o‘quvchi tafakkurida tilni milliy ongning tirik tizimi sifatida idrok etishiga bog‘liq. Shuning uchun dars jarayonida milliy matnlar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanilishi zarur. Bu yondashuv o‘quvchida nafaqat til kompetensiyasi, balki milliy-madaniy identitetni ham barqaror shakllantiradi.

Mazkur metodlar o‘quvchida til orqali milliy tafakkur, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyatini uyg‘otuvchi pedagogik mexanizmlarni shakllantiradi. Ular orqali o‘quvchi tilni nafaqat grammatik tizim, balki millatning madaniy kodlari mujassam bo‘lgan ijtimoiy tizim sifatida anglay boshlaydi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona tili ta’limi jarayonida o‘qituvchi milliy identitetni shakllantiruvchi asosiy vositachi sifatida faol rol o‘ynaydi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki milliy qadriyatlarni shaxsiy namuna orqali singdiruvchi madaniy agentga aylanadi.

Natijada, ona tili ta’limi: milliy tafakkurni shakllantiradi; shaxsning madaniy-milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi; milliy birlik va ma’naviy barqarorlikning psixopedagogik poydevorini yaratadi.

Shu tariqa, ona tilini o‘rganish jarayonida milliy o‘zlikni shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va madaniy integrativ jarayon ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta’lim siyosatida milliy ongni mustahkamlovchi pedagogik model sifatida keng joriy etilishi zarur.

Ona tilini o‘rganish — bu nafaqat bilim jarayoni, balki milliy ongning uyg‘onish jarayonidir. Har bir dars, har bir so‘z orqali shaxs o‘z millatini, o‘z tarixini, o‘zligini kashf etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov, N. (2020). *Ona tili va milliy o‘zlik.* Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (s. 18–24)
2. Karimov, N. (2018). *Til va tafakkur uyg‘unligi.* Toshkent: Fan nashriyoti. (s. 42–47)
3. Hall, S. (1996). *Questions of cultural identity.* London: Sage Publications. (p. 45–48)
4. Vygotsky, L. S. (1982). *Myshlenie i rech’ (Thought and Language)* (pp. 55–60). Moskva: Pedagogika.
5. G‘ulomov, A. (2016). *O‘zbek tili o‘qitish metodikasi* (pp. 23–28). Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Luriya, A. R. (1974). *Language and Cognition* (pp. 90–98). New York: Wiley.
7. Elboyeva, M. (2022). Adabiyot ta’limida texnologik yondashuvning metodik xususiyatlari. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 4(2), 160–165.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЯЗЫКОВОЙ СИТУАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ МУЛЬТИКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕСТВА И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Ш.Абдуллаев,
Научно-исследовательский институт культуроведения и нематериального культурного наследия при Министерстве культуры Республики Узбекистан

Аннотация: В статье приводятся сведения о нынешней этно-демографической и лингво-социальной ситуации в многонациональном Узбекистане, приводятся выдержки из законодательной актов и принятых недавно директивных документов, вкратце анализируется языковая политика в стране, затрагиваются некоторые злободневные проблемы культуры, науки, образования. Рассмотрение вопросов защиты, пропаганды и использования нематериального культурного наследия с лингвистической точки зрения раскрывает целые пласты проблем социального, экономического, политического и иного характера.

Ключевые слова: демография, социолингвистика, языковая политика, нация, толерантность, нематериальное культурное наследие, образование

«Язык – великое наследие для всех поколений, он, как и земля, неделимый фонд у народа в прошлом, в настоящем и в самом отдаленном будущем. Засорять его, обеднять – значит обкрадывать не только самих себя, но и тех, кто придет нам на смену.» Эти слова, сказанные известным прозаиком и журналистом Михаилом Николаевичем Алексеевым, наиболее четко отражают суть этого явления и необходимость его всяческой защиты. Они касаются всех народов и периодов истории, но наибольшую актуальность приобретают в нынешнее время глобализации и развития интеграционных процессов, и в особенности – для стран и народов, приобретших или восстановивших государственность в недалеком прошлом. По сути, именно язык в свое время был основным фактором в территориальном размежевании, что в конечном итоге привело к известным изменениям политической карты. Естественно, язык касается всех сторон жизни общества и государства. Следует особо отметить, что также в плане нематериального культурного наследия это самая важная субстанция, так как все его области зиждутся на языке, который является носителем, средством или орудием для их проявления. В этой связи защита, пропаганда и использование всех больших и малых языков являются весьма актуальными. Конечно, по этой проблематике существует большое количество литературы и стоит масса вопросов, ожидающих своего решения. При всей схожести картины, каждая страна имеет специфику ситуации и особенности в подходах. Цель доклада состоит в представлении нынешней ситуации по данному вопросу в Узбекистане и рассмотрении подходов к решению наиболее злободневных проблем в этом направлении.

Прежде чем начать рассматривать соответствующие вопросы, представляется целесообразным привести статистические данные о национальном составе населения Узбекистана. Так, по последним данным Госкомстата, число постоянно проживающего в стране населения – 35,8 миллионов человек и процентное соотношение этнического состава таково:

узбеки	84,4
таджики	4,9
казахи	2,4
каракалпаки	2,2
русские	2,1
кыргызы	0,8
туркмены	0,6
поволжские татары	0,5
корейцы	0,5
украинцы	0,2
азербайджанцы	0,1
белорусы	0,1
и другие	1,2

Если требуется еще большая детализация, то в графе «и другие» учтено около полумиллиона населения, состоящего из представителей уйгуров, крымских татар, башкир, дунган, евреев бухарских и ашкенази, кавказцев, арабов, турков, иранцев, прибалтийцев, в общей сложности около 120 наций. Также важно подчеркнуть, что в Узбекистане автохтонность какого-либо этнического или конфессионального сообщества ни в коей мере не подвергается сомнению и реализации лозунга «Туркестан – наш общий дом» придается особое внимание.

Далее будет дана общая характеристика-разъяснение приведенным данным, описание общих моментов, связанных с поддержкой культуры и языка нетитульных наций, и еще более подробный обзор положения дел касательно пяти национальностей, возглавляющих таблицу. Возможно, небезынтересно будет отдельно рассмотреть ситуацию с русским и таджикским языками, и уж, конечно, требует особого анализа целый спектр проблем с государственным (узбекским) языком. Наверное, придется кое-где затрагивать и использование иностранных языков, как западных, так и восточных, в быту, бизнесе, религиозных церемониях-ритуалах и т.д. Все это даст возможность понять, насколько защищены языки в стране, продвигаются и используются они как носители нематериального культурного наследия всех этносов в Узбекистане.

Итак, несмотря на утверждение, что в Узбекистане проживают представители более чем 130 национальностей, по лингвистическому составу население состоит всего из нескольких групп, это – тюркоязычные, ираноязычные, русскоязычные и «иноязычные».

Последние представляют собой более-менее компактно проживающие сообщества носителей местных вариантов арабского, китайского, корейского, немецкого и других языков, а также немногочисленные представители северокавказских, дальневосточных, сибирских, прибалтийских, балканских, финно-угорских и других народов.

При том, что русскоязычность предполагает в первую очередь русскость, в нашем случае это не обязательный критерий, носителями русского языка как родного в нынешних условиях Узбекистана фактически могут быть представители всех национальностей, включая титульной. Естественно, здесь речь идет преимущественно о славянах (русских, украинцах, белорусах), но к этой категории относятся также и корейцы, немцы, греки, евреи, некоторые армяне и другие, которые считают русский своим основным языком. Такое же происходит и с частью узбеков.

Ираноязычными в Узбекистане считаются таджики, бухарские евреи, местные цыгане (люли), курды, персы, памирцы, часть

местных арабов и др. Примечательно, что, как и таджики, весьма внушительная часть узбеков являются билингвами, даже трилингвами, и считают таджикский родным. Но не следует прибавлять сюда шиитов-ирани, родной язык которых узбекский.

Кроме таджиков, славян, корейцев и дунган, все местные этносы тюркоязычны, это – узбеки, каракалпаки, казахи, кыргызы, туркмены, уйгуры, ирани, а также татары, турки, азербайджанцы, башкиры, караимы, гагаузы и др. Языки всех этих народов взаимопонимаемы и в какой-то мере в диалектальны. Особенно взаимно-проникновенными являются узбекский и уйгурский языки, относящиеся к единой карлукской подгруппе. В силу общности культуры, быта и других сторон жизни это приводит к частичной ассимиляции узбеков в Восточном Туркестане и уйгуров здесь.

Говоря об этом многообразии и мульти-культурности, нельзя не отметить институциональные и законодательные основы этого в узбекском обществе. Изначально толерантная национальная политика страны была направлена на отказ от старых догм и внедрение в сознание людей идей духовного обновления общества. Данные принципы были заложены и в Конституцию Республики Узбекистан.

Снятию напряженности в жизни народов Узбекистана в свое время способствовало поэтапное выполнение Закона «О Государственном языке», принятого в 1989 году, который обеспечивал уважительное отношение к языкам всех наций и народностей, проживающих в Узбекистане, что создавало условия для их развития. Весьма положительным было то, что в претворении в жизнь языковой программы государственная власть не проявляла спешки, учитывая многонациональность народа Узбекистана, где бок о бок проживали и проживают представители более 130 этносов. Для достижения этой важной цели на государственном уровне была принята специальная программа по расширению сферы влияния узбекского языка. В соответствии с ней была создана широкая сеть бесплатных курсов по изучению государственного языка не владеющими им, усилилось внимание к его преподаванию в учебных заведениях, увеличились публикации учебников, словарей, разнообразной литературы на узбекском языке. В языковой политике строго соблюдался и соблюдается принцип равноправия представителей всех наций и народностей страны, закрепленный в Конституции Республики Узбекистан.

Большое значение для межнационального согласия в стране имел также Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» (в новой редакции), утвержденный парламентом 21 декабря 1995 году, в котором, наряду с государственным языком значительно расширилось право использования русского и других языков

национальных меньшинств во всех сферах жизни. «В Республике Узбекистан, – указано в статье 24 данного закона, – запрещается пренебрежительное или враждебное отношение к государственному или другим языкам. Лица, препятствующие осуществлению прав граждан на свободный выбор языка в общении, воспитании и обучении, несут ответственность в соответствии с законодательством». Именно такое широкомасштабное осуществление закона позволяло решать языковую проблему, не ущемляя не чьих интересов.

Важным показателем эффективности этнической и языковой политики Республики Узбекистан, направленным на межнациональное согласие в обществе, является функционирование системы образования на 7 языках – на узбекском, каракалпакском, русском, казахском, таджикском, кыргызском, туркменском. Во всех вузах Узбекистана обучение осуществляется на узбекском и русском языках, а в Республике Каракалпакстан – на каракалпакском, узбекском и русском языках. Кроме того, во многих вузах есть отделения и группы с обучением на языках коренных этносов Узбекистана: на казахском, таджикском, туркменском.

Весомый вклад в формирование многоязычия вносит развитие печатных изданий, газет и журналов на 12 языках. Осуществляется также теле- и радиопередачи на узбекском, русском, казахском, таджикском, киргизском, туркменском и других языках.

В стране также уделяется серьезное внимание изучению иностранных языков. Функционируют лицеи с углубленным изучением английского, немецкого, корейского, китайского, японского, арабского, персидского, иврита и других языков, различные курсы, филиалы иностранных университетов.

Следует особо отметить, что в современной общественно-политической и культурной жизни республики немаловажное место занимает русский язык, который никогда не воспринимался в Узбекистане как иностранный, а как язык-посредник в мире и как язык-носитель научно-технической и иной информации, поэтому ему уделяется особое внимание.

В Узбекистане с первых дней независимости одним из приоритетов государственной политики стало создание для всех проживающих в республике наций и народностей максимально благоприятных условий для возрождения и сохранения традиционного культурного наследия. Важным шагом в этом направлении стал Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами» от 19 мая 2017 года. «Одним из важнейших приоритетов государственной политики

Узбекистана, – отмечается в Указе, – является развитие культуры толерантности и гуманизма, укрепление межнационального, межконфессионального и гражданского согласия в обществе, а также укрепление дружеских, равноправных и взаимовыгодных отношений с зарубежными странами.». Сегодня в Узбекистане проживают представители более 130 наций и народностей, действуют около 140 национальных культурных центров. Они создаются независимо от численности диаспоры. Создание культурных центров малочисленных народов способствует процессу активизации различных социальных слоев и усилению тенденции движения за возрождение и сохранение языка, этнокультурных традиций и самобытности.

Возвращаясь к юридической базе, регламентирующей деятельность в области государственной языковой политики, следует отметить Указы Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 г. и «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 г. Как понятно из названий, они нацелены на кардинальное повышение авторитета узбекского языка в общественной жизни страны и на международной арене, воспитание подрастающего поколения в духе патриотизма, преданности национальным традициям и ценностям, обеспечение полноценного внедрения государственного языка в стране, сохранение и развитие языков наций и народностей, проживающих в Узбекистане, создания условий для изучения узбекского языка в качестве государственного языка, определения стратегических целей, приоритетных направлений и задач, перспективных этапов развития узбекского языка и языковой политики. В них отмечается, что сегодня Узбекистан поднимается на новый, более высокий этап своего развития на основе главного принципа «От национального возрождения к национальному прогрессу». В процессе осуществления в стране широкомасштабных реформ все более возрастает роль и авторитет государственного языка в нашей жизни. Активно применяемый в политико-правовой, социально-экономической, духовно-просветительской сферах сегодня узбекский язык все громко звучит с международных трибун. Усиливается внимание и интерес к изучению нашего языка в зарубежных странах. Является естественным, что в нынешний период глобализации каждый народ, каждое независимое государство придает приоритетное значение обеспечению своих национальных интересов, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, исконных ценностей, родного языка.

Так, в соответствии с Указами были утверждены Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020 – 2030 гг., Программа реализации Концепции в 2020 – 2022 годах, Основные направления развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020 – 2030 годах, создан Департамент по развитию государственного языка при Кабинете Министров Республики Узбекистан. Один из параграфов Концепции называется «Создание широких и равных возможностей для развития языков всех наций и национальностей, проживающих на территории нашей страны, а также благоприятных условий для изучения ими государственного языка».

Как видно из вышесказанного, в стране делаются большие усилия для развития как государственного языка, так и языков других этносов. При этом, как уже отмечалось, связь между этносами и языками может быть несколько условной. Это мнение можно подтвердить путем анализа языковой ситуации титульной нации. Во-первых, при наличии исторически сформировавшегося литературного узбекского языка, существует масса диалектов, носители которых порой не понимают друг друга. Это связано с тем, что узбекские диалекты подразделяются на несколько подгрупп – карлукскую, кыпчакскую и огузскую. Литературный же язык, вобравший элементы всех этих подгрупп, является более-менее общим, универсальным для всех, причем не только для узбеков, поскольку остальные тюркские языки относятся только одной из указанных подгрупп наподобие диалектов узбекского языка. Так, например, хорезмский говор похож на туркменский, азербайджанский или турецкий языки, тогда как некоторые другие диалекты практически неотличимы от каракалпакского, казахского или ногайского языков. Ферганские же узбеки во многом сродни с уйгурами, как уже было отмечено. Это что касается диалектных факторов. Но есть еще распространенный феномен узбекско-таджикского симбиоза и билингвизма на значительной территории как Узбекистана, так и Таджикистана, Афганистана, части Кыргызстана на Ферганской долине. Также и в литературном языке очень много иранизмов и арабизмов. Можно наблюдать, что, будучи тюрками, некоторые узбеки русифицированы, а для какой-то их части родной язык – таджикский. Также следует учитывать тот факт, что этногенез узбеков и таджиков происходил на одном и том же согдийском, ферганском и бактрийском субстратах, а до тюркизации хорезмский язык тоже был восточноиранским. Впоследствии и таджикский язык подвергся сильному узбекскому влиянию.

Вместе с тем следует отметить, что ареал расселения узбеков выходит далеко за границы Узбекистана и этот этнос является

автохтонным по всей Центральной Азии, включая север Афганистана, где узбекский язык имеет официальный статус, и Синьцзян. В этой связи возникают проблемы, связанные с самоидентификацией узбеков и единством этой нации. Говоря конкретней, в первую очередь это – проблема разных алфавитов. Ведь в Афганистане и Пакистане узбекский язык на арабском письме, в Синьцзяне тоже, хотя это лишь с виду арабская вязь, а на самом деле оно есть какой-то суррогат. На ближнем зарубежье используется кириллица, да и в самой стране кириллица никак не уступит латинице, поскольку по непонятным причинам узбекский алфавит на латинской основе за этот 30-летний период не может полностью сформироваться. Дело в том, что процесс изначально был политизирован, в угоду чьих-то интересов избегалось от унификации алфавитов тюркских языков, в результате чего и возник ныне официально существующий узбекский алфавит на основе латиницы. В итоге получился этот суррогатный вариант, не соответствующий фонетическим нормам, грубо искажающий логику и саму суть узбекского языка, тем самым создающий трудности изучения языка не только иностранцам, но и самим узбекам, существенно отличающийся от жизнеспособных алфавитов турецкого и азербайджанского, противоречащий с современными и бывшими алфавитами на кириллице, арабском письме, латинице 20-30-х годов прошлого века. Следует отметить, что наряду с приведенными выше указами и постановлениями за последние годы были приняты соответствующие директивные документы по пересмотру и реформированию алфавита, проведены исследования, семинары, научные конференции, всенародные обсуждения, разработаны несколько новых вариантов, но результат не тот… А между тем решение проблемы лежит прямо на поверхности, не стоит «изобретать велосипед», да еще и с квадратными колесами, а необходимо отказаться от политических ложных амбиций, исходить из истинно национальных интересов, осознать не-уникальность узбекского языка и подвести его алфавит на общетюркскую основу. В ходе упомянутого всенародного обсуждения были представлены несколько дельных предложений и вариантов реформирования алфавита, принятие которых повысил бы узбекский язык на более качественный уровень, сделав его унифицированным, универсальным, привлекательным, понятным, легко-изучаемым. Остается надеяться, что разум, логика и национальное сознание восторжествуют и основа основ культуры 40-миллионной нации будет упрочена вопреки всем натискам недружеских лингвополитических лобби.

Особенно за последнее время в системе образования, в частности школьного и дошкольного, допускаются плюралистические

подходы –возникают частные образовательные учреждения, в том числе на основе зарубежных стандартов, расширяется сеть президентских школ, растет интерес к изучению иностранных языков, в этнических и конфессиональных сообществах ведется определенная образовательно-воспитательная работа с подрастающим поколением. Отношение общества к этим процессам неоднозначное, целесообразность такого расслоения сызмальства у многих вызывает сомнение. Между всяких подобных вольнодумств и экспериментов встречают и предложения, достойные рассмотрения и внедрения. Это касается того, что они призывают к установлению действенного тщательного контроля за образовательными процессами в плане их форм и содержаний во всех без исключения учреждениях вне зависимости от их принадлежности.

В нынешнее время глобализации и проникновения массовой культуры основным долгом общества перед подрастающим поколением является целенаправленное воспитание их в духе патриотизма и гуманизма, привить им всех национальных ценностей, уважения к традициям, бережного отношения к нематериальному культурному наследию, не допустить их потери для страны. С этой целью все это должно быть заложено в образовательных программах и стандартах всех ступеней и форм обучения. Для это надо выработать четкие целенаправленные подходы. Одним из них может стать постепенный переход к двух- или трехъязычному обучению в школах. Имеется в виду разумное и взвешенное распределение предметов на обучение их на узбекском, русском и, скажем, таджикском, языках. Примеров такого подхода к образованию в мультикультурных обществах существует достаточно. Как уже отмечалось, фактически во многих регионах Узбекистана наблюдается двуязычие и применение приведенного подхода лишь зафиксирует статус-кво и поможет молодым гражданам приобщиться к смежной культуре и стать патриотами еще больше. Конечно, о преимуществах или недостатках такой системы можно спорить и дискутировать сколь угодно долго.

Как видно из всего этого, рассмотрение с лингвистической точки зрения вопросов защиты, пропаганды и использования нематериального культурного наследия раскрывает целые пласты проблем социального, экономического, политического и иного характера.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Муртазаева, Р.Х. Узбекистан – уникальный край межнационального согласия и толерантности / Узбекистан – страна

мира и согласия: Сборник материалов конференции. Ташкент: Узбекистан, 2017. – 343 с.

2. Иноятова, Д. М. Языковая политика в современном Узбекистане. Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Журнал «Наука, техника и образование», № 9 (50), 2018. – 47-49 с.

3. Назаров, Р. Р. Этническая политика в полиэтническом социуме (на примере Узбекистана). http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/32345/1/klo_2015_198.pdf/.

4. Саруханян Ю. Языковой баланс в Узбекистане: приемлемый статус-кво. cabar.asia/ru/yazykovoj-balans-v-uzbekistane-priemlemyj-status-kvo.

5. Конституция Республики Узбекистан. Газета «Народное слово» от 15.12.1992 г., № 247 (438); Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1994 г., № 1, ст. 5; Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2003 г., № 3-4, ст. 27; Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2011 г., №12/1, ст. 343; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2007 г., № 15, ст. 152; 2008 г., № 52, ст. 510; 2011 г., № 16, ст. 159; 2014 г., № 16, ст. 176; 2017 г., № 14, ст. 213, № 22, ст. 406, № 35, ст. 914; Национальная база данных законодательства, 16.10.2018 г., № 03/18/498/2051; Ведомости палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2019 г., № 2, ст. 47, Национальная база данных законодательства, 06.03.2019 г., № 03/19/527/2706, 05.09.2019 г., № 03/19/563/3685; 09.02.2021 г., № 03/21/670/0089, 09.02.2021 г., № 03/21/671/0093

6. Закон Республики Узбекистан «О государственном языке Республики Узбекистан». Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1995 г., № 12, ст. 257; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 51, ст. 514; 2010 г., № 37, ст. 313; 2011 г., № 41, ст. 449; 2017 г., № 37, ст. 978; Национальная база данных законодательства, 04.12.2020 г., № 03/20/653/1592).

7. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» № УП-6084 от 20 октября 2020 г., Национальная база данных законодательства, 21.10.2020 г., № 06/20/6084/1398.

SO‘Z YASALISHGA KOGNITIV VA SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUVLAR

Mamurova Shaxlo Sultanovna,
Qo‘qon universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada so‘z yasalishga kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar tahlil qilingan. Kognitiv yondashuv so‘zlovchi ongida yangi birliklarning konseptualizatsiya va kategoriyalash jarayonlari orqali shakllanishini yoritadi. Sotsiolingvistik yondashuv esa ijtimoiy guruhlar, yosh, kasb va madaniy qadriyatlarning yangi so‘z shakllarining ommalashuvi va normaga aylanishiga ta’sirini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi leksemalarning tez o‘zlashtirilishi ularning kognitiv qulayligi va ijtimoiy prestiji bilan chambarchas bog‘liq.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalish, kognitiv yondashuv, sotsiolingvistika, metafora, metonimiya, analogiya, ijtimoiy omillar

Annotation: This article examines cognitive and sociolinguistic approaches to word-formation. The cognitive approach highlights how new linguistic units are formed in the speaker’s mind through processes of conceptualization and categorization. The sociolinguistic approach demonstrates the influence of social groups, age, profession, and cultural values on the dissemination and standardization of new words. The findings show that the rapid adoption of neologisms is closely connected to their cognitive accessibility and social prestige.

Keywords: word-formation, cognitive approach, sociolinguistics, metaphor, metonymy, analogy, social factors

So‘z yasalish jarayoni til tizimining eng muhim mexanizmlaridan biridir. Tilshunoslikda bu jarayon nafaqat yangi lingvistik birliklarni yaratish vositasi, balki inson tafakkuridagi konseptual strukturalarning shakllanishini ham ifodalaydi. So‘z yasalishi natijasida tilning lug‘aviy boyligi ortib boradi, mavjud birliklarning semantik chegaralari kengayadi va yangi kommunikativ ehtiyojlarni qondirish imkoniyati yuzaga keladi [14:89]. Kognitiv nuqtayi nazardan, so‘zlovchilar yangi leksemalarni qabul qilish va ongda qayta ishlashda ma’lum psixolingvistik hamda kognitiv mexanizmlarga tayanadilar. Bu jarayonda inson tafakkuri mavjud konseptual maydonlarni faollashtiradi, analogiya, metafora va assotsiatsiya kabi mexanizmlar orqali yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtiradi [13:28].

So‘z yasalish til tizimining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Tilning lug‘aviy boyligi, yangi birliklarning paydo bo‘lishi hamda jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarini qondirishda so‘z yasalish jarayoni hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tilshunoslikda bu hodisaga turli ta’riflar berilgan. Masalan, Rasulov so‘z yasalishni mavjud so‘z shakllaridan

grammatik vositalar yordamida yangi so‘z hosil qilish jarayoni sifatida izohlaydi [14:91]. Rahmatullayev esa uni lug‘aviy boylikni oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri deb bilib, semantik kengayish va ko‘chma ma’no hosil qilish bilan chambarchas bog‘liq jarayon sifatida ko‘rsatadi [13:212]. Bozorov zamonaviy o‘zbek tilidagi so‘z yasalishni ijtimoiy ehtiyoj natijasida yuzaga keladigan faol jarayon sifatida ta’kidlaydi [1:287]. Ilmiy ta’riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, so‘z yasalish – bu mavjud til birliklaridan fonetik, morfologik va semantik vositalar yordamida yangi leksemalar yaratish jarayonidir. Bu jarayon natijasida til lug‘ati boyiydi, yangi tushunchalar ifodalash imkoniyati paydo bo‘ladi va til jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga moslashadi. So‘z yasalishning asosiy turlari sifatida affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartirish va semantik kengayish ko‘rsatiladi. Affiksatsiya – qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilishdir (*o‘qituvchi, haydovchi*). Kompozitsiya ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilishidan yuzaga keladi (*kitobxona, o‘qishxona*). Qisqartirishda esa so‘z qismlaridan yangi birlik hosil qilinadi (*O‘zMU, SamDU*). Semantik kengayish esa mavjud so‘zning yangi ma’noda ishlatilishi bilan belgilanadi. Masalan, “oyoq” so‘zi bir vaqtning o‘zida inson a’zosi va stolning tayanch qismi ma’nosini anglatadi. So‘z yasalish jarayonida kognitiv mexanizmlar va sotsiolingvistik omillar o‘zaro uzviy bog‘langan. Kognitiv yondashuv bu jarayonning ongdagi konseptualizatsiya va kategoriyalash bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa, sotsiolingvistik yondashuv yangi birliklarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi va normaga aylanishini tushuntiradi. Shu bois, so‘z yasalishni til tizimining dinamik va ijodiy hodisasi sifatida ko‘rib chiqish zarur. Sotsiolingvistik yondashuv esa so‘z yasash jarayonining ijtimoiy qatlamini ochib beradi. Til jamiyat hayotidan ajralmaganligi sababli, unda yuz beradigan yangiliklar ham ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, yoshlar nutqida so‘z yasashning qisqartma shakllaridan keng foydalanilishi, kasbiy guruhlarda esa terminologik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi [11:221]. Shu bois, so‘z yasashni faqat lingvistik tizim doirasida emas, balki kognitiv va ijtimoiy kontekstlarda ham tahlil qilish zarur. Bu yondashuv bir tomondan so‘zlovchi ongida yangi birliklarni qayta ishlash jarayonini ochib bersa, ikkinchi tomondan jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning til taraqqiyotiga ta’sirini namoyon etadi. Demak, mazkur maqolada so‘z yasashning kognitiv va sotsiolingvistik jihatlari birgalikda o‘rganilishi ko‘zda tutiladi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan, so‘z yasash jarayoni inson tafakkurida kechadigan konseptualizatsiya va kategoriyalash jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Yangi so‘zlar yaratilganda, avvalo, mavjud bilimlar tizimi va konseptual strukturalar faollashadi. So‘zlovchi ongida yangi birlik semantik jihatdan ma’lum kategoriya bilan taqqoslanadi va shu

asosda yangi ma’no hosil bo‘ladi. Bu jarayonda bir necha mexanizmlar muhim rol o‘ynaydi:

Metaforik kengayish: metafora – bir sohadagi tushuncha boshqa soha hodisalarini ifodalashga ko‘chirilishi orqali yangi ma’no hosil bo‘lishi. Bu jarayon tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi va yangicha so‘z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Masalan, “virus” dastlab biologik organizmlarda kasallik keltirib chiqaruvchi hodisani anglatgan bo‘lsa, keyinchalik axborot texnologiyalari sohasiga ko‘chib, “kompyuter dasturlariga zarar yetkazuvchi kod” ma’nosini oldi. O‘zbek tilida “qalqon” so‘zi tarixan jangovar qurol bo‘lgan bo‘lsa, metaforik kengayish orqali “himoya vositasi” (masalan, “immunitet qalqoni”) tarzida ishlatilmoqda. “Yo‘l” so‘zi ham metaforik kengayish asosida “hayot yo‘li”, “ilm yo‘li”, “ezgulik yo‘li” kabi ma’nolarda qo‘llanadi [13:186]. Bu jarayon til taraqqiyotida doimiy bo‘lib, yangi konseptual maydonlarni hosil qiladi. Shuningdek, metafora inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida ham izohlanadi, chunki u mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali tushunishga yordam beradi.

Metonimik almashuv: metonimiya – predmet yoki hodisaning nomidan uning vazifasi, belgisi yoki bog‘liq jihati ifodalanishi. Metaforadan farqli ravishda, metonimiyada yaqinlik yoki qo‘shnichilik munosabati mavjud bo‘ladi. Masalan, “qalam” so‘zi vosita nomi sifatida qo‘llanishi bilan birga, “yozuv” faoliyatining o‘zi bilan bog‘lanib, “qalam tutmoq” birikmasida “yozish” ma’nosini bildiradi [11:150]

- “Oyoq” so‘zi nafaqat inson yoki hayvon a’zosi, balki stol, kursi kabi predmetlarning tayanch qismi uchun ham ishlatiladi.
- “Oq uy” iborasi esa real bino emas, balki hokimiyatning o‘zi uchun ishlatiladi.
- O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “qo‘l” so‘zi ko‘pincha “kuch, yordam” ma’nosini bildiradi (“qo‘l cho‘zmoq” – yordam bermoq).

Demak, metonimik almashuv tilning iqtisodiyligi va ifodalilik darajasini oshiradi. U lug‘aviy boylikni kengaytirish bilan birga, ma’nolarning ko‘p qatlamliligini ham shakllantiradi.

Analogiya asosidagi yasash: analogiya – til tizimida mavjud bo‘lgan model asosida yangi birliklar yaratish jarayoni. Bu mexanizm morfologiyada ayniqsa faol bo‘lib, qo‘shimchalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, ingliz tilidagi -er qo‘shimchasi yordamida yasalganga o‘xshash ravishda, o‘zbek tilida ham faol ravishda -chi, -uvchi qo‘shimchalari ishlatiladi: “haydovchi”, “yozuvchi”, “o‘rgatuvchi”. Shuningdek, “-lik” qo‘shimchasi asosida yuzlab yangi so‘zlar yaratilgan: “do‘stlik”, “insonparvarlik”, “ilmiylik”. Bu model shu qadar faolki, yangi zamonaviy tushunchalarda ham qo‘llanmoqda (masalan, “innovatsionlik”, “raqamli iqtisodiylik”). Analogiya asosida yasashda ba’zan boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar ham milliy modellar asosida o‘zlashtiriladi. Masalan,

“kompyuterchi” (IT sohasi mutaxassisi), “bloggerlik” (blog yuritish faoliyati) kabi birliklar [1:75]. Analogiya mexanizmi tilni yangilash va zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki u mavjud modellar asosida cheklanmagan miqdorda yangi birliklar hosil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu uch mexanizm – metafora, metonimiya va analogiya – tilning lug‘aviy boyishini, ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi eng asosiy manbalardan hisoblanadi. Metafora mavhum tushunchalarni konkretlashtiradi, metonimiya iqtisodiylik va ifodalilikni ta’minlaydi, analogiya esa tizimning o‘z ichidagi imkoniyatlaridan kelib chiqib yangilik yaratadi. Kognitiv yondashuv so‘z yasashni faqat grammatik-morfologik hodisa sifatida emas, balki inson ongidagi ma’no yaratish jarayoni sifatida ham tahlil qiladi. Bu jarayonda so‘zlovchi yangi so‘z shaklini mavjud semantik maydon bilan bog‘laydi va uni tezroq qabul qiladi. Tilning lug‘aviy boyishi ham, semantik innovatsiyalar ham aslida shu kognitiv mexanizmlar orqali ro‘y beradi [7:19]. So‘z yasash jarayonining yana bir muhim jihati uning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligidir. Sotsiolingvistik yondashuv til birliklarini shakllantirishda jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning ta’sirini ochib beradi. Chunki til taraqqiyoti faqat kognitiv mexanizmlarga emas, balki ijtimoiy muhit va kommunikativ ehtiyojlarga ham tayanadi [6:87].

Jamiyatda so‘z yasash quyidagi holatlar bilan chambarchas bog‘liq:

Yoshlar nutqi – yosh avlod yangi atamalarni asosan ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali tez tarqatadi. Masalan, o‘zbek tilida paydo bo‘lgan qisqartma so‘zlar (*like qilish, skrin, post*) yoshlar orasida tez o‘zlashtirilib, asta-sekin umumxalq nutqiga o‘tmoqda [1:115].

Kasbiy jamoalar – alohida sohalar (IT, tibbiyot, huquqshunoslik) o‘ziga xos terminologiyani shakllantiradi. Bu terminlarning ko‘pchiligi dastlab tor doirada qo‘llanadi, keyinchalik keng ijtimoiy qatlamga kirib boradi [9:101]. Prestijli guruhlar – ijtimoiy maqomi yuqori guruhlar tomonidan yaratilgan so‘zlar odatda tezroq normaga aylanadi. Chunki ularning til birliklari ommaviy axborot vositalari, adabiyot va ta’lim orqali keng tarqatiladi [11:97]. So‘z yasashning ustuvor modellarini ko‘p hollarda jamiyatning o‘zida mavjud kommunikativ ehtiyojlar va ijtimoiy maqom belgilab beradi. Demak, yangi so‘zlarning hayotiyligi ularning kognitiv qulayligi bilan birga, ijtimoiy qo‘llanish darajasi bilan ham belgilanadi.

Kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi ikki muhim nazariy asos sifatida so‘z yasash jarayonining turli tomonlarini yoritadi. Kognitiv nuqtayi nazar so‘zlovchi ongida yangi birliklarning qanday konseptual asosda yaratilishini, ularning mavjud semantik maydon bilan qanday bog‘lanishini tahlil qiladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazar esa shu birliklarning jamiyat miqyosida qanday qabul qilinishini, qaysi

ijtimoiy guruhlar tomonidan faol qo‘llanishini va ularning normaga aylanish jarayonini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, so‘z yasashni faqat morfologik jarayon sifatida o‘rganish yetarli emas. Chunki yangi so‘zlarning yashovchanligi ham kognitiv moslashuvchanlikka, ham ijtimoiy qo‘llanish darajasiga bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilida “skrin”, “post”, “like qilish” kabi atamalar qisqa vaqt ichida keng qabul qilindi, chunki ular bir tomondan oddiy analogiya asosida yaratilgan, ikkinchi tomondan esa yoshlar nutqida ijtimoiy obro‘ kasb etdi [1:134].

Demak, so‘z yasash jarayonida kognitiv omillar – konseptualizatsiya, assotsiatsiya, analogiya; sotsiolingvistik omillar – yosh, kasb, ijtimoiy maqom, madaniy qadriyatlar kabi faktorlar o‘zaro uyg‘unlikda til tizimining yangilanishini ta’minlaydi. Tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yangi birliklarning barqarorligi ularning ongdagi qulay konseptual modelga ega bo‘lishi va ijtimoiy qo‘llanish doirasining kengayishi bilan belgilanadi [9:107].

So‘z yasashga kognitiv yondashuv so‘zlovchining ongida yuz beradigan jarayonlarni, ya’ni yangi birliklarning konseptual asosda yaratilishi va ongda qayta ishlanishini yoritadi. Sotsiolingvistik yondashuv esa ijtimoiy guruhlarning bu birliklarni qo‘llashdagi rolini, ularning ommalashuvi va normaga aylanishidagi omillarni ochib beradi. O‘zbek tilshunoslari tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, so‘z yasashdagi innovatsiyalar tilning tabiiy rivojlanishini aks ettiradi. Masalan, Rahmatullayev lug‘aviy boyishning semantik mexanizmlarini tahlil qilsa, Rasulov morfologik modellar asosida yangi birliklar hosil bo‘lishini ko‘rsatadi, Bozorov esa zamonaviy davrda so‘z yasalishning ijtimoiy va kognitiv omillarini birgalikda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

Eksperimental kuzatishlar ham shuni tasdiqlaydiki, yangi so‘z shakllarining tez qabul qilinishi ularning kognitiv jihatdan qulayligi va ijtimoiy jihatdan prestijli bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, til tizimidagi innovatsiyalarni tushunishda kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlarni birgalikda qo‘llash ilmiy jihatdan asosli va zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bozorov, O. (2015). *O‘zbek tilida so‘z yasalishi*. Toshkent: Fan.
2. Bauer, L. (1983). *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Bloomfield, L. (1933). *Language*. London: Allen & Unwin.
4. Haspelmath, M., Sims, A. (2010). *Understanding Morphology*. London – New York: Routledge.
5. Hojiyev, A. (2008). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

6. Labov, W. (2001). *Principles of Linguistic Change: Social Factors*. Oxford: Blackwell.
7. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
8. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
9. Madrahimov, A. (2012). *O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning qiyosiy tahlili*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA KONFLIKTLI VAZIYATLARNI OLDINI OLISHDA TILNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Olimov Saydullo Soxobjonovich,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Globallashuv kuchayib borgan sari bu jarayonga qarshi turuvchi tomonlar ham kuzatiladi. Vaziyat jiddiy to‘qnashuvlar darajasiga yetib borishi oldini olish yoki jiddiy holatga yetgan vaqtda ham diplomatic munosabatlarni o‘rnatishda nutqning o‘rni nihoyatda katta ekani, ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Bunda albatta nutqda qo‘llanilgan so‘zlarning ma’nosi ta’sir etish mexanizmi sanalgan. Sharq va g‘arb tamadduniga salmoqli hissa qo‘shgan mutafakkirlarning nutqning shaxslararo munosabatlardagi o‘rni va roli alohida qayd etilgan. Mark Tuliy Sitseron, Aristotel, Dionis Galikamas, Kaykovus, Navoiy, Emil de Jirarden, Ralf Uoldo Emerson va boshqalar har biri nutqning imkoniyatlarini siz va bizga o‘ziga hos yo‘sinda talqin etib berishgan. Nutq jozibadorligi, ta’sir etish darajasi va xotirada saqlanishiga ta’sir etish texnologiyalari olimlar tahlil qilib o‘tganlar. Til va adabiyot, fanlari bo‘yicha olimlar faoliyat olib bormoqda. Nutqdan o‘rinli foydalanishga Psixolingvistika, Sotsiolengvistika, Neyrolingvistika, Matallalingvistika, Arealingvistika, Lingvakulturalogiya kabi tarmoqlar fanga kirib keldi. Qadimdan davlatlar o‘rtasidagi tashqi va ichki nizolarning paydo bo‘lishi yoki bartaraf etilishida elchilar, diplomatlarning nutqiy savodxonligiga jiddiy e’tibor berib kelingan.

Kalit so‘zlar: nutq, mantiq, notiq, so‘z, yaxshi, yomon, nizo, aniqlik.

Annotation: As globalization intensifies, there are also opposing sides to this process. Many scholars have recognized that the role of speech in preventing the situation from reaching the level of serious conflicts or in establishing diplomatic relations even when it reaches a serious state. Of course, the meaning of the words used in speech is considered a mechanism of influence. The place and role of speech in interpersonal relationships are especially noted by thinkers who have made

a significant contribution to Eastern and Western civilization. Marcus Tullius Cicero, Aristotle, Dionysius of Halicarnassus, Caius, Navoi, Emile de Girardin, Ralph Waldo Emerson and others, each of whom interpreted the possibilities of speech in their own way. Scientists have analyzed the attractiveness of speech, the level of impact, and the technologies for influencing its retention in memory. Scientists are working in the fields of language and literature, sciences. The appropriate use of speech has been introduced into science by such branches as Psycholinguistics, Sociolinguistics, Neurolinguistics, Matallalinguistics, Areolinguistics, and Linguoculturalology. Since ancient times, serious attention has been paid to the verbal literacy of ambassadors and diplomats in the emergence or resolution of external and internal conflicts between states.

Key words: speech, logic, orator, word, good, bad, dispute, clarity

Bugun jahonda ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni sikli insoniyat kashfiyotlarining amalda qo‘llanishi natijasida kun sayin tezlashmoqda. Dunyoda turlicha millat va elatlarning ko‘pligi lekin xar kuni bitta tilning yo‘qolib borayotganligini tahliliy statistika qayd etilmoqda. Bunday nixoya bo‘lishida albatta o‘sha millat yoki elatlarning tiliga e’tibor pastligidan dalolat beradi. Bugungi globallashuv tilga boshqa tillardan yangi so‘zlar va atamalarni kirib kelishiga imkon beradi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro‘-e’tibori tobora yuksalib borayotgan O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham katta hissa qo‘shmoqda. O‘zbek tili Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o‘rganilmoqda. O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko‘paymoqda.

Jahonga yuz tutib globallashib borayotgan Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sanalgan O‘zbek tilini sof holda saqlab qolish muammosi ham mavjud. Buning sababi ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilida lekin turli shevalarda va laxjalarda ma’lumotlar berish oshib borayotganligi, innovatsion texnikalarni respublikaga kirib kelishi, chetga fuqarolarning turlicha faoliyat borasida chiqib kelishlari til talafuzlariga jiddiy ta’sir etmoqda.

Globallashuv jarayoni kommunikatsa rivojiga olib keladi. Ma’lumot, axborot almashinuv jarayoni sodir bo‘ladi. Tamonlar o‘zaro kelishuvlarini olib borishda bir-birini to‘g‘ri tushunish va idrok etishi muhimdir. Dealektikaning paradigmalaridan biri “Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni” jarayonlar tezlashgan makonda konfliktlarning yuzaga kelishi ehtimoli yuqori. Psixologiyada “Buzuq telefon” metodi insonlar

kommunikatsiya jarayonida noixtiyoriy ta’sirlar doirasiga tushib qolishi tajribalarda kuzatilgan.

Insoniyatning, ellarning, tillarning ham o‘z tayanchi, suyanchi bor. Tinchlik, totuvlik, o‘zaro birdamlik har bir damda, har qadamda bir-birini tushunishlik xalqlar osoyishtaligi va farovonligining tayanchi bo‘lsa, har bir tilning tayanchi esa ayni xalq nutqida istifoda etiluvchi so‘zlardan iborat.[2:154]

Har qanday nutq o‘z xususiyatlariga ega. Namunaviy nutqning sifatlari haqida so‘zlashdan oldin “nutqda nima birlamchi?” degan savolga javob berish lozim. Mashriq-u mag‘ribda bunga javob izlash uzoq davrlardan buyon bor. Mashhur notiq **Mark Tuliy Sitseron**: «Aniqlik va tozalik - nutqning zaruriy sharti», desa, **Aristotel**: “*Chiroyli so‘zlash, ishontirish va mantiqiy asoslash*”ni birlamchi hodisa deb qaraydi. Notiq **Dionis Galikamas** esa nutqda «maqsadga muvofiqlik»ni muhim hisoblaydi[2:153.]

Ajdodlarimiz so‘zni, nutqni ilohiy ne’mat va hikmat deb qarashganliklarini yuqorida qayd etib o‘tkanimizdek, **Kaykovus** “*Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir*”, - degan bo‘lsa, **Navoiy** “*Ko‘ngiI durji ichra guhar so‘z durur. Bashar gulshanida samar so‘z durur*”, - deb yozgan edi. G‘arbda ham xuddi mashriq zamindagi singari so‘z qudratiga katta ishonch bilan qaralgan. Siyosatshunos olim **Emil de Jirarden** (1806-1884) “*So‘zning kuchi behaddir. Chekinayotgan qo‘shinni to‘xtatish, mag‘lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho o‘rinIi aytilgan birgina so‘z ham kifoya bo‘lgan*”, - deb yozadi. Faylasuf olim **Ralf Uoldo Emerson** (1803-1882) esa “*Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi*”, - deydi. Shunday ekan, o‘rinli so‘z, jozibali nutq xalq bilan bog‘liqlik va birlikning tayanchidir. Ayniqsa, pedagog, shu bilan birga, elektron ommaviy axborot vositalari - televideniye va radioda faoliyat ko‘rsatuvchilar nutqining ko‘rki va jozibasi xalq tilining boyligi va nafosatini ko‘rsatuvchi omildir. Nutqqa xos bo‘lgan, yuqorida ko‘rib chiqqanimiz aniqlik va to‘g‘rilik sifatlarisiz nutqning mantiqiyligini tasavvur etish qiyin. Aniq va to‘g‘ri bo‘lmagan nutq mantiqsiz hamdir. Chiroyli ibora va so‘zlarni qo‘llagan bilan nutq mantiqli va mazmunli bo‘lmasligi mumkin. Jumlalarning grammatik jihatdan noto‘g‘ri tuzilishi va unda ishlatilgan so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi mantiqning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun o‘qituvchi matnni o‘qishdan oldin bir necha bor tahririy nazar bilan ko‘rib chiqqani durust.

Nutqning mantiqiy bo‘lishi bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur dialektikasi bilan ham bog‘liq. Mantiqiy fikr yuritish uchun esa, keng qamrovli bilim ham kerak. Shuning uchun ham fayiasuf olim **Nikolay Gavrilovich Chemishevskiy** (1828-1889) “Nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish

fikrlar chigalligidan dalolatdir”, - deyishi bilan haqli edi. So‘ylab turib o‘ylash, fikr yuritish va uni yetkazish nutqning muhim omillaridandir. So‘z birikmalari o‘rtasidagi grammatik aloqani his etmasdan aytishlik eshituvchiga malol keladi va mantiqni buzadi.[2:155].

Mohiyati har xil bo‘lgan so‘zlari avtomatik ravishda uyg‘unlashtirish mantiqli nutqqa ziddir. Shunday xususiyatlarning yana biri so‘z tartibining buzilishidir. So‘z o‘rnining almashinishi jumlada mantiqning aniq va tiniq bo‘lishiga ta’sir etadi. To‘g‘ri, nutqda pauza, intonatsiya orqali nuqsonni to‘g‘rilab ketish mumkin. Lekin matn silliq, ravon va tushunishlik bo‘lishi uchun mantiqiylikka rioya etilishi zarur.

So‘zlarni bilib-bilmasdan tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiqni buzadi. Bu xususiyat, ko‘pincha nutqda unchalik sezilmasa-da, diqqat bilan tinglagan kishi notabiiylikni sezadi. “O‘ylamasdan, e’tiborsizlik bilan qo‘llangan so‘z ma’noni xiralashtiradi, mazmunni buzadi, e’tiborni susaytiradi. “O‘ylaganda ham, so‘zlaganda ham o‘zini nazorat etish lozim. Nutq, notiq, mantiq so‘zlarining bir o‘zakdan yasalgani ham bekor emas” [2:156, 3:4-9].

Demak, nutqning tozaligi, uning adabiy til mezonlariga mos kelish-kelmasligi, g‘ayri adabiy til unsurlaridan holi bo‘lishidir. Anglashilyaptiki, deyarli barcha tillarda bor bo‘lgan sheva, varvarizm, kanselyarizm, professionalizm, akademizm, vulgar kabi so‘z va iboralarii adabiy tilga aralashtirib qo‘llashdan qochish ma’qul. Badiiy adabiyotda bularni qo‘llash holatlari mavjud. Unda milliy koloritni berish, qahramonning qalb-qiyofasini ochish uchun xizmat qiladi. O‘zbek tili sheva va lahjalarga boy. Shu bois adabiy til normasida fikrlash lozim bo‘ladi[2:157].

Insoniya barcha amalga oshiradigan ishlarini ma’lum bir reja asosida olib borishga odatlantiriladi. Xar sohada mantiqni etalon sifatida qo‘llaydi. Etalonga to‘g‘ri kelmagan xar qanday jarayon tartibsizlik darajasida baholanadi. Lekin Den Areni olib brogan tadqiqotlarida inson ongsiz yoki chuqur anglab yetilmagan holatlarda turli xatti-xarakatlarni amalga oshirishini takidlaydi. Ba’zan mana shu etalonga tushmaydigan tartibsizlik insonlarga ta’sir kuchi darajasi yuqori bo‘lishini kuzatamiz. Shunday usullar birlashi NLD deb nom olgan dasturlash texnologiyalari kirib kelmoqda.

Chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarni qorishtirib ifodalash mavjud. “Mentalitet”, “immunitet” kabi so‘zlarning muqobili bo‘lgani holda, omma anglashi mushkul bo‘lgan atamalarni keltirish nojoizdir. Shu o‘rinda ushbu fikr e’tiborlidir: “Turmushga oid turli xil narsa va hodisalar borki, hayotga singib ketgan. Tilda uni nomlovchi so‘z bo‘lmasa, shunday so‘zni qo‘shni tildan olish mumkin. Lekin tilda mavjud so‘zlar o‘rnida boshqa so‘zni qo‘llash zararlidir”.[2:157].

Ta’lim beruvchining ta’sirli nutqi nolisoniy omillarga bog‘liq. Nutq ta’sirchanligi, asosan, og‘zaki nutq jarayoniga tegishli. Ayni paytda

auditoriyaning texnik imkoniyatlarini e’tiborga oladi. Hozirgi kun talabi esa butun bir manzara, o‘qituvchining joylashishi, ko‘rinishi, turishi, so‘zlash manerasi singarilarni o‘z ichiga oladi. Albatta, ta’lim beruvchi yoki ta’lim oluvchining kasbi, saviyasi, jinsi, o‘sha ondagi holati, kayfiyati e’tiborga olinsagina nutqning ta’siri anglashiladi. O‘qituvchi nutqining ta’siri esa mavzu haqida keng qamrovli bilimga ega bo‘lishlik, qiyofa, ovoz kabi nolisoniy faktorlarga ham bog‘lanadi. Bulardan tashqari omma tez tushunadigan jonli tilda gapira olish, suhbat vaqtini hisobga olish, hayotiy misollarga murojaat qilish orqali fikrni isbotlash, turli tasviriy vositalardan, yumordan o‘rinli foydalanish, kiyinish, imo-ishora, muomaladagi samimiylik kabilar ta’sirli nutqning garovidir. So‘zlayotganingizda eshituvchining ko‘z o‘ngida tasviriy manzara hosil qila olsangiz, obrazli fikr yuritsangiz, o‘z so‘zingizga ishontira olsangiz, qiziqtirsangiz, nutqingiz ravon bo‘ladi va ta’sir darajasi oshib boraveradi. Missiy ta’sir o‘tkazish haqida tarixchi, professor **Vasiliy Osipovich Klyuchevskiy** (1841-1911) shunday yozadi: “Jamoat orasida gapirganingizda tinglovchilarning qulog‘iga, aqliga murojaat qilmang, shunday gapiringki, ular sizni tinglab turib, so‘zlaringizni eshitsin, narsalarni siz bilan ko‘rib, sizning holatingizga kirishsin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu narsani yaxshiroq kuzatadi. Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning tuzilishini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat, chiroyli, lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, ana shunda tinglovchi asiringiz, qochib ketmaydi, hatto, siz uni erkin qo‘yib yuborsangiz ham sizning adabiy itoatguy mijozingiz bo‘lib qoladi”.[2:158-159].

So‘zni topib, tanlab, o‘z o‘rnida aytilishini taqozo etuvchi bu sifat so‘zlovchining didi, xarakteri, omma bilan muomala qila olishiga bog‘liq. Shu sababli nima deyishlikdan ko‘ra, nima demaslikni bilish ham muhim. Har bir so‘zning jumladagi o‘rni til hodisasi bo‘lsa, uning muayyan davrada qanday aytilishi etik-estetik va psixologik hodisadir.[2:159]

So‘zning o‘z o‘rni, vazni, bo‘y-basti, o‘lchovi, hajmi, hidi bor. Uni esa didi borlargina anglaydi. Shunday ekan, ma’lum sharoitlarda so‘zning, nutqning o‘z egasi bo‘ladi.

E’tibor qiling. Katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan keksa, nuroniy kishilar orasida yosh notiq “umr mazmuni” mavzuida suhbat uyushtirsa yoki bolalarga tajribali, keksa notiq “Oila, uy-ro‘zg‘or va turmush muammolari” mavzusida ma’ruza o‘qisa, qay darajada kulgili va yarashiqsiz bo‘ladi. Hatto, shunday sharoit bo‘ladiki, chin so‘zni aytish joiz emas. Faqat sukut orqali javob berish mumkin. Alisher Navoiy “Xiradmand chin so‘zdin o‘zgani demas, Vale barcha chin ham degulik emas” - deganida, shuni nazarda tutgan bo‘lsalar kerak. Shoir Shuhrat ham:

Har so‘zning o‘rni bor, ba’zan ko‘rk-u zeb,
Ba’zida nam o‘rik o‘tidek so‘nik.
Qabriston qoshiga xush kelibsiz deb,
Yozilsa qandayin bo‘lardi xunuk[2:160]

Iqtidorli olim, marhum san’atkor Orif Alimaxsumovning televideniye orqali qilgan ma’ruzalari, fikriy bayoni sharq adabiyotidagi klassik lisoniy uslubga xos ohorli nutq bo‘lsada hozirgi o‘zbek adabiy tilining me’yorlariga har doim ham muvofiq kelavermasdi[2.161].

Nutq va uni qog‘ozga tushirishda xattotning bilimi va tajribasi nihoyatda katta rol o‘ynashi tarixiy manbalardan ma’lumotlarni olamiz. Rus podshoxlari davrida o‘limga xukm etilgan insonni xattotning vergulni adashib qo‘yishi natijasida o‘limdan omon qolgan.

Uyg‘unning Navoiyga bag‘ishlab yozilgan romanida ham bir voqea qayd etiladi. Sulton Husayn Boyqaro o‘z rafiqasi va sevgilisini og‘ir dardga chalinganligi va podshox davo topa olmayotgani alamida mamlakat boshqaruvi bilan safarga chiqadi. Lekin kim “malikani vafoti” haqidagi xabarni olib kelgan kishini boshi tanidan judo qilinishi aytadi. Malika vaqti soati yetib omonatini yaratganga topshiradi. Lekin bu xabarni sultonga yetkazuvchi mard topilmaydi. Shunda Navoiy qog‘ozga

“Sarvigul soyasida, so‘ndi gul netmoq kerak?” deb choparga beradi.

Chopar borib nomani sultonga bosh egib tutqazadi. Sulton Husayn Boyqaro nomani ochib o‘qigach yig‘lab-yig‘lab javob yozadi.

“Sarvdan tobut yasab guldan kafan bitmoq kerak”.

Navoiyning mavjud vaziyatni nihoyatda nozik satrlarda bayon etishi bir begunoh insonni jonini saqlab qolgan.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida rus radiosi diktori Yuriy Levitan nutqini butun sobiq ittifoq frontda va front ortida bor vujudi bilan tinglagan. Levitandagi inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi so‘zlari ohangni eshitgan Adolf Hitler Levitanni boshini olib kelgan kishiga, diktor boshning og‘irligicha oltin berishni vada beradi. Xatto 9-may kunida g‘alabaga atalgan paradga diktor o‘z vaqtida yetib kela olmaydi. Bunga sabab Qizil maydonda odam ko‘pligi uchun turli to‘siqlarga uchraydi. Xatto odamlar “sen qayerga buncha shoshilasan, hozir Levitan notq so‘zlaydi” – deb unga tanbeh beradilar.

Nutqning soddaligi qabul qiluvchining tez va soz tushunishini ta’minlovchi lisoniy mezondir. “Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar”. **Alisher Navoiy**ning bu hikmati nutqning muhim sifatlaridan biri qisqalik haqida. Xalq nutqning qisqa bo‘lishini odob belgisi deb bilgan. Uni axloqiy mezonlar sirasiga kiritishgan. Maqollarga e’tibor qiling. “Ko‘p o‘yla, kam so‘yla”. “Izzat tilasang, kam de, Sihat tilasang kam ye”. “So‘zning ozi yaxshi, Ishning sozi yaxshi” va hokazo. Nutq qisqa shaklda ko‘p mazmun anglatishga qaratilishi kerak. Nutqning qisqa yoki kengligi mazmun ifodasi talabi. Shunday tilshunoslar borki, besh-olti

daqiqada (yoki besh-olti sahifada) aytish mumkin bo‘lgan fikmi bir daqiqada (yoki bir sahifada) ifoda etishga qodir.

Psixofiziologik tadqiqotlarda inson diqqati doimiy qo‘zg‘alishda bo‘lmasdan, gohi-gohida tormozlanib turishini olimlar tomonidan qayd etiladi. Ma’lumotlar diqqatning qo‘zg‘alish vaqtida uzatilgani ongimizda muhirlanadi. Tormozlanish vaqtida berilgani esa havoda qolib qolib ketadi.

Qadimdan millati va tilini qadrlaganlar turli xil yo‘llar bilan tilni sof holda saqlab qolish chora-tadbirlarini ko‘rib kelishgan. Misol uchun Makka shaxrida tug‘ilgan bolalarini sof arab tilida so‘zlashni o‘rgatish masadida shaxardan tashqariga olib borib tili ko‘nikmalari hosil bo‘lgandan keyin Makkaga olib kelishgan. Rossiya davlatiga kelgan chet el fuqarolari ichida rus tili va adabiyotidan dars beruvchilarga turli ijtimoiy xizmatlarda arzonlashtirilgan bonuslar qo‘llashadi.

Berilgan axborotni boshqalarga yetib borishda barcha uchun bir xilda bormasligi tadqiqotlarda kuzatilgan. Mana shu turlicha idrok qilinishi gohi-gohida nizoli vaziyatgacha borishi ehtimoli ham mavjud. Jonzotlar ichida eng taraqqiy etgan “ong”ga ega bo‘lgan inson, bir-birini tushunmaslik ko‘p. Ma’lumot almashinishda boshqa jonzotlarda ham o‘ziga hos tillari bor. Asalarilar, delfinlar, chumolilar va boshqa xayvonlar ham bir-biriga signallar orqali ma’lumot almashadilar. Insonlar uchun ba’zi holatlar jumboq bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy STELS usulida qurilgan suv osti kemasida Marianna botig‘ida sirli signallar kelayotganini qayd etishadi. Lekin bunday chuqurlikdan tirik jonzot mavjudligi va o‘zgacha signal berishi taajublidir. Suniy intellektning rivojlanishi natijasida delfinlar tovushlarini rasshifrovkalashga erishilmoqda. Zoopsixologiya hayvonlar odatlarini uzoq kuzatib olimlar tajribalarda xayratlanarli natijalar guvohi bo‘lganlar.

Adabiyotlarda olimlar tomonidan tilning inson hayoti va faoliyatidagi o‘rni va roli haqida qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Kommunikativ munosabatlarni to‘g‘ri tashkillashda nafaqat tilga oid bilimlarning o‘zi kamlik qiladi. Bunda insonning psixofiziologik jihatlariga ham e’tiborni qaratish muhim sanaladi. Psixolog olimlar tomonidan psixologik tiplar haqidagi tajribalari fan olamiga kirib kelgach axborot yuborishning boshqa turlari va formatlari borligi ham inobatga olinishi kerakligi ta’kidlanmoqda. Olimlar nutq yordamida insonni ko‘plab yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan konflikli holatlarni profilaktikasi va konflikt holatlardan chiqish yo‘llaridan biri ekanligi qayd etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019. https://president.uz/oz/lists/view/2954.

2. Ahmedova M. Pedagogik konfliktologiya [Matn]: ukuv kullanma / Ahmedova M. -Toshkent: «Donishmand ziyosi» MЧJ, 2020. - 304-b.

3. Nizomiddin Mahmudov. «O‘qituvchi va nutq texnikasi». Til va adabiyot ta’limi. 2-son. - T., 2007-yil. - 4-9 b.[2.b.156]

4. Olimov, S., & Olimova, H. (2025). FACTORS THAT CAUSE CONFLICTS. *Global Journal of Innovation and Studies in Interdisciplinary Research*, *1*(1), 45-49.

2- SHO‘BA: ADABIYOT VA MA’NAVIYAT

TIL VA ADABIYOT – MA’RIFAT MEZONLARI

Maqsud ASADOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Ma’naviyat – shaxs axloqi, dunyoqarashi va uning atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini yorqin aks ettiruvchi musaffo ko‘zgu. Aytish mumkinki, agar jamiyat bir qush bo‘lsa, ma’naviyat uning qanoti, vujud bo‘lsa – ma’naviyat uning urib turgan yuragi – jonidir. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevor” sanaladi. “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta” (Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 249-bet). Ana shu nuqtai nazardan el-yurt manfaatlarini o‘z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yadigan, irodasi mustahkam, e’tiqodi butun – chinakam kamolot egalarini tarbiyalashda til va adabiyotning o‘rni takrorlanmas. Ma’nan barkamol, mulohazakor, kreativ fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas, uyg‘oq tabiatli yoshlar esa kelajak bunyodkorlari, ertangi kunimiz me’morlaridir.

I

Til – millatning borligi, borlig‘i, o‘zligini namoyon etuvchi bosh mezon. Til – milliy g‘urur, oriyat va hamiyat timsoli. Jadid adabiyotining yetuk vakili, olim va pedagog Abdulla Avloniy til va adabiyotga “har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti” deb tavsif beradi. Til millatning nafaqat “dunyoda borligi”, balki uning yashovchanligi, davomiyligi asosi hamdir. Chunki “odam bolasi dunyoni o‘z tiliga uyg‘un tarzda ko‘radi, o‘z tilining qat’iy ohanglari o‘zanlaridan chiqib ketmagan holda eshitadi, o‘z tilining azaliy va muntazam intizomiga muvofiq idrok qiladi. Shuning uchun ham til bemisl tilsimdir” (Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. 34-bet). To‘g‘ri, tafakkur xazinasini boyitib, tasavvur olamini yanada kengaytirishga xizmat qiladigan san’at turlari juda ko‘p. Deylik, rassomchilik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino..... Ularning har biri o‘ziga xos, ammo so‘z san’atining sehru jozibasi, ta’sir quvvati, ifoda imkoniyatlari baribir cheksiz, chegarasiz. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ham so‘z qudratiga baho berib, bunday deydi:

So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki, berur jong‘a xabar jonondin,
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Sharq adabiyotida komil inson nazariyasining asoschisi Aziziddin Nasafiyning yozishicha, «Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt narsaga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi, yaxshi so‘z, ikkinchisi, ezgu faoliyat, uchinchisi, go‘zal axloq, to‘rtinchisi, ilm». Mumtoz adabiyotda so‘zning ulug‘lanishi, ta’rifu tavsif etilishiga bir sabab shunda. Ulug‘ insonlar hayoti, ibratli faoliyati ko‘pincha xalqning orzu-umidlari, o‘y-qarashlari bilan o‘zaro uyg‘unlashib, afsonayu rivoyatlarga qorishib ketgani bor gap. Jumladan, Alisher Navoiy haqidagi xalq rivoyatlari ham fikrimizning bir isbotidir. Ana shunday rivoyatlardan birida aytilishicha, shoh Husayn Boyqaro mulozimlari bilan bog‘da sayr qilib yursa, bog‘ etagida gullarni parvarishlab, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanib turgan shoir Navoiyga ko‘zi tushibdi. Hukmdor anchadan buyon o‘zini o‘ylantirib kelayotgan savolga javob topish maqsadida shoirga ishora qilib boshini ko‘rsatibdi. Navoiy ham uzoq mulohazaga bormasdan tiliga ishora qilibdi. Bu imo-ishoralar siriga tushunmagan mulozimlar birozdan so‘ng Navoiydan izoh so‘rashibdi. Shoir: shoh boshga balo nimadan keladi deb so‘radi, men tildan deb javob berdim, degan ekan. Darhaqiqat, Sharq mutafakkirlari azaldan til odobi, axloq go‘zalligi, so‘z nafosatiga alohida e’tibor qaratishgan.

Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq” asarida tilni arslonga qiyoslaydi: agar ehtiyotkor bo‘lmasa, u so‘zlovchining boshini yeydi: “Til arslon turur, ko‘r eshikda yotur Ayo evlug arsiq boshingni yeyur”. Shubhasiz, so‘z mas’uliyati, unga nisbatan talabchanlik, har bir so‘zni o‘rinli, maromi va me’yorida ifoda etishga undash adabiyotning muhim jihatlaridan biridir. Shu ma’noda, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy so‘zchi, ya’ni so‘zlovchiga emas, u aytayotgan so‘zning ma’nosi, mohiyatiga diqqat qilishga rag‘batlantiradi: “So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini, Ko‘rma kim der oni, ko‘rg‘ilkim, ne der”. So‘z – o‘zlik tarjimoni, ya’ni kishining bilimi, saviyasi, ma’naviy-axloqiy qarashlari so‘z orqali yuzaga chiqadi. Ochig‘i, ko‘pincha til kishilar o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashish vositasi o‘laroq talqin qilinadi. Biroq til ruhiyat ifodasi, idrok tamali, asl “men”lik chirog‘idir. Shaxs ma’naviyatining muhim belgisi bu – muomala. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da hilm, ya’ni xushmuomalalik xususida alohida to‘xtalgani bejiz emas: “hilm inson vujudining favoqihlig‘ (mevali. – M.A.) bog‘idur, odamiylig‘ olamining javohirlig‘ tog‘i”. Ko‘rinadiki, barcha go‘zal insoniy fazilatlarning dilbar ifodasi tilda, so‘zda, uning nafosatida va, albatta, so‘z sohibining odobu axloqida namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, unda so‘zga joziba ulushuvchi asl tamoyillarning negizi qayerda?

Jo‘mardlik, olijanoblik, saxiylik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar inson ongu shuuriga, eng avvalo, ona allasi, ota-bobolar o‘giti bilan singadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining mohiyati, sir-sinoatini to‘la anglamasdan so‘zning qudratiga baho berish mushkul. Alla...

murg‘ak yurakka marg‘ub so‘zning totli ohangi. Alla ona – Hayot va bola – Tiriklik davomchisi o‘rtasidagi ruhiy ko‘prikdir. So‘zga oshuftalik ham, so‘z mas’uliyati ham, millatga muhabbatu vatanga sadoqat hissi ham insoniyatning ibtido qo‘shig‘i – alla bilan ko‘ngillarga singadi. Maqolu topishmoqlar, ertagu rivoyatlar, xalq qo‘shiqlari va dostonlari shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy boyliklarimizdir. Ularda aks etgan matonatu g‘ayrat, o‘z-o‘ziga ishonch va hayotsevarlik kechinmalari yosh avlod ongu shuuriga fikrni to‘g‘ri va teran yetkazishda ham yordam berishi aniq. Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mish, Ravshan kabi yovuzlikka qarshi, ezgulikka oshno xalq qahramonlarining sarguzashtlarini tinglab ulg‘aygan avlodga vatanning ertangi taqdirini yuksak ishonch bilan topshirish mumkin bo‘ladi. Chunki dostonlardagi sarguzashtlar shunchaki sayohat emas, qahramonlarning ma’naviy manzillarga, ma’rifat bo‘stonlariga, chin insoniylik olamiga yuzlanishi, o‘zlikka evrilishidir. Shu sababli yangi O‘zbekistonda oshiqlaru jirovlar san’ati qadrlanib, yil osha yurtimizda baxshichilik festivallari o‘tkazib kelinmoqda.

Darhaqiqat, til – chinakam ma’naviy qudrat, ruhiy matonat ramzi. Unda millatning nekbin kayfiyati, o‘lmas tarixi, ertangi yorug‘ kunlarga bo‘lgan cheksiz ishonchi mujassam. Alisher Navoiy ham o‘z hikmatlaridan birida tilga e’tiborni el-yurtga e’tibor bilan tenglashtiradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida esa “so‘z durrining tafovuti mundin dog‘i beg‘oyatdur va martabasi mundin ham byenihoyatroqdurur, andoqki, sharifidin o‘lgan badang‘a ruhi pok yetar” dyeb yozadi. Ulkan shoir Rauf Parfining quyidagi misralari ham ulug‘ salafining fikrlariga uyg‘un:

Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abutturk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon keldi G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi...

Til taqdiriga daxldorlik va ona tilimizga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi yoshlarimizda asrlar davomida yashab kelayotgan ma’naviy qadriyatlarimizga hurmat va iftixor bilan birga, vatanga fidoyilik kayfiyatini uyg‘otib, ma’nan yetuklik cho‘qqilarini egallashlarida mislsiz ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir.

II

Adabiyot – ko‘ngil mehvariga sidqu e’tiqod bilan yuzlanish demak. Adabiyot qalb oynasini o‘tkinchi g‘uboru xiraliklardan poklab, olamga soflik, to‘g‘rilik, adolat nazari ila boqish qanoatidir. Adabiyot – Haqdan botilni, yaxshidan yomonni, sadoqatdan xiyonatni, adolatdan razolatni ajratishni o‘rgatuvchi, chin odamlik maqomida sobitlik maslagini anglatuvchi, hayot mohiyati, tiriklik mazmunini teran tushuntiruvchi buyuk ustoz. Unda millat kayfiyati, xalq ruhiyati ifoda topadi. Muayyan xalqning o‘tmishi, buguni, o‘ziga xos qadriyatlari, orzu-armonlari, dunyo

tarixida tutgan o‘rnini bilish uchun uning adabiyotini o‘rganmoq kerak. Ulkan jadid ijodkori Abdulhamid Cho‘lpon «Adabiyot yashasa, millat yashaydi» deganida nechog‘li haq edi. O‘zbek adabiyoti buyuk bir tarix va beqiyos merosga ega. Xalq donishmandligi namunalari, «Avesto», O‘rxun-Enasoy bitiklaridan oziqlangan so‘z sa’nati durdonalari Alisher Navoiy ijodiyoti bilan o‘z taraqqiyotining bemisl bosqichiga qadar yuksaldi, ham shakl, ham ma’no jihatidan boyib, jahon adabiyotining eng so‘nggi yutuqlari ta’sirida bugungacha qimmatu e’tiborini zarracha susaytirmadi. Fikrlar xilma-xilligi, obrazlar dunyosining kengligi, badiiy mahorat mezonlariga turlicha yondashuvlar ijodkorlar va asarlardagi o‘ziga xoslikni yuzaga chiqaruvchi omil deb qaralishi mumkin, ammo adabiyotning bosh maslagi hamisha bitta: Komil shaxs tarbiyasi.

Shubhasiz, adabiyot obrazlar tilida so‘zlaydi. O‘z istak-xohishlari, maqsad-muddaolarini timsollar orqali bayon etadi, tasvirlaydi. Obraz esa adabiyotning jonli nafasidir. Masalan, Er obrazini olaylik. Tiynati toza, fikrati teran, adolat yo‘lida mardona turgan, xalqni ezgulikka boshlagan benuqson siymolar turkiylar orasida qadimda Er deb ulug‘langan. Bu kalima bugungi kunda ma’nosi anchayin toraytirilgan jins tushunchasini bildiruvchi so‘zdan farqlanib, chinakam nekbin, saxovatu himmatda, oriyatu hamiyatda, mehnatsevarlik va qat’iyatda boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan kamolot egalariga nisbatan ishlatilgan. Shunga ko‘ra, «Har kishi ermen debon ermu bo‘lur, Kelmas ishni ilkidin dermu bo‘lur» deb yozadi Alisher Navoiy. Ulug‘ shoirning nazdida hamma ham Er nomiga loyiq bo‘lavermaydi. Va’dasiga vafoli, ahdida sobit, dunyoqarashi keng, xalq manfaatlari yo‘lida borini ayamaydigan asl zotlar chin Erlardir. Turkiy xalqlar orasida Erali, Erpo‘lat, Ertug‘rul kabi ismlarning uchrashi shundan. Azaldan el-yurt yuki, zahmatu mashaqqati chinakam Erlarning zimmasida bo‘lgan, ko‘ksida yolqini, nigohida chaqini porlagan alp yigitlar, yoriga sadoqatli, ezgu maqsadlar yo‘lida unga kamarbastalik qilgan dilbar qizlar adabiyotda e’tirofu tavsif etilgan. Shoir Shavkat Rahmonning

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,
bormi bul tufroqda o‘zligin izlab,
osmonu falakka yetgan bolalar…

misralari ana shunday: oila mustahkamligi, yurt farovonligi, ko‘ngil xotirjamligi, vatan taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qilishga shay «jo‘mard»lar haqida bitilgan. «Farhod va Shirin» dostonidagi Shirin tilidan aytilgan quyidagi misralar ham aynan shu jihatdan ahamiyatli:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur…

Odamlik, odamiylik – ulug‘ maqom. Jamiyatning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘ladigan riyokorlik, munofiqlik, mahdudlik, yolg‘onchilik, tanballik, dag‘allik, kibru manmanlik kabi nojoiz sifatlar

«odam»lik mohiyatiga ham butkul begonadir. Aslida insoniyat otasi, chin odamlik sarvari – Odam alayhissalom mumtoz adabiyotda ma’naviy kamolot yo‘lboshchisi, yuksak axloq sohibi sifatida ham talqin qilinadi. Mumtoz adabiyotda ko‘ksida iymon nuri porlagan, nafs iskanjasidan ruhini xalos aylab, fano holiga yuzlangan beg‘ubor ko‘ngillar odamiylik timsollari sanalgan. «Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur…» misrasida ham «odam» so‘zi ikki ma’noga ishora qiladi: 1. Odam alayhissalom 2. Odamlik sharafi. «Yoru» «oshiq»larning o‘tkinchi «havas»lari, nafsoniy istaklaridan havolanmagan, foniy dunyoning maqtovlariyu soxtaliklariga sira aldanmagan, ma’rifati yuksak, idroki baland «er»sifatli «Odam» – Shirinning iqrori bu! Ulug‘ shoir Shirin timsolida o‘z davrining jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan, qolaversa, ko‘ngil haqiqatlarini insoniylik matlabi bilan uyg‘unlashtirgan ulug‘vor ayollari qiyofasini umumlashtiradi. Yoshlarga, jumladan, xotin-qizlarga ham, umid nazari bilan boqadi, ularning millat ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rniga yuksak baho beradi. Bugun yurtimizda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan cheksiz e’tibor, ularning davlat va jamoat ishlaridagi faolliklarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar yangi O‘zbekiston g‘oyasining Alisher Navoiy asarlardagi nekbin qarashlarga nechog‘li uyg‘un ekaniga yana bir muhim isbotdir.

O‘zbek adabiyoti o‘z tarixi mobaynida bir necha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Turli davrlarda zamon va makon qarashlaridan, mafkura talablaridan kelib chiqib, shakliy va mazmuniy evrilishlarni ham bir qadar boshdan kechirdi. Biroq o‘z e’tiqodi, hayotbaxsh g‘oyalaridan hech qachon voz kechgan emas. Ana shunisi bilan ham o‘zbek adabiyoti umrboqiylikka, mangulikka daxldor. Jumladan, qo‘lida adolat mayog‘ini baland tutgan, millat muhabbati, xalq irodasi uchun zabardast kuch bo‘lib tarix sahnasiga chiqqan jadid ijodkorlari ham alohida e’tirofga sazovor. Qodiriy, Fitrat, Avloniy, Cho‘lpon singari so‘z san’atkorlari qoldirgan ulug‘ meros bugun xalqimiz o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘ maqsadlar bilan hamohang. Ayniqsa, Otabek, Anvar, Kumush, Ra’no kabi o‘lmas obrazlar yoshlarimiz ma’naviyatini boyitishga, ular uchun yo‘lchi yulduz bo‘lishga, tom ma’noda, xizmat qilishi muqarrardir.

Umuman olganda, til va adabiyot yuksak kamolot egalarini tarbiyalashda, ularni chin insoniylik fazilatlariga oshno etishda, dunyoga millatni milat, xalqni xalq o‘laroq tanitishda muhim ahamiyatga ega. Til va adabiyot o‘z o‘quvchilarini olam, borliq, tiriklik mohiyati haqida atroflicha fikr yuritish, jamiyat munosabatlarining tartib-qoidalari xususida mulohaza qilishga undaydi. Yangicha g‘oyalar bilan yangi marralar sari dadil intilayotgan ona Vatanimizda ma’nan yuksak, jismonan baquvvat, ruhan uyg‘oq yoshlarning kamol topishida betakror mavqe egallaydi.

HAMID OLIMJON VA XALQ OG`ZAKI IJODI

G`ayrat Majidov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat O`zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Hamid Olimjon ijodida necha asrlar davomida badiiy an’anaga aylanib ulgurgan folьklor va yozma adabiyotning o`zaro ijodiy aloqalariga xos estetik qonuniyatlari hamohang kelishini kuzatish mumkin. U o`z zamonasida birinchilardan bo`lib, xalq og`zaki ijodi obrazlarini adabiy asarlarga ko`chirdi. Maqolada anyni shu mavzuda so`z boradi.

Abstract. Hamid Olimjon's work demonstrates a harmonization of the aesthetic principles characteristic of the creative relationship between folklore and written literature, which has become an artistic tradition over several centuries. He was one of the first to transfer folklore images into literary works. This article is devoted to this topic.

**Kalit so`zlar:** so`z san’ati, folklor,ijod, Alpomish, mif, jahon adabiyoti, ertak, xalq dostonlari, adabiy boylik, Hamid Olimjon

Key words: speech art, folklore, creativity, Alpomish, myth, world literature, fairy tale, folk epic, literary wealth, Hamid Olimjon

Mustaqillik davriga kelib Hamid Olimjon hayoti va ijodiga yangicha nuqtai nazardan baho berish, shoir ijodini jahon adabiyottshunosligi rakursida o`rganish va she’rlarini istifoda qilish zarurati pishib yetilgan edi. Olim va munaqqidlar Naim Karimov, Hotam Umurov, Abdulla Ulug`ov, Dilmurod Quronovlarning izlanishlari shu ma’noda katta ahamiyat kasb etadi.

O`zbek adabiyotining yo`nalishi va rivojiga o`z ijodi, tashkilotchiligi bilan katta hissa qo`shgan Hamid Olimjon qisqa umr ko`rdi (1909—1944). Zamondoshlari eslashicha, XX asrning 30-yillari va Ikkinchi jahon urushi davri madaniy hayotida shijoatli shoir ishtirok etmagan, o`z hissasini qo`shmagan birorta tadbir yo`q ekan. Shuning uchun uning arxivida vatanparvarlik ruhidagi she’riyat va tarixiy dramatik asarlar, aktual muammolarga bag`ishlangan chuqur ma’no va ilg`or ma’nolar tashuvchisi bo`lgan, xalq donishmandligi o`z ifodasini topgan doston va ertaklar bilan bir qatorda publitsistik va adabiyotimiz tarixini to`g`ri talqin qilishga yordam beruvchi ilmiy-tadqiqot ishlari ham bor.

Hamid Olimjon xudo bergan iste’dod edi. Hamid Olimjon 1909 yil 12 dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Narimonov nomidagi boshlang`ich maktabni tugatgach, 1923-1926 yillarda Samarqand pedagogika bilim yurtida o`qidi. 1926-1931 yillarda O`zbek Pedagogika akademiyasida tahsil oldi. Zamondoshlari eslashicha, u talabalik

yillaridayoq ijodga mehr qo`ygan. Ilk she’riy mashqlari 1926 yildan «Zarafshon» gazetasida chop etildi. 1927 yilda shoir ayni shu gazeta tahririyatiga ishga o`tdi. 1929 yilda Hamid Olimjonning «Ko`klam» nomli ilk she’riy to`plami nashr etildi. Shundan so`ng ketma-ket «Olov sochlar» (1931), «O`lim yovga» (1932), «Poyga» (1932) kabi she’riy to`plamlari chop etildi. [1.243-248]. Xalq og`zaki ijodi namunalari shoirni yoshlik yillardayoq maftun etgan edi. Ayni shu oshuftalik balki uning ijodidagi xalqona jo`shqin ovoz va kenglik va teranlikka yo`l ochdi, desak to`g`ri bo`ladi.

Hamidjon mashhur baxshi shoir Fozil Yo`ldosh o`g`li bilan ham o`sha kezlarda do`stlashgan edi. Keyinchalik, Hamid Olimjon ana shu baxshi shoir aytimlari asosida 1939 yilda “Alpomish” dostonining ilk variantini tayyorlab, nashr etdi.Zero, mashhur folьlorshunos olim Hodi Zarif shoirni “O`zbek folklorining jonkuyari” deb baho berganida yuz karra haq edi. [2.243-248. Yoshlikda egallangan har qatra ilmning tagzamini baquvvat bo`ladi. Hamid Olimjon to`plagan folklor xazinasi ham ulkan dorilfununga teng edi. Shu sababli uning asarlariga xalqona ohanglar, samimiy misralar, xalq dostonlari, mumtoz adabiyotimiz an’analari singdirilgan, shuning uchun ham she’rlari o`quvchilarni sehrlabgina qolmay, ularning xalqning asriy orzulari, dardu–alamlari, qalbini larzaga solgan tuyg`ulari, kechinmalaridan ogoh etadi. Insonda tabiatan ezgulikka o`zgacha moyillik borki, u har qanday holatni xayrli tugashini istaydi, xayrli xotima bo`lishini tilaydi. Bu haqda H. Olimjon “Navoiy va zamonamiz” maqolasida Fozil Yo`ldoshning hayotida ro`y bergan bir voqeani hikoya qiladi. [3.33.]Unga ko`ra, nekbinlikni yaxshi ko`radigan xalqimiz Fozil Yo`ldosh o`g`li Navoiy asarlarini eshitib mutaassir bo`lib, o`zi ham “Farhod va Shirin”ga o`xshash asar to`qiydi. Uning to`qigan dostoni oxirida Farhod ham, Shirin ham, Layli va Majnun ham o`ladi. Odamlarga dostonni ijro etib bergan Fozil shoir “Aytib berganim yoqdimi sizlarga,” deb odamlardan so`raydi. “Yo`q,” deyishadi doston tinglovchilari. Ularga asar oxirida barcha sevimli qahramonlari o`lgani yoqmaydi. Natijada Fozil shoir dostonni qaytadan to`qishga majbur bo`ladi. Tabiiyki, oxirida xalq sevgan qahramonlar tirik qolishadi. Demakki, xalq og`zaki ijodiga xos nekbinlik, yorug` ertani sog`inish hissi, xayrli xotimasini istash aslida insonning fitratida bor. Shu bois ham xalq og`zaki ijodi motivlari inson ongiga tez singadi, uning ko`ngil koinotiga tez qorishadi. Ana shu xalqona orzu-o`ylar, epik go`zallikka intilish hissi Hamid Olimjon qalbida folьklor motivlariga qattiq mehr uyg`otdi va u ham shu yo`lda asarlar yozdi.

Yuqorida aytganimizdek, 1939 yilda o`zbek xalq og`zaki ijodining ajoyib durdona asari «Alpomish» dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib, uning so`z boshisi bilan chop etildi.

U yoshlik yillaridayoq o`y-hayolini egallagan xalq og`zaki ijodi motivlari va qahramonlari asta-sekin o`z ijodiga ko`chdi. Boshqacha aytganda, folklorizmlarga aylandi.

Ma’lumki, jahon adabiyotida, uning badiiy-tadrijiy takomilida xalq og`zaki ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning ilhomi, uning kayhoniy iste’dodi ana shunday boy ma’naviy merosdan ta’sirlanish natijasida taraqqiy etadi. Bu borada jahon adabiyotida, xususan, rus adabiyotida badiiy ijodda folьklordan ijodiy foydalanishning o`ziga xos mezonlari shakllangan. Rus adabiyotshunosligida P.S.Vixodtsev, L.I.Yemelьyanov, B.Dalgat kabi olimlar xalq og`zaki ijodining badiiy ijodga ta’siri masalasida bir qator tadqiqotlar olib borishgan.[4.41]

O`zbek olimlaridan H.Zarifov, N.Mallayev, N.Karimov, H.Umurov, T.Mirzayev, O.Sobirov, G`.Jalolov, B.Sarimsoqov, O.Nosirov, G`.Mo`minov, O.Safarov M.Hakimov, I.Yormatov, M.Jo`rayev, J.Eshonqul, L.Sharipova kabi olimlar folьklor an’analari, uning badiiy ijodga ta’siri masalalarini tadqiq etishgan. [5.]

Hamid Olimjon ijodida necha asrlar davomida badiiy an’anaga aylanib ulgurgan folьklor va yozma adabiyotning o`zaro ijodiy aloqalariga xos estetik qonuniyatlari hamohang kelishini kuzatish mumkin. U o`z zamonasida birinchilardan bo`lib, xalq og`zaki ijodi obrazlarini adabiy asarlarga ko`chirdi. Bu bilan adabiyotni poetik izchil, badiiy baquvvat qahramonlar boyitdi. Umuminsoniy g`oyalar, yorga sadoqat, halollik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi insoniy xislatlar tajassumi shoirning «Semurg`», «Oygul bilan Baxtiyor» kabi asarlariga ko`chdi. Bunday asarlar ijodkorning estetik idealini boyitishga chuqur ta’sir ko`rsatdi. Shoirning xalq og`zaki ijodini chuqur o`rganish asosida yig`ilgan ijodiy tajribalari uning individual uslubi va jo`shqin poetik qiyofasi shakllanishida, yuksak pafosga ega adabiy qahramonlari badiiyati teranlik kasb etishida muhim zamin bo`lib xizmat qildi.

Binobarin, xalq dostonu o`lanlari, asotirlari o`zining hayotiyligi, xalq turmush tarziga yaqinligi, yuksak axloqiy-estetik qarashlari va inson ruhiy olamini teran aks ettirishi, keng qamrovligi va badihago`ylik asosida doimiy ravishda yangilanib, boyib borishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar matniga xalq og`zaki ijodiga xos turli-tuman epik syujetlar, motiv va obrazlar, poetik vositalar hamda tasvir usullarini singdirib yuborish, folklor syujetlarini stilizatsiya qilish yoki sintezlashtirish orqali tasvirlanayotgan voqelik talqiniga barhayotlik baxsh etiladi. Haqiqiy shoir yuragi hamisha ilhom va ijod qayg`usi bilan sarmast bo`ladi. Hamid olimjon qanchalik tashkilotchi va rahbarlik bosimi ostida ishlamasin, qayerga borsa, o`sha yerdagi xalq vakillari bilan yaqin munosabat o`rnatishga harakat qilar edi. Uning qo`lidan yon daftarchasi

aslo tushmas edi. U xalq hayoti, orzu-intilishlarini o`rganish bilan bir qatorda xalq og`zaki ijodiga bog`liq an’analari, qadriyatlari bilan ham qiziqar edi. Buni Shukur Sa’dullaning xotiralari ham tasdiqlaydi: «Hamid bilan deyarli kunda kolxozlarda, qurilishlarda, klub va maktablarda bo`lardik. Ayniqsa, Katta Farg`ona kanalida, Farhod GES qurilishida, Bekobod metallurgiya zavodiga poydevor qo`yishda, Janubiy Toshkent kanali quruvchilari orasida doim yozuvchilar brigadalari bo`lardi. Katta Farg`ona kanali trassalarida bo`lganimizda, Hamidjon Farg`onaning serzavq, sermazmun termalarini, qo`shiqlarini daftariga bitib yurardi. Askiyalar, qo`shiqlar, o`lanlar, suhbatlar uni faqat ijodiy tomondan qiziqtirar edi, goh qo`liga qalam-qog`oz olib, shu joydayoq satrlar yaratar, goh yozganlarini pichirlab o`qir edi.” [6.53] .Hamid Olimjon bir umr xalq dostonlari ichida yashadi, deyish mumkin. Zero, uning baquvvat quvvai-hofizasi bor edi. Aytadilarki, har qanday eshitilgan axborot bilim emas. Miyada qayta ishlangan axborotgina bilimga aylanadi. Hamid Olimjonning ruhiyatida xalq donoligiga qorishiq ulkan badihago`y donishmandlik bor edi. Yoshligida eshitganlari, ko`rganlari ulkan bilimga aylangan edi. Shu bois u ijod qilishni ulkan zarurat deb bilgan. Shu bois folьklor bulog`i, uning beshumor poetikasi shoir ijodida badiiy asar strukturasini shakllantiruvchi kompozitsion asos vazifasini bajaribgina qolmay, balki xalq ijodiga xos badiiy tasvir vositalari va epik syujetlar to`plami asarlariga beqiyos milliy-etnografik kolorit ham bag`ishlaganinin ko`rishimiz mumkin. Olamni idrok etishning eng ko`hna shakllaridan biri bo`lgan adabiyot Hamid Olimjon uchun hayotining mazmuniga aylangan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.Каримов. Ҳамид Олимжон.(шоир ижоди ва ҳаётидан лавҳалар).-Т: “Ёш гаардия” нашриёти, -Б. 243-248.

2. Н.Каримов. Ҳамид Олимжон.(шоир ижоди ва ҳаётидан лавҳалар).-Т: “Ёш гаардия” нашриёти, -Б..33.

3. Ҳамид Олимжон.Мукаммал асарлар тўплами.(10 жилдлик).-.:”Фан”,1979.-5-жилд.-Б.41

4. Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество.- Л., 1963; Емельянов Л.И. К вопросу о фольклоризме древной русской литературы // Русской фольклор. Т. 7., М.-Л., 1962; Методологические вопросы фольклористики. - Л.: Наука, 1978 ;Далгат Б. Литература и фольклор. – М.: Наука, 1981.

5. Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. - Т.: Фан, 1971; Сафаров О. Болалик куйчиси. – Т.: “Фан”, 1978; Саримсоқов Б. Фольклор ва ёзма адабиѐт муносабатларига доир изланишлар // ЎТА, 1976, 5-сон; Мўминов Ғ. Ўзбек совет адабиёти тараққиётида фольклорнинг роли. – Т.:Фан, 1985, 6-бет; Ўзбек совет адабиёти масалалари. – Тошкент,

1959. Шу китоб: Н.Каримовнинг “Ҳамид Олимжон поэзиясида фольклор традитсиялари”; Ўзбек шеъриятда фольклоризм(XX асрнинг 70-80 йиллар ўзбек шеърияти асосида).-Т.: Фан, 2011.

6. Сен элимнинг юрагида яшайсан.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1973. –Б.53 .

ZAMONAVIY O‘ZBEK VA TURK ROMANLARIDA FAZOVIY TAFAKKUR VA MIFOLOGIK TALQIN UNIVERSALLIGI

Doniyorov Shokirjon Xudoyberdiyevich,
Bektemir tumani 289-sonli idum direktori
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
Tel : (97) 772-44-14

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangilanayotgan badiiy tafakkurga salmoqli hissa qo‘shgan o‘zbek va turk adiblari romanlari qiyosan tahlil qilingan bo‘lib, unda XX asr boshlarida G‘arb an’analari negizida shakllangan mifologik tafakkur uyg‘unlashuvi haqida so‘z yuritiladi. Mifologik qarashlar har ikki xalq yozuvchilarida mushtarak va o‘ziga xos jihatlari e’tiborga olinadi.

Kalit so‘z: obraz, mif, mifologiya, psixologizm, xarakter, syujet va kompozisiya, romaniy tafakkur, uslub va shakl.

Annotation: This article presents a comparative analysis of the novels by Uzbek and Turkish writers who have made significant contributions to the renewal of artistic thought. It discusses the synthesis of mythological thinking formed on the basis of Western traditions in the early 20th century. The study highlights both the common and distinctive features of mythological views reflected in the works of writers from both nations.

Keywords: image, myth, mythology, psychologism, character, plot and composition, novelistic thinking, style, and form.

XX asr ibtidosida, ya’ni birinchi jahon urushi avj olgan pallalarda Yevropa hamda O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq davlatlarida inson ruhiyatiga salbiy ta’sir qiluvchi mutelik, qullik va erksizlik, zulm va qabohatning avj olishida ko‘plab begunoh odamlar qurbon bo‘ldi. Yozuvchilar azim Yevropa mamlakatlari bo‘ylab yurishi boshlandi, ko‘pchiligi “vatanidan quvildi”. Bu “yurish”larning zamirida Jeyms Joys, Kafka, Kamyular avlodi o‘zilarining qator asarlarida “yangi davr” mifiologiyasini boshlab berdi. Ayni shu o‘zgarishlar psixoanalitika fanining ham taraqqiy etishiga zamin hozirladi. “XX asrning buyuk adiblari: Frans Kafka, Jeyms Joys, Alber Kamyu, Uilmya Folkner, Marsel Prust, Ernest Xeminguey Tomas Eliot

kabi majruhlashish, mahkumlashish, mohiyatsizlashish sari yuz tutgan inson qalbini himoya qildi, uning tashqi va ichki tajovuzlarini, tahdid va ta’qiblarini ko‘rsatib, tahlil qilib, asoslab berdi. Mafkuralar, ta’limotlar, g‘oyalar toptab tashlangan inson sha’nini, inson nomini, inson g‘ururini so‘z maydonida himoya qildi; so‘z bilan, qalam bilan texnokratlashayotgan, moddiylashayotgan, manfaatlashayotgan, mafkuralashayotgan, o‘zini yaratgan asosdan tobora uzoqlashib, uzilib, yolg‘izlik, ma’nisizlik, xudbinlik, yovuzlik, johillik sari ketayotgan bashariy manqurtlikka, bashariy qabohatga qarshi murosasiz kurashdi”[1, 199-200], - deya yozadi munaqqid yozuvchi Nazar Eshonqul. Mana shu manbadan anglashiladiki, hayotning juda murakkab, qaltis va yozish qiyin paytlarida ham haqiqiy iste’dod egalari katta bir mifologik maktabning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Ramzlar tilida, hayotning puchmoqlarigacha kirib borishi tush, metafora, roman tuzilishini tubdan yangilab yuborishga jiddiy jahd bilan kirishdi. Insonning butun faoliyati uning ijtimoiy hayot nashidasi bilan o‘raldi. Yangi yo‘l topish, insoniyatning ming yillik qadriyatlari, tamal toshi qo‘yilgan tasavvufiy oqimlarning, Yassaviy zamonasidan o‘tib kelatyogan aqidalarning zamonaviy o‘zbek va turk badiiyati negizida qad rostlashi ham XX asr boshlaridagi mifologik qarashlarning o‘rni beqiyos ekanligini isbotladi.

Fazoviy tafakkur haqida so‘z borganda, Alisher Navoiy talpingan komil inson obrazini unutmaslik kerak. Navoiy komillikni dunyoviy axloq darajasiga olib chiqqan bo‘lsa, XX asr o‘rtalariga kelib turk adiblari ham mana shu konsepsiyani hech qanday mafkurasiz yoritib berishga intildilar. Faqatgina o‘zbek adabiyotida XX asrning 90-yillaridan keyingi ijtimoiy-madaniy hayot sarchashmalarida bularning tabiati ham, shaklu shamoyili ham tubdan o‘zgardi. O‘zbek adiblari inson fenomeniga tasavvufiy, diniy va axloqiy nuqtai nazaridan baho berarkan, psixologik talqin ustuvorligiga ham alohida diqqat qaratdi.

Mifologik qarashlar, qadriyatlar yangi inson obrazini qaytadan kashf etishga bel bog‘laganligida ko‘rinadi. Yozuvchi jamiyatni, shaxsni, insonning madaniy va maishiy turmushini qalamga olar ekan, bu borada Ahmad Lutfi Qozonchining “So‘nggi to‘fon” asarida yanada boshqacha idroklashga diqqatini jalb qiladi. Hasan obrazi mana shu konsepsiyani tashuvchisi sifatida ko‘rildi. Otaning salbiy xarakterlari, onaning mehribonligi, muhabbatning nechog‘li ulug‘ligi, Alloh jamoliga oshiqish har bir detal, epizod tabiatida bo‘y ko‘rsatadi:

“Aslida-ku bu uyga o‘g‘ri kirmaydi. Kirishni o‘ziga ep bilmaydi. Kirsa ham bo‘sh qo‘l bilan pushaymon bo‘lib chiqib ketishi aniq. Aql bilan ko‘ngil bir yo‘ldan yurmaydi.

Aqlning yo‘li boshqa, ko‘ngilniki boshqa... Aqlni xunuk va yoqimsiz deya sanagan Layli o‘z taxtini Majnunning ko‘ngliga quradi. O‘zini unga

dunyoda tengsiz deb qabul qildiradi. Ikki ko‘ngil bir bo‘lgach, sahrolarni ma’qul ko‘radi. Aql esa bu yerlarni itlarga ham ravo ko‘rmaydi.

Farhod Shirin uchun tog‘ni yoradi... Buning bari ko‘ngil farmoni emasmi?

Aqldan so‘rasangiz, dunyoda go‘zallar ko‘p, Shirinlar qancha deydi?

Ammo buni Farhodga tushuntirib bo‘lmaydi. Majnunga Laylining xunukligini aytsangiz: “Unga mening ko‘zim bilan qarang!” deydi.

Hasanlarning uyiga o‘g‘rining kirish-kirmasligi aql bilan o‘ylanadigan bo‘lsa, mutlaqo kirishga hojat yo‘q. Ammo o‘n ikki yoshli bolaning ko‘ngli. U aqlning hukmiga bog‘liq emas. Har bir “tiq” etgan tovush, sakragan mushuk, qo‘shnining ochilgan eshigi – bularning hammasi Hasan uchun vahimali edi. Kech uxlab, erta uyg‘onardi”[2, 235].

Yozuvchi Hasan otasining qistovi va majburlashi bilan ilk bor o‘g‘rilikka qo‘l uradi. Uning vijdonan qiynalishi, dilidagi iymon va e’tiqodi, o‘qigan namozu ibodatlari hammasi oldidan bir-bir o‘tadi. Hasanning otasi hech bir to‘g‘ri yo‘lga kirmaydi. O‘g‘liga berilgan etikni ham sotib, unga maishat qiladi. Romandagi tasavvufiy-falsafiy g‘oyalar ham komil inson bo‘lish haqidagi chaqiriqdir. Farhon va Shirin haqidagi mif ham yozuvchini xayolidan o‘tgan. Bu orzu, intilish, har qanday inson shaxsiyati bilan uzviydir. Hasanning botinida Allohga bo‘lgan ulkan muhabbat yashirin. U o‘zining chinakam insoniylik burchi bilan onasiga kamarbasta. Onasining, ustozlarining bilimlarini olib, hayotda katta umidlar bilan yashash istagida tinimsiz mehnat qiladi. Biroq tubanlashib borayotgan ota esa Hasanni doim yo‘ldan ozdirish, ta’qib etish, urish, so‘kish va ranjitishdan boshqa narsani bilmasligida. Hasan doim o‘zining qalbidagi iztiroblarini yashirib keladi. Faqat uni tushunguvchi bitta onasi Farida bor xolos. Qo‘shnisi Lutfilla amaki doim ularga g‘amxo‘rlik qilib kelganligida. Tursunning otasi juda boy va badavlat bo‘lgan. Tursun yoshligidan ko‘cha bolasi bo‘lib, o‘nglanish o‘rniga yomon qiliqlarga moyilligi bilan ko‘p aziyatlarni beradi. Ana shu to‘polonchiligi, urushqoqligi va tarbiyasizligi bois, ota onasini ham qaritdi. Uning qilmishlari mana begunoh Hasanni ham abgor etmoqda. Bularning oilasi o‘ziga to‘q, mahallada obro‘-e’tiborli xonadonlardan biri bo‘lgan. Tursunning yarmas odatlari sabab, uy va hovlini sotib, butun mol-mulkni ko‘kka soviradi. Mana endi Hasan va onasi Farida azob-uqubatlarini, qishning chillasida ham, yozning issig‘ida ham tortib kelmoqda. Yozuvchi romandagi leytmotivlarni shu qadar tartiblashtiradiki, mifologik qarashlar negizida tarix va bugun o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy masalalarni ham tahlil qiladi. Hasan esa inson botinida yashayotgan Allohga bo‘lgan muhabbatga darz yetmasligini chindan istashligida seziladi. Hasan doim o‘ziga ishonuvchan va qat’iyatli bo‘lib ulg‘aya boradi. 12 yoshida bu o‘g‘rilik degan baloga qo‘l urdirilishi hayotini tubdan o‘zgartirib yuboradi.

Ulug‘bek Hamdamning romanlarida mifologik qarashlar o‘zbekona urf-odatlar, hayotiy ziddiyatlar fonida kechadi. Tabib va Akbar orasidagi muloqot natijasida roman strukturasi yanada ranginlashadi. Tabib esa hamisha Akbarni qayg‘urib keladi. Romanda qizilo‘ngachidan rak bo‘lgan Tursunboy jontalash ham aslida murakkab obraz. Yozuvchi bu qahramonlarni hayotdan olib yozgan. Diniy, falsafiy, mifologik va tasavvufiy qarashlar negizida “o‘tish davri” qiyinchiliklari qalamga olingan. Haqiqatdan ham mamlakatimiz mustaqillik yillarida jar yoqasiga kelib qolgan sobiq ittifoq davrining qiyinchiliklarini nazarda tutganligi, Tabibning Akbarga bergan uzundan-uzun maslahatlari asosida ham yaqqol sezish mumkin. Tabib – ramzlar tilida ham Akbarga olam va odam haqida ko‘p bilimlarni tushuntiradi. Yozuvchi Odam ato va Momo Havvo haqidagi miflarni kiritar ekan, xarakterlar ochib berilishi bilan har bir faslda bir ilohiy mujdani singdirib yuboradi:

“Faqat Odam yolg‘iz edi. Xudovand esa xuddi parrandayu darranda kabi juft bo‘lishini istadi. Shu niyatda Odamni qattiq uyquga botirdi. Odam uyquga cho‘mganda Olloh taolo uning qovurg‘asidan birini olib, o‘rnini et bilan qopladi. Qovurg‘adan Odamning juftini – ayolni yaratdi. Shunda Odam Xudovandning istagiga ko‘ra, “Mana, endi bu suyak mening suyaklarimdir, bu et mening etimdandir. U “xotin kishi” deb aytiladi, zeroki, u er kishidan olingan” – dedi.

Shuning uchun ham keyinchalik dunyoga kelgan o‘g‘il-qizlar ulg‘ayib voyaga yetishgach, ota-onalarini qoldirib, er xotini bilan, xotin eri bilan bir tanu bir jon bo‘lib ketishar ekan.

O‘sha payti Odam ham, xotini ham bir-birlaridan uyalishmasdi”[3, 52].

Ulug‘bek Hamdam romanga tasavvufiy-falsafiy qarashlarni syujet voqeligiga aloqasi bo‘lmagan holda kiritadi. Biroq bu yerda boshqa masala qabarib ko‘rinadi. Sababi yozuvchi inson isyoni, xatosi, gunohi va tavbasining nechog‘li muhim ekaniga diqqat qaratmoqda. Chunki Tabib ham gunoh va savob haqida Akbarga ko‘p masalalarda ta’lim beradi. Larisa xola va Diana obrazlari ham ana shu voqelikka paralell ravishda harakatlantiriladi. Tursunboy jontalashning o‘z sog‘ligini o‘ylamasligi, ish va bola-chaqani deb, yosh joniga zulm qilishi, Qur’onda ta’qiqlangan. Hadislarda bularning mohiyati ochib berilgan. Mana shu talqinninng o‘ziyoq Odam va Momoning gunohlar qilib, jannatdan badar ketishiga olib kelgan. Shu boisdan ham, yozuvchi inson ruhiyatini teran ifodasiga nazar tashlaydi. Tabib umr shomida o‘kinch bilan bu hayotdan ko‘z yumadi. O‘kinch, iztirob, qayg‘u va g‘am har bir qahramon psixikasida ro‘y beradi.

Adabiyotda mifologik tasvirga ehtiyoj hech qaysi zamonda pasaymagan. A.Navoiy asarlarining asosi mifga qurilgan. Buyuk shoir mifga o‘z g‘oyalarini, inson haqidagi tadqiqot va ta’limotini singdirdi. Yevropada XIX asrda bunyodga kelgan mifologik nazariyalar adabiyotni

yana mifga yuz burishini boshlab berdi. Nisshe birinchi marta mif va insonni yaxlit holda tadqiq etdi. Freyd, Yung, Adler mifshunoslikning, mifga bo‘lgan munosabatning yangi nazariyasiga asos soldilar. Bu nazariya mif bilan adabiyot aloqasini mustahkam bog‘lab berdi: bu nazariyaga ko‘ra mif ajdodlarimizning timsollar tiliga asoslangan ong osti his-kechinmalari in’ikosidir. Freyd mifga “ong osti shahvoniy mayllarning”, Yung “Ommaviy ong osti hislarining”, Fromm “aqliy faoliyatga bo‘lgan hislarining” namoyon bo‘lishi deb baho berdilar[4, 140]. Haqiqatdan ham, mif va roman, mif va adabiyot tushunchalari XX asrdagi kabi turfa xil shakllarda rivojlangan emas. Jeyms joys va F.Kafkalarning romanlarida mif va inson obrazi yangicha rakursda paydo bo‘lib, hayotning barcha qatlamlariga qadar kirib bordi. Turk va o‘zbek romanchiligida ana shu kriteriyalar alohida bir olam shaklini emas, umumbashariy qadriyatlar sintezini ham dalolatlaydi. Umumbashariy qadriyat barcha xalqlar uchun birdek bo‘lgan va sinalgan qadriyat. U qanchadan-qancha sinovlarni boshidan o‘tkazadi. Ulug‘bek Hamdamning isyoni qahramonlarini ham shunday sinovlar qarshisida iymoni, e’tiqodi kuchli bo‘lishiga chaqirishdir.

FOYDALANLIGAN ADABIYOTLAR

1. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. –T: “Akademnashr”. 2018. –B.199-200.
2. A.L.Qozonchi. So‘nggi to‘fon. –T: 2008. –B.235.
3. Ulug‘bek Hamdam. Isyon va itoat. –T: “Yangi asr avlodi”. 2004. –B.52.
4. Jabbor Eshonqul. Follkor: obraz va talqin. –Qarshi, “Nasaf”. 1999. –B.140.

BIR MUXAMMAS XUSUSIDA

Zebo Qobilova,
filologiya fanlari doktori, professor,
Muhsim Mo`minov, professor v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`zbek muxammasnavisligi taraqqiyotida Omon Matchjonning o`rni masalasiga diqqat qaratilgan bo`lib, shoirning Alisher Navoiyning “avvalg`ilarg`a o`xshamas” radifli g`azlaiga bog`lagan taxmisi misolida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so`zlar: muxammas, taxmis, Xorazm adabiy muhiti, mahorat, badiiy san’atlar.

Xorazm diyori dunyo tamadduni tarixidagi adabiyot, san’at va madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Qadim “Avesto”dan tortib,

Feruz davri adabiy manbalari, hozirgi o`zbek adabiyotining eng yaxshi asarlari ham shu sehrli va maftunkor go`shada yaratilgan. Xorazm adabiy muhitida lirik turning barcha janrlarida badiiy barkamol asarlar yaratildi. Xorazm muxammasnavislik maktabi namoyandalari o`zbek adabiyotiga necha yuzlab mazmunan teran, katta mahorat bilan yaratilgan muxammaslarni taqdim etgani ham ayni haqiqat.

Ma’lumki, muxammas – Sharq mumtoz she’riyatining yetakchi janrlaridan bo`lib, xususan, XVIII–XIX asrlarda muxammasnavislik rivojlangan – shoirlar o`tmish so`z san’atkorlarining badiiy yuksak va o`zlarini to`lqinlantirgan ko`plab g`azallariga muxammaslar bog`laganlar. Ayni paytda, zamondosh qalam ahli o`zaro musobaqalashib ham bir-birlarining yoki muayyan shoirning g`azallariga muxammaslar yozganlar. Ayniqsa, Xiva va Qo`qon adabiy muhitlarida tatabbunavislik kabi muxammasnavislik ham keng tarqalgan. Muxammaslardan iborat maxsus bayozlar tuzilgan, to`plamlar tartib berilgan. Taniqli adabiyotshunos olim, mumtoz poetika bilimdoni Yoqubjon Ishoqov ta’biri bilan aytganda, muxammas “g`azaldan keyin eng ko`p yaratilgan lirik janr”[1]. Qaysi bir shoir devonini qo`lingizga olmang, unda o`tmish va zamondosh so`z san’atkorlarining o`zini ta’sirlantirgan va ilhomlantirgan g`azallariga bog`lagan qator taxmislariga duch kelasiz. Bu dalillar muxammasnavislikning taraqqiyot darajasidan dalolat beradi.

“Alisher Navoiyga bo`lgan cheksiz hurmat-e’tibor, uni o`ziga ustod deb bilish, tajribalaridan o`rganib, navoiyvor misralar bitishga urinish keyingi asrlar ijodkorlari tomonidan ulug` shoir g`azallariga son-sanoqsiz taxmislar yaratilishiga sabab bo`ldi. Natijada “Xazoyin ul-maoniy” devonidan o`rin olgan juda ko`p g`azallarga necha yuzlab taxmislar yuzaga keldi”[2].

Muxammas – ta’sir va ilhom samarasi. Har qanday shoir boshqa bir ijodkorning o`zida kuchli taassurot qoldirgan, fikrlarini uyg`otgan, tuyg`ularini junbishga keltirgan g`azaliga muxammas bog`lab, undagi fikrni rivojlantiradi va to`ldiradi. Natijada ikki muallifning fikru tuyg`ulari o`zaro uyg`unlashib, yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. Ayni jihatdan muxammasni hamohang ko`ngillar sadosi deyish mumkin. Omon Matjonning Navoiy g`azallariga bog`lagan muxammasi ana shunday hamfikrlikning yorqin namunalaridir.

Zamondosh shoirlar g`azaliga bog`langan taxmislar bir shoir qalamidan chiqqanday taassurot qoldiradi. Lekin oradagi masofa kattalashgani sari g`azal va taxmis aro tafovutlar ko`payib boradi. Chunki davr ruhi muxammasga o`z muhrini bosmay qolmaydi. Masalan, Omon Matjon Alisher Navoiy g`azallariga bog`lagan muxammaslariga bugungi

[1] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 126.
[2] Абдуғафуров А. Топилмаган ғазаллар // Буюк бешлик сабоқлари (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 76.

kun nafasi va muammolarini olib kiradi: Dunyoning kayfiyati, davr tartibotlariyu, inson qadri, ko`ngildagi g`amlaru ul oy hijroni ham endi avvalgidek emas:

Charx avzoyi bu dam avvalgilarg`a o`xshamas,
Kotibu davru raqam avvalgilarg`a o`xshamas,
Endi inson qadri ham avvalgilarg`a o`xshamas,
Ko`nglum ichra dardu g`am avvalgilarg`a o`xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg`a o`xshamas.

Muxammasni o`qigan o`quvchi salkam olti asr osha amalga oshirilgan ijodiy hamkorlikning ajoyib samara berganligiga guvoh bo`ladi. Chunki Omon Matjon qo`shgan misralar Navoiy fikrlariga munosib tagzamin bo`la olgan.

Muxammasning ikkinchi bandida elu yurtni chalg`itgan, necha avlodni umidini so`ndirgan “ucharlar” haqida so`z borar ekan, shoir davr tarozusida o`lchanganida, xatto sitamlar ham avvalgilarga o`xshamasligidan yozg`iradi. Keyingi bandda ishq talqini barobarida shoirning falsafiy qarashlar ham badiiy aksini topgan:

Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,
Voh, quyosh savdosig`a shamlar nechuk bo`ldi hakim,
Ishq, bu — o`z umrim, anga nechun qasamlar ichmakim,
Demangiz Shirinu Layli oncha bor ishq ichrakim,
Xo`blikda ul sanam avvalgilarg`a o`xshamas.

Ya’ni bu jahon tun bilan tong (yaxshilik va yomonlik) bahs etadigan bir hujra, ajabki, quyosh savdosig`a sha’mlar hakim bo`lib turibdi. Xo`blig`da Shirinu Laylini a’lo demang, ul sanam a’lolig`da avvalgilarga o`xshamaydi.

Muxammasning keyingi bandlarida ulug` ishga bel bog`lagan insonlarni yo`llarda xor bo`lmasligiga iltijo, haq masti bo`lgan odamning yo`lini to`smaslik, har bir amal beiz ketmasligi haqida gap borar ekan, lirik qahramon ishq bobida nafsga bog`lanmanganligi, uning ishqi Farhodu Majnunlar ishqidan ham o`tishini ya’ni avvalgilarg`a o`xshamasligini uqdiradi.

Shoir muxammasning so`nggi bandida sho`ro davrida avj olgan o`tmishni qoralash illatiga qarshi chiqib, o`tganlardan ayb izlash aslida noshudu notavonlar odati, kim mardlar ahliga mansub bo`lsa, avvalo, o`z zamonida adolat o`rnatishga harakat qiladi, o`zi yashayotgan hayot tilsimlarini ochish Omonga o`xshagan shu davr farzandlarining zimmasiga tushgan ish hisoblanadi, qabilidagi ibratli va hikmatli fikrlarni ilgari suradi va ayni fikrlar shams ul-millatning “Ey Navoiy, yoningda Husayn Boyqarodek olamshumul bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgan, ilmu

adab ahliga hamisha homiylik qilayotgan odil va ma’rifatparvar shoh turganida o`tmishning Jamshidu Faridun kabi adolatli hukmdorlarini madh etishga sira hojat bormi?” ma’nosidagi faxriya baytlariga uzukka qo`ygan ko`zdek uyg`unlashib ketadi:

So`kmak o`tganlar ishin notavonlar rasmikim,

O`z zamonin rost etar qavmi marddir asli kim,

Shu hayot tilsimlarin ochmoq Omonlar kasbikim,

Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfkim,

Shoh G`oziyg`a karam avvalgilarg`a o`xshamas.

Adabiyotlar:

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
2. Абдуғафуров А. Топилмаган ғазаллар // Буюк бешлик сабоқлари (Мақолалар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995.

AMIRIYONA TASHBEHLAR

Zebo Qobilova
filologiya fanlari doktori, professor,
Hilola Raimova
FarDU 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi Amiriy ijodi, uning o‘ziga xos uslubi, badiiy san’atlardan ustalik bilan foydalanishi haqida fikrlar keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, maqolada Amiriyning tashbeh yaratish mahorati xususida so‘z boradi. Jumladan, uning mevalardan betakror tashbehlar silsilasini yuzaga keltirganligi alohida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, mahorat, tashbeh, oshiq, ma’shuqa, mubolag‘a, tasvir imkoniyati, g‘azal, bayt, o‘xshatish.

Abstract: This article presents thoughts on the work of Amiri, the founder of the Kokand literary environment, his unique style, and his masterful use of the arts. At the same time, the article discusses Amiri's skill in creating metaphors. In particular, he is especially recognized for creating a series of unique metaphors from fruits.

Keywords: literary environment, skill, metaphor, lover, mistress, hyperbole, imagery, ghazal, couplet, simile.

Mumtoz she’riyat o‘zining uzoq yillik tarixi davomida o‘z jozibasi, sir-sinoatga to‘laligi bilan barchani hayratga solib kelganligi sir emas.

Buning sabablari uning alohida o‘zigagina xos jihatlariga borib taqaladi. Badiiy adabiyotning keng tarqalgan shakli bo‘lgan she’riyatda o‘tmish davrlaridayoq “Ahsanahu akzabahu”, ya’ni “Eng yashi she’r – eng yolg‘on she’r” degan naql yurgani ham e’tiborga molik. [3] Bu hikmat she’riyatning shakliga ham, mazmuniga ham dahldor bo‘lib, mazmunda mubolag‘aviylikning etakchilik kasb etishi, shaklda esa jimjimadorlikka va ta’sirchanlikning turli ko‘rinishlarini istifoda etilishiga moyilligi va molikligi, to‘g‘rirog‘i, shunga izn berilganidandir. Ya’ni har bir ijodkor she’rning go‘zalligini ta’minlash maqsadida bir-biridan betakror o‘xshatishlar, bo‘rttirishlash qilganlarki, ularning hech biri ikkinchisini also takrorlamaydi.

Mumtoz adabiyotimiz o‘zining serjiloligi-yu, ma’no qirralarining bisyorligi bilan hamisha o‘rganishni talab etib kelayotir. Jumladan, g‘azal janrining asosiy timsollaridan biri bo‘lgan mashuqaning yuzi, ko‘zi, qoshi, kipriklari, lablari, yonoqlari, qo‘yinki, har bir azosi turli jonli va jonsiz narsalarga, ya’ni ma’shuqaning yuzi to‘lin oy va quyoshga; qoshi kamonga, yangi chiqqan yarim oyga; ko‘zlari nargiz guliga, jallodga; kipriklari nayzaga, xanjarga,sipohlarga; lablari la’lga, yoqutga, sochlari qoralikda tunga;bo‘yi esa sarv daraxtiga qiyoslanganki, bu borada har bir ijodkor o‘ziga xos o‘xshatishlarni ham qo‘llagan.

Chunonchi, mavlono Lutfiy bir baytida yorning yuzini Qur’oni karimga mengzaydi:

Xat qildi yuzing mus’hafidin husn rivoyat,

Ul mus’haf uza xatting erur husnunga oyat.[4]

Ushbu baytda Lutfiy yorning yuzini Qur’oni karimga mengzash bilan bir qatorda uning labi ustidagi mayin tuklarini oyatlarga qiyos qilib o‘ziga xos betakror tashbeh yaratgan.

G‘azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy esa yorning yuzini, bir g‘azalida, quyoshga o‘xshatadi:

Ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,

Har sharorekim, bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.[5]

Ya’ni, bu erda oshiq tilidan ul quyosh yuzli yorim hijronida chekkan ohlarimdan sachragan har bir uchqun falakni o‘rtab yuboradi, deb

[3] Сиддиқов Мўминжон. Заковат адабиёти. Тошкент : Баёз, – 2014. – Б. 6.
[4] Лутфий. Сенсан севарим. Ўзбек адабиёти бўстони. Тошкент :Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 29
[5]Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. Тошкент: Тамаддун, 2021. – Б. 248.

qo‘rqyapman deydi. Hijronda qolgan oshiq o‘zining ahvolini bayon qilar ekan, chekayotgan azobi gulistondan ayri qolgan bulbuldan necha marotaba ortiqroq va og‘irroq ekanligini ifodalash uchun mubolag‘ali tasvirni qalamga oladi. Hijronzada oshiqning o‘tli ohidan sachragan bir uchqun falakni kuydirgudek, chunki tal’ati quyoshga o‘xshatilgan yorning go‘zalligi va tengsizligi ham shunga munosib ravishda betakror.

Yoki, Alisher Navoiy yana bir g‘azalida yorning kipriklarini tasvir ob’ekti qilib oladi:

Vahki, har kiprigi bir nishtar erur zahrolud,

Garchi bor ul iki nargisda shakarxob to‘la. [6]

Kipriklarni aynan nishtarga o‘xshatilishi , uning oshiq qalbini zaharlashi Navoiy talqinida o‘zgacha bir tus olgan. Yana bir baytida hazrat Navoiy yorning butun go‘zalliklarni o‘zida jam qilgan yuzini ta’riflar ekan, shunday yozadi:

Qosh-u ko‘zingni munajjim chunki ko‘rdi beniqob,

Dedi: ko‘rkim Qavs burjidin tug‘ubtur oftob.[7]

Ya’ni Qavs burjida yangi oftob tug‘ilibdi deydi. Bu burj vakillari husniga bino qo‘ygan, chiroyi bilan maqtanadigan insonlar hisoblanishini inobatga olsak, baytdagi ma’shuqa ham chiroyiga bino qo‘yish barobarida , oftobdek nur sochib yorini kuydurish uchun astoydil bel bog‘lagan.

Mumtoz adabiyotda ma’shuqaga berilgan an’anaviy ta’riflardan yana biri uning qomatini tik o‘suvchi sarv daraxtiga o‘xshatishdir. Bu an’anani shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham davom ettirib shunday yozadi:

E*y yuzi nasrin, qomati shamshod,*

Necha qilursen jonima bedod.[8]

Ya’ni baytda Bobur yorga murojaat qilib, ey yuzlari oq guldek go‘zal, qomati shamshoddek tik bo‘lgan yorim,nechun men oshig‘ing joniga buncha azob berasan, shuncha zulmning boisi ne, deya zorlanadi. Bunday yor yuzini gulga, qomatini esa shamshodga va sarvga o‘xshatish klassik adabiyot an’anasi hisoblanishi barchaga ma’lum.

[6] Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. - Тошкент : Тамаддун, 2021, – Б. 193.
[7] Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. -Тошкент : Тамаддун, 2021. – Б. 193.225.248
[8] Бобур. Танлангқан асарлар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – В.13.

Shoirlarning o‘z topilmalari zahirasini boyitgan o‘xshatishlar esa mana shu an’analarni yangilagan yaratiqlardir.Bunday yaratiqlar Amiriyda ham talaygina.

Noziktab ijodkor Amiriy ham bu borada qator o‘ziga xos o‘xshatishlarni qo‘llaganki, bularni hech ikkilanmasdan, amiriyona tashbehlar deyish mumkin. Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, uning yor yuzi, ko‘zi, kipriklari, qoshi-yu lablarini mumtoz adabiyotdagi an’anaviy tashbehlardan foydalanib go‘zal o‘xshatishlar qilish barobarida o‘ziga xos yangi topilmalar qilganligiga ham guvoh bo‘lamiz.

Jonu dil Ka’bayi ko‘yung sari bog‘lar ehrom,

Oy yuzing qibla, tavofi sari ko‘yung Arafot. (65)

Ushbu bayt mazmunidan “sening oy yuzing qibla, sening ko‘chang esa Arafot, shu bois jon va dil Ka’ba umidida ehrom bog‘ladi”, degan mazmun anglashiladi. Bundan ma’shuqa hamma uchun orzu, butun insoniyat unga etishish umidida yashaydi degan ma’no kelib chiqadi. Demak, ushbu bayt ilohiylik kasb etmoqda. Bu o‘rinda, ma’shuqaning yuzini qiblaga mengzash Amiriy yangilagan tashbehlardan hisoblanadi. Yuqorida ko‘rdikki, Lutfiy ma’shuqa yuzini Qur’oni karimga qiyoslaydi.

Amiriy yana bir baytida yor sochlarini ajdarhoga o‘xshatganligini ko‘rishimiz mumkin:

Gul yuzi uzra mutarro sochi pechu ham tushub,

Ajdaho zulfini jodu ko‘zlar afsun ayladi. (323)

Bu erda shoir yor go‘zalligini vasf etar ekan, gul yuzlar ustidagi parishon sochlarni ajdarhoga qiyos etadi va ma’shuqa ko‘zlarini ul ajdarhoni ham afsun qiluvchi jodugarga mengzab, go‘zal tasvir yaratadi. Bu o‘rinda xazinani hamisha ajdarholar qo‘riqlaganligiga ham ishora borligini sezish mumkin. Amiriy ijodida uchragan bunday o‘xshatish,shubxasiz, Navoiy sarchashmasidan suv ichgan.

Ma’shuqa timsolida go‘zal inson siymosi jilolansa-da, har bir san’atkor bu obrazni turfa ranglarda yangicha sayqal toptirishga intiladi. Ma’shuqaning go‘zalligini, malohatini tarannum etish uchun har bir shoir turli usullardan foydalangan va ular an’analar qobig‘ida yaxlit yoki turkum tasvir usullariga aylanib borgan. Ma’shuqaning suratiga chizgilar tabiatdagi go‘zal narsalarga qiyosan o‘quvchi ko‘z o‘ngida nihoyatda jilolanib namoyon bo‘ladi. Bu ba’zan bir, ba’zan bir necha g‘azal doirasida bo‘lgan. Amiriy ijodining o‘ziga xosligini namoyon etuvchi yana bir hodisa borki, u boshqa ijodkorlardan farqli o‘laroq, mevalarga ham ko‘p

murojaat qiladi, ulardan tashbeh sifatida mohirlik bilan foydalanadi. Quyida ana shunday mevalardan tizilgan amiriyona tashbehlarga diqqat qaratamiz.

Jinon bog‘iga kirsang, hur ila g‘ilmon ko‘rib aytur:

“Iki noring bila sebi zanaxdoningg‘a sallamno!” (44)

Bu erda “seb” - olma, “zanaxdon” – baqbaqa ma’nolarini beradi. Bu bayt orqali shoir yorning ikki qizil yuzi, yonoqlarini anorga, nafis baqbaqasini esa olmaga qiyos etar ekan, agar sen jannat bog‘iga kirgudek bo‘lsang seni hur-u g‘ilmonlar ko‘rib ikki anoring-u olmadek baqbaqangning go‘zalligiga hayron qolib, ofarinlar aytadi, deb lutf ko‘rsatadi.

Sarv qadding uzra la’lu orazing hayroniman,

Turfa naxledur aning shaftoli birla nori xo‘b. (61)

Ushbu bayt mazmuni bunday: Sarvdek tik va go‘zal qomating ustidagi labing va yuzingdan xayron qoldim, go‘yo bir ajoyib niholki, unda baravariga shaftoli bilan anor o‘sgan. Ajoyib va qoyimmaqom tashbeh! Bu erda ma’shuqaning qomati – sarvga, labi – shaftoliga, yuzi – anorga tashbeh qilingan. Bu holat laffu nashr san’atini ham hosil qilgan. Shu o‘rinda aytish kerakki, Xorazm adabiy muhitining etuk vakili Ogahiy ijodidagi: Qilg‘il tomosho qomati zebosi birla orazin, Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvandi shamshod ustina[9], baytida ham Amiriyga izdoshlikni kuzatish mumkin. Ogahiy ham ma’shuqa qomatini shamshodga, yuzini gulga qiyos etar ekan, go‘yo ko‘rgan kishi shamshodga gul payvand qilingan ekan deb o‘ylaydi, deya chiroyli manzara yaratadi.

Amiriy ijodida shaftoli asosan, ma’shuqaning labalari ifodasi uchun qo‘llanadi. Shoir yana bir she’rida “lablaring shaftolisig‘a zormen, ey bog‘bon”, deb yozgan edi. Odatda ma’shuqa labalari qiyosi uchun bol, shakkar, nobot (novvot), la’l, obi hayot tashbehlari qo‘llangan. Amiriy esa salaflaridan farqli o‘laroq, shaftoli tabehidan mahorat bilan foydalandi. XX asr o‘zbek she’riyatining eng yorqin vakili hisoblangan Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lpon ham yana shaftoliga murojaat qildi:

O‘n to‘qqizga kirgan qishloq qizlarining yuzidek,

Qip- qizargan yuzlaringdan bir o‘pich ber, shaftoli![10]

[9] Огаҳий. Асарлар II жилд.- Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 37

[10] Abdulhamid Cho‘lpon. Binafsha. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 69.

Mumtoz she’riyatdan farqli o‘laroq, bu erda Cho‘lpon qishloq qizlarinning sog‘lom va durkun yuzlaridagi qizillikni shaftoliga ko‘chirib, o‘ziga xos tasvir yaratgan.

Amiriy ijodida “anor” radifli 4 ta g‘azal mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlari bilan ajralib turadi. Biriga diqqat qilamiz:

Bo‘ldi tobidin harifi la’li jononim **anor,**
Gul qilur xuni jigardin xori mijgonim anor.

Husni bog‘i mevasig‘a yor noz aylab, dedi:
“Lablarim **anjir**dur, sebi zanaxdonim – anor”.

Bog‘ gul birla anorig‘a agar noz aylasa,
Yor aytur: “Orazim – gul, la’li xandonim – anor”.

Lablari **shaftolu**sig‘a zorman, ey bog‘bon,
To‘kmasun behuda istig‘no bila qonim – anor.

Sharbatim qondur, agar topsang, ul oy bazmig‘a bor,
La’li xandonimg‘a etkur arzim, ey jonim, anor.

Poralig‘ ko‘nglumni ko‘z yoshida qildim parvarish,
Kim, erur bu bog‘ aro maqbuli sultonim anor.

Sebi g‘abg‘ablar firoqida **behi**dek sarg‘orib,
Qatra-qatra ko‘z yoshimdin jaybi domonim anor.

Orazing rummonini bu bog‘ aro istar Amir,
Muddaodur anga, ey sarvi xiromonim, anor[11].

Ko‘rinib turibdiki, mazkur she’r o‘zbek mumtoz she’riyatidagi mevalar tashbehiga asoslangan eng go‘zal g‘azal hisoblanadi. G‘azalda anor radif sifatida kelib, ma’shuqaning labi qizilligiga tashbeh o‘laroq boshlanib, asosan, oshiqning iztirobli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan (jigar qoni, qonli ko‘z yoshi). Shuningdek, ma’shuqaning lablari anjirga, shaftoliga qiyos qilinib, oshiqning yuzi behiga o‘xshatilganki, bu bilan shoir o‘ziga xos tashbehlar silsilasini yaratgan.

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, shoir baytlarini alohida – alohida badiiy san’atlar nuqtai nazaridan olib o‘rganish deyarli mumkin emas. Chunki ularda kamida ikki va yoki uch san’at birgalikda keladi. Bu katta

[11] Амирий. Девон.Ўзбекча шеърлар.- Тошкент: Тамаддун, 2017. – В.105.

iste’dod egalariga xos xususiyat. Amiriy she’rlarining rang-barang san’atlarga boyligi uning betakror iste’dod sohibi ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сиддиқов Мўминжон. Заковат адабиёти. Тошкент : Баёз, – 2014.
2. Лутфий. Сенсан севарим. Ўзбек адабиёти бўстони. Тошкент :Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. Тошкент: Тамаддун, 2021.
4. Бобур. Танлангқан асарлар. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
5. Огаҳий. Асарлар II жилд.- Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
6. Abdulhamid Cho‘lpon. Binafsha. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
7. Amiriy. Devon.O‘zbekcha she’rlar.- Toshkent: Tamaddun, 2017

HIKOYA POETIKASIDA FOLKLORNING O‘RNI

Qurbonova Feruza A’zamovna,
Qo‘qon davlat universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi o‘zbek adabiyotining iste’dodli yozuvchilardan biri Isajon Sultonning hikoyanavislik mahorati haqida so‘z yuritilib, adibning folklor an’analaridan unumli foydalana olishi ko‘rsatib o‘tildi. Hikoyalar badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o‘xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o‘y-xayollari o‘quvchi diqqqatini o‘ziga jalb etishi “Bibi Salima” hikoyasi tahlilida ochib berildi.

Kalit so‘zlar: hozirgi o‘zbek adabiyoti, nasr, hikoya, janr, uslub, folklorizmlar, qahramon, obraz.

Bugun milliy adabiyotimizning deyarli barcha janrlarida yozilgan asarlar qatida milliy o‘zlikni anglash, qahramonlar ruhiyatidan tortib turish-turmushigacha o‘zbekcha tasvirlash, tasvirlangan voqelar realligini oshirish maqsadida, urf-odatlar va an’analar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish holati kuzatilmoqda. Xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat etish yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubini,

asarning g‘oyaviy-badiiy mukammaligini va syujetning originalligini ta’minlash bilan birga, ramziy timsoliy tasvirlarning bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. milliy qadriyatlar va an’analarga suyanib ish ko‘rgan yozuvchi o‘z badiiy niyatining ro‘yobga chiqishiga erishadi. U asarning xalqchilligini va milliyligini ta’minlabgina qolmay, uning kompozitson qurilishi, badiiy tasvirning yangiligi va qahramonlar xarakterining to‘laqonli chiqishini ham ta’minlaydigan badiiy asosga ega bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek nasrining mahoratli yozuvchilaridan biri Isajon Sulton hikoyalarida folklor motivlaridan unumli foydalanadi. Adibning turli mavzulardagi hikoyalarini kuzatadigan bo‘lsak, zamonaviy nasrga xos badiiy usullar bilan folklor, mumtoz adabiyotga xos badiiy usullarning sintezini kuzatish mumkin. Jumladan, bu holat, xususan, folklor stilizatsiyasi “Bibi Salima”, “Yog‘och kovush”, “Shamolli kecha”, “Manzil”, “Bog‘i Eram” hikoyalarida bo‘rtib ko‘rinadi. Adib ijodida nozik bir qirra o‘tmish, tarix va kelajakni mifologik usullar orqali sintezini kuzatish mumkin. Adib hikoyalariga qatiga singdirilgan bu usul hikoyalarning o‘qimishli va xalqchilligini ta’minlagan. Uning “Bog‘i eram”, “Shamolli kecha”, “Qismat”, “O‘rmondagi kulba”, “Qoraqush yulduzining siri” , “Men, Onam va O‘rta Yer dengizi” kabi o‘nlab hikoyalari bugungi o‘zbek nasrining yangilangan adabiyot qiyofasini ko‘rsatadi. Adib bu hikoyalarida uzoq davrlar davom etgan va o‘quvchini zeriktirgan temir qolipdagi qahramonlardan, davr talabi bilan ko‘tarilgan g‘oyalardan, asar tili esa ortiqcha jimjimadorlikdan xoli. Isajon Sulton hikoyalarida ayniqsa, ruhiy tahlilning noan’anaviy talqini e’tiborni tortadi. Zero, Isajon Sulton ijodiga yuqori baho bergan adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov “Isajon Sulton bu – qip-qizil ekzistensializm!..Borliq ichra borliqlar bilan shug‘ullanadi va o‘rganadi, olamning o‘ziga xos falsafasini yaratadi. Lahzalarning inson uchun larzalarga aylana borishini tekshiradi. Albatta, larzalar quruq havoda emas...naq inson kechinmalarida kechadi. Biz bilgan-bilmagan larzalarning bari faqat va faqat kechinmalarda kechadi”[1,19], deganda yozuvchining hikoya janridagi jajji kashfiyotlarini ham nazarda tutgan edi.

Adib hikoyalariga xos muhim xarakterli xususiyat yozuvchining folklor uslubidan mahorat bilan foydalanishida ko‘rinadi. Hikoyalar badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o‘xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o‘y-xayollari o‘quvchi diqqqatini o‘ziga jalb etadi. Masalan, “Bibi Salima”, hikoyasida bu badiiy xususiyatlar to‘liq ko‘rinish bergan deyish mumkin. Hikoya qahramoni ko‘ngli sof va samimiy tuyg‘ular bilan limmo -lim to‘lgan, oqko‘ngil o‘zbek ayoli. Hikoya shunday boshlanadi: “Bibi Salima bir ko‘kalamzor qishloqda yashaydi. Qishloq katta emas, ammo har

hovlisidagi manzara o‘xshash. Ko‘chalari tuproq, uylar oldidan ariqda suv o‘tgan. Ariq bo‘yida qad ko‘targan zich oqterak yaproqlari shitirlab turadi. Ba’zilarining oldida yashil to‘fonday bo‘lib supurgilar bo‘y cho‘zibdi. Aslida u – burganning bir turi, xalq dastalab boylab, supurgi qilib ishlatadi. Bibi Salimaning uyiga kirib borsangiz, chapda ayvonli chog‘roq imoratni ko‘rasiz…Etakroqda yangi qurilgan tandir”.[3,25] E’tibor bersak, yozuvchi hikoya uslubida “ertak” janriga xos bayon qilish usuli, batafsil tasviriylik, yana liro-romantik uslub ham ko‘zga tashlanadi. Shu tariqa yozuvchi o‘quvchini qahramon yashayotgan qishloq, uy tasvirini berish orqali, asta-sekin qiziqtirib, Bibi Salimaning ruhiy dunyosiga olib kiradi.
Hikoyada Bibi Salimaning hovlisida tandir qurdirishi, tandirchidan duo olishidan boshlanadi.
- Yo‘g‘-e, erkak kishi turganida men duo qilamanmi? - dedi Bibi Salima, o‘ng‘aysizlanib.
- Nonni siz yopasiz-ku, - dedi tandirchi. – Men qorgan loyimga, qilgan ishimga duo qilaman. Barakani esa siz so‘rang”.[3,26] Asarda xalqimizning qadimiy an’analaridan biri duoga e’tibor qaratiladi. Bibi Salima nutqida aslida erkaklar bor joyda ayollarning duo qilmasligi, oilada erkakning ustunligi, erkak kishining ulug‘ligi to‘g‘risidagi xalqona qarashlarimiz ifodalanganini ham kuzatish mumkin. Muallif “Yetmish yashar ayoldan, yetti yashar yigit ulug‘”, degan xalq maqolini hikoyaga singdirsa, bu fikrini yana bir o‘rinda dalillab “Xudo ro‘zg‘orning rizqini erkakdan berar ekan”[3,26], degan iqrorni Bibi Salima tilidan keltiradi. Bu orqali adib hikoyada nafaqat sodda, samimiy o‘zbek ayoli, balki, musulmon ayolining go‘zal suvrati va siyratini tasvirlaydi. Bibi Salimaning eri kasal bo‘lib qoladi, ojiza bir ayol shunday davrda faqat Allohga suyanadi: “Ey bori Xudoyo, erimga shifo ber, ro‘zg‘orimga baraka ato et. Axir, hammasi o‘zingni ixtiyoringda-ku?”[3,29] Xalq olqishlarida ko‘proq Xudoga murojaat qilinadi. Hikoyada yana bir xalqimiz orasida uchraydigan an’ana tilga olib o‘tilgan. Ota-bobolarimiz erta tongdan turib uyning eshik va derazalarini ochib qo‘yishadi, chunki ularning nazarida sahar vaqti uyga farishtalar kiradi. Farishtali uy barokatli, fayzli bo‘lishini farzandlari va nevaralariga uqtirishadi. Adib hikoyada xalq ruhiyatini ko‘rsatib berish maqsadida qahramonni harakat va o‘ylariga ushbu an’anani singdiradi. Bibi Salima ham tong sahar turib, eshiklarni ochib qo‘yadi, go‘yoki uyga farishta kiradi. Eshiklar yopiq bo‘lsa, kirgani tortinsa kerak deb o‘ylaydi. Adibning bu hikoyasida qo‘llangan xalq an’anasi asar qahramonining xarakteri, ruhiyatini ochish hamda xalqimizda qo‘llangan an’ana va udumlarning barhayotligini ko‘rsatib berish vazifalarini bajargan.

Yozuvchi mahorati folklorizmlarning asar syujetida ochiq va yopiq holda qo‘llashidadir. Bibi Salimaning tong sahar turib eshiklarni ochib qo‘yishi, uyga barakot kirishi bilan bog‘liq motiv qaharmonning xatti

harkatlari zamiriga singdirilgan yopiq holda yashirin ifoda etilgan etnofolklorizmdir. Personajlar nutqidagi duo va olqishlarning o‘rni-o‘rni bilan keltirilishi ochiq qo‘llanishiga misol bo‘la oladi.

Hikoyada muallif uslubini yetkazib berishda detallarning o‘ziga xos xizmat qilgani yaqqol ko‘rinadi. Professor B.Sarimsoqov badiiylikning mohiyati va asoslari haqida yozar ekan, badiiy obraz xususida shunday ta’kidlaydi: “Real voqelik faktlari faqatgina o‘ziga xos belgi-xususiyatlari bilan emas, balki ijodkorning estetik idealiga xos atributlar bilan boyitilgan, muayyan darajada o‘zgartirilgan, qaytadan idrok etilgan holda aks etgandagina badiiy obraz vujudga keladi”[4,64].

“Bibi Salima” hikoyasida obraz-timsol-qahramon Bibi Salima va uni quvvatlaydigan, jonlantiradigan atribut bu – tandir. Yozuvchi tomonidan bu detal juda joyida va yaxshi topilgan. Asar avvalidan somonsuvoqli ayvonli imorat, sinchdan ko‘tarilgan bitmagan imorat, tandir yonidagi loyo‘choq, suvpaqir, tandirqopqoq, qozon damtovog‘i kabilarning tasviri o‘zbeklarning tartibli hayot tarzi haqida xabar beradi. Yozuvchi uslubiga xos yana bir jihat peyzajdan o‘rinli foydalanishida ko‘rinadi. Peyzaj qahramon ruhiy holatini, hikoya umummazmunini ochishda yozuvchiga qo‘l keladi. Shamolning turlari, shamoldan keyingi tabiatdagi o‘zgarishlar ramziy ma’noda asar qahramoni ruhiy holatiga ishora deyish mumkin. Bibi Salimaning erta bahorda Xudoga aytgan gaplari isyon yanglig‘ ko‘rinib, keyinchalik tavbalar qilishi, yomg‘ir bilan rizqni berilishi, Alloh mo‘jizalarini tabiatda bo‘layotgan hodisalar orqali o‘quvchiga eslatish, qalbdan qilingan duo mustajob bo‘lishiga ishonib yashagan xalqimizning umumqiyofasini birgina obraz orqali gavdalantira olish yozuvchi mahorati orqali yuzaga chiqadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Isajon Sulton folklorizmlardan qahramonlarning xarakterini yaratish, asar badiiy g‘oyasini ochib berishda unumli foydalangan. Folklorizmlarga murojaat adib hikoyalarida avvalo milliy koloritni ta’minlagan. Qahramonlarning qayerda yashashi, qaysi zamin kishilari ekanligi uning xarakteri, nutqi, dunyoqarashi talqini orqali ochib berilgan. Folklorizmlar o‘z o‘rni bilan turli poetik vazifalarni ado etgan: a) syujetni shakllanishini ta’minlovchi motiv. b) qahramon xarakterini ochib berishga xizmat qiluvchi poetik unsur. s) milliy koloritni ochib berishni ta’minlovchi badiiy vosita. d) asar badiiy g‘oyasini ochib beruvchi badiiy vosita vazifalarini o‘tagan.Umuman olganda, Isajon Sulton ijodidagi folklordan foydalanish, mifologik motivlar muhim tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat badiiy asar poetikasini boyitish, balki og‘zaki merosimizni kelajak avlod uchun saqlab qolishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ғафуров И. Ёзувчи, табиат ва табииёт. / Исажон Султон насри бадиияти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар / тўплаб нашрга тайёрловчилар: Г.Сатторова, М.Қўчқорова. – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 19.
2. Қўчқорова М. Ҳикоянинг сеҳрли дунёси // Ёшлик. 2017. 4-сон.
3. Исажон Султон. Ҳазрати Хизр изидан. - Тошкент. Ғ.Ғулом Н.И.М.У. 2018. – Б.250.
4. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.–Тошкент, 2004. – Б. 64.
5. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T.: Akadem.2013
6. Qo’chqorova M. Hozirgi o’zbek nasrida badiiy shartlilik.T.: Fan, 2020.

BOTIRXON AKRAMOV ILMIY FAOLIYATIGA MUNOSABAT

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna,

F.f.b.f.d. (PhD) dotsent, Qo‘qon DPI

mukaddassaidakbarova@gmail.com

Annotatsiya: Zukko olim Botirxon Akramovning navoiyshunoslik yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari o‘z o‘rniga ega ilmiy izlanishlardan biri bo‘lib, olimning navoiyshunoslik doirasida olib borgan tadqiqotlari adabiyotshunoslik yo‘nalishining bebaho manbasiga aylanib ulgurdi. Botirxon Akramov 20 asrda yashab ijod qilgan o‘zbek millatining fidoyi, zabardast, oliyjanob fazilatli ma’rifatparvar vakilidir. Maqola shu haqda.

Kalit so‘zlar: Navoiyshunoslik, o‘ziga xos uslub, navoiyona yondashuv, ta’sir, mafkura tamoyili, maqolot, mundarija, tadqiqot, dolzarb, fenomen shaxs, ma’naviy sodiqlik.

Kirish

Muborak manbalarda har yuz yilda o`ziga xos mujaddid olimlar yuborilishi haqida ta’kidlangan. Ushbu irfoniy qonuniyat insonshunoslik nazariyasining muhim mezon, o‘lchovlaridandir. Insoniyat tarixida behisob olim, mutafakkkir shaxsiyatlar yashab o‘tdilar, ularning har birlari shaxs sifatida ham, ilm ahli sifatida ham namuna o‘laroq faxriylardir. Ammo, bir haqiqat borki, behisoblik ichida ayri holda hisob etsa bo‘ladigan ma’rifiy qatlam vakillari borki, ular yuqorida zikr etilgan hadisi sharifda nazarda tutilgan xos shaxslarning asl hayotiy namunalaridir. Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy aynan shundaylar jumlasidandir deyish haqiqatga xilof kelmas aksiomadir. Mana bir necha asrlarki, Navoiy fenomeni ham shaxs,

ham ilm ahli sifatida avlodlar e’tiborida, tadqiqotchilar nazarida. Ilohiy nizomga xos shaxsiyatlar betakrorligi va muborakligi bilan ham ahamiyatlidirlar. Betakrorlik har bir mavjudlikka xos aniqlik bo‘lib, muboraklik esa ba’zan kuzatiladigan, ba’zan kuzatilmaydigan noyob hodisadir. Ayni shu sifat “har yuz yil”ning tuhfalarini umumiylikdan ajratib beradi. Muboraklik sifat egasini fenomen mutafakkir nomda xoslash bilan birga, keyingi avlod ma’rifiy-ijtimoiy tamaddunida har sohada minglab masalalarga yechim sifatida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy shaxsi, ijtimoiy, siyosiy, adabiy, ilmiy faoliyati necha asrlarki tubi cheksiz ummon kabi tadqiqotchilarni o‘ziga mahliyo qilishdan to‘xtamaydi. Navoiy faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning har biri navoiyshunoslik olamida yangi bir so‘z aytilish hodisasi bo‘lish bilan birga keyingi yangi tadqiqotlar uchun chaqiriq vazifasini ham o‘taydi.

Asosiy qism.

Zukko olim Botirxon Akramovning mazkur yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari o‘z o‘rniga ega ilmiy izlanishlardan biri bo‘lib, olimning navoiyshunoslik doirasida olib borgan tadqiqotlari adabiyotshunoslik yo‘nalishining bebaho manbasiga aylanib ulgurdi. Botirxon Akramov 20 asrda yashab ijod qilgan o‘zbek millatining fidoyi, zabardast, oliyjanob fazilatli ma’rifatparvar vakilidir.

“Kaminangiz – faqiru haqir Botirxon Akramxo‘ja eshon o‘g‘li 1932-yilning 20-noyabrida Farg‘ona vodiysining qadimiy O‘sh shahrida (arab manbalarida: “Xayrul baladon”, vodiyning ziyoratgohlaridan – “Makkai Ajam”), dehqon-bog‘bon xonadonida tavallud topganman. Avval yetti yillik maktabda (sobiq Sulton mingboshi – olim va dramaturg Izzat Sultonning bobosi qurdirgan imoratlaridan birida), so‘ngra viloyat pedagogika bilim yurtida, O‘sh o‘qituvchilar institutida tahsil oldim. 1952-1954-yillarda Toshkent Nizomiy nomidagi pedagogika institutida o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida o‘qishni davom ettirdim.”[12]

Olimning o‘z hasbi holi bayonida ma’lumot berishicha, 1954-1963 yillarda o‘zi tavallud topgan shaharda o‘qituvchilik, madaniyat xodimi sifatida faoliyat yuritgan. 1963-1966 yillarda Nizomiy nomidagi pedagogika institutida aspiranturada Natan Mallayev, Maqsud Shayxzoda, Hamid Sulaymon kabi akademik olimlar qo‘lida tahsil olgan. Shu bilan birga 1966-1969 yillarda O‘zbekiston fanlar akademiyasida kichik ilmiy xodim sifatida ishlaganligi, 1967 yilda professor Hamid Sulaymon rahbarligida “Navoiy lirikasida majoziy obrazlar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi va 1991 yilda doktorlik dissertatsiyasini yoqlaganligi,

[12] Ботирхон Акрам.Ҳайратлар олами.-Тошкент.2014.Б-5

keyingi yillarda oliygohlarda professor pedagog sifatida faoliyat yuritganligi haqida ma’ulotlar berilgan.

“Aspirantlik yillarimdan 1991 yilgacha uch monografik risolam nashr etildi: “She’riyat gavhari”, “Olamning butunligi”, “Fasohat mulkining sohibqironi”. Nihoyat, uchta kitobim nashriyot rejasiga kiritildi: “So‘z guhari”, “Navoiy shoxbaytlari”, “Jahon gul ichinda”. 1969-2002-yillar orasida Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Zulfiya, Saida Zunnunova, Asqad Muxtor, Rauf Parfi, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va ko‘p boshqa ko‘plab shoirlar ijodini tadqiq va tahlil etuvchi yuzdan ortiq ilmiy-tanqidiy maqolalarim gazeta va jurnal sahifalarida e’lon qilingan. Boshqa bir yangi ijodiy ishtiyoq: daf’atan, kaminada uyg‘ongan orifona she’r “dag‘dag‘asi” (Bobur) va qasida-doston rag‘bati, balkim bu – qalam ma’budi Atorudning ilk mujdasidir...”[13]

Olimning o‘z xasbi holida ta’kidlashiga ko‘ra, uning quyidagi ilmiy-badiiy asarlari mavjud:

№	Asar nomi	Nashriyoti va nashr yili	Asar turi	Nashr adadi
1	“Fasohat mulkining sohibqironi”	Toshkent, “O‘zbekiston”, 1991	Ilmiy asar	15000
2	“So‘z guhari”		...	...
3	“Navoiy shoxbaytlari”	2007 yil, Toshkent, “Yangi asr”	Ilmiy asar	500
4	“Jahon gul ichinda”		.....	....
5	“Hayratlar olami”	Toshkent, “Turon Zamin Ziyo”. 2014	Lirik asar	400
6	Yurak yo‘llari	Toshkent, “Zilol buloq”, 2020	Ilmiy asar	500

Botirxon Akramov bu kabi monografik tadqiqotlardan tashqari 120dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Maqolalar turli ilmiy konferensiya to‘plamlarida, jurnal va gazetalarda nashr ettirilgan. Olim ushbu maqollarida nafaqat Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha, balki o‘zbek adabiyotining boshqa yirik vakillari, xususan zamondosh ijodkorlar ijodiga ilmiy munosabatlar bildirgan. Ammo hozirgacha Botirxon Akramovning ilmiy maqolalari jamlab alohida to‘plam ko‘rinishida nashr etilmagan.

2021 yilda O‘zbekiston navoiyshunoslik fondi tashabbusi bilan “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” nomli 30 jildlik to‘plamning 3-

[13] Ботирхон Акрам.Ҳайратлар олами.-Тошкент.2014.Б-6

jildiga Botirxon Akramning “Fasohat mulkining sultoni” monografiyasi kiritilgan.

2022 yili olimning farzandlari tashabbusi bilan B.Akramov tavalludining 90 yilligi poytaxt ma’rifat va ma’naviyat go‘shalarida nishonlandi va uning ayrim asarlari qayta nashr ettirildi.

Botirxon Akramov qizi Guli Akramova boshchiligida “Botirxon Akram” elektron portali yaratilib, unda olim shaxsi va uning ilmiy-adabiy faoliyatiga doir qimmatli materiallar jamlab borilmoqda.[14]

Yuqoridagi faktik ma’lumotlarga ko‘ra, Botirxon Akramov faoliyatiga munosabat bildirish masalasi ayni chog‘da dolzarblik kasb etmoqda. Olimning dastlabki monografik tadqiqoti “Navoiy lirik olamida majoziy obrazlar” deb nomlanganligini ta’kidlab o‘tdik. Shunga ko‘ra, Alisher Navoiy ijodiy olamida majoz talqini rakursidan qarash bir ma’noda Botirxon Akram tadqiqotlarining asosiy tamoyili edi. Olimning ilmiy mushohadalari va munosabatlari bilan tanishish jarayonida boshqa navoiyshunoslardan ajratib turuvchi o‘ziga xos uslubi diqqatni tortadi. Odatda tadqiqotlarda ma’lum qat’iy mezonlarga tayanilgan holda, deyarli ilmiy atamalar vositasida bayon tariqi tutiladi. B.Akramov bu uslubga o‘ziga xos yondoshganligi, bir ma’noda 20-asr o‘zbek adabiyotshunosligida yangi talqin yo‘nalishini kasb etgan.

B.Akramov ilmiy izlanishlar bilan birga ijod olamida qalam tebratib, badiiy-lirik asarlar ham yaratgan. Uning “Hayratlar olami” to‘plami olimning nazmda ham yaxshi ta’b egasi ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu to‘plamga ijodkor olim qalamiga mansub doston va turli janrlarda bitilgan she’rlar kiritilgan. To‘plamga kiritilgan doston va she’rlarda B.Akramov ilmiy tadqiqotlaridagi o‘ziga xos uslublarning badiiy ifodasi o‘laroq, betakror, fenomen kompozision qurilish va poetik talqinga egadir. To‘plam kiritilgan lirik, liro-epik janrlar na’munalarini adabiyotshunoslik nuqtasidan tahlil qilish jarayonida olimning butun umri davomida Hazrat Navoiyga ma’nan sodiq qolganligi, hatto qalbidagi iztiroblar, orzu-hayollari ham Alisher Navoiy ruhiyatiga monand ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Xulosa. Har qanday ilmiy tadqiqotlar olib borishda tanlangan ob’yekt bilan bog‘liq asl matn izlanish ishlarida muhimlik darajasining avvalida turadi, shu bilan birga tanlangan ob’yekt ustida tadqiqot ishlari olib borgan soha olimlarining ilmiy izlanishlari ham yangi tadqiqotlar uchun muhim manbaa vazifasini o‘taydi. O‘zbek adabiyotshunosligida, xossatan, o‘zbek navoiyshunosligida olib borilgan yuzlab tadqiqotlar Navoiy merosining asl mohiyatini anglash, ma’naviy-ma’rifiy tadrijni sodir etuvchi uzluksiz harakatning asosiy energiya asosidir. Navoiyshunos olim Botirxon Akramov ilmiy faoliyati davomida navoiyshunoslik borasida olib borgan

[14] Қаранг. https://botirxonakram.uz/about

ishlari ayni ana o‘sha harakatlantiruvchi omil ruknlaridandir. Shunday ekan, B. Akramov ilmiy tadqiqotlari natijalariga murojat qilish ko‘zlangan maqsad natijalari garovidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Botirxon Akram.Hayratlar olami.-Toshkent.2014
2. Botirxon Akramov. Fasohat mulkining sultoni.-Toshkent. 1991
3. Sadriddin Ayniy.Asarlar.8-tom.-Toshkent. 1967.B-28-29
4. Aziz Qayumov.Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar.Toshkent. 2014.
5. Sultonmurod Olim.Naqshband va Navoiy.Toshkent.1996.B-100

JADIDCHILIK HARAKATIDA AYOLLARNING ROLI

Xasanova Barno Yusupovna,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, fil.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik harakatida ayollarning o`rni masalasi yoritilgan. Jadidlar tomonidan qizlar va ayollarni o‘z tilida yozish va o‘qish, savodini oshirish kabi g‘oyalar ilgari surilganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar**: jadidchilik, ayollar ijodi, maorif, ma’rifatparvarlik, g`oya.

XX asr o‘zbek adabiyotiga tamal toshini qo‘yganlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida Maryamxon tilidan “Shariatda jabr harom!”, “Shariatda adolat bor”, “Islomiyat o‘lmaydi” deydi. Ijodkor Maryamxon ezgu-niyatlariga jadidona g‘oyalarni singdirib, o‘qish va o‘qitish ishlariga ayollar rag‘batini targ‘ib qiladi. “Yangi saodat” nasriy asarida, “Maysaraning ishi” dramasida va bir qancha lirik she’rlarida ayol zakovatining nuri har qanday zulmatni yoritishga qodir ekanini ko‘rsatib beradi. Jadidlar xayolida xotin-qizlarni bilimli qilib tarbiyalash butun Turkiston halqi madaniyatini rivojlanishiga hissa qo‘shishi tayin edi. Shu asnoda qizlar va ayollarni o‘z tilida yozish va o‘qish, savodini oshirish kabi g‘oyalar ilgari surildi. So‘fizodaning “O‘qing, onalar”, “O‘zbek xonimiga”, “Xonimlar isminda”, “Muslimalar” asarlarini eslashimizni o‘ziyoq fikrimizga dalil bo‘ladi.

Jadidlar Rus imperiyasi davrida turk tilidagi nashrlarda ayollar ta’limi, turmush qurish yoshi va ayollarning ommaviy roli haqida o‘z fikrlarini bidirib kelishgan. Bu keyinchalik, 1920 yillarda o‘zbek faol ayollarini o‘z islohot dasturlarini ishlab chiqishida yo‘nalish ko‘rsatgandi.

XX asrning 10-yillarida ichkaridagi ayollarning ruhi-ahvolidan

xabardor qiluvchi, xat-savodi bor ayollar oz bo‘lsada ko‘rina boshladi. Jumladan, 1906 yilda qo‘qonlik yosh ayol - Tojiya birinchi turk tili ayollar jurnaliga xat yozib, turkistonlik musulmon ayollarning ahvoli haqida shikoyat qilgan: *“Hurmatli Shafiqa xanum, biz kamtarona holda quyidagilarni ma’lum qilamiz…Hammaga ayon bo‘lsa kerak, bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o‘sish va islohotlarga katta ahamiyat berilayapti. Musulmon ayollari ham o‘ziga xos haftalik nashrga ega va ular o‘z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma’lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo, biz Rossiya markazida faoliyat ko‘rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda, bu yerda o‘z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo‘qligidan afsusdamiz. Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz, Sartiya musulmon ayollari ko‘p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro‘znomaning faqat bir necha satrlarida, biz, Sartiya musulmon ayollarining Qrim va Qozon ayollariga nisbatan o‘z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o‘z huquqlarimizga ega bo‘lardik. Biroq bu amalga oshadimi? Ox, bu qashshoqlik! Biz hammamiz ilm va ta’limga muxtojmiz! Biz hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo‘lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o‘qishni bilishini ta’kidlash lozim. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo‘lmasa kerak…Biz o‘z farzandlarimizni o‘zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz, farzanlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan No‘gay o‘qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo‘lgan urinishlarimiz bizga yo‘l ochib bermay, qiyinchilik tug‘dirib, dong qotib kolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo‘lda davom etadigan bo‘lsak, bir kun, biz, musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o‘z holimizni o‘zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o‘rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o‘g‘il va qizlarimizni No‘gay maktabiga yuborishga yo‘l bering!”[com.tarix]*

Tojiyaning jurnal muharririga yo‘llagan maktubi Turkiston ayollarining inqilobdan oldingi kayfiyatini bildirishi bilan nihoyatda muhim hodisa sanaladi. Xatda Jadidlar tomonidan o‘sha paytlarda muhokama qilinayotgan muammolar ko‘tarilgan, ammo ular Tojiya tomonidan ayollar muammosi sifatida ta’kid etilgani juda ham noyobdir. Tojiya, Sartiya (ya’ni, o‘troq Turkistonlik yoki O‘zbek) ayollarining o‘z huquqlarini bilmasligi va ularni qutqarishning yagona yo‘li – bu ularga zamonaviy ta’lim berish ekanligiga alohida urg‘u beradi. Uning murojaati Jadidlar chaqiruvi, ya’ni islomiy ta’limni zamonaviy, g‘arb ta’limiga munosib tarzda o‘zgartirishga undaydi. Tojiyaning fikr va g‘oyalari uning

islomiy hayot va turkiy nashr bilan aloqalari borligini aks ettiradi. U o‘z murojaatida Rossiyadagi musulmon ayollari, ya’ni tatar millatiga mansub ayollarning harakatlarini nazarda tutgan. Bunga sabab, u o‘zini musulmon ayollar muhitida ko‘rib, muammolarga yechim kengroq islomiy jamoada topilishi mumkinligiga ishongandi.

1900-yilda Qo‘qonda to‘rtta nashriyot uylari, bir necha kitob do‘konlari mavjud bo‘lib, yangi uslubdagi Jadidlar maktablari bir qancha maktab va madrasalar qatoriga qo‘shilgandi. Tojiyaning, agar ayollar zamonaviy ilmga ega bo‘lsa, ijtimoiy muammolardan xalos bo‘lishi to‘g‘risidagi munozaralari keyinchalik, ikkinchi o‘n yillikdan so‘ng targ‘ibot etilgan munozaralarning ayni mantiqqa ega ekanligini kuzatish mumkin. Jadidlarning ayollar hayotini takomillashtirish va yangi, zamonaviy ta’limni targ‘ib qilish harakatlari ba’zilar tomonidan shikoyatga sabab bo‘lgandi. Xotin qizlarni o‘qib, ta’lim olishini targ‘ib etish harakatlari diniy-mutaassib kuchlar tomonidan g‘azabli norozilikka duchor bo‘lgandi. 1907-yilda musulmon yana bir turkistonlik ayol Nojiya Duma musulmon a’zolariga maktub yozadi. U o‘z maktubida musulmon ayollarining erkaklar tomonidan to‘rt devor orasida qamalib qolgani va shariyat ayollarga tijorat bilan shug‘ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlarni berishini, Istanbul va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklari haqida shikoyat qiladi va Dumaning musulmon a’zolaridan turkistonlik ayollarga bu huquqlarni ta’minlashlarini talab qilgan holda o‘z fikrlarini ochiq holda bayon etadi.

1916-yilda Rus ma’muriyatiga qarshi Turkiston shahar va qishloqlari bo‘ylab isyonlar ko‘tarildi. Bu holat tarixda birinchi marta ro‘y bergan, o‘ziga xos, ayollar qatnashgan isyon edi. Turkiston ayollari ilgari hech ommaviy chiqishlarda va qo‘zg‘olonlarda qatnashmagan edi.1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun Turkiston Respublikasi «Ko‘mak» jamiyati tomonidan yo‘llangan 16 nafar talaba orasida Xayrinisa Majidxonova alohida ajralib turar edi. Xayrinisa dastlab Miroboddagi yangi maktabda tahsil olib, rus va nemis tillarini o‘rgandi. Undagi dunyoqarashining shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtda birinchi o‘zbek xotin-qizlar bilim yurtida o‘qiyotgan opasi Oyposhshaxonning ham ta’siri katta bo‘ldi. 1922-yili “Turkiston” gazetasida chop etilgan Xayrinisa Majidxonovaning maqolasida endigina 17 yoshni qarshilagan qizning Vatan istiqboli haqidagi orzu-istaklari o‘rin oldi. Maqolani o‘qir ekansiz, eng avvalo, o‘tgan asrning boshida yashagan bir o‘zbek qizining tarixiy tafakkuri naqadar kengligi, Vatan taqdiri oldida o‘zini qanchalik daxldor sezishi ko‘pchilikni hayratga solishi tabiiy. Oradan qariyb yuz yil o‘tganiga qaramay, maqolada ilgari surilgan fikrlarning ba’zilari hamon dolzarb ekani e’tiborimizni tortadi. *“Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi. Bu asr umuman*

musulmon mamlakatlarining tanazzul davri bo‘lib, tanazzulning ham ko‘p sababi karvon yo‘llarining ahamiyati ketib, g‘arblilar tarafidan dengiz yo‘llarining yuksaltirilishi edi.

XIX asrda ham Turkiston G‘arbiy Ovrupodan uzoq bo‘lg‘onlig‘i uchun, taraqqiyot tomonidan boshqa musulmon mamlakatlaridan ham tuban darajada turdi. XX asrning boshida ham qo‘shnimiz bo‘lgan Eron xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta’siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkani muddatda bizning Turkiston tinch uxlamoqda edi… Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi… Bundan ochiq anglashiladirki bizning moziyimizni porloq qilg‘on – elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir. Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar”, – deb yozgandi o‘smir Xayrinisa. Yosh Xayrinisa maqolasidan uning o‘z vatani kelajagi uchun qanday kuyungani seziladi.“*Turkiston iqlimining qizg‘inlig‘i va yerining munbit (hosildor)ligi uni doim qiymatlik hosilot beruvchi ziroat mamlakati ravishida qoldirg‘usidir. Ikkinchi tomondan Turkiston tog‘larining ma’danga boylig‘i bunda tog‘ sanoatining yuksalishiga sabab bo‘lg‘usidir. Bu ikki asos – hayotni ta’min qilish yo‘llarining yuksalishi natijasida (paxta zavodlari, ipak fabriklari, ma’dan zavodlari, shekilli) katta sanoatning boshqa xillari ham yuksalgusidirlar.*

Turkistonning tabiiy boyliqlarini ishlata olg‘ali, katta sanoatni turg‘izgali va natijada yangi temir yo‘llar o‘tkazgali kuchi yetsun hozirgi xo‘jalikdan ortib qolib to‘plang‘on boyliqning bo‘lishi kerak. Hozirgi ziroatning mahsulotini ortdirish uchun birdan-bir chora bo‘lsa ziroatda har xil yangi ishlab chiqorish usullari, yangi qurollar va mashinalarni qo‘llanishidir. Hozir bu qurollarni Ovrupolilardan oltun barobariga olishga to‘g‘ri kelganidek, kelgusida ham har xil sanoat qurollarini Ovrupolilardan sotib olishg‘a majbur bo‘lamiz. Mashina qancha qimmat bo‘lsa ham uni qo‘llashimiz kerak. Chunki, ul bizning boylig‘imizni ortdira oladir. Buni G‘arb davlatlarining hayotida mashinaning tutqon o‘rni isbot qiladir”, – deydi u. Bu fikrlar Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, So‘fizoda kabi yurtparvarlar fikri bilan naqadar uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, maqolada Turkiston jamiyatining ma’naviy qiyofasiga ham to‘xtalib: *“… bizning bu dardimizning ham buyuk qurollari matbuot, maktab va teatrdir. Bizda bularning har qaysisi bor. Lokin, ular o‘zlarining tarixiy vazifalarini yeriga yetkaza oladirg‘on darajada emasdirlar. Bizning yangi maktablarimizdan shul vaqtg‘acha xalq hurkib keldi. Matbuotdan uzoq turdi. Teatrni anglamadi. Chunki, bularning har qaysisi o‘zining asosiy vazifasining haykal mujassami bo‘la olmadi. Xalqning ruhiga ehtiyot bilan yaqinlashib, unga ta’sir ijro qila olmadi. Har bir xalqning uyg‘onish*

davrida g‘oyat muhim o‘rin tutadirg‘on bu uch buyuk qurolni o‘z vazifalarining ruhi bilan sug‘orish bizning navbatdagi ishimizdir… Bizning tadrijiy taraqqiyotimiz shul yo‘llar bilan borsa kerak. Aks holda, biz o‘z moziyimizdan uzulib xalqning g‘urbatda qolishiga sabab bo‘lurmiz”, – deb xulosalaydi. 1922 yilning so‘ngida Germaniyada tahsil olishga yuborilayotgan talabalar qatorida o‘zbek qizlari toshkentlik Xayriniso Majidxonova, Saida Sherahmadboyeva va xorazmlik Maryam Sultonmurodovalar ham bor edi. Bu esa XX asr avvalida Turkistonda ro‘y bergan islohotlarda ayollarning roli va o‘rni naqadar muhim bo‘lganini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Britaniya kutubxonasi (British Library), “A New Path, A New Dawn: Women’s Magazines in 1920s Soviet Uzbekistan,” May 2017, https://blogs.bl.uk/european/2017/05/a-new-path-a-new-dawn-womens-magazines-in-1920s-soviet-uzbekistan.html

2. Marian Kamp, “The new woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism” 2006, Vashington Universiteti nashri, AQSH.

3. Jadid ma’rifatparvalik harakatining g‘oyaviy asoslari. - T. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2016-yil.

4. uzanalytics.com.tarix.

MAISHIY-IJTIMOIY MAVZULARNING BADIIY TALQINI

Zumradxon Teshaboyeva,
Renessans universiteti dotsenti v.b, (Phd)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning maishiy-ijtimoiy mavzulardagi qissa va hikoyalaridagi obrazlar tahlil qilinadi. Maqolada asar qahramonlarining o‘tish davri va bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan hayotiy xususiyatlari, ularning irodasi, qaror qabul qilish jarayonlari va ruhiy ziddiyatlari o‘rganilgan. Sadriddin, Nafisa, Sunbula kabi qahramonlarning xarakterlari tafsilotlari bilan ochib berilib, ularning faol yoki passiv pozitsiyalari, ichki ruhiy kechinmalari va voqealarga munosabati ko‘rsatib berilgan. Qissa va hikoyalarda inson xarakterining paradoksal va murakkab qirralari, ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan xarakter xususiyatlari, hamda ijtimoiy-madaniy muhit ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maishiy-ijtimoiy mavzu, qissa, hikoya, xarakter tahlili, obraz, Abduqayum Yo‘ldoshev, badiiy talqin.

Abstract: This article analyzes the images in Abdukayum Yuldoshev's stories and narratives on everyday and social topics. The article studies the life characteristics of the heroes of the work, formed in the conditions of the transition period and the market economy, their will, decision-making processes and spiritual conflicts. The characters of such heroes as Sadriddin, Nafisa, Sunbula are revealed in detail, their active or passive positions, internal spiritual experiences and reactions to events are shown. The paradoxical and complex aspects of human character, character traits manifested in conflict situations, and the influence of the socio-cultural environment are analyzed in the stories and narratives.

Keywords: everyday and social topic, story, narrative, character analysis, image, Abdukayum Yuldoshev, artistic interpretation.

Abduqayum Yo‘ldoshevning asarlaridagi obrazlarga xos eng asosiy xususiyatlardan biri ular o‘tish davri va bozor iqtisodiyoti tutumlari asosida yashay boshlagan odamlardir. Ular yashab qolish istagida yangi davr yo‘rig‘iga yurishga, zamonga moslashishga harakat qilayotgan kishilar. Bu yo‘lda chekkan iztiroblari, jabru jafolari ularni goh iztirobga soladi.

Maishiy-ijtimoiy mavzudagi qissalarida asosan zohiriy xususiyatlari bo‘rtib ko‘rinadigan xarakterlarni uchratamiz. Xususan, “Yulduzlik”ning shafqatsiz to‘lovi” qissasi qahramoni yosh hofiz Sadriddin Mehriddinov kelajakda mashhur artist bo‘lishni orzu qiladigan, shuhratga o‘ch, izzattalab yigit. Uning orzu-istaklari xuddi pufakka o‘xshaydi. U davradagilarga doim o‘zining xayolidagi obrazni – yorug‘ kunlardagi iqbolini aytib berardi. Bu orzuga nisbatan atrofdagilarning mazaxomuz munosabati uni qiziqtirmasdi: “Vaholanki, kelajak manzarasini aytayotgan mahal yigirma yoshlardagi qotma yigitning kirpi sochlarimi, qirra burnimi, shahd bilan qimtilgan yupqa lablarimi, qorachiqlarida yonayotgan laxcha cho‘g‘mi – nimasidir parvozga shaylanayotgan lochinni eslatardi”.[15]

Sadriddin – bir qarashda kibrdan xoli, o‘z maqsadi yo‘lida hech narsadan chekinmaydigan, niyati toza va iste’dodiga ishongan yigitcha. Ammo undagi xudbinlik fe’li tobora kuchayib, oxir-oqibat uni xarob qiladigan darajaga yetadi. Nafaqat o‘zining hayoti, balki Nafisaning hayoti ham uning xudbinligi ortidan zavolga yuz tutadi. Sadriddin obrazi yorqin xarakter darajasiga chiqa olgan. Uning atrofdagi odamlar bilan konfliktida o‘zigagina xos bo‘lgan salbiy xususiyatlar bo‘rtib ko‘rina boshlaydi. Aynan konfliktda biz uning xarakterini boshqalardan ajratib, obrazni tanib olamiz.

[15] Абдуқаюм Йўлдошев. “Юлдузлик”нинг шафқатсиз тўлови. / Алвидо гўзаллик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. 61-бет.

Sadriddinning xarakteriga paradoksal holatda Nafisaning ham xarakteri ochila boradi. U o‘ta xokisor, faqat o‘zini o‘ylamaydigan, muhabbatga ishonadigan, sevgilisi uchun barcha yordamga shay, hatto bu yo‘lda hayotini ham tikib yubora olgan jasoratli qiz ekanini o‘quvchi qissa davomida bilib oladi. Sadriddinni ruhiy xastaliklar shifoxonasiga olib ketishgandan keyin ham Nafisa umidini uzmaydi, uni yolg‘iz tashlab qo‘ymaydi. “Mana, oradan ikki oyga yaqin vaqt o‘tdi. Nafisa kunda-kunora shifoxonaga boradi. Ora-sira “Men yulduzman!.. Men talantman!..” deb qichqirib qoladigan Sadriddinning karavoti yonida o‘tirib yum-yum yig‘laydi”.[16] Hayot uni birdan tashvishlar chohiga uloqtirgan edi. Hofizning yonidan zo‘rg‘a qo‘zg‘alib, uning ijara uyiga qaytadi, lekin u yerda ham uzoq qololmaydi. Uch oylik ijara pulini ololmagan badqovoq xo‘jayindan qochib, yig‘lagancha yana telba hofizning yoniga qaytib keladi.

Qissa to‘la-to‘kis hayot orzusi, oson mashhur bo‘lish, tez boyib ketish kabi xomxayollarga beriladigan, mehnat va mashaqqatdan qochadigan, tez yengiladigan shuhratparast va irodasi bo‘sh odamlarning achchiq qismati haqida hikoya qiladi. Bu orqali yozuvchi “har qanday iste’dod sohibi moddiy manfaatni emas, avvalo chin ijod mahsulini yaratib, odamlar ko‘nglidan joy olishni maqsad qilishi kerakligini, iste’dodini o‘tkinchi ko‘piklarga sarf qilmasligini” ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

“Timsohning ko‘z yoshlari”, “Sunbulaning ilk shanbasi” qissalarida davr ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari ta’sirida shakllangan, ayni paytda, davr o‘zgarishlariga har biri o‘zicha moslashayotgan, individual xususiyatlari bilan namoyon bo‘luvchi xarakterlarlarni ko‘rish mumkin.

Har ikkala qissada qahramon roviy-hikoyachi sifatida ishtirok etadi va qissalar MEN tilidan hikoya qilinadi; ikkala qahramon ham asosiy voqealarni shunchaki hikoya qilib bermasdan, voqealar markazida turib, syujet chizig‘ida faol/nofaol tarzda ishtirok etadi; hikoya qilinayotgan voqelikka ishtirokidan tashqari, har bir holatga munosabati bildirib boradi; ularning kasbi-kori bir xil, gazeta tahririyatida faoliyat yuritadilar, tahrir bilan shug‘ullanishadi; ular ishtirok etayotgan voqelik ikki yoshning sevgi tarixi bilan bog‘liq; atrofidagi voqelikka nisbatan achinish va hamdardlik tuyg‘usi mavjud bo‘lib, voqealarni tahlil qilib borishadi; har ikkala qahramon qissada tasvirlangan arzi hol bo‘yicha o‘rtahol, bir amallab pul topadigan va zo‘rg‘a ro‘zg‘or boqadigan odamlar.

Bu kabi umumiy jihatlar bilan birga faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar ham mavjud. Mazkur xususiyatlar ularning xarakterini belgilab beradi. Voqealar markazida ishtirok eta turib, biri aktiv, biri passiv pozitsiyani egallaydi.

[16] O‘sha asar. 108-бет.

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi qahramoni qo‘lidan kelgancha hamxonasiga yordam bermoqchi bo‘ladi va oxirigacha bu ishni muvaffaqiyat bilan ado etadi. “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi qahramoni esa Munisaning taqdiriga qancha achinmasin, unga qancha yordam berishga urinmasin, bu missiyani oxirigacha bajarishga jur’ati yetmaydi. Bu qahramonda qat’iyat yetarli emasligi ko‘rinadi.

“... birovning hayotiga burnimni tiqishni yomon ko‘raman, ammo o‘smoqchilab-o‘smoqchilab so‘rab olishni yaxshi ko‘raman: bu endi, aytaylik, mutlaqo burun tiqish emas, bil’aks, uzoqda turib hidlab ko‘rishga muvofiqroq bezarar bir mashg‘ulot bo‘lib, fahmimcha, hali hech kim iskab ko‘rishni man qilgan emas”,[17] deya o‘zining hayotiy prinsiplariga izoh beradi qahramon. U ko‘z o‘ngida bo‘layotgan voqealarni jon qulog‘i bilan tinglab, ko‘zlari bilan ko‘rib tursa-da, Munisaga yordam qilish uchun o‘zida kuch topa olmaydi.

Qat’iyat o‘rniga bu qahramon o‘zi uchun sabablar qidirishga urinadi, o‘zini oqlaydigan, vijdoni oldidagi mas’uliyatini ado etadigan vajlarni izlaydi: “Endi, beparvolik uchun, aytaylik, "ob’ektiv-sub’ektiv" asos paydo bo‘lgach, men N. tahririyatida kechadigan ikki ish kunimni sof vijdon bilan to‘laligicha ishga sarflashga urinarkanman, ora-sira, asosan hordiq chiqarish va choy ichish mahallari voqealar jarayoniga xolis kuzatuvchi sifatida bir nazar tashlab qo‘yishga urinarkanman, rosti gap, ba’zan yuragim uvishib-uvishib ketib, o‘zimga haqiqat bo‘lib tuyulgan voqelikni idrok qilarkanman, ehtimol, boshidan yaxshi niyat qilganim maqbulmidi, qarg‘aga o‘xshab qag‘illab, opa aytganiday elburutdan vahima qilganim bois ham hamma narsa menga qora rangda ko‘rinmayotganmikin, degan tusmollarga-da borardim”.[18] Bu qabilidagi taskinlar qahramon izlayotgan o‘sha chora – vaziyatdan vijdonga azob yedirmagan holatda silliq o‘tishga optimal tadbir, eng maqbul variant bo‘lib tuyulaveradi.

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi bosh qahramoni esa nafaqat jur’atli, balki o‘z qiziqishlarining faol amaliyotchisi ham desak, yanglishmaymiz. U faol ishtirokchi sifatida voqealar rivojiga qo‘shiladi. “Albatta, aslini olganda, har bitta odamning o‘zi – sirli olam. Va o‘zgalar asroridan hech bo‘lmasa bir chimdim bilib olib, xudbinona nafs ehtiyojini qondirish qon-qonimizga singib ketgan, shekilli, tonggacha mijja qoqmay, qo‘lyozmalarni o‘qib chiqib ham aniq bir xulosaga kelolmagach, “Hechqisi yo‘q, kelasi yili barini bilib olaman”, degan tasalli bilan o‘zimni o‘zim yupantirib, nisbatan yengil tortganday bo‘ldim. Atigi bir yilgina qolibdi, atigi bir yil”.[19] Mazkur parchadan ko‘rinib turibdiki, qahramon

[17] Абдуқаюм Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Қиссалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. 41-бет.
[18] Абдуқаюм Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Қиссалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. 64-бет.
[19] Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. 44-бет.

ichidagi qiziqishlar bilan birga hamxonasining iltimosini bajarish uchun shaxsiy hayotini ham bir chekkaga surib qo‘yadi. Adib uning shaxsiy hayoti haqida ko‘p chizgilarni bermaydi.

Ba’zida ushbu qahramonda ham ikkilanishlar, chalg‘ishlar kuzatiladi. O‘zida bu kabi majburiyat yo‘qligini, bu yukni o‘zidan soqit qilish bilan insoniylik chegarasini buzib o‘tmasligini o‘ziga uqtirmoqchi va shu bilan chekinmoqchi bo‘ladi. Xonadan-xonaga o‘tib, muk tushgancha ishlayotgan, yoinki choyxo‘rlik qilayotgan hamkasblari bilan biroz suhbatlashgach, ayvonga chiqib, “sigareta tutuni buluti orasida narx-navo, pul kabi yuki yengil mavzularda bahslashayotgan” kashandalar davrasiga qo‘shiladi. Qahramon ichki dunyosida kechayotgan bu ruhiy ziddiyatlarni quyidagicha ta’riflaydi: “Aslida hissiyotlar yuqumli bo‘ladimi yo o‘zga sabablar bormi, har nechuk, hamxonam o‘z yo‘liga, biroq men xam bora-bora yaqinlashib kelayotgan momaqaldiroq isini tuyayotgan usti yupun, qo‘nalg‘asiz, yaydoq cho‘lda yolg‘iz qolgan mushtiparday xavotirga tushadigan bo‘lib qoldim”.[20]

Hamxonaning iltimosi va uni bajarish majburiyati vijdon doirasidagi yumush edi. Qahramon chin ma’noda insoniylik ko‘rsatishga intilmaydi. Chunki uning xatti-harakatlari sun’iy, soxta va uyushtirilgan bir holat emasdi. Garchi ikkilanish va yo‘ldan qaytishga bo‘lgan taraddud paydo bo‘lsa ham, u “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi qahramonidan farqli o‘laroq, insoniylikni to‘la ma’noda saqlab qola oladi: “Odatda, ko‘ngilda ixtiyorimga qarshi ravishda uyg‘onib kelayotgan bu tuyg‘u ensamni qotirar, o‘zimdan o‘zim achchiqlanib, “Menga nima?” qabilidagi po‘pisalar bilan o‘zimni chalg‘itishga, yumushlarga alahsitishga urinar, ammo barcha sa’y-harakatlarim benaf ketayotganini anglagach; «bor-e!» deya bariga qo‘l siltab qo‘ya qolardim-da, voqealarning o‘z tabiiy rivojida davom etaverishini, hamdard guvoh sifatida kuzatib yuraverishdan o‘zga ilojim yo‘qligini e’tirof etardim”.[21] Ushbu qahramon xarakterining o‘ziga xos jihatlari aynan mana shu epizodda yaqqolroq ochiladi.

Har ikkala qissada ham muallif o‘zi yaratgan sub’ektiv voqelikdagi zanjirga aralashib, o‘zining munosabatini bildirib boradi. Hayotiy haqiqatlari, hayot haqidagi o‘y-mulohazalari, falsafiy qarashlarini aynan roviy-hikoyachi, ya’ni qahramon tilidan berib boradi.

“Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida voqealar ichida chor-nochor qolgan, o‘zi uchun najot eshigini izlayotgan qahramonning tilidan adibning falsafiy-hayotiy mushohadalari ham aralashib ketadi: “Va xuddi ana shu kuni o‘zimcha bir alamzada xulosaga ham kelib oldim: nima uchun endi bir yo‘la ikkita ayol o‘ligini menga ortib olishi kerak ekan? Nima, qarzim bormi ulardan? Indamas ekan deb... Mol achchig‘i-jon achchig‘i. Pul yomon narsa bo‘lar ekan, birodarlar. Men hatto... yotgan... mazza qilgan

[20] O‘sha asar. 7-бет.
[21] O‘sha asar. 7-bet.

kichik musahhihamiz bo‘lsa-yu, axir, aslini olganda ham, bir umr mohpora oyimqiz bo‘lib o‘tolmasdi-ku, qachondir sodir bo‘lardi-ku bu voqea, tabiat qonuni-ku bu, bir kun erta-bir kun kech deganday... – nega endi azobini men tortishim kerak, degan o‘ylargayam bordim...”[22]

“Sunbulaning ilk shanbasi” qissasida esa hayotiy haqiqatlar ohorli tashbehlar, chiroyli jumlalar, xalq naqllari bilan boyitiladi. Roviy-hikoyachi qahramon tahririyatda ishlashi, so‘z odami ekani tufayli bu faylasufnamo gaplar o‘quvchida e’tiroz uyg‘otmaydi: “Deylik, bug‘doy ichida o‘sgan, g‘allakor mehnati neligini bilgan odam hech qachon nonni tepmaydi. Shunga o‘xshab, bog‘bon farzandi ham gulni toptay olmaydi... Yaratganga ming qatla shukrlar bo‘lsinki, kamina ham to yashab turganim Iso alayhissalom yoshiga qadar vijdonli, insofli, diyonatli insonlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘ldim”.[23] Ushbu parchadan qahramonning yoshi Iso payg‘ambar yoshida – 33 yoshda ekanini bilib olamiz. Mazkur parchaning davomi to‘liq yozuvchining fikrlari kabi jaranglaydi. Zero, yozuvchi zoti hayotida ko‘rgan taqdirlarga, ayniqsa, iztirobli taqdirlarga befarq bo‘la olmaydi: “Har nechuk, shundoq fidoyi, imonli insonlardan, ayniqsa, qalam borasidagi ustozlarimdan nelardir sal-pal yuqib qolgan shekilli, birovning iztirobi, qayg‘usini ko‘rgan chog‘imda teskari o‘girilib o‘tib keta olmayman, irodamdan-da ustun bir nima meni to‘xtatib, hech bo‘lmasa, bir qur hamdardlik izhor etishga undab, nainki undab, majburlab turadi”.[24]

Insoniyat taqdiri hamisha ziddiyatlar ustiga qurilgan. Muhabbat dardiga mubtalo bo‘lgan oshiq yor vasliga yetmoqni maqsad qilib, bu yo‘lda har nega tayyor turadi. “Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib” yuborgulik shiddat oxir-oqibat yo vaslga olib boradi yoki o‘rtaga firoq tushib, shiddat parchalanib ketadi. Ziddiyatlar bo‘lar ekan, xarakter qirralari namoyon bo‘ladi. Ya’ni qarama-qarshiliklar mobaynida inson qalbi, irodasi o‘z xususiyatini ko‘rsatadi. Yoki turmush muammolari bilan yurgan insonning o‘z mushkulini oson qilishi uchun harakat qilishi, barcha maqsadlarini faqat shu fokusga qaratishi umrining ro‘zg‘or tashvishi bilan o‘tib ketishiga olib keladi. Bunday vaqtda uning ichida yashayotgan yozuvchi, rassom, haykaltarosh, aktyor yoki boshqa bir iste’dod uchquni porlamay so‘nadi. Ya’ni u hayotini o‘zi istagan maqsadlarga sarflay olmadi. Bu holat, ayniqsa, o‘tish davrida, jamiyatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari paydo bo‘lgan davrda ziyolilarning hayotida kuzatildi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning o‘zi ham aynan shu davrda yashagani, bu iztiroblarni o‘zi ham boshdan kechirgani uchun ko‘plab qissa va hikoyalarida turmush tashvishlaridan orta olmay qolgan ziyoli obrazini

[22] Абдуқаюм Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Қиссалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. 75-бет.
[23] Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. 18-бет.
[24] Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. 18-бет.

ko‘ramiz. Mazkur davrning mashaqqatlari, ziyolilarning fojialari ro‘yi-rost tasvirlanadi. Shunchaki bayon emas, aksincha, badiiy mushohada qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуқаюм Йўлдошев. “Юлдузлик”нинг шафқатсиз тўлови. / Алвидо гўзаллик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
2. Абдуқаюм Йўлдош. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. Қиссалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.
3. Абдуқаюм Йўлдош. Сунбуланинг илк шанбаси. -Тошкент: Ёзувчи, 1998.

O‘ZBEK XALQ INONCH AYTIMLARI XALQ OG‘ZAKI IJODINING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA

Mo‘minova Nodira Mahmudovna,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti v.b., f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq inonch aytimlarining folklorshunoslikdagi ahamiyati, ularning janr tabiati va poetik xususiyatlari yuzasidan ma’lumotlar beriladi. Keltirilgan mulohazalar olimlarning nazariy qarashlari va muallifning shaxsiy tahlillari bilan dalillanadi.

Kalit so‘zlar: Irim, janr, poetika, tur, inonch, niyat, qarg‘ish, duo.

Abstract: This article provides information on the significance of Uzbek folk beliefs in folklore, their genre nature and poetic features. The presented considerations are substantiated by the theoretical views of scientists and the author's personal analysis.

Keywords: Irim, genre, poetics, type, belief, intention, curse, prayer.

Irim kishilar tomonidan o‘zlarini ehtiyot qilish, birovlarga yaxshilik tilash yoki ziyon yetkazish va boshqa niyatlarda qilinadi. Irimning turlari juda ko‘p va jahondagi deyarli hamma xalqlarda uchraydi. Ilgari farzandlarga ism qo‘yishda ham irim qilinardi. Masalan, yo‘lda tug‘ilgan bolaga Yo‘lchi, safarda tug‘ilgan bolaga Safar deb ism qo‘yilgan. Irim bir tomondan, kishilarning ezgulikka intilishlari bilan bog‘lanib ketadi, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatda qandaydir g‘ayritabiiy sehrli kuchlarning borligiga ishonishga asoslanadi. Kishilarning amalda tabiiy va ijtimoiy kuchlarni tobora o‘zlariga bo‘ysundirib borishlariga qarab, irimlar yo‘qolib boradi” [25].

Bu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, inonch qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida “irim” so‘zi anglatgan ma’noni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shu o‘rinda “aytim” so‘zining xalq iboralaridan farqi jihatlariga ham e`tibor qaratish lozim. “Ibora biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi so‘zlar birikmasi; ta’bir. Obrazli ibora...

[25] Ўзбек совет энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент, 1974. – Б.123.

Frazeologik ibora ma’no jihatdan yaxlit bir butunlikni tashkil etuvchi bir necha so‘zlardan iborat birikma”[26].

Xalq aytimlari ibora yoki so‘z birikmasining hajmi va mazmun doirasi bilan chegaralanmasligi haqida I.Yormatov yozadi: Aytaylik, duo, so‘kish, olqish yoki yig‘i-aytimlar bir necha sodda va qo‘shma gaplardan tashkil topishi mumkin. Jonli ijroda ehtiyoj tug‘ilganida aytimlar iboralarni o‘z ichiga singdirib yuboradi. Misol uchun, “Iloyo, boshing toshdan bo‘lib, safaring bexatar o‘tsin” olqishi yoki “Ikki oyog‘ing bir etikka tiqilmay, o‘l!” qarg‘ishining tarkibiga kirgan turg‘un iboralar buni tasdiqlaydi. Shu boisdan iboralarni o‘zbek xalq aytimlari bilan teng qo‘ymaslik zarur.

Xalqimiz irim-sirimlarni unutgani yo‘q. Inonch aytimlari esa yangi avlod tomonidan bobo va momolar nutqidan o‘zlashtirilyapti, nima uchun shunday deyilishining tub sabablari surishtirilyapti. Ularda xalqimizning asriy qadriyati obrazli va ta’sirchan tarzda o‘rin olganligi ko‘pchilik yoshlarni hayratga solmoqda. Boshqa paremiologik janrlar qatorida inonch aytimlarini sinchiklab o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ijtimoiy-maishiy sabablari mana shunda. [27]

O‘zbekiston fanida paremiologik janrlar namunalarini filologiyaning o‘rganish obyekti sifatida olib qarash dastavval tilshunoslar tomonidan boshlab berildi [28]. Bu tashabbusni 70-yillarning oxirlarida samarqandlik tilshunos olimlar qo‘lga oldilar. Ular paremani so‘zlar yig‘indisidan hosil bo‘lishiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlariga ko‘ra alohida ajralib turuvchi til sathi sifatida olib o‘rgana boshladilar. Natijada Samarqandda tilshunoslik aspektidagi paremiologlar maktabi vujudga keldi. Keyinchalik shu maktab vakillari tomonidan mutaxassislar ehtiyojiga mo‘ljallangan maxsus lug‘at ham tuzildi[29]. Mazkur lug‘at tuzuvchilarining fikricha, jonli nutqdagi “paremalar biror voqea, holat va situatsiyasiz esga ham kelmaydi. Ularni qo‘llab ham bo‘lmaydi. Demak, paremalar ma’nosi kontekstdan tashqarida reallashmaydi. Paremalarning mazmun va stilistik xarakteristikasi faqat konkret tekstdagina oydinlashadi”[30]. Ko‘rinyaptiki, so‘z oddiy til hodisasi to‘g‘risida ketayotgani yo‘q. Inonch aytimmi, so‘kishmi, olqishmi, qat’i nazar, aniq bir tagmatn doirasidagina o‘z stilistik-semantik imkoniyatlarini namoyish eta olar ekan.

“Paremalarda grammatik zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari, intonatsiyasi ham odatdagi gaplardan farq qiladi. Bunday iboralar shaklan qaysi zamonni ko‘rsatishiga qaramasdan, har doim umumiy zamonni ifodalaydi. Bu iboralarning kesimi ikkinchi yoki

[26]Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент, 2000. – Б.187.
[27] Ўзбек халқ ирим айтимларининг жанр хусусиятлари / Ўзбек фольклоршунослиги. Антология. – Тошкент: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б.474-475.
[28] Bu haqida qarang: Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970.
[29] Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
[30] O‘sha lug‘at. – B.9-12.

uchinchi shaxsni ko‘rsatsa ham, mazmunan umumga qaratilgan bo‘ladi va shaxsi umumlashgan gaplarni hosil qiladi” (ta’kid bizniki – N.M.) [31]. Darhaqiqat, shunday. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning mulohazalari bir necha paremik janrlar uchun umumiy xususiyatni ifodalaydi. H.Berdiyorov va R.Rasulovlar parema badiiyatiga asoslangan janrlar o‘zagini tashkil etuvchi xususiyatlarni sanay turib, quyidagi mantiqan to‘g‘ri xulosalarini bayon qiladilar. Lug‘at tuzuvchilarining fikriga ko‘ra, paremalar tuzilishi jihatidan sodda va murakkab shaklga ega. Semantik jihatdan esa uch turga – “faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan paremalar, ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan paremalar, faqat o‘z ma’nosida qo‘llanadigan paremalarga” ajraladilar[32]. Biz ushbu lug‘at xususida ko‘proq to‘xtalib, iqtiboslar keltirishimizning boisi shuki, u Samarqandda 70-yillarda nashr etilgan uchta paremiologik to‘plam maqolalaridagi nazariy xulosalarning sintezi sifatida qimmatga ega. Albatta, milliy aytim namunalari birgina tilshunoslikning chuqur o‘rganishi asnosida tilsimlarini ochib beradigan hodisa emas. Ularning qatiga singib ketgan o‘xshatish, metafora, metonimiya, epitet, sinekdoxa parallelizm, anafora, assonans, antiteza va hokazo poetik vositalar tadqiq etilmas ekan, chiqarilgan ilmiy xulosa bir yoqlama bo‘lib qolaveradi.

Biz H.Berdiyorov va R.Rasulovlarning paremiologik lug‘atini 80-yillar aytimshunosligining tahsinga arzirli nazariy-amaliy yakuni sifatida tilga olsak-da, yillar o‘tishi bilan uning ayrim nuqsonlari ayon bo‘la boshladi. Jumladan, paremilogik janrlarning o‘zaro munosabatlari masalasida maqola yozgan marhum folklorshunos B.Soatov mazkur lug‘at tuzuvchilarining: “Matallar – tarbiyaviy pand-nasihat ma’nolarini ifodalovchi, grammatik jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma’nosida – to‘g‘ri ma’noda qo‘llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir. Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l ...”[33] – degan fikrini rad etib, quyidagicha yozadi: “Keltirilgan ta’rif va uning tasdig‘i uchun tanlangan misol noto‘g‘ri. Mualliflar maqol va matalga xos xususiyatlarni yaxshi bilmaganlari holda bu ikki janrni farqlamoqchi bo‘ladilar. Oqibatda, ular tomonidan matal janri uchun belgilangan mezonlar juda osonlik bilan inkor etiladi... Afsuski, matallar grammatik jihatdan to‘liq gap sifatida shakllanmaganlari uchun ham, nutqda mustaqil qo‘llanilmaydilar. Qolaversa, aksariyat matallar faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadilar. H.Berdiyorov va R.Rasulovlarning matal uchun keltirgan uchala misollari ham sof maqollardan iborat” [34].

[31] O‘sha joyda. – B.12-13.
[32] O‘sha joyda. – B.19.
[33] Бердиёров Н., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Фан, 1984. – Б.12.
[34] Соатов Б. Паремиологик жанрларнинг ўзаро муносабатлари масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. – №3. – Б.38.

Ilmiy bahs haqiqatning oydinlashishini tezlashtiradi. Yuqoridagi har ikkala iqtibos o‘zbek xalqi asrlar mobaynida dono fikrlarini joylab kelgan janrlarning g‘oyaviy-estetik va kompozitsion-sintaktik tabiatini ochish uchun xizmat qilgan.

Masalaning muhim jihatlaridan biri shundaki, xalq inonch aytimlarining ruhiy ta’sir qudrati tufayli hayotimiz mobaynida ong osti reflektorlari bois beixtiyor uning izmida bo‘lamiz. Tasavvur qiling: kechqurun yulduz uchdi, ko‘nglingiz g‘ashlanadi, kimdir vafot etdimikan deya. Chunki ota-onangiz qachonlardir aytgan inonch aytimi mazmuni miyangizning bir burchagidagi xotira katagida turib sizni shunday o‘ylashga sababchi bo‘lgan.. Bu – instinkt emas, inson ongining doimo sabab va oqibati noma’lum, sirli narsa va hodisa oldidagi ojizligi. Biz inonch aytimlariga eskilik sarqiti sifatida qarab ishonmasligimiz mumkin, lekin uning mazmunidagi sirli ta’sir va ogohlikka da’vatga beixtiyor amal qilaveramiz. Chunki ularni bobomiz, buvimiz yoki otamiz va onamiz o‘git tariqasida miyamizga quyishgan. Ular esa ahmoq odamlar emas edilar, degan tushuncha ongimizda barqaror.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, *4*(5), 36-38.
5. O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, *2*(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN

PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *12*(3), 438-442.

10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024

ADABIYOTSHUNOSLIKDA OLIM USLUBINING AHAMIYATI

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti v.b., f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Adabiyot tarixini bilmagamn holda ijodkor uslubini aniqlab bo‘lmaydi. Uslub tushunchasi bag‘riga adibning leksik vositalaridan istifoda etishidan tortib harakter yaratish usullarigacha, adabiyot tarixidagi dunyoqarash birligidan tortib har bir muallifgagina xos bo‘lgan o‘ziga xos ifoda qirralariga qadar qamrab oladi. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri – ijodkor uslubi haqida mulohaza yuritiladi. Uslub, uning yuzaga chiqish omillari, uslubning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan muallifning shaxsiy fikrlari bildiriladi.

Kalit so‘zlar: uslub, ijodkor labaratoriyasi, metod, asar tili, badiiy obraz, mahorat, portret, badiiy nutq.

Abstract: If I knew the history of literature, I would understand the style of "Creator" in the hall. Support for stylistic participation from the lexical property of the writer to the character creation procedure, from the worldview unity in the history of literature to the unique expression of each author.This article discusses one of the important categories of literary studies - the creative style. The personal opinions of the author are expressed regarding the style, the factors of its appearance, the specific features of the style.

Key words: style, artist's laboratory, method, language of the work, artistic image, skill, portrait, artistic discourse.

Uslub tushunchasi turli ma’nolarda - eng keng va eng tor: adabiyot taraqqiyotining u yoki bu paytiga xos muhim jihatlar (muayyan davr uslubi), turli xil badiiy metodlar yo'nalishlar (klassitsizm, sentimentalizim, romantizm va h.k), ma’lum bir yozuvchi ijodining o‘ziga xosligi (Tolstoy, Gorkiy, Chexov uslubi) nihoyat alohida asarning o‘ziga xos jihatlari bilan bog'liq qo‘llaniladi. Fransuz olimi J.Leklerk de Byuffon iborasiga ko‘ra “Uslub - bu shaxs”[1:18]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida yozuvchining biror bir asar yoki adabiyot janrining til vositalaridan foydalanishidagi o‘ziga xos yo‘li, usuli. Ijodkorning o‘ziga xos tili, harakter yaratish va

badiiy quvvati, Har bir chinakam ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘ladi[2:281]. Uslub ijodkorning o‘zligini, mustaqilligini belgilaydi. Uslubning shakllanish jarayoni juda murakkabdir. O‘zbek adabiyotida ana shunday o‘ziga xos betakror uslubi, o‘quvchining qiyofa va harakteri, tili, xatti-harakatlarini chuqur o‘rganib, jonli ifodalashi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Abduqayum Yo‘ldoshdir.

Chindan ham Abduqayum Yo‘ldosh asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, yozuvchining o‘ziga xos uslubi, xarakter yaratish mahorati, obrazlar sistemasini tuzishi, asar kompozitsiyasini shakllantirish borasidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rishimiz mumkin. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, har bir yozuvchi ijod namunasini yaratar ekan, albatta, o‘z hayotini, o‘zini chetlab o‘tolmaydi. Har qanday mavzuda bo‘lishidan qat’iy nazar baribir asarda yozuvchi “men”i o‘zini ko‘rsatadi. Abduqayum Yo‘ldosh asarlarida ham adib biografoyasi bilan bog‘liq voqealar, mutaxassisligi bilan bog‘liq tushunchalarning uning asarlarida bo‘y ko‘rsatishini ko‘rishimiz mumkin. “Puankare” hikoyasida “Institutni bitirish arafasida men kutilmaganda Puankare gipotezasining shaydosiga aylandim. Gipotezani jo‘nroq tilda ifodalashga urinib ko‘raman. Jismlarning handasaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi topologiya degan fan bor. Puankare gipotezasi aynan shu fanning markaziy muammosi. Yana bir muhim holat: tadqiq etilayotgan jismlar oddiy emas, balki siqilganda, buralganida, cho‘zilganida o‘zgarmaydigan jismlardir. Biron nimani tushundingizmi? Yo’qmi? Unda yanada soddaroq usulda izoh berib otaman. Agar uch o‘lchamli sirt qaysidir jihati bilan ikki o‘lchamli sferaga o‘xshash bo‘lsa, demak uni mana shu sferaga tekislash mumkin”[6:95].

Professor Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” kitobida biografik tahlil metodi haqida gapirar ekan, “Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra biografik metod asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va “Daxshat” hikoyalari o‘tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy e’tirof etishga, o‘sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarni ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Biografik metodning qanchalik samarali bo’lishini ko’p jihatdan tadqiqotchi qo‘l ostidagi biografik materialga bog‘liq bo‘lib qoladi”[5:238] degan so‘zlarini aytadi. Endi Abduqayum Yo‘ldoshning biografiyasiga yuzlanamiz. U 1962-yilda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida tavallud topgan. Toshkent politexnika institutini (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti) tamomlagan. Shuning uchun ham yozuvchining deyarli barcha asarlarida matematika va fizika bilan bog‘liq atamalar, tushunchalar o‘z ifodasini

topadi. Yuqoridagi parchada ham gipoteza, sfera, jism, handasa singari atamalarni koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi Toʻxtaboyev “Sariq devni minib” asarida sovxoz direktori Akbar Nosirovni tasvirlar ekan, “Sovxoz direktori baland boʻyli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi huddi xumning ichidan chiqqandek guldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni koʻtarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi”[7:40] deya taʼriflaydi. Tasvirdagi taʼsirchanlik, ifodalarning eng mayda detallarigacha eʼtibor berilishi, birinchidan oʻquvchi koʻz oldida manzarani eng yorqin darajada namoyish qilish imkonini bersa, ikkinchidan asarning bolalar uchun moʻljallangani bilan izohlash mumkin. Voqea-hodisalarni aniq va jonli, boʻrttirib tasvirlash Xudoyberdi Toʻxtaboyev uslubiga xos xususiyatdir.

Hamid Olimjon oʻzining “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonida Baxtiyorning portretini koʻproq tavsiflash yoʻli bilan koʻrsatishga harakat qiladi:

Goʻzal yurt Susambilda
Bir podachi bor edi.
Goʻzal edi va chinor
Qomatiga edi zor.
Koʻkraklari butun bir
Oftobni yashirardi.
Tanlarida bir umr
Oʻt lovullab turardi[8:47].

Baxtiyorning qad-qomati kelishganligi, gavdali va barvasta yigit ekanligi toʻgʻridan-toʻgʻri aytilmaydi. Aksincha qiyoslash usulidan foydalaniladi. Bu ham yozuvchi uslubining oʻziga xosligidir.

Abduqayum Yoʻldosh “Begona shaharning namozshomlari” qissasida ham shunday manzarani kuzatishimiz mumkin: “Togʻda oʼsgani uchunmi Alisher gavdadan guruhimizda birinchi oʻrinda turardi. Hatto uch yil flotda xizmat qilib qaytgan starostamiz ham undan bir enlik past edi. Aniq fanlarda “gabarit oʻlcham” degan tushuncha bor. Jismning eng katta oʻlchamlari maʼnosini beradi. Alisher ham nafaqat shunaqa oʻlchamlari, balki boshqa jihatlardan ham birinchi oʻringa chiqib olish uchun dastlabki paytlari harakat qildi”. [6:143]. Yuqorida Xudoyberdi Toʻxtaboyev va Hamid Olimjon asarlarida barvasta qahramonlar tasvirini chizish uslubiga e'tibor qaratdik. Yozuvchi Alisherni shunchaki gavdali yigit demaydi, uni “gabarit oʻlcham”da ekanligini aytadi. Gabarit soʻzining lugʻaviy maʼnosi ga eʼtibor bersak, Gabarit (fransuzcha. gabarite) — binolar, vagonlar, kemalar, koʻpriklar, mashinalar, tunellar va boshqalarning tashqi va ichki chegaraviy qiyofasi; eng katta tashqi va ichki oʻlchamlari (uzunligi, , eni) degan maʼnoni beradi. Qahramonni shunchaki gavdasi katta, barvasta deb tasvirlagandan koʻra handasadagi ,,gabarit oʻlcham” da deyilganda yanada

qiziqarliroq chiqadi. Bu ,avvalo, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati bilan belgilansa, ikkinchidan, yozuvchining mutaxassisligi bilan bog‘liqdir.

Bundan tashqari, shu asarda yana bir jumlaga e’tibor qilsak, “Bu dunyoda bir hodisot boshqa hodisot uchun vosita bo‘lib xizmat qilgusi. Ba’zan, ehtimolki, aksar hollarda bahona sababga, sabab oqibatga evriladi. Baayni ko‘paytma amalini bajarayotganday biz bir miqdorni aytamiz, boshqa bir miqdor esa dilda bo‘ladi va asta-sekin shu dildagi tushuncha shakl-shamoyil kasb eta boradi, biz uni aniqroq ko‘ra boshlaymiz, shunda beixtiyor hushyorroq tortamiz, sezgilarimiz taranglashadi, illo, asl maqsad asl niyat endi yuz ko‘rsata boshlaganini ilg‘aymiz”[6:145]. Mazkur parchada yozuvchi kundalik hayotda ishlatadigan jumlalarimizga falsafiy fikr singdiradi. Chindanda, Pifogor jadvalidagi amalni hisoblash chog‘ida qoldiqni dilda saqlaganimiz singari ba’zan aytilmagan so‘zlar, aytilmagan maqsadlar bizning dilimizda “qoldiq” bo‘lib qoladi. Vaqtlar o‘tib esa ular, albatta, o‘z shamoyilini ko‘rsatmay qolmaydi. Ushbu narsalarni boshqa bir tashbeh bilan ham berish mumkin, ammo ijodkor qachonki o‘zi yaxshi bilgan, kuzatgan narsasini yozsagina, asarga o‘quvchi ham ishonadi, qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qiladi. Bularni yaxshi anglagan adib takroran matematik tushunchalarga murojaat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, ijodkor uslubi birdan shakllanmaydi. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek avval taqliddan boshlanib, sayqallanib, xususiylashib boradi. Ijodkor uslubi uning biografiyasi, turmush-tarzi, dunyoqarashi, mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlami, ustozlari bilan bog‘liqdir. Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” risolasida kuchsiz yozuvchilar asarlaridan uslub yaqqol o‘zini ko‘rsata olmasligini asoslab beradi[4:26]. Haqiqatdan ham, taqlid bosqichidan xususiy uslub yaratish darajasiga ko‘tarilish ijodkordan ulkan mahorat talab etadi. Abduqayum Yo‘ldosh ijodini o‘rganish chog‘ida esa mana shu mahoratning yaqqol namunasi i ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi asarlaridagi tilning soddaligi, asar yechimi ostiga falsafiy fikrlarni yashirish hollari, asarlarida takror-takror matematik atamalar va kasb-hunarga oid leksik birliklardan foydalanish holatlari buning yaqqol misolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жорж Луи Леклерк де Бюффон. Франсия академиясига кириш нутқи. http://www.infoliolib.info /philos/buffon/ buffon.html

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Икки томлик.Иккинчи том. – Москва: Рус тили , 1981.–Б.281.

3. Абрамович Г.П. Введение литературоведение. –Москва: Просвещение, 1975. –Б.266–267.

4. Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 26.

5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Akademnashr, 2017

6. Yo‘ldoshev A. Puankare. Toshkent. Akademnashr, 2017.

7. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Yosh gvardiyachi, 1982.
8. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor. G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1999.

USMON AZIM IJODIDA MOTIV OBRAZLARNING O‘RNI

Suvonqulova Laylo Mahmud qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
E-pochta: laylosuvonqulova9@gmail.com

Annotatsiya: Mustaqillik davri adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo‘lgan Usmon Azim ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ijodkorning badiiy mahorati, xalqona satrlari va falsafiy qarashlari milliylik va milliy ruhni yuqori pardalarda tarannum eta olgan. Shoir ijodi orqali milliy ong, ajdodlar xotirasi, xalqchil obrazlar hamda motiv obrazlarning poetik ifoda ko‘lami yangi darajaga ko‘tarildi. Ushbu maqolada Usmon Azimning nozik yurak torlarini cherta olgan, xalqning ma’naviy va ijtimoiy holatini ifoda etgan she’rlari va undagi obrazlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik davri, she’riyat, milliylik, xalq og‘zaki ijodi, doston, obraz, motiv obraz.

Abstract: The work of Usman Azim, one of the outstanding representatives of the literature of the independence period, has a unique place in the development of modern Uzbek literature. The creator’s artistic skill, folk lines and philosophical views were able to glorify nationality and the national spirit at the highest levels. Through the poet’s work, the national consciousness, the memory of ancestors, folk images and the poetic expression of motifs have risen to a new level. This article analyzes the poems of Usman Azim, which touch the delicate heartrings and express the spiritual and social state of the people, and the images in them.

Keywords: Period of independence, poetry, nationality, folk oral literature, epic, image, motif image.

Har bir ijodkor ma’lum bir joyda ulg‘ayadi va shu kamolga yetgan joyining odatlari, madaniyati, dini, tiliga moslashadi. O‘z navbatida, bunday omillar ijodkorning milliy ruhda tarbiyalanishiga sabab bo‘ladi. Usmon Azim ham shunday ijodkorlardan biridir. Zero, uning she’rlarida ufurib turgan milliy ruh faqatgina urf-odat, an’analar orqali shakllanmagan. Undagi bu xususiyat badiiy adabiyotning, xususan, xalq og‘zaki ijodining yuksak natijasi sanaladi. Usmon Azim she’riyati xalq og‘zaki ijodi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, milliy o‘zlikni va ijtimoiy hayotni qamrab olganligi hamda yangi o‘zbek she’riyati tendensiyalariga mosligi bilan ajralib turadi. Shoirning har bir yozgan she’rida o‘z tug‘ilib o‘sgan yerining ruhi, baxshilar ohangi, insonparvarlik

tuyg‘ulari, ona yurtidan faxrlanish hissi milliylik bilan uyg‘unlashgan holda aks etadi. Shoir asarlaridagi milliylik ruhini uning umumsharq an’analariga sodiqligidan ham bilsak bo‘ladi. Bu jihatdan Usmon Azim asarlari badiiy jihatdan o‘z maromiga yetgan. V.G.Beliniskiy aytganidek, asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa, shunchalar milliydir. Umuminsoniy tuyg‘ularni ifoda etgan satrlari yangi davr insonlari tafakkurining yuksalishiga, psixologik ongning kengayishiga ham turtki bo‘ldi desak, hech ham mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Usmon Azim milliylikdan voz kechmagan holda kelajak sari intilishga azm qilgan o‘tkirqalam ijodkordir.

Aslida har bir inson ruhida milliylik tuyg‘usi mavjud va buni yozuvchi yoxud shoirlar ijodkor o‘laroq qalamlari orqali namoyon etadilar. Ammo biz bekorga aynan Usmon Azim ijodida milliylik tarannumi haqida fikr yuritmadik. Sababi uning asarlaridagi xalq og‘zaki ijodidan keltirilgan parchalar, folklordagi motiv obrazlar hamda o‘z hislarini bayon qilishda qo‘llanilgan san’atlar, timsollar va majozlar milliylik ruhini ko‘rsatib berishning eng yuksak va an’anaviy ifodasidir. Xususan, shoir ko‘pincha xalq eposidagi Alpomish, Qorajon, Rustamxon kabi epik qahramonlarga yoxud shonli o‘tmishimizning Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek singari tarixiy shaxslarga murojaat etgan holda ularni o‘z asarida motiv obraz sifatida qo‘llagan. Ularda milliylik yaqqol ko‘rinadi.

Va eshitdim, yerning tagida
Dupur-dupur – yelib kelar ot.
Men – Alpomish behol yotibman,
Shoshib kelar Qorajon – Hayot![1, 42]

Shoirning yuqoridagi satrlarida insondagi psixologik jarayon ifoda etilgan bo‘lib, qalbidagi otashi so‘ngan inson portreti mavjud va shu psixologik holatni o‘quvchiga ta’sir ko‘lamini kengaytirgan holda yetkazish uchun Alpomish hamda Qorajon motiv obrazlariga murojaat etilgan. Ushbu obrazlar xalq eposida o‘z mohiyati jihatidan arxitep obraz sanaladi. Ya’ni xalq ongida bu obrazlar tilga olinganda qahramonlik, sodiq hamroh jonlanadi. Ammo bu she’rlarda ular aynan xalq ongidagi tasviri emas, aksincha boshqa bir holatni jonlantirmoqda, ya’ni Alpomish va Qorajon boshqa bir jarayonda gavdalanmoqda. Bu esa obrazlarning motivlik xususiyatiga to‘g‘ri keladi. Albatta, bu yerda ham qahramonlar ma’lum bir ramziylikni ifoda etgan. Alpomish – sinovlar, qiyinchiliklar iskanjasidagi qahramon, Qorajon esa unga yordamga shoshayotgan, o‘z hamdamiga yangidan jon ato etishga shoshayotgan “hayot”dir. Ushbu holatni ifodalash uchun shoir dostondagi Qorajonning do‘stiga yordam berish uchun uning o‘rniga poygaga qatnashish, akalariga qarshi turish

epizotlarini asos qilib olgan va shu jihatdan she’rda motivlik hodisasi yuzaga kelgan.

Shoirning “Qish” nomli she’rida yana xalq eposidagi qahramonlarga murojaat etilgan holatda, yangi g‘oya yuzaga chiqadi:

Qish – zindondan chiqqan Alpomish,

Qish – Barchinning siniq nolishi [1,307].

Yuqoridagi parchada ijodkor tabiat manzarasi va tarixiy motivlarni(motiv obrazlarni) o‘zaro uyg‘unlikda ifodalagan. Qish obrazi badiiy adabiyotda ko‘pincha salbiy ma’noni tashuvchi obraz sanaladi. Ijodkor ham aynan shu salbiylikni zindondan chiqqan Alpomishning o‘ksik holiga, Barchinning sog‘inch tuyg‘ulari bilan qorishgan nolishlariga qiyoslaydi. Ya’ni tabiat motivi va tarixiy motivlarni birlashtirib quyuq ifodani yuzaga chiqaradi. Qish motiviga mumtoz adabiyotda ham ruhiy holatni ifodalashiga ko‘ra, g‘amginlik, iztirob ramzi sifatida qaraladi. Xususan, Navoiyning lirik g‘azallarida oshiqning yor ishqida chekkan azoblari qishga qiyoslanadi:

Sovuq ohimdin yorug‘luq oz, vale ko‘p tiyralik,

Qishda ul yanglig‘ki, tun bo‘lg‘ay uzun, kun qisqarib [2,41].

Bu ikkala holat Navoiy va Usmon A’zim ijodining kesishish nuqtasi. Negaki qish ikkala lirik asarda ham motiv obraz xususiyatida ruhiy holatni ifoda etmoqda. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy’’ asarining to‘rtinchi devoni “Favoyid ul-kibar” – qarilik qismi aynan shu fasl bilan bog‘liq. Biroq bu o‘rinda qish obrazi toposlik xususiyatida namoyon bo‘ladi. Chunki qish obrazi bu o‘rinda ruhiy holatni emas, inson hayotidagi bir bosqich(tanazzul bosqichi), ruhiy o‘zgarishlar davri ma’nosini ifodalaydi.

Usmon Azim she’riyatida bundan tashqari tong, yulduz, anor, daraxt, suv, shamol, qushlar kabi tabiat manzaralari bilan bog‘liq motiv obrazlar ko‘p qo‘llaniladi. Bu obrazlar xalq tafakkuriga xos majoz, timsol va falsafiy qatlamlar bilan boyitilgan. Shoir ijodida yomg‘ir – poklanish, daraxtlar – barqarorlik, shamol – o‘tkinchilik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shoir ijodidagi tabiat manzaralari falsafiy ohanglar bilan uyg‘unlik kasb etgan. Bu uyg‘unlik esa ijodkorning katta yutug‘udir.

Goh gujum shovullar, goh shitirlar tok,

Bu bog‘da adashgan parishon shamol.

Bormisan olamda, yuribsanmi sog‘,

Shamolday yo‘lini yo‘qotgan ayol [1,290].

Ushbu misralarda, birinchi navbatda aytish kerakki, Usmon Azim ayol, bog‘, shamol badiiy obrazlari orqali tabiat hamda insonning ruhiy holati o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlaydi. Bu o‘rindagi “parishon shamol” obrazi faqatgina manzarani ifodalabgina qolmay, ruhiy holatni harakatga keltirmoqda va shu jihatdan u motiv obrazdir. She’rda sarsonlik harakati asosiy g‘oyani tashimoqda. Bu sarson-sargardonlik holati esa birgina shamol obrazida emas, “shamolday yo‘lini yo‘qotgan ayol” misralarida yana ham oydinlashadi. O‘zligini (balki, sevgan yorini) izlab chiqqan, parishon ayol obrazi shamolga qiyoslanadi. Bu o‘rinda ham shoir ichki kechinmani ifodalash jarayonida milliylik ruhini unutmaydi. Shamol qayerga borsa ham, parishon bo‘lsa ham hech kimdan o‘z izlagan manzilini so‘ramagani kabi ayol ham yorini kimsadan so‘ramaydi, talab qilmaydi. Bu xususiyat o‘zbek ayolining hayosini, tortinchoqligini ko‘rsatuvchi belgidir.

Har bir guli – bir ezgu uchqun,

Huv cho‘qqida yashnar na’matak.

Quyoshga gul tutgani uchun

Tikaniga qilaman toqat [1,27].

Bu misralarda shoir sabrlililik, fidoiylik, mashaqqat va boardoshlar ortidan keluvchi baxtga ishora qilmoqda. Lirik qahramon tikanga chidashining sababababini na’matakning quyoshga gul tutishi bilan izohlaydi. Aslida bu o‘rinda asosiy motiv “quyoshga gul tutgani uchun toqat qilish“, ya’ni barcha azob-uqubatlarga bardosh berish, matonatli bo‘lib ezgulikka chiqish. Bu holat na’matak obrazi orqali namoyon bo‘lmoqda. Biroq na’matak ushbu o‘rinda faqatgina motiv obraz bo‘libgina qolmay, toposlik va arxiteplik xususiyatlarini ham tashimoqda.

Motivlik xususiyati: u cho‘qqida yashnayapti, o‘syapti. Quyoshga gul tutyapti, ya’ni harakat yuzaga kelmoqda.

Toposlik xususiyati: cho‘qqida yashayapti. Ma’lum bir manzarani ifoda etmoqda va makon xususiyatiga ega.

Arxiteplik xususiyati: insonning ruhiy yuksalishi, kamoloti timsoli.

Demak, na’matak obrazi aynan bu she’rda uch qirrani ham ifoda etgan. Albatta, bu holat ijodkorning qay darajada mahoratli ekanligidan dalolat.

Shoir ijodida ustozlari va zamondoshlarining asarlaridagi motiv obrazlardan ham mohirona ravishda foydalanganligini ko‘rish mumkin. Xususan, na’matak obrazini avvalo Oybek ijodida uchratganmiz. Yuqorida keltirilgan she’rning nomi ham bejizga “Oybekning so‘nggi she’ri “ deb nomlanmagan.

U kulib keladi. U yig‘lay olmas.

Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yar. Qo‘li qon.

Menga uqtiradi: “Do‘stim, qo‘rqma, bas,

Bu – shafaq! Ko‘ksimda otayapti tong” [1,29].

Ushbu she’r shoirning do‘sti xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, lirik qahramonning qiyinchilik, kurashlar iskanjasida bo‘lsa ham yangi kundan umid qilish tasviri mavjud. Ruhiy matonat, fidokorlik, oldinga intilish motivlari she’rning birlamchi g‘oyasidir. Lirik qahramonning kulib kelishi, yig‘lay olmasligi(antiteza san’ati), qo‘li qonligi uning kuchli ruhiy va jismoniy kurashlardan yetib kelganligidan, biroq bularga qaramasdan hali hamon “ko‘ksidagi tong”dan umidvorligi uning matonatidan dalolatdir. Bu o‘rinda qon, tong kabi motiv obrazlar qahramonning emotsiyasini yanada ramziylashtirgan holatda ochib berishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi misollardan ko‘rishimiz mumkinki, Usmon Azim tabiat manzarasi bilan bog‘liq motiv obrazlardan lirik qahramonning ruhiy holatini, ichki emotsiyalarini ochib berishda o‘rinli foydalana olgan.

Shoir o‘z she’rlarida xalqchil motivlarni zamonaviy ruh, shaxsiy falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashtirdi. U klassik an’analarni yangilagan holda, milliy qadriyatlarni universal tushunchalar bilan bog‘lagan. Uning ijodi nafaqat estetik, balki ma’naviy-ma’rifiy yuklamaga ham ega bo‘lib, o‘quvchini tafakkurga chorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Usmon Azim ijodida milliylik ruhi va motiv obrazlar bir-birini to‘ldiruvchi asosiy badiiy elementlar sifatida qaraladi. Shoir xalq hayotidan, tarixidan, urf-odatlaridan, og‘zaki ijodidan olingan obrazlardan foydalangan holda milliy o‘zlik, vatanparvarlik, mardlik, ijtimoiy ong va axloqiy g‘oyalarni ilgari suradi. Uning lirik dunyosi o‘zbek xalqining ruhiyati hamda ma’naviyatini o‘zida aks ettirgan holda, milliy adabiyotning g‘oyaviy-estetik boyligiga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Усмон Азим. Сайланма. – Т.: “Шарқ” , 1995. – 423 б.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik. 4-tom. – T.: “Fan”, 1989. – 526 b.

AMIRIY SHE’RIYATIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMNING BADIIY KO‘RINISHLARI (CHAVGON O‘YINI MISOLIDA)

Payg‘amova Shirin Jakbarali qizi,
FarDU tayanch doktoranti
shirinpaygamova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amiriy she'riyati xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy aloqada o‘rganiladi. Tadqiqotda xususan etnografik folklorizm hodisasi chavgon o‘yini misolida tahlil etiladi. Folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi badiiy-estetik hamda madaniy-ma’naviy uyg‘unlik ochib berilib, xalq o‘yinlarining badiiy ramzga aylanish jarayoni yoritiladi. Mahmud Koshg‘ariy va Kaykovus asarlaridagi chavgon o‘yini haqidagi tarixiy ma’lumotlar tahlil qilinadi hamda Amiriyning “Devon”ida bu o‘yinning ishq, fidoyilik va taslimiyat ramzi sifatidagi poetik talqinlari chuqur tahlil etiladi. Shoir chavgon obrazini xalq madaniyati va tasavvufiy tafakkur sintezida ifodalab, o‘yin detallarini falsafiy mazmun bilan boyitgan. Tadqiqot natijasida chavgon o‘yini Amiriy lirikasida etnografik folklorizmning badiiy ko'rinishi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Amiriy, folklorizm, etnografik folklorizm, chavgon o‘yini, xalq o‘yinlari, ramz, ishq maydoni, tasavvuf.

Abstract: This article examines Amiriy’s poetry in close connection with Uzbek folk oral creativity. The study specifically analyzes the phenomenon of ethnographic folklorism through the example of the *chavgan* (polo) game. It explores the artistic-aesthetic and cultural-spiritual harmony between folklore and written literature, revealing the process by which folk games acquire symbolic and poetic significance. The research refers to historical sources such as Mahmud al-Kashgari’s *Dīwān Lughat at-Turk* and Kaykovus’s *Qabusnama*, analyzing their depictions of the *chavgan* game. Furthermore, the article provides an in-depth interpretation of this game as a symbol of love, devotion, and surrender in Amiriy’s *Divan*. The poet transforms the *chavgan* image into a synthesis of folk culture and Sufi thought, enriching it with philosophical meaning. The findings demonstrate that the *chavgan* game functions in Amiriy’s lyrics as an artistic manifestation of ethnographic folklorism, where folk elements evolve into profound poetic and spiritual symbols.

Keywords: Amiriy, folklorism, ethnographic folklorism, chavgan game, folk games, symbol, field of love, Sufism.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotining har bir bosqichi xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir. Folklor – millatning xotirasi, hayot tarzi, urf-odatlari, marosimlari va o‘yinlarida mujassam madaniy meros bo‘lib, yozma adabiyot uchun doimo ilhom manbai vazifasini o‘tagan. Xalq o‘z

tuyg‘u va tafakkurini qo‘shiq, maqol, ertak, doston, o‘yin va marosimlarda ifodalagan bo‘lsa, shoir va yozuvchilar shu unsurlarni badiiy so‘z olamiga ko‘chirib, ularni estetik jihatdan boyitganlar.

“Yozma adabiyotning folklordan foydalanishi, uning ta’sirida asar yaratishi folklorizmdir”[1,46]. **Folklorizmning turlaridan biri – etnografik folklorizm** bo‘lib, u xalq hayotining tashqi belgilari – marosim kiyimlari, an’anaviy o‘yinlar, to‘y va sayl sahnalari, xalq qo’shiqlari, urf-odatlar, ishonch va e’tiqodlar kabi madaniy elementlarning badiiy talqinini o‘z ichiga oladi. Masalan, to‘yda kelinni otga mindirish, sumalak damlash, bahor sayllarida chavgon o‘ynash yoki xalq raqslari kabi manzaralar adabiyotda faqat “etnografik bezak” sifatida emas, balki **badiiy mazmunni ochuvchi ramz** sifatida ham xizmat qiladi. Bu jarayon **folklor unsuri** bilan **etnografik reallik**ning birlashgan nuqtasidir.

Etnografik folklorizm yozma adabiyotga ikki xil ta’sir ko‘rsatadi:

1. **Tashqi shaklda** – xalq turmushining ko‘rinishlari, o‘yinlar, kiyimlar, urf-odatlar tasvir sifatida kiradi.
2. **Ichki shaklda** – o‘sha urf yoki o‘yin shoir tafakkurida ramzga aylanib, badiiy fikrga chuqur ma’no beradi.

Adabiyotdagi folklor unsurlarni o‘rganish nafaqat estetik tahlil, balki etnografik kuzatuv hamdir. Chunki xalq o‘yini, marosimi yoki odati badiiy obrazga aylanganda, u o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, axloqiy qadriyati, estetik didi haqida muhim ma’lumot beradi. Shuning uchun ham folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish — xalqning madaniy o‘zligini anglashning asosiy yo‘llaridan biridir. Demak, **etnografik folklorizm** — bu yozma adabiyotda xalqning turmush madaniyati va ruhiy olamini badiiy timsolga aylantiruvchi jarayondir. U orqali adabiyot xalq hayotiga yanada yaqinlashadi, madaniy xotira esa badiiy shaklda yashab qoladi.

Xalq o’yinlari ichida keng tarqalgan va qadimiy o’yinlardan biri chavgon hisoblanadi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida **chavgon** – ot ustida tayoq bilan to‘p surib o‘ynaladigan sport turi bo’lgan. Bu o‘yin jismoniy mashq, ko’ngilochar tomosha sifatida xalq hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

XI asr allomasi **Mahmud Koshg‘ariy** o‘zining mashhur “Devonu lug‘otit turk” asarida chavgon o‘yini haqida batafsil ma’lumot beradi. U o‘yinning o‘ziga xos qoidalari, maydonning o‘lchami, chegarasi, darvozalar, to‘pning kattaligi va qanday materialdan tayyorlanishini aniq ta’riflab o‘tadi. Koshg‘ariy chavgonni faqat o‘yin emas, balki **yigitlarning balog‘atga yetish va jasorat sinovi** sifatida tasvirlaydi [2].

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, chavgon o‘yini yosh avlodni ot minish, jismoniy tayyorgarlik va jamoaviy harakat ruhida tarbiyalagan. U o‘z zamonida el-yurt mudofaasida zarur bo‘lgan mashq sifatida qaralgan.

XI asrda yozilgan **Kaykovusning “Qobusnoma”** asarida ham chavgon o‘yiniga alohida bob bag‘ishlangan. Muallif “Chavgon o‘ynamoq zikrida” bobida o‘yinning odobi, tartibi, qatnashchilar soni va maydon holati haqida o‘g‘liga ibratli maslahatlar beradi.

Kaykovus shunday yozadi: “Ey farzand, agar tomosha uchun bir-ikki martaba chavgon o‘ynasang, ravodur, lekin ko‘p otlig‘ bilan chiqib izdihom qilmag‘il. Sakkiz otliqdan ziyoda bo‘lishga hojat yo‘q... Chavgon o‘yinining yo‘li shudir” [3,176]. Bu so‘zlardan chavgonning **madaniy va axloqiy qoidalar asosida tartiblangan ijtimoiy o‘yin** ekanligi ko‘rinadi. O‘yin faqat jismoniy mashq emas, balki muomala, odob, tartib va o‘zini tutish san’ati ham bo‘lgan.

Zamonaviy manbalarda ham chavgonning xalq madaniyatidagi o‘rni e’tirof etilgan. **UNESCO** 2017-yilda Eronning “Chogan – musiqa va hikoyachilik bilan kechadigan ot o‘yini”ni Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritgan. Bu tavsiflarda o‘yinning **musiqa, hikoya, marosim** bilan birga kechishi alohida qayd etilgan, bu esa chavgonning nafaqat sport, balki **etnomadaniy hodisa** ekanini tasdiqlaydi [https://ich.unesco.org/en/RL/chogn-a-horse-riding-game-accompanied-by-music-and-storytelling]

Tadqiqotchilar chavgon o‘yinini “xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji asosida shakllangan, ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi, yutuqlarini boshqa shaklda aks ettiradigan, inson madaniyatining eng ko‘hna shakllari, ko‘pgina ma’naviy sohalar chashmasi, sog‘lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil” sifatida baholaydi [4.402].

Sharq she’riyati tarixida chavgon – oddiy o‘yin emas, balki ishq maydonining badiiy ramzidir. Ot ustida tayoq bilan to‘p surish, ya’ni chavgon o‘yini, aslida inson ruhiyatining aks ettiruvchi timsollardan biridir. Bu o‘yinda har bir harakat, har bir zarba, go‘yo oshiqning visol sari urinishiga o‘xshaydi. To‘p – uning boshi, chavgon – ma’shuqaning zulfi, maydon esa – taqdirning cheksiz sahrosi sifatida tasvirlanadi.

Biz tadqiq etayotgan ijodkor Amiriy ham ana shu ramziy tafakkurni xalqona obrazlar bilan boyitgan shoirlardan biridir. U shoh, adib va xalq dardini his qilgan ruhiy rahnamo sifatida she’rga hayotiy ohang olib kiradi. Uning devonida chavgon o‘yini ko‘p ma’noli, chuqur ramzga aylangan: bu nafaqat saroy o‘yini, balki xalq hayotining bir bo‘lagi, milliy ruhning ifodasidir.

Amiriy lirikasida **chavgon o‘yini** shunchaki xalqona o‘yin manzarasi emas, balki **ishq maydonining ramzi**, **lirik qahramonning ichki holati**ni ifoda etuvchi kuchli badiiy vositadir. Shoir bu obraz orqali xalq madaniyatidan olingan o‘yin unsurlarini badiiy-falsafiy mazmunga ko‘chiradi, ya’ni **etnografik hodisani poetik ramzga aylantiradi**.

“Zulfini chavgon qilib o‘ynar edi ul sho‘xkim,
Yetti boshim uzra maydonda takovar tebranib.”[5.56]

Mazkur baytda **zulf** (mahbubaning sochi) “chavgon”ga, **oshining boshi** esa “to‘p”ga qiyoslanadi. O‘yin maydoni esa “ishq maydoni”ga aylanadi. Zulfning chavgonga tashbeh qilinishi shakliy asosda bo’lib, ikkalasi ham uchi qayrilgan egri holatda bo’ladi. Shoirning oshiqona kechinmasi – boshini mahbuba zulfi bilan o‘ynalgan to‘pga o‘xshatish orqali ifodalanadi. Bu o‘xshatish **oshiqning o‘zini butunlay muhabbat o‘yiniga topshirishi**, “jonini go‘y etish” – ishq yo‘lida o‘z “boshini qo‘yish” mazmunini ifodalaydi. Demak, chavgon o‘yini bu yerda **fidoyilik va taslim bo‘lish timsoli** sifatida ishlatilgan.

“Ishq maydoniga maqsad go‘yini elttim, Amir,
To boshimni go‘y etib, zulfungni chavgon aylading.”[5]

Baytda **“ishq maydoni”** – inson qalbi, muhabbat sinovlari kechadigan ruhiy makon; **“zulf”** – fitna, **“chavgon”** – taqdir zarbasi, **“bosh”** esa fidoyi oshiqning o‘zidir. Shoir chavgon o‘yinini ishqiy kechinmaga ko‘chiradi: oshiq boshini “go‘y” qilib, ma’shuqaning “zulf chavgoni” zarbasiga taslim etadi. Bu o‘xshatish orqali Amiriy yuqoridagi kabi ishq yo’lida **fido bo’lish holatini** ifodalaydi. Egri zulflar chavgondek egri va o‘tkir – ular oshiqqa og‘riq, lekin shu og‘riqdan huzur bag‘ishlaydi. Natijada chavgon obrazida **ishq azobi va lirik dramatizm** mujassamlashadi.

“Xizmatingda to egildi qomatim chavgon kabi,
Oldim elga dahr maydonida go‘yi xizmating.”[5]

Bu satrlarda “chavgon kabi egilgan qomat” sadoqat va itoat ramzini bildiradi. Shoirning “maydon”ni “dahr maydoni” deb atashi tasodifiy emas: endi o‘yin maydoni **hayot maydoniga** o’tadi. Avvalgi misollarda chavgon taqdir zarbasi sifatida talqin qilingan bo’lsa bu yerda chavgon obrazi shakliy o’xshatish orqali sadoqat, kamtarlik sifatlarini namoyon etadi.

“Necha ushshoqlar maydonida jonbozlig‘ etgay,
Boshimni go‘yaso vaqfi chavgon aylasun, shohim.”[5]

Bu baytda **chavgon** so‘zi “vaqf” so‘zi bilan bog‘lanib, **tasavvufiy ma’no** kasb etadi. Oshiqlik maydonidagi jonbozlik, ya’ni “jonni berish” – taslim bo‘lish, o‘zini muhabbat yo‘lida “vaqf qilish” darajasida yuksaladi va bu ruhiy kamolotning rizo maqomiga to’g’ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, **Amiriy** chavgon o‘yini obrazini o‘z she’riyatida oddiy xalqona manzara sifatida emas, balki **ishq, fidoyilik va taslimiyatning poetik ramzi** sifatida talqin etgan. Shoir bu o‘yin orqali **ishq maydoni**ni, oshiqning ruhiy kechinmasini, muhabbat yo‘lida jonini fido etish holatini badiiy ifoda darajasiga ko‘targan. Natijada chavgon – **taqdir zarbasi**, zulf – **fitna va joziba**, bosh esa **fidoyi oshiq** timsoliga aylangan. Amiriyning bunday yondashuvi xalq o‘yinini **etnografik**

reallikdan falsafiy mazmunga, **madaniy hodisadan badiiy timsolga** aylantirish imkonini bergan. Uning bir detal obraz timsolida insonning ichki olami, sadoqati va Alloh irodasiga rizo holatini ifodalagani, xalq madaniyati bilan tasavvufiy tafakkurni badiiy uyg‘unlikda birlashtirgan ijodkor ekanligi e’tirofga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эгамқулов Б. Шарқ мавзуида яратилган рус насрида ўзбек фольклоризмлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. – №6. – Б. 46-49.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / таҳрир: Р. Раджабов. – Тошкент, 1960.
3. Кайковус. Қобуснома**.** – Тошкент: “Мерос”, 1992. – Б. 176.
4. Аскарова К, Зияева Ш. Халқ ўйинларининг комил инсон – шахс сифатида шаклланишида этнопедагогик моҳияти ва таснифий хусусиятлари // *Жамият ва инновациялар*. – 2021. – № 10. – Б. 398-404
5. Амирий. Девон. – Тошкент: Тамаддун, 2017. – Б.290
6. https://ich.unesco.org/en/RL/chogn-a-horse-riding-game-accompanied-by-music-and-storytelling

KOMIL XORAZMIY G‘AZALLARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH

Umorova Dilnoza Odilbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
99 662 00 16, dilnozaumorova.1611@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-1491-5139

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm jadid ma’rifatparvarlari, xususan Komil Xorazmiy ijodi misolida talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi nazariy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda jadidchilik harakatining pedagogik mohiyati, ijodiy fikrlash, erkin tafakkur va ilmga rag‘batlantirish g‘oyalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan. Metod sifatida adabiy-tarixiy va pedagogik-kontseptual tahlil yondashuvlari qo‘llanildi. Natijalarda Komil Xorazmiy ijodidagi ma’rifiy qarashlar va ularning kreativlik kompetensiyasi bilan bog‘liqligi ochib berildi. Maqolada milliy ma’naviy meros asosida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha muhim xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm jadidchiligi, Komil Xorazmiy, kreativlik, kompetensiya, ma’rifatparvarlik, pedagogik yondashuv

Abstract. This article provides a theoretical and analytical exploration of developing students' creative competencies based on the views of Khorezm Jadid enlighteners, particularly through the works of Komil Khorezmi. The study analyzes the pedagogical essence of the Jadid movement, as well as ideas related to creative thinking, intellectual freedom, and the pursuit of knowledge. It further highlights the possibilities of integrating these ideas into modern educational processes. The research employs literary-historical and pedagogical-conceptual analytical approaches. The results reveal the connection between Komil Khorezmi’s enlightenment ideas and the formation of creative competencies. The article presents key conclusions and practical recommendations for shaping modern competencies through the lens of national spiritual heritage.

Keywords: Khorezm Jadidism, Komil Khorezmi, creativity, competency, enlightenment, pedagogical approach

Kirish. Bugungi tezkor rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – talabalarni kreativ, erkin fikrlovchi va muammoni hal qilishga qodir shaxslar sifatida shakllantirishdir. UNESCO tomonidan e’lon qilingan zamonaviy kompetensiyalar ro‘yxatida[7] ijodkorlik (creativity) asosiy kompetensiyalardan biri sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, u har qanday ta’lim bosqichida shakllanishi zarurligi ta’kidlanadi. Shu munosabat bilan, milliy pedagogika tarixida mavjud bo‘lgan ilg‘or g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqish, ular orqali bugungi ta’limga innovatsion yechimlar topish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati, xususan, Xorazm jadidchiligi bu borada boy ma’rifiy va pedagogik merosga ega. Komil Xorazmiy (1876–1937) – Xorazm jadid maktabining yirik vakili sifatida o‘z asarlarida ilm-fanga, tafakkur erkinligiga, axloqiy tarbiyaning muhimligiga alohida e’tibor bergan[2]. Uning “Axloq risolasi”, “Adabiyot darsligi” kabi asarlari nafaqat o‘z davrining ilg‘or didaktik namunasi, balki kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi pedagogik konsepsiyalarni ham o‘z ichiga oladi[3].

Komil Xorazmiy qarashlarida ta’limning mazmuni faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, balki shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga yo‘naltirilganini ko‘ramiz. Bu jihatlar bugungi kompetensiyaviy yondashuv bilan to‘la mos keladi. Masalan, Bloom taksonomiyasi asosida shakllangan o‘quv natijalari orasida eng yuqori pog‘ona aynan kreativlik bilan bog‘liq bo‘lib, talabaning yangilik yarata olish qobiliyatini nazarda tutadi[4].

Shu asosda, mazkur maqola Xorazm jadidchilari, xususan Komil Xorazmiy pedagogik qarashlari asosida talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini nazariy-tahliliy jihatdan ko‘rib

chiqadi. Maqolada bu qarashlarning zamonaviy ta’limga integratsiya qilish yo‘llari aniqlanadi hamda milliy meros orqali kreativ shaxsni shakllantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Adabiyotlar sharhi. Talabalarning kreativlik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar kreativ fikrlashni shakllantirishda mustaqil izlanish, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy faoliyatga tayangan o‘quv metodlarini asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi[1]. Bloom taksonomiyasining yangilangan modelida ham[2] "ijod qilish" (create) bosqichi o‘quv faoliyatining eng yuqori darajasi sifatida e’tirof etilgan.

Milliy pedagogik fikrda esa bu g‘oyalar tarixan jadidchilik harakati doirasida o‘z aksini topgan. Jadidlar, ayniqsa, Xorazm jadidchilari yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish va milliy taraqqiyotga xizmat qilishga da’vat etgan. Qosimov[5] ta’kidlaganidek, jadidchilik harakati nafaqat siyosiy va ijtimoiy, balki pedagogik islohotlarni ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu yo‘nalishda maktab, o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasi tubdan yangilangan.

Komil Xorazmiy (1876–1937) — Xorazm jadid maktabining taniqli vakili sifatida o‘z asarlarida axloqiy tarbiya, ilmga intilish va ma’rifatga asoslangan jamiyat qurish g‘oyalarini ilgari surgan. Uning “Axloq risolasi” asarida insoniy fazilatlar, ijodiy izlanish, tafakkur erkinligi alohida o‘rin egallaydi. Rashidov bu borada shunday yozadi: “Komil Xorazmiy shaxs tarbiyasini o‘z davri uchun zamonaviy vositalar asosida yoritgan, o‘quvchini savol berishga, fikrlashga undagan.” Shu jihatdan, Xorazmiy ijodidagi g‘oyalar bugungi ta’limdagi kreativlik kompetensiyasining mohiyatiga yaqinlashadi[5].

Zamonaviy O‘zbekiston pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuv faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga asoslangan bo‘lib, bunda talabaning mustaqil fikrlashi, yangi g‘oya ishlab chiqishi va muammoni yecha olish qobiliyati asosiy o‘ringa qo‘yiladi[3]. Shu kontekstdan qaralganda, jadid ma’rifatparvarlarining ilgari surgan ta’limiy g‘oyalari bugungi kompetensiyaviy ta’lim modeliga tabiiy uyg‘unlashadi. Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarda Komil Xorazmiy ijodining kreativlik kompetensiyalari bilan bevosita bog‘liqligi hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu maqola ayni shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Xorazm jadidchilari pedagogik merosining zamonaviy talimga tatbiqi imkoniyatlarini nazariy-tahliliy yoritadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Komil Xorazmiy pedagogik va ma’rifiy qarashlari zamonaviy kreativlik kompetensiyalarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Uning ijodida ilmga intilish, erkin fikrlash va axloqiy tarbiya g‘oyalari talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun mustahkam nazariy poydevor vazifasini o‘taydi. Bu

esa jadidlarning ta’limga oid konseptual yondashuvlari zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Komil Xorazmiy asarlarida ko‘tarilgan ma’rifiy g‘oyalar o‘zbek pedagogik an’analarida kreativlikka qaratilgan yondashuvlarni boyitganligi ko‘rindi. Tadqiqotda aniqlanishicha, Xorazmiy ijodida mavjud bo‘lgan erkin tafakkur va ilmga muhabbat tamoyillari zamonaviy kompetensiyalar bilan to‘la uyg‘unlikda ishlatilishi mumkin, bu esa talabalarning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni innovatsion usullarda hal etish qobiliyatini oshiradi.

Shu bilan birga, hozirgi ta’lim jarayonida milliy ma’naviy merosni pedagogik amaliyotga samarali integratsiya qilish borasida hali ko‘p ishlar qilinishi zarurligi aniqlanmoqda. Bu esa keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilaydi.

Muhokama va natija. Mazkur maqolada Komil Xorazmiy ijodi misolida Xorazm jadid ma’rifatparvarlari pedagogik qarashlari asosida talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi nazariy-tahliliy yondashuvda o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, jadidlarning ta’limiy g‘oyalari zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, xususan kreativlikni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq.

Komil Xorazmiy pedagogik merosi orqali milliy ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy kompetensiyalar tizimiga tatbiq etish mumkinligi aniqlanib, bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, mamlakatimiz ta’lim tizimida jadidchilik pedagogik an’analarini chuqur o‘rganish va ulardan foydalangan holda innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Kelgusida Xorazm jadidchiligi pedagogik merosining amaliy tatbiqi, shuningdek, uning ta’limda kreativlikni rivojlantirishdagi o‘rni bo‘yicha empirik tadqiqotlar o‘tkazilishi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolada Komil Xorazmiy ijodi misolida Xorazm jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari asosida talabalarning kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi nazariy-tahliliy yondashuvda o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, jadidlarning ilmga, erkin tafakkurga va axloqiy tarbiyaga asoslangan ta’limiy g‘oyalari zamonaviy ta’lim jarayonida kreativlikni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Komil Xorazmiy pedagogik merosi milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va talabalarning ijodiy salohiyatini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar. Milliy pedagogik meros, xususan, Xorazm jadidchiligi pedagogik konseptlarini o‘rganish va zamonaviy ta’lim dasturlariga kiritish bo‘yicha amaliy ishlar kuchaytirilishi lozim.

Ta’lim jarayonida kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metod va texnologiyalar kengroq joriy qilinishi zarur.

Komil Xorazmiy va boshqa jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va empirik ishlar ko‘paytirilishi, shu orqali zamonaviy ta’lim tizimida samarali integratsiya yo‘llari ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

O‘qituvchilar uchun kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak.

Milliy ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadida ta’lim siyosatida yangi strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives*. Longman.
2. Craft, A. (2005). *Creativity in schools: Tensions and dilemmas*. Routledge.
3. Jo‘raev, I. (2021). Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish. *Pedagogik izlanishlar* jurnali, 3, 45-52.
4. Qosimov, B. (2002). *Jadidlar: ma’rifat va islohot g‘oyalari*. Toshkent: Fan.
5. Rashidov, Sh. (2010). *O‘zbek jadidchiligi va ma’rifiy meros*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
6. Robinson, K. (2011). *Out of our minds: Learning to be creative*. Capstone Publishing.
7. UNESCO. (2017). *Education for sustainable development goals: Learning objectives*. Paris: UNESCO Publishing.

MUNAQQID USLUBINING SHAKLLANISHIDA OLIM TILI VA MAHORATINING AHAMIYATI

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
dotsenti v.b., f.f.f.d(PhD)
Kuchkarova Gavxar Abdullayevna,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidchi individual uslubining shakllanishida mahorat va tilning ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Uslub tahlilidagi muhim jihatlar tahlilga tortilib, fikrlar dalillar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: tanqid, tanqidchilik, uslub, til, mahorat, iste’dod, kinoya, davr.

Abstract: This article discusses the importance of skill and language in the formation of a critic's individual style. Important aspects of stylistic analysis are analyzed, and ideas are explained with evidence.

Keywords: criticism, criticism, style, language, skill, talent, irony, era.

Ma’lumki, tanqid o‘ziga xos adabiyotshunoslik sohasi hisoblanib, u estetik ongga asoslanadi hamda ilm-fan va badiiy san’atning kesishgan nuqtasida vujudga kelgan. Badiiy tafakkurning mazkur shaklida san’atkor har bir ifoda qilayotgan fikrning qaysi asosga tayanganligi, ilmiy isbotlanishi, xulosalar chiqarilishi jihatdan fan sohasiga tegishli bo‘lsa, qabul qilingan badiiy matnning san’atkor mulkiga aylanishi, badiiy tafakkur imkoniyatlari doirasida qaytadan bunyod bo‘lishi yangi yaratiqning dunyoga kelishi sanaladi. Chin san’at asari hech vaqt bir-birini takror qilmaydi. Bu asarlarning har biri o‘ziga xos. Biror badiiy asar yoki nazariy masala xususida bir necha munaqqid ishlashi, tadqiqot o‘tkazishi mumkin, ammo ularning yozganlari bir-biridan qaysidir tomonlari bilan farqlanadi. Bu farqlanish, avvalambor, ularning uslubida ko‘zga tashlanadi.

Munaqqid va adabiyotshunos olim uslubini ko‘rsatuvchi omillar haqida so‘z borganda mahorat masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki har bir munaqqidning tanqidchilik mahorati, avvalo, badiiy adabiyotning, adabiy tanqidchilikning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu sohalarga oid nazariy bilimlarni qay darajada egallashiga bog‘liq. Shu bilan birgalikda adabiy tanqidchi tanqidchilik sohasini gumanitar soha deb bilganidagina, unga gumanizm pozitsiyasidan turib yondashgandagina u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi, adabiyotshunoslik va badiiy adabiyotni rivojlantira oladi. Adabiyotshunos Hotam Umurov “Tahlil san’ati” kitobida “Asar haqidagi mulohazalari keng kitobxonlar ommasiga ta’sir o‘tkazar ekan, munaqqid asarni baholashda qiziquvchan oddiy o‘quvchi bilan adabiyotshunos olim nigohini birlashtira olishi, taassurotlari va xulosalarini ifodalashda esa o‘tkir tilli olim va qalami o‘tkir ijodkor mahoratini omuxta qila olishi kerak. “Buning uchun tanqidchi hayotni, adabiyotni, falsafa va mantiqni, psixologiya va pedagogikani chuqur bilishi lozim”[35]. Bularning barchasi munaqqidda uch xususiyat namoyon bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi:

- asar, yozuvchi yoki butun adabiy hodisaga munosabatini o‘quvchiga yuqtira bilishi lozim;

[35] Ўмуров Ҳ. Таҳлил санъати. – Тошкент: ҒАСН, 1978. – 18 б.

- o‘z fikrlarini tushunarli, obrazli til bilan original formada yetkazib berishi lozim;

- adabiy ijod sohasidagi va hayotdagi eng muhim muammolar nuqtayi nazaridan talqin yurg‘izishi lozim”[36] deb yozadi. Chindan ham, munaqqidga qo‘yilgan talablarning eng muhimlaridan biri bu hozirjavoblikdir. Ya’ni tanqidchi yuksak nazariy bilimlarni egallagan bo‘lish bilan bir qatorda, adabiy jarayon bilan ham doimiy ravishda tanish bo‘lishi lozim. U e’lon qilingan ishlarni yetuk bilimlar bilan tahlil qila olsagina, tanqid o‘zining “yo‘l ko‘rsatuvchilik” funksiyasini bajargan bo‘ladi.

Adabiyotshunos uslubini namoyon etuvchi unsurlardan yana biri bu olim tilidir. Adabiyotshunos olimning uslubi, eng avvalo, uning tilida namoyon bo‘ladi. Tilshunos olim Vossler o‘zining “Tilshunoslikda pozitivizm va idealizm” asarida olim tilining uslubdagi o‘rni haqida gapirar ekan, “Uslub - bu tilning individual ishlatilishi”[37] degan fikrni beradi.

Dilmurod Quronov maqolalarini kuzatar ekanmiz, olim tilida so‘roq gaplardan, ko‘p holatlarda ritorik so‘roq gaplardan istifoda etishiga duch kelamiz. Olim maqola yozishga kirishar ekan, avvalo, o‘zi bilan kengashib olgandek taassurot yuzaga keladi. Yozilajak maqolada nimalarni ifodalamoqchi bo‘lganini izohlash barobarida, maqola yozishga turtki bergan sabablarni ham keltirib o‘tadi. Misol uchun “Inson yo‘li” maqolasi boshlanishida “Turmushdagi o‘zgarishlar insonni o‘zgartiradimi yo insonning o‘zgarishi turish-turmushimizni?”[38] degan falsafiy savolni o‘rtaga tashlashdan boshlaydi. Fikrni davom ettirarkan, “Sezib turibsiz, savol bamisoli “tovuq oldin paydo bo‘lganmi yo tuxum?” qabilida qo‘yildi. Ya’niki, bir-biriga mutlaq zid javob berilgan taqdirda ham har ikki tomon o‘zicha haq bo‘lib chiqaveradi” singari jumlani keltirish orqali bu masala yuzasidan olimning bir qarorga kelib bo‘lganligi, o‘z fikrini ifodalashga taraddudlanayotganligini sezish mumkin. Bu kabi holatlar olimning qator maqolalarida ko‘zga tashlanadi. “Shoir-da, ozroq mubolag‘a qilmasa bo‘lmaydi, dersiz?! Yo‘q, uning “Ilk avval ko‘zimni ishq bilan ochdim” deyishi mubolag‘a emas. Zero, tanglayi millat dardi bilan ko‘tarilgan, Taraqqiy va Istiqlol ishqi vujudiga sut bilan kirganu yurak qoniga aylangan uning. Mubolag‘aning daf’iga mubolag‘a keltiryapti, demang, asli o‘zi shunday…” (“Ilk avval ko‘zimni ishq bilan ochdim” maqolasi), “Yuqoridagi she’riy parchada birgina poetik obraz – o‘sha “yam-yashil chigirtka”ga yuklanayotgan ma’no zalvorini chamalab ko‘rdingizmi? Chamalay olgan bo‘lsangiz, adolat haqqi shuni uddalagan

[36] Ўмуров Ҳ. Тахлил санъати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. – 72 б.
[37] Соколов А.Н. Теория стиля. – Москва: Исскуство, 1968. – 14 с.
[38] Қуронов.Д. Талқин имкониятлари – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 58 б.

shoirga ham, ochib ko‘rsatolgan munaqqidga ham tahsin aytmoq lozim bo‘ladi” (“Chaqmoqni tushuntirish zahmati” maqolasidan) shular jumlasidandir. Olim tili haqida gapirganda, D.Quronov maqolalaridagi gapni uzoqdan boshlash, hikoya va aforizmlardan foydalanish holatlariga alohida to‘xtalish zarur. Chunki bu kabi rivoyatlar va turg‘un birikmalardan foydalanish olim ijodida salmoqli o‘rin tutadi. Masalan, “Ota-bobolarimizdan meros bir hikmat bor: “Ilm istasang oqillar suhbatiga quloq tut…” (“Fikrning doyasi” maqolasidan), “Ezopda bir masal bor: *“Zevs ho‘kizni yaratdi, Prometey – odamni, Afina – uyni. Uchalovi kimning ijodi mukammalroq ekanligi masalasida bahslashib qolishdi-da, hakamlikka Momni taklif qilishdi. Ularning ijodini ko‘rib, Momning g‘ayirligi keldi va dedi: “Zevsning xatosi shuki, ho‘kizning ko‘zlari shoxida emas – nimani va qayeriga suzayotganini bilolmaydi; Prometeyning xatosi shuki, odamning yuragi tashida emas, ichida ekan – uning yaxshi yo yomonligini birdan bilib bo‘lmaydi; Afina uyni g‘ildirakli qilmapti – yomon qo‘shni to‘g‘ri kelib qolsa qochib ketib bo‘lmaydi”. Momning g‘ayirlik qilayotganini sezgan Zevsning qahri keldi va uni Olimpdan haydab soldi” (“Adabiy jarayonda Mom sindromi” maqolasidan) singari o‘rinlarda mazkur holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu ham olim uslubiga xos xususiyatlardan biri bo‘lib, fikrni asoslash davomida olim tili va mahorat masalalari birgalikda namoyon bo‘ladi. Ya’ni munaqqid yozayotgan maqolasiga tayyor matnni olib kirar ekan, bundan faqatgina fikrni dalillash uchun foydalanmaydi, balki olimning bu usuli matnni yanada “o‘qishli” chiqishini ta’minlaydi.*

D.Quronov ijodida ilmiy va badiiy tafakkurning qorishiqligini, ayrim maqolalarda sof ilmiy tildan foydalanilgan bo‘lsa, ayrimlarida badiiy tilning jozibasini ko‘rish mumkin. D.Quronov asarlari tili haqida professor Qozoqboy Yo‘ldoshev “Uyg‘unlik” maqolasida shunday deydi: “U eng murakkab ilmiy tushuncha va muammolar mohiyatini teran anglab yetgani uchun ham ular haqida juda tushunarli yo‘sinda fikr yuritadi. Ilmiy ifodadagi tushunarsizlik bilishdagi chalalikning tashqi ko‘rinishidir. Olim eng chigal adabiy qonuniyatlarni anglatishda ham andijonliklar nutqida ko‘p uchraydigan “juday-la”, “hech yo‘q”, “bo‘libam” so‘z birikmalarini qo‘llaydiki, bu hol uning qarashlariga alohida samimiyat bag‘ishlaydi”.[39] Mana shu nuqtayi nazardan qarasak, D.Quronovning til mahoratini uning uslubini belgilovchi eng asosiy komponentlardan biri sifatida ta’kidlash o‘rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. QODIROV, A. (2025). BADIIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 386-388.

[39] Yo’ldoshev Q. Uyg’unlik.-Hurriyat. 2020-yil 4-noyabr.

2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.

3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(42), 144-149.

4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY ASAR TILI VA BADIIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, *4*(5), 36-38.

5. O’G’Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, *2*(2), 46-50.

6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(9), 271-276.

7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.

8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.

9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *12*(3), 438-442.

10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,

11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,

RASSOMNI ILHOMLANTIRGAN RAQQOSA

Muxamedova Madinaxon,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
onaw82@mail.ru
Tel: (94) 6446442

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy o‘z “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab’ai sayyor” asari, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida rassom Chingiz Axmarov tomonidan yaqratilgan asarlar, ijodkor tomonidan raqqosalarga bo‘lgan hurmat va e’tibor, “Yetti go‘zal”

raqs ijorosi, uning tarixi, Mukarrama Turg‘unboyeva, Ra’no Nizamova ijodi va uning “Bahor” davlat raqs ansambli faoliyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, asar, rassom, xoreograf, tarix, chizma, raqqosa, ansambl

Abstract: This article examines Alisher Navoi's "Sabai Sayor," the fourth poem in his "Khamsa" cycle, the artist Chingiz Akhmarov's works in the State Museum of Arts of Uzbekistan, the artist's respect and attention to dancers, the dance performance "Seven Beauties" and its history, the work of Mukarrama Turgunbaeva, Rano Nizamova, and the activities of her state dance ensemble "Bakhor."

Keywords: work, creative work, artist, choreographer, history, drawing, dancer, ensemble

Eron shohlaridan bo‘lgan Bahrom binni Yazdijurdning hayoti va faoliyatiga murojaat etishni lozim topdi. Ajam mamlakati tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda bu hukmdorning taxtga chiqishi bilan bog‘liq ajoyib hodisalar, uning adolatli siyosati, qiziqarli hayot tarzi, “Havarnaq” deb atalgan muhtasham qasr qurdirishi, ov qilishga bo‘lgan ishtiyoqi, Diloromi changi nomli sozanda va xonanda qiz bilan munosabatlari, shuningdek, halokati tafsilotlari atroflicha bayon qilinadi. Alisher Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarida ham shoh Bahrom faoliyati ancha keng aks ettirilgan. Shoir jahon tarixidan munosib joy egallagan ushbu hukmdor haqida qalam surishga kirishar ekan, o‘z salaflariga qaraganda boshqacharoq g‘oyaviy-badiiy niyatni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi, ya’ni dostonda shoh Bahromning taxt egallashi bilan bog‘liq voqealardan boshlab o‘limiga qadar yuz bergan barcha hodisalarni to‘la tasvirlash yo‘lini tanlamay, uning Dilorom bilan munosabatinigina bayon qilish va u voqe’likni shoh va uning kanizi o‘rtasidagi yuksak, pokiza va samimiy muhabbat tarixiga aylantirishni, asardan o‘rin oladigan yetti hikoyani esa bevosita asosiy mavzu bilan uzviy bog‘liq holda bayon etishni ma’qul deb bildi. [1,15]

O‘zbekiston davlat san’at muzeyida rassom Chingiz Axmarovning “O‘zbekcha raqs” deb nomlangan Xorazm, Buxoro, Farg‘ona maktablariga mansub bo‘lgan uch raqqosa osig‘liq turadi. Miniatyura san’ati va badiiy keramikadagi ramzlar uyg‘unligining eng go‘zal namunasi sifatida yetuk rassomning chinni laganlarga ishlagan “Yetti go‘zal” asarini misol keltirish mumkin.

Rassom Chingiz Abdurahmonovich Ahmarov 1950-yillardan ko‘p qirrali ijodkor sifatida ko‘zga tashlandi. Uning 1952-yilda Mukarrama Turg‘unboyeva, 1965-yilda Halima Nosirova, 1968-yilda “Yosh Navoiy” teatr spektakllari va kinofilmlarga, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasiga, Hamza teatri, “Ulug‘bek yulduzi”, “Ikki dil dostoni” filmlariga chizgilar, kitob bezaklari, maishiy lavhalardan 1971-yilda

“Buxorocha raqs”, “Xorazmcha raqs”, “Xush kelibsiz” rasmlar, amaliy san’at buyumlardan chinni laganlar uchun chizgilar ham yaratdi.

1980-1990-yillarda Toshkent metropolitenining “Alisher Navoiy” bekati, Amaliy san’at muzeyi binosi devorlariga ishlagan asarlari ham jozibalidir. Uning yaratgan bir-biridan nodir asarlari O‘zbekiston san’at muzeyida, Amaliy san’at muzeyida, Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida, Qo‘qon adabiyot muzeyida va boshqa muzeylarda bugungi kunda saqlanmoqda. [2,20]

Ana shu dunyoga mashhur “Yetti go‘zal” “Aloqabank” tomonidan chiqarilgan qog‘shma nishonli kartalarning eksklyuziv dizayni ham taniqli rassom Chingiz Ahmarovning Farg‘ona raqsi”, “Xorazm raqsi”, “Xalima Nosirova, “Nodira portreti”, “Tamaraxonim”, “Buxoro raqsi” kabi rasmlar parchalari asosida yaratildi.

Chingiz Ahmarov og‘zining badiiy asarlari bilan milliy madaniyatimizni boyitgan zamonaviy og‘zbek sanatining yetuk ijodkorlaridan biridir.

O‘zining yuksak mahorati, qizg‘in hayoti bilan san’at tarixida yorqin iz qoldirgan afsonaviy siymolardan biri Mukarrama Turg‘unboyevadir. “Bahor” davlat raqs ansamblining tashkilotchisi, mohir raqqosa, mehribon ustoz, qalbi daryo inson ansamblini tashkil etibgina qolmay, unga 20 yildan ortiq davr mobaynida rahbarlik qildi, bor mehrini, qalb ko‘rini, umrini baxshida etdi. Jahon san’atida mashhur siymolar o‘z emas. Biroq maktab yaratib ketgan san’atkorlar barmoq bilan sanarlidir. Mukarrama Turg‘unboyeva-o‘zbek raqs san’atida o‘zining maktabini yarata olgan sara san’atkorlardan biridir. “U yaratgan va asos solgan maktabning xususiyati shundan iborat ediki, - deb yozadi san’atshunoslik fanlari doktori Muhsin Qodirov, - u bir vaqtning o‘zida raqs san’atining uchta sohasi bo‘yicha ish olib bordi. Birinchisi-raqs ijrochiligi, ikkinchisi-yangi raqs yaratish, uchinchisi-yosh raqqoslarni tarbiyalab voyaga yetkazish edi. Mukarrama Turg‘unboyevaning “Bahor” davlat raqs ansambli dasturlarida ko‘p yillar davomida ijro etib kelingan raqslarini uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. Biri xalq orasida keng yoyilgan oddiy o‘yinlar negizida yaratilgan raqslar “Andijon polkasi”, “Namanganning olmasi”, “Besh qarsak”, “Toshkent piyolasi”, “Samarqand bahori” bo‘lsa, ikkinchisi, mumtoz o‘zbek raqslarini ommaviy va zamonaviy asosida qayta tiklashga e’tibor qaratdi. Chunonchi, u o‘z qizlari bilan “Katta o‘yin”, “Zang”, “Rog‘”, “Soqinoma”, kabi raqslarga yangi hayot bag‘ishladi. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan ilhomlanib yaratgan “Yetti go‘zal” raqsi ham o‘zbek mumtoz raqs san’atiga mansubdir. U nafaqat o‘zbek milliy raqslarini, balki jahon raqs san’ati namunalarini sahnaga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldi”.

O‘zbek raqs san’ati fidoiy ijodkori Ra’no Hoshimovna Nizomova Qo‘qon shahrida 1935-yilning 25-dekabrida tavallud topgan. O‘zbekiston

xalq artisti unvoniga sazovar bo‘lgan raqqosa, baletmeyster, pedagogdir. Toshkent xoreografiya bilim yurti, Toshkent madaniyat institutini tugatgan. Navoiy teatrida, “Bahor” davlat raqs ansamblida yetakchi raqqosa keyinchalikda repetitor-baletmeyster va badiiy rahbar o‘rinbosari lavozimida o‘z faoliyatini olib borgan. “Nargiz” bolalar ashula va raqs ansamblining tashkilotchisi, badiiy rahbari va baletmeysteri hamdir. Raqqosa, pedagog sifatida 1980-yildan faoliyatini olib borayotgan Toshkent madaniyat institutining xoreografiya bo‘limida o‘qituvchi va 1992 yildan professorgacha ishlar olib borgan ijodkordir.“Pomircha raqs, “Oqqush ko‘li”, “Uyqudagi go‘zal”, “Yetti go‘zal”, “Esmeralda”, “Jizel” va boshqa spektakllarida balet partiyalarini ijro etgan. Nizomovaning ijodi serqirra bo‘lib, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm uslubidagi o‘zbek mumtoz, xalq zamonaviy raqslarini, qardosh va xorijiy xalqlar raqsini bir maromda mahorat bilan ijro etgan. Uning repertuaridan “Bahor” davlat raqs ansamblida “Pilla”, “Jonon”, “Rohat”, “Tanavor”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Asta qiyolab o‘tdi”, “O‘yna Ra’no”, “Buxorocha raqs”, “Tog‘li Badaxshon raqsi”, “Zavqim kelur”, “Sho‘x qiz”, “O‘ynasin” kabi, hamda afg‘on, hind, pokiston, polyak va boshqa xalq raqslari o‘rin olgan. Baletmeyster sifatida “Lolalar”, “Yoshlik valьsi”, “Soqiynomai Bayot”, “Dilxiroj”, “O‘zbekiston qizlari”, “Duxtari zebo” va ko‘plab raqslarni sahnalashtirgan. Avstriya, Chexoslovakiya, Indoneziya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Kanada, Misr mamlakatlarida ijodiy safarlarda bo‘lgan. [3,2]

Urush yillari qizaloqning quvonchli hayot damlarini chetlab o‘tmaydi. Otasi Qurbonov Xoshim 2-jahon urushida vafot etadi. Onasi Qurbonova Jo‘raxon aya 1942-yilda hayotdan ko‘z yumadi. Ota-ona mehriga to‘yib ulgurmagan Ra’no 7 yoshidayoq yetimlik nima ekanligini xis qiladi. 1941-yildan 1954-yilga qadar Qo‘qon va Toshkentagi bolalar uyida tarbiyalanadi. Bolalar uyiga Ra’no tezda ko‘nikib ketadi. O‘qish jarayonida ustozlari va dugonalari bilan kichik tadbirlar sahnalashtira boshlaydi.

1948-yilda Respublika miqyosidagi “Bolalar olimpiadasida” raqs yo‘nalishi bo‘yicha faol ishtirok etib xoreografiya bilim yurtiga qabul qilinadi. 1951-yilda Moskva shahrida O‘zbekiston san’ati va adabiyoti dekadasida qatnashib, “Kichik oqqushlar” raqsini maromiga yetkazib ijro etadi va “Mehnat a’lochisi” medali bilan taqdirlanadi. 1954-yilda Ra’no Nizamova xoreografiya bilim yurtini muvofaqqiyatli tugatadi va shu yildan Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrining balet truppasida o‘z mehnat faoliyatini boshlaydi. Teatrda ishlash jarayonida turli tuman rollarni ijro etadi. Ko‘zgan ko‘ringan Ra’no Nizamova o‘zbek raqsining asoschisi Mukarrama Turg‘unboeva etiboriga tushadi va ustozning taklifi bilan “Bahor” davlat raqs ansambliga raqqosa sifatida ishga qabul qilinadi.

Ra’no Nizamova o‘zbek raqs san’ati kamolotida muhim o‘rin tutgan ijodkor sifatida uning go‘zal raqs san’ati sohasidagi ulkan mehnati 1964-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” 1974-yilda “O‘zbekiston xalq artisti” 1984-yilda “Xalq ta’lim a’lochisi” unvonlari bilan munosib mukofotlandi.

Ra’no Nizamova 197-yilda Shayxontoxur tumani pionerlar uyiga ishga o‘tib, “Nargiza” nomli qo‘shiq va raqs ansamblini tashkil qildi. Bu ansambl ko‘p yillar mobaynida o‘zlarining turli kontsert dasturlari bilan tomoshabinlar qalbidan joy olib ularga manzur bo‘ldi. Ansambl “San’at bayrami” tanlovining sovrinli o‘riniga erishdi, bir nechcha marotaba zangori ekran orqali chiqish qildi. “Artekda” va Amerika Qo‘shma Shtatlarida gastrol safarida bo‘lib katta xurmat va olqishlarga sazovor bo‘ldi.

Pedagogik faoliyati davomida Ra’no Nizamova talabalarga juda qattiq qo‘l edi.Madaniyat institutida dotsentlik ilmiy unvoniga, keyinchalik 1992-yili “Xoreografiya” kafedrasi professori sifatida samarali faoliyat ko‘rsatib keldi.

Mashhur raqqosa, pedagog Ra’no Nizamova 2013-yil 10-aprel kuni 78 yoshida olamni tark etdi. Uning ijodidagi raqslar, talaba-yoshlarga bergan saboqlar bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sab’ai Sayyor (dostonining ixcham nasriy bayoni). Toshkent. “Yangi asr avlodi”.2009 y
2. mrdi_site_administrator. Bitiruvchilar klubi, April 2, 2019 y
3. E.Yusupov. Barcha go‘zallik bir san’atda. Ra’no nizamova va raqs. “Oriental Art and Culture”, Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1/March 2022 y
4. Q.Sagatov M.Muxamedova. “O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari”. “Navruz”, T., 2017 y
5. У.Мухамедова “Роль женщин в хореографическом искусстве”. “SANAT”, ВЫПУСК №4, 01/10/2011/ г
6. Havaskorlik bolalar va raqs ansambllarini tashkil qilish va ularning faoliyati (hamkorlikda), T., 1985 y

THE CONCEPT OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Madaminova Shakhodat Shomurotovna,
Doctoral Candidate, Urgench State Pedagogical Institute
E-mail: madaminovashaxodat@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-6989-7231

Abstract. This article explores the concept and implementation of moral and ethical education in higher education institutions. In the modern era of globalization and digital transformation, fostering students’ spiritual and moral development has become an essential task for universities. The study highlights the theoretical foundations of moral and ethical education, its role in shaping students’ civic responsibility, professional integrity, and social activity. It also examines the influence of national values, universal human principles, and digital technologies on students’ personal growth. The findings suggest that a systematic and integrative approach to moral education—combining academic curricula, extracurricular activities, and digital tools—can significantly enhance students’ resilience, ethical outlook, and sense of responsibility towards society. The article contributes to ongoing scholarly discussions on strengthening value-based education in the context of higher education reforms.

Keywords: moral and ethical education; higher education; spiritual development; civic responsibility; national values; globalization; digital transformation; student upbringing; educational reforms.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni va amaliy jihatlari o‘rganiladi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning ma’naviy va axloqiy kamolotini ta’minlash oliy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Tadqiqotda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari, uning talabalarda fuqarolik mas’uliyati, kasbiy halollik va ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar hamda raqamli texnologiyalarning talaba shaxsining shakllanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayoni, darsdan tashqari faoliyat va raqamli vositalarni uyg‘unlashtirgan tizimli hamda integrativ yondashuv talabalarning ma’naviy bardoshini, axloqiy dunyoqarashini va jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini sezilarli darajada kuchaytiradi. Mazkur maqola oliy ta’limdagi islohotlar kontekstida qadriyatlarga asoslangan ta’limni mustahkamlashga doir ilmiy munozaralarga o‘z hissasini qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya; oliy ta’lim; ma’naviy kamolot; fuqarolik mas’uliyati; milliy qadriyatlar; globallashuv; raqamli transformatsiya; talaba tarbiyasi; ta’lim islohotlari.

INTRODUCTION. In the context of globalization and rapid technological development, higher education institutions are increasingly expected not only to provide professional knowledge but also to cultivate students’ spiritual maturity and moral responsibility. The integration of spiritual and moral education into higher education has therefore become one of the most pressing priorities of contemporary pedagogy. Scholars argue that education without moral formation risks producing specialists

who lack ethical awareness and social responsibility, which in turn undermines sustainable social development.

The concept of *spiritual and moral education* is understood as a multifaceted process aimed at shaping a student’s worldview, ethical norms, and cultural identity. According to Soliyev and Kholmatova, spiritual and moral education encompasses three interrelated dimensions: inner values (such as honesty, compassion, justice), external behavioral norms, and the social responsibility of the individual. This holistic approach demonstrates that moral education is not an isolated subject but an overarching dimension of the entire educational process.

Uzbek scholars have also emphasized the importance of strengthening this field within the framework of national educational reforms. Razikova highlights the role of pedagogical methods—interactive teaching, role modeling, and extracurricular activities—in forming students’ ethical consciousness[1]. In addition, Ismailov has proposed conceptual indicators for assessing the effectiveness of spiritual and moral education, including adherence to professional ethics, compliance with social norms, and respect for cultural heritage. These indicators are particularly valuable for evaluating educational outcomes in higher education.

At the policy level, Uzbekistan’s current higher education strategy stresses the need to integrate national traditions with universal values. Tokhtanazarov argues that this integration is complicated by the dual challenges of globalization and digitalization, which simultaneously provide opportunities for innovation and risks of moral erosion[2]. Thus, universities must balance the preservation of cultural identity with the adoption of international standards in education.

International scholarship also provides compelling evidence on the transformative role of moral education. Wang et al., in a longitudinal study, demonstrated that moral education positively influences students’ psychological well-being, enhancing positive emotions and reducing negative mental states. Similarly, Wong’s research in Hong Kong shows that students perceive moral education not as abstract theory but as a practical resource for personal and professional development. These findings confirm that spiritual and moral education contributes to students’ holistic growth, equipping them for both social responsibility and career success.

Moreover, in the digital era, new methodological challenges emerge. Lappo and colleagues stress that digital technologies, if properly integrated, can serve as tools for supporting students’ moral development, although the absence of comprehensive frameworks poses significant risks. This indicates that spiritual and moral education must adapt to the realities of digital culture, ensuring that information technologies strengthen rather than weaken moral values.

Therefore, this study seeks to analyze the theoretical foundations, pedagogical approaches, and contemporary challenges of spiritual and moral education in higher education. It also aims to bridge national experiences with international perspectives, contributing to a deeper understanding of how universities can enhance students’ holistic development in the 21st century.

LITERATURE REVIEW. The concept of spiritual and moral education has been widely discussed by both local and international scholars. In the context of higher education, this phenomenon is interpreted as an integral part of the personality development process, aimed at cultivating students’ value orientations, moral responsibility, and spiritual maturity.

Soliyev and Kholmatova (2022) analyze the theoretical foundations of spiritual and moral education, noting that it combines inner values (honesty, compassion, justice), external behavioral norms, and a sense of social responsibility. Their study emphasizes that moral upbringing in higher education should be regarded as a systematic and continuous process integrated into academic and extracurricular activities [3, 56].

Razikova (2024) focuses on the pedagogical aspects of spiritual and moral education, highlighting the role of didactic methods, interactive approaches, and the educator’s personality in shaping students’ moral awareness. According to her, higher education institutions must not only impart professional knowledge but also ensure that students develop ethical decision-making skills and moral resilience [4, 41].

Ismailov (2024) proposes conceptual indicators for evaluating the effectiveness of spiritual and moral upbringing in higher education. These include adherence to moral norms, respect for cultural traditions, and professional ethics. He argues that such indicators serve as measurable criteria for assessing the quality of educational outcomes in universities [5, 77].

Tokhtanazarov (2024) analyzes the challenges faced by Uzbekistan’s higher education system in implementing spiritual and moral education. He identifies contradictions between traditional cultural values and modern globalization trends, as well as the double-edged impact of digitalization, which can both strengthen and weaken moral values depending on its use [6, 63].

Recent international studies also provide valuable insights. Lappo et al. (2022) emphasize the role of digital technologies in fostering students’ spiritual growth, suggesting that ICT tools can help develop moral awareness if applied with proper methodological frameworks. Similarly, Wang et al. (2023) demonstrate through longitudinal research that moral education positively influences students’ psychological well-being,

enhancing positive emotions, reducing anxiety, and strengthening social responsibility.

Wong (2023) explores students’ perceptions of moral education in Hong Kong universities, finding that students view moral education not only as abstract theory but also as a practical tool for personal growth and professional development. This indicates that moral education contributes to students’ holistic formation, preparing them for both social and professional life.

In summary, the reviewed literature reveals that spiritual and moral education in higher education is both a theoretical and practical necessity. While local scholars emphasize the integration of national and cultural values, international research highlights the transformative impact of moral education on psychological well-being and social development. Together, these studies suggest that moral education should be considered a key dimension of higher education reform in the 21st century.

MAIN PART. The Concept of Spiritual and Moral Education in Higher Education Institutions

One of the primary tasks of higher education institutions (HEIs) is not only to equip students with professional knowledge but also to shape their spiritual and moral outlook. In the Republic of Uzbekistan, the *Law on Education* and the *National Program for Personnel Training* emphasize the significance of this priority.

Spiritual and moral education, in essence, is a process aimed at developing an individual’s inner world, moral values, and sense of social responsibility. Scholars describe this concept through three main components:

Inner values – honesty, conscience, justice, compassion;

Behavioral norms – compliance with laws, politeness, discipline;

Social activity – civic duty, responsibility before society.

Methods and Tools of Spiritual and Moral Education in HEIs

In the modern education system, spiritual and moral education is implemented through a variety of methods. Researcher L.T. Razikova classifies these methods as follows:

Educational conversations and lectures – forming moral concepts in students’ consciousness;

Debates and discussions – encouraging independent thinking and justification of ethical views;

Case studies and role plays – preparing students to make correct decisions in real-life situations;

Digital technologies are also considered important tools in this process. According to Lappo et al., when properly applied, information technologies significantly increase the effectiveness of moral education.

Practical Importance of Spiritual and Moral Education

In the age of globalization and widespread internet access, young people are exposed to strong external influences. Therefore, forming moral immunity within HEIs becomes crucial. Y.K. Ismailov’s conceptual indicators allow assessing students’ development in the following aspects:

- adherence to professional ethics and duty;
- compliance with social norms;
- respect for national cultural heritage;
- active participation in social life.

National and International Experiences

In Uzbekistan, the integration of national values with universal human ideals is regarded as a key direction. According to I.I. Tokhtanazarov, this process is becoming more complex in the era of globalization and digital transformation.

International experiences also confirm the significant role of spiritual and moral education in students’ personal development. For instance, Wang et al. (2023) demonstrated that moral education positively influences students’ psychological well-being. Similarly, Wong (2023) emphasizes that students perceive moral education not merely as theoretical knowledge but as a practical resource for their lives and careers.

Contemporary Challenges and Prospects

The rapid development of digital media and social networks exerts both positive and negative effects on students’ spiritual worldview. For this reason, the process of moral education in HEIs is being organized according to the following principles:

Innovative methods – e-textbooks, online moral education sessions;

Integrative approach – embedding moral values across all subjects;

Monitoring and evaluation – regularly assessing students’ moral and spiritual growth.

Illustrative Model. The following scheme represents the main directions of spiritual and moral education in HEIs:

Spiritual and Moral Education

Inner Values (honesty, conscience, justice)
Behavioral Norms (politeness, law-abiding)
Social Responsibility (civic duty, responsibility)

(Law of the Republic of Uzbekistan *On Education*. – Tashkent, 2020.)

Conclusion. Moral and ethical education in higher education institutions plays a crucial role in shaping students’ personal development, social responsibility, and professional maturity. In the context of

globalization and digital transformation, protecting young people from external ideological influences and fostering loyalty to both national and universal values has become an urgent task.

This process in higher education should be organized on the basis of an **integrative approach**, meaning it must not be limited to lectures and seminars but also include social activities, cultural-educational events, and digital learning tools. Through this, students develop respect for national traditions, justice, peace, civic responsibility, and humanism.

Practical studies show that students who are engaged in a value-oriented environment demonstrate higher achievements not only in academic knowledge but also in **social activity**, **leadership capacity**, and **ethical outlook**. The use of modern digital technologies makes the process more effective and engaging.

Thus, moral and ethical education in higher education institutions should be considered a strategic process that ensures the formation of well-rounded individuals and their active participation in the sustainable development of society.

REFERENCES

1. Razikova, L. T. (2024). *Pedagogical aspects of spiritual and moral education of students*. *Samarkand State Medical University Bulletin*, 5(2), 55–63.
2. Wang, L., Zhang, H., & Chen, Y. (2023). *The long-term impact of moral education on college students’ psychological well-being*. *Sustainability*, 15(7), 6112. https://doi.org/10.3390/su15076112
3. Soliyev, B., & Kholmatova, N. (2022). *Ma’naviy tarbiya nazariy asoslari*. Toshkent: Fan. – p. 56.
4. Razikova, M. (2024). *Oliy ta’limda ma’naviy tarbiya metodlari*. Toshkent: Innovatsiya. – p. 41.
5. Ismailov, A. (2024). *Talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholash mezonlari*. Samarqand: Ziyo. – p. 77.
6. Tokhtanazarov, O. (2024). *Globalizatsiya sharoitida ma’naviyat*. Toshkent: Universitet nashriyoti. – p. 63.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “TOSH” HIKOYASIDA YOVUZLIK FORMULASI VA RAMZLAR SINTEZI

To‘liboyev Xursandbek Bazarbayevich,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Chirchiq davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi
+99893-260-30-75

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Tosh” hikoyasi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, yozuvchining ramzlar tilida

qahramonlar hayotini talqin etiladi. Shuningdek, maqolaning jahon adabiyotidan kirib kelgan F.Kafka, J.Joyslar mifologik qarashlaridan ilhomlangan uslubiy o‘ziga xoslik haqida ham nazariy mushohadalar keltiriladi.

Kalat so‘z: obraz, konsepsiya, shakl, ramz, metafora, uslub, g‘oya, syujet, talqin, tadrij.

Abstract: This article discusses Ulugbek Hamdam's story "The Stone", interpreting the lives of the characters in the writer's symbolic language. It also presents theoretical observations about the methodological peculiarities of the article, inspired by the mythological views of F. Kafka and J. Joyce, which came from world literature.

Keywords: image, concept, form, symbol, metaphor, style, idea, plot, interpretation, action

Zikr etishlaricha, Kisro (fors podshohi) o‘g‘liga ta’lim-tarbiya beradigan ustoz tayin qildi. Bola fazl-u odobda barkamol bo‘lib o‘sdi. Bir kuni ustozi uni qattiq urdi. Bola esa katta bo‘lguncha, ustoziga nisbatan ich-ichidan kek saqlab yurdi. Uning xayolidan o‘sha sababsiz urilgan zarba ketmasdi.

Otasi o‘lib taxtga chiqqach, birinchi ustozini yoniga chorladi:

– Falon, falon kuni hech bir sababsiz, aybim bo‘lmasa-da, meni qattiq urgan edingiz. Bunga sizni nima majbur qildi?

– Ey podshoh, fazlu odobda kamolga yetganingizga, siz otangizdan so‘ng taxtga o‘tirishingizni bilgan edim. Shuning uchun sizga kaltak og‘rig‘ini, zulm alamini tottirishni xohladim, toki biron kimsaga ham zulm qilmagaysiz.

Podshoh bu javobdan mamnun bo‘lib: «Alloh sizga yaxshi mukofotlar ato etsin», dedi va sovg‘a-salom bilan kuzatib qo‘ydi.

“Gunohi kabiralar” kitobidan

Men bu hikoyani o‘qib chiqqan paytilarim Samarqand davlat universitetida bundan o‘n besh yillar chamasi aspiranturada o‘qirdim. Qo‘limga Ulug‘bek Hamdamning “Tosh” nomli hikoyasi tushdi. Va, talabalar turadigan xonaga kelib, o‘qib chiqdim. Qayta o‘qidim. Ochig‘i hech narsa tushunmadim. Va, ertasi o‘qishdan, keyin “Bekajon” gazetasidagi yarim shtat muharrirlik ishidan qaytib kelib yana o‘qidim. O‘shanda nimanidir his etgandek bo‘ldim. Shundan keyin – tashqari, ya’ni insonning tashqi qiyofasi va, ichkari, - botiniy qiyofasi haqida o‘y sura boshladim. Bunga sabab men ham shunday kayfiyatni boshidan kechirganlarni bakalavr payti, talaba davrimda ko‘rgan ekanman, ko‘rib zimdan kuzatgan ekanman. Lekin “Tosh” shakliga aylanishi uchun bo‘shliqdagi har qanday jism o‘zining bajarishi mumkin bo‘lgan vazifasini bajarishi shart ekan! Ha, shartlik qonuni! Tabiatning eng oliy – qonuni!

Yaqinda bir narsaning guvohi bo‘ldim. Ellikqal’ani uzoq yillar boshqargan sobiq hokim Ne’matulla Matkarimovich Xudaybergenovning maslahati bilan Ellikqal’ada ko‘p yillar tarix fanidan saboq bergan taniqli olim va shoir Samandar Ismailov xonadoniga tashrif buyurdim. U kishi Ayozqal’a tepaligidan mushtdan kichkikroq tosh topibdi. Tosh rangi qizg‘ish edi. *(Men bu o‘rinda toshni yovuzlik ramzi sifatida baholamoqchi emasman. Inson qo‘liga tushgan har qanday jism yovuzlik maqsadida foydalanilsa, uning o‘z qiymatiga baho berilarkan, u zulmga evriladi. Gap boshqa masala haqida ketmoqda!)*. Tarixchi olim Samandar Ismailov o‘sha qizg‘ish toshdagi yozuvni tushuntirdi. “Bu chiziqlar ajdodlar tomonidan yozib qoldirilgan belgi, o‘zlari tushunadigan maktub-xabarlardir”, -dedi. Men juda chuqur o‘yga toldim. Hikoyadagi tosh bilan olim qo‘lidagi toshni o‘ylab ko‘ring? Ajdodlarimiz toshni nima maqsadda foydalanmoqda. Agar shu toshga bitilgan yozuvni o‘qigan ilm egasi uchun bu juda aniq-tiniqdir. Masalan, Ulug‘bek Hamdam hikoyada o‘z kayfiyatini programmmalashtiryapti. Uyda siqiladi uning qahramoni. Ko‘chaga chiqsa botinidagi, ya’ni ko‘ksidagi tosh erib, boshqalar kabi kulishni xohlaydi, boshqalar yashagan shodu xurramlikni xushlaydi. Lekin istak – tadbirga aylanmayapti. Yozuvchi ana shu nuqtani o‘quvchiga tushuntirmoqda. Demak, tosh qattiq jism. Tosh davridan qolgan bu tabiatning bir jismi asrlar, vaqtlar o‘tib, yovuzlikning quroliga evrilishi, u insonning botinida tug‘ilib, real hayotga ko‘chishi – ruhiyat bilan bog‘liq tarzda kechmoqda. Hikoyaga e’tibor bering: *“Bugun ham uning iskanjasida toqatim toq bo‘lganda shartta kiyindim-da, tashqariga chiqdim-ketdim. Chunki ko‘ksimdagi toshning zalvori tobora tosh bosayotganini sezib, bundan taraddudga tusha boshlagandim. Ko‘chada odamlarning yaxshiliklariga, muruvvatlariga ro‘baro‘ kelsamu zora tosh ham eriy qolsa. Masalan, buyrakdagi tuz misol… Axir, u ham ovqat, suv va hokazolarni noto‘g‘ri iste’mol qilishdan yillar davomida inson a’zosida yig‘ilgan toshdek tuz-da. Yoki tuzdek tosh… Nima bo‘lgandayam buning ham vaqtida oldi olinmasa, sohibini alal-oqibat turli azoblarga, balolarga giriftor aylaydi. Shunga o‘xshab men ham ichimdagi tosh bilan uzoq muddat yurishni o‘zim va o‘zgalarning hayotiga xatar, deb o‘ylab qoldim. U buyrakdagi toshdek erimasa ham, arimasa ham, loaqal ichda — ichkarida qolsin. Shunday dedimu o‘zimni tashqariga urdim…”*[1, 142] Hikoyadagi mana shu lavhaning o‘zi asar qahramonining botinidagi tobora ulg‘ayib borayotgan toshning vahmidan qutulishga qaratilgan. Qahramon ko‘chaga chiqmasa, u tosh o‘zini yeb bitiradi. Demak, ana shu yerda yovuzlikning tug‘ilishiga qarshi chiqmoqda yozuvchi qahramoni. Botinidagi toshni ichkariga tashlab, tashqariga otilib chiqadi. Ayni shu yerda uning izlab yurgan narsasiga va kayfiyatiga javob topishga KATTA eshik lang ochiladi: tashqari – hayot. Ichkari esa – ruh va insonning borlig‘i!

Men yuqorida tarixchi olimning fikrlarini bekorga keltirmadim: Toshning rangi qizg‘ish edi. Menga olim aytdiki, *“Bu tosh tushunmagan odamga birovni boshini yorish uchun qurol. Tushungan odamga esa – tafakkur mahsuli. Tanlash – insonning o‘z qo‘lida!”*, dedi.

Hikoyada ayni shu ikki jihat orasidagi mangu kurash haqida so‘z boradi. Inson – tafakkur egasi. Uning yaratilishidagi mo‘jiza esa, Allohni tanishga qaratiladi. Har qanday yo‘l – bir nuqtaga olib borishiga da’vat etilajak. Chunki aynanlik tosh timsolida ochiqlanadi. Hikoyadagi qahramon botinidagi tosh (diydasi qotganlik) o‘rnini ko‘chada **“xirom aylab borayotgan**” ayol husni jamoli egallaydi. Go‘zallik qarshisida insonning (har qanday tirik jonga xos instinkt) taslimiyat eshigiga bosh urishiga evriladi. U shu qadar nozanin qadam tashlar ekanki, qahramon unga o‘z borlig‘ini ikki qo‘llab topshiradi. Bu yerda o‘quvchini ikkinchi epizod bilan tanishtiradi. Endi asar qahramoni ikkita bo‘ladi. Shu ikki borliqni o‘rab turgan shafaq (kunning botishi) toshni parmalab tashlashga qaratilmoqda.

Bu bilan ish bitadimi? Yo‘q! Chunki Toshni bo‘laklarga bo‘lib, maydalab tashlaguvchi har qanday jismning o‘zi yo‘q. U insonning ichida ulg‘aymoqda. Yovuzlik esa bu yerda o‘z kuchini ko‘rsatishga qaratilmoqda. Faqat undan qutilishning birdan-bir yo‘li bor, u ham bo‘lsa, muhabbat, insonga qaratilgan muhabbatdir. Bu bilan masala hal bo‘ladimi? Aslo! Sababi hali u qahramon yo‘lning qoq o‘rtasiga kelib qolganligini bilmaydi. Oldida qanday qismat borligini tushunmaydi. Ayol va uning sohibjamolligi qarshisida ma’lum bir oniy kayfiyatni boshidan kechirmoqda, xolos!

Hikoyadagi uchinchi epizod: *“Daraxtzor tugab biz yana katta yo‘l yoqasiga chiqib qoldik. Ayol chapda ko‘ringan bozor tomon yurdi. Men unga ergashdim. Keyin u odamlar to‘planib turgan joyda to‘xtadi. Men ham yaqinlashib oyoq ildim, uzoqroqda emas, yo‘q-yo‘q, ayolning shundoq biqinida. Xushbo‘ylari arimasdan ufurib turadigan masofada to‘xtagandim. Qanday bunga jur’at etdim – o‘zim ham bilmayman. Bilib-sezib turganim: ayol o‘z borlig‘i bilan meni tobora mahv etib borar, men esa shamdek erib bitayotgandim…”* [2,143] Ko‘rinadiki, hikoya qahramonining botinidagi go‘zallikka intilish faqat tashqi faktorlarda amalga oshirilmoqda. Ichkari esa uni qabul qilmaydi. Insonning psixologik holati haqida ko‘p eshitganmiz. Xarakterni rivojlanishi, yuksalishi, ulg‘ayishi va uning tuban bir holatga aylanishini tushunish qiyin emas! Eng tuban odam ham botinida o‘sha go‘zallikni kashf qilishga qodir. Yozuvchi bu yerda insoniyatning yetib kelgan manzilu makonlarida – shaxsning kamol topishida: jamiyat va men degan o‘zaro birikkan tushunchani izohlab bermoqda. Ayol va qahramon bitta muhitning ikki vakili. Ularni bog‘lab turgan rishtaning o‘zi yo‘q edi aslida. Negaki, hikoya qahramoni ichkaridagi bo‘shliqni tashqaridan izladi. Oqibatda u –

yovuzlikning tug‘ilishini anglashga yo‘l ochdi. Yovuzlik qanday tug‘iladi? Asar qahramonini shu tamoyilda ko‘chaga otilib chiqishga ruhan tayyorladi. Bu tayyorgarlik bir kunda yoki bir oyda bo‘lgani yo‘q. U surunkali uzoq vaqtlar davom etgan qismat mevasi ekanligini ko‘rsatishga qaratilyapti.

Men shunday odamlarni ko‘rganmanki, ichkaridagi o‘sha mavhum, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan modda (tosh)ning nechog‘li masalani hal qilishga qodirligini. Shunday vaqt keladiki, bu tabiiy jarayonning o‘z taqdiri bitishini. Biroq u ko‘p hollarda o‘zgarmasdir. **Tosh – toshligicha, xarakter – xarakterligicha qolib ketgan...**

Xulosa shuki, yozuvchi juda katta falsafiy-psixologik vaziyatni ramzlarga terib chiqadi. Imoratga g‘isht qanday tartib bilan bir-biriga aloqalantirsa, ana shu g‘isht (jamiyat)ning ma’lum bir sifatini, tabiatini, ko‘rinishini belgilashga xizmat qilmoqda. Savol tug‘iladi: qahramonni bu qadar qiyin ahvolda sinovdan o‘tkazish mumkinmidi? Yozuvchi ko‘pgina asarlarida qahramonlariga katta jismoniy vazifa bilan ruhiy qiyinchiliklarni berib tasvirlaydi. Kuchli psixologik tarang vaziyatlarga uloqtiradi. Bu hol “Yolg‘izlik”, “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlaridagi bosh qahramonlar timsolida yaqqol seziladi. Mashaqqatlar, ranju sitamlar evaziga baxtning rangini-yu, ravishini, ta’mini, nimaligini anglay boradi. Ulug‘bek Hamdam asarlari qahramonlari kuchli potensialga ega tafakkur sohiblaridir. Mushohada qilarkan, “Tosh” hikoyasidagi qahramon ham ana shu zaylda o‘z kechmish-qidirmishlarini tahlil qiladi. Zigmund Freyd, Karl Gustav Yung, Erix Fromm kabi psixoanalitiklar bu kabilarni o‘z asarlarida hayotiy tajriba va ilmiy nazariya bilan sinovdan o‘tkazib berganlar. E’tibor bering: hikoyadagi ikkinchi epizodda “xirom aylab boruvchi” go‘zallik timsoli endi yovuz bir inson qiyofasida namoyon bo‘lmoqda!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug‘bek Hamdam. Yaxshiyam sen borsan. –T: Yangi asr avlodi. - B142.
2. Ulug‘bek Hamdam. Yaxshiyam sen borsan. –T: Yangi asr avlodi. - B143.

O‘ZBEK - QIRG‘IZ ADABIYOTI, TARJIMALAR

Xosiyat Bekmirzayeva,
Filologiya fanlari bo‘yicha, falsafa doktori,
hosiat01@mail.ru O‘sh, Qirg‘iziston

Annotatsiya: Mazkur maqolada; O‘rta Osiyo, o‘zbek, qirg‘iz yurtlari bir xil sharoit, bir-biriga o‘xshash turmush tarzi va xalqlari tili bilan ajralmas tarixga ekanligi haqida so‘z yuritilib, o‘zbek qirg‘iz adabiyotining

ahamiyati, o‘zaro bog‘liqligi, har bir davrda ikki xalq do‘stlik rishtalari bilan bog‘liq bo‘lgani xususida so‘z yuritiladi. Maqolada oxirgi yillardagi o‘zaro aloqalar, adabiy tadbirlar, tarjima asarlar va tarjimashunoslikka alohida urg‘u berildi. Maqolaning asosiy maqsadi bir o‘zandagi O‘rta Osiyodagi ulug‘ allomalar va asarlar bir-biriga chambarchas bog‘liqligi, masalan “Manas” va “Alpomish”, Alisher Navoiy va Chingiz Aytmatov, ikki xalq tillarining juda yaqin ekanligini tahlil qilishdir.

Kalit so‘zlar: til, turk tillari, islom, tarix, adabiyot, madaniyat, ilm-fan, xalqlar, “Manas” eposi, Navoiy, tarjima.

Annotation: This article discusses the inseparable historical, cultural, and linguistic connections among the Central Asian regions of Uzbekistan and Kyrgyzstan, which share similar living conditions and lifestyles. It highlights the significance and interrelation of Uzbek and Kyrgyz literature, emphasizing the bonds of friendship that have united the two peoples throughout history. The paper also focuses on recent interactions between the two nations, including literary events, translations, and developments in translation studies. The main objective of the article is to analyze the deep interconnection of great scholars and works that emerged within the same cultural stream of Central Asia — for instance, the relationship between the epics *“Manas”* and *“Alpomish”*, as well as the parallels between Alisher Navoi and Chingiz Aitmatov — and to demonstrate the close affinity between the two languages.

Keywords: language, Turkic languages, Islam, history, literature, culture, science, peoples, *“Manas”* epic, Navoi, translation.

Qirg‘iz va o‘zbek xalqlari asrlar davomida yagona taqdir, yagona makonda ahillik va birodarlik ruhida yashab kelmoqdalar. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ajib bir haqiqatga guvoh bo‘lamiz: bugun dunyo ahliga yashashni o‘rgatmoqchi bo‘lgan taraqqiyparvar xalqlar o‘rtasida yuz yillab davom etgan jangu jadallar bo‘lib o‘tgan. Ammo qadimiy Turkistonda yashagan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini biror marta xusumat va adovat qilichi uzgan emas.

Har bir xalqning uyg‘onish davri bo‘lganday qirg‘iz halqini ham oxirgi yillarda ilmga, dinga, ma’rifat, madaniyatga qiziqishi katta bir to‘lqini seziladi.

Adabiy-madaniy aloqalarimiz ham kuni-kecha paydo bo‘lmagan. O‘tgan asrda qirg‘iz xalqining muhtasham eposi - "Manas" o‘zbek tiliga to‘liq tarjima etildi. Avvalo qirg‘iz adabiyoti og‘zaki ijodi, folklor asarlari shaklida rivojlangan, bularning ichida murakkab syujetli “Manas” dostoni eng yirik asar.

Folklorshunoslar orasida qirg‘iz xalq og‘zaki poetik ijodi to‘g‘risida bir tendensiya bor: go‘yo u boshqa turkiy ellarning folkloriga o‘xshamas, mustaqil zaminda vujudga kelib, o‘zicha taraqqiy qilgan. Lekin bu –g‘ayri

ilmiy fikr. Chunki hech bir el qo‘shnichilik qilmasdan yashagan emas, bir-biriga madaniy, chunonchi, adabiy ta’sir o‘tkazmay qo‘ymagan.

Qirg‘iz va o‘zbek xalqlari qadim-qadimdan bir xil tabiiy va tarixiy sharoitda qo‘shni bo‘lib yashaganlar. Zero, ular bir-birlariga madaniy ta’sir o‘tkazganlar. Shuning uchun bu ikki qo‘shni turkiy xalq orasidagi adabiy aloqalar alohida o‘rganishga loyiqdir. Biz quyida qirg‘iz xalqining yirik adabiy merosi – “Manas” va “Alpomish” dostonlari bir-biriga o‘xshash. Bu ikki ulug‘ merosning – “Manas” va “Alpomish” dostonlarining ayrim boblari shu qadar o‘xshashki, huddi bir-birini takrorlaganday yoki bir bobning ikki nusxasiday. Masalan ot chopish – poyga bobi ikkala dostonda ham deyarli bir xil. Har ikkala asarda ham otlar timsoli mukammal obraz darajasida tasvirlangan. Ikkala dostondagi o‘q otish musobaqalari ham bir xil tasvirlangan.

O‘rta Osiyo xalqlari kishilik tarixida ilm-fan va madaniyat, adabiyot uchun ajoyib siymolarni yetkazib bergan. Turkiy ellar ko‘hna tarix bag‘rida sezilarli iz qoldirishgan. Ular olis umr yo‘llarida ne-ne sardor o‘g‘lonlar, ne-ne zukko qizlarni voyaga yetkazmaganlar. Lekin ular orasida Nizomil-millat vaddin Alisher Navoiyning siymosi alohida bo‘y cho‘zib qomat kerib turadi. U har jihatdan turkiy xalqlarning o‘z kishisidir:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdir.

Muayyan turk ulusi xud meningdir.

Yana bir o‘rinda:

Turkiy nazmda chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Alisher Navoiy tilimizning barcha shevalaridan unumli foydalandi, ularni bir o‘zanga burdi, sayqalladi, haddi a’losiga yetkazdi. O‘zi karomat qilganday; to turk ulusi bor ekan, she’rimning narxi tushmagay, avj pardadan ham pastga enmagay. Shoir asarlarida ko‘p o‘rinda ishlatgan “to‘g‘rilik” ma’nosidagi “tuzlik” so‘zi hozirda faqat qirg‘iz tilida saqlanib qolgan. Alisher Navoiyning insonparvar g‘oyalarga yo‘g‘rilgan satrlari doimo qirg‘iz kitobxonlariga manzur bo‘lishiga shubha yo‘q. O‘shlik Izzat Sulton Navoiy ijodxonasiga chuqur kirib borgan, navoiyshunoslik fanining asoschilaridan biri, Navoiyning hayoti va ijodi haqida butun bir asarlar seriyasini yaratgan adib ham qirg‘izistonlik.

Alisher Navoiy asarlarini qirg‘iz tiliga qilingan tarjimalariga ham qariyib 70 yil bo‘libdi. Adabiyotshunos olim, tarjimashunos Zuhriddin Isomiddinov “Sen ham daryo, men ham daryo” maqolasida: “O‘zbek-qirg‘iz va qirg‘iz o‘zbek tarjimachiligiga ham o‘sha yillar asos solingan.”(ya’ni 1940 yillarning oxiri 1950 yillar). Smar Shimeyev

“Farxad menen Shirin”(1960) dostonini, Ali Tokamboyev, Aliqul Osmonov, Uzakbay Abdikaymov, Temirkul Umetaliyev, Smar Shimeyev, Kubanich Akayev, Nasirdin Baytemirov tarjimonlar kengashi “Layli menen Majnun”(1946-1950) dostonini qirg‘iz tiliga mahorat bilan tarjima qildilar. “Layli menen Majnun” 1948 yil Frunze shahrida, “Farxad menen Shirin” 1962 yil Frunze shahrida bosib chiqilgan. Qaysi xalqning asari bo‘lmasin agar tarjimon mahorat bilan o‘z tiliga tarjima qilaolsa o‘sha tildagi asarga aylanadi.

Hozir hamma o‘z xolicha tarjima qilayapti, so‘zning ma’nosiga, tovlanishlariga e’tibor berilmayapti. So‘zga ehtiyotkor, so‘zdan qo‘rqadigan ijodkor tarjimaga qo‘l urishi kerak. To‘g‘ri, ayni zamonda hamyurtimiz, filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim, zamonamizning yetuk tarjimashunosi Zuhriddin Isomiddinov tarjimachilikdagi ijodiy faoliyat, yutuq va kamchiliklar ustida doimiy ish olib borib, tahlil va tavsiyalarini tarjimonlarga berib bormoqda.

Tarjimashunoslik, o‘zbek – qirg‘iz adabiyotidagi tarjimalar bo‘yicha biror bir uyushma tuzish kerakmi, tarjima asarlarni ko‘rib chiqadigan, qanday tarjima qilish, tarjimada nimalarga e’tibor berish kerak degan masalalarni ko‘taradigan yoki biror kengash tuzib ko‘rish kerakmi, deb o‘ylayman. Chunki bir asarda xato ketgan birgina so‘z asarni ma’nosini buzishi mumkin va asarda o‘sha so‘z abadiy xato bo‘lib qoladi. O‘zbek va qirg‘iz tillarini yaxshi biladigan mutaxassislarni jalb etish kerak. Kelajakda balki qardosh xalqlar tillariga yaxshi tarjimalar ko‘payar degan umiddamiz.

Italyan maqoliday “Tarjimon — xoin” bo‘lamizmi, Adabiyotshunos olimimiz Zuhriddin Isomiddinov aytganiday: “Mutarjim — muallifniig do‘sti. Xoin emas — do‘st!” bo‘lamizmi buni vaqt va qirg‘iz o‘quvchi ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy asarlari chuqur falsafiy, badiiy go‘zal, tuzilishi mukammal, g‘oyat nafis va o‘zbek xalqining bor boy xususiyati va tilini ko‘rsata olgan asarlar. Bunda tarjimon ikki xalq tilini bilishdan tashqari Navoiy tilini ham bilishi kerak va tarjimashunoslikni ham o‘rganishi kerak deb shu tarjima jarayonida izlangan, ayrim tahlil va talqinlarim. Hozirgi nashrlarning ahamiyati shundaki, dastlab g‘azal matni, so‘ng lug‘at va nasriy bayon keltirilib, undan keyin sharh va izohlarga o‘tiladi. Shu tariqa, qirg‘iz kitobxoni Navoiy g‘azallarini asliyatda o‘qish barobarida, uning sir-sinoatidan ham xabardor bo‘ladi.

Hamma zamonning, hamma xududning o‘z iste’dodlari, aristokratlari, daholariyu ulamolari bo‘ladi. O‘tgan asrning o‘rtalarida sobiq ittifoq hududida ilm fan, san’at, adabiyot o‘sdi, gulladi. 2022 yili Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida yangi ta’sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti turkiy olamning

eng ulug‘ adibi Chingiz Aytmatovga berilishida ham chuqur ramziy ma’no bor.

Chingiz Aytmatov “Pravda”ning muxbiri sifatida O‘zbekistonning juda ko‘p qurilishlari, Buxoro, Samarqand kabi qadimiy shaharlarida, Mirzacho‘lda bo‘lgan, “Paxtaning oydin yo‘li”, “Toshkent sadosi”, “Buxoro – Ural trassasi”, “Kalxoz qishlog‘i to‘g‘risida o‘ylar”, “Qudratli to‘lqin” singari ocherk, publisistik maqolalar, lavhalar yozgan. Ayni shu vaqtda Odil Yoqubov “Literaturnaya gazeta”ning muxbiri edi. Chingiz Aytmatov bilan Odil Yoqubov o‘rtasidagi do‘stlik, qadrdonlikning boshlanishi shu davrga to‘g‘ri keladi. Bu ikki qardosh xalqning ikki azamat yozuvchisi yosh jihatidan ham tengdosh edi. “Ulug‘bek xazinasi” romani bilan tanishgan Aytmatov maslakdosh do‘sti Yoqubovga maxsus tabrik telegrammasi yo‘llaydi. Ular orasidagi qadrdonlik uzoq davom etdi. Keyinroq Aytmatov O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatlari assosiatsiyasining raisi, Yoqubov uning o‘rinbosari bo‘lib faoliyat yuritishgan. “Paxtaning oydin yo‘li” maqolasida shunday iliq satrlar borki, biz ularni takrorlamay turolmaymiz: “Qadimiy o‘zbek madaniyati o‘zining ajoyib yutuqlari bilan azaldan ham mashxur. O‘zbeklar O‘rta Osiyoda tengi yo‘q irrigator, dehqon sifatida tanilgan. O‘zbek me’morlari fusunkor Samarqand, Buxoroni bunyod etdilar. O‘zbek xalqi orasidan O‘rta asrning mashxur astronom olimi Ulug‘bek, shoir Alisher Navoiy yetishib chiqdi... Vizantiya madaniyati rivojida rimliklar qanday rol o‘ynagan bo‘lsalar, o‘zbeklar ham O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga ana shunday ta’sir o‘tkazdilar”.

Mirtemir Qirg‘izistonda ijodiy safarlarda ko‘p marotaba bo‘lgan. Qirg‘iziston mavzusida turkum she’rlar yaratgan. Chingiz Aytmatov u kishini katta shoir va “Manas” eposining tarjimoni sifatida e’zozlar edi: “Cho‘ng shoir Mirtemir shunday ish qildiki, biz endi qarzdor bo‘lib qoldik...”

O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir “Manas” qirg‘iz xalq eposini o‘zbek tiliga 1964 yilda tarjima qilgan va haqiqiy o‘zbekcha yangrata olgan:

Oqqula minib qaqqaygan,

Bug‘doy yuzlik keldi.

Tumandan yo‘l topguvchi

Olov ko‘zlik keldi.

Og‘asining ketidan

Yo‘lga chiqqan ekanda.

Men sho‘rlikning dardimda

Cho‘lga chiqqan ekanda.

Qaysi xalqning asari bo‘lmasin agar tarjimon mahorat bilan o‘z tiliga tarjima qilaolsa o‘sha tildagi asarga aylanadi.

Keyinroq Chingiz Aytmatov o‘zbek shoiri haqida shunday iliq so‘zlarni yozadi:

“Mirtemirni O‘zbekistonda qanday sevsalar, hurmat qilsalar, qadrlasalar, bizda, Qirg‘izistonda ham she’riyat muxlislari va umuman “Manas”ni milliy-tarixiy boyligimiz sifatida, aqliy epik ijodning cho‘qqisi sifatida sevib, e’zozlab qadrlaydigan har bir kishi, “Manas” haqida qayg‘urib, uni respublikamizga qo‘shni boshqa viloyatlardagi odamlar ham iloji boricha ko‘proq o‘qishini o‘ylagan har bir kishi, – u kim bo‘lishidan qat’iy nazar, – Mirtemirni yodga olmasligi mumkin emas. Binobarin, biz zo‘r e’tibor bilan o‘rganayotgan, o‘rganishimiz lozim bo‘lgan juda qadimiy va boy an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi adabiyotini, madaniyatini ehtirom bilan yodga olmasligi mumkin emas va men o‘ylaymanki, biz ham o‘z navbatida, o‘zbek adabiyoti hamda madaniyati boyliklarini o‘z ijodiy sistemamizga qo‘shish uchun harakat qilishimiz kerak, albatta shunday qilamiz”.

Chingiz Aytmatov bilan Turob To‘la o‘rtasidagi birodarlik munosabati va ijodiy hamkorlik ham e’tiborga molik. 60-yillarning o‘rtalarida Turob To‘la O‘zbekiston, Chingiz Aytmatov esa Qirg‘iziston kinematografchilar uyushmasining boshlig‘i bo‘lgan. O‘sha yillari ular orasida qadrdonlik va hamkorlik qizg‘in tus oladi. Chunonchi, Turob To‘la Chingiz Aytmatovning “Somon yo‘li” qissasini inssenirovka qiladi, aniqrog‘i, mazkur asar asosida muzikali drama yaratadi va uni “Momo Yer” deb ataydi. Bu asar Muqimiy teatrida saxna yuzini ko‘radi.

Chingiz Aytmatovning shuxrat pog‘onasiga olib chiqqan “Jamila” qissasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1961-yildagi 2-sonida Asil Rashidov tarjimasida chop etilgan edi. Shundan boshlab bu buyuk iste’dodning yangi-yangi qissalari peshma-pesh o‘zbek tiliga o‘girilib turdi. Ularning tarjimasida turli avlodga mansub yozuvchi-tarjimonlar ishtirok etdilar. Xamid G‘ulom, Asil Rashidov, Zaynab, Ibrohim G‘afurov, Abdurayim Otametov shular jumlasidandir. Shunday qilib, o‘zbek adabiyotida Chingiz Aytmatovning Asil Rashidov, Ibrohim G‘afurov kabi xos tarjimonlari ham paydo bo‘ldi. Chingiz Aytmatovning barcha asarlari “Oq yomg‘ir”, “Raqiblar”, “Qizil olma” hikoyalarida, “Qoyada qolgan ovchining ko‘z yoshlari” kabi qissa va romanlari o‘zbek tiliga zo‘r mahorat bilan tarjima qilingan.

Chingiz Aytmatovning o‘zbek adabiyotini boyitgan qissalari: “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Baytamtol sohillarida”, “Birinchi o‘qituvchi”, “Bo‘tako‘z”, “Sarvqomat dilbarim”, “Samon yo‘li”, “Alvido, Gulsari”, “Oq kema”, “Sohil yoqalab chopayotgan Olapar”, “Erta kelgan turnalar”,

“O‘g‘il bilan uchrashuv” (O‘g‘limni ko‘rib kelay). Chingiz Aytmatov romanlari – “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi” kabilarni yozdi. Shular jumlasidan “Asrga tatigulik kun”,, “Qiyomat” romanlarini Ibrohim G‘afurov tilimizga o‘girgan bo‘lsa, “Kassandra tamg‘asi”dan bir bobni tarjima qilib, “Iks zurriyot” nomi bilan kitob holida chop ettirdi.

“Jamila” povestining fransuzcha nusxasi muallifi Lui Aragon so‘zi: “Viyon, Gyugo, Bodlerlar Parijida, har bir toshi biror tarix yoki afsonadan shaxodat beradigan ko‘p asrlik rassomlar Parijida, hamma narsani qayta-qayta o‘qigan, hamma narsani boshidan kechirgan shu Parijda “Jamila”ni o‘qidim-u, nogahon “Verter” ham, “Bereniki” ham, “Antoniy va Kleopatra” ham, “Sevgi tarbiyasi” ham, “Dominiki” – hamma-hammasi ko‘zimga ilinmay qoldi. Romeo va Julyetta ham, Paolo va Franchesko ham, Ernani va Doni Sol ham ko‘zimga ilinmay qoldi... Chunki men jahonda eng go‘zal sevgi qissasi– “Jamila”ni o‘qidim”.

Chingiz Aytmatov o‘zbek yozuvchilariga barakali adabiy ta’ssir ko‘rsatganki, bu holni asosan 60-yillarda adabiyot maydoniga kirib kelgan yozuvchilar avlodi ijodidan boshlab kuzatish mumkin. Xususan, Shukur Xolmirzayev ijodida Chingiz Aytmatovning ta’siri baralla seziladi. Bu ta’sirni, avvalo, Shukur Xolmirzayevning dastlabki yirik asarlaridan “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasiga tanlab olgan mavzuda ko‘ramiz. O‘zbek adabiyoti tajribasida o‘sha paytgacha o‘spirinlar turmushiga oid hech bir ko‘rilmagan mavzu – bu. O‘sha davr ijtimoiy-siyosiy ruhini hisobga olib qaraganda, asarga bir oz qaltisroq epigraf qo‘yilgan:

Men yashash istayman, istayman g‘amni,

Muhabbat va baxtga achchiqma-achchiq.

M.Yu.Lermontov.

Tilov bilan Jamshid onasi bir, otalari boshqa-boshqa aka-ukalar. Aka-uka dedik-ku, ammo oralaridagi yoshda ham uncha farq yo‘q. Ular o‘rta maktabni bitirishtilar. O‘rtada sinfdoshlari Muyassar bor. Muyassarning ko‘ngli Jamshidda. Illo, Jamshid yoshroq bo‘lgani uchunmi, sevgisi aniq-tiniq bo‘lsa ham, sust va faoliyatsizroq. Oqibatda, yoshda ham, harakatda ham dadilroq bo‘lgan Tilov Muyassarni ilib ketadi, unga uylanadi. Lekin muqarrar ular qurgan oila oila bo‘lmaydi.

Nafaqat hayotiy voqea tanlashda, balki asarning badiiy darajasida ham Chingiz Aytmatov uslubining ta’siri ko‘rinib turadi. Bu, ayniqsa, tasvirning ko‘z ilg‘amas quyuqligi, analiz-sintezning naqadar teranligida ko‘rinadi. Xarakter yaratishda psixologik tahlilga tayanish, uni asosiy vosita qilish ham Chingiz Aytmatov uslubiga xos bo‘lgan.

Nurali Qobil, o‘zbek adibining qissalaridagi tabiat tasviri, hayvonlar timsoli beixtiyor Chingiz Aytmatov qissalarini eslatadi. Qahramonlari ham atoqli adibning Dushan, Ilyos, Masalbek, Tanaboylariga o‘xshab keskin xarakterli kishilardir. Nurali Qobilning “Tubsiz osmon” qissasi da’voyimga to‘la-to‘kis isbot bo‘la oladi.

Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom”, “Otamdan qolgan dalalar” asarlaridan ham Chingiz Aytmatovning nafasi seziladi. Ularda atoqli qirg‘iz adibiga, shuningdek, amerikalik ovchi, biolog, rassom va yozuvchi Seton-Tompsonga taqlid darajasidagi o‘rinlar ham yo‘q emas. Adabiy ta’sir taqlid yoki ko‘r-ko‘rona ergashish emas, balki adabiy-ijodiy ta’lim deganidir.

Men Murod Muhammad Do‘stni o‘zbek Chingiz Aytmatov degim keladi. Albatta, bunday deyishga menda asosolar bor: Murod Muhammad Do‘stning olam-odamlarga qarashi, milliy urf-odatlarga munosabatida, qaxramonlari ruhiyatida atoqli adib asarlariga yaqinlikni ko‘raman. Bundan tashqari, Murod Muhammad Do‘st ham ikki tilda yoza biladi. Bu ikki yozuvchining xatto kino-san’atiga munosabatida ham o‘xshashlik bor.

Janubiy Qirg‘izistonda asosan o‘zbek millatiga dohil xalq istiqomat qilgani bois o‘zbek adabiyoti Qirg‘izistonda ham o‘z yo‘nalishi bilan rivojlandi. O‘tgan asirda gurkirab chiqqan ijodkorlar Mirzohid Mirzarahimov, Tursunboy Adashboyev, Qo‘ldosh Mirzo, Usmon Temur, Abdug‘ani Abdug‘ofurov, G‘anijon Xolmatovlarga keng imkoniyatlar, yaxshi ustozlar, adabiy muhit sababmi O‘rta Osiyoga tanildilar, o‘z iste’dodlarini namoyon eta olishdi, tarjimashunoslikda ham bir necha o‘nlab kitoblar chop etishdi. Tarjimashunoslikda yurtdoshimiz Tursunboy Adashboyev ayniqsa samarali mehnat qilgan. Tursunboy Adashboyev katta tarjimon ham edi. Qirg‘iz va rus tillaridan tarjimalar qilgan. Nasriy tarjimalardan “Manas” eposini nasriy bayonini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Hozirda yana bir qirg‘izistonlik shoir Qurbon Sattor O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi raisi Xurshida Vahobjon qizining yuzga yaqin she’rlarini qirg‘iz tiliga tarjima qildi. Seyit Kenjamatovning ko‘plab hikoyalarini qirg‘iz tilidan o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan, masalan “Dahshatli tush” hikoyasini o‘qisangiz, huddi o‘zbek tilida yozilganday, “o‘dag‘ayladi”, “qurib ketsin” kabi so‘zlar bilan o‘zbek tilida so‘zlaydi. Umuman tarjimoning hamma tarjimalari tarjimaga o‘xshamaydi. 2015 - yilda qirg‘iz shoiri Aliqul O‘smonov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan 70 ga yaqin she’ri va poemalari Qurbon Sattor tamonidan tarjima qilinib “Ko‘l to‘lqini” nomi bilan chop etilgan, to‘plamga “Vatan”, “O‘ttiz yosh”, “Issiqko‘l”kabi she’riy asarlari kirgan. Kitobga Qirg‘iziston prezidenti huzuridagi Davlat tili bo‘yicha komissiya homiylik qilgan. Bu g‘oya aslida ancha yillar avvaldan bolalar yozuvchisi, rahmatli Tursinboy Adashboyev tamonidan boshlangan. Qurbon Sattor Tursinboy Adashboyevning shogirdi va izdoshi, Tursinboy

Adashboyevning tashabbusi bilan tarjimaga astoydil kirishgan edi. Qurbon Sattor nasriy asarni ham, she’riy asarni ham, o‘zbek tilidan qirg‘iz tiliga, qirg‘iz tilidan o‘zbek tiliga birdek tarjima qiladi.

Umuman olib qaraganda ikki qardosh xalqning adabiy badiiy adabiyotdagi ijodi ajralmasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alpomish-2. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1993.
2. Manas. Semetey. Seytek (4 tomduk). Bishkek; “Uluu toolor”, 2021.
3. Pamyatniki drevno-tyurkskogo pismennosti, Moskva-Leningrad, 1951.
4. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy-biografik roman. Toshkent, 1986.
5. Aristotel. Poetika(Poeziya san’ati haqida). –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980.
6. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan(X-XV asrlar). – Toshkent: Fan, 1970.
7. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar. O‘quv lug‘ati, - Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
8. Bartold V.V. Qisqacha islom madaniyati tarixi. – Toshkent: Uznashr, 1927.

QO‘QON XONLIGI DAVRI ANTROPONIMIYASIDA ISMLARNING UYQASHLIK XUSUSIYATI

Xalilova Nilufarxon Bahromovna,
Qo‘qon universiteti
filologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davri manbalaridagi antroponimlar, xususan, uyqash ismlar tahlilga tortiladi. Bu davrga xos uyqash ismlar tavsiflanadi va tasniflanadi, Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalardagi misollar bilan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, manbalar, lingvomadaniyat, antroponimiya, ismlar, uyqash ismlar, antroponimik seriya, indikator.

Abstract: This article analyzes anthroponyms, in particular, uiqash names, from the sources of the Kokand Khanate. The uiqash names typical of this period are described and classified, based on examples from sources on the history of the Kokand Khanate.

Keywords: Kokand Khanate, sources, linguoculture, anthroponymy, names, rhyming names, anthroponymic series, indicator.

Qo‘qon xonligiga xos tarixiy manbalar antroponimiyasida o‘zbek lingvomadaniyatiga xos uyqash ismlar guruhi kuzatiladi. Kishilarga nom berishda uyqash ismlar tanlash udumi barcha turkiy tillarda uchraydi. O‘zbek xalqida bola tug‘ilgach, unga munosib ism tanlash uchun uning bobo-buvisi, ota-onasi, o‘g‘il bo‘lsa, akasi, qiz bo‘lsa, opasining ismlari e’tiborga olinadi, ya’ni yangi mehmonga oila a’zolarining ismiga hamohang, mos ism qo‘yiladi. E.Begmatov bunday ismlarga nisbatan “uyqash ismlar” terminini qo‘llaydi. Ismlarning uyqashligi deganda qo‘shimchalari (old qo‘shimcha va suffikslari) yoki qandaydir segmentlari mos keluvchi yoki oddiy qilib aytganda, bir-biriga ohangdosh, qofiyadosh ma’lum ismlar guruhi tushuniladi. Z.G.Uraksin, Sh.M.Sa’diyevning tadqiqotlarida ismlarning uyqashligi masalasiga doir o‘rinlar bor. [1, 188]

O‘zbek tili onomastikasida uyqash ismlarni birinchi bor maxsus o‘rgangan L.I.Royzenzon va A.I.Isayevlar o‘z tadqiqotlarida uyqash ismlar qatorini “antroponimik seriya” deb atashgan. Bunday ismlar, odatda, bir oila farzandlari: aka-ukalar, opa-singillarga qo‘yiladi. Shuningdek, bobo, ota, amaki va tog‘alarning ismini asos qilib o‘g‘illarga, onaning, xola, buvi yoki ammaning ismini asos qilib qizlarga qo‘yiladi. Shuningdek, akaniki ukalarga, opaniki singillarga uyqashlik uchun tayanch ism vazifasini bajaradi. Natijada *G‘anisher – Alisher yoki Aziz – Laziz, Bekzod – Sherzod – Shahzod* kabi ohangdosh ismlarning bir oila vakillariga yoki yaqin qarindoshlarga qo‘yilganligi kuzatiladi. Opa-singil, qarindosh qizlarning ismlari sirasida *Shahnoza – Gulnoza – Dilnoza; Gulsanam – Shohsanam – Oysanam* kabi uyqash ismlar guruhi uchraydi.

Qo‘qon xonligiga xos manbalarda ham uyqash ismlar guruhi uchraydi. Masalan, xonlik asoschisi bo‘lmish Shohruxbiyning o‘g‘illari, ya’ni *Abdurahimbiy*, *Abdulkarimbiy* ismlarining uyqashligini *abdu va biy,* Xudoyorxonning qizlari *Ozodaxon, Mohzodaxon, Shahzodaxon* ismlarining uyqashligi *-zoda* antroponimik indikatori vositasida yuzaga kelgan. *Oyjonoyim* – Qo‘qon xoni Abdurahimbiy va Oychuchuk oyimning qizi. *Homilaning vaqti-soati yetib, Rahimxon vafotidan so‘ng go‘zal yuzli bir qiz yo‘qlik qo‘ynidan borliq maydoniga keldi. Unga Oyjon oyim deb ism qo‘ydilar.* (Muntaxab., 232) Oyjon (o‘z.-ft.) – oydek suluv va jondek aziz, qadrli qiz degani bo‘lib, uning ismi onasining ismi – Oychuchukoyimga uyqash qilib qo‘yilganligi yorqin kuzatiladi. Oy komponentining har ikkala ismda takrorlanishi ismlarning uyqashligini ta’minlagan: *Anda xonni uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekni tog‘asi* ***To‘rajonto‘ra ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra*** *hokim bo‘lub, biror ming lashkari Farg‘ona ila mazkur qayin og‘asi turur edi*. (Ibr.xavoqin, 334) *Muhammadsobir miroxur// Sobir miroxur* – Murodxon davrida (1844) yashagan amaldor. *Bu mavzeda mufsidlarning ig‘vo va tuhmatlari bilan Muhammadniyoz hudaychining ukasi, Muhammadsobir miroxurni va boshqa gunohsiz odamlarni qatl qildilar*. (Ibr.xavoqin, 176) Mazkur

satrlardan ma’lum bo‘lishicha, miroxurning ismi – Muhammadsobir uning akasi Muhammadniyoz ismiga monand qo‘yilgan. Bu davrda ham eng tipik va mahsuldor holat aka yoki opaning ismiga o‘xshatib ukalarga, singillarga ism qo‘yishdir. Masalan, aka ismi bilan ukalar ismining uyqashligi: *Yunusxo‘ja, Yusufxo‘ja* – Xonxo‘ja (Xonxoja ibn Yusuf Alixo‘ja) – Namangan va To‘raqo‘rg‘onda sakkiz yil, Xo‘jandda uch yil hokimlik qilgan, Erdonaxonning jiyani (singlisining o‘g‘li), Qo‘qon xoni Olimxonning amiri lashkarining o‘g‘illarining ismi*: Xonxo‘janing o‘g‘illari Yusufalixo‘ja va Yunusalixo‘jalarga tegishli eski sipohdan sakkiz ming kishini lashkarning o‘ng qanotiga, ….* (Ibr.xavoqin, 381)

Qo‘qon xonligi antronimiyasiga xos ismlar uyqashligi zamonaviy holatdan ancha farqlanadi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi:

Ismlar uyqashligi ismlar tarkibida faol qo‘llangan ijtimoiy tabaqa va guruhga mansublikni ifodalovchi so‘zlar, terminlar asosida ham yuzaga kelgan:

1. Xo‘ja tarkibli uyqash ismlar: **Yunusxo‘ja**, Yunusxo‘janing o‘g‘illari bo‘lgan Sultonxo‘ja, Homidxo‘ja – *Undan ikki o‘g‘il: **Sultonxo‘ja** va **Homidxo‘ja** qolgan. Sultonxo‘jasi otasi o‘rniga hukumat baxtiga yetdi*. (Ibr.xavoqin, 387) Xonxo‘ja va uning o‘g‘illari – ***Xonxo‘ja**dan bir xishtin madrasa Xo‘qandda yodgor qolgan. U hozir ham bor. Unda ilm toliblari ilm olish bilan mashg‘ul. Xotini uning hayotligida vafot etgan edi. Uchta humoyun yuzli o‘g‘il qoldi. Podshohxo‘ja nomi bilan mashhur **Yusufalixo‘ja**, **Umaralixo‘ja** va **Yunusalixo‘ja**.* (Ibr.xavoqin, 383-384) ***Sulaymonxoja shayxulislom ibn eshon Zokirxo‘ja shayxulislom*** kabi.

2. Said tarkibli uyqash ismlar: *Farg‘ona mamlakatida qo‘zg‘algan bir necha kunlik fitna va buzg‘unchilik hamda **podshoh said amir Olim Muhammad Bahodirxon**ning yog‘iy bo‘lgan amirlar isyoni…* (Muntaxab., 303) **To‘rajonto‘ra ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra** – Xudoyorxonning uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekning tog‘asi, *Shahzoda **Akbaralibek** va shahzoda **Sayyid Mavlonbek** shahzoda **Sayyid Sulton Murodbek**ning o‘g‘illari edilar.* (T.jahonnamoyi, 424) ***Amir Sayyid Shermuhammad Ali Bahodirxon** va uning saltanat taxtiga chiqib o‘tirgani hamda shahar qal’asini qurdirgani zikri*. (T.jahonnamoyi, 20) *Amiri kabir **sayyid Malla Bahodirxon** O‘ratepa fathidan so‘ng yo‘nalish jilovini Xo‘jand sari tortib, muzaffar va mansur kelib tushgan edi.* (T.jahonnamoyi, 258) ***Sayyid Muhammad** Xudoyorxon ibn Sheralixon, **sayyid Muhammad** Nasriddinxon Xudoyorxon o‘g‘li.*

3. To‘ra tarkibli uyqash ismlar: **Buzurgxon to‘ra** ibn **Jahongirxon to‘ra** ibn **Solihxon to‘ra** ibn Sayyid Offoqxo‘ja o‘g‘li (1824-1877) – *Julusning to‘qqizinchi yili **Buzurgxon to‘ra ibn Jahongirxon** bir necha ming xo‘qandlik va qoshg‘arlik bilan Xo‘qanddan qochib Koshg‘arga kirib bordi*. (Ibr.xavoqin, 125) *Yana buki, bizlarg‘a tariqi mehmonliq birla*

kelgandur, deb xazinadan ko‘p aqchalarni yuklab, yosh bolalarini ahli ayollarini olib, oldidagi mu’tamad odamlari, ya’ni Otabek noib, Mullo Ma’ruf dodxoh, Koson hokimi xonni jiyani ***Sayyid Akramxon to‘ra ibn Sobirxon to‘ra****, Bachcha bahodir ponsad, Usmon Alibek ponsad ibn Niyozali qo‘shbegi va g‘ayrahum, mahramu yasovul, peshxizmatlari qariyb biror ming odam ila Xo‘qanddan chiqub, qal’ai Mahram ravona bo‘ldilar”*. (Ibr.xavoqin, 334) *Anda xonni uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekni tog‘asi* ***To‘rajonto‘ra ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra*** *hokim bo‘lub, biror ming lashkari Farg‘ona ila mazkur qayin og‘asi turur edi*. (Ibr.xavoqin, 334) *Buxoro amirzodasi amir Shohmurod o‘g‘li, amir Haydarning ukasi Is’hoqbek degan,* ***Sultonxon to‘ra Ahroriy*** *va* ***Mahmudxon to‘ra Ahroriy****,* ***Ma’sumxonto‘ra Maxdumi A’zamiy*** *– amir al-musliminning singlisi Oftobning eri, Xo‘ja kalon Maxzumi A’zamiy,* ***Eshonxon to‘raxon to‘ra****,* ***Jahongirxon to‘ra Sayyidofoqiy****. Taxtga o‘tirishining o‘n birinchi yili o‘z birodari Olimxon qizini Mahmudxon to‘ra Ahroriyning o‘g‘li* ***Sayyidxon to‘ra****ga nikohlab berishdi*. (Ibr.xavoqin, 118) *Bular barchalari amir al-musliminning hammajlisi edilar*. (Ibr.xavoqin, 119) *... oxirida Kenasarixon ilan oning birodarlari* ***Navro‘zboyto‘ra*** *va* ***Erjonto‘ra*** *va bulardin boshqa ko‘p qozoqiyalarning kattalari qirg‘izlarga asirga tushub o‘lgan…* . (T.Turkiston, 135)

Oliy tabaqaga mansublikni ifodalovchi mansab, unvon nomlari asosida yuzaga kelgan:

4. *Oyim* indikatorli uyqash ismlar: *Mohlaroyim, Oychuchukoyim* (Qo‘qon xoni Sheralixonning qizlari, arxiv manbalarda *Norchuchukoyim, Oftoboyim* ismli qizlari ham borligi aytilgan). [2, 170] *Sheralixon qirg‘iziya ulug‘larining qizlaridan ikki nafarini o‘z nikohiga olib, qirq besh yil shu mavzeda (Talosda) yashadi. Uning birinchi xotinidan Mallabek, So‘fibek va* ***Mohlaroyim*** *olamga kelib, ikkinchi mankuhasidan Abdurahmonbekkim, o‘zbeklar uni Sarimsoqbek deb ataganlar, Xudoyorbek hamda Sulton Murodbek bilan* ***Oychuchukoyim*** *deganlar borliq maydoniga qadam qo‘ygan edilar*. (Ibr.xavoqin, 457, Anjum., 302)

So‘naoyim, Hokimoyim/Jarqinoyim, ya’ni **Yorqinoyim** (Sheralixonning xotinlari), **Oftob // Oytoboyim, Oychuchukoyim** – Narboturning qizlari, Qo‘qon xonlari Olimxon va Umarxonlarning singillari. *Oltinchi yili* ***Oftoboyim****, Muhammadalixonning ammasi ham bu olamni tark etdi*. (Ibr.xavoqin, 124) *Qo‘y yili, taxtga chiqishning ikkinchi yili Umarxonning singlisi va Muhammadalixonning ammasi Oychuchukoyimning o‘g‘li* ***Is’hoq to‘ra****ni To‘raqo‘rg‘onga voliy va hokim etdilar*. (Ibr.xavoqin, 124) **Ag‘ochaoyim // Og‘achaoyim, Bibishoyim, Mingoyim, Fotimaoyim, Zebunnisooyim, Kenagas oyim (Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliq), Mohlaroyim,** ya’ni **Nodira –** (Mohlaroyim bint Rahmonquli ibn Rajabbek ibn Fozilbiy otaliq ibn Hoji Sulton, 1792-1842), **Sharafnisooyim** – Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini. Ularning

qizlarining ismlari onasining ismiga uyqash qilib qo‘yilganligi ma’lum: *Undan bir o‘g‘il Erdonabek va uchta qiz* ***Oyjonoyim***, ***Xurshidoyim*** *va* ***Zebunisooyim*** *qoldi*. (Anjum., 103), **Shamsunnisooyim** – Qo‘qon xoni Shohruxbiy ibn Ashurmuhammadxonning uchinchi o‘g‘li Shodibekning xotini. Sulaymonxonning onasi. *Bir xotini bo‘lgan, o‘g‘lining onasi* ***Shamsunnisooyim***. (Anjum., 117) **Kenagas oyim (Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliq)** – Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini, shahrisabzlik Ibrohim kenagasning qizi. ***Kenagas oyim****:“Ey farzand, otang va onang o‘limining sababchilari kimligini bilasanmi?” – deb so‘radi ming alam va dard ichida*. (Muntaxab., 240) Unga bag‘ishlab yozilgan badiiy asar ham bor. [3, 544]

5**.** *Biy indikatorli uyqash laqablar*. Xondan oldin *-biy* qo‘shilgan hukmdorlar ismiga, 1805-yil, Olimxon o‘zini xon deb e’lon qilib, boshlab bergan *-xon* (indikatorini) qo‘shishni: *Shaxmastbiy* (“Chamashbiy” shaklida talaffuz qilinadi) [4, 39], *Shohruxbiy, Rustambiy, Hojibiy, Ashurbiy, Shohruxbiy* (1709-yilda Qo‘qon xonligiga asos solgan Shohruxbiy ibn Ashurmuhammadbiy): *Chamashbiy bo‘y yetib uylangach, undan tug‘ilgan o‘g‘ilga “Shohruxbiy” deb ot qo‘ydilar. Shohruxbiydan “Rustambiy” ismli o‘g‘il dunyoga keldi. Rustambiydan “Hojibiy” otlig‘ o‘g‘il vujud olamida jamol ko‘rsatdi. Hojibiyning o‘g‘il zurriyoti “Ashurbiy” deb nom oldi. Ashurbiy belidan esa “Shohruxbiy” dunyoga keldi*. Shuningdek, *Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Shodibiy*: *Va Shohrux otaliq uch nafar aziz farzandning otasi edi: Rahimxon, Abdulkarimbiy va Shodibiy*. (Muntaxab., 228) *Erdonabiy, Norbo‘tabiy*. Norbo‘tabiyning kanizlardan bo‘lgan o‘g‘illari: *Rustambiy, Fozilbiy, Yodgorbiy: To‘rtinchisi Rustambiy, beshinchisi Fozilbiy, oltinchisi Yodgorbiy. Bu uchala amirzodaning onasi kanizlardan sanaladi*. [5, 270]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ураксин З.Г. Основные критерии выбора имен у башкир // Личные имена в прошлом, настоящем, будущем М., 1970. – С. 183; Саъдиев Ш. М. Основные правила выбора имен для новорождённых // Личные имена в прошлом, настоящем, будущем. С. 188.

2. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1885. – С. 146; Набиев Р. Из истории Кокандского ханства(Феодальное хозяйство Худаярхана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 86; Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 70.

3. Равшанов П. Малика Кенагас ойим Ойчучук ёҳуд Шаҳрисабз ва Қўқон шоҳона насаб қиссаси /Поён Равшанов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 544 б.

4. Ибратул хавоқин/Ниёз Муҳаммад Хўқандий; (Таърихи Шаҳрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи/ Шоҳрухбек Умаров. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 39.

5. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 270.

BORLIQNI ANGLASHNING FALSAFIY- BADIIY TALQINI (MUKARRAMA MURODOVA IJODI MISOLIDA)

Dilshunosxon Inomova,
Qo‘qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mukarrama Murodova she’rlarida tabiat va inson o‘rtasidagi dialektik munosabatning poetic xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Shoiraning borliq haqidagi falsafiy qarashlaridagi o‘ziga xosliklar qator she’rlari tahlili misolida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: she’r, borliq, borliqni anglash, falsafiy qarashlar, dialektika, g‘oya, timsol, ramz.

Annotation: This article focuses on the poetic features of the dialectical relationship between nature and humans in the poems of Mukarrama Murodova. The uniqueness of the poet’s philosophical views on existence is demonstrated through the analysis of several of her poems.

Keywords: poem, existence, understanding of existence, philosophical views, dialectics, idea, image, symbol.

Adabiyot inson tafakkurining eng oliy mahsuli bo‘lib, u faqat estetik zavq bag‘ishlab qolmay, balki chuqur falsafiy o‘y-mushohadalarga ham yo‘l ochadi. Ayniqsa, she’riyatda ifoda etilgan g‘oya, timsol va ramzlar inson bilan borliq o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada teran anglash imkonini beradi. Shoiraning “Umr” she’ri ham ana shunday badiiy-falsafiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, unda tabiat va inson munosabatining dialektik mohiyati, tabiatning yaratuvchan qudrati hamda insonning undan ibrat olishi lozimligi haqida fikr yuritiladi. Asarda tabiat va insonning bir-birini to‘ldiruvchi, tarbiyalovchi jihatlari yuksak badiiylik bilan tasvirlanadi. Insonlar ko‘pincha turmush tashvishlari, orzu-armonlari va kundalik mashg‘ulotlari bilan band bo‘lib, tabiatning mehribon qo‘llarini, uning yaratgan mo‘jizalarini payqamay qoladilar. Shu bilan birga, tabiat esa inson hayotiga kuch, ruhiyatiga ilhom bag‘ishlovchi, uning quvonch va zavq manbai bo‘luvchi sirli hodisalarni yaratishda davom etadi.

Sen bugun ukpar qor shavqi-la mastsan,
Jilvagar bahorni tusamas ko‘ngil,
“Olamda kamalak bor-a”, demassan,
Kayfing chog‘, xayoling qor kabi yengil.
Hamma qish zavqi-la mashg‘ul tuyular,

Ko‘nglingga borliq bir rangda quyular.

Shoira she’rining dastlabki bandida insonlarning qish faslidan, uning oq zarralarga burkangan manzarasidan zavqlanishini tasvirlaydi. Odamlar bu oppoq olamga mahliyo bo‘lib, go‘yo dunyo faqat qor bilan qoplangandek tuyuladi. Ammo ular ko‘z o‘ngida kechayotgan bu go‘zallik — tabiatning yuksak san’ati va cheksiz mehnati mahsuli ekanini sezmaydilar. Shoira tabiatning bu qudratini qishda oppoq libos kiygan zaminning bahorda xonatlas ranglarga burkanishi, sovuq kunlarda marmar toshday qotib turgan novdalarning bahor kelganda jonlanib, bol tomishi orqali ifodalaydi. U tabiatning yaratuvchanlik kuchini ulug‘lar ekan, shu jarayonda jamiyatdagi insonlarga xos bo‘lgan “ranjish” tuyg‘usini ham nozik tarzda ifoda etadi. Bu ranjish ochiq aytilmasa-da, tabiat fazilatlarini sanash jarayonida o‘quvchi uchun asta-sekin ayon bo‘lib boradi.

Dugonam, tabiat mohira va quv
Yumushun bajargay chiqarmay sharpa.
Bizni ham ko‘rkiga shaydo qilar u
Dam o‘tmay yuzidan ko‘tarsa parda[40].

Tabiatning go‘zalligi shundaki, uning har bir bo‘lagi o‘ziga yuklatilgan vazifani mukammal bajaradi. U bu ishni shovqin-suronlarsiz, sokinlikda amalga oshiradi va o‘z qudratini faqat natijalar orqali namoyon etadi. Shu jihati bilan tabiat insonlarning shuhratparast tabiati, ya’ni natija bo‘lmasidan avval shov-shuv ko‘tarish odatiga zid qo‘yiladi. Tabiat xuddi Spinozaning “Sukut saqlab ish qil – natijasi shovqin bo‘lsin” degan hikmatiga amal qilgandek, tinimsiz mehnat qiladi. Shoira shu fikr orqali inson ham o‘z vazifasini sidqidildan bajarsa, samara uchun harakat qilsa, u ham tabiat singari mo‘jizalar yaratishga qodir ekanini ta’kidlaydi.

Ona tabiatga farzand, dilbandmiz,
Undagi xislatlar yonurmi qonda?
Izlash yaratish yo o‘yinga bandmiz,
Vaqt o‘tgach qolmaylik o‘kinch, armonda[41].

“Tabiat” so‘zi odatda “ona” so‘zi bilan yonma-yon ishlatiladi. Shoira bu o‘xshatish orqali onadagi fazilatlarning farzandga o‘tishi tabiiy hol ekanligini eslatib, tabiatdagi yangilanish, yaratuvchanlik va tinimsiz harakat inson uchun ham zarur xislatlar ekanini ta’kidlaydi. U insonning bekorchi o‘yinlar, foydasiz mashg‘ulotlar bilan vaqt o‘tkazishidan tashvishlanadi, bunday yashash usuli oxir-oqibat afsus va armon keltirishini uqtiradi. She’r yakunida esa insonlarni tabiatdan saboq olishga, mo‘jizalar yaratish uchun shoshilish va ulgurishga da’vat etadi. Bu chaqiriq bugungi tezkor, globallashgan davrda ayniqsa dolzarbdir.

[40] M.Murodova. Seni kuylayman. Yosh gvardiya, 1986.
[41] M.Murodova. Seni kuylayman. Yosh gvardiya, 1986.

Falsafa tarixida tabiat masalasi doimo muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Qadimgi yunon mutafakkiri Geraklit tabiatni doimiy o‘zgarish va harakatdagi abadiy jarayon sifatida tushungan, Aristotel esa uni “o‘z-o‘zidan harakatga keltiruvchi qudrat” deb ta’riflagan. Yangi davr faylasufi Spinoza esa tabiatni ilohiy mohiyat bilan uyg‘unlikda ko‘radi. Shoiraning “Umr” she’rida ifoda etilgan falsafiy-estetik qarashlar ham ana shu qadimiy tafakkur an’analarini davom ettiradi: u tabiatni inson uchun mehr va saxovat manbai, hayotga ma’no bag‘ishlovchi kuch sifatida talqin etadi. Shoiraga ko‘ra, inson o‘z hayotini mazmunli, barkamol kechirishni istasa, tabiatning yaratuvchanlik ruhidan ibrat olishi, undan saboq olishi kerak. Tabiatdagi har bir hodisa – qor yog‘ishi, bahorning uyg‘onishi, g‘unchalarning ochilishi, yomg‘irdan keyingi musaffolik, quyoshning iliq nuri – inson uchun bir dars, bir ilhom manbaidir. Bu falsafiy fikr insonni borliqdagi o‘rnini chuqurroq anglashga, yangilik yaratish, jamiyatga foyda keltirish yo‘lida mehnat qilishga undaydi.

Mukarrama Murodovaning badiiy-falsafiy qarashlarida “yaratuvchanlik” g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Shoira tabiatni ilohiy kuch sifatida emas, balki insonni ma’naviy va ruhiy kamolot sari yetaklovchi maktab deb biladi. Bu qarash zamonaviy ekologik tafakkur bilan hamohang: tabiat nafaqat inson ehtiyojlarini qondiruvchi manba, balki ma’naviy uyg‘unlik va ilhom manbai sifatida tasavvur etiladi.

Estetik nuqtayi nazardan qaraganda, she’rda tabiat tasviri inson qalbida go‘zallik hissini uyg‘otadi. Har bir tabiat unsuri badiiy obraz darajasiga ko‘tarilib, inson hayoti bilan uyg‘unlashadi. Bu jihat Kantning “go‘zallik – manfaatdan holi yoqimlilikdir” degan fikrini eslatadi: ya’ni, tabiatning asl qadri u insonda uyg‘otgan tuyg‘ularda namoyon bo‘ladi. She’rda estetik go‘zallik va falsafiy mazmun bir-birini to‘ldiradi – tabiat har faslda o‘zini yangilagani kabi, inson ham hayotda o‘zini yangilab, ezgulik va bunyodkorlikka intilishi lozimligi ilgari suriladi. Dialektik falsafaga ko‘ra, tabiat va inson ajralmas birlikdir. Gegel aytganidek, inson tabiatning mahsuli bo‘lib, unga doimo murojaat qilib yashaydi. Mukarrama Murodovaning qarashlarida ham aynan shu g‘oya ustuvor: tabiat inson hayotining hamrohidir, u moddiy kuch bo‘lish bilan birga, ma’naviy quvvat manbai hamdir. “Umr” she’ri o‘quvchini faqat go‘zallikka oshno qilmaydi, balki estetik zavq orqali uni falsafiy va axloqiy xulosalarga olib boradi. Chunki tabiatni sevgan, undan ilhom olgan insongina hayotini mazmunli, yaratuvchanlik va bunyodkorlik ruhida kechiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Edward Allworth. An old mood returns to Central Asian literature // Literature East and West. 1967, 11. 2: pp. 149-154.
2. O.Begaliyev. She’riyat shu’lasi // Yoshlik. 2017, 4-son.

3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr , 2010.–Б.339.
4. M.Murodova. Seni kuylayman. Yosh gvardiya, 1986.
5. M.Murodova. Bahor boshlanibdi. Yosh gvardiya, 1974.
6. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 173-176.
7. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.

“YURT” JURNALIDAGI “MARG‘INONIY. SOHIBI HIDOYA” NOMLI MAQOLA VA UNING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O‘RNI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,
Qo‘qon universiteti.
javharovanilufar0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek matbuotining taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan adib va noshir Ashurali Zohiriyning faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, uning noshirlik faoliyati doirasida nashr etilgan “Yurt” jurnalining 3-sonida chop etilgan maqolalar, ularning mavzu doirasi, ijtimoiy-ma’naviy mazmuni, milliy ong va adabiy tafakkurga ta’siri haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mazkur sonida e’lon qilingan “Marg‘inoniy. Sohibi Hidoya” nomli maqolaning to‘liq tabdili keltirilib, uning tarixiy-adabiy kontekstdagi o‘rni tahlil etiladi.

Maqolada “Yurt” jurnalining mazkur sonidagi milliy o‘zlik, ma’naviyat, islomiy meros, tarixiy shaxsiyatlar haqida berilgan maqolalar o‘zbek adabiyoti va matbuoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Bunday publitsistik asarlar XX asr o‘zbek adabiy tafakkurida tarixiy ongni uyg‘otish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynagan.

Tadqiqot davomida “Yurt” jurnalining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, Ashurali Zohiriyning adabiy-publitsistik faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy tahlil asosida ochib beriladi. Shuningdek, “Marg‘inoniy. Sohibi Hidoya” maqolasi misolida o‘zbek matbuotida tarixiy-badiiy janrning shakllanishi va taraqqiy etishi hamda bu janr orqali adabiy merosning keng ommaga yetkazilishidagi dolzarb jihatlar yoritiladi.

Ushbu maqola o‘zbek adabiyotshunosligi, matbuot tarixi va publitsistika janrini o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ashurali Zohiriy, Al-Marg‘iloniy, “Yurt” jurnali, Turkiston o‘lkasi, jurnallar, Sohibi hidoya, maqola, tabdil.

Abstract: This article analyzes the activities of Ashurali Zohiriy, a prominent writer and publisher who played a significant role in the development of Uzbek journalism. Specifically, it examines the articles published in the 3rd issue of the “Yurt” journal, which was published during his time as a publisher. The article explores the themes, social and spiritual content of the pieces, as well as their impact on national consciousness and literary thought. Additionally, the full version of the article titled “Marg‘inoniy. Sohibi Hidoya” published in this issue is provided and analyzed within its historical and literary context.

The article highlights the importance of the articles in the 3rd issue of “Yurt” journal, which address topics such as national identity, spirituality, Islamic heritage, and historical figures. These contributions hold a special place in the history of Uzbek literature and journalism. Such journalistic works played a crucial role in awakening historical consciousness, strengthening national values, and promoting educational ideas in 20th-century Uzbek literary thought.

Through this research, the article demonstrates the significant role of the “Yurt” journal in Uzbek literature, shedding light on Ashurali Zohiriy's literary and journalistic activities. It also explores how the article “Marg‘inoniy. Sohibi Hidoya” reflects the formation and development of the historical and literary genre in Uzbek journalism, as well as its contribution to disseminating literary heritage to a broader audience. This article serves as a valuable scientific resource for scholars studying Uzbek literature, the history of the press, and the genre of journalism.

Keywords: Ashurali Zohiriy, Al-Marg‘iloniy, *Yurt* journal, Turkistan region, journals, *Sohibi Hidoya*, article, transliteration.

1917-yil 21-iyunda “Yurt” jurnalining Ashurali Zohiriy muharrirligida 3-soni nashrdan chiqdi. Noshiri: Hoji Mavlon beridi Ashurboyuf. Undan quyidagi maqolalar o‘rin olgan:

1. O‘zbeklar ham Turkiston. (Qalandar).
2. Turkiston tarjimai hollari: Marg‘inoniy. Sohibi hidoya. (Mushohir)
3. Va’z va voiz. (Abdullabek)
4. Istiqbolda bizning hayot. (Muallim Shokir al Muxtoriy)
5. Uchreditelnie sobraniya va unga saylov tartiblari. (Mirmuhsin Shermuhammad o‘g‘li)
6. Turkistong‘a oid. Xo‘qand. (Ahmad Sardor)
7. Idoradan javoblar.

Jurnalning mazkur soni matbaachilarning ish tashlashlari tufayli kechikib chop etiladi. Bu haqida jurnalning mundarijasidan keyin ma’lumot berib o‘tiladi. Jurnalning 3-sonida “Sohibi Hidoya’’ deb

nomlangan maqola berib o‘tiladi. Mazkur maqolada buyuk mutaffakkir olim, “Hidoya’’ asarining muallifi Al-Marg‘iloniy haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu maqolaning joriy alifbodagi tabdili amalga oshirilib, e’tiboringizga havola qilinmoqda:

Mashohiri Turkiston tarjima hollari:

MARG‘INONIY. *(Boshi o‘tgan no‘mirda.)*

(SOHIBI HIDOYA)4

“Qomusi al-ulum” sohibi Marg‘inoniyning vafoti 593nchi yilda, Chingizning Buxorog‘a qilg‘on fitnasida deydur; Chingizning Buxorog‘a qilg‘on fitnasi 616nchida bo‘lg‘onlig‘idan vafoti 593nchida deyish xato bo‘lsa kerak, agar vafoti 593nchida bo‘lsa, maqbarasi Samarqandda bo‘lmaq ehtimoli ham durust bo‘ladur.

Har nechuk bo‘lsa ham qabri sharifi Samarqandda deguvchi afandilar, dalillari bilan matbuotga yozsunlar edi. Shunga o‘xshash Marg‘inoniyning asl vatani qaysi shaharda va qaysi o‘rundaligini va bu kunda nishonalarini bilguchilar ham ravshan yozsunlar edi.

“Hidoya” shorihi ibn al-Humom hazralari “Fath ul-qadar yerdi Marg‘inoniyni: “al-Roshidoniy al Marg‘inoniy” deb zikr etadur. Munga ko‘ra Sohibi hidoya Roshidonlik bo‘ladur. Din va millatga zarardan boshqa bir tiyinlik naf’i tegmogan va o‘zi noma’lum qaysi bir odamlarning maqbarasig‘a komili ixlos bilan aylanub yurg‘uvchi Turkistonlik qorindoshlarimizga Sohibi Hidoyaning mavlud va maqbarasini bilib qo‘ymaq ulug‘ ne’mat bo‘lub zo‘r ibratga sabab bo‘lur edi.

Marg‘inoniy hazratlari obid, zohid, fozil, adib ham shoir bo‘lub jumlai ash’oridan biri budur:

Bil mazmun tarjimasi: (beparhez olim (mulla) ulug‘rog‘ buzuq nodon so‘fi bo‘lodur. Dinda bu ikkisig‘a ergashuvchilar uchun olamda bu ikkisidanda ulug‘ fitna topilmas) bu she’r Sohibi Hidoyaniki.. Munga har kim o‘zi atrofli mulohaza bilan ma’ni berib qarorg‘a kerak. Hozirda biz mundan ortiq izoh bera olmaymiz. Muarrixlar Marg‘inoniyning madhida (lam tarol-uyuna mislahu fil-ilmi val-adab) desalar ham vaqti kelganda xatolarinida ko‘rsatub qo‘yorlar. Abdulxay al Laknaviy Mazimna ismli asarinda “Hidoya”ning juz’i avvalinda o‘n bir o‘rnida yonglishborlig‘ini ko‘rsatodur. Jumladan biri “Irkauvasjudu oyai” sharifasining avvalig‘a “vov” qo‘shub “var ka’vu” deb zikr etgani bo‘lmish. Bu kunda Marg‘inon olimlarindan hurmat sohibi bir zot Laknaviyning shul so‘zini ko‘rubmi eshitibmi “hoy hoy Sohib hidoyag‘a mundog‘ deb beadablik kilib bo‘lmaydi” demish. Bu zot Sohibi Hidoyag‘a ixlos qilaman deb Qur’onni g‘alatg‘a chiqarub qo‘ymish. Bizning oramizda ko‘b ishlar az sartopo shul xildadur.

Bunda ishi xato, payg‘ambarlardan boshqa kishi ma’sum emos, bu har kimg‘a ma’lum. Erdi Sohib Hidoya xato qilsa va oni birov ko‘rsatsa tahqir qilingon bo‘lurmi? Marg‘inoniy hazratlari “Hidoya”da: Imom

Shofe’iy (rahmatulloh alayh) nazdida xuruji maniy garchi beshahvat bo‘lsa ham g‘uslni lozim etmakini zikr qilmishdur. Sohibi Hidoyaga tobe’ bo‘lub ko‘b xalq – mashhur fozillar ham shunga zohib bo‘lmishlar. Hatto, “Hidoya”ning mo‘tabar hoshilaridan biri bo‘lg‘on “Nihoya”da “Shofe’iy nazdida og‘ir yuk ko‘targan yoki baland makondan yiqilg‘on bo‘lub maniy chiqsa ham g‘usl lozim” deydir. Ya’ni: bu kishilar barchasi “Mofiy nazdida beshahvat maniy tahoratni buzmoydur, amo g‘uslni lozim tutadur” demishlar.

Shahobid-din al-Marjoniy hazratlarining “Noziro”da ko‘rsatmoqig‘a qarog‘onda bu so‘zlar xatodur. Chunki: Marjoniy hazratlari: tahorat buzulmay turub g‘usl lozim bo‘lmoqini tasavvur qilib bo‘lmaydur. Ham haqiqatda Shofe’iy hazratlarining nazdida beshahvat maniy tahorat (vuzu)ni sindurmoydur va g‘uslni albatta ijob qilmoydur” demishlar.

Abdulhay hazratlari na sababdandurki “ag‘lat” qatorida muni ko‘rsotmoy o‘tdi.

“Hidoya”ning xalq orasida mo‘tabar, ham sohibining obidligig‘a dalil etib Marg‘inoniyning “Hidoya” tasnifi vaqtida 13 yil muttasil ro‘za bo‘lg‘onlig‘ini va oni xalqdan yashurun tutqonlig‘ini zikr eturlarda “bihayaula yo‘ftur aslan” deyurlar, lekin, shul iborani zohiridan ushlob”: “bu ro‘za savvul visol” (tutishdan bir necha kun ro‘za tutmoq) bo‘ladur. Bu bo‘lsa makruh – imom Muhammad hazratlari “Mutoan” savvul visol to‘g‘risidagi hadislaridan keyin: “va bahazon oyihuz ulvisol makruhun va xuvan yuvosilar-rajula bayi yavmayni fias-savmi la’ya kulufial layli shaygon oyi (?) va huvaul kavlu abi hanifa rahmatulloh va al-omma deydur. Sahifa 160. – buni Sohibi Hidoya hech vaqt ishlog‘on yo‘qdur.” deguvchilar ham bor. Marg‘inoniy hazratlari mu’taorif ro‘za tarzinda 13 yil soyim bo‘lsa, buning baraketidan maqbuli omma va ulamo bo‘lsa bo‘lg‘andur. Bunda mazoyiqa yo‘q. Bizning hozirgi asrimizda ham 13 yilgina emas, umri bo‘yicha ro‘za tutquvchilar va shuni o‘zig‘a nazar qilib ishga mashg‘ul bo‘lg‘uvchi so‘fiylar bor. Lekin bulardan maqbuli omma va ulamo bo‘lodurg‘an birgina ish sodir bo‘lg‘onini bilmoymiz.

Bizning dilimizga: “ibodatning muqobilig‘a savob va jazo, yavm ul-jazoda berilib dunyoda (xalq qoshida) maqbul va g‘ayri maqbul ishlar barchasi xususiy sabablarg‘a binoan bo‘lsa bo‘lmasmi?” degon so‘z keladur. Vallohi a’lam bis-savob.

Mashohir.

Ushbu maqola Mashohir nomli taxallus egasi tomonidan “Yurt” jurnalining 3-sonida chop etilgan, o‘zbek tarixiy-adabiy merosini o‘rganish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan bir asar bo‘lib, Marg‘inoniy (yoki Al-Marg‘iloniy)ning hayoti va ilmiy merosiga bag‘ishlangan. Ushbu maqola, birinchi navbatda, Marg‘inoniyning ilmiy faoliyati va uning “Hidoya” asarining tafsiri bilan bog‘liq muhim tafakkur va izlanishlarni o‘zida mujassam etadi.

Marg‘inoniyning tarixiy shaxs sifatida tanilganligi va uning “Hidoya” asarining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni yuksakdir. Maqolada keltirilgan fikrlar, shuningdek, uning asariga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirish va ilmiy izlanishlarga turtki bo‘lish maqsadida yozilgan. Marg‘inoniy hazratlari o‘z zamonining buyuk ilm egalaridan bo‘lib, uning “Hidoya” asari nafaqat diniy, balki ma’naviy-axloqiy, jamiyatshunoslik sohalarida ham dolzarb ahamiyatga ega. Asarda keltirilgan ilmiy va diniy fikrlar, shuningdek, o‘z zamonidagi madaniyatni va ijtimoiy muammolarni yoritish orqali, bu asar adabiy-badiiy va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manbaa hisoblanadi.

Marg‘inoniyning “Hidoya” asari, o‘z navbatida, o‘sha davrda yashagan musulmon olimlarining fikrlarini jamlab, ularning diniy qarashlarini yoritadi. Maqolada keltirilgan “Hidoya”ning ilmiy va diniy ta’limotlari, shuningdek, Sharq adabiyotidagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot beriladi. Ushbu maqola Marg‘inoniyning diniy g‘oyalari, uning ilmiy ishlari va adabiyotdagi ahamiyatini tushunish uchun muhim o‘quv vositasi hisoblanadi.

Ma’lumki, Marg‘inoniyning ilmiy va adabiy merosi hali ham o‘zbek adabiyotshunosligi uchun to‘liq o‘rganilmagan, shuning uchun uning asarlari haqida bunday maqolalar, o‘z navbatida, katta ilmiy ahamiyatga ega. “Hidoya” asari, xususan, uning diniy axloqiy jihatlarini, jamiyatni va odamlarni tarbiyalashda qanday rol o‘ynaganini yoritishda samarali vosita hisoblanadi. O‘rganilayotgan maqoladagi tahlil va tafsirlar, ayniqsa, adabiyotshunoslik va diniy tadqiqotlar sohasida yangi izlanishlarga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, maqolada keltirilgan fikrlar, shuningdek, uning adabiyotdagi va matbuotdagi o‘rni, Ashurali Zohiriyning “*Yurt”* jurnalida ushbu mavzuni yoritish orqali qanday ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu maqoladagi ilmiy uslubda yozgan fikrlar va keltirilgan diniy, tarixiy, adabiy ma’lumotlar o‘zbek matbuoti va adabiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan.

Maqolaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda chalkash berilgan tarixiy sanalar va voqealarning xronologiyasi muallif tomonidan tahlil qilinadi. Asarlarda keltirilgan ma’lumotlar boshqa tarixiy hodisalar bilan qiyoslanadi. Misol uchun: “Qomusi al-ulum” sohibi Marg‘inoniyning vafoti 593nchi yilda, Chingizning Buxorog‘a qilg‘on fitnasida deydur; Chingizning Buxorog‘a qilg‘on fitnasi 616nchida bo‘lg‘onlig‘idan vafoti 593nchida deyish xato bo‘lsa kerak, agar vafoti 593nchida bo‘lsa, maqbarasi Samarqandda bo‘lmaq ehtimoli ham durust bo‘ladur.’’[42]

Ba’zi tarixiy manbaalarda Marg‘iloniyning vafoti Chingizxonning Mavorounnahrga bostirib kirgan vaqtida, deb beriladi. Muallif bu

[42]

ma’lumotdagi noaniqlikka e’tibor qiladi. Hijriy 593-yilni milodiy hisobga o‘zgartirganimizda 1197-yil kelib chiqadi. Chingizxonning O‘rta Osiyoga yurishi hijriy 616-yilda yuz bergan. Bu milodiy hisobda 1219-yilga to‘g‘ri keladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, tarixiy asarlarda Marg‘iloniyning Chingiz bosqini davrida vafot etgan, degan ma’lumot tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Biz Al-Marg‘iloniyni fiqh ilmining bilimdoni, donishmad olim sifatida taniymiz. Jurnaldagi maqolada u kishining yaxshi shoir bo‘lganligi haqida ham ma’lumot berib o‘tilgan: “Marg‘inoniy hazratlari obid, zohid, fozil, adib ham shoir bo‘lub jumlai ash’oridan biri budur:

Bil mazmun tarjimasi: (beparhez olim (mulla) ulug‘rog‘ buzuq nodon so‘fi bo‘lodur,

Dinda bu ikkisig‘a ergashuvchilar uchun olamda bu ikkisidanda ulug‘ fitna topilmas).

Bu she’r Sohibi Hidoyaniki.. Munga har kim o‘zi atrofli mulohaza bilan ma’ni berib qarorg‘a kerak”.

Maqolada aynan she’rning o‘zi berilmagan bo‘lsada, mazmuni keltirib o‘tiladi. Anglashiladiki, Marg‘iloniy hazratlari diniy-tasavvufiy mavzuda yaxshi she’rlar ijod qilganlar. Maqola davomida “Hidoya” asarining mukammal chiqqanligiga va xalq orasida shuhrat topganligining sababi sifatida shunday fikr bildiriladi: “Hidoya”ning xalq orasida mo‘tabar, ham sohibining obidligig‘a dalil etib Marg‘inoniyning “Hidoya” tasnifi vaqtida 13 yil muttasil ro‘za bo‘lg‘onlig‘ini va oni xalqdan yashurun tutqonlig‘ini zikr eturlarda “bihayaula yo‘ftur aslan” deyurlar, lekin, shul iborani zohiridan ushlob”: “bu ro‘za savvul visol” (tutishdan bir necha kun ro‘za tutmoq) bo‘ladur.”

Ko‘rinadiki, Marg‘iloniy hazratlari asar ustida ishlash jarayonida muttasil ro‘zador holatda bo‘lganlar va uni boshqalardan yashirganlar. Bu fikrlarni keltirar ekan, muallif o‘z zamonasidagi jaholat ahlidan shikoyatini yashirib o‘tirmaydi, ularni ochiq tanqid ostiga oladi. “Bizning hozirgi asrimizda ham 13 yilgina emas, umri bo‘yicha ro‘za tutquvchilar va shuni o‘zig‘a nazar qilib ishga mashg‘ul bo‘lg‘uvchi so‘fiylar bor. Lekin bulardan maqbuli omma va ulamo bo‘lodurg‘an birgina ish sodir bo‘lg‘onini bilmoymiz”. Ya’ni, ko‘z-ko‘z qilib, insonlar hurmati uchungina ibodatga mashg‘ul bo‘lganlar. Ammo xalq uchun, yurt uchun biror foydasi tegmaydigan insonlarning, ko‘r-ko‘rona ibodatlari, amalsiz ilmlari ularni olimlik martabasiga ko‘tara olmasligi aytib o‘tiladi. “Bizning dilimizga: “ibodatning muqobilig‘a savob va jazo, yavm ul-jazoda berilib dunyoda (xalq qoshida) maqbul va g‘ayri maqbul ishlar barchasi xususiy sabablarg‘a binoan bo‘lsa bo‘lmasmi?” degon so‘z keladur. Vallohi a’lam bis-savob.’’

Yuqoridagi fikrni o‘qiganda aqlimizga Bahouddin Naqshbandiyning o‘sha mashhur “Dil ba yoru, dast ba kor” hikmati keladi. Muallif ham

aynan shu fikrni aytmoqchi bo‘ladi, ya’ni kishining ibodati xususiy, o‘zi uchun bo‘lmog‘i kerakligi, shu bilan bir qatorda, inson xalq oldidagi vazifasini uddalamog‘i lozimligi ham ta’kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Yurt’’ jurnali 3-son. 1917-yil 21-iyun.
2. Jalolov A. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Qosimov B. Izlay-izlay topganlarim. – Toshkent, 1993

3-SHO‘BA: ONA TILI VA ADABIYOT TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

ONA TILI VA ADABIYOT ORQALI NOMODDIY MADANIY MEROSNI SAQLASH HAMDA AVLODDAN-AVLODGA YETKAZISH

Mashhuraxon Adiljon qizi Darmonova,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
mashxura.darmonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida ona tili va adabiyotning nomoddiy madaniy merosni saqlash hamda avloddan-avlodga yetkazishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar, doston va qo‘shiqlar misolida tilning milliy o‘zlik hamda ma’naviy qiymatlarni asrab qolishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, adabiyot orqali merosning tarbiyaviy va ma’naviy jihatdan avlodlarga uzatilishi yoritiladi. YuNESKO nomoddiy madaniy meros ro‘yxati misolida xalqaro tajribaga murojaat qilinib, raqamli texnologiyalar zamonaviy sharoitda til va adabiyot orqali merosni targ‘ib qilishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, adabiyot, nomoddiy madaniy meros, xalq og‘zaki ijodi, maqol-matal, doston, milliy qadriyatlar, globallashuv, YuNESKO, raqamli texnologiyalar.

Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatayotgan hozirgi davrda milliy til, adabiyot va nomoddiy madaniy meros masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKOning ta’kidlashicha, nomoddiy madaniy meros jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilaydigan va avlodlar orasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydigan muhim omildir [1].

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik ma’naviy merosi, xususan, og‘zaki ijodiyot, marosimlar, qo‘shiq va dostonlar avloddan-avlodga ona tili va adabiyot orqali yetkazilib kelmoqda. Shuning uchun ham globallashuv davrida til va adabiyotni muhofaza qilish nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ona tili xalqning milliy o‘zligini ifoda etuvchi, ma’naviy merosni saqlovchi va avlodlar orasida uzviylikni ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Xususan, o‘zbek tilida shakllangan maqol, matal, topishmoq, ertak va dostonlar xalq hayoti, tafakkuri va dunyoqarashini yorqin ifoda etadi. Masalan, “Til – millat qiyofasi” degan hikmat xalqning tilga bergan katta qadrini ko‘rsatadi.

Og‘zaki ijod namunasi sifatidagi maqol va matallar hayotiy tajriba, ma’naviy tarbiyani ham avloddan-avlodga yetkazishda xizmat qiladi. Shuningdek, marosim qo‘shiqlari, jumladan, “alla”, “yo‘r-yo‘r”, “lapar”

kabi an’anaviy qo‘shiqlar til orqali jonli meros sifatida saqlanmoqda. Ular orqali xalq estetik zavq, ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarni yoshlarga uzatadi.

O‘zbek xalq maqollarida til va so‘zga bag‘ishlangan hikmatli fikrlar juda ko‘p. Bu holat xalqning ma’naviy dunyoqarashida tilning alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Masalan, “Til – millatning qalbi” degan hikmat shuni anglatadiki, har bir millatning ruhi, uning ma’naviyati va ma’rifatini ifoda etuvchi asosiy manba – bu ona tilidir. Agar millat o‘z tilini yo‘qotsa, uning ma’naviy yuzi va madaniy merosi ham inqirozga uchraydi. Shu ma’noda xalqimizda “Til yo‘qolsa, millat yo‘qoladi” degan maqol ham bejiz paydo bo‘lmagan.

Boshqa bir maqolda: “Tili borning eli bor” deyiladi. Bu hikmat orqali xalq shuni anglatadiki, millatning mavjudligi, uning birligi va kuch-qudrati til bilan belgilanadi. Tili yo‘q millatning davlatchilik va ma’naviy mustaqilligi ham so‘z ostiga qo‘yiladi.

Adabiyot va og‘zaki ijod bilan bog‘liq hikmatlar ham tilning nomoddiy madaniy merosni saqlashdagi rolini ochib beradi. Masalan, “So‘z – qalbning oynasi” degan maqol so‘z orqali insonning ichki dunyosi, millatning ma’naviy yuzi namoyon bo‘lishini anglatadi. Xalq og‘zaki ijodiyoti – maqol, matal, doston, qo‘shiqlar xalqning qalb oynasidir. Ularni avloddan-avlodga yetkazish til va adabiyot orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, xalq “Yomon til yelni buzadi, yaxshi til elni tuzadi” deb ham ta’kidlaydi. Bu hikmat til va adabiyotning tarbiyaviy funksiyasini ko‘rsatadi. Yaxshi so‘z, ijobiy ma’noli asarlar millatning ma’naviy birligini mustahkamlaydi, yomon so‘z esa jamiyatda nizo va parokandalikka olib kelishi mumkin. Shu ma’noda adabiyot nomoddiy merosni saqlash bilan birga ma’naviy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida xalq hikmatlari yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Masalan, “Tilni asragan – elni asragan” degan maqol bugungi kunning shiorlaridan biri bo‘lishi mumkin. Zero, nomoddiy madaniy merosning saqlanishi tilning asrab qolinishi bilan uzviy bog‘liq.

Adabiyot – til va madaniy meros uyg‘unlashadigan muhim maydon. O‘zbek adabiyotida nomoddiy madaniy merosning ko‘plab elementlari aks etgan. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”sida xalq og‘zaki ijodining motivlari, turli marosimlar va urf-odatlar ifodalangan [2, 15–46]. Zahiriddin Boburning “Boburnoma”sida ham xalq hayotiga oid qimmatli etnografik ma’lumotlar uchraydi.

XX asr o‘zbek adabiyoti milliy o‘ziga xoslikni, xalq ruhiyatini va ma’naviy dunyoqarashni ifoda etishda muhim bosqich bo‘ldi. Bu davr ijodkorlari milliy urf-odatlar, oilaviy marosimlar, xalqona iboralar va nomoddiy madaniy merosning turli elementlarini asarlarida hayotiy obrazlar orqali jonli aks ettirdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasi uning publitsistik faoliyati va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yorqin namunalaridan biridir. Muallif ushbu maqolada til bilishning inson ma’naviy kamoloti va dunyoqarashini kengaytirishdagi o‘rni haqida chuqur falsafiy fikr yuritadi. Behbudiy “Arabiy bilmasak, din, ruscha bilmasak, dunyo qo‘ldan ketar” deya ta’kidlab, ona tilini e’zozlash bilan bir qatorda boshqa tillarni o‘rganishning ham zarurligini, millatning taraqqiyoti va ma’naviy uyg‘onishida bu omil muhim ahamiyat kasb etishini uqtiradi [3, 12–14].

Bu fikrlar zamon ruhi va jadidchilik davrining asosiy ma’naviy tamoyillarini ifoda etadi. Behbudiy uchun til aloqa vositasi, xalq tafakkuri, tarixiy xotirasi va nomoddiy madaniy merosining ajralmas qismi edi. Shu bois u o‘z farzandlari Mas’ud va Parvinlarni dastlab usuli jadid maktablarida, so‘ngra gimnaziyada o‘qitib, ularga zamonaviy bilim bilan birga milliy qadriyatlar ruhini singdirishga intilgan.

Uning o‘g‘li Mas’ud Behbudiy ham otasining ma’naviy merosiga sodiq qolgan holda adabiyotshunoslik bilan shug‘ullangan, tarjimon sifatida milliy adabiy jarayonga o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hol Behbudiy oilasida ilm, adabiyot va ma’naviyat orqali nomoddiy madaniy merosni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish an’anasi izchil davom ettirilganini ko‘rsatadi.

Behbudiy asarlari va pedagogik faoliyati ona tili, adabiyot hamda ilmiy-ma’rifiy merosni uyg‘unlashtirish orqali xalq ma’naviyatini yuksaltirish, millatning tarixiy xotirasini asrab qolish yo‘lidagi bebaho hissa bo‘lib qolmoqda.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani milliy hayotni, an’anaviy qadriyatlarni va turmush tarzini badiiy ifoda etgan eng muhim asarlardan hisoblanadi. Roman qahramonlarining kundalik hayoti, nikoh va to‘y marosimlari, sovchilik va kelin salom kabi an’analar tasviri orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zbek jamiyati madaniy muhitini yaqqol namoyon etadi. Masalan, Otabekning to‘yiga tayyorgarlik jarayonida qahvaxonadagi suhbatlar, to‘yga bog‘liq marosimlar xalq urf-odatlariga tayanilgan holda tasvirlanadi. Asardagi dialoglar va qahramon nutqlarida “Ollohga tavakkal”, “boshiga yetmoq”, “qora kunlar” kabi xalqona iboralar uchraydi [4], bu esa xalq tilining tabiiyligi va go‘zalligini namoyon etadi.

Cho‘lpon ijodi ham milliy an’analar va xalq ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan. Uning she’r va nasriy asarlarida xalq og‘zaki ijodining turli shakllari, jumladan, maqol, matal, qo‘shiq, afsona va rivoyatlar ilhom manbai bo‘lgan. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini oladigan bo‘lsak, undagi Zahro va Omonbek obrazlari orqali milliy oilaviy munosabatlar, ona mehri, muhabbat va sadoqat kabi qadriyatlar xalqona ruhda aks ettirilgan [5, 3–295]. Shuningdek,

Cho‘lponning “Ozodlik” va “Sevgi” mavzusidagi she’rlarida ham xalq qo‘shiqlariga xos his-tuyg‘u, obraz va lirik ohang aks etgan.

Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodi esa nomoddiy madaniy merosning yangi badiiy bosqichda talqin etilishi bilan ahamiyatlidir. Erkin Vohidovning “O‘zbegim”, “Nido”, “Tong nafasi” kabi she’rlarida milliy iftixor, ona-vatan muhabbati, xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy merosi ruhiy ta’sir kuchiga ega poetik ifoda topgan [6, 400]. Uning she’rlarida “mahalla”, “oila”, “ona til” kabi ma’naviy qadriyatlar orqali nomoddiy merosning ma’naviy asosi yoritilgan.

Abdulla Oripovning “Jannatim manim”, “Ona tilim”, “Saodatga yo‘l” asarlarida xalqning ma’naviy olami, milliy g‘ururi va diniy, axloqiy qadriyatlar yuksak badiiylik bilan ifodalangan. Masalan, “Ona tilim” she’rda xalq tili muloqot vositasi, millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va ruhiy qiyofasini ifoda etuvchi muqaddas qadriyat sifatida talqin etilgan [7, 74]. Shuningdek, Oripov ijodida xalq og‘zaki ijodiga xos musiqiylik, ritm va qofiya tizimi nomoddiy madaniy merosning poetik davomidir. Shu tarzda, XX asr o‘zbek adabiyotida milliy an’analar va nomoddiy madaniy meros elementlari, ya’ni qo‘shiq, maqol, urf-odat, marosim va xalq tili orqali milliy ongni shakllantirish, xalq xotirasini saqlash hamda avlodlar davomiyligini ta’minlash vazifasini bajardi. Adabiyotning ana shu xususiyati nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, uni zamon talablariga mos ravishda qayta talqin etish va avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayonlari til va madaniy meros uchun bir qator xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, yoshlar orasida internet tilining kuchayishi, begona so‘zlardan ortiqcha foydalanish, kitobxonlikning susayishi tilning tabiiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2, 284–307].

Shu bilan birga, globallashuv yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Masalan, raqamli texnologiyalar orqali nomoddiy madaniy merosni himoya qilish, uni keng targ‘ib qilish imkoniyati bor. Elektron lug‘atlar, onlayn arxivlar, audio-dostonlar, folklor qo‘shiqlarini internet orqali tarqatish til va adabiyotning zamonaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, ta’lim tizimida ona tili va adabiyot darslarini nomoddiy madaniy meros bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ertak, maqol-matal, dostonlarni zamonaviy pedagogik usullar bilan o‘qitish yoshlarda milliy o‘zlikni mustahkamlaydi.

Ona tili va adabiyot nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash va avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular orqali xalqning ma’naviy qimmatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi va ijodiy tafakkuri saqlanib qoladi.

Globallashuv sharoitida til va adabiyotni muhofaza qilish, nomoddiy madaniy merosni targ‘ib etishning zamonaviy usullaridan foydalanish,

yoshlar ongida milliy o‘zlik va ma’naviy merosni mustahkamlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonida, ommaviy axborot vositalarida va raqamli texnologiyalar yordamida ona tili va adabiyotni nomoddiy madaniy meros bilan uyg‘un holda asrab-avaylash jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003. https://ich.unesco.org/en/convention
2. Sadulla Otamuratov. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 456 b.
3. Mahmudxo‘ja. Ikki emas, to‘rt til lozim // “Oyina” jurnali. 1913-yil 20-avgust. 1-son. 12–14-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondi. Saqlov raqami – 3089.
5. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. J. II / Cho‘lpon – Qayta nashr; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 376 b.
6. Vohidov E. O‘zbegim / She’rlar, nazm. Qissalar, dostonlar. – Toshkent: Nurafshon Business, 2021. – 400 b.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2000. –432 b.

USLUBSHUNOSLIKDA “IRONOLOGIYA” YO‘NALISHI XUSUSIDA
ON THE FIELD OF “IRONOLOGY” IN STYLISTICS

Ehtiyotxon Ibragimova,
FarDU professori v.b.

Annotatsiya. Maqolada Ironiya badiiy asar tili, uning estetik qimmatini oshirishda katta ahamiyat kasb etishi, bu borada ko‘p izlanishlar olib borish, ironiyaning estetik va badiiy adabiyot yo‘nalishidagi asarlarda fikrning o‘ta ta’sirchanligini ifoda etuvchi stilistik usul sifatida muhim rol o‘ynashi, hozirgi darvda dunyoni ironik munosabatsiz tasavvur qilish aslo mumkin emasligi, G‘arb tilshunoslariningbu boradagi qarashlari, Yevropada rivojlangan skeptitsizm, relyativizm, liberalizm va pozivitizm sabab bo‘lishi haqidagi qarashlar, uslubshunoslikda “ironologiya” yo‘nalishini kengroq tadqiq etish lozimligi, “Ironologiya” – til va matndagi ironiya fenomeniga ixtisoslashganligi, uning semantik, pragmatik, uslubiy va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etuvchi fanlararo yo‘nalishdir haqida,

Ironologik yo‘nalish bo‘yicha izlanishlar badiiy adabiyot tiliga xos bo‘lgan “ironik ma’no”, “ironik mazmun”, “ironik munosabat” kabi atamalarning nima sababdan yuzaga kelib qolganligi xususida. Bunday izlanishlar ironiyani matn doirasida tadqiq etish va uning matn ko‘rinishlarini o‘rganish imkonini yaratishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Abstract. The article discusses the significance of irony in the language of literary works and its essential role in enhancing the aesthetic value of artistic expression. It emphasizes the need for extensive research in this area, as irony serves as a crucial stylistic device that conveys emotional depth and persuasive force in aesthetic and literary discourse. The study asserts that, in the modern era, it is almost impossible to imagine a worldview devoid of an ironic attitude. The paper also reviews the perspectives of Western linguists, highlighting the idea that the development of an ironic worldview was influenced by European traditions of skepticism, relativism, liberalism, and positivism. Furthermore, it underlines the importance of exploring the field of “Ironology” within stylistics in greater depth. “Ironology” is defined as an interdisciplinary field specializing in the study of the phenomenon of irony in language and text, focusing on its semantic, pragmatic, stylistic, and cognitive features. Research conducted within the framework of ironological studies helps to elucidate the origins and nature of such concepts as “ironic meaning,” “ironic content,” and “ironic attitude,” which are characteristic of the language of artistic literature. These investigations provide valuable opportunities for examining irony within the textual framework and for analyzing its diverse textual manifestations.

Kalit so‘zlar: ironiya, ironologiya, badiiy uslub, estetik qiymat, stilistik vosita, kognitiv xususiyat, pragmatik yondashuv, matn lingvistikasi, ironik ma’no, ironik munosabat, estetik funksiyalar.

Keywords: irony, ironology, literary style, aesthetic value, stylistic device, cognitive features, pragmatic approach, text linguistics, ironic meaning, ironic attitude, aesthetic functions.

Ironiya badiiy asar tili, uning estetik qimmatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ironiyaning bu xususiyati hali atroflicha to‘liq ochilmagan bo‘lib, bu borada ko‘p izlanishlar olib borishga to‘g‘ri keladi. Ironiya estetik va badiiy adabiyot yo‘nalishidagi asarlarda fikrning o‘ta ta’sirchanligini ifoda etuvchi stilistik usul sifatida muhim rol o‘ynaydi. Bu subektiv baho ifodalashning asosiy negizi bo‘lib, muallif fikrining badiiy

shaklidir. Ironiyaning badiiy asar tilidagi mohiyatini ochishga ko‘plab olimlar qo‘l urganlar. Mutaxassislar tomonidan zamonaviy, ayniqsa, g‘arb tilshunosligida, jumladan, ingliz tilshunosligida yaratilgan ishlarda badiiy adabiyotda ironiyaning roli tobora o‘sib borayotganligi alohidaa ta’kidlanadi. Olimlarning fikricha, hozirgi darvda dunyoni ironik munosabatsiz ko‘rish, tasavvur qilish aslo mumkin emas. G‘arb tilshunoslari dunyoga bunday tarzda yondashishga Yevropada rivojlangan skeptitsizm, relyativizm, liberalizm va pozivitizm sabab bo‘ladi, deydilar.

Mazkur omillarning mavjudligi ironiyaning badiiy adabiyotda alohidaa o‘rin tutganligini hamda uslubshunoslikda “ironologiya” yo‘nalishini kengroq tadqiq etish lozimligini ko‘rsatadi. Bu avvalo, ironiyaning lingvistik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini mukammal o‘rganishni talab etadi. Bu borada, ironiyani muayyan uslubiy kategoriya sifatida qarash, uning diskursiv funksiyalari, kommunikativ intensiyalar va milliy-madaniy kodlar bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ironiyaning shakl va vositalarini turli matn janrlarida tahlil qilish, uning estetik va ekspressiv vazifalarini yoritish orqali “ironologiya”ning uslubshunoslikda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishini ilmiy asoslash mumkin.

“Ironologiya” – til va matndagi ironiya fenomeniga ixtisoslashgan, uning semantik, pragmatik, uslubiy va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etuvchi fanlararo yo‘nalishdir. Bu atama ironiyani tizimli tadqiq etish zaruratidan kelib chiqqan holda uslubshunoslik, pragmalingvistika, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslik kesishmasida yuzaga keladi.

Ironologik yo‘nalish bo‘yicha izlanishlar badiiy adabiyot tiliga xos bo‘lgan “ironik ma’no”, “ironik mazmun”, “ironik munosabat” kabi atamalarning nima sababdan yuzaga kelib qolganligini izohlab beradi. Bunday izlanishlar ironiyani matn doirasida tadqiq etish va uning matn ko‘rinishlarini o‘rganish imkonini yaratadi.

Ironik ma’no — bu nutqiy ifodadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no bilan nutq maqsadi o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilikdan kelib chiqadigan implitsit ma’no bo‘lib, u aksar holda baho, tanqid, masxara yoki estetik ta’sir maqsadida qo‘llanadi. Ironik ma’no kontekst, intonatsiya, madaniy kod va leksik ziddiyatlar asosida anglashiladi.

Ironik mazmun — bu manfiy, inkor xarakterga ega bo‘lgan subyektiv baho modalligi asosida beriladigan ziddiyatli fikrlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan bir butun matnning — predikativ-relyativ

kompleksning mazmunidir. Ironik mazmunda muallifning maqsadi, shaxsiy munosabati yashiringan formada ifodalanadi. Masalan:
Agar bir kishi og‘ir kasal bo‘lsa va shunday desa: ***"Men hozirgi kunda eng sog‘lom odamman***", bu ironik mazmun hisoblanadi, chunki bu yerda u o‘z haqiqiy holatini to‘liq teskari, masxara qilish maqsadida ifoda etadi. Ironik mazmun o‘zining emotsional ta’sirini katta darajada kontekst va shubhali ohang orqali yaratadi.

Ironik munosabat, tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida, shaxs yoki jamoa tomonidan muayyan obyektga, holatga yoki shaxsga nisbatan namoyon bo‘lgan, ko‘pincha yumor yoki sarkazm elementlari bilan izohlangan munosabatdir. Ushbu munosabatlar olib borilayotgan hodisa yoki fikrning asl ma’nosini rad etish yoki qaytarishga, ko‘pincha kontekstga asoslangan ishoralarga asoslanadi. Ironiyadagi asosiy xosiyat shundaki, unda bildirilgan fikr ko‘pincha teskari ma’noni o‘z ichiga oladi, bu esa ijobiy munosabatning yoki narsaning haqiqiy yoki aniq ta’rifidan foydalanishdan ko‘ra, uning e’tiborsizligi yoki masxarasini ifoda etadi.

Ironik munosabatda odamlar yoki jamoalar o‘z shaxsiy his-tuyg‘ularini, baho berishlarini yoki fikrlarini bevosita emas, balki yumor, sarkazm yoki shubhali ishlatish orqali ifoda qiladilar.

Shunday qilib, ironik munosabatlarda ko‘pincha aniq fikrlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri baho berish o‘rniga, o‘ziga xos, yumorli yoki yumshoq masxara mavjud bo‘ladi. Bunda inson holatni tanqid qilish orqali o‘ziga xos ijobiy yoki salbiy taassurotlar uyg‘otishga intiladi.

Ironiyaning eng asosiy xususiyatlaridan biri, uning yoritilishida ishlatilgan yumor yoki sarkazm elementlari orqali, xatto ozgina shubha ostida bo‘lsa-da, muhim masalalarga e’tibor qaratiladi. Shu bois, ironik munosabatlar na faqat kommunikatsiyaning kuzatuvchi tomonidan aniqlangan masalalarni ko‘rsatish, balki ijtimoiy, madaniy yoki individual holatlarning tanqidiy izohlariga ham olib keladi. Bu turdagi munosabatlar, ko‘pincha, muhokamalarni va ijtimoiy munosabatlarni ochiq ravishda tekshirishga yordam beradi, go‘yoki ular har doim bevosita va anHanaviy shaklda bildirilmaydi.

Ironik munosabatning yana bir qimmati uning tanqidiy funksiyasidir. Shunday qilib, ironiya muammolarni yoki ijtimoiy yoki madaniy beamalliklarni tanqid qilish uchun qo‘llanilishi mumkin, bu esa foydalanuvchiga tomonidan ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Bu holatda, ironiya shaxs yoki jamoa uchun xos bo‘lgan his-

tuyg‘ular va ijtimoiy qoidalarga nisbatan ishlatilgan, hatto ularning qisman rad etilishi yoki qayta tuzilishi orqali to‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Tilshunos olima O.S.Axmanova aytganidek: “ironiya ustidan kulishning nozik va yashirin mazmun orqali teskari ma’noda ishlatish maqsadiga asoslanadi”[43]. Ironiyani tilning barcha tasviriy vositalariga tenglashtirib bo‘lmaydi: “Tilning tasviriy vositalari so‘z qo‘llashning hamma obrazli ko‘rinishlari, so‘z birikmalari va tovushlarni tasviriy qo‘llashga nisbatan aytilib, ko‘chma turlarning hamma ko‘rinishi umumlashtirilib “troplar” atamasi ostiga birlashtiriladi. Tasviriy vositalar tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ko‘chma ma’noli vositalarga metafora, metanimiya, giperbola, litota, ironiya, parafraz va boshqalarning so‘z va iboralar yordamida qo‘llanuvchi usullar kiradi”[44].

Kuzatishlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ironiya badiiy asarlarda barcha til vositalari yordamidan sodir bo‘lish xususiyatiga ega. Ironiya ifodalovchi vositalar sintaktik konstruksiyalar tarkibida ko‘chma ma’nodagina mavjuddir. Sintaktik struktura tarkibida ularning ironiya ifodalashda alohidaa ahamiyatga ega ekanligi matnning umumiy mazmunidan ko‘rinib turadi. To‘g‘risi, ironiyani leksik vosita yordamida ifodalash qulayroq va osonroq. Bu fikrni N.K.Salixova ham qo‘llab-quvvatlaydi[45].

Lekin shuni aytish lozimki, g‘arb tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlarda ironik munosabatning to‘la oydinlashuvida murakkab sintaktik strukturalar, umuman olganda, matn birliklari katta ahamiyatga ega ekanligi alohidaa ta’kidlangan va ironik ma’no ifodalash badiiy asar tilida faqat leksik vositalar orqali yuzaga chiqadi, degan fikr noto‘g‘ri ekanligi hozirgi vaqtda to‘la isbotlangan.

Ko‘p olimlar ironiyani faqat antifrazis munosabatlari bilan chegaralab qo‘yish mumkin emasligi va uning bir muncha murakkabroq shakllari ham mavjud ekanligini qayd etadilar[46].

T.P.Kazanskaya yozadi: “Ironiya stilistik usul sifatida so‘zning ikki xil leksik ma’nosi (lug‘aviy va kontekstdagi)ga asoslangan, bir-biriga zid

[43] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -Москва: Советская энциклопедия., 1969,-С.185.
[44] Арнольд И.Б. Стилистика английского языка. -Ленинград: Просвещение, 1973.-С.37.
[45] Салихова Н.К. Языковая природа и функциональная характеристика стилистического приема иронии. Автореф. канд.филол. наук. -Москва, 1975. –С.17.
[46] Казанская Т.П. Некоторые стилистические приемы создания эффекта иронии в портретных характеристиках романа С.Ричардсона “Кларриса Гарлоу” //Вопросы стилистики английского языка. -Москва, 1980.- Вып.155. -С.25.

bo‘lgan ironik effekt yaratishning bir yo‘li hisoblanadi... ironik effekt natijasida nutq birligining asl ma’nosi kontekstdan kelib chiquvchi ma’noga zid bo‘lgan holatga aylanadi”[47].

Ko‘rinadiki, ayrim olimlar bu hodisani kengroq o‘rganish maqsadida yangi atamalarni ham qo‘llaydi. “Ironik effekt” degan atamaning qo‘llanishi bu fikrimizni isbotlaydi. Ushbu atamaning qo‘llanilishi nutqda ironik hodisalar turli shakllarda namoyon bo‘lishi, uni matn doirasida o‘rganish mumkinligi, bu esa mazkur nutqiy hodisani o‘rganish ko‘lamini yanada kengaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Bir so‘z bilan aytganda, ironik ma’no — bu so‘z, ibora yoki bayonotda ifodalangan ma’no bilan kontekstda nazarda tutilgan ma’no o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan semantik o‘zgarish. U odatda bevosita aytilgan ma’noga qarama-qarshi bo‘lib, ifodaning yashirin, implitsit yoki masxarali tafsiri hisoblanadi. Masalan: ***"A’lo! Sen yana derazani sindirding!"*** — bu yerda a’lo so‘zidagi ifodaning asl ma’nosi (pozitiv) bilan real kontekst (negativ) qarama-qarshi, shu sababli ironik ma’no yuzaga keladi.

Ironik mazmun — bu ironik ma’nolar tizimi orqali yuzaga keladigan umumiy kommunikatsiyaviy axborot, ya’ni bir butun ironiyaning nutqiy maqsadi va yoritgan voqelikning tanqidiy/masxarali interpretatsiyasidir.

Demak, agar ironik ma’no alohida so‘z yoki ibora doirasida ko‘rilsa, ironik mazmun butun matn yoki diskurs darajasidagi tanqidiy yoki yumoristik ma’noni qamrab oladi.

Ironik munosabat — bu muallif yoki gapiruvchining voqelik, shaxs yoki holatga nisbatan bilvosita, masxarali, shubhali yoki tanqidiy ruhdagi subyektiv munosabati. Bu munosabat til vositalari orqali emas, balki kontekst, intonatsiya va pragmatik ishoralar bilan bildiradi. Muloqot jarayonida so‘zlovchi ironik munosabat orqali o‘z pozitsiyasini yashirin, yumor orqali bayon qiladi. Bu munosabat mazmunni qayta interpretatsiya qilishni talab qiladi.

Ironik effekt — bu o‘quvchi yoki eshituvchida paydo bo‘ladigan semantik va pragmatik ta’sir, ya’ni u aytilgan fikrning yozma/ogzaki ifoda bilan real kontekst orasidagi ziddiyatni anglab, uni ironiya deb qabul qiladi. Bu effekt faqat qabul qiluvchi tomonning tajribasi bilan yuzaga keladi.

[47] Максименко Е.В. Языковые средства создания комического эффекта в современной французской художественной прозе. Автореф.канд.филол. наук. -К.: 1983,-С.10.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ironiyada ironik ma’no — asosiy semantik o‘zgarish nuqtasi bo‘lsa, ironik mazmun — shu ma’nolar asosida shakllangan umumiy fikr bo‘ladi, ironik munosabat — shu fikr orqali so‘zlovchining subyektiv pozitsiyasi sanalsa, ironik effekt — shu barcha komponentlar tufayli, qabul qiluvchida yuzaga keladigan ta’sir va anglash jarayoni hisoblanadi. Bularning har biri tilshunoslikda badiiy tasvir vositalari tizimida ironiyaning ifodalanishida muhim!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - Москва: Советская энциклопедия., 1969,-С.185.
2. Арнольд И.Б. Стилистика английского языка. - Ленинград: Просвещение, 1973.-С.37.
3. Салихова Н.К. Языковая природа и функциональная характеристика стилистического приема иронии. Автореф. канд.филол. наук. -Москва, 1975. –С.17.
4. Казанская Т.П. Некоторые стилистические приемы создания эффекта иронии в портретных характеристиках романа С.Ричардсона “Кларриса Гарлоу” //Вопросы стилистики английского языка. -Москва, 1980.- Вып.155. -С.25.

ADABIYOT DARSLARIDA TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI BOG‘LAB O‘TISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jamoliddinov Mirhojiddin G‘iyosiddinovich,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti.
mahmudagiyosiddinova091@gmail.com+998912013395

Annotatsiya: Muallif maqolada adabiyot darslarini tasviriy san’at darslari bilan bog‘lab uyg‘unlikda o‘tishning uslubiyoti haqida so‘z yuritgan. Xususan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holatda adabiyot va tasviriy san’atdagi adabiy-nazariy tushunchalarni o‘quvchilar ongiga singdirishdagi usullar haqida to‘liq ma’lumot bergan. Ushbu ilmiy maqolada ta’lim tizimida adabiyot darslarini o‘tishda tasviriy san’at fanlari uyg‘unlashgan holda integratsiya qilishdagi muammo va yechimlar ularni hal etish yo‘lidagi usul va metodlar haqida o‘quvchilarni qobiliyatlarini shakllantirish haqidagi ilmiy metodik fikrlar bayon etilgan

Kalit so‘zlar: portret, peyzaj, obraz, integratsiya, syujet, kompozitsiya, rassom, yozuvchi, miniatyura.

Annotation: In the article, the author talked about the methodology of combining literature lessons with visual art lessons. In particular, the methods of instilling the literary-theoretical concepts of literature and visual art into the minds of students when using innovative technologies. gave full information about. In this scientific article, the problems and solutions of integrating visual arts in the literature lessons in the educational system and the methods and methods of solving them are described

Key words: portrait, landscape, image, integration, plot, composition, artist, writer, miniature.

KIRISH

Bugungi kunda ta’limda keng islohatlar amalga oshyapdi. Ayniqsa, maktab ta’limida o‘qitishning innovatsion tehnologiyalar asosida turli metodlardan foydalangan holda noan’anaviy darslarni tashkil etish keng ommalashdi. Maqsad yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash , kreativ hamda mantiqiy fikrlaydigan o‘quvchini tayyorlash, ularni vatanparvarlik, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida o‘stirish eng asosiy vazifalardan biridir. Bu maktabda adabiyot darslarida yozuvchilarning hayoti va ijodini, badiiy asarlarini o‘rganish orqali amalga oshadi.

Bugungi uzluksiz ta’lim tizimini bosqichlarida o‘qitishda innovatsiyalar(yangilik,o‘zgartirish)ni qo‘llash hamda fanlararo intagratsiyadan foydalanib darsni tashkil etish zamonaviy darslarni talabi hisoblanadi. Integratsiya atamasi lotincha integration so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashish ma’nolarini anglatadi.

Adabiyot va tasviriy san’atda bir biri bilan mushtarak ilmiy atamalar mavjud. Buni har bir o‘quvchi bilishi lozim:

1. Asar mavzusi: yozuvchi va rassom tomonidan tanlab olingan va yoritilgan(chizilgan)turmush hodisasi.
2. Badiiy asar g‘oyasi: g‘oya yozuvchi, rassom yaratgan obraz orqali ifodalangan hodisalar to‘g‘risidagi asosiy fikr.

Kompozitsiya- asar qismlarining o‘zaro aloqasi va joylanishi. Kompozitsiya rassom g‘oyasini to‘liq tasvirlovchi asar

3. Portret – bu inson siymosi tasviri. Unda ko‘pincha yuz ifodalari, tana holati va boshqa individual xususiyatlarini aks ettiradi portret san’ati , shuningdek,shaxsning xarakterini, hissiyotlarini va ijtimoiy pozitsiyasini ham ifodalaydi
4. Peyzaj- bu tasviriy san’atda tabiiy manzaralar,masalan tog‘lar, daryolar, o‘simliklar va osmonni ifodalovchi asarlar.peyzaj san’ati san’atkorlar tomonidan tabiatning xilma xilligini aks ettirish maqsadida yaratiladi.
5. Asar syujeti:kompozitsiyaning elementi. Izchillikda asarda berilgan voqealar birligi.

Ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘layotgan, tabiat, hayvonot dunyosi, bepayon osmon, oy, yulduz , quyosh boringki barcha inson sezayotgan borliq odamni tafakkur qilishga, undan huzurlanishga , mo‘jiza sifatida uning yaratilishidan hayratlanish, lazzatlanish, fikr qilishiga undaydi.

Ayniqsa, shoir, adib, rassom bu ne’matlarni ko‘rib o‘zgacha tafakkur, mushohada qiladi. Hatto, o‘zi bilan birga yashayotgan odamlarni yurish – turishi, xatti – xarakatlaridan ham ilhomlanib obraz yaratadi. Obrazlilik, oddiy so‘zlarga ham libos kiydiradi. Badiiy libos esa so‘zlarga ko‘rk bag‘ishlaydi va asarning yashash sharti hisoblanadi.

Shunday ekan, biz uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchini tabiatdan ilhomlanishiga, badiiy asarlarni o‘qish jarayonida asar qahramonlari obrazlaridan ta’sirlanish, hayratlanish hissini uyg‘otishimiz lozim. Badiiy asarlar qa’riga yashiringan so‘z sehridan ilhomlanishiga o‘rgatishimiz kerak. Bu o‘quvchilarda fanlararo aloqa, adabiyot va tasviriy san’at orqali shakillanadi, rivojlanadi. Adabiyot darsining samaradorligiga tasviriy san’atdan foydalanish orqali erishiladi

Uchinchi Renessans (fransuzcha so‘z bo‘lib “uyg‘onish , uyg‘onmoq “ ma’nolarini bildiradi)poydevorini yaratuvchi yosh avlodga ta’lim - tarbiya berishda ular ongiga faol fuqarolik kommunikativ kompentensiyalarini shakllantirish, globallashuv jarayoniga javob beradigan ijodiy fikrlaydigan, mulohazali avlodni yetishtirish ta’lim sohasidagi ustuvor vazifaga aylandi.

O‘qitish jarayonidagi an’anaviy dars turlaridan asta-sekin innovatsion (lotincha so‘z bo‘lib “yangilanish,yangilik, o‘zgartirish “ ma’nolarini anglatadi) texnologiyalarga asoslangan noan’anaviy dars turlariga o‘tilmoqda.

Ayniqsa, o‘qitishning dunyodagi ilg‘or rivojlangan mamlakatlar tajribasiga suyangan holda milliylikni saqlagan holda yangi metodikani yaratish masalasi asosiy vazifaga aylandi. Bunda o‘qitishda fanlararo integratsiyadan (lotincha integratio so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashtirish ma’nolarini anglatadi) foydalanish maktab ta’limiga joriy etilmoqda. Buning uchun fanlarni umumlashtirib yaxlit darsliklar yaratish uchun tajribalar amalga oshmoqda. Jumladan, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Odobnoma, Din tarixi, Vatan tuyg‘usi kabi fanlarni birlashtirgan holda Tarbiya fanining joriy qilinishi ushbu izlanishlarning natijasi sifatida baholash mumkin. Shu maqsadda, XXR, Avstarliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribasi o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari qiyosiy tahlil qilindi.

Shunday ekan, adabiyot o‘qitishda tasviriy san’at fanlarini uyg‘unlashgan holda integratsiya qilib o‘rganish o‘quvchida jamiyat va tabiat dunyosini tanishida muhim vositadir. Yozuvchi badiiy asarda obrazlilik orqali hayotni, kishilarni, ularning ichki kechinmalarini, his-

tuyg‘ularini, tabiat manzaralarini so‘z orqali ifodalaydi. So‘z bilan sur’at chizadi, sur’at chizganda ham, rassomga o‘xshab odamlar harakatsiz tasvirlamaydi, balki, ularni doimo harakatda konfliktda tasvirlashga intiladi. Tasviriy san’at fanlari esa bo‘yoqlar, ranglar, chiziqlar, ovozlar tilidir. U xilma-xil rang va bo‘yoqlardan foydalanib obraz yaratadi. Bu obrazlarni ko‘rish, his etish, ta’sirlanishi jarayonida tasviriy san’at orqali chizib beradi. Ammo, rassom yaratgan asarni o‘qish, uqish uni hikoya qilib berish murakkab. Hatto malakali adabiyot o‘qituvchisii ham ojizlik qiladi. Shunday ekan, hozirgi ta’lim tizmimizda tasviriy san’at asarlarini tahlil qilish ancha orqada. Biroq tasviriy san’at, adabiyot fanlari bir-biridan farqlansada ular voqelikni aks ettirishda o‘zaro mushtarakliklarga ega. Tasviriy san’at asarlarida ham mavzu, syujet, g‘oya, badiiy uslub, peyzaj(peyzaj-vosita.maqsad tavsif ortida uni hissiy mushohada etayotgan lirik qahramon qalbini aks ettirish), portret, obrazlar va asarlarda tasvirlangan davr voqeasi qahramonlari o‘z ifodasini topadi. Lekin, kuzatishlar shuni ko‘rsatyaptiki, adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarlarni o‘quvchiga yetkazishda yozuvchi, qahramonlar portreti, fasllar go‘zalligi haqida yozilgan she’rlarni o‘rgatishda ko‘rgazmali quroldan foydalanadi. Ammo, uning yaratilish tarixi, tabiatning go‘zalligi , shoir hissiyoti ta’siri natijasida “kashf” etilganligini bilmaydi. Jumladan, Hamid Olimjonning “O‘zbekiston”, “O‘rik gullaganda”, Oybekning “Na’matak”, Mirtemirning “Baliq ovi”, Ibroyim Yusupovning “Vatan so‘qmoqlarida” she’rlarida shoirlarga peyzaj lirikasining go‘zalliklari, tabiat dunyosining his tuyg‘usiga ta’siri asosida ichki kechinmalari asosida yaratilganligini o‘quvchiga yetkaza olmaydi. Chunki, borliq va san’atdagi go‘zallikni ko‘ra olish, anglash ularga shaxsiy munosabat bildira olish kabi bilim malakalar o‘qituvchida yetishmaydi. Shu bilan birga tasviriy san’at o‘qituvchisi ham darslarda o‘quvchiga san’at asarlarining ahamiyati , san’atdagi motiv, ramz, tasviriy ifodaviy vositalar, ramziy obrazlar yaratish, rangshunolik yechimlarini to‘g‘ri hal qila olishni o‘rgatmagan. Xususan, ta’limda tasviriy san’at darslari maktabgacha ta’lim va tarbiya bosqichidan umumta’lim maktablarini 1-7-sinfigacha o‘qitiladi…

Yuqoridagi go‘zal asarlarni tasviriy san’at bilan uyg‘unlashgan holda integratsiya qilib o‘tmaslik natijasida darsning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadi amalga oshmaydi. O‘quvchi asar nomini biladiyu, uning mazmuniga yashiringan go‘zallikdan mahrum bo‘ladi. O‘quvchida go‘zallikni sevish unga oshno bo‘lish tuyg‘ulari so‘nadi.

2023-yil 1-2-noyabr kunlarida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Hamda Samarqand shahrida Prezidentimiz tomonidan kutib olindi. U Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek konservatoriyasi va boshqa tarixiy obidalar bilan tanishdi. Makron har bir san’at asarini go‘zalligidan ta’sirlandi, inson qo‘li bilan yaratilgan go‘zal naqshlar, kitoblarda

tasvirlangan miniatyura san’ati uni o‘ziga rom etdi. Demak, Makron badiiy san’atni o‘qishni biladi,shuning uchun u tarixiy obidalardan huzurlandi, madaniy dam oldi. Go‘zallikdan umriga umr qo‘shildi.


Shunday ekan, G‘arb va Yevropa mamlaktlarida bog‘cha yoshidan o‘quvchiga tasviriy san’at asarini o‘qish, undan “huzurlanish” tuyg‘usi singdiriladi. Jumladan, jahon adabiyotini yetuk namoyondasi, fransuz yozuvchisi Antuan De Sent Ekzyuperi (1940-1944-yil) Fransiyaning Leon shahrida tug‘ilgan. Havo kuchlarida harbiy uchuvchi bo‘lgan. Bo‘sh vaqtlarida adabiyot, musiqa, ixtirochilik bilan shug‘ullandi. 1944-yil 31-iyulda so‘nggi parvozga chiqadi. Uning samolyotini fashist qiruvchisi urib tushuradi. Bu fojeali voqea Fransiya ozodlikka chiqishiga 3 hafta qolganda yuz beradi… uning bolalarga atab yozgan “Kichkina shahzoda” ertak-qissasi jahon adabiyotidagi falsafiy ramziy harakterga xos tasviriy san’at asarining yuksak namunasidir. Asarda tasviriy san’at bilan bog‘liq voqea muallif tilidan ta’sirli tasvirlangan. Uchuvchi 6 yoshli paytida o‘rmonlar haqida hikoya qiluvchi “Bo‘lgan voqealar” kitobini o‘qiydi. Kitobda bahaybat bo‘g‘ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklayin yutayotgani aks etgan edi. Sur’at tagiga shunday yozilgan edi: “ilon o‘ljasini chaynab o‘tirmay but-butunicha yutib yuboradi”… hamda hazm qilib bo‘lguncha yarim yil qotib uxlaydi. Bu rasm bolaga ta’sir qiladi hamda o‘zi ko‘rganlari haqida u ham uzoq hayol surib “rangli qalam bilan umrida birinchi marta rasm chizadi”. Ijodini namunasini kattalarga ko‘rsatib qo‘rqinchili emasmi deb so‘raydi:

– “Shlyapaning nimasi qo‘rqinchili ekan” , deb e’tiroz bildirishdi menga.


Ammo, rasmdagi narsa shlyapa emas edi. Bu – filni tiriklayin yutib yuborgan bo‘g‘ma ilon edi. O‘shanda kattalarga tushunarli bo‘lsin deb ilonning ichki ko‘rinishini ham chizdim. Axir, kattalarga doim hamma narsani tushuntirib berish kerakda.

–Bu mening ikkinchi raqamli rasmim edi. Kattalar menga ilonlarning ichki, tashqi ko‘rinishini chizish o‘rniga jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnihatni ko‘proq o‘rganishni maslahat berdi. Ana shundan keyin 6 yoshar paytimda rassomlikning porloq istiqbolidan vos kechishga majbur bo‘ldim.

“1-va 2- raqamli rasmlarim muvaffaqiyatsizlikka uchragach o‘zimga nisbatan ishonchimni yo‘qotdim”. [5.B.69]





1- rasm



2-rasm

Bola butunlay kattalar ta’sirida “rassom”lik kasbidan vos kechadi, qobiliyati so‘ndiriladi. Ammo, muallif yoshi ulg‘ayib, samolyotda kimsasiz sahroga qulab tushganda, osmondan tushgan “Kichkina shahzoda”: - Iltimos… qo‘zichoq chizib ber- dedi.

Uchuvchi cho‘ntagidan qog‘oz, qalam oladi-yu, bolaligida asosan jug‘rofiya, tarix, arifmetika, husnihat o‘rgangani esiga tushib, rasm chizishni bilmasligini aytadi. U sur’at chizishni bilmaganligi uchun 6 yoshlik davridagi bug‘ma ilon, filni unga chizib ko‘rsatadi. Bola ilon ham, fil ham kerak emasligi, qo‘zichoq chizib berish kerakligini iltimos qiladi… Noiloj orriq qo‘zichoq, qo‘chqor qo‘zichoq, qari qo‘zichoqni


chizib beradi, ammo unga rasmlar yoqmaydi. Noiloj quticha chizib, uning ichida qo‘zichoq bor deb vaziyatdan qutuladi.

Bu olingan iqtiboslar bugungi bizninmg ta’lim tizimimizda uchraydigan salbiy qusurlardir. O‘qituvchi boladagi tasviriy san’atga bo‘lgan qobiliyat, qiziqish borligiga e’tibor qaratmaydi. O‘quvchidagi ishtiyoqni so‘ndiradi. Muammoning yechimi bolani 1, 2-raqamli rasmlarini ota-ona, “kattalar”, o‘qituvchi rag‘batlantirishi, maqtashi, to‘g‘ri maslahat berishi yana bolani ijodkorlikka yo‘llagan bo‘lardi.

Jumladan , ta’limning barchga bosqichlarida Alisher Navoiy ijodi o‘rganiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda adabiyotshunos olim B.To‘xliyev, D.To‘xliyevalar “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” albomini tuzdi. Qo‘llanmada buyuk shoir, mutafakkir hayoti va ijodi ixcham tarzda aks ettirilgan. U umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’limning adabiyot o‘qituvchilari uchun muhim o‘quv qo‘llanmadir.

“Kitobda Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish uchun muhim bo‘lgan ko‘rgazmali materiallarning bir qismini jamlashga harakat qilindi. Uni tuzishda yirik navoiyshunos olimlar H.Sulaymonov, F.Sulaymonovalar tomonidan nashr etilgan albomlardan, A.Abdullayev, Ch.Ahmarov, O.Boboyev, T. Sa’dullayev, G.Shoboratov, M.Qo‘ziboyev, A.Krikade singari mo‘yqalam ustalari ijodidan, shuningdek, ayrim internet materialllaridan foydalanildi”[4.B .56]

Mazkur albomda “Navoiy Hirotda” , “Navoiy va Sharofiddin Ali Yazdiy uchrashuvi”, “Navoiy va Boyqaro maktabda”, “Navoiy Husayn Boyqaro huzurida”, “Navoiy chizgan zanjirband she’r” va boshqa “Xamsa” dotoniga ishlangan rasmlar tasviri berilgan. O‘qituvchi mazkur asarlarni adabiyot darslarida qo‘llash kerak.

Xullas, adabiyot darslarini o‘tishda tasviriy san’at fani bilan

uyg‘unlashgan holatda tashkil etishi bugungi kunda ta’limdagi zamonaviy metodlarni qo‘llashdagi eng muhim vositadir. Buning uchun muammoning yechimini yechish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Adabiyot fani o‘qituvchisi tasviriy san’at fanidagi nazariy bilim, malakalarni belgilovchi mezonlarni bilishi lozim (ranglar, san’atdagi motiv, ramz, tasviriy ifoda, vositalari).
2. Tasviriy san’at to‘garaklarini maktablarda tashkil etish, “Barkamol avlod” markazlariga sinfdan tashqari bo‘sh paytlarida o‘quvchilarini jalb etish.
3. Adabiyot darslarini o‘tishda peyzaj, portret kabi nazariy tushunchalarni yod oldirish.
4. O‘lkamizdagi 4 fasl-kuz, qish, bahor, yoz fasllariga ekskursiyalar uyushtirish, rasmlar chizdirib, qayta hikoyalash usullaridan foydalanish zarur.

Xullas, maktabda adabiyot fanlarini o‘tishda tasviriy san’at fani bilan bog‘lab o‘rganish bugungi innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi zamonaviy darslardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.N.Oripov “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi”-T. “O‘qituvchi”, 2004 y.
2. Q.Husanboyeva va boshqalar. “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi”-T. “Innovatsiya Ziyo”, 2020 y.
3. O‘.Tolipv va boshqalar “Pedagogik texnologiyalarining tadbiqiqiy asoslari”- T. “Fan”, 2006 y.
4. B.To‘xliyev, D.To‘xliyeva. “Alisher Navoiy hayoti va ijodi”-T. “Bayoz”, 2013 y.
5. S.Ahmedova va boshqalar. 5-sinf 2-qism darslik Adabiyot T. “Sharq” , 2014
6. Komiljon Abdullayev.(2021).Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiyalardan foydalanish. Nodirabegim.
7. Oybek .(1976).Navoiy romani 19 tomlik VI to‘m. Fan.
8. M.Jamoliddinov.(2005).Ummumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘rgatish.Fan va texnologiya.

O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

B.Abdurahmonova,
Qo‘qon DU dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilar savodxonligini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarning yechimida yangi avlod darsliklarining ahamiyati xususidagi fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, savodxonlik, faollik, metodik ta’minot.

Annotation: This article presents ideas on the importance of new generation textbooks in solving the issues related to the development of literacy in students during language and literature lessons.

Keywords: textbook, literacy, activity, methodological support.

Yosh avlodni ma’nan va jismonan ruhan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda “sifatli ta’lim berishning yoshlar ijodiy tafakkuri va bilimini oshirishga rag‘bat uyg‘otishi, savodxonlik va hisob malakalarini, tahlil qilish, fikrlash hamda shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini qaror toptirishi”[1] zarurligi alohida ta’kidlangan. Bu,albatta, ona tili va adabiyot ta’limi oldiga milliy metodikani davr talablari asosida yangilashni, uzluksiz ta’lim oldiga esa kompetensiyaviy yondashuv bilan bog‘liq vazifalarni qo‘ydi.

Umumta’lim maktablarida ona tili va adabiyot ta’limini o‘rgatishda o‘quvchi oldiga bir qator talablar qo‘yilgan. Bu borada metodist olim F.Saydullayev quyidagi ilmiy mulohazalarni keltiradi: “O‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi hamda matnni adekvat anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga erishish yo‘llarini belgilashni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quv materiali, tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatishni ta’minlashi, o‘quvchilarning o‘qimishlilik darajasi, savodxonligi va vaqt kabi didaktik omillarni hisobga olishi lozim”[2,226].

O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ona tili va adabiyot ta’limining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u tilning o‘ziga xos xususiyatlari, ma’no tovlanishlari va badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Og‘zaki nutq adabiy tilning orfoepik; yozma shakli esa orfografiya

va uslub kabi me’yorlariga mos holda shakllantirishni taqozo etadi. Nutq madaniyatini tarkib toptirishda adabiy til me’yorlariga amal qilinishi, xususan, muayyan tildagi so‘zlar, ularning qurilishi, yasalishi va o‘zgartirish modellari, so‘z birikmalari hamda gapni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish tushuniladi. Bu borada metodist olim A.Hamroyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi –gapiruvchi va qabul qiluvchi – tinglovchi ishtirok etadi”[3,148].

Haqiqatan ham, so‘z, so‘z birikmasi va gap subyektlar nutqiy jarayonining muhim qurolidir. Talaffuz xususiyati so‘zlovchining, eshitilishi tinglovchining muayyan maqsadiga, ya’ni fikrini uzatishga xizmat qiladi. Verballik jonli nutq ifodasi bo‘lsa, vizuallik yozma nutqqa xos muhim xususiyatdir.

Ona tili va adabiyot dars mashg‘ulotlarida darsliklarda berilgan matnlar bilan uzviy ishlash o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini izchil va to‘g‘ri rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero nutq insonning fikrlash tarzi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, u bilan yo‘l-yo‘lakay emas, balki izchil va muntazam shug‘ullanishni talab etiladi.

Yuqori sinf o‘quvchilarini oliy ta’limga tayyorlashda darsliklar alohida o‘rin tutadi. Maktab darsliklari bilan ishlashning dastlabki bosqichida o‘quvchilarga bob, paragraf va undagi bo‘limlarni bir-biridan ajrata bilishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o‘quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik sarlavhalarni o‘qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmunini izohlab beradi.Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri - o‘quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar bu vazifani sifatli bajarishi uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo‘lini yaxshi anglab olishlari uchun ham darslikka murojaat qilishlari tabiiy hol. O‘qituvchi uy vazifasini berishda va uning xarakterini belgilashda o‘quvchilarning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olishi, beriladigan vazifa oldingidan ko‘ra murakkab bo‘lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o‘rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil tayyorlash namunalaridan hisoblanadi. O‘quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o‘rgatish ham ona tili va adabiyot ta’limidagi muhim jihat hisoblanadi. Bu o‘rinda o‘quvchilarni mundarijani qayta-qayta ko‘rishga chorlash va shu asosda

darslik mazmuni haqidagi dastlabki tasavvurni hosil qildirish jarayonni birmuncha osonlashtiradi.

O‘quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri ularning o‘qituvchi bayon qilgan yangi materialni o‘zlashtirishda o‘z bilimlarini ishga sola bilishidir. Har bir darsda o‘quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o‘rgatish lozim. O‘quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e’tibori darslik matniga tortiladi hamda uzoq o‘tilgan mavzular va yaqin o‘tilgan mavzular bo‘yicha tez-tez savol-javoblarning tashkil qilib turilishi jarayonning samaradorligini oshiradi.

Darslik o‘qituvchi uchun emas, avvalo, o‘quvchi uchun yaratiladi. U o‘quvchining dars jarayonida va uy vazifasini bajarishda foydalanadigan asosiy o‘quv quroli dir. Lekin o‘quvchining asosiy o‘quv quroli va vositasi, bilimlarning asosiy manbai bo‘lgan darslikning roli va ahamiyati hozirgi globallashuv va axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda bir muncha ta’siri pasayganligi sir emas.Vaholanki,darslik ta’limiy, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi pedagogik funksiyalarni bajaradi. Uning ta’limiy funksiyasi ta’lim oluvchilarning fan asoslarini egallashiga va o‘rganganlarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ya’ni, darslikdan o‘quvchi nazariy bilim va ma’lumotlar berishdan tashqari amaliy tajriba va malakalar hosil qilishi lozim. Darslikning tarbiyaviy funksiyasi ta’lim va tarbiyaning uzviyligi va har doim birligiga asoslanadi. Darslik yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli, yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalashi lozim. Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri – o‘quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o‘rgatishdir.

Yangi avlod ona tili va adabiyot darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimi sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- ona tili va adabiyotdan o‘quv fani mavzularining mukammal o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- asosiy, qo‘shimcha va izohlovchi matnlar, matndan tashqari komponentlarni dars maqsadiga muvofiq o‘zaro uyg‘un o‘zlashtirish;
- o‘qitishning interfaol usullaridan unumli foydalanish;
- o‘quvchilarning yangi avlod ona tili va adabiyot darsliklarini puxta o‘zlashtirishi uchun qulay muhit yaratish, o‘qish va bilimlarini oshirib borish uchun motivasiya berib borish;
- bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ona tili va adabiyot fanini o‘qitish uchun ajratilgan akademik soatlarga mos bo‘lishi;
- ona tili va adabiyot mashg‘ulotlarida yangi avlod darsliklaridan foydalangan holda o‘quvchilarga vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni

singdirish;

-dars mashg‘ulotining barcha bosqichlarida darslik matniga qayta-qayta murojaat qilish o‘quvchilar bilim darajalarini oshirishga va o‘rganganlarini xotirada mustahkam saqlanib qolishiga xizmat qilishi zarur.

O‘quv materialini kompyuterda namoyish qilish ushbu materialni vizualizatsiya qilish uchun katta imkoniyatlarga ega kimyo o‘qituvchisi allaqachon reaktivlardan foydalanmasdan kimyoviy tajribalar o‘tkazish imkoniyatiga ega. Elektron xarita bilan ishlashni tashkil etuvchi geografiya o‘qituvchisi bolalar bilan birgalikda dunyoning istalgan nuqtasiga tashrif buyurishi mumkin. O‘quv materialini kompyuterda namoyish qilish ushbu materialni vizualizatsiya qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Tarix o‘qituvchisi davrdan davrga sayohat qilishga, tarixiy jaryonlar va bo‘lib o‘tgan janglar va urush tafsilotlarini har tamonlama yetkaza olish imkoniga ega bo‘ladi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining ham xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan keng foydalanishi juda zaruriy ehtiyojga aylandi.

Yangi avlod darsligida, albatta, ilova sifatida elektron vosita shaklida taqdim etilishi mumkin bo‘lgan materiallar bo‘lishi kerak. Bunday holda, har bir o‘quvchi o‘zining bilimi va imkoniyatlari qaysi darajada ekanligini aniqlashga, o‘zini nazorat qilish va fan bo‘yicha ta’limiy salohiyatini baholashga odatlanishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards and equitable quality education and lifelong learning for all/Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea.
2. Saydullayev F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqiga qo‘yiladigan lingvodidaktik talablar. Modern science and research. – b.226
3. Ҳamroev A.R. Ona tili taъlimida ўқuvчilarning ijodiy faoliyatini loyiҳalashtirish: Ped. fan. dokt. (DSs) diss. – Toshkent: 2020. – 148-b.

ELEKTRON ADABIYOT DARSLIKLARI: IMKONIYAT VA MUAMMOLAR

Jumanova Shaxnoza Ikromjonovna,
Qo‘qon universiteti dotsenti, (PhD)
e-mail: shahnozajumanova13081989@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada elektron adabiyot darsliklarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning samaradorlik jihatlari hamda mavjud muammolar tahlil qilingan.

Xususan, elektron darsliklarning o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, adabiy tafakkurni kengaytirish va axborotga tezkor kirish imkoniyatlarini yaratishdagi afzalliklari ochib beriladi. Shuningdek, elektron resurslardan foydalanishda uchraydigan didaktik, texnik va metodik qiyinchiliklar yoritilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqotda xorijiy tajriba va milliy amaliyot qiyosiy tahlil qilingan hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, adabiyot ta’limi, raqamli ta’lim resurslari, interfaol metodlar, mustaqil ta’lim, adabiy tafakkur, innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida raqamli resurslardan foydalanish global ehtiyojga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta’lim jarayonida elektron resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitishda elektron darsliklar o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni tezkor qabul qilish, badiiy matnlarni interfaol usulda o‘rganish hamda mustaqil tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar ham raqamli ta’lim resurslaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, umumta’lim maktablarida elektron darsliklarni joriy etish bo‘yicha dasturlar hamda o‘quv jarayonini elektron platformalarga integratsiya qilish tashabbuslari buning yaqqol dalilidir. Ushbu jarayon o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bois, elektron adabiyot darsliklarining imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilish, ularning samarali qo‘llanilish yo‘llarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Elektron darsliklarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi bir qator global va mahalliy omillar bilan izohlanadi. Avvalo, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida dunyo ta’lim tizimi raqamli resurslarga tobora ko‘proq tayanmoqda. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida axborotni tezkor qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoji, o‘qituvchilarning esa ta’limni interfaol shakllarda tashkil etishga intilishi elektron darsliklarning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, an’anaviy darsliklarning hajman cheklanganligi va ular orqali o‘quvchilarda ijodiy hamda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari yetarli emasligi ham elektron darsliklarga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Elektron formatdagi resurslar

multimediya, interaktiv mashqlar, audio va video materiallar, test topshiriqlari kabi qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratib, ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimida individual yondashuvga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ham elektron darsliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Chunki elektron resurslar o‘quvchilarning bilim darajasiga moslashtirilgan holda foydalanish imkonini beradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, elektron ta’lim platformalarini yaratish va darsliklarni elektron shaklda joriy etish bo‘yicha tashabbuslar ham bu jarayonni tezlashtirdi.

Demak, elektron darsliklarning ta’lim jarayonida paydo bo‘lishi ilmiy-texnik taraqqiyot, ta’lim sifati va samaradorligiga qo‘yilgan zamonaviy talablar, shuningdek, davlat miqyosidagi islohotlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Elektron darslik – bu ta’lim jarayonida raqamli qurilmalar orqali foydalaniladigan interfaol ta’lim resursi bo‘lib, unda matn, audio, video, test va grafik materiallar uyg‘unlashadi. Ularning asosiy xususiyatlari – interaktivlik, multimedia imkoniyatlari, tezkor yangilanish, foydalanuvchiga moslashuvchanlik va ta’lim jarayonini nazorat qilish imkoniyatlaridir. [1,45] An’anaviy darsliklar statik va hajman cheklangan bo‘lsa, elektron darsliklar multimedia elementlari, avtomatik baholash va yangilanib turish xususiyatlari bilan farqlanadi. Elektron resurslar o‘quvchilarni mustaqil ishlashga undaydi, ammo texnik sharoit va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli bo‘lmasa, samaradorlikka to‘sqinlik qiladi.[2.112]

Adabiyot fanida elektron darsliklar matn tahlilini interfaol qilish, multimediya orqali badiiy idrokni kengaytirish, test va topshiriqlar bilan bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, havolalar orqali qo‘shimcha resurslarga kirish va ijodiy topshiriqlar bajarish o‘quvchilarning adabiy tafakkurini rivojlantiradi.

Adabiyot darsliklarining elektron shakllari o‘quvchilarda mustaqil o‘qish va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darsligining elektron variantida berilgan matnlar yonida qo‘shimcha havolalar va izohli lug‘atlar mavjud. Bu imkoniyat o‘quvchini darsdan tashqari vaqtida ham mustaqil o‘rganishga undaydi. Masalan, *Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”dan parcha* ustida ishlashda, elektron darslik izohli tushuntirishlar va sharhlar orqali o‘quvchining mustaqil izlanishini ta’minlaydi. [3.42] An’anaviy darsliklarda matn tahlili ko‘proq savol-javob yoki yozma topshiriqlar asosida bo‘lsa, elektron darsliklarda interfaol topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, 7-sinf “Adabiyot” darsligining elektron variantida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari ustida ishlash jarayonida matnning qahramonlari harakatlarini tahlil qilish

uchun test va grafik organizerlar qo‘shilgan. Bu esa oddiy o‘qish emas, balki matnni tahliliy idrok etish imkoniyatini beradi. [4.56].

Adabiyot darslarida elektron shakldagi darsliklarning eng katta yutug‘i — multimedia imkoniyatlari. Masalan, 8-sinf darsligi elektron variantida Alisher Navoiy g‘azallarini mashhur hofizlar ijrosida tinglash yoki Cho‘lponning “Go‘zal” she’rini aktyorlar ifodasida tomosha qilish imkoniyati berilgan. Bu o‘quvchining nafaqat asarni o‘qib, balki uni hissiy idrok etishiga yordam beradi. Shuningdek, 10-sinf darsligida Abdulla Qahhor asarlari sahnalashtirilgan videolavhalar bilan boyitilgan bo‘lib, bu asar ruhiyatini chuqurroq his qilishga xizmat qiladi. Elektron darsliklar o‘quvchining estetik didini shakllantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, 9-sinf “Adabiyot” darsligi elektron shaklida Oybekning “Navoiy” romanidan parchalar nafaqat matn ko‘rinishida, balki turli san’at asarlari — miniatyuralar, portretlar, tarixiy hujjatlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu o‘quvchilarda badiiy-estetik idrokni yanada chuqurlashtiradi. Elektron shakldagi adabiyot darsliklari shu tarzda matn, multimedia va interfaol topshiriqlar uyg‘unligida nafaqat bilim, balki estetik did, adabiy tafakkurni ham shakllantiradi.

Shu bilan birga, o‘rganishlar natijasida ulardan foydalanish yuzasidan bir qancha muammoli holatlarga duch keldik. Maktablarda elektron adabiyot darsliklarini to‘liq joriy qilishda eng katta to‘siqlardan biri — texnik jihozlanish va internet tezligi masalasi. Masalan, ayrim hududiy maktablarda elektron darslikning to‘liq yuklanmasligi, multimediali materiallarning ishlamasligi kuzatiladi. Bu holat 5–7-sinf adabiyot darsliklarining elektron variantidan foydalanishda dars samaradorligini pasaytiradi. O‘quvchilar asar matnini o‘qishi mumkin, lekin video yoki audio qo‘shimchalardan foydalana olmaydi. [5.14] Adabiyot fanini o‘qituvchi pedagoglarning barchasi ham elektron darslik imkoniyatlaridan samarali foydalana olmayapti. Masalan, 7-sinf adabiyot darsligi elektron variantida interfaol topshiriqlar (grafik organizer, “drag and drop” testlari) mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab o‘qituvchilar ularni faqat qo‘shimcha test sifatida ishlatish bilan chegaralanib qolmoqda. Bu esa elektron resurslarning didaktik imkoniyatlari to‘liq ishga solinmayotganini ko‘rsatadi. Elektron darsliklarning yana bir salbiy jihati — o‘quvchilarning e’tiborining tez chalg‘ishi. Masalan, 10-sinf adabiyot darsligi elektron variantida Abdulla Qahhorning hikoyasi berilgan bo‘lsa, yonida havola qilingan videolavha yoki qo‘shimcha materiallar o‘quvchini matndan uzoqlashtirishi mumkin. Natijada asarning asosiy g‘oyasi chuqur idrok qilinmay qoladi. Shu bilan birga, elektron darslikka haddan tashqari ko‘p multimedia yuklanishi ham o‘quvchilarni ortiqcha axborot bilan charchatadi.

Bundan tashqari, 8-sinf adabiyot darsligi elektron variantida Cho‘lpon she’rlariga kiritilgan audio materiallar o‘quvchilarda matnni hissiy idrok

etish samaradorligini oshiradi. Ammo bunday qo‘shimcha vositalar barcha boblarda emas, faqat ayrim mavzularda mavjud. Demak, metodik jihatdan bir xil taqsimot yo‘q.[6.75]

G.A.Botirbekova elektron darsliklarning interfaolligini “o‘quvchida mustaqil izlanish motivatsiyasini kuchaytiradi” deya baholagan (1.7] Lekin O‘zbekiston maktablaridagi elektron adabiyot darsliklari misolida ko‘ramizki, ushbu interfaol topshiriqlar ko‘pincha faktologik savollar bilan chegaralangan. Bu esa o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantirishda cheklangan imkoniyatlar yaratmoqda. [7.92]

M.Elboyeva o‘z maqolasida texnologik yondashuv asosan grafik organizer va interfaol topshiriqlarga tayanishini ko‘rsatadi [8.163]. Maktab adabiyot darsliklari uchun esa gamifikatsiya elementlari (masalan, ball yig‘ish, reyting tizimi, darajalar bosqichi, virtual belgilar) joriy etilishi darslikning motivatsion ta’sirini yanada oshiradi. Bu usul hozirgi elektron darsliklarda deyarli qo‘llanmagan bo‘lsa-da, istiqbolli yondashuv sifatida taklif etilishi mumkin. Chunki o‘quvchilar, ayniqsa, o‘rta va yuqori sinflarda raqamli texnologiyalarga yaqin bo‘lganligi sababli, o‘yinlashtirilgan topshiriqlar orqali badiiy matnni o‘rganishga qiziqish bilan yondashadilar.

Gamifikatsiya nafaqat o‘quvchilarning adabiyot faniga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, balki ularning raqobatbardoshlik, hamkorlikda ishlash, ijodkorlik kabi ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, “Alpomish” dostoni yoki Cho‘lponning she’riyati asosida interaktiv viktorina va testlar ishlab chiqilishi o‘quvchilarning badiiy matnga bo‘lgan e’tiborini kuchaytiradi. Bundan tashqari, bunday yondashuv orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki adabiy tafakkur va estetik didni shakllantirishga ham erishiladi.

Elektron adabiyot darsliklarining samarali qo‘llanishi, avvalo, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasiga bog‘liqdir. Shu bois o‘qituvchilar uchun maxsus trening dasturlari ishlab chiqish va ularni muntazam ravishda amaliy seminarlar orqali qo‘llab-quvvatlash zarur. Masalan, adabiyot darslarida elektron darslikdan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar tayyorlanishi, ularda nafaqat texnik, balki metodik yechimlar (matn tahlili, ijodiy topshiriqlarni interfaol shaklda o‘tkazish) ham ko‘rsatib berilishi lozim. Bu esa o‘qituvchilarning dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Elektron adabiyot darsliklari o‘quv dasturlari va Davlat ta’lim standartlari bilan uzviy bog‘lanishi kerak. Aks holda, ular qo‘shimcha resurs sifatida qolib ketadi. Shu maqsadda darsliklarni ishlab chiqishda filolog olimlar, metodistlar, IT mutaxassislar va maktab o‘qituvchilari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, elektron darslikka kiritiladigan multimediali materiallar, interfaol topshiriqlar va testlar o‘quv dasturi

maqsadlari bilan to‘liq uyg‘unlashsa, uning ta’limiy samarasi sezilarli darajada ortadi.

Kelajakda elektron adabiyot darsliklarini samarali qilish uchun gamifikatsiya elementlari (ball yig‘ish, reyting, mukofot tizimi), virtual kutubxonalar (klassik asarlarning elektron fondi), hamda sun’iy intellekt asosidagi yordamchilarni joriy etish istiqbollari mavjud. Masalan, o‘quvchi Navoiy g‘azalini o‘rganayotganda sun’iy intellekt uni izohlaydigan, she’rning mazmunini sodda qilib tushuntiradigan qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunday yondashuv adabiyot darsini o‘quvchi uchun qiziqarli va interfaol tajribaga aylantiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, elektron darsliklarni faqat resurs sifatida emas, balki kompleks elektron ta’lim ekotizimi tarkibida rivojlantirish zarur. Masalan, Janubiy Koreya, Turkiya va Finlyandiya maktablarida adabiyot darsliklari elektron platformalar bilan integratsiya qilingan: o‘quvchilar nafaqat darslikdan foydalanadi, balki virtual kutubxonadan asarlarni o‘qiydi, muhokama forumlarida ishtirok etadi. O‘zbekistonda ham milliy elektron ta’lim platformalarini rivojlantirish, ularni adabiyot faniga moslashtirish zarur. Bu yo‘nalishda xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlar uyg‘unlashtirilsa, elektron adabiyot darsliklari yangi bosqichga ko‘tariladi.

Elektron adabiyot darsliklari zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, estetik didini rivojlantirish hamda matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida an’anaviy darsliklarga nisbatan elektron shakldagi darsliklarning bir qator ustunliklari (multimedia imkoniyatlari, interfaol topshiriqlar, qo‘shimcha izohlar, mustaqil ta’limni rag‘batlantirish) aniqlangan bo‘lsa, shu bilan birga ayrim muammolar ham mavjudligi qayd etildi. Jumladan, texnik infratuzilma yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi, didaktik va metodik nuqsonlar, hamda o‘quvchilarda e’tiborning tez chalg‘ishi kabi masalalar alohida tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, elektron adabiyot darsliklari an’anaviy ta’limni inkor etmaydi, balki uni boyitadi, interfaollik va multimedia orqali dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari elektron resurslarni takomillashtirish va ularni o‘quv jarayoniga keng joriy etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botirbekova, G. A. (2021). Elektron darsliklar: innovatsion texnologiyalarning turi sifatida. *CyberLeninka*.

2. O‘g‘li, S. F. M. (2024). Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda elektron darslikning o‘rni. *CyberLeninka*.

3. 5-sinf “Adabiyot” darsligi, 2019
4. 7-sinf “Adabiyot” darsligi, 2020
5. 6-sinf “Adabiyot” darsligi, 2020
6. 8-sinf “Adabiyot” darsligi, 2021
7. 9-sinf “Adabiyot” darsligi, 2021
8. Elboyeva, M. (2022). Adabiyot ta’limida texnologik yondashuvning metodik xususiyatlari. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 4(2), 160–165.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ONA TILINI O‘QITISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA ETNOESTETIK MADANIYAT UYG‘UNLIGI

Erkinjonova Guljaxon Farxodjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti
ms.guljahon92@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ona tili ta’limini milliy qadriyatlar va etnoestetik madaniyat uyg‘unligida tashkil etish masalalari yoritilgan. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni asrash va yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash ta’lim tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda. Ona tili darslarini milliy meros, xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot va san’at namunalariga boyitish talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki estetik didi, ijodiy tafakkuri va milliy iftixorini ham rivojlantiradi. Maqolada etnoestetik yondashuvning nazariy asoslari, uni ona tili ta’limiga integratsiya qilish imkoniyatlari hamda pedagogik metod va texnologiyalar orqali qo‘llash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ilmiy qarashlar asosida milliy qadriyatlarni ta’lim mazmuniga singdirishning afzalliklari tahlil qilingan va bo‘lajak pedagoglar uchun metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar : Ona tili, milliy qadriyatlar, etnoestetik madaniyat, estetik tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, san’at, ta’lim samaradorligi, ijodiy tafakkur, pedagogik metodlar, integratsiya, estetik did, milliy o‘zlik, innovatsion texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar.

Abstract

This article discusses the issues of organizing the teaching of the native language in harmony with national values and ethno-aesthetic culture in the process of training future teachers. The relevance of the topic lies in the fact that in the context of globalization, preserving national identity and educating young people in an aesthetic spirit has become one of the main tasks of the education system. Enriching native language lessons with national heritage, folklore, literary and artistic samples

develops not only students’ linguistic knowledge but also their aesthetic taste, creative thinking, and sense of national pride. The article highlights the theoretical foundations of the ethno-aesthetic approach, its integration into native language teaching, and the ways of applying it through pedagogical methods and technologies. In addition, the advantages of incorporating national values into the content of education are analyzed, and methodological recommendations are provided for future teachers.

Keywords: Native language, national values, ethno-aesthetic culture, aesthetic education, folklore, literature, art, educational effectiveness, creative thinking, pedagogical methods, integration, aesthetic taste, national identity, innovative technologies, creative tasks.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni asrash va ularni yosh avlod ongiga singdirish masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, ona tili ta’limi nafaqat til bilimlarini o‘zlashtirishni, balki o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglash jarayonini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Til orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy meros o‘z ifodasini topadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ona tilini o‘qitish metodikasiga etnoestetik yondashuvni uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’lim tizimini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish zarurligini ta’kidlab, “Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning qalbi va ongida ona tilimizga mehr, madaniyatimiz va an’analarimizga sadoqatni kuchaytirish – kelajagimiz poydevoridir”, deya qayd etgan [1]. Bu fikr ona tili ta’limini milliy va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘lash zaruriyatini ko‘rsatadi.

Pedagogika fanlari doktori N. Mahmudovning ilmiy izlanishlarida ham til ta’limi jarayonida milliy madaniy merosni o‘rgatishning zarurligi alohida ta’kidlanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarga til vositasida milliy qadriyatlarni yetkazish ularning tafakkurini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va milliy o‘zlikni anglashga yordam beradi [2]. Shuningdek, professor O. Yoqubov ona tili ta’limida estetik tarbiya masalalarini tadqiq etib, o‘quv jarayonida xalq og‘zaki ijodi, adabiy meros namunalaridan foydalanish nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki milliy o‘zlikni tarbiyalashda ham samarali vosita ekanini ko‘rsatadi [3]. Ushbu qarashlar bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlov jarayonida etnoestetik yondashuvni qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ekanini tasdiqlaydi. Shu asosda tadqiqotimizning dolzarbligi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ona tili ta’limida milliy qadriyatlar va etnoestetik madaniyat uyg‘unligini ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi. Bu esa nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki yoshlar qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi.

Etnoestetik madaniyat tushunchasi zamonaviy pedagogika va madaniyatshunoslikda keng qo‘llaniladigan ilmiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u milliy qadriyatlar, estetik qarashlar va madaniy merosni bir butun holda talqin etishga imkon beradi. Etnoestetika mohiyatan xalqning urf-odatlari, marosimlari, badiiy ijodi va milliy ramzlari orqali estetik dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon shaxsning nafaqat badiiy didini, balki milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat va sadoqatini ham tarbiyalaydi. Ona tili ta’limi esa o‘zining ichki mohiyatidan kelib chiqib, tilni estetik idrok qilish, xalq og‘zaki ijodidagi go‘zallikni anglash, milliy adabiyot namunalaridan ta’sirlanish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli etnoestetik madaniyatni ona tili ta’limiga integratsiya qilish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ma’naviy-estetik qadriyatlarni ham o‘quvchilarga yetkazishning samarali vositasiga aylanadi. Mazkur integratsiyani samarali yo‘lga qo‘yish masalasi o‘zbek olimlari tadqiqotlarida ham alohida o‘rin egallagan. Jumladan, R. Qodirova nutq madaniyati va estetik tarbiya masalalarini o‘rganar ekan, yoshlarning nutqini rivojlantirish jarayonida milliy adabiy meros va estetik qadriyatlardan foydalanish o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni kuchaytirishini, estetik didni shakllantirishini ta’kidlaydi [4]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tili ta’limida etnoestetik yondashuvni qo‘llash bir vaqtning o‘zida ikki asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, o‘quvchilarni milliy madaniyat ruhida tarbiyalaydi, ikkinchidan, ularning nutqiy kompetensiyasini estetik qamrovda shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini boyitib, ularning dars jarayonida estetik muhit yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, etnoestetik madaniyatni ona tili ta’limiga integratsiya qilish talabalarning amaliy faoliyatida ham bevosita namoyon bo‘ladi. Ular xalq og‘zaki ijodi, milliy qo‘shiqlar, maqollar va dostonlardan foydalanish orqali darslarni nafaqat mazmunan, balki shaklan ham estetik jihatdan boyitishlari mumkin. Shu tariqa, til ta’limi jarayoni milliy-estetik qadriyatlar asosida tashkil etilganda, bo‘lajak pedagoglar nafaqat bilim egasi, balki milliy madaniyat tashuvchisi sifatida shakllanadi, bu esa keyingi bosqichlarda ularning etnoestetik madaniyatni rivojlantirish yo‘lidagi faoliyatini yanada samaraliroq qilishga zamin yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik yondashuvni shakllantirish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki turli metod va texnologiyalar asosida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham talab etadi. Ona tili ta’limida etnoestetik tarbiyani samarali amalga oshirish uchun interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va milliy madaniy merosga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Masalan, o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan ishlashga yo‘naltirish, milliy adabiyot namunalarini dars jarayonida tahlil qilish, teatr

sahnalashtirish yoki ijodiy yozma mashqlar orqali estetik ifodani shakllantirish nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki milliy qadriyatlarga bo‘lgan mehrni ham kuchaytiradi. Shuningdek, elektron resurslardan foydalanish, raqamli texnologiyalar yordamida xalq madaniyatiga oid materiallarni vizual ko‘rinishda taqdim etish o‘quvchilarda estetik idrokni yanada kuchaytiradi.

Metodlar ichida integrativ yondashuv alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunda til, adabiyot, san’at, tarix va madaniyat fanlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitiladi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi faqat til bilimlarini emas, balki milliy-estetik qadriyatlarni ham yaxlit idrok etadi. Professor N. To‘rayev o‘z ilmiy ishlarida integrativ metodlarning samaradorligini asoslab, ularni qo‘llash ta’lim oluvchilarda estetik did, madaniy savodxonlik va milliy o‘zlikni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydi [5]. Shu bilan birga, etnoestetik yondashuvni shakllantirish jarayonida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, ularni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, milliy an’analarga oid ijodiy topshiriqlar berish ham muhim omil sanaladi. Bu esa bo‘lajak pedagoglarda milliy qadriyatlarni estetik asosda talqin qilish va uni o‘quvchilarga yetkazish malakasini shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, klaster, konseptual xarita, loyiha asosida ta’lim va keys-stadi kabi metodlar etnoestetik madaniyatni shakllantirishda samarali qo‘llanishi mumkin. Chunki bu metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, o‘z milliy qadriyatlarini tahlil qilib, zamonaviy talablarga moslashtira olishga o‘rgatadi. Ayniqsa, loyiha asosida ta’lim metodidan foydalanish orqali talabalar milliy madaniyat va estetik qadriyatlarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni kelajakda o‘quv jarayonini milliy ruhda tashkil etish, darslarda estetik muhit yaratish, o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga tayyorlaydi. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik yondashuvni shakllantirishning metodlari va texnologiyalarini samarali qo‘llash kelgusida ta’lim jarayonini sifat jihatidan boyitadi va bu jarayonning natijalari keyingi ilmiy-amaliy izlanishlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnoestetik yondashuvni shakllantirish jarayonini amaliy tajribalar va kuzatuvlar orqali o‘rganish ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ona tili va adabiyot darslarini o‘qitish jarayonida milliy qadriyatlar va etnoestetik yondashuv uyg‘unligi yetarlicha kuchli emas, ularning ko‘pchiligi nazariy tushunchalarni bilgan bo‘lsalar-da, amaliy faoliyatda estetik idrok va milliy merosni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odatlar va madaniy marosimlarni o‘quv jarayoniga samarali singdirish, darslarda estetik muhit yaratish ko‘nikmalari hali

to‘liq shakllanmaganini kuzatish mumkin. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlov jarayonida maxsus metodik yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlarning kuchaytirilishini taqozo etadi.

Ona tili ta’limida milliy qadriyatlar va etnoestetik yondashuv uyg‘unligini ta’minlash masalasini amaliy kuzatuv va ilmiy tahlillar asosida ko‘rib chiqish zarur, chunki bu jarayon nazariy asoslar bilan cheklanib qolmay, ta’limning mazmuni, shakli va metodlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida milliy madaniyat va estetik qadriyatlardan foydalanish o‘quvchilarda ona tilini chuqurroq anglash, uni milliy ruhda idrok etish va estetik didni rivojlantirishga yordam beradi. Bunda xalq og‘zaki ijodi, maqollar, dostonlar, adabiy meros namunalaridan foydalanish muhim vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular orqali yoshlar tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki ma’naviy-estetik qirralaridan ham o‘rganadilar. Psixolog olim G‘. Shoumarovning ta’kidlashicha, milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiya shaxsning ijtimoiy moslashuvi, nutqiy kompetensiyalari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bevosita muhim rol o‘ynaydi [6]. Demak, etnoestetik yondashuvni ta’lim jarayoniga singdirish o‘quvchilarda milliy merosga hurmatni kuchaytirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, tilni estetik ifoda vositasi sifatida anglash imkoniyatini kengaytiradi. Bu yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini ham sifat jihatidan yuksaltiradi, chunki ular dars jarayonida nafaqat til qoidalarini o‘rgatish, balki o‘quvchilarda milliy-estetik dunyoqarashni shakllantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ona tili ta’limida milliy qadriyatlar va etnoestetik madaniyatni uyg‘unlashtirish masalasi nazariy hamda amaliy jihatdan alohida e’tibor talab etuvchi yo‘nalishdir. Til ta’limi o‘zining mohiyatidan kelib chiqib, shunchaki lingvistik bilimlarni beruvchi fan emas, balki shaxsning milliy o‘zligini anglashini, estetik idrokini va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida talqin qilinishi lozim. Ona tili darslarini milliy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi va adabiy meros namunalariga boyitish orqali o‘quvchilar tilning ichki go‘zalligini his etadilar, uni milliy qadriyatlar bilan bog‘laydilar va estetik jihatdan anglaydilar. Shuningdek, etnoestetik yondashuv ta’lim jarayonida milliy iftixorni kuchaytirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va shaxsning nutqiy kompetensiyalarini estetik asosda shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning uzluksizligi va tizimliligi ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, bo‘lajak pedagoglarda milliy madaniyatni o‘quvchilarga yetkazish, darslarda estetik muhit yaratish va milliy o‘zlikni tarbiyalash kabi kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradi.

Tavsiyalar

1. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ona tili ta’limini milliy qadriyatlar va etnoestetik madaniyat uyg‘unligida o‘qitish bo‘yicha maxsus metodik yo‘nalishlarni shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni shu ruhda tayyorlash zarur;
2. O‘quv dasturlarida ona tili va adabiyot fanlarini estetik tarbiya bilan integratsiya qiluvchi maxsus kurslar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni joriy etish bo‘lajak pedagoglarning estetik dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi kerak;
3. Ta’lim muassasalarida dars xonalari, adabiyot to‘garaklari, san’at burchaklari va estetik ko‘rgazmalar joyi milliy qadriyatlar asosida tashkil qilinishi, ularning mazmuni talabalarni milliy estetik muhitda tarbiyalashga yo‘naltirilishi lozim;
4. O‘zbek xalqining boy estetik merosi — xalq og‘zaki ijodi, amaliy san’at namunalar, milliy liboslar va urf-odatlar — ona tili ta’limi jarayoniga kiritilishi, talabalarning bu materiallarni tahlil qilish va o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llashiga sharoit yaratilishi maqsadga muvofiq;
5. Pedagogik amaliyotlarda talabalar milliy adabiyot namunalarini, doston va she’riyatni etnoestetik nuqtayi nazardan o‘rganishi, ularni o‘quvchilarga milliy qadriyat ruhida yetkazish malakasini shakllantirishi lozim;
6. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun folklor motivli yozma ishlar, teatr sahnalashtirish, ifodali o‘qish mashg‘ulotlari kabi estetik topshiriqlar tizimli joriy etilishi zarur;
7. Ona tili ta’limi jarayonida talabalarning o‘z oilaviy muhitidagi estetik qadriyatlarni o‘rganishi, ularni pedagogik jarayon bilan bog‘lashga o‘rgatilishi, shu orqali “oila – birinchi etnoestetik maktab” tamoyili mustahkamlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mahmudov N. Ona tili ta’limining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Shoumarov G‘.B. *Psixologik rivojlanishda milliy qadriyatlarning o‘rni*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
4. G.F.Erkinjonova. Etnoestetik madaniyat- bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ma’naviy fazilati sifatida // Inter Education & Global Study. 2025. №6.
5. Erkinjonova, G.F(2023). Etnik-madaniy tarbiy-bola saxsini kamol toptiruvchivosita. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(24), 383-386.
6. F.M. Qo‘chqarova, G.F. Erkinjonova Scientific and

theoretical foundations of the formation of the ethnoesthetic culture of future primary school teachers in the modern system of pedagogical education Science and innovation International scientific journal 209-214

7. Erkinjonova G. F. (2025) Bo‘lajak o‘qituvchilarning etnoestetik madaniyatini shakllantirish yo‘llari

8. Erkinjonova G.F Oliy ta’lim tizimida etnoestetik madaniyat: Bosqichlar, metodlar va integratsiya mkoniyatlari International scientific and practical conference “international experience in the use of Collaborative technologies in child rearing”, april 22, 2025

9. Erkinjonova G.F Sun’iy intellekt vositasida talabalarda etnoestetik madaniyatini rivojlantirish Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya : muammo va yechimlar” 777-782

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASINI MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISH

Mullayeva Madina Kudratovna,
Urganch davlat universiteti tayanch doktaranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini she’riy asarlar ustida ishlash metodikasini ishlab chiqish masalalari yoritiladi. She’riy asarlar o‘quvchilarda badiiy tafakkurni, estetik didni, nutqiy rivojlanishni va ijodiy tasavvurni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada o‘qituvchi tayyorlov jarayonida she’riy matnlarni tahlil qilish, badiiy obrazlarni anglash, ritm va ohangni his qilish hamda ularni ifodali o‘qitishga oid metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, she’riy asarlar ustida ishlashning psixolingvistik va didaktik asoslari, interfaol metodlardan foydalanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilar uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Annotation: This article explores the issues of developing methodological mechanisms for working with poetic works in the training of future primary school teachers. Poetry serves as an important source for shaping students’ artistic thinking, aesthetic taste, speech development, and creative imagination. From this perspective, the article analyzes methodological approaches to working with poetry in teacher preparation, including the analysis of poetic texts, understanding artistic imagery, perceiving rhythm and intonation, and teaching expressive reading. In addition, the psycholinguistic and didactic foundations of working with poetry, as well as the mechanisms of applying interactive methods, are

examined. The research outcomes are aimed at providing both theoretical and practical recommendations for future teachers.

Kalit so‘zlar: she’riy asarlar, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi tayyorlash, badiiy tafakkur, estetik did, nutqiy rivojlanish, ijodiy tasavvur, metodika, psixolingvistika, interfaol metodlar

Keywords: poetic works, primary education, teacher training, artistic thinking, aesthetic taste, speech development, creative imagination, methodology, psycholinguistics, interactive methods

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy va badiiy rivojlanishini ta’minlashda she’riy asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki poeziya bolalarda nafaqat estetik did va badiiy tafakkurni shakllantiradi, balki ularda nutq boyligini oshirish, ifodali o‘qish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida she’riy asarlar ustida ishlash metodikasini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida metodik yondashuvlarni takomillashtirish, interfaol metodlardan foydalanish, psixolingvistik va didaktik asoslar asosida dars jarayonini tashkil etish masalalari keng o‘rganilmoqda. Xususan, she’riy matnlarni tahlil qilish, ularning obrazli ifodasi, ritm va ohangni sezish orqali o‘quvchilarning estetik didi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘lajak o‘qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Mazkur tadqiqotda she’riy asarlar ustida ishlash metodikasining nazariy va amaliy jihatlari, interfaol yondashuvlar imkoniyatlari hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlov jarayonida qo‘llash mexanizmlari yoritiladi. Ushbu yondashuvlar kelajak pedagoglarning professional salohiyatini oshirish, ularni ijodiy va metodik jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — yosh avlodni badiiy-estetik didga ega, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashdir. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning ma’naviy olamini shakllantirishda, ularning nutqiy rivojlanishini ta’minlashda va obrazli tafakkurini rivojlantirishda she’riy asarlar alohida o‘rin tutadi. Poeziya bolalar qalbiga bevosita ta’sir etib, ularni ezgulikka, go‘zallikka, vatanparvarlikka chorlaydi hamda nutqiy malaka va estetik didni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Furqat, Hamza, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi kabi shoirlarning she’riy merosi milliy tafakkur va estetik didni tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Navoiy asarlaridagi badiiy obrazlar, Vatan va insonparvarlik g‘oyalari, Oripov va Vohidov

ijodidagi ma’naviy-axloqiy qarashlar bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda bebaho manba vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga she’riy asarlarni o‘qitish nafaqat nutqiy rivojlanishni ta’minlaydi, balki ularda milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash va badiiy tafakkurni shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida she’riy asarlar ustida ishlash metodikasini chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. O‘qituvchilar she’riy matnni tahlil qilish, obrazlarni anglash, ritm va ohangni his qilish, ifodali o‘qish, dramatizatsiya qilish kabi metodik ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. Bu jarayon, bir tomondan, didaktik yondashuvlarni talab etsa, ikkinchi tomondan, psixolingvistik asoslarni ham hisobga olishni taqozo etadi. Chunki she’riy asarlarni o‘rganish o‘quvchilarda fonetik sezgirlik, so‘z boyligi, obrazli tasavvur va og‘zaki hamda yozma nutqni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda (Qosimova K., “Ona tili o‘qitish metodikasi”, 2016; Nurmonov A., “Adabiyot nazariyasi asoslari”, 2010) qayd etilishicha, poeziya bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishda eng ta’sirchan vosita sifatida maydonga chiqadi. Shu jihatdan, she’riy asarlarni boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘rgatish o‘quvchilarning til boyligini kengaytirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish va milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim metodik vosita hisoblanadi.

So‘nggi yillarda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘yinli mashg‘ulotlar kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Ammo bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini aynan she’riy asarlar ustida ishlash metodikasi bilan qurollantirish borasida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shu bois mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini she’riy asarlar ustida ishlash metodikasini o‘zlashtirish orqali ularning kasbiy va badiiy-pedagogik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy rivojlanish, ijodiy tasavvur, estetik did va muloqot madaniyatini shakllantirish uchun ilmiy asoslangan metodik yondashuvlarni yaratishga imkon beradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida she’riy asarlar ustida ishlash metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘zbek adabiyotshunosligi va pedagogika fanida muhim o‘rin egallaydi. She’riy asarlarning o‘quvchilar nutqiy rivojlanishi, estetik didi va ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Qosimova K.ning “Ona tili o‘qitish metodikasi” (2016) asarida boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar, xususan, she’riy asarlarni o‘qitishning metodik asoslari yoritilib, o‘qituvchilarning nutqiy mashg‘ulotlarni tashkil etishdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish uchun ifodali o‘qish, dramatizatsiya va interfaol topshiriqlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Nurmonov A.ning “Adabiyot nazariyasi asoslari” (2010) nomli qo‘llanmasida esa she’riy asarlarning nazariy tahlili, obrazlilik, ritm va ohang masalalari keng o‘rganilgan bo‘lib, bu yondashuv metodik ishlarda ham qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Shuningdek, Karimov Sh.ning boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid tadqiqotlarida she’riy asarlarning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni, ularning obrazli tasavvurlarini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Olim she’riy matnni o‘qish jarayonida psixolingvistik yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyoti namoyandalari – Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi kabi shoirlarning merosi haqida yozilgan ilmiy ishlarda poeziyaning estetik va tarbiyaviy ahamiyati keng tahlil qilingan. Bu adabiy meros bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy adabiyotlarda ham (masalan, Vygotskiy L.S., “Muloqot va tafakkur”, 1986; Bruner J., “Ta’lim nazariyasi”, 1996) she’riy matnlarni idrok etishning psixologik va metodik asoslari yoritilgan bo‘lib, ular bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim manba sifatida qaraladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar she’riy asarlarning nutqiy rivojlanish va estetik tarbiyadagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini aynan she’riy asarlar ustida ishlash metodikasini o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar kam. Shu jihatdan mazkur izlanish dolzarb ilmiy-amaliy vazifani bajaradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini she’riy asarlar ustida ishlash metodikasiga tayyorlash — zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, she’riy asarlar o‘quvchilarda nafaqat estetik did va badiiy tafakkurni shakllantiradi, balki ularning nutqiy rivojlanishi, ijodiy tasavvuri va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini ham kengaytiradi. She’riy matnlarni o‘qish jarayonida ifodali o‘qish, dramatizatsiya, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ular uchun o‘quv jarayonini yanada mazmunli qiladi.

Adabiyotshunos olimlarning qarashlari, psixolingvistika yondashuvlari hamda o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining she’riy merosi bo‘lajak o‘qituvchilar uchun boy metodik baza vazifasini bajaradi. Shuningdek, interfaol metodlar va zamonaviy axborot

texnologiyalarini qo‘llash she’riy asarlarning ta’sirchanligini oshirib, ularni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish, yosh avlodda estetik tarbiya va nutqiy madaniyatni rivojlantirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova, K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
2. Yo‘ldoshev, Q., Mavlonova, R. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Karimov, I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Shomusarov, A. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
6. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE UZBEK NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE

Akbarova Dilzodaxon Alisherjon qizi,
English language teacher Kokand University,
akbarovadiaaa@gmail.com

Abstract. This study explores the role of innovative technologies in teaching the Uzbek native language and literature. In modern education, traditional methods alone are often insufficient to engage students and develop their critical thinking, creativity, and cultural understanding. Innovative technologies, including multimedia platforms, interactive whiteboards, online forums, and educational applications, provide dynamic and student-centered learning opportunities. Using a mixed-method approach that included classroom observations and teacher surveys, the study examined how these technologies influence student motivation, engagement, and comprehension of literary texts. Findings indicate that the integration of digital tools enhances learning outcomes, fosters active participation, and supports the development of linguistic and cultural competence. However, challenges such as limited resources, unequal access, and insufficient teacher training may hinder effective implementation. The study concludes that combining traditional teaching

methods with modern technological approaches can create inclusive, engaging, and effective learning environments. Recommendations include providing adequate infrastructure, professional development for teachers, and thoughtful integration of technology to strengthen Uzbek language and literature education.

Key words. Innovative technologies, Uzbek native language, literature education, ICT in teaching, interactive learning, student engagement, critical thinking, digital tools, pedagogical methods

Introduction. The teaching of the Uzbek mother tongue and literature plays a fundamental role in preserving national identity, cultural heritage, and linguistic competence. Mastering the native language enables students to communicate effectively, understand literary works, and strengthen their connection to history and traditions. Literature, in particular, enriches learners with moral values, aesthetic taste, and critical thinking skills. However, in today’s digital age, traditional teaching approaches alone are not enough to meet the educational needs of modern learners. The rapid development of innovative technologies offers new opportunities to make Uzbek language and literature lessons more interactive, engaging, and student-centered. Tools such as multimedia platforms, online resources, and educational applications enhance learning by increasing motivation and creativity. This research aims to explore how innovative technologies affect the teaching of Uzbek language and literature, focusing on their impact on student motivation and teacher challenges.

Recent years have witnessed a growing emphasis on integrating technology into education, including the teaching of Uzbek language and literature. Scholars and educators highlight that digital tools not only support language learning but also promote creativity and independent thinking. Interactive whiteboards, e-books, and online platforms provide opportunities for students to analyze texts more effectively and participate actively in lessons. Such innovations illustrate that modern pedagogical approaches are essential for enhancing traditional methods of teaching.

This study seeks to investigate the role of innovative technologies in teaching Uzbek language and literature, with a particular focus on their influence on student engagement, comprehension, and creativity. The research also aims to identify challenges teachers face in implementing these tools, such as limited resources and insufficient training. By addressing these issues, the study provides valuable insights into how modern technologies can complement traditional teaching methods. Ultimately, the findings are expected to contribute to the improvement of language and literature education in Uzbekistan and offer practical recommendations for more effective and balanced classroom practices.

Literature review. A key element of a successful and interesting language education program is innovation in language instruction. Since education and technology are always changing, teachers of languages and other subjects are always looking for fresh, innovative ways to improve the quality of instruction they provide for their pupils. Developing innovative methods for teaching languages that encourage active learning, critical thinking, and cross-cultural understanding is what makes language education innovative, not only utilizing the newest tools or technology. (S. Berdiyeva, 2024)[1].

According to Škobo (2020)[2], if used adequately, Internet can be an immensely significant source of creativity, notably when it comes to opening discussions and debates regarding moral dilemmas that are in the core of the greatest literary works. By setting up a forum or ‘comment section’ for discussing the novels analyzed during the literature classes, the students may feel free to ask and answer questions regarding the book they are reading and the teacher can anytime challenge the students by assigning various problem-solving tasks regarding the book in question.

To help tackle the limited language and literacy skills among Indigenous people, efforts have been made to develop teaching and learning strategies by leveraging digital technology. A growing body of literature has shown that digital technology has enabled new forms of textual communications and linguistic creativity for Indigenous youth who have shown enhanced motivation to partake in literacy learning. (J. Li & A. Brar & N. Roihan, 2021)[3]

As stated by Kramsch (2014)[4], the relation of language and culture in Applied Linguistics is inseparable from the issues surrounding the use of language technologies. The print culture of the book, the virtual culture of the Internet, the online culture of electronic exchanges all have their own ways of redrawing the boundaries of what may be said, written and done within a given discourse community. They are inextricably linked to issues of power and control.

Main Body. Innovative technologies in education refer to modern digital tools, multimedia resources, and interactive platforms that enhance teaching and learning processes. In the context of language and literature instruction, these technologies aim not only to deliver content but also to encourage active participation, critical thinking, and creativity among students. According to Berdiyeva (2024), developing innovative methods for teaching languages that promote active learning and cross-cultural understanding is what truly defines innovation in education, beyond merely using the latest tools or devices. For teaching the Uzbek native language and literature, the integration of technology can strengthen students’ engagement with texts, provide diverse perspectives on literary

works, and cultivate essential language skills, making lessons more dynamic, interactive, and effective in modern classrooms.

The use of innovative technologies in language and literature classes includes tools such as multimedia platforms, online resources, interactive whiteboards, and educational applications. According to Škobo (2020), if used adequately, the Internet can be an immensely significant source of creativity, especially for facilitating discussions and debates on moral dilemmas present in literary works. By creating forums or ‘comment sections’ for discussing novels, students can freely ask and answer questions about the texts they read, while teachers can assign problem-solving and analytical tasks. Applying such strategies in Uzbek language and literature classes allows students to engage more deeply with literary content, develop critical thinking skills, and participate actively in learning, bridging traditional methods with modern, interactive approaches.

Innovative technologies have a significant influence on students’ motivation and engagement in language and literature education. Research shows that digital tools provide interactive and stimulating learning experiences that encourage learners to participate actively in lessons. As noted by Li, Brar, and Roihan (2021), digital technology enables new forms of textual communication and linguistic creativity, enhancing learners’ motivation to engage in literacy activities. In the context of Uzbek language and literature, the use of multimedia resources, online discussions, and educational applications allows students to explore texts creatively, express personal interpretations, and collaborate with peers. Consequently, the integration of technology not only improves comprehension and critical thinking but also fosters a positive learning environment that encourages continuous engagement.

Understanding the connection between language and culture is essential in teaching the Uzbek native language and literature. As Kramsch (2014) states, the relation of language and culture in Applied Linguistics is inseparable from the issues surrounding the use of language technologies. The print culture of the book, the virtual culture of the Internet, and the online culture of electronic exchanges all have their own ways of redrawing the boundaries of what may be said, written, and done within a given discourse community. In the context of Uzbek language education, integrating innovative technologies enables students to engage with literature and cultural texts in diverse ways, expanding their understanding of both linguistic and cultural norms, while also highlighting the role of technology in shaping communication and learning practices.

Despite the benefits of innovative technologies in language and literature education, several challenges remain in implementing them effectively. Teachers may face difficulties such as limited access to digital

devices, insufficient technological infrastructure, and a lack of professional training in using educational technologies. Additionally, not all students may have equal opportunities to engage with online resources, which can create disparities in learning outcomes. In teaching the Uzbek native language and literature, these challenges may hinder the full potential of technology-enhanced lessons. Therefore, while innovative technologies can significantly enhance learning, their successful integration requires adequate resources, teacher preparedness, and careful planning to ensure equitable and effective educational practices.

Conclusion. This This study examined the role of innovative technologies in teaching the Uzbek native language and literature, highlighting their importance in modern education. The integration of digital tools, multimedia platforms, and online resources enhances student engagement, creativity, and critical thinking. By bridging traditional teaching methods with modern technological approaches, educators can create more dynamic and interactive lessons. The findings indicate that innovative technologies are not merely supplementary tools but essential components in fostering effective language and literature learning, helping students to connect more deeply with texts while developing their linguistic and cultural competence.

The research demonstrates that incorporating innovative technologies in teaching Uzbek native language and literature provides practical benefits for both teachers and students. Tools such as interactive whiteboards, online forums, and educational applications facilitate active learning, discussion, and collaboration. Students are able to analyze literary texts more effectively, express personal interpretations, and participate in creative problem-solving tasks. For teachers, these technologies offer opportunities to design more engaging lessons and address diverse learning needs. Overall, the study highlights that technology integration strengthens motivation, improves comprehension, and supports the development of critical thinking, making language and literature education more effective and meaningful.

While innovative technologies offer significant advantages in teaching Uzbek native language and literature, challenges such as limited resources, insufficient teacher training, and unequal student access must be addressed. To maximize the benefits, schools should provide adequate technological infrastructure, professional development programs, and support for educators in integrating digital tools effectively. By combining traditional methods with modern approaches, teachers can create balanced and inclusive learning environments. Ultimately, this study contributes to understanding how technology can enhance language and literature education, offering practical insights and recommendations for improving

teaching practices and fostering students’ linguistic, cultural, and creative development.

References

1. S. Berdiyeva, Exploring Innovative Approaches to Teaching, International scientific journal “Modern Science and Research”, 2024, p 923.
2. M. Škobo, Modern Technologies in Teaching Literature, SINTEZA, Sinergija University, Bijeljina, Republic of Srpska, 2020, p 87.
3. J. Li & A. Brar & N. Roihan, The Use of Digital Technology to Enhance Language and Literacy Skills for Indigenous People: A Systematic Literature Review, Computers and Education Open, University of Ontario Institute of Technology, Canada, (December) 2021.
4. C. Kramsch, Language and Culture, AILA Review, Volume 27, (January) 2014, p 47.

QO‘SHMA SO‘Z YASASH – UMUMIY SO‘Z YASALISH STRATEGIYASI SIFATIDA

Mamurova Shaxlo Sultanovna,
Qo‘qon universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
e-mail: shakhlo.mamurova@bk.ru telefon raqam: +998911423110

Annotatsiya

Mazkur maqolada qo‘shma so‘zlarning tilshunoslikdagi nazariy asoslari, ularning turli tillarda shakllanish tipologiyasi va semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. German, roman, turkiy va sanskrit tillaridagi qo‘shma so‘zlarning yasalish mexanizmlari qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganilib, ular orasidagi tipologik farqlar ilmiy izohlangan. Shuningdek, o‘zbek olimlarning qo‘shma so‘zlarni o‘rganishdagi yondashuvlari keltirilib, qo‘shma so‘zlarning o‘zbek tili tizimidagi grammatik, semantik va madaniy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada qo‘shma so‘zlarning faqat morfologik hodisa emas, balki xalqning madaniy qadriyatlari va kognitiv dunyoqarashining til shakliga ko‘chgan ifodasi ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: qo‘shma so‘z, morfologiya, tipologiya, endosentrik, ekzotsentrik, kopulativ, o‘zbek tilshunosligi, kognitiv tilshunoslik, madaniy omillar

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of compound words, their typological formation, and semantic features in linguistics. The mechanisms of compound word formation in Germanic, Romance, Turkic, and Sanskrit languages are comparatively

studied, with particular attention to their typological differences. Furthermore, the approaches of Uzbek linguists are examined to highlight the grammatical, semantic, and cultural significance of compounds in the Uzbek language system. The study emphasizes that compound words should be considered not only as morphological phenomena but also as reflections of cultural values and cognitive worldviews encoded in language.

Keywords: compound word, morphology, typology, endocentric, exocentric, copulative, Uzbek linguistics, cognitive linguistics, cultural factors

KIRISH

Tilshunoslikda so‘z yasalish jarayonlari tilning rivojlanishi, lug‘at boyligining kengayishi va yangi tushunchalarning ifodalanishida muhim o‘rin tutadi. So‘z yasalishning turli strategiyalari mavjud bo‘lib, ularning orasida qo‘shma so‘z yasash jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qo‘shma so‘zlar oddiy leksemalarning oddiy yig‘indisi emas, balki yangi ma’noga ega bo‘lgan yaxlit semantik birlikni yaratadi. Masalan, *temiryo‘l* yoki *ko‘zoynak* kabi so‘zlar tarkibida ikki alohida leksema mavjud bo‘lsa-da, ular umumiy semantik birlik sifatida yangi tushuncha bildiradi. Shuningdek, ingliz tilidagi *blackboard* yoki nemis tilidagi *Lebensmittel* so‘zlari ham mazmunan mustaqil birlik sifatida shakllangan. Bu jarayon tilshunoslikdagi eng samarali va universal so‘z yasash strategiyalaridan biri hisoblanadi [2].

Qo‘shma so‘zlarning shakllanish mexanizmlarini o‘rganish nafaqat morfologik, balki kognitiv va madaniy nuqtai nazardan ham muhimdir. Chunki har bir til tizimi o‘ziga xos madaniy qatlam va dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qo‘shma so‘zlar orqali shu madaniyatning ayrim unsurlari til shakliga ko‘chadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *choyxona*, *oshxona* kabi so‘zlar xalqning turmush tarzi, an’ana va qadriyatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida esa *rainbow*, *football* kabi so‘zlar tabiat hodisalari va ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy tajribani ifodalaydi.

Kognitiv nuqtai nazardan qaralganda, qo‘shma so‘zlar inson tafakkurining tasniflash va kategoriyalash jarayonining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Inson atrof-muhitni anglar ekan, murakkab tushunchalarni ifodalash uchun yangi til birliklariga ehtiyoj sezadi. Natijada, qo‘shma so‘zlar til egasining bilim maydoni va konseptual dunyoqarashini namoyon etadi [3]. Demak, qo‘shma so‘z yasash jarayoni — tilning morfologik tizimidagi oddiy qoida bo‘lishi bilan birga, insonning kognitiv faoliyati va madaniy tajribasini aks ettiruvchi hodisadir. Shu jihatdan, uni o‘rganish umumiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik hamda kognitiv tilshunoslik doirasida dolzarb masala hisoblanadi.

Tilshunoslikda qo‘shma so‘zlar mustaqil morfologik birlik sifatida

ko‘riladi va ular ikki yoki undan ortiq leksemaning semantik va struktur birikuvi orqali yuzaga keladi. Qo‘shma so‘zlarning mohiyati shundaki, ular tarkibiy qismlarining oddiy yig‘indisi emas, balki yangi semantik birlik hosil qiladi. Bu xususiyat qo‘shma so‘zlarni boshqa so‘z yasalish usullaridan (masalan, suffiksatsiya, prefiksatsiya yoki qisqartma) farqlab turadi [1]. Tilshunoslik tarixida qo‘shma so‘zlarning nazariy asoslari masalasi ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin tutgan. Dunyo tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligi doirasida ham qo‘shma so‘zlarning yasalishi, tuzilishi va semantik xususiyatlari keng tadqiq qilingan.

Avvalo, xalqaro tilshunoslar ichida amerikalik mashhur strukturalist olim Leonard Bloomfield alohida o‘rin tutadi. U o‘zining *Language* (1933) asarida qo‘shma so‘zlarni morfologik birlik sifatida izohlab, ularni sintaktik birliklardan qat’iy farqlash zarurligini ta’kidlagan. Shuningdek, nemis tilshunosi Hans Marchand qo‘shma so‘zlar tahliliga chuqur yondashib, *Categories and Types of Present-Day English Word-Formation* kitobida endosentrik va ekzotsentrik qo‘shma so‘zlar tipologiyasini batafsil ishlab chiqqan. Ingliz tilshunosligida Laurie Bauerning *English Word-Formation* asari zamonaviy morfologik nazariya doirasida qo‘shma so‘zlarning semantik va struktur xususiyatlarini tizimlashtirib berdi. Ingo Plag ham *Word-Formation in English* kitobida qo‘shma so‘zlarning turli modellarini tahlil qilib, ularni zamonaviy ingliz tilining so‘z yasash mexanizmlari bilan bog‘lab ko‘rsatgan. Qiyosiy morfologiya bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri Martin Haspelmath esa qo‘shma so‘zlarning turli tillardagi tipologik xususiyatlarini o‘rganib, ularning umumiy va milliy jihatlarini tahlil qilgan.

O‘zbek tilshunosligida esa bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, Rahmatulla Rasulovning *O‘zbek tilining morfologiyasi* asarida qo‘shma so‘zlarning grammatik tizimdagi o‘rni, ularning morfologik kategoriyalar bilan aloqasi va turli tiplarini tahlil qilishga katta e’tibor berilgan. Abdug‘afur Hojiyev o‘zining ilmiy ishlari va *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* orqali qo‘shma so‘zlarning lug‘aviy boylikni kengaytirishdagi o‘rnini yoritib, ularni semantik jihatdan chuqur izohlashga harakat qilgan. Olimjon Bozorovning *O‘zbek tilida so‘z yasalishi* asari esa bu borada yangi bosqichni tashkil qiladi: unda qo‘shma so‘zlar faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan ham o‘rganiladi. Bozorov qo‘shma so‘zlarning madaniy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib, ularning xalq tafakkuridagi o‘rnini izohlagan. Shuningdek, M. Mirtojiyevning *O‘zbek tili grammatikasi* kitobi qo‘shma so‘zlarning grammatik tizimda qanday shakllanishini ko‘rsatib beradi. Uning tadqiqotlarida qo‘shma so‘zlar til taraqqiyotining doimiy yangilanish manbai sifatida izohlanadi. Sh. Rahmatullayev ham o‘z tadqiqotlarida qo‘shma so‘zlarni leksik-semantik birlik sifatida o‘rganib,

ularning nutq jarayonida tutgan o‘rnini ko‘rsatgan. Yana bir tilshunos — A. Madrahimov esa qo‘shma so‘zlarning o‘zbek tilidagi turlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilib, ularning lug‘at tarkibida qanchalik faol ekanini ilmiy jihatdan asoslagan. Shu bilan birga, o‘zbek olimlarining izlanishlarida qo‘shma so‘zlarning faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va kognitiv dunyoqarashi bilan bog‘liq til birliklari sifatida qaralishi alohida e’tiborga molikdir. Masalan, *choyxona, oshxona*, *ko‘ngilochar* kabi qo‘shma so‘zlar o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayoti, turmush tarzi va qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababli qo‘shma so‘zlarning nazariy asoslarini o‘rganish nafaqat morfologik, balki kognitiv va madaniy-lingvistik jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida qo‘shma so‘zlar masalasi keng o‘rganilgan. Jumladan, A. Hojiyevning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asarida qo‘shma so‘zlar ko‘proq semantik jihatdan tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, qo‘shma so‘zlar milliy tilning lug‘at boyligini kengaytirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [2.20].

Qo‘shma so‘zlarning shakllanish mexanizmlarini o‘rganish nafaqat morfologik, balki kognitiv va madaniy nuqtai nazardan ham muhimdir. Chunki har bir til tizimi o‘ziga xos madaniy qatlam va dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qo‘shma so‘zlar orqali shu madaniyatning ayrim unsurlari til shakliga ko‘chadi. Kognitiv nuqtai nazardan qaralganda, qo‘shma so‘zlar inson tafakkurining tasniflash va kategoriyalash jarayonining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Inson atrof-muhitni anglar ekan, murakkab tushunchalarni ifodalash uchun yangi til birliklariga ehtiyoj sezadi. Natijada, qo‘shma so‘zlar til egasining bilim maydoni va konseptual dunyoqarashini namoyon etadi [3.25]

Qo‘shma so‘z yasash jarayoni barcha tillarda uchraydigan universal hodisa bo‘lsa-da, uning shakllanish mexanizmlari va ishlatilish chastotasi turli til oilalarida bir-biridan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar, bir tomondan, tilning tipologik xususiyatlari, ikkinchi tomondan esa, xalqning madaniy va kognitiv dunyoqarashi bilan belgilanadi [6.112].

Fransuz va italyan tillarida qo‘shma so‘z yasash jarayoni german tillariga qaraganda kamroq uchraydi. Bunday tillarda so‘z yasalishi ko‘proq affiksatsiya yoki sintaktik birikma orqali amalga oshadi. Shunga qaramay, fransuz tilida *porte-monnaie* (“hamyon”), *gratte-ciel* (“osmono‘par bino”) kabi qo‘shma so‘zlar mavjud. Bu tipologik farq roman tillarining tarixiy rivojlanishi va morfologik tizimiga bog‘liq. [5.97]

O‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz kabi turkiy tillarda qo‘shma so‘z yasashning asosiy mexanizmi sintaktik-morfologik birikishdir. Masalan, o‘zbek tilida *temiryo‘l, ko‘zoynak, oshxona, choyshab* kabi qo‘shma so‘zlar nafaqat yangi predmetni atash, balki xalqning madaniyatini ham ifodalaydi. Olimjon Bozorovning fikricha, turkiy tillardagi qo‘shma

so‘zlarning ko‘pchiligi xalq tafakkuri va kognitiv kategoriyalash jarayoniga asoslangan [3.128]. Shuningdek, Rahmatulla Rasulov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlarning grammatik tizimdagi faolligini ko‘rsatib, ularni morfologik kategoriyalar bilan bog‘liq holda o‘rgangan [10.75].

Sanskrit tilida qo‘shma so‘z yasash juda keng qo‘llanilgan va ular maxsus terminlar bilan atalgan:

- Dvandva (kopulativ) – *mātāpitarau* (“ota-ona”),
- Tatpurusha (endosentrik) – *rājakumāra* (“shahzoda”, ya’ni “podshoh o‘g‘li”),
- Bahuvrihi (ekzotsentrik) – *mahākavi* (“buyuk shoir”, aslida “buyuk so‘zli”).

Qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, qo‘shma so‘zlarning shakllanishida turli til oilalarida sezilarli tipologik farqlar mavjud. Bu farqlar, bir tomondan, tilning grammatik tuzilishidan, ikkinchi tomondan esa, xalqning madaniy va kognitiv dunyoqarashidan kelib chiqadi. German tillarida qo‘shma so‘zlar juda faol bo‘lib, ularning morfologik tuzilishi uzun va murakkab so‘zlar hosil qilish imkonini beradi. Masalan, nemis tilidagi *Schreibtischlampe* (“yozuv stoli lampasi”), *Lebensmittelgeschäft* (“oziq-ovqat do‘koni”) kabi so‘zlar bir nechta leksemalarning bevosita birlashishi orqali yuzaga keladi. Ingliz tilida ham *blackboard*, *rainbow*, *football* kabi so‘zlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha ikki asosning qo‘shilishidan iborat. German tillarida qo‘shma so‘zlarning bunday faolligi, asosan, bu tillarda morfologik jarayonlarning kuchli bo‘lishi bilan izohlanadi.[4.182]

Roman tillarida esa vaziyat biroz boshqacha. Fransuz, italyan yoki ispan tillarida qo‘shma so‘zlar cheklangan holda uchraydi va ularning o‘rnini ko‘pincha affiksatsiya jarayoni egallaydi. Masalan, fransuz tilidagi *gratte-ciel* (“osmono‘par bino”), *porte-monnaie* (“hamyon”) kabi so‘zlar mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘proq istisno sifatida qaraladi. Roman tillarida so‘z yasashning asosiy manbai prefiks va suffikslar yordamida yangi leksemalar hosil qilishdir.

Turkiy tillarda, xususan o‘zbek tilida, qo‘shma so‘zlar ko‘pincha sintaktik birliklarning mustahkamlanishi orqali yuzaga keladi. Masalan, *temiryo‘l*, *ko‘zoynak*, *oshxona*, *choyshab* kabi so‘zlar dastlab so‘z birikmasi shaklida qo‘llangan, keyinchalik esa yagona semantik birlik sifatida shakllanib qolgan. Bu jarayon turkiy tillarda qo‘shma so‘zlarning nafaqat grammatik, balki madaniy mazmunni ham o‘zida aks ettirishini ko‘rsatadi. Masalan, *choyxona* yoki *oshxona* so‘zlari xalqning turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Sanskrit tilida esa qo‘shma so‘zlarning maxsus tipologik tasnifi yaratilgan bo‘lib, ular qadimdan ilmiy an’anaga ega. Masalan, *tatpurusha* (endosentrik), *bahuvrihi* (ekzotsentrik), *dvandva* (kopulativ) qo‘shma so‘zlar alohida

ajratilgan. Bu tasnif bugungi kunda ham qiyosiy tilshunoslik va morfologiya uchun muhim manba hisoblanadi. Sanskrit tilidagi tizim nafaqat hind-yevropa tillariga, balki umumiy qo‘shma so‘z nazariyalariga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek tilshunosligida qo‘shma so‘zlar masalasi chuqur ilmiy tahlil qilingan va ular nafaqat grammatik hodisa, balki xalq tafakkurining mahsuli sifatida ham o‘rganilgan. Sh. Rahmatullayev qo‘shma so‘zlarni leksik-semantik birlik sifatida o‘rganib, ularning nutqdagi pragmatik vazifalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida qo‘shma so‘zlar tilning lug‘at boyligini kengaytiruvchi vosita sifatida emas, balki nutq jarayonida ma’no ixchamligi va obrazliligini ta’minlovchi birlik sifatida ko‘riladi.[10.109]

M. Mirtojiyev esa qo‘shma so‘zlarni til tizimining doimiy yangilanish manbai sifatida baholagan. Unga ko‘ra, qo‘shma so‘zlar milliy tilning tarixiy taraqqiyoti davomida yangi tushunchalarni ifodalashda eng samarali vositalardan biri bo‘lib kelgan. Misol tariqasida, texnik taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lgan *elektrstansiya*, *issiqxona* kabi qo‘shma so‘zlar tilning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi. [8.76] A. Madrahimov esa qo‘shma so‘zlarning o‘zbek tilidagi tur va turlarini boshqa turkiy tillar bilan qiyoslab o‘rgangan. Uning tadqiqotlari qo‘shma so‘zlarning umumturkiy xususiyatlari bilan birga o‘zbek tiliga xos milliy xususiyatlarini ham aniqlashga qaratilgan. Masalan, u o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning xalqning turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi. [6.201]

Umuman olganda, o‘zbek tilshunoslarining izlanishlari qo‘shma so‘zlarni faqat morfologik birlik sifatida emas, balki milliy madaniyat, xalq tafakkuri va kognitiv jarayonlarning tilga ko‘chgan ifodasi sifatida ham baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning o‘rganilishi faqat grammatik masala bo‘lib qolmay, balki tilning semantik, pragmatik va madaniy qirralarini ham yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Qo‘shma so‘zlar tilshunoslikda eng muhim so‘z yasalish strategiyalaridan biri hisoblanadi. Ular ikki yoki undan ortiq mustaqil leksemaning semantik va morfologik birikishi natijasida yuzaga keladi va tilning lug‘at boyligini kengaytiradi. Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘shma so‘zlarning shakllanish xususiyatlari turli tillarda bir-biridan farq qiladi: german tillarida ular morfologik jihatdan faol va murakkab tuzilmalar hosil qilsa, roman tillarida ko‘proq affiksatsiya ustunlik qiladi. Turkiy tillarda esa qo‘shma so‘zlar sintaktik birliklarning mustahkamlanishi orqali shakllanib, ko‘pincha madaniy mazmunni o‘zida aks ettiradi. Sanskrit tilida esa qo‘shma so‘zlarning maxsus tipologik tasniflari ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi lingvistika uchun ham muhim manba bo‘lib qolmoqda. O‘zbek tilshunoslari — Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, A. Madrahimov, A. Hojiyev, O. Bozorov va boshqa

olimlarning tadqiqotlarida qo‘shma so‘zlar nafaqat grammatik birlik, balki xalqning madaniy qadriyatlari va kognitiv dunyoqarashining tilga ko‘chgan ifodasi sifatida ham qaraladi. Ayniqsa, o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar milliy tafakkur, turmush tarzi va ijtimoiy-madaniy hayotning muhim ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois qo‘shma so‘zlarni o‘rganish masalasi nafaqat morfologiya, balki qiyosiy tilshunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy yo‘nalishdir. Qo‘shma so‘z o‘zbek tilida ham, boshqa ko‘plab tillarda ham yangi leksema yasashning kuchli va unumdor strategiyasidir. U boshliq atrofida morfosintaktik bir butunlik hosil qilib, semantik jihatdan endosentrik va eksosentrik turlarga bo‘linadi; yozuvda esa bitishiq, ajratib va defisli ko‘rinishlar normativ an’ana va leksiklashuv darajasiga tayanadi. Terminologiya va neologizm yaratishda kompozitsiyaning ixchamlik, turg‘unlik va paradigmatik kengayish kabi afzalliklari alohida ahamiyatga ega. Qo‘shma so‘zlarning nazariy asoslarini va turli tillardagi tipologik farqlarini chuqur tahlil qilish til tizimining boyligi, dinamik rivojlanishi hamda xalq tafakkuri va madaniyatining til shakliga ko‘chishini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bauer, L. *English Word-Formation*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
2. Bloomfield, L. *Language*. London: Allen & Unwin, 1933.
3. Rahmatullayev, Sh. *O‘zbek tilining leksikasi va frazeologiyasi*. Toshkent: Fan, 1981.
4. Rasulov, R. *O‘zbek tilining morfologiyasi*. Toshkent: Fan, 1992.
5. Mamurova, S. (2024). *BEYOND WORDS: THE ROLE OF PARALINGUISTICS IN EFFECTIVE COMMUNICATION. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 300–302*.
6. Shaxlo, M. (2024). *IBORA, SO‘Z BIRIKMASI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY TUCHUNCHA. Kokand University Research Base, 180–185*.
7. Mamurova, S. (2023). LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASES WITH ADJECTIVE COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK. *Interpretation and Researches*, *1*(1).
8. Shahlo, M. (2023). *LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASES WITH ADJECTIVE COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1 (1), 1101–1104*.
9. Mamurova, S. (2024). BEYOND WORDS: THE ROLE OF PARALINGUISTICS IN EFFECTIVE COMMUNICATION. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *13*, 300–302. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1083

10. Mamurova Shahlo. (2023). LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASES WITH ADJECTIVE COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *1*(1), 1101–1104. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.523

ETNONIMLAR DERIVATSIYASI

J.U.Yuldashev, katta o‘qituvchi, PhD,
Navoiy davlat universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududi toponimiyasining katta qismini tashkil etgan etnotoponimlar uchun asos bo‘lgan ayrim etnonimlar haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek, bu etnonimlarning etimologiyasi, paydo bo‘lishi, shakllanishi va derivatsion xarakterga ega turlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik aspekt, lingvistik paradigma, toponim, etnotoponim, etnonim, etnooykonim, onomastik birlik, urug‘, qabila, konversiya, kompozitsiya, diaxron so‘z yasalishi, sinxron so‘z yasalishi, onomastik ko‘lam.

Abstract: This article discusses some ethnonyms that are aos for ethnotoponyms that make up a large part of the toponymy of the territory of the Republic of Uzbekistan, as well as the etymology, emergence, formation of these ethnonyms and the derivative nature of the artificial ethnonyms that have survived to this day.

Key words: linguistic aspect, linguistic paradigm, toponym, ethnotoponym, ethnonym, ethnooikonym, onomastic unity, clan, tribe, conversion, composition, diachronic word formation, synchronous word formation, onomastic scope.

O‘zbekiston Respublikasi territoriyasida turli, xilma-xil va bir-biridan fonetik, leksik –semantik, sintaktik- grammatik, struktur xususiyati bilan ajralib turadigan toponimlar, ya’ni shahar, kent, qishloq va ovul nomlari juda ko‘p. Bu aholi yashash manzillarining nomlanishi esa turli sabab-hodisalar bilan bog‘liq. Ayrimlari tarixiy voqea-hodisa yoki o‘z davrining taniqli kishisi bilan aloqador bo‘lsa, ba’zilari shu hududga kelib joylashgan urug‘-qabilalar nomi bilan atalgan.

Shu o‘rinda, aytish kerakki, xalqimizning aksariyati (mutaxassis va sohaga aloqador kishilar bundan mustasno) bu toponimlarning nomlanish sabablarini, atalish mohiyatini bilmasligi, anglamasligi yoki ular haqida yetarlicha axborotga ega bo‘lmaganligi oqibatida shu joyning atalishini noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa mavjud joy nomlarining viloyat, tuman mutasaddi tashkilotlarining “sa’yi harakati” bilan o‘zgartirilishiga va ularning o‘rnida biror asosga ega bo‘lmagan, sun’iy nomlar qo‘yilishiga olib kelmoqda. Zero, qadimdan mavjud bo‘lgan har qanday nom shu hududning geografik xususiyati, tabiiy sharoiti, relefi,

o‘simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari yoki o‘zbek xalqining qaysidir urug‘-qabila nomi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Shuni afsus bilan aytish kerakki, yuqorida tilga olganimiz o‘zgartirilayotgan toponimlarning orasida etnotoponimlarning ham mavjudligi kishining dilini xira qiladi. (Bu haqida “Tamaddun nuri” jurnalining 2024-yil 1-sonidagi maqolamizda ham ma’lumot bor)

Hozirda Vatanimiz hududida *arg‘in, bahrin, bolta, baymoq, do‘rmon, jaloyir, kal, kelachi, kaltatoy, kenagas, ko‘shan, ming, mitan, nayman, qo‘ng‘irot, qipchoq, saroy, uychi* kabi juda ko‘p miqdorda katta-kichik urug‘-qabila nomlari saqlanib qolmoqda. Bularning ayrimlari etnotoponimga aylanib ulgurgan, ba’zilari esa badiiy, ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi namunalarida yashamoqda. Bu etnonimlarda xalqning ishonch-e’tiqodi, olamni ko‘rishi, tarixi, kelib chiqishi, ajdodlarining kim ekanligi, kasb-kori, kundalik mashg‘uloti kabi muhim belgilar mujassamlashgan.

Mazkur etnonimlar va ularning qanday ma’no anglatishi, yuzaga kelish tarixi, xalqimiz tarixining qaysi davrida, kimlar tomonidan, qachon va qay tarzda yaratilganligi haqidagi g‘oyat qiziqarli ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Ibn Batuta, Rashididdin, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi olim, muarrix va adiblarning asarlarida mavjuddir [1, 14].

Etnik nomlar til lug‘at tarkibidagi eng qadimiy so‘zlar hisoblanadi. Qadimiy so‘zlarning qiymati haqida esa taniqli olmon adibi Herman Hesse o‘zining "Non" so‘zi haqida" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: "So‘zlar tilning umurtqasi va birlamchi unsurlaridir. Ularga ro‘para kelganimizda, oradan ko‘p o‘tmay, biz shunga shohid bo‘lamizki, so‘z qancha qadimiy, qancha ko‘hna bo‘lsa, uning hayotiy qudrati va sehr-u jodusi shuncha kuchli bo‘lar ekan" [2,33]. Etnonimlar va ular asosida yuzaga kelgan etnotoponimlar ham qadimiy so‘zlar bo‘lganligi uchun ularning sehr-u jodusi har doim kishining diqqatini tortishi hech kimga sir emas. Darvoqe, kundalik hayotimizda respublikamizning xohlagan bir go‘shasiga borsangiz, agar u yer sizga notanish bo‘lsa, mazkur joyning nomlanishi bilan qiziqasiz va u yer haqida ma’lumot olishni istaysiz. Bu esa til tizimining ajralmas qismi hisoblangan toponimlarni, umuman, nomlarni o‘rganish, bilish, ular haqida ma’lumotga ega bo‘lish jamiyat a’zolarining har biri uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi. Chunki toponimlar muayyan bir millatning o‘tmishi, tarixi, an’ana va urf - odatlari, yashash tarzi haqida ma’lumot beruvchi beminnat xabarchilardir. Ularni har tomonlama tadqiq qilish, o‘rganish, etimologik, derivatsion xususiyatlarini ilmiy faktlar asosida tahlil qilib berish hamda bu ma’lumotlarni oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi pedagog mutaxassislarga yetkazish biz – tilshunos, tarixshunos hamda shu sohaga doir mutaxassislarning birinchi galdagi vazifasidir. Ayniqsa, O‘zbekiston

Respublikasi toponimiyasining salmoqli qismini tashkil etgan etnotoponimlar va ularni yuzaga kelishida muhim o‘rin tutgan etnonimlarni funksional, leksik-semantik, etimologik, nominatsion-motivatsion, derivatsion, struktural-tipologik, linvostlistik xususiyatlarini turli lingvistik paradigma va aspektlar hamda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida amaliy tomondan chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushbu maqolamizda respublikamizning katta hududida etnotoponimga aylangan ayrim etnonimlar va ularning qisman etimologiyasi va derivatsion xususiyatlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, toponimlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan etnonimlar yasalishida eng faol qo‘llangan derivatsion morfemalardan ot yasovchi mahsuldor –*chi* hamda sifat yasovchi unumdor –*li* affikslari faol qo‘llangan.

-*chi* affiksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo‘lib, qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham aks etgan. Bu affiks bilan ot yasalishi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy holat ekanligini Mahmud Koshg‘ariy uqtirib o‘tgan.[3,112] Bu yasovchi affiks nafaqat sinxron so‘z yasalish tizimida faol, balki diaxron yasalishda ham ishtirok etib *kelachi, qo‘zichi, bulachi, qutchi, tasmachi* kabi etnonimlar yasalishida ham qatnashgan. Mazkur *kelachi* etnonimi haqida “Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi” yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchi U.Turdimurodov bu etnonimning etimologiyasi va derivatsion xususiyati haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: *Kelachi* etnonimining etimologiyasi aslida *kelichi* shaklida bo‘lib, *keli* – don mahsulotlarini tuyadigan uy-ro‘zg‘or buyumi, -*chi* – shaxs oti yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, ushbu ro‘zg‘or buyumini yasovchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Bu urug‘ning asosiy mashg‘uloti *keli* buyumini yasash bo‘lgan. *Kelichi* so‘zi tarkibida keyinchalik fonetik o‘zgarish bo‘lib, *kelachi* shaklida talaffuz qilina boshlangan. *Kelachi* – 92 bovli o‘zbek urug‘laridan birining nomi hisoblanadi. S.Qorayev va Z.Ziyotov bu so‘z etnotoponim bo‘lib, Navoiy viloyati Konimex tumanida borligini aytgan. *Kelachi* urug‘i vakillari XVII asrda Dashti qipchoqdan Movarounnahr hududiga ko‘chib kelib Zarafshon vodiysi bo‘ylab joylashgan. Bu urug‘ bilan birgalikda *buyrak, qirq, qurama, yuz, o‘z, qulon, uyrot, bulachi, matrit, mesit* kabi 20 ga yaqin urug‘lar ham shu hududga ko‘chib kelgan.[4, 91]

Xorazm etnotoponimlari yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchi A. Otajonovaning ma’lumot berishicha etnonimlarning nomlanish mezonlari turlicha bo‘lgan. Ularning ba’zilari totemlar asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, ayrimlari tamg‘a va belgilar asosida hosil bo‘lgan,

boshqalari esa rang-sifat bildiruvchi hamda miqdor bildiruvchi so‘zlarga asoslangan. [1,34] *–chi* affiksi bilan yasalgan *qo‘zichi* etnonimining ham yuzaga kelishida *qo‘zi* totemiga yasovchi *–chi* affiksining qo‘shilishi natijasida asosdan anglashilgan narsa bilan bog‘liq kasb, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasalgan va bu keyinchalik shu asosidagi etnonim paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, etnonimlar yasalishida ishtirok etgan eng faol derivatsion affikslardan yana biri *–li* yasovchi morfemasidir. Bu qo‘shimcha serunum qo‘shimcha bo‘lib, shaxs yoki narsa-predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligini, unda shunday narsa borligi bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini bildiruvchi sifat yasaydi. [5, 112] Mazkur affiks o‘zbek xalqining bevosita bir millat sifatida shakllanishida xizmat qilgan va uning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lgan *boltali, ilonli, suloqli, taroqli, tortuvli, tuyoqli, qo‘chqorli, qaychili, qanjig‘ali, qarg‘ali* kabi etnonimlarda ham yasovchi qism vazifasini bajarib, asosdan anglashilgan narsaning mavjudligi yoki urug‘ning shu narsa bilan bog‘liqligini anglatmoqda.

Etnonimlarning paydo bo‘lishi va etimologiyasi xususida toponimist olim T.Nafasov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Chorvachilik bilan shug‘ullangan har bir etnik birlikning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Tamg‘a esa oddiy shakl, chiziq emas, ramziy nishon, belgi vazifasini bajargan. Shu maqsadda tamg‘alar mollarning kuragi, ko‘kragi, bo‘yni, soni, sag‘risi kabi ko‘rinarli joylariga qo‘yilgan”. [6, 19] Bu kabi tamg‘alar chorva mollarining ma’lum etnik birlikning moli ekanligini belgilab turgan. Aholi shu tamg‘aga qarab mollarini, boshqa aholi mollaridan ajratib olishgan. Keyinchalik bu tamg‘a etnik birlikning nomiga ko‘chgan. Etnik birlik o‘troq hayot kechira boshlagan qishloq esa shu nom bilan atala boshlangan.

G.I.Donedzining ta’kidlashicha, -li qo‘shimchasi atoqli va turdosh otlardan hosil bo‘lgan geografik nomlar tarkibida uchraydi. Mazkur qo‘shimcha fonetik variantlarda qozoq, qoraqalpoq, tatar, turkman tillari toponimiyasida ham kuzatiladi” [7, 155] Bu derivatsion morfemaning yana bir xususiyati son+ot, ot+ot, sifat +ot tipidagi kompozitsiya usulida yasalgan qo‘shma ot tarkibli otlarga qo‘shilib *yettiuyli, qo‘shtamg‘ali, qozoyoqli, jag‘alboyli, oytamg‘ali, oqqo‘yli, ko‘kto‘nli, qoraqo‘yli, sario‘roqli, pastbolg‘ali, kattakang‘li, kattao‘roqli, yomonkang‘li* kabi etnonimlar yasashda ham faol qatnashgan va asosdan anglashilgan narsa bilan bog‘liqlik semasini anglatadi. Bu etnonimlarning aksariyati esa bugungi kunda so‘z yasalishining onomastik konversiya usulida toponimga aylangan va vatanimiz toponimiyasining boyishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, har qanday so‘z toponimga aylangunga qadar ma’lum lingvistik bosqichlarni, masalan, so‘zyasalishi, leksikalizatsiya,

konversiya kabi jarayonlarni boshidan kechirishi mumkin. So‘zning toponimizatsiya jarayoniga o‘tgunga qadar bo‘lgan holatini, ya’ni apellyativ leksika holatini alohida o‘rganish lozim. Shuningdek, etnotoponimga aylangan etnonimlarning derivatsion xususiyatlarini ham tadqiq qilish tilshunoslikning onomastika sohasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Otajonova. Xorazm etnotoponimlari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1997.
2. Н. Маҳмудов. Иборалар ва уларнинг лугавий тавсифига чизгилар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент – 2022. – №3. – Б.3.
3. G‘.Abdurahmonov va boshqalar. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Darslik. – Toshkent. 2008. – 112 b.
4. Turdimurodov U. “Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi” filol.fan.b.fal.dok…diss – Samarqand, 2023. – 91 b.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 112.
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 19.
7. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 155.,

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA FE’LLARNING SHAXS-SON QO‘SHIMCHALARINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Davlatova Saida Tojimuxammadovna,
Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:
Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolalarni fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tanishtirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash, ularning fikrlash faoliyatini faollashtirish hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Juftlikda ishlash”, “Rolga kirish” kabi usullar amaliyotda qo‘llanilgan. Tajriba-sinov natijalari interfaol metodlardan tizimli ravishda foydalanish o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi vas hu bilan birgalikda o‘quv jarayonining

samaradorligini yuksaltirishini ko‘rsatdi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, fe’l, shaxs-son qo‘shimchalari, interfaol metodlar, pedagogik samaradorlik, grammatik kompetensiya, ijodiy fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, ta’lim sifati, o‘quvchi faolligi.

Annotation:

This article examines the pedagogical effectiveness of applying interactive methods in teaching personal-number verb endings within primary education. The research focuses on how interactive approaches such as *Brainstorming, Clustering, Insert, Pair Work,* and *Role-Play* enhance pupils’ grammatical competence, stimulate creative thinking, and improve their communicative abilities. The experimental findings demonstrate that systematic use of interactive methods increases students’ classroom engagement, fosters independent thinking, and raises the overall efficiency of the learning process. The paper also offers methodological recommendations for primary school teachers seeking to strengthen grammar instruction through interactive pedagogy.

Key words: primary education, verb, personal-number endings, interactive methods, pedagogical effectiveness, grammatical competence, creative thinking, communication skills, learning quality, student engagement.

Bola uchun maktabda, umuman hayotdagi eng birinchi ideali o‘qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yaxshi bilim olishida ustozning o‘rni beqiyos.Ta’lim jarayonini boshqarish o‘qituvchidan katta mahorat talab qilinadi. O‘z faoliyati va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish yo‘llarini, bilimini nazorat qilish, ta’lim natijasini tekshirib, maqsadning nechog‘li amalga oshirganini aniqlaydi. Ta’lim jarayonida ona tili darslarida murakkabliklarga e’tibor qaratilmas ekan, keyinchalik o‘quvchining yozma nutqida, bilimida bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ona tili fanidan ta’lim mazmuni shunday bo‘lishi kerakki, o‘quvchi dars jarayonida o‘ylashga, fikrlashga, taqqoslashga, umumlashtirishga harakat qilsin.

Ona tili fanidan fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi mavzusini o‘rgatishda avval o‘quvchilarga fe’l so‘z turkumining gapdagi vazifasi, bo‘lishli va bo‘lishsizligi, so‘roqlari haqida to‘liq tushuncha berish kerak. O‘quvchilarga **yuguramiz, yozamiz, o‘ynaymiz, turamiz** so‘zlari fe’l ekanini, ularning gapda kesim bo‘lib kelayotganini eslatish kerak. (Taqdimot orqali shu so‘zlarga oid harakatlar ko‘rsatilishi mumkin). O‘quvchilarining qo‘liga qog‘ozda yozilgan so‘zlar tarqatiladi. Ular so‘zlarni o‘qib shu so‘zlarda ish harakati bajarilganligi yoki bajarilmaganligini izohlaydilar. Shu tariqa bo‘lishli yoki bo‘lishsiz fe’l haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

Qo‘shimcha topshiriqli diktant.

Bu ish turi mavzuni yaxshiroq tushinishiga yordam beradi. O‘quvchilarning e‘tibori ekranga qaratiladi. Taqdimotda yozilgan matn o‘qitiladi. So‘roqlar yordamida fe’l aniqlanadi.

1-gap:

Men kutubxonaga bordim.

Bu gapda fe’l oxiridagi **-im** qo‘shimchasi qanday ma’noni anglatadi? (o‘quvchilar o‘ylanadi)

-Men nechanchi shaxs?

-I shaxs **–im** qo‘shimchasi harakatni I shaxs bajarganini anglatadi.

Bu gapdagi men olmoshining o‘rniga **biz** so‘zini qo‘yib, gapni o‘qing. Fe’lda qanday o‘zgarish bo‘ldi? (Biz kutubxonaga bordik.)

Fe’l oxiridagi **–m** o‘rniga **–k** qo‘shimchasini qo‘yildi. (**-k** qo‘shimchasi I shaxs ko‘plik qo‘shimchasi)

2-gap:

Sen qaysi kitobni o‘qiyapsan?

Bu gapdagi harakatni kim bajargan? (II shaxs bajargan)

-san II shaxs birlik qo‘shimchasi.

3-gap:

Ular suzishni o‘rgandilar.

3-gapdagi u olmoshining ko‘pligini qo‘yib, gapni o‘qing.

- Fe’lga qanday qo‘shimcha qo‘shiladi?

(**-lar** qo‘shimchasi qo‘shilgan)

Shaxs son qo‘shimchalari harakatning uch shaxsdan biri tomonidan birlik va ko‘plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

O‘quvchilarga shaxs-son qo‘shimchalari ko‘rsatilgan jadval havola qilinadi. Shu paytda o‘quvchilar oldida turgan muammoga aniqlik kiritiladi.

Yuqorida fe’llarga qo‘shilgan – **m, -man, -ng, -san, -k, -miz, -ngiz, -siz, -di** lar shaxs son qo‘shimchalaridir. Ular harakatning I, II va III shaxs tomonidan birlik va ko‘plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

Ona tilida qo‘shimchalar har doim oldidan chiziqcha bilan yoziladi.

Masalan:

- **siz** qo‘shimchasi hamda **siz** kishilik olmoshi. Buni o‘quvchilar chiziqcha (-) orqali farqlaydilar. O‘qituvchi buni alohida tushuntirib o‘tishi kerak bo‘ladi.

Shundan so‘ng darslikdagi 1-topshiriq bo‘yicha berilgan “O‘qish savodxonligi” darsligidagi “Tabiat - bebaho ne’mat” matnida ishtirok etgan fe’llar[48] aniqlanadi va jadval asosida fe’llarning tuslanishi tushuntiriladi.

[48] Ona tili 4-sinf IV qism Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik “Novda Edutainment” Toshkent-2023. 75-bet.

Shaxslar	**Sonlar**	
	Birlik qo‘shimchalari	**Ko‘plik qo‘shimchalari**
I shaxs	qaytdi**m**, ishlayap**man**	qaytdi**k**, ishlayap**miz**
II shaxs	qaytdi**ng**, ishlayap**san**	qaytdi**ngiz**, ishlayap**siz**
III shaxs	qaytd**i**, ishlayap**ti**	qaytdi**lar**, ishlayapti**lar**

Jadval orqali o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Darslikdagi 96-mashq.

O‘quvchilar gaplarni o‘qishadi va so‘roqlar yordamida harakatni bildirgan so‘zni topadi. (nima qildim? bordim)

- Harakatni kim bajardi? (Kim bordi? – Men bordim. Harakatning egasi **men** so‘zi:)
- Harakatni nechanchi shaxs bajargan? (I shaxs)
- **men bordim** so‘zlari gapning qanday bo‘laklari? (Bosh bo‘laklari. Men – egasi, bordim – kesimi.)

Shu tariqa o‘quvchilar harakatni qaysi shaxs bajarayotganini aniqlaydilar, gaplarning o‘zaro farqini topib shaxs son qo‘shimchalarini tegishlicha belgilaydilar.

Men bordim, sen boryapsan, u bordi kabi.

Darslikdagi 97-mashqni bajarishda o‘quvchilar jadval bilan ishlaydilar, ya’ni berilgan fe’llarni namuna asosida tuslash kerak bo‘ladi: **chizdi, bo‘yadi, keldi, yurdi**.

Fe’llarni I va II shaxs birlik va ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llab yozadilar.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	Yozdim, yozaman, yozay(in)	Yozdik, yozamiz, yozaylik
II shaxs	Yozding, yozasan, yoz(gin)	Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)
III shaxs	Yozdi, yozadi, yozsin	Yozdilar, yozadilar, yozsinlar

Yuqoridagi berilgan tushunchalar asosida 98-mashqni o‘quvchilar mustaqil bajaradilar. Mashqning shartida berilgan topshiriq asosida I va II shaxsda berilgan so‘zlarni III shaxsda ifodalab davom ettiradilar.

Darsning mustahkamlash qismida test yoki saylanma diktantdan foydalanish mumkin.

1) I shaxs birlikdagi fe’llar berilgan qatorni belgilang.

A) o‘qidik, yozdik, ko‘ryapmiz

B) Ishlayapman, o‘qimoqchiman, yozdim

D) kuldi, ushladi, chizyapti;

2) III shaxs bajargan harakatni bildirgan fe’l qatnashgan gapni aniqlang.

A) Men sport musobaqasiga bordim.

B) Nargiza buvisini ko‘rib quvondi.

D) Siz qachon biznikiga borasiz?

Saylanma diktant

Saylanma diktant o‘rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo‘llashda yordam berish bilan birga, o‘quvchilar mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlashga ham juda katta imkon beradi. Diktantning bu turida o‘quvchi matnning yoki gaplarning hammasini yozmay, o‘rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so‘zlar yoki so‘z birikmalarinigina saylab olib yozadi, shuning uchun ham u saylanma diktant deyiladi[49].

Saylanma diktantni quyidagicha o‘tkazish mumkin: o‘qituvchi saylanma diktant uchun mavzuga mos so‘zlar, gaplar ko‘proq ishtirok etgan matnni tanlaydi. Matn darsdan oldin doskaga yoki ko‘chma doskaga yozib qo‘yiladi. O‘qituvchi matnni bir marta ifodali o‘qib beradi, so‘ngra tahlil qilinib, o‘rganib chiqilgan mavzu asosida yoziladigan so‘zlar aniqlanadi. Shu asosda mavzu qoidasi takrorlanib, mustahkamlanadi. Keyin esa o‘quvchilar diqqati ko‘chma doskadagi yozuvga jalb qilinadi, bir o‘quvchiga o‘qitiladi. Shundan so‘ng doska parda bilan berkitib qo‘yiladi va o‘qituvchi bolalarga ta’kidlaydi: — Men doskaga yozilgan gaplarni tartib bilan yana bir marta o‘qiyman. Sizlar men o‘qigan gaplarni to‘liq yozmay, takrorlangan qoidaga muvofiq bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarinigina saylab yozasizlar. Agar matndagi biror gapda shu qoida asosida yoziladigan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lmasa, bu gapni butunlay yozmaysizlar. O‘quvchilar saylanma diktantni yozib bo‘lgach, doskadagi matn o‘qituvchi rahbarligida o‘qitiladi va tekshiriladi: o‘qituvchi saylab yozish lozim bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasining tagiga chizadi, o‘quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtirib tekshirib, xatolarini tuzatadilar[50].

Masalan o‘qituvchi saylanma diktant uchun mavzuga mos so‘zlar, gaplar ko‘proq ishtirok etgan matnni ekranda namoyish qiladi. Bu matndan I, II va III shaxs bajargan harakatni bildirgan fe’llarni topib, tanlab olib yozish aytiladi.

O‘quvchilar fe’llarni 3 ta shaxsga ajratib, 3 ustunga yozadilar.

Shunday qilib o‘quvchilarning e’tibori ekranda namoyish qilinayotgan taqdimotga qaratiladi.

Saylanma diktant


ko‘rdim, yozding, kelmoqchi, chizyapman, o‘qidilar, ishlayapmiz, bormoqchisan, qo‘yasiz, kuldi, ovladik, ketyapsiz, bordilar.

[49] Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA DIKTANTLAR TO‘PLAMI. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) TOSHKENT «VEKTOR-PRESS» 2011.

[50] Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA DIKTANTLAR TO‘PLAMI. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) TOSHKENT «VEKTOR-PRESS» 2011.

Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng ekranda topshiriqning to‘g‘ri yozilgan variantidan o‘zlarining ishlarini tekshiradilar yoki o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar. Har bir guruh 1 tadan har bir shaxsga tegishli bo‘lgan so‘zlarni ajratib yozadilar va yozganlarini o‘qib, tekshiradilar.

Mana shunday usullardan foydalanish o‘quvchilarga fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi, harakatni qaysi shaxs tomonidan bajarilganini qo‘shimchalar orqali aniqlanishi, shaxs-son qo‘shimchasining yozilishi haqida chuqurroq bilim berish, o‘quvchilarni fanni yaxshi o‘zlashtirishlariga, ularning og‘zaki va yozma nutqini yanada o‘stirishga yaxshi samara beradi deb o‘ylayman. Shaxs-son qo‘shimchalarni gapda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatishda **“Mosini toping”** usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan:



Bugungi kun o‘qituvchisi har qanday yangiliklarga intiluvchan bo‘lishi o‘quvchilarga bor bilimini yuksak darajada yetkaza olishi zarur.

Darsni yuqori saviyada o‘tish biz o‘qituvchilarning eng asosiy vazifamizdan biridir.

Mazkur mavzu orqali o‘quvchilarda nafaqat grammatik bilimlar, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, jadval, taqdimot, test va diktant kabi turli metodik usullarni uyg‘unlashtirish dars samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamroyev A.R. Po‘lotova Y.A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent – 2021
2. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova Diktantlar to‘plami. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun (qayta ishlangan ikkinchi nashri) Toshkent «Vektor-Press» 2011.
3. Ona tili 4-sinf III qism Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik “Novda Edutainment” Toshkent-2023.
4. Ona tili 4-sinf IV qism Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik “Novda Edutainment” Toshkent-2023. 75-bet.
5. Ona tili 4-sinf . O‘qituvchilar uchunmetodik qo‘llanma. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik “Novda Edutainment” Toshkent-2023. 75-bet.

6. Davlatova, S., & Xodjayeva, M. (2024). 4-sinf ona tili savodxonligi darslarida “Sifat so ‘z turkumi” bilan tanishtirishning innovatsion usullari. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, *10*, 115-118.

7. Oyjamol, r. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholovchi pirls xalqaro tadqiqoti. *Qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 603-605.

THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LANGUAGE EDUCATION

Sultonova Zeboxon G‘ayrat qizi,
Master’s Student, Urgench State Pedagogical Institute
E-mail: sultanovazebo0611@gmail.com

Annotation. The article explores the use of pedagogical technologies in language education, highlighting their role in improving teaching effectiveness and learner engagement. It emphasizes how innovative methods, digital tools, and interactive strategies contribute to the development of communicative competence and critical thinking skills. Special attention is given to learner-centered approaches that foster motivation, creativity, and collaboration in the language classroom. The study concludes that the integration of modern pedagogical technologies in the educational process enhances both the quality of teaching and the overall learning outcomes in foreign language acquisition.

Keywords: language education, pedagogical technologies, innovative methods, digital tools, teaching strategies, learner-centered approach, effective communication, interactive learning, foreign language teaching, educational process.

INTRODUCTION

In the modern era of globalization, the demand for effective language education has significantly increased, as foreign languages serve as a crucial tool for intercultural communication, professional development, and academic success. Traditional teaching methods alone are no longer sufficient to meet the needs of 21st-century learners, who require interactive, learner-centered, and technology-based approaches. Therefore, the integration of pedagogical technologies into language education has become one of the most relevant issues in contemporary pedagogy.

Pedagogical technologies in language teaching are understood as a set of innovative methods, digital tools, and instructional strategies aimed at enhancing learners’ motivation, communicative competence, and critical thinking skills. The use of multimedia resources, online platforms, and interactive applications fosters active participation and allows learners to practice language skills in authentic contexts. Moreover, these

technologies promote individualized learning, immediate feedback, and collaboration, which are essential for developing both linguistic and cognitive abilities.

The relevance of this research lies in the need to identify and analyze the role of pedagogical technologies in improving the quality and efficiency of language education. The present study aims to explore how technology-assisted teaching methods contribute to language acquisition, what challenges educators face in their implementation, and what strategies can be proposed to maximize their effectiveness in practice.

LITERATURE REVIEW

The integration of pedagogical technologies in language education has been actively studied by many researchers. It is noted that technology-enhanced learning environments increase learners’ communicative competence, motivation, and autonomy [1, 24]. Digital platforms such as online discussion boards and learning management systems provide authentic contexts and encourage collaborative learning in language classrooms [2, 18].

Multimedia applications and gamified learning platforms also play a crucial role in providing meaningful practice opportunities, which are essential for language acquisition [3, 45]. Computer-assisted language learning (CALL) offers personalized feedback and adaptive tasks, allowing learners to progress at their own pace [4, 67]. In addition, blended learning models that combine face-to-face instruction with online resources are reported to significantly outperform traditional methods [5, 56].

At the same time, some studies emphasize challenges in the application of pedagogical technologies. Among these are insufficient digital literacy among teachers, lack of resources, and limited methodological frameworks for effective integration [6, 29]. Therefore, it is stressed that teacher training, curriculum adaptation, and institutional support are necessary conditions for successful implementation [7, 33].

In summary, literature analysis shows that pedagogical technologies bring innovation into language education, making the process more interactive and learner-centered. Yet, the degree of effectiveness depends on overcoming institutional and methodological barriers.

RESEARCH METHODOLOGY

This study applied a mixed-methods research design, combining both qualitative and quantitative approaches. Such integration was chosen to provide a more comprehensive understanding of how pedagogical technologies influence language learning processes [8, 44].

Research design. The research was based on literature analysis**,** teacher interviews**,** and student surveys**.** This triangulation of methods allowed for cross-verification of findings and increased the reliability of results [9, 27].

Participants and Sampling. The participants included 45 undergraduate students and 12 language teachers from the Urgench State Pedagogical Institute. A purposive sampling method was applied to ensure that the selected group had prior experience in using technological tools for language learning, such as mobile applications, online testing platforms, and interactive multimedia resources.

Data Collection. Three instruments were employed:

Questionnaires – to examine students’ perceptions of the effectiveness of pedagogical technologies.

Interviews – to collect teachers’ opinions on challenges and benefits of technology integration.

Classroom observations – to document how technologies were practically implemented during lessons [10, 19].

Data Analysis. Qualitative data were analyzed thematically, focusing on motivation, learner autonomy, and teacher readiness. Quantitative data were processed through frequency and correlation analysis, which provided measurable insights into patterns of technology use [11, 52].

Ethical Considerations. All participants were informed about the purpose of the research, and their anonymity was fully guaranteed. Ethical guidelines for educational research were strictly followed to ensure objectivity and academic integrity [12, 31].

In conclusion, the chosen methodology provided both theoretical depth and empirical evidence, ensuring that the research findings can contribute to further development of pedagogical practices in language education.

RESULTS AND DISCUSSION

Results. The analysis of student questionnaires revealed that 78% of respondents considered pedagogical technologies as an effective tool for improving language skills, especially vocabulary and listening comprehension. Moreover, 65% of the students reported that interactive applications and online exercises increased their motivation to learn and practice outside the classroom. Teachers also emphasized that the use of multimedia presentations and digital platforms allowed them to save instructional time and provide more individualized feedback to learners [13, 42].

Observations conducted in language classrooms confirmed that students engaged more actively in technology-supported lessons compared to traditional ones. Group activities using digital tools, such as online quizzes and collaborative writing platforms, significantly enhanced participation and promoted peer-to-peer learning. This finding supports earlier research that highlighted the role of interactive learning environments in fostering communicative competence [14, 28].

Discussion. The obtained results indicate that pedagogical technologies not only enhance students’ engagement but also contribute to the development of learner autonomy. Students were able to practice language skills independently, using mobile applications and online resources. These findings align with global trends, where learner-centered approaches supported by technology are becoming a dominant model in language education [15, 63].

However, the study also revealed challenges. Teachers reported difficulties in integrating new tools into existing curricula due to lack of technical support and limited digital literacy. This echoes the concerns expressed by previous researchers, who emphasized that without proper teacher training and institutional support, technology integration may not reach its full potential [16, 21].

Despite these challenges, the overall outcomes demonstrate that pedagogical technologies are a vital component of modern language education. When applied systematically, they not only enrich the learning process but also prepare students for real-life communication in a globalized world.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS.

The study demonstrates that the integration of pedagogical technologies in language education significantly enhances teaching effectiveness and learner outcomes. Students’ engagement, motivation, and communicative competence increase when interactive digital tools, multimedia resources, and online platforms are systematically applied in the classroom. Pedagogical technologies also foster learner autonomy, allowing students to practice language skills independently and at their own pace.

At the same time, the research identified challenges, including limited teacher digital literacy, insufficient technical support, and the need for curriculum adaptation. These obstacles may hinder the full potential of technology-assisted language education if not properly addressed.

Based on the findings, the following recommendations are proposed:

Teacher Training: regular professional development programs should be conducted to enhance teachers’ digital skills and their ability to integrate technology into language teaching.

Curriculum Design: language curricula should incorporate technology-supported activities and assignments as an integral part of learning objectives.

Resource Availability: institutions should provide adequate technical infrastructure, including access to computers, software, and high-speed internet.

Monitoring and Feedback: continuous evaluation of technology use in classrooms should be carried out to identify strengths, weaknesses, and opportunities for improvement.

Encouraging Learner Autonomy: students should be guided to use online platforms, mobile applications, and other digital tools for independent practice outside the classroom.

In conclusion, pedagogical technologies are no longer optional in modern language education—they are essential tools for enhancing both teaching and learning. With proper implementation, they can create more engaging, effective, and learner-centered educational environments, preparing students for global communication and lifelong learning.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Richards J. C. *Key Issues in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2015.
2. Warschauer M. *The Digital Divide and Social Inclusion*. MIT Press, 2013.
3. Egbert J., Neville C. *CALL in the 21st Century: Foundations and Practices*. Routledge, 2017.
4. Chapelle C. A. *Teaching Culture in Language Learning: Technology and Pedagogy*. Wiley-Blackwell, 2016.
5. Grgurović M., Chapelle C. A., Shelley M. C. *Blended Learning in ESL/EFL Contexts: A Meta-Analysis*. Language Learning & Technology, 23(2), 2019.
6. Hubbard P. *An Invitation to CALL: Foundations of Computer-Assisted Language Learning*. CALICO, 2018.
7. Motteram G. *Innovations in Learning Technologies for English Language Teaching*. British Council, 2017.

IMPROVING MOTHER TONGUE AND LITERATURE EDUCATION THROUGH THE STEAM APPROACH

Ezoza Fayzullayeva,
Student, Mathematics Program
Shahrisabz State Pedagogical Institute
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Abstract. This article explores opportunities and advantages of implementing the STEAM approach in mother tongue and literature education. The research relevance stems from modern requirements for 21st-century education systems and the need to enhance traditional teaching methods with innovative approaches. The study applies interdisciplinary integration and competency-based methods. Results demonstrate that these methods broaden students' analytical and creative

thinking while enhancing their communicative and cultural competencies. STEAM-based lessons proved to be important tools for developing motivation, creativity, and interdisciplinary awareness among learners. Research findings provide practical recommendations for modernizing mother tongue and literature education, contributing to shaping creative, critically-minded individuals who meet 21st-century demands. The scientific contribution lies in adapting STEAM methodology to humanities education, while practical significance involves developing specific teaching strategies that integrate science, technology, engineering, arts, and mathematics with language and literature instruction.

Keywords: STEAM approach, mother tongue education, literature lesson, competency-based approach, communicative competence

Introduction. In today’s era of globalization, the requirements placed on the education system are undergoing fundamental changes. While mother tongue and literature classes previously focused mainly on instilling national values, providing moral and ethical education through literary works, and developing grammatical knowledge, their mission has now expanded significantly. These subjects are expected not only to cultivate students’ literary and aesthetic taste but also to develop logical reasoning, analytical skills, complex problem-solving abilities, creative writing, and modern communicative competences.

In 21st-century education, the STEAM approach—an integrated methodology combining science, technology, engineering, arts, and mathematics—has been widely applied, particularly in the natural sciences. However, in recent years, its effectiveness has also been increasingly recognized in the fields of literary and linguistic studies. This is because language and literature serve as the foundation of all sciences: without language, scientific concepts cannot be formed, and literature reflects the intellectual life of society. Thus, enriching mother tongue and literature education with the STEAM methodology strengthens interdisciplinary integration and prepares students to think across diverse domains.

Moreover, applying the STEAM approach in language and literature classes has its specific features. Firstly, it allows for the scientific interpretation of social, natural, and technological elements reflected in literary works. Secondly, it enables the creation of texts, digital stories, and podcasts through the use of digital tools, thereby fostering new experiences. Thirdly, it broadens the possibility of bringing literary imagery to life through visual arts, theater, or music. The distinctiveness of this approach lies in shaping students’ perception of language not merely as a set of grammatical rules but as a universal tool for thought and creative activity. Literature, in turn, becomes not just a source of aesthetic pleasure but a creative platform uniting multiple disciplines.

Literature Review. On a global scale, the STEAM approach is regarded as one of the most advanced methods for developing education on an integrative basis. In this regard, foreign scholars have paid special attention to fostering interdisciplinary integration and creative thinking in the educational process. For instance, Yakman (2008) emphasized in his research that the STEAM approach is effective not only for natural sciences but also for the humanities, particularly in developing students’ ability to solve problems from multiple perspectives.

Perignat and Katz-Buonincontro (2019), in turn, scientifically demonstrated that applying the STEAM approach to literature and the arts shapes students as “active participants and creative individuals,” enabling them not only to read texts but also to reinterpret them and express them through various media tools[1, 15].

In Uzbekistan’s educational system, scientific research is also being conducted on teaching native language and literature through innovative methods. For example, M. Jo‘rayev (2019), in his study, highlighted the effectiveness of using innovative methods in native language education, including organizing lessons on the basis of interdisciplinary integration.

Z. To‘xtayeva (2020) emphasized that applying modern pedagogical technologies in literature classes can develop students’ creative thinking[3, 35].

The analysis of these sources demonstrates that although the STEAM approach has thus far been predominantly applied in the natural sciences, it also creates broad opportunities for language and literature education. While foreign researchers highlight it as a factor in fostering creative thinking and integration, local scholars substantiate the need to adapt it to the Uzbek educational context by harmonizing it with national values, digital resources, and modern pedagogical technologies.

Methodology. Several methods can be employed in studying modern approaches to native language and literature education. In this research, the interdisciplinary integration method and the competency-based approach were taken as the primary foundations.

The interdisciplinary integration method is considered one of the most effective approaches in contemporary education. According to this method, native language and literature are taught in close relation to other social and humanitarian disciplines, such as history, philosophy, art studies, and pedagogy. For instance, while analyzing a literary work, students also study the historical context, philosophical movements, and social environment of the era, which broadens their outlook. This method develops logical and creative thinking, facilitates the holistic perception of knowledge, and allows literary analysis to be carried out in a multidimensional and profound manner.

The competency-based approach, on the other hand, serves not only to enhance students’ theoretical knowledge but also to develop their practical skills and abilities. Through this method, native language and literature teaching fosters the ability to express thoughts clearly and fluently both orally and in writing. Furthermore, cultural competence strengthens respect for national and universal values, while creative competence enhances students’ ability to independently produce literary texts, write poetry, or compose essays.

As a result of the competency-based approach, students do not merely become knowledge holders but are shaped as individuals capable of actively participating in social life. Thus, the application of these methods provides opportunities to elevate native language and literature education in line with modern requirements.

Results and Discussions. The application of the interdisciplinary integration method and the competency-based approach in this study demonstrated a number of effective outcomes in improving native language and literature education. The lessons and observations conducted with students revealed that these methods enhanced their engagement in the learning process, increased their interest, and fostered their creative potential.


First, in lessons organized on the basis of the interdisciplinary integration method, students studied literary works not only from an artistic perspective but also within their historical, cultural, and philosophical contexts. For example, while analyzing the works of Alisher Navoi, students explored the socio-political life, cultural environment, and religious thought of the 15th century. This enabled them to perceive literature in a broader scope and to gain a deeper understanding of its semantic layers. Moreover, the interdisciplinary approach helped students to develop skills in logical analysis, comparison of facts, and independent reasoning.

The competency-based approach, in turn, proved to be highly effective in terms of performance outcomes. Lessons conducted using this method significantly enhanced students’ linguistic activity as well as their oral and written expression skills. For instance, in essay-writing tasks, students demonstrated an ability to articulate their ideas clearly, logically, and creatively. Similarly, role-playing activities and debates strengthened their communicative competence. As a result, students acquired the ability to justify their opinions with evidence, to respect the viewpoints of others, and to actively participate in discussions.

During the discussion phase, it is important to note that the combined application of these two methods not only increased students’ academic knowledge but also contributed positively to their personal development. While the interdisciplinary integration method cultivated broad outlooks

and systematic thinking, the competency-based approach enhanced readiness for practical activity and nurtured creativity.

Table 1. Effectiveness of Teaching Methods in Language and Literature Education



As can be seen from the graph, the interdisciplinary integration method demonstrates high efficiency primarily in developing analytical thinking and critical reasoning skills. In this process, students study literary works within historical, philosophical, and cultural contexts and arrive at diverse conclusions.

Conclusion and Recommendations

The conducted research has shown that implementing the STEAM approach in the teaching of native language and literature, alongside the application of interdisciplinary integration and competence-based methods, plays a crucial role in enhancing the effectiveness of education. Such an approach not only provides students with knowledge but also cultivates practical skills, creativity, and logical reasoning. Teaching language and literature through the STEAM framework broadens students’ perspectives and allows them to perceive the interconnectedness of different subjects.

The interdisciplinary integration method fosters the ability to deeply explore historical, cultural, and philosophical contexts, helping learners to grasp the multidimensional nature of literature and develop independent conclusions. Meanwhile, the competence-based method contributes to shaping students not only as knowledgeable individuals but also as active, creative, and communicative personalities.

The research results indicate that when these methods are applied in harmony, students simultaneously develop skills in creative writing, logical analysis, communication, and critical thinking. Through the STEAM approach, perceiving subjects as part of a unified system strengthens integrative knowledge and innovative thinking in learners.

Based on these findings, several recommendations have been developed:

1. Introduce STEAM elements into language and literature lessons — for example, creating electronic stories, podcasts, and multimedia projects using digital technologies.
2. Organize specialized training sessions on the STEAM approach within teacher professional development programs.
3. Integrate literature lessons with history, art, music, and technology to implement interdisciplinary projects.
4. Ensure that assessment criteria in language and literature education are not limited to knowledge but also focus on creativity, communication, and critical thinking competencies.

Overall, the application of these methods not only modernizes the teaching of language and literature but also helps shape students into creative, critically minded, and active individuals who meet the demands of the 21st century.

References

1. Abdihakimov, Mirjalol. *Information Security in the IT Sector.* Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research 4.5 (2025): 15–17.
2. Amirova, Zilola. *Methodology of Teaching the Section on Working with Text Programs.* Young Scientists 3.6 (2025): 32–34.
3. Arabboyev, O‘lmas. *Automation of Engineering Works with the Help of Artificial Intelligence.* Young Scientists 3.6 (2025): 35–38.
4. Baratova, Nafisa. *The Social Principles of Blockchain Technology.* Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research 4.5 (2025): 18–20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. *Creative Ideas for Teaching Informatics to Middle School Students.* Young Scientists 3.6 (2025): 39–41.
6. Berdimuhammadov, Iskandar. *Development of Mobile Applications.* Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research 4.5 (2025): 21–23.
7. Berdishukurova, Munisa. *The Development of Programming Languages.* Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research 4.5 (2025): 24–26.
8. Boltayev, Farhod. *Methodology of Teaching the Section on Internet Basics.* Young Scientists 3.6 (2025): 46–49.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHIGA QO‘YILGAN TALABLAR

U.Sharabayev,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiyalar va ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati hamda o‘z ustida muntazam ishlash zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar; zamonaviy o‘qituvchi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, kreativlik, metodik yondashuv, pedagogik yangilanish.

Annotation; This article analyzes the requirements for a modern teacher, pedagogical skills, professional competencies and the importance of modern approaches in the educational process. It also discusses the use of innovative technologies in the education system, the social responsibility of the teacher and the need for regular self-improvement.

Keywords; modern teacher, pedagogical skills, professional competencies, innovative technologies, quality of education, creativity, methodological approach, pedagogical innovation.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan davrda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar ham tubdan yangilanmoqda. Xususan, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangicha yondashishga va jamiyatda faol ishtirok etishga yo‘naltiruvchi shaxs sifatida qaralmoqda. O‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida nafaqat pedagogik mahoratga ega bo‘lishi, balki psixologik sezgirlik, kreativ yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Shu boisdan ham ta’lim sifati va samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy fazilatlariga bevosita bog‘liqdir.Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. “Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", dedi Shavkat Mirziyoyev.[1] Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tdi.[2] Pedagogik mahoratni egallash vositalari o‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘mak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralaiini namoyon eta olishi, yetuk O‘qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlami tayy

orlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy vondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib. u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlari, O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiyiami tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘ lish, ilg‘or xorijiy davlatlaming o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib borayotgan bugungi davrda zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni ilmiy asoslash ko‘plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ta’lim jarayonida muhim omil sifatida e’tirof etiladi.Masalan, A. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida o‘qituvchini millatning kelajagi, yosh avlodning ma’naviy yetakchisi sifatida ta’riflab, uning axloqiy tozaligi va ma’rifatparvarligini asosiy shart sifatida ko‘rsatadi. Abu Nasr Forobiy esa “Fozil odamlar shahri” asarida bilimli, odil va barkamol shaxsni yetishtirish uchun o‘qituvchining o‘zida ham mukammal fazilatlar mujassam bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Zamonaviy pedagogikada ham ushbu fikrlar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.XXI asr pedagogikasida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki quyidagi jihatlarni ham qamrab oladi:

- Kasbiy kompetensiya – o‘qituvchining fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi va uni samarali yetkazib berish ko‘nikmalari;
- Pedagogik mahorat – o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish, turli metodlardan foydalanish;
- Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash – axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli resurslar, interaktiv uslublarni darsga tatbiq etish;
- Ijtimoiy va psixologik sezgirlik – o‘quvchi shaxsini tushunish, ularning qiziqishi, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Doimiy o‘zini rivojlantirish – mutaxassis sifatida yangi bilimlarni o‘rganish, malaka oshirish, xorijiy tajribalarni tahlil qilish.

Metodologik jihatdan qaralganda, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda innovatsion pedagogika nazariyalariga asoslanadi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning bilimini emas, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim esa har bir o‘quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olib, o‘qituvchidan individual yondashuvni talab etadi.Xorijiy

tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy o‘qituvchi “ta’lim yetkazuvchi” emas, balki “o‘quv jarayonining tashkilotchisi, yo‘lboshchisi va hamkori” sifatida qaraladi. Shu bois, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘qituvchining pedagogik yangilanishi va kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda.Shunday qilib, adabiyotlar tahlili o‘qituvchining faqatgina bilim beruvchi emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va innovatsion lider sifatida faoliyat yuritishi kerakligini ko‘rsatadi. Metodologik yondashuv esa bu jarayonda zamonaviy pedagogikaning ilmiy asoslari va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga tayanadi.Yosh o‘qituvchilaming ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin. Mustaqil o‘qib-o‘rganish (pedagogika fanida ro‘y berayotgan eng so‘nggi yangiliklar haqida ma’lumotlami beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalami umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalami tayyorlash).Tajribali ustoz o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib. vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg‘ulotlami kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlami umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir). O‘qituvchi xodimlami qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalami oshirib borish.Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarian pedagogik o‘qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlaming yetakchi ta’lim muassasalarida o‘z tajribalarini oshirish, kasbi bo‘yicha eng so‘nggi ma’lumotlami o‘rganish. Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommav tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o‘zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalami boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklami o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yoilarmi topish imkoniyati mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan adabiy va metodologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qituvchi ta’lim tizimining markaziy figuralaridan biri bo‘lib, uning kasbiy va shaxsiy fazilatlari ta’lim samaradorligini bevosita belgilaydi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o‘qituvchiga

qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda va ular faqat nazariy bilim bilan cheklanmaydi. Bugungi kun o‘qituvchisi ta’lim jarayonida bilim beruvchi, tarbiyachi, motivator, psixolog, va hatto innovatsion texnologiyalarni qo‘llovchi ijodkor shaxs sifatida faoliyat yuritishi talab qilinmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

1. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish – o‘qituvchi o‘z fanini mukammal bilishi bilan birga, uni o‘quvchilarga tushunarli va samarali tarzda yetkazib bera olish mahoratiga ega bo‘lishi zarur.
2. Innovatsion yondashuvlar – zamonaviy o‘qituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, raqamli platformalardan, interaktiv metodlardan faol foydalanishi natijasida ta’lim sifati ortadi.
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biri ekanligi tasdiqlandi.
4. Ma’naviy-axloqiy yetakchilik – o‘qituvchi yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi shaxs bo‘lib, ularning ijtimoiylashuvi va barkamol inson bo‘lib yetishishida asosiy rol o‘ynaydi.
5. Doimiy o‘zini rivojlantirish – pedagog o‘z bilimini muntazam yangilab borishi, malaka oshirish kurslarida qatnashishi, xorijiy tajribalarni o‘rganishi natijadorlikni oshiradi.

Muhokamalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi faoliyati endilikda “bilim uzatuvchi” modeldan “ta’lim jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi” modelga o‘tmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda asosiy omil hisoblanadi.Shu bois, natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati, shaxsiy fazilatlari va yangiliklarga ochiqligiga bog‘liq bo‘lib, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilgan talablar ularning ijtimoiy mas’uliyatini yanada oshirmoqda. Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’ minlash garovi boiibgina qolmay, ayni vaqtda o‘qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshiradi, o‘quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlami tashkil etish pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyadarga erishish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchi pedagogik mahoratini “O‘qituvchilarni axloqiy shakllanishi” yo‘nalishida o‘rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim manbasi axloq deb ta’kidlal kasbga oid axloq normalarini shunday ta’riflaydi “Faoiiyatning taalluqli bir sohasi bilan shug‘ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar talablar xam bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. He bir jamiyatda hukumron bo‘lgan axloq

bilan kasb axloqi o‘rtasida taalluqli bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o‘rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidala, va kamchiliklarini o ‘zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi v rivojlantiradi ” Pedagogik mahoratning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, unui o‘qituvchi shaxsi va kasbi to‘g‘risida mukammal ma’lumot va tushur chalarga ega ekanligidadir.

XULOSA

Yuqoridagi ilmiy tahlillar va muhokamalardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar ta’lim tizimining taraqqiyoti va jamiyat ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi pedagog nafaqat o‘z fanini chuqur biluvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, ularni mustaqil fikrlash va yangicha qarashlarga yo‘naltiruvchi shaxs bo‘lishi lozim.O‘qituvchi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini qo‘llashi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, u yosh avlodni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalovchi, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishlariga yo‘lboshchi sifatida ham mas’uliyatlidir. O‘qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarg ega bo‘lishi bilan birga, kasbiy, ya’ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo‘lishi lozimligini tajriba ko‘rsatmoqda. Musiqa fani o‘qituvchilari kuchli pedagogic mahoratga ega bo‘lishlari talab etiladi.Chunki bolalarni musiqa olamiga olib kirish uchun pedagogik mahorat, musiqiy bilim uygunlashmog‘i kerak.Bolaga musiqa olamining naqadar betakror go‘zalligini xis qildirish, ko‘rsatish uchun o‘qituvchining o‘zi shu olamda yashashi va tushunishi xam muhim

Shu bois, zamonaviy o‘qituvchi faoliyati uzluksiz o‘zini rivojlantirish, yangiliklarga ochiqlik va xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali yanada samarali bo‘lishi mumkin. Zero, o‘qituvchining bilimdonligi, mahorati va shaxsiy fazilatlari – ta’lim sifatini, yoshlarning kelajagini va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.

2. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*, 127-132.

3. Kobilova, Ye. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF

STUDENTS. *Mejdunarodnыy mulьtidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok*, *1*(1), 156-159.

4. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. *University Research Base*, 46-49.

5. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(26), 192-195.

6. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. *Pedagogikada ilmiy izlanishlar*, *2*(1), 28-31.

7. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *4*(02), 44-49.

QADIMGI SHARQDA USTOZ-SHOGIRDLIK- MAKTABLARI.

O.Tilloxo‘jayev,
Qo‘qon davlat universiteti “Musiqa nazariyasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya; Ushbu maqolada Qadimgi Sharqda shakllangan “ustoz-shogird”chilik maktablari, ularning ilm-fan, madaniyat va hunar o‘rgatish jarayonidagi o‘rni hamda ahamiyati yoritiladi. Ustoz-shogird an’anasining ijtimoiy va ma’naviy hayotda tutgan o‘rni, yosh avlodni hunar va bilimga yo‘naltirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maktablarning bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun ahamiyati ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi Sharq, ustoz-shogird an’anasi, maktab, madaniyat, ta’lim-tarbiya, hunar o‘rgatish,madaniyat, ma’rifat,ta’lim, tarbiya.

KIRISH

Qadimgi Sharq xalqlari madaniyatida ta’lim-tarbiya masalalari muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, ilmiy bilimlarni, san’at va hunarlarni yosh avlodga yetkazishda “ustoz-shogird”chilik an’anasi keng tarqalgan. Bu tizim nafaqat o‘qitish, balki insoniy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish, hunar va tajribalarni o‘zlashtirish jarayonida ham muhim bo‘lgan. Sharq tafakkurida ustozning shogird tarbiyasidagi o‘rni muqaddas deb qaralib, bu jarayon jamiyatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.Qadimgi Sharq xalqlari insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan boshlab, ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratgan. Sharq madaniyati o‘zining boy ilmiy merosi, diniy-falsafiy qarashlari, adabiyoti va san’ati bilan jahon tamaddunida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash va ularga bilim-hunar berishda shakllangan “ustoz-

shogird” an’anasi Sharq jamiyatlarining poydevoriy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Bu tizim ming yillar davomida nafaqat ta’limiy, balki ma’naviy-ma’rifiy maktab sifatida ham amal qilgan.Ustoz-shogird maktablari Sharqda turli ko‘rinishda namoyon bo‘lgan: diniy maktablarda muqaddas kitoblar va diniy ilmlar o‘rgatilgan, saroy maktablarida davlat arboblari va sarkardalar tayyorlangan, hunarmandchilik ustaxonalarida esa kasb-hunarlar egallangan. Shu jarayonda shogird ustoz nazorati ostida nafaqat bilim va tajriba, balki hayotiy falsafa, axloqiy qadriyat va ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘zlashtirgan. Bu esa ustoz-shogird tizimini oddiy ta’limiy shakldan ko‘ra kengroq, ma’naviy maktab darajasiga ko‘targan.Qadimgi Sharq mutafakkirlari ham bu tizimning ahamiyatiga alohida urg‘u berishgan. Masalan, Konfutsiy ta’limotida ustoz-shogird munosabatlari jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida ko‘rilgan. Zardusht ta’limotida ustoz — ezgulikni yoyuvchi va shogird esa uni davom ettiruvchi sifatida talqin qilingan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy singari buyuk allomalar ham ustozning shogird kamolotidagi o‘rnini beqiyos deb ta’kidlaganlar.Sharq xalqlarida ustoz shaxsiga juda katta hurmat ko‘rsatilgan. Shogird uchun ustoz nafaqat bilim manbai, balki hayotiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, odob-axloqni singdiruvchi, ijtimoiy hayotga tayyorlovchi timsol bo‘lgan. Shu bois, ustoz-shogird maktablari yoshlarni ma’naviy barkamollikka, ijtimoiy mas’uliyatga va kasbiy mahoratga yetaklagan muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi.Bugungi kunda ham ushbu an’ananing qadri yo‘qolmagan. Zamonaviy ta’lim tizimi ko‘plab jihatlarda qadimgi ustoz-shogird tajribasiga tayanadi. Xususan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik, kasb-hunar o‘rgatish jarayonlari hamda ustozning tarbiyaviy vazifalari qadimiy an’analar davomidir. Shu ma’noda, qadimgi Sharqdagi ustoz-shogird maktablarini chuqur o‘rganish bugungi ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi Sharqda ustoz-shogird maktablari masalasi ko‘plab tarixiy, falsafiy va pedagogik manbalarda o‘z aksini topgan. Masalan, Mesopotamiyada **edubba** (“tablet uyi”) maktablari yozuvchilarni tayyorlashda markaziy o‘rin tutgani haqida ilmiy adabiyotlarda keng ma’lumot beriladi (Brewminate, 2023; History of Information, 2022). Ushbu maktablarda ustoz — “katta yozuvchi” shogirdlarga mixxat yozuvini, matematik hisoblarni va huquqiy matnlarni o‘rgatgan.Misrda esa **Ptahhotepning “Maxims” asari** (mil. avv. XXIV asr) ustoz-shogird munosabatlarini axloqiy jihatdan asoslab, shogirdning ustozga itoatkorligi va odob-axloqiy tarbiya masalalarini yoritadi (Britannica, 2023). Shuningdek, Hatshepsut ibodatxonasi devor rasmlarida ustoz va shogird san’atkorlarning birgalikdagi mehnati tasvirlangan (ResearchGate,

2021).Hindistonda **Gurukul tizimi** o‘ziga xos ustoz-shogird maktabi bo‘lib, bunda shogirdlar ustozning uyida yashab, diniy-falsafiy bilimlar, Veda matnlarini yodlash, axloqiy-ruhiy tarbiya jarayonidan o‘tishgan (Oxford Reference, 2022; Britannica, 2023). Bu tizimda ustoz — “guru”, shogird esa — “shishya” bo‘lib, ularning munosabati ruhiy-axloqiy asosda shakllangan.Xitoyda esa Konfutsiy ta’limoti asosida ustoz-shogird munosabatlari falsafiy maktab darajasiga ko‘tarildi. **“Lunyu” (“Analektlar”)** asarida ustoz o‘z shogirdiga bilimni faqat “yo‘l ko‘rsatuvchi” sifatida berishi, qolganini esa shogird mustaqil izlashini ta’kidlaydi (Britannica, 2023). Shuningdek, Xitoy hunarmandchilik maktablarida ham “shifu–tudi” (ustoz–shogird) tizimi asrlar davomida ustuvor bo‘lib kelgan (Taylor & Francis, 2017).Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarning ko‘rsatishicha, ustoz-shogird maktablari Sharq xalqlarida nafaqat kasbiy va ilmiy bilimlarni berish, balki axloqiy-ma’naviy tarbiya, shaxs shakllanishida ham muhim ijtimoiy institut vazifasini bajargan.Mazkur tadqiqot tarixiy-falsafiy va qiyosiy-pedagogik metodlarga tayangan holda olib boriladi.

1. **Tarixiy yondashuv** — Qadimgi Sharq maktablari (Mesopotamiya edubba, Misr ibodatxona maktablari, Hindiston gurukul, Xitoy konfutsiy maktablari)ning shakllanishi va rivojlanishi davrlar bo‘yicha tahlil qilindi.
2. **Qiyosiy metod** — Turli sivilizatsiyalardagi ustoz-shogird tizimlari o‘zaro solishtirilib, umumiylik va farqli jihatlar ochib berildi. Masalan, Misrdagi axloqiy yo‘nalish, Hindistondagi diniy-ma’naviy tarbiya, Xitoydagi falsafiy asos va Mesopotamiyadagi amaliy yozuv-hisob mashqlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlar.
3. **Pedagogik tahlil** — Ustoz-shogird tizimining ta’limiy jarayondagi ahamiyati, metodlari (og‘zaki saboq, yozuv mashqlari, hunar o‘rgatish, ma’naviy tarbiya) ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o‘rganildi.
4. **Manbashunoslik** — Ptahhotepning “Maxims”, Konfutsiyning “Lunyu”, Vedalardagi gurukul tizimi haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, Mesopotamiya mixxat matnlari asosiy manbalar sifatida tahlil qilindi.
5. **Sistemali yondashuv** — ustoz-shogird maktablari jamiyatning ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy hayotidagi rolini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Bu metodologik yondashuv qadimgi Sharqdagi ustoz-shogird maktablarini nafaqat tarixiy hodisa, balki hozirgi ta’lim-tarbiyaga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-pedagogik meros sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qadimgi Sharqda ustoz-shogird maktablari jamiyat taraqqiyoti va madaniy hayotida muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritgan.

Ularning asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki insonni jamiyatga tayyorlash, ma’naviy-axloqiy barkamollikka yetaklash, kasbiy mahoratni shakllantirishdan iborat bo‘lgan.Tarixiy manbalar tahliliga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**Bilim va yozuv maktablari (Mesopotamiya, Misr):**Bu maktablarda ustoz-shogird tizimi yozuvchilar, hujjatshunoslar, hisobchilarni tayyorlashda asosiy rol o‘ynagan. Ustozlarning saboq berish usullari qat’iy intizom, yozuv mashqlari va og‘zaki darslarga tayanib, shogirdlarning kasbiy savodxonligini oshirishga qaratilgan.**Hunar va amaliy maktablar (Sharq hunarmandchiligi):**Temirchilik, kulolchilik, me’morchilik, naqqoshlik kabi kasblar ustoz-shogird tizimi asosida rivojlangan. Bu jarayonda shogirdlar ustoz nazorati ostida amaliy mashqlar orqali kasbiy mahoratni egallashgan. Hunar o‘rgatishda shogirdni sabr, mehnat va ustozga sadoqat ruhida tarbiyalash ustuvor bo‘lgan.**Axloqiy va ma’naviy tarbiya:**Ustoz-shogird maktablarida ilm bilan bir qatorda odob-axloq, halollik, ustozga hurmat, jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi fazilatlar singdirilgan. Ptahhotepning hikmatlari, Vedalar, Konfutsiyning “Lunyu” asarida bu tamoyillar yaqqol ifodalangan.Olib borilgan tahlillardan kelib chiqib, ustoz-shogird maktablari quyidagi natijalarni berganini ko‘rish mumkin:**Ilm-fan taraqqiyoti:** Astronomiya, tibbiyot, matematika, falsafa kabi sohalarning rivojida ustoz-shogird tizimi asosiy o‘rin tutgan. Ibn Sino, Forobiy, Beruniy kabi allomalar ham bu an’anaviy tizimda shakllangan.**Saroy va davlat maktablari** – hukmdorlar va saroy ahli farzandlarini boshqaruv, diplomatiya, harbiy san’at va adabiyot ilmlariga tayyorlashda ustoz-shogird tizimidan foydalangan.**Hunar o‘rgatish maktablari** – hunarmandchilik, me’morchilik, naqqoshlik, temirchilik kabi kasblar ustoz-shogird an’anasiga tayanib rivojlangan. Har bir shogird ustoz ko‘magida hunarni puxta egallab, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan.**Kasbiy mahoratning rivoji:** Hunarmandchilik, me’morchilik va san’atning Sharqda yuksalishida ustoz-shogird ustaxonalari bevosita ta’sir ko‘rsatgan.**Ma’naviy qadriyatlarning uzluksizligi:** Sharq xalqlarida axloqiy meros, odob-axloq qoidalari ustoz-shogird maktablari orqali avloddan-avlodga o‘tgan.**Ijtimoiy barqarorlik:** Ustoz-shogird munosabatlari jamiyatda hamjihatlik, intizom va mehnatsevarlikni shakllantirgan.

Bugungi kun uchun ahamiyati: Zamonaviy ta’lim tizimida mentorlik, ustozlik, amaliyotchi-o‘quvchi munosabatlari qadimgi ustoz-shogird an’anasining davomidir.“Ustoz-shogird” an’anasi nafaqat bilim berish, balki shogirdni ma’naviy tarbiyalash, uni jamiyatning munosib a’zosi etib voyaga yetkazishga xizmat qilgan. Sharq mutafakkirlari — Konfutsiy, Zardusht, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar ham o‘z asarlarida ustozning roliga alohida e’tibor berganlar.Demak, qadimgi Sharqda shakllangan ustoz-shogird maktablari nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi

ta’lim-tarbiyaning metodologik asoslaridan biri sifatida katta ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Sharqda maktablar turli shakllarda mavjud bo‘lgan: diniy maktablar, saroy maktablari, hunar o‘rgatish ustaxonalari va falsafiy maktablar. Ularning barchasida “ustoz-shogird” tamoyili ustuvor edi.

XULOSA

Qadimgi Sharqda shakllangan ustoz-shogird maktablari insoniyat tarixida eng qadimiy ta’limiy tizimlardan biri bo‘lib, u nafaqat bilim va hunar o‘rgatish, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, shaxsni komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qilgan. Mesopotamiyadagi yozuv maktablari, Misrdagi axloqiy-diniy saboqlar, Hindistondagi gurukul tizimi, Xitoydagi Konfutsiy falsafiy maktablari hamda Sharq hunarmandchilik ustaxonalari barchasi ustoz-shogird an’anasining turli ko‘rinishlari bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratgan.Forobiy hazratlarining **“Fozil odamlar shahri”** asari (arabcha “Madīnat al-Fāḍila”) Sharq falsafasining durdonalaridan biri bo‘lib, unda jamiyat, ilm, axloq va ustoz-shogird munosabatlari haqida chuqur fikrlar bayon etilgan. “Forobiy fikricha, inson o‘z tabiati bilan bilim va hunarga muhtoj. Bu ehtiyojni qondirish uchun esa unga ustoz zarur. Chunki ustoz insonni nafaqat ilmga, balki komillikka ham yetaklaydi. **Shogird tarbiyasi haqida:** “Shogird ustoz ko‘rsatmalariga amal qilishi, uni hurmat qilishi, sabr va mehnat bilan o‘zini kamolotga yetkazishi kerak. Zero, ilmning mohiyati ustozdan shogirdga o‘tadi. **Fozil jamiyat haqida:** “Forobiy ‘fozil shahar’ deganda ilm-fan va axloqiy poklik asosida yashaydigan jamiyatni nazarda tutadi. Bunday jamiyatda ustozlar — ma’naviyat va donolik sohiblari, shogirdlar esa ilm va odobni egallovchi yoshlardir. **Ilmning ahamiyati haqida: “**Forobiyning ta’kidlashicha, haqiqiy saodat ilm orqali qo‘lga kiritiladi. Ilmsiz inson nodonlik botqog‘iga botadi, ilmli inson esa jamiyatning foydali a’zosi bo‘lib yashaydi. Yetuk shaxs haqida: “Forobiyning fikricha, komil inson — o‘z nafsini boshqara oladigan, ustozdan ilm olib, uni boshqalarga yetkazadigan, jamiyatga foyda keltiradigan kishidir. Bugungi kunda ham bu an’analar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, zamonaviy ta’lim jarayonida ustoz-shogird tizimining quyidagi jihatlari dolzarbligini saqlab qolmoqda:zamonaviy ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shogirdni hayotiy yo‘l-yo‘riq bilan tarbiyalovchi shaxs sifatida faoliyat yuritmoqda.Texnikum, kollej, universitet va ishlab chiqarish sohalarida amaliyotchi ustozlarning shogirdlarga kasb sirlarini o‘rgatishi qadimiy an’analarni davom ettirmoqda.Ustoz-shogird munosabatlarida halollik, sadoqat, mehnatsevarlik, ustozga hurmat kabi qadriyatlarning bugungi avlod tarbiyasida ham muhim o‘rin tutishi zarur.Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilayotgan davrda ham inson omili, ya’ni ustozning shogirdga mehr bilan yo‘l ko‘rsatishi o‘quv jarayonining eng muhim omillaridan biri bo‘lib

qolmoqda.Shu boisdan, qadimgi Sharqda shakllangan ustoz-shogird maktablarini chuqur o‘rganish va ularning ilg‘or jihatlarini bugungi ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirish yosh avlodni barkamol, bilimli va ma’naviy yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, aslida, milliy ta’lim-tarbiya tizimimizni yanada takomillashtirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Forobiy, A. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

2.Ibn Sino, A. *Donishnoma*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.

3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, - T,: "Faıı va texnologiyalar" nashriyoti, 2006.

4. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT)

5.Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.

6. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.

7. QOBILOVA, E’ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).

8. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo‘qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722

9. E’zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999

11. E. Qobilova.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT) Orcid: 0009-0001-1275-3080

4-SHO‘BA: TARJIMONLIK, LINGVOMADANIY MULOQOT VA SAN’ATSHUNOSLIK

MILLIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI: O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATI TA’LIMINING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Shuhrat Toxtasimov,
O‘zbekiston davlat xoreografiya
akademiyasi rektori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek milliy raqs san’atining estetik – ma’rifiy jihatlari, xoreografiya ta’limi uzviyligini ta’minlash tamoyillari, uning milliy – zamonaviy asoslari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar. taqlid, tomosha, o‘yin, bola, estetik tarbiya, mavsum, uslub, ifoda, folklor, lapar, marosim.

Annotation. This article examines the aesthetic and educational aspects of the Uzbek national dance art, the principles of ensuring the coherence of choreographic education, and its national and modern foundations.

Key words: imitation, spectacle, game, child, aesthetic education, season, style, expression, folklore, lapar, ritual.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning eng ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri, o‘zining mustaqil fikriga ega, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bugungi murakkab, globallashayotgan dunyoda oliy ta’limni yuksak saviyaga ko‘tarishda, ta’lim – tarbiya jarayonini optimallashtirishda, uning samarasini yanada oshirishda sharqona hikmatlarga, zamonaviy innovatsilarga asoslangan ustoz – shogirdlik an’analari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlatirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda "Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi, 2020 yil 28 sentabrdagi “Lazgi”xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi, 2022 yil 4 fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarorlari o‘zbek milliy raqs va musiqa san’atining butunlay yangi taraqqiyot bosqichlarini boshlab berdi. Darhaqiqat, “O‘zbekistonda raqs san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an’analarni, mohir baletmeysterlar, balet artistlari merosini tiklash; milliy raqs san’atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari “oltin fondi”ni yaratish; xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san’ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘usini, yuksak badiiy-estetik did va

tafakkurni kamol toptirish”ga[2] davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganligi bizning zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichi o‘ziga xos ma’naviy olamning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Zero, ma’naviy-madaniy meros insonlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanib, sayqallanib boradi. Xalqlarning o‘zaro aloqalari, milliy qadriyatlarning hamkorlikdagi almashinuvi jarayonida ma’naviy-madaniy meros rivojlanadi. Qadim ildizlarga ega madaniy meros – adabiyot, musiqa va raqs san’ati o‘z navbatida shaxs ma’naviy yuksalishi uchun asosiy zamin hisoblanadi.

Shakllanish bosqichida milliy madaniyatlar ham ming-ming yillar davomida bir-biriga o‘zaro ta’sir qilib, bir-birini rivojlantiradi. Zero, har qanday milliy madaniyatning asosini uning millatga ruh bag‘ishlovchi tarixi, san’ati va tili, milliy qadriyat va an’analari tashkil etadi.

Uch ming yillik tarixga ega o‘zbek milliy raqs san’atida millatning o‘tmishi, bosib o‘tgan yo‘llari, qadim orzu- umidlari, betakror qadriyatlari, olijanob fazilatlari badiiy – estetik ifodalangan. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida milliy raqs san’ati haqida shunday deyiladi: “Har bir xalqning raqs an’analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo‘lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta’sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismidir.”[8]

Hamma zamonlarda ham xalqlarning o‘zligini anglash jarayoni ko‘hna an’analar, urf - odatlar, betakror qadriyatlar va marosimlarni asrab – avaylash, o‘zlashtirish vositasida milliy xususiyatlarni takomillashtirish orqali amalga oshadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining san’at va adabiyot rivojiga ko‘rsatayotgan yuksak e’tibori, “Adabiy do‘stligimiz abadiy do‘stlikka aylansin” degan da’vati yangi ma’naviy ko‘priklar yaratishga asos bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Hindistondagi Javoharla’l Neru universiteti, Qozog‘iston xalqi Assambleyasi Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati, Moskva davlat Lingvistika universiteti, Qozog‘iston xoreografiya akademiyasi, M.Auezov nomli universitet, J.Tashenev nomli universitet, Boku xoreografiya akademiyasi, Aleksandriya universitetlari bilan o‘zaro hamkorlikda o‘tkazayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari, davra suhbatlari, ilmiy seminarlari, raqs ko‘rik - tanlovlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram Prezidentimizning “Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang!”[8] degan so‘zlari o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ham, ularning ustozlari, ota – onalari uchun ham ilhom va kuch beradi. Aslida bu purma’no tilak – yoshlarimiz uchun istiqbol dasturi istiqbol dasturidir.

Mamlakatimizda zamon talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh yetuk mutaxassislarni tayyorlash jarayoni eng avvalo kelajak bunyodkorlari bo‘lmish yoshlarning intilishlari va iste’dodlariga bog‘liq. Yangilanayotgan O‘zbekiston ta’lim tizimining jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari ta’lim sohasida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga moslashtirishga qaratilgan harakatlar ijobiy natijalar bermoqda. Globallashuv jarayonida butun dunyoda ma’naviy inqiroz yuz berayotganligi hech kimga sir emas. Bunda ilm – fan, san’at va adabiyot yosh avlodning dunyoqarashini, kelajakka munosabatini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Katta maqsadlar bilan ilm olamiga qadam qo‘yayotgan, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, adabiyot va san’at forumlarida faol qatnashayotgan, 5 muhim tashabbus doirasida turli adabiy-badiiy kechalar, yangi kitoblar taqdimotlari, raqs tanlovlari, nazm va navo oqshomlari, sport musobaqalarini uyushtirayotgan, ularda sovrindor bo‘layotgan yoshlarimiz yangi O‘zbekiston – yangi Renessans davrining, yangi jamiyatning bunyodkorlaridir.

Xalqimizning orzu - istaklari va mifologik qarashlari, tabiat hodisalari bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalari asosida shakllangan marosimlar turkumida mavsumiy tantanalar, Navro‘z va hosil bayramlari eng yuksak maqomni egallagan. Ularda ijro etilgan raqs - kompozitsiyalarda ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, milliy qadriyatlarimiz, o‘zbek xalqining insonparvarligi, bag‘rikengligi nafis harakatlar, chiroyli ifoda uslublari, beg‘ubor tuyg‘ular uyg‘unligida tasvirlanadi.

Har bir san’at turi avvalo ma’naviy - ma’rifiy ta’sir ko‘rsatish barobarida estetik zavq va kayfiyat ulashadi. Xorijda maftunkor va jozibali o‘zbek milliy raqslariga qiziqish va muhabbat katta. Demak, milliy raqs san’atining hayotsevarlik, mehr – oqibat, yaxshilik va ezgulik kabi umuminsoniy tuyg‘ularni hamda o‘zbek xalqining mehmondo‘stligini keng tarannum etishi turli xalqlar va millatlarning do‘stligi, birdamligiga sabab bo‘lmoqda.

Insoniyatga ma’naviy ozuqa, estetik zavq, ruhiy taskin beruvchi milliy raqslar umrboqiy qadriyatlar, asriy orzularning tasviriy ifodasidir. Ular yosh avlodni milliy g‘urur, o‘tmish haqiqatlariga qiziqish, yurt tarixiga muhabbat ruhida ulg‘aytiradi. Milliy raqs san’ati ta’limida ustozning shogirdlari bilan muloqoti nafaqat jonli, balki teran va ta’sirchan, haqqoniy va ishonarli, betakror va ruhlantiruvchi bo‘lsagina o‘zning chinakam samarasini beradi. Buyuk ipak yo‘li karvonlari ellarni bir - biriga bog‘lab, savdo - sotiq bilan shug‘ullanishdan tashqari hunarmandlik, urf - odat va qadriyatlarni ham targ‘ib qilgan. Bu karvonlar Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi ezgulik ko‘priklari hisoblanib, dunyoning azim ummonlariga turfa mahsulotlar bilan bir qatorda milliy san’at va madaniyatning noyob namunalarini ham yoyganligi, targ‘ib qilganligi ham haqiqat. Xususan, folklor raqslari ulug‘ ajdodlarimizdan

meros bo‘lib, tabarruk zaminimizni madh etishi, ezgulikka chorlashi, do‘stlikka va qardoshlikka undashi, kichkintoylar qalbida estetik zavq uyg‘otishi lozim.

Atoqli san’atshunos Lyubov Avdeeva to‘g‘ri ta’kidlaganidek,: “Raqs zamonaviy va makoniy san’atning shunday turiki, unda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan, tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratiladi.”[4] “Lazgi”, “Dilxiroj”, “Tanovar”, “Qari navo”, “Rohat”, “Doira”, “Jonon” kabi jozibador milliy raqslarda o‘zbek xalqining orzu - umidlari, ruhiy kechinmalari, armonlari, milliy ruhi va milliy xarakteri, eng olijanob fazilatlari namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, taraqqiyot sari dadil odimlayotgan har bir davlat tarixga nazar tashlab, milliy urf – odatlar, qadimiy an’analar, betakror qadriyatlarni o‘rganishga va asrab – avaylashga intiladi. Bu borada milliy raqs san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Mamlakatning qudratli kuchiga aylanayotgan yosh avlod qalbida ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy meros, ilmiy kashfiyotlar bilan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirishda, ularning ongu – shuurida milliy o‘zlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini yuksaltirishda milliy raqs san’ati ta’limi salmoqli o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.O‘zA, 2020y., 4-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 04.02.2020.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил, 4 февраль, 25- сон.
4. Авдеева Л. Ўзбек миллий рақси тарихидан. М.Турғунбоева номидаги “Ўзбекрақс” миллий рақс бирлашмаси.Т.: 2001.
5. Авдеева Л. Ўзбек рақсшунослиги тарихидан бир лавҳа. Санъатшунослик масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент.: “Санъат”, 1998.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2–жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”Давлат илмий нашриёти, 2001.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2003.
8. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 7-ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат нашриёти., 2004.

9. Ҳамроева Ҳ. Ўзбек болалар фольклор рақс санъати: анъанавийлик ва замонавийлик. Т.: “Замон полиграф” нашриёти, 2023.

MILLIY MUSIQA SAN’ATI VA MILLIY O‘ZLIK TUYG‘USI

Sobir Jumayev,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
o‘quv ishlari prorektori, professor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy musiqa san’atining, madaniy merosning milliy o‘zlik tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan tarbiyaviy ahamiyati, ma’rifiy – estetik tamoyillari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlari: tarix, qadriyat, musiqa, an’ana, san’at, milliy o‘zlik tuyg‘usi, meros.

Annotation. This article studies the educational significance of national musical art, cultural heritage, combined with a sense of national identity, and the educational and aesthetic principles of it.

Key words: history, values, music, tradition, art, a sense of national identity, heritage.

Milliy o‘zlik tuyg‘usining shakllanish jarayoni tarixiy tamoyillarga asoslangan holda har bir millatni o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘taradi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz”[3, 172]. Binobarin, millatlarning ma’naviy taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, avvalo, milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari uyg‘unligida shakllanadi, rivojlanadi. Milliy o‘zlikni anglash har bir xalq, millat uchun o‘zligini saqlagan holda ularni buyuk maqsad yo‘lida birlashtiruvchi umuminsoniy harakat kabi kuchli ta’sirga egadir. Bu borada har bir millat qalbi va ruhiyatidagi milliy o‘zlik bilan bog‘liq qadriyatlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, ijobiy tajribalar asosida boyiydi, takomillashadi.

Atoqli musiqashunos olim O.Ibrohimovning fikricha, “har bir xalqning madaniy merosi, uning o‘tmish san’atiga xos betakror xususiyatlarining e’tirof etilishi ana shu xalqning o‘zligini anglashi jarayonida ahamiyati beqiyosdir” [10, 5]. Milliy musiqa san’ati insoniyat tarixi kabi qadim o‘tmishga ega. U o‘sib kelayotgan yosh avlodning estetik didini shakllantiradi, ma’naviy dunyosini boyitadi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularda kelajakka ishonch uyg‘otadi. Shuningdek, milliy o‘zlik tuyg‘usi orqali ma’naviy immunitetni shakllantirishda, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan umumbashariy g‘oyalarni singdirishda musiqa madaniyati beqiyos tabiyaviy qudratga ega.

Musiqa madaniyati ma’naviy-estetik tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Zero, bu boqiy san’at yoshlarni go‘zallik va nafosat dunyosiga olib kirishda, ularning navqiron qalblariga yaxshilik va ezgulikka, rangin tuyg‘ularga oshno qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy san’atimizga muhabbat ruhida ulg‘aytirish maqsadida musiqa madaniyatini ta’limning barcha bosqichlarida yuqori darajaga chiqarish talab etilmoqda. Ayniqsa, musiqiy meros namunalari teran mohiyati, sof xalqona ijro uslublari bilan tomoshabinni hayratga soladi.

Professor A.Mavrulov asosli qayd etganidek, “Har qanday milliy ko‘tarilish, milliy madaniyat madaniyat sohasi rivojisiz yuz berishi mumkin emas. Bu barcha Renessans davrlarining oltin qoidasidir. Shuning uchun bugun bejiz milliy madaniyatni rivojlantirish, uning milliy taraqqiyotimizdagi o‘rni va ta’sirini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmayapti” [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan keyingi yillarda milliy - ma’naviy qadriyatlarga, madaniy merosga bo‘lgan e’tiborning ortishi, xalqaro hamkorlik rishtalarining mustahkamlanishi mintaqada umumbashariy tafakkurni tubdan o‘zgartirdi. Zero, turkiy xalqlarni birlashtirib turagn madaniyatlararo integratsiya ma’naviy – ma’rifiy, badiiy – estetik mezonlar asosida yaratilgan taqdirda ijobiy samara beradi. Sharqning buyuk allomalari san’atning inson ruhiyatiga ta’sirini, uning turli hissiyotlar uyg‘ota olish xususiyatlarini mukammal o‘rganganlar va tahlil qilganlar.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Hayyom, Mahmud Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug‘bek, Amir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur shoh, Muhammad Rizo Ogahiy kabi ulkan salohiyat egalari o‘z asarlarida mazkur masalalarni falsafiy – ma’rifiy, ijtimoiy – axloqiy jihatdan keng yoritganlar, uning tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho berganlar. Ularning nazdida musiqa madaniyati kishilik jamiyati ma’naviy qiyofasini ko‘rsatuvchi ko‘zgu, uni komillikka, ezgulikka, bag‘rikenglikka, insonparvarlikka da’vat etuvchi muhim vosita sifatida ulug‘lanadi.

Ko‘p ming yillik boy o‘tmishga ega o‘zbek xalqi tarixida madaniy meros, uni asrab – avaylash, keyingi avlodlarga bezavol yetkazish alohida o‘rin tutadi. Globallashish jarayonida dunyo butunlay yangilanmoqda. Yangi zamon, yangi fikr va yangicha dunyoqarash davrida istiqlol nafaqat xalqimiz hayotida, balki tafakkurida ham juda katta o‘zgarishlar yasadi. O‘sib kelayotgan yosh avlod ulug‘ ajdodlarga munosib voris bo‘lishga intilmoqda.

Turli ziddiyatlarga to‘la, azaliy va abadiy qadriyatlar, tarixiy hodisalar, o‘tkinchi voqealar to‘qnashib turadigan bu dunyoda tarix haqiqatlarini tiklash, ularni ilmiy asoslash oson emas. Asrlar bo‘yi o‘zbek

zamini son-sanoqsiz urushlar, qirg‘inlarni ko‘rdi. Xalqning boyliklari talandi, shaharlar, qasrlar xarobaga aylantirildi, nodir madaniyat va san’at yodgorliklari, ilm-fan kashfiyotlari yo‘q qilindi, an’ana va qadriyatlarning katta qismi o‘zgartirib yuborildi. Nodir kashfiyotlar, ko‘plab san’at asarlari, me’morchilik, rassomchilik va haykaltaroshlik, musiqa hamda raqsga oid noyob namunalar nom-nishonsiz yo‘qolib ketgan.

Musiqa san’atining milliy o‘ziga xosligi, undagi qadimiy milliy ruh ko‘p jihatdan xalqning urf – odatlari, umuminsoniy qadriyatlari, etnik – etnografik xususiyatlari va va ular tug‘ilgan zamin bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, biroq uning asl mohiyati millatning o‘z-o‘zini anglash jarayonlarida shakllanib, takomillashib boradi. “Jahon falsafasi qomusi”da qayd etilganidek, “Milliy o‘z – o‘zini anglash – har bir millat (elat)ning o‘z – o‘zini real sub’ekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf – odatlar, an’analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishiga milliy o‘z – o‘zini anglash deyiladi. Milliy o‘z –o‘zini anglash milliy shakllanish jarayonining yuqori bosqichi.millat o‘ziga xos bo‘lgan urf – odatlar, an’analar, qadriyatlarni shakllantirishi zaminida davlat atrofiga birlashishi mumkin. Milliy o‘z –o‘zini anglash murakkab jarayon.” [12, 807].

Aynan milliy musiqa san’atida millatning o‘ziga xos xislatlari, fazilatlari, o‘tmishga va kelajakka munosabati, orzu – umidlari, armonlari, ruhiy kechinmalari, quvonchu shodliklari, dardu hasratlari, iztiroblari, yurak izhorlari namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, bizning buyuk ajdodlarimiz qadimdan yuksak salohiyat, ma’naviy-ma’rifiy xislat sohiblari bo‘lishgan. Qadimiy shahar va qal’alarning arxitektura yodgorliklari, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar qoldiqlari, devorlarga chizilgan suratlar, mohir haykaltaroshlarning yorqin iste’dodlari namoyon bo‘lgan asarlar, ko‘hna zaminning ming yillik afsonaviy tarixi, o‘sha zamon xalqlari hayoti, san’ati va madaniyati buyuk ekanligini isbotlaydi.

Xalqimizning asrlar mobaynida shakllanib kelgan, davr sinovlariga bardosh bergan musiqa san’ati, kuy – qo‘shiqlari tiklanib, an’anaviy va zamonaviy guruhlar repertuaridan munosib joy egallamoqda. Istiqlol yillarida xalqimizning boy folklor san’atini, musiqiy merosini asrash hamda musiqa madaniyatining asriy an’analar asosida taraqqiy etishiga alohida e’tibor berildi.

San’at hamisha xalqning turmush tarzi, kundalik hayoti bilan bog‘liqlikda rivojlangan. Milliy musiqa va raqs maktabining shakllanish va yuksalish bosqichlari xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos musiqiy merosi bo‘lib, ularda milliy ruh, millatning madaniyati, qadriyati, aqida va an’analari aks etadi. O‘lkamiz xalqlari madaniyatining ildizi naqadar chuqur ekanligini musiqiy merosning uch ming yillik tarixi isbotlab turibdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, globallashayotgan zamon talablariga mos ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda musiqiy madaniyat va madaniy meros ulkan ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqa vositasida o‘sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ulug‘ ajdodlarga munosib vorislar bo‘lishga intilish, milliy o‘zlik, vatanga sadoqat tuyg‘ulari singdirilar ekan, biz buyuk tariximiz bilan faxrlanishimiz, uning yangi – yangi qirralarini o‘rganishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25-son.
2. Mirziyoyev Sh.Yoshlar - bizning kelajagimiz. Yoshlarga donolar o‘giti. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Акбаров И. Мусика луғати. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1997.
5. Карoматов Ф. Ўзбек халқ мусиқа мероси. 2 –китоб. Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
6. Маврулов А. Маданият ва Учирчи Ренессанс // “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил, 10 декабрь, 248 – сон..
7. Қурбонов Р. Санъатнинг сирли олами. Санъатнома 1. Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
9. Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Изд. Главная редакция восточной литературы,1972.

SAN’ATGA FIDO AYOLLAR

Muxamedova O‘g‘iloy,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
professori
ugulaymuxamedova@mail.ru
Tel: (93) 5848949

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek professional ayollar raqsining shakllanishi, raqs ijorosi, uning tarixi, fidoiy ustozlar, berilgan qurbonlar, raqs san’atida ayollarning o‘rni, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Roziya Karimova kabi raqqosalar ijodi, ajoyib raqqosa va

o‘ychan o‘qituvchilar, ayollar ansambli tarkibida frontda berilgan konsertlar, xoreografiyaning nazariy jihatlarini jiddiy o‘rganishlar, yaratilgan raqslar, “Bahor” davlat raqs ansambli, shuningdek, ba’zi ustozzoda san’atkorlar faoliyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkor, ayol, xoreograf, tarix, raqqosa, ustoz, nazariy, front, konsert, ansambl

Abstract: This article examines the development of Uzbek professional women's dance, dance mastery, its history, dedicated teachers, sacrifices, the role of women in dance, the work of dancers such as Tamarahanim, Mukarrama Turgunbaeva, and Roziya Karimova, remarkable dancers and thoughtful teachers, concerts given at the front as part of a women's ensemble, a serious study of the theoretical aspects of choreography, the dances created, the activities of the state dance ensemble "Bakhor," as well as some of the artists under its direction.

Keywords: creator, woman, choreographer, history, dancer, teacher, theoretical, front, concert, ensemble

1920-yillarda, o‘zbek professional ayollar raqsining shakllangan yillarida ijrochilardan chinakam jasorat talab etilgan edi. Raqs ozodlikka, yorqin, baxtli kelajak orzusini tasdiqlash uchun qurollanishga da'vat edi. O‘z ozodligi uchun kurashda ko‘plab ayollar qurbon bo‘lishdi. Ular orasida sahnada paranjisiz, yuzlari ochiq holda raqsga tushgani uchun jon fido qilgan Nurxon, To‘paxon, Halima ham bor edi. Ularning merosini davom ettirib, biz o‘zbek raqs san’atining zamirida turgan Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Gavhar Rahimova, Mariya Kuznetsova, Ma’suma Qoriyeva, Roziya Karimovalar xotirasini hurmat qilamiz. Asli arman bo‘lgan Tamaraxonim ham o‘zbek raqs harakati a’zosi. Uning ustozlari orasida Muhiddin qori Yoqubov, doirchi usta Olim Komilov, Yusupjon qiziq Shakarjonov, To‘xtasin Jalilov, Jo‘raxon Sultonov, Xo‘ji Siddiq Islomov kabi taniqli shaxslar bor edi. Butun dunyo raqslarini ijro etgan Tamaraxonim ham mohir xoreografga aylandi. U 1932-yilda ustozi usta Olim bilan birgalikda O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalq amaliy san’ati olimpiadasiga katta guruh va yakkaxon raqslar dasturini tayyorladi. Eng diqqatga sazovor asar qadimiy ritmlarga moslashtirilgan “Ipak qurti” edi. Bu eng mashhur o‘zbek raqslaridan biriga aylanib, Tamaraxon va uning iqtidorli shogirdlari Mukarrama Turg‘unboyeva, Galiya Izmailova, Xalima Komilovalar tufayli yurtimiz chegaralaridan tashqarida ham shuhrat qozondi. Raqsda qo‘llaniladigan imo-ishoralar yordamida ipak qurti pillasini yig‘ishtirib olishdan tortib, tayyor matogacha bo‘lgan ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonni ochib beradi. Raqqoslarning harakatlari ichki musiqiylik va ekspressiv plastika bilan sug‘orilib, ularning ijodi bilan bog‘liq fikr va tajribalarni aks ettiradi.

1932-yilda Tamaraxonim xoreograflar tayyorlash, musiqa va raqs san’atini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston xalq artisti unvoni bilan taqdirlandi. 1935-yilda Tamaraxonim va usta Olim Komilov 1-London xalqaro xalq raqslari va musiqa san’ati festivalida ishtirok etganliklari uchun Oltin medal bilan taqdirlandilar. Tomoshabinlar Tamaraxonimni “Sharq durdonasi” deb atashgan. Uning keng repertuari boshqa xalqlarning raqslari va qo‘shiqlarini ham qamrab oldi. 1956-yilda Tamaraxonim 50 yoshga to‘lishi munosabati bilan raqs san’ati rivojiga qo‘shgan katta hissasi uchun xalq artisti unvoni bilan taqdirlandi. Tamaraxonim va uning ustozi usta Olim Komilov tomonidan tayyorlangan “Doira darsi” darsligining nashr etilishi respublikada muhim voqea bo‘ldi. Unda doira-tabur jo‘rligida bajariladigan asosiy raqs harakatlarini namoyish qiluvchi ko‘plab xoreografik materiallar mavjud. “Farg‘ona raqs maktabi”ning asoschisi taniqli Mukarrama Turg‘unboyeva edi. Muhiddin qori Yoqubovning qo‘shiq kuylashini eshitib, Tamaraxonimning “Dilxiroj” spektaklini ko‘rib, raqsga mehr qo‘ydi va teatrda ishlashga qaror qildi. Dastlab Muhiddin qori Yoqubov tavsiyasiga ko‘ra Mukarrama Turg‘unboyeva Samarqand davlat musiqali drama teatrining zaxira truppasida ishlagan. U o‘sha yillardagi qiyinchiliklarni shunday ta’riflaydi: “Samarqandga kelib, aktrisa bo‘lganimizda, birinchi haftalarda juda och edik, maoshimiz oz edi, hali sarf-xarajat va tejashni o‘rganmagan edik, birinchi kunlarda hamma narsani sarflab, keyin non va nordon sut bilan kun kechirardik”. Ammo uni qo‘rqitadigan narsa ochlik emas edi. "Bularning barchasiga oson chidadim, - deb hikoya qiladi Mukarrama Turg‘unboyeva, - lekin qo‘rquv meni tark etmadi. O‘zimiz yig‘ib o‘tirgan otxonadagi kontsertni eslayman. Yomg‘ir yog‘ayotgan edi, tomidan suv oqayotgan edi, tomoshabinlar orasida bor-yo‘g‘i o‘n kishi bor edi! Lekin biz to‘liq konsert berdik. Ertasi kuni tomoshabinlar ko‘proq bo‘lishini bilardik. O‘shanda ham Nurxon o‘lib ketishimdan har kuni qo‘rqardim. uning rafiqasi Begimxon meni asrab oldi va asta-sekin tinchlandim, o‘sha yillarning cheksiz tarangligi butun umrim davomida xotiramda qoldi, men xursand bo‘ldim, hatto yelkalarim ham tiklandi. O‘tgan asrning 30-yillarida Mukarrama Turg‘unboyeva ning “Qizil karvon” pantomimasidagi “Paxta terish”, “Shahid” baletidagi “Burqani yechish” raqslari, “Gulsara” musiqali dramasidagi “Gulsariy” raqslari ayollarga vahiy, erk da’vati sifatida qabul qilindi. Mukarrama Turg‘unboyeva ijro etgan qahramonlar, o‘sha yillardagi raqslar o‘zbek ayollari uchun ibrat, ideal edi. Uning ijrosi bilan kinoda saqlanib qolgan “Tanovar” raqsi chuqur millatchilik ruhida. “Mening “Tanovar”im, – dedi Mukarrama, “Konsert nomeridagi “O‘layotgan oqqush” sahnasini ko‘rganimning ertasigayoq qalbimda tug‘ildi. Bu menga butun bir ajoyib spektakldek tuyuldi va hozir ham ko‘rinadi. Taassurot shu qadar kuchli, shu qadar hayratlanarli ediki, men

tun bo‘yi uxlamay, bir necha kun shu bilan yashadim. Imo-ishora monologida raqqosa ijodiga xos fazilatlar ochib beriladi. [1, 13]

“Tanovar”da Mukarrama Turg‘unboyeva frontdan o‘g‘illari, otalari, erlaridan xabar kutayotgan o‘zbek ayollari ko‘zlaridagi xavotirni imo-ishora va nigohlar yordamida ifodalay oldi. Mashhur rus rassomi I.M.Moskvin uning raqsini ko‘rib: “Tanovar” so‘zsiz qo‘shiq. Iste'dod imo-ishora orqali namoyon bo‘ladi”. 1957-yilda Mukarrama Turg‘unboyeva “Bahor” ansambli tashkil qildi. U O‘zbekistonning yetakchi baletmeysteri Isohor Oqilov bilan birga Toshkent xoreografiya bilim yurtini bitirib, Estrada teatri, Navoiy nomidagi opera va balet teatrida ishlagan qizlarni birlashtirdi. Guruh ko‘plab milliy va xalqaro tanlovlarning sovrindori bo‘ldi. 1960-yildan “Bahor” ansambli O‘zbekiston davlat raqs ansambli hisoblanadi. Mukarrama Turg‘unboyeva o‘zbek raqsini takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qildi. U nafaqat yangi kompozitsiyalar yaratdi, balki o‘zbek xoreografiyasiga yangiliklar kiritdi. Sahna ko‘plab ommaviy raqslarni ko‘rdi. Mukarrama Turg‘unboyeva yaratgan kompozitsiyalarda xalqning do‘stligi, turmush tarzi, kundalik mehnati namoyon bo‘ladi. “Yetti go‘zal” she’ri, “Paxta” syuitasi va boshqalar shular jumlasidandir. “Bahor” ansambli qizlari “Paxta”ni shu qadar mahorat bilan ijro etishdiki, raqs o‘zbek sahna san’ati timsoliga aylandi. Bu roldagi “Mukarrama” raqsi rivojlangan qo‘l raqsi bo‘lib, urug‘dan kurtaklar qanday o‘sib chiqqani, gul qanday ochilgani, g‘o‘zaning nozik tolalarini himoya qilgan holda qanday yopilganini obrazli tasvirlaydi. “Farg‘ona raqsidagi ko‘plab qo‘l harakatlari oddiy kundalik, ish bilan bog‘liq imo-ishoralardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, raqqosalar ularni “umumlashtirib”, imo-ishora uchun badiiy timsol topdilar.” Har qanday farg‘ona raqsidagi qo‘llarning asl harakatlarini-yumshoq qo‘l “jingalaklari” va “jingalaklari”ni eslang. Bu harakatga diqqat bilan qarang, uning elementlariga bo‘linadi, shunda tushunasiz: u aynan paxta terimi davridagi mehnat harakatidan tug‘ilgan”, deb yozadi Mukarrama Turg‘unboyeva o‘z kundaligida. Xalq qo‘shiqlari va raqslari sahnada yangicha kuch va jo‘shqinlik bilan yangradi. Xoreografik san’at fondi esa bugungi kunda “Ipak qurti”, “Paxta”, “Bayet”, “Rohat”, “Katta uyin”, “Namangan olmalari”, “Farg‘ona ruboiylari” nomli ommaviy raqslari hamda “Havaskor”, “Qo‘g‘irchoq”, “Roxat”, “Farg‘ona”, “Tanova” kabi yakkaxon raqslaridir. tomoshabinlar tomonidan sevilgan. [2, 40]

“Bahor” ansamblidan keyin “O‘zbekiston”, “Tanovar”, “Lazgi”, “Zarafshon” ansambllari paydo bo‘ldi. M.Turg‘unboyeva ni endilikda nafaqat sharq raqsi va raqs ritmlari plastikasining buyuk biluvchisi, balki o‘zbek raqsi rivojiga fidoyilik ko‘rsatgan zo‘r rassom, xoreograf, ustoz sifatida ham aytish mumkin. Tamaraxonim va Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining davomchisi va shogirdi Roziya Karimova o‘zbek xoreografiya san’ati rivojiga katta hissa qo‘shdi. O‘zbek raqs san’atida Roziya

Karimova raqqosa, xoreograf, o‘qituvchi, olim sifatida tanilgan. U Qozon shahrida tug‘ilgan. U juda erta ota-onasidan ayrilib, Marg‘ilon shahridagi mehribonlik uyida tarbiyalangan. Raqs san'atiga bo‘lgan muhabbat uni Toshkentga kelgan Mukarrama Turg‘unboeva bilan tanishtirdi. 1930-yillarda musiqali dramatik studiyada tahsil oldi. Muhiddin qori Yoqubov rahbarligidagi Samarqand teatrida ishladi va teatr tahsilini tugatgach, shu yerda qoldi. Karimova lirik raqslarni ijro etib, dramatik rollarni ijro etgan, jumladan, “O‘rtoqlar” spektaklida Anorxon, “Gulsara” dramasida Asal, “Arshin mal alan”da Osiyo. Karimova Toshkent musiqali teatri va Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida ko‘plab raqs nomerlarini yaratgan. “Farhod va Shirin”, “Leyli va Majnun”, “Qor bo‘roni”, “Gulsara” dramalariga kiritilgan yakkaxon raqslarini ijro etgan. Ayollar ansambli tarkibida Karimova Shimoli-g‘arbiy frontda konsertlar berdi. Ajoyib raqqosa va o‘ychan o‘qituvchi, u xoreografiyaning nazariy jihatlarini jiddiy o‘rgandi. [3, 130]

1932-yilda Karimova O‘zbekiston davlat xoreografiya bilim yurtida dars berdi. Keyinchalik u o‘zbek raqs san’ati bo‘yicha ilmiy ishini Hamza nomidagi san’atshunoslik instituti, hozirgi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida ilmiy xodim sifatida davom ettirdi. 1960-yilda Roziya Karimova o‘zbek xalq o‘yinlarining asosiy tamoyillari, harakatlari, ritmlarini tizimlashtirish va ilmiy umumlashtirish bilan shug‘ullangan. O‘zbek xalq o‘yinlarining uchta maktabi bor: Farg‘ona, Xorazm, Buxoro. Ularning har birida raqqosaning holati katta ahamiyatga ega, bu xoreografik nazariyada "tana holati", "mushak kuchlarining yo‘nalishi" deb ataladi. Har bir maktabning o‘ziga xos kiyimlari ham bor. Roziya Karimova ushbu raqs uslubi ustalarining boy tajribasiga tayangan holda “Farg‘ona raqsi” (1973), “Xorazm raqsi” (1975), “Buxoro raqsi” (1977) o‘quv qo‘llanmalarini, “Bahor ansambli raqslari”, “Doira zarblari”, “O‘zbekiston raqslari”, “Ma’ruzachilik” kitoblarini tayyorladi. Bernard Karieva, Ra’no Nizomova, Ibrohim Yusupov, Dilafruz Jabborova, Shokir Ahmedov, Dilbar Abdullaeva, Karima Uzoqova, Sivilya Tanguriyeva, Qodir Mo‘minovlar Roziya Karimovani o‘z ustozi, deb biladi. Mustaqillik yillarida Rozxiya Karimovaga san’at fanlari doktori faxriy unvoni berildi.

Bugun Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Roziya Karimovaning ko‘plab izdoshlari raqs san’ati rivojiga hissa qo‘shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L. Avdeyeva. “O‘zbek milliy raqsi tarixidan”. “O‘zbek raqs” milliy raqs birlashmasi. T:.2001 y
2. L. Avdeyeva. “O‘zbekiston raqs san’ati”. Badiiy adabiyot nashriyoti. T:.1960 y
3. L. Avdeeva. «Iz istorii uzbekskoy natsionalьnoy xoreografii». “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi.T:. 1999 g

4. L. Avdeyeva. “Mukarrama Turg‘unboyevaning raqsi”. G‘.G‘ulom
nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T:. 1989 y
5. Q.Sagatov M.Muxamedova. “O‘zbekiston madaniyati va san’ati
fidoyilari”. “Navruz”, T., 2017 y

O‘ZBEK LAPAR SAN’ATINING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI

Nozim Qosimov,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
innovatsiya va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek lapar san’atining janr xususiyatlari, badiiy-estetik tamoyillari, ulardagi ma’naviy – axloqiy qadriyatlar talqini tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarix, meros, Qozog‘iston, o‘zbek, lapar, xalq, ma’naviy taraqqiyot, marosim, san’at, madaniy an’ana, qadriyat.

Annotation: This article studies the genre characteristics, artistic and aesthetic principles of Uzbek lapar art, and the interpretation of spiritual and moral values in them.

Key words: history, heritage, Kazakhstan, Uzbek, lapar, people, spiritual development, ritual, art, cultural tradition, value.

Milliy lapar san’atiga oid nazariy va amaliy bilimlar bilan yosh avlodni chuqur tanishtirish orqali ularning ongu shuuriga milliy o‘zlikni anglash, ulug‘ ajdodlar merosiga sadoqat, tabarruk tuproqqa muhabbat tuyg‘ulari singdiriladi.

Madaniy an’analar va xalq ijodiyoti namunalari insonlarning milliy o‘zligini shakllantiruvchi birlamchi omildir. Shuningdek, yillar o‘tgani sayin, o‘zbek laparlari yanada sayqallanib, millatning o‘ziga xos madaniy boyligiga, noyob durdonasiga aylanib boraveradi.

Atrof – muhitdagi hamma narsa, jamiyatdagi voqeliklar oddiydan murakkablik sari rivojlanadi. Bir qaraganda o‘ta sodda tuyulgan o‘zbek milliy laparlarida ulkan falsafa va xalq donishmandligi mujassam. Sharq afsonalari kabi sirli, jozibador milliy laparlar so‘z o‘yinlari, yorqin harakatlari, betakror ifoda uslublari bilan butun dunyoni hayratga solmoqda. Akademik N.I.Konradning fikricha, “Markaziy Osiyo eng qadimgi davrlardanoq insoniyat sivilizatsiyalari yo‘llari tutashgan yoki kesishgan maskanda joylashgan, uning o‘zi ham ana shu sivilizatsiyaning

markazlaridan biri bo‘lgan. Ma’naviy taraqqiyot va axloqiy tamoyillar shunday asoslarga tayangan holda, asrlar chegarasidan hatlab o‘tib, keyingi rivojlanishni yuzaga keltirdi.”[5, 82]

Aynan jozibador o‘zbek laparlari axloqiy tamoyillarga asoslanganligi uchun ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning badiiy – estetik didini, dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiruvchi, ularning ma’naviy kamolotini ta’minlab beradigan asosiy manbalardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Jahon tamadduni taraqqiyotida o‘zini, o‘zligini tanigan har bir xalq, har bir millat, avvalo, xalq ijodiyotining unutilib borayotgan tarixini tiklashga, qadrini yuksaltirishga harakat qiladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Oybek “O‘zbek poeziyasi antologiyasi” ga yozgan so‘zboshisida shunday degan edi: “O‘zbek xalq poeziyasi ashula – qo‘shiq, laparlarga boydir. Laparlar yigit va qizlarning bir – birlariga aytishadigan qo‘shiqlaridir. Bu kimning so‘zga usta ekanini ko‘rsatadigan “adabiy musobaqa”dir.”[8, 7]

Milliy ruh va milliy chizgilarni saqlab kelayotgan o‘zbek laparlarida xalqning tarixi, qadim orzu- umidlari, betakror qadriyatlari, olijanob urf – odatlari, ma’naviy–axloqiy fazilatlari badiiy – estetik ifodalangan. Elning yaxshi kunlarida, to‘ylar va bayramlarda ijro etilgan laparlar mazmundor, serqirra va keng ko‘lamli, badiiy yuksak va shu bilan birga sodda, xalqona bo‘lgan. Ma’naviy-estetik tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri — ma’naviy immunitetni shakllantirishda o‘zbek laparlari zamiridagi milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan umumbashariy g‘oyalar va tushunchalarning qimmati yoshlarni ezgulikka, yaxshilikka da’vat etishida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Laparlar folklor san’atining yorqin namunasi sifatida, mavzular xarakteridan kelib chiqib, o‘zida ramziy ma’no kasb etuvchi etnografik detallarni, ohang va tomoshaviylik bilan vobasta elementlarni yaxlit holda mujassamlashtirgan, o‘ziga xos lingvodidaktikaga asoslangan sinkretik hodisadir.

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan oltin meros laparlar avlodlar o‘rtasidagi mehr iplarini mahkam bog‘lashga xizmat qiladi. Olimlarning fikricha, “Inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat, ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilim jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit bo‘lishi tabiiydir” [12, 90].

Yangi O‘zbekistonda keyingi yillarda tom ma’noda milliy raqs san’atini rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar ta’lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Globallashuv davrida jahon ilm-fani va san’ati o‘zining yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi va milliy o‘zlik konsepsiyasining voqelanishi va taraqqiyotida inson omili, milliy xarakterning badiiy takomili, ta’sirchanlik ahamiyati yuksaldi.

Barcha sohalar qatorida san’at va madaniyatga berilayotgan e’tibor millatlarning ma’naviy taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, avvalo, milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari uyg‘unligida namoyon bo‘lmoqda.

Millat ma’naviyatini va milliy o‘zligini anglashda, milliy g‘urur va iftixorning o‘sishida ham san’at va adabiyotning, ilmning ahamiyati beqiyos. Milliy o‘zlikni anglab yetgan, milliy qadriyatlarini tiklagan xalq mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi, natijada, Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan millat yoshlarining kelajagi porloq bo‘ladi. adabiy asarlar kabi, milliy raqs san’atida ham xalqning teran, baquvvat tarixiy ildizlari mujassamlashadi, ular avloddan avlodga o‘tib borish jarayonida mazmunan yanada boyib, sayqal topib, yangi nasllarga ilhom va ma’naviy ruh bag‘ishlaydi, vorisiylikni saqlab qoladi. Jahon folklorshunosligida xalqning milliy o‘zligini anglatadigan laparlar, alla va o‘lanlar, mavsumiy - marosim qo‘shiqlar namunalarining yaratilish jarayonlari, ma’naviy – ijtimoiy ehtiyoji, janrlar tarkibining o‘ziga xos poetikasi, tarixiy genetik ildizlari tadqiqi eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Chunki, insoniyat qadim – qadim zamonlardan yosh avlod kamolotiga alohida e’tibor qaratib, tarbiyaviy g‘oyalarni xalq og‘zaki ijodida jozibali, ta’sirchan va badiiy uslubda aks ettirib kelgan. Ularni keng ko‘lamda o‘rganish natijasida xalqning ruhiyati, qiziqishlarining folklorda ifoda etilishiga xos poetik qonuniyatlar, ijtimoiy – psixologik omillar, badiiy shakl tiplari haqida bilish imkoniyati tug‘iladi.

Lapar ijrochilari estetik qarashlarining mohiyati yosh avlodning aqliy va ma’naviy – hissiy faoliyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazish, tomoshabinlarga zavqu – shavq ulashishdan iborat bo‘lgan.

Ma’lumki, lapar kechalarida lapar aytuvchi tomonlar hozirjavoblik bilan “raqib” tomonga javob qaytarishlari lozim. Agar qarshi tomonning laparigа o‘z vaqtida javob aytilmasa, u tomon yutqizgan hisoblanadi va dashnom eshitadi. Quyidagi lapar bandida hozirjavoblik bilan lapar ayta olmagan tomonga dashnom berish motivi ifodalangan:

Charximning qulog‘idan qil o‘tadi,
Men senga lapar solsam, yil o‘tadi.
Eski somon ustiga yangi somon,
Menga lapar topmagan og‘zi yomon.

Keltirilgan laparda javob ayta olmagan tomon “og‘zi yomon” deb umumiy tarzda ayblangan bo‘lsa, quyidagi laparda esa, og‘zi qiyshiq va soqov deb dakki berilgan:

Tegirmonga bug‘doy soldim, kam ekanin bilmadim,
Shu kishiga lapar soldim, gung ekanin bilmadim.
U tomdan bu tomga sakraydi malla mushuk.
Menga lapar topmagannning og zi giyshiq.

Xalq laparlarida sevishgan yosh yigit-qizlar o‘rtasidagi har xil munosabatlar haqqoniy o‘z ifodasini topgan. Quyida keltiriladigan laparda uzoq safarga otlangan vafodor yigitning, albatta, o‘z mahbubasi huzuriga qaytajakligi, shu bois sadoqat bilan kutish lozimligi, xullaski, sevishganlar o‘rtasidagi vafo-sadoqat motivi kuylangan:

Qip-qizil olma terdim tepa shoxidan egib,
Ikki qiz uydan chiqadi haydari yerga tegib.
Haydaridan ushlasam, ushlama yorim deydi-yo,
Jon omon boo‘lsa kelarman, sarg‘ayma yorim deydi-yo.[16, 36-37]

Lapar o‘zbek xalq lirikasining eng go‘zal va keng tarqalgan namunasi hisoblanadi. Unda mahalliy aholiga xos bo‘lgan fazilatlar, tashbehlar mujassamlashadi. Shuning barobarida, ijrochilarning so‘zga chechanligi, hozirjavobligi muhim ahamiyat Sharqona ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarimiz tizimida betakror o‘ringa ega bo‘lgan xalq qo‘shiqlari va o‘lanlari qadimiyligi, an’anaviyligi, o‘ziga xos badiiy-estetik ta’sirchanligi, ta’limiy-tarbiyaviy falsafasi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘shiqlar, o‘lan va kelin salomlarda odamlarning hayoti jarayonida to‘plagan tajribalari, dunyoqarashi, umid –orzulari ifodalanadi. Tinglovchiga nisbatan o‘git-nasihat yo‘sinida, badiiy o‘xshatishlar, tashbehlar vositasida bag‘rikenglik, mehr-muruvvat tuyg‘ulari, ota-onalarning qadri tarannum etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ko‘p asrlik tarixga ega milliy madaniyatimiz va san’atimizning tarkibiy qismi hisoblangan o‘zbek laparlari yosh avlodni vatanga sadoqat, betakror qadriyatlar va an’analarga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yigit – qizlar ijrosidagi laparlar teran mohiyati, milliy koloriti, sof xalqona ijro uslublari bilan o‘ziga rom qiladi. Ularda ifodalangan ezgu g‘oyalar ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lib, tabarruk zaminimizni, xalqimizning eng olijanob fazilatlarini tarannum qiladi. Ularning ta’sirchanlik qudrati yaxshilik va hayotsevarlikka chorlashida, do‘stlik va qardoshlikka undashida, qalblarda estetik zavq uyg‘otishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Yoshlar bizning kelajagimiz. Yoshlarga donolar o‘giti. T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2018.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003.
4. Алимов С. Ўзбек фольклори эстетикаси. Т: “Фан”, 1982.
5. Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Изд. Главная редакция восточной литературы,1972.

6. Мусақулов А. Ўзбек халқ қўшиқларининг тарихий асослари. Т: “Фан”, 1994
7. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. Т: “Фан”, 2011.
8. Ўзбек поезияси антологияси. Тошкент: Ўздавнашр, 1948.
9. Садоков Л.Р. Музыкальная археология древней и средневековой Средней Азии: ударные инструменты. М.: “Наука”,1996.
10. Жабборов И.Кўҳна харобалар сири. Т.: “Фан”, 1968.
11. Геродот. История. 1 том, М.: “Наука”, 1972.
12. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах.: “Сангзор” нашриёти, 2006.

MUSIQIY MEROS VA ZAMONAVIYLIK

Shovkat Umarov,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
“San’at nazariyasi va tarixi”
kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa san’atining tarixi va shakllanish bosqichlari, falsafiy-estetik, ma’rifiy-tarbiyaviy xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘tmish, musiqa, san’at, madaniyat, milliy ruh, madaniy meros.

Annotation: This article examines the history and stages of formation of musical art, its philosophical-aesthetic, educational-educational characteristics.

Key words: past, music, art, culture, national spirit, cultural heritage.

Taraqqiyot sari intilayotgan har bir millatning madaniy merosi ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan eng bebaho boylik hisoblanadi. Zero, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[4, 13].

Ma’naviy va moddiy hayot yoki ta’lim – tarbiya bo‘ladimi, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, zamonaviylik va an’anaviylik bo‘ladimi, ularning barchasida uyg‘unlik va mutanosiblikni saqlash taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Asrlar sinovidan o‘tgan, o‘zbek xalqining musiqiy merosi nihoyatda qadimiy tarixga ega bo‘lib, uning yo‘nalishlari ham rang-barangdir. San’atni qismat deb bilgan xonanda uchun she’rning qofiyasidan tortib, undagi so‘z va ohanglarga qachon va qanday urg‘u berishning ahamiyati qanchalik muhim bo‘lsa, musiqa

o‘qituvchisining bu boradagi mas’uliyati undan bir necha barobar yuqoridir. Shuningdek, madaniy meros davrlar va insonlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanib, sayqallanib boradi. Milliy qadriyatlarning hamkorlikdagi almashinuvi jarayonida ma’naviy-madaniy meros rivojlanadi.Qadim ildizlarga ega madaniy meros o‘z navbatida shaxs ma’naviy yuksalishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Mutafakkir olim, buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “Inson qalbi har bir yangi va ko‘ngildagidek nag‘madan orom oladi, keyinchalik xuddi shu yoqimli nag‘ma birdan g‘oyib bo‘lsa, qalb hayajonga tushadi. Xuddi shu oldingi nag‘maga o‘xshash ikkinchi nag‘maning paydo bo‘lishi bilan qalbdagi hayajon yo‘qola boshlaydi. Demak, yoqimli narsalardan rohatlanishning birinchi sababi, yo‘qolgan narsadan qalb iztirob chekib turgan vaqtda, o‘sha istalgan tovushning qo‘qqisdan paydo bo‘lishidir”[12, 144].

Musiqa ham ko‘ngilga orom beruvchi yoqimli nag‘ma, ham insonni ezgulik va yaxshidikka da’vat etuvchi qudratli kuchdir. Zero, musiqa tinglab, yoqimli narsadan rohatlanayotgan bolani o‘zbek xalqining madaniy merosini bilishga qiziqtirish, uni qadrlashga o‘rgatish pedagogdan alohida mahorat talab qiladi.

Musiqa madaniyati, milliy qo‘shiqchilik san’ati hamma zamonlarda ham insonlar qalbiga yo‘l topishga, yuksak ma’naviyatni tarbiyalashga, o‘sib kelayotgan yosh avlodda ruhiy – axloqiy barkamollik, ma’naviy yetuklik, milliy o‘zlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan ilmiy – nazariy, ma’rifiy – tarbiyaviy vositadir. Shuningdek, musiqiy madaniyat – o‘quvchilarning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didini o‘stirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot dasturida yosh avlodni ajdodlar qoldirgan bebaho merosni chuqur o‘rganish, anglash, asrash bilan bir qatorda umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy ilm – fan cho‘qqilarini egallash, madaniy merosga innovatsion yondashish, ruhida turbiyalash masalasi bosh g‘oyaga aylangan. “Ma’naviyat” lug‘atida madaniy merosga shunday ta’rif berilgan: “MADANIY MEROS – avlodlar tomonidan yaratilgan amadiy tajriba, manaviy – axloqiy ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy boyliklarni anglatuvchi tushuncha.” [22, 807]

Musiqiy meros – mo‘tabar vatanimizning o‘tmishi, ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy olami sari qo‘yilgan oltin ko‘priklardir. Umid bilan yashayotgan har bir inson farzandining ma’naviy, ruhiy balog‘atini orzu qiladi. Oila va millat manfaatlari, bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalari asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ommaviy ravishda soz chalishni o‘rganishi ularning ongu-shuurida milliy va umumbashariy qadriyatlar shakllanayotganligidan darak beradi.

Musiqa o‘qituvchisining ijtimoiy munosabatlar, Sharq pedagogikasi tamoyillaridan xabardor bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Musiqaga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonlarida musiqiy meros to‘g‘risida tushunchalar berib boriladi. Binobarin, ijtimoiy tarbiyaning insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalariga asoslanishi, ta’lim va tarbiya birligi, o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlarini hamda qiziqishlari va shaxsiy imkonlarini inobatga olish ijobiy samara beradi.

Musiqiy madaniyatning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi eng muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi musiqa darslarida o‘quvchilar ongu – shuurida milliy o‘zlik tuyg‘usini singdirishda ularning to‘g‘ri fikrlay olishi, mustaqil tafakkur yuritishi, zukkoligi, ijodiy qobiliyati, qat’iy xarakterga egaligi atrofdagilarga nisbatan adolatli va bag‘ri keng bo‘lishiga alohida e’tibor qaratishi zarur. Bu jarayonda pedagog o‘quvchilarni bilish, his etish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish tamoyillaridan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim.

Musiqiy qobiliyatni shakllantirishda o‘quvchining idrok etishi, kuzatishi, xotirasi, esda saqlab qolishi, ijodiy layoqati, fe’l atvori, maqsadga intiluvchanligini psixologik tashxis qilish zarur.

Musiqa san’ati insonlarda ichki musaffolik va ko‘rkamlikni, qalb go‘zalligini tarbiyalaydi. Ma’lumki, milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlar har bir millatning faxri hamda g‘ururidir. Uning san’at asarlarida aks etishi, shakllanishi hamda takomillashib borishi uzoq tarixiy jarayon hisoblanadi.

Asriy tarixga ega musiqaning buyuk kuchi va qudrati, sehri shundan iboratki, u insonning barcha orzulari va maqsadlarini faqat ezgulikka yo‘naltiradi. Uning umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi darajasini baholash va ilmiy jihatdan asoslash masalalariga keng e’tibor berilayotganligi tufayli zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishning yangi dasturlari shakllantirilmoqda.

Ma’naviy madaniyati yuksak xalqning qadriyatlari ham yuksak bo‘ladi. Qadriyatlar insonning o‘zligini anglashida, komil inson darajasiga yetish uchun intilishida alohida vosita hisoblanadi. Bizning san’atimiz olamga o‘zbek xalqi, uning tarixi, madaniyati, ma’naviyati, an’analari, insoniyat oldidagi xizmatlari haqida haqiqatni so‘zlab berishi shart. Zero, o‘zlikni anglash tarixni o‘rganishdan boshlanadi. Vatanimizning boy tarixi va madaniy merosining yangi qirralarini ochish, ularni kamol topib kelayotgan yosh avlod o‘rtasida targ‘ib etish, yoshlarda tarixiy meros va an’analarga chuqur hurmat, qiziqish uyg‘otish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Umid bilan yashayotgan har bir inson farzandining ma’naviy, ruhiy balog‘atini orzu qiladi. Oila va millat manfaatlari, bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalari asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodning

ommaviy ravishda soz chalishni o‘rganishi ularning ongu-shuurida milliy va umumbashariy qadriyatlar shakllanayotganligidan darak beradi. Ayniqsa, maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning bironta musiqa asbobini chala olishi – uning kelajagi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, barcha sohalar qatorida musiqa san’atida ham muhim islohotlar, jiddiy ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xalqimizning asrlar mobaynida shakllanib kelgan, davr sinovlariga bardosh bergan kuy – qo‘shiqlari tiklanib, an’anaviy va zamonaviy guruhlar repertuaridan munosib joy egallamoqda.Zero, musiqiy madaniyat – shaxs va jamiyat munosabatlari kesimida ma’naviy-axloqiy muhit yaratuvchi vazifasini o‘taydi hamda shaxsga ham, jamiyatga ham teng ta’sir qilish qonuniyatiga ega bo‘ladi.

Musiqa madaniyatida asosiy badiiy vosita kuy hisoblanadi.U - ohang (intonatsiya) san’ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy ko‘zgusidir. U borliqni o‘ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi hamda uni tushunib olish va o‘zgartirishga yordam beradi. Xususan, mumtoz musiqalar insonning ruhiy olamini, badiiy-estetik qarashlarini o‘ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi hamda uni tushunib olish va ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, musiqa san’ati – badiiy-estetik, ma’rifiy-tarbiyaviy, falsafiy - tarixiy vosita sifatida eng dastlabki davrlardan boshlab olam va odamni anglashda, insonlar qalbiga yo‘l topishda, ularni yaxshilikka, ezgulikka, mehr – saxovatga da’vat etishda, yoshlarni yuksak ma’naviyat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda ulkan rol o‘ynagan. Musiqa san’atiga xos bo‘lgan badiiy-estetik, ma’rifiy-tarbiyaviy, falsafiy-tarixiy jihatlar, uni beqiyos qudratli kuchga aylantirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘tiladigan har bir dars, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda, berilgan vazifa va muammolarni mustaqil hal qilishlarida samarali natijalarni beradi, shuningdek,o‘qituvchilarning ta’lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25-son.

2. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma.-T.: 2009.

3. Каримова Д., Намозова Д. Мусиқа ўқитишда инновацион-педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма.–Т.: 2014. - 85 б.

4. Ибрахимжанова Г.А ва бошқалар. Мусиқа элементар назарияси. Гармония. Касб-ҳунар коллеж лари учун ўқув қўлланма. - Т.: “Ўзбекистон файласуф лари миллий жамияти”нашриёти, 2017. - 180 б

4. Фитрат А. Ўзбек мусиқаси тўғрисида.Танланган асарлар. Тошкент.: “Маънавият”, 1998.

5. Вамбери Ҳ.Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Аадабиёт ва санъат нашриёти.1990.

6. Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Изд. Главная редакция восточной литературы,1972.

7. Ибн Сино. Термалар. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.:“Ўқитувчи” нашриёти.,1995.

8. Иброҳимов О. Санъатшунослик масалаларига доир. Санъатшунослик масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Т.: 1998.

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ ВОСТОКА НА ТАНСЕВАЛЬНОЙ ССЕНЕ

Ташкенбаев П.И.,
доцент Государственной академии
хореографии Узбекистана,
кандидат искусствоведения

Аннотатсия. В статье рассматриваются вопросы творческого наследия заслуженного деятеля искусств Узбекистана Юлдуз Исматовой, исследуются художественные особенности хореографических спектаклей, основанных на синтезе узбекской натсиональной тансевальной школы и классического балета.

Ключевые слова: спектакль, драматургия, синтез, традитсия, режиссёр, музыка, фольклор, этнография, персонаж, либретто.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Yulduz Ismatovaning ijodiy merosi tadqiq etilib, o‘zbek milliy raqsi va klassik balet sintezi asosidagi xoreografik spektakllarning badiiy xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: spektakl, dramaturgiya, sintez, an’ana, rejissyor, musiqa, folklor, etnografiya, personaj, libretto.

В истории узбекского тансевального искусства второй половины XX века особое место занимает творчество заслуженного деятеля искусств Узбекистана Юлдуз Исматовой. Продолжая и творчески обогащая традитсии своих выдающихся предшественников и

наставников – Тамары Ханум и Мукаррам Тургунбаевой, Юлдуз Исматова внесла собственный вклад в развитие натсионального тансевального искусства. Поставленные ею в качестве балетмейстера – постановщика, а затем и режиссера – постановщика музыкально – драматические спектакли в Театре имени Мукими, тансевальные номера и хореографические композитсии, поставленные на концертной ссене, стали заметным событием в истории узбекского театрального и тансевального искусства Узбекистана.

За годы работы в Театре имени Мукими в качестве сначала тансовщисы, затем – актрисы, балетмейстера-постановщика, режиссера-постановщика, Юлдуз Исматова в совершенстве овладела особенностями соединения танса с музыкально-драматическим действием. Мечта создать “узбекский балет” увлекла её уже тогда. Но это должен был быть балет не в привычном понимании этого слова, а именно по-настоящему натсиональный балет.

Творческие поиски Юлдуз Исматовой способствовали возникновению принципиально нового направления в истории хореографического искусства Узбекистана. Создав и возглавив театр танса «Тановар», она сумела органически соединить “традитсии натсиональной тансевальной школы с классическим балетом” [1, с. 186]. В результате их синтеза возник ряд спектаклей, основанных на народном фольклорно – этнографическом творчестве, исторических событиях, творческой деятельности выдающихся представителей узбекского народа В каждом из спектаклей творческий коллектив театра посредством тансевальных движений и актёрского мастерства сумел передать весь мир внутренних переживаний и чувств героев. Особое место в репертуаре театра занимали спектакли, посвященные женщинам Востока

Один из первых в творческой биографии театра танса “Тановар” является драматический балет “Надира”, поставленный в 1992 году. По своей форме и содержанию он был подлинно узбекским натсиональным балетом. В этом спектакле Юлдуз Исматова проявила себя не только как режиссёр-постановщик, но и как автор либретто. Одновременное возникновение музыки, либретто и ссенического воплощения способствует тому, что спектакль становиться более впечатляющим и зрелищным. Именно таким спектаклем стал балет “Надира”, ставший примером гармоничного содружества либреттиста-балетмейстера Юлдуз Исматовой и известного композитора Мустафы Бафоева.

Одной из особенностей спектакля было то, что оригинальное, непривычное тансевальное действо сливалось со стихами, произнесёнными без музыкального фона. Музыкой танса стала мелодичность и ритмика самой поэзии, а замедленные тансы

приобрели особую пластичность. Как отмечает Л.Авдеева, “Тансовщисы часто “несут” позу – движутся только ноги – они замирают в позе смятении либо в позе мучительного раздумья, в позе трагического предчувствия либо в позе благостного умиротворения.

Танес героев выстроен в той же стилистике, дуеты героя и героинь не касательны, это дуеты-диалоги, дуеты-вариатсии” [2, с. 45].

По сюжету, в спектакле было три основных персонажа – две великие узбекские поетессы Надира и Увайси, жившие в Коканде в первой половине ХИХ века, а также Омар-хан. Юлдуз Исматова сумела воплотить в этом балете яркий, запоминающийся образ выдающейся поетессы Нодиры, рассказать средствами хореографической выразительности о её трагической судьбе. Судьба Надиры, великой поетессы, создавшей при дворе кокандского хана своеобразную школу поезии, организовавшей праздники поезии потрясала своей драматичностью.

Надира знала, чувствовала, что погибнет и только Увайси, незаурядная поетесса, могла отвлечь её от горьких раздумий.

Не менее важную роль играли тансовщисы, исполнявшие массовые тансы, а также народные комедианты – масхарабозы. Их пластические, мимические и ритмические действия отражали душевное настроение и внутренние переживания героев, насыщали хореографический спектакль эмотсиональным содержанием и драматизмом. “Движения тансовщис и масхарабозов заполняли собой всё простанство ссены, они служили своеобразным живым фоном, создавая разнообразные пластические и хореографические комбинатсии, плавные перестроения, соотвествующие динамике и драматизму событий, изображаемых главными героями”[3, с. 219].

В 1996 году по инитсиативе первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова и при поддержке ЮНЕСКО в Узбекистане широко отмечалось 660-летие со дня рождения выдающегося государственного деятеля и полководса Амира Темура.

Накануне этого знаменательного события театр танса «Тановар» осуществил постановку хореографического спектакля «Темурий маликалар» на музыку Алишера Икрамова. Юлдуз Исматова сумела создать невероятно красочный, богато декорированный в художественно оформлении балет.

Действие спектакля происходит во дворсе Амира Темура. Основные действующие литса – это Биби Ханум – старшя жена Амира Темура, Гавхаршад Бегим – жена его сына, мать Мирзо Улугбека, а также Шади Мульк – возлюбленная Халил Султана, внука Амира Темура. Содержание балета, выстроенное из исторических эпизодов, было пронизано духом и атмосферой

событий далекого прошлого. Торжественность и значимость дворсовых серемоний Юлдуз Исматова сумела выразить в классических и народных тансах.

В роли Сахибкирана выступил известный актер театра и кино, народный артист Узбекистана Теша Муминов. На протяжении всего спектакля актер не произносит ни единого слова. Но зритель прекрасно понимал всё, что происходило вокруг Сахибкирана, всю суть взаимоотношений между Амиром Темуром и его близкими. Все перипетии взаимоотношений передавались выразительными средствами танса, пластики, мимики, жеста, бессловесного диалога.

Особо следует отметить ту кропотливую работу, которую провела балетмейстер по созданию колоритных ссенических костюмов. При разработке их эскизов были использованы изображения одежды придворной знати на средневековых миниатюрах, описания, содержащиеся в литературных источниках, в частности, в исторических летописях. Например, одежда Биби Ханум была воссоздана на основе описаний Кастильского (Испанского) посла Рюи Гонзалеса де Клавихо, который оставил дневник о своем путешествии в Самарканд.

Спектакль «Темурий маликалар» был включен в программу культурных мероприятий, посвященных юбилею Амира Темура и с огромным интересом был принят зрителями – как отечественными, так и зарубежными [2, с. 75-76].

Спектакль «Зебуннисо», поставленный в 1998 году, (либретто и хореография Юлдуз Исматовой, постановка Н.Юсуповой) был посвящен трагической судьбе великой узбекской поетессы, жившей в ХВИИ веке. Основной темой поетического творчества Зебуннисы является положение восточной женщины, её внутренние переживания и душевное благородство.

Действие балета происходит в саду могольского шаха Аурангзеба. Принсесса Зебуннисо читает подругам свои поетические сочинения – газели. Они слушают её, как завороженные, некоторые от восторга кружатся в тансе. Неожиданно одна из служанок приносит поетессе письмо от её возлюбленного Акил-хана, в котором он просил о свидании.

Зебуннисо и Акил-хан встречаются и объясняются в любви, но неожиданно появляется её отес – шах Аурангзеб. Он приказывает отправить Акил-хана в тюрьму. Зебуннисо бросается в ноги к отсу и просит о помиловании возлюбленного, но жестокий шах отказывает дочери. Роль Зебуннисо исполняла Наима Юсупова, Акил-хана – Эркин Каххаров, шаха Аурангзеба – Таджиддин Абдувахидов.

В этом спектакле творческий коллектив театра «Тановар» посредством тансевальных движений и пластики прекрасно передал

все внутренние переживания и чувства героев, их отношения друг к другу. Это было в сентре внимания и создателей спектакля, и тансоров. Поетому постановки состояли не только из тансевальных номеров, но и из связывающих их мизанссен, передающих события, настроения, состояние души героев, что и придавало спектаклям необычный колорит, сделало их более зрелищными и интересными.

Театр танса «Тановар», открывший, как мы отмечали выше, новую странису в истории узбекского хореографического искусства, завоевал любовь миллионов зрителей. Творческий коллектив под руководством Ю.Исматовой от простого фольклорно-этнографического ансамбля вырос до большого театра с собственным арсеналом тансевальных и ссенических приёмов, мимики и пластики движений. Тематика тансевальных спектаклей была непосредственно связана с историей родного края – знаменательными историческими событиями, жизнью и творчеством выдающихся личностей, народными традитсиями и обрядами, родившимися в глубине веков.

Традитсии создания театра танса, заложенные Юлдуз Исматовой, продолжили её ученисы и последовательнисы, которые в наши дни осуществляют постановки новых концертных программ, используя творческий опыт своей наставнисы.

Список использованной литературы:

1. Авдеева Л.А. Из истории узбекской натсиональной хореографии. – Ташкент: Узбекракс, 2001.
2. Авдеева Л.А., Кадыров М.Х., Исматова Ю.А. Тансы «Тановар». – Ташкент: Изд-во им. Г.Гуляма, 2002.
3. Кадыров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. – Ташкент: Санъат, 2010.
4. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан ХИХ асрга қадар.-Тошкент: Фан, 1975.
5. Авдеева Л.А. Ўзбек миллий рақси тарихидан - Т.: М.Турғунбоева номидаги “Ўзбекракс” миллий рақс бирлашмаси, 2001.
6. Вашкевич Н.Н. История хореографии вцех веков и народов. М.: “Ленанд”, 2018.

MUSIQA MADANIYATI O‘QITUVCHISINIG MUSIQIY PEDAGOGIK MAHORATI

E.Qobilova,
Qo‘qon davlat universiteti
Musiqa nazariyasi kafedrasi professori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik mahorati, uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda o‘quvchilar estetik didini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Musiqa o‘qituvchisining nafaqat kasbiy bilim va ijrochilik mahorati, balki psixologik yondashuvi, metodik tayyorgarligi ham o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Tadqiqotda musiqiy-pedagogik mahoratning zamonaviy ta’lim talablari asosida qo‘llanishi, yosh avlodni ma’naviy barkamollikka yetaklashdagi roli yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: mahorat, kreativlik, yondoshuv, ta’lim, dars, texnologiya, ijtimoiy faollik, innovatsiya, metod,

Abstract: This article analyzes the musical pedagogical skills of a music teacher, its importance in the educational process and its role in forming the aesthetic taste of students. Not only professional knowledge and performing skills of a music teacher, but also psychological approach and methodological preparation are the main factors in increasing students' interest in music. The study highlights the application of musical pedagogical skills based on modern educational requirements and their role in leading the younger generation to spiritual perfection.

Keywords: skills, creativity, approach, education, lesson, technology, social activity, innovation, method,

KIRISH

Musiqa madaniyati darslari o‘quvchilarda nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarni, balki ularning ichki dunyosi, estetik zavqi va milliy g‘ururini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois, musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik mahorati zamonaviy ta’lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat deganda, o‘qituvchining o‘z kasbiy bilimlarini samarali qo‘llay olish qobiliyati, metodik yondashuvlari, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olish san’ati tushuniladi.Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, estetik didi yuksak, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Musiqa o‘qituvchisi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ilhomlantiruvchi va ma’naviy yo‘lboshchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli o‘qituvchining musiqiy-pedagogik mahoratini oshirish, yangicha metodlardan

foydalanish, o‘quvchilarda musiqaga mehr uyg‘otish bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy talablaridan biri hisoblanadi Milliy dasturda ko‘zda tutilgandek, zamonavaiy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib bormokda. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlanadi. O‘quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammalashib, o‘quv jarayoniga tatbiq etib borilyapti. Musiqa madaniyati o‘qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'lim – tarbiya sohasida ortirilgan tarjimalarni o‘rganishi lozim. Bu albatta ko‘pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o‘qituvchilarning faoliyatlari ham o‘rganib boriladi. Chunki tajribalrni o‘rganish jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o‘quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarini o‘rganish metodlardan foydalaniladi, masalan: kuzatishda o‘rganish lozim bo‘lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsadda kelib chiqqan xolda kuzatish bayonnomasini olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqa ta’limi va tarbiyasida o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, kasbiy mahorati hamda musiqiy bilim darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda musiqa madaniyati o‘qituvchisining pedagogik mahorati turli jihatlardan tahlil etilgan. Jumladan:

- Abu Nasr Forobiy o‘zining “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqaning inson ruhiyati va axloqiy tarbiyasiga kuchli ta’sirini ko‘rsatib o‘tadi. Ustozning musiqiy bilimdonligi va uni to‘g‘ri yetkaza olishi yosh avlod ma’naviy kamoloti uchun muhim omil sifatida ta’kidlanadi.
- K.D. Ushinskiy pedagog shaxsida o‘z fanini chuqur bilish, bolalarga ta’sirchan nutq va amaliy faoliyat orqali ta’lim berish zarurligini qayd etadi. Musiqa o‘qituvchisi uchun esa bu, qo‘shiq kuylash, cholg‘uda ijro, musiqiy idrok va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish demakdir.
- Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, O‘zbekistondagi musiqiy-pedagogik metodika bo‘yicha ishlarda) musiqa o‘qituvchisining mahorati quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi ta’kidlanadi: musiqiy savodxonlik, ijro mahorati, estetik did, psixologik tayyorgarlik va pedagogik uslub.
- Shuningdek, bugungi adabiyotlarda o‘qituvchi faoliyatida innovatsion metodlardan – AKT, interaktiv metodlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda musiqaga qiziqish uyg‘otish muhimligi ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili va olib borilgan muhokamalar shuni ko‘rsatadiki:

- Musiqa madaniyati darslari samaradorligi, eng avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati, ijodiy yondashuvi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liq.
- Forobiy, Ushinskiy kabi mutafakkirlar va pedagoglarning fikrlari bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, musiqa tarbiya vositasi sifatida insonni komillikka yetaklashini tasdiqlaydi.
- Hozirgi davrda o‘qituvchining faqat musiqiy bilimdon bo‘lishi yetarli emas; u innovatsion texnologiyalarni qo‘llashi, fanlararo bog‘lanish yaratishi, milliy va jahon musiqa merosini uyg‘unlashtira olishi zarur.
- O‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlasa, ijodiy faoliyat olib borsa, o‘quvchilarda musiqaga qiziqish va mehr uyg‘otadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, musiqa madaniyati o‘qituvchisining kasbiy mahorati – bu faqatgina musiqani bilish emas, balki uni badiiy-estetik ruhda, didaktik asosda o‘quvchilarga singdira olish qobiliyatidir.O‘qituvchi shaxsi – bosh omil. Musiqa madaniyati darslarining samaradorligi bevosita o‘qituvchining musiqiy-pedagogik mahorati, ya’ni bilimdonligi, ijodkorligi va metodik yondashuviga bog‘liq.Musiqa va tarbiya uzviyligi. Forobiydan boshlab ko‘plab mutafakkirlar musiqani tarbiya vositasi sifatida e’tirof etishgan. Shuning uchun ham zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglatishi zarur.Integrativ yondashuv zarur. O‘quvchilar musiqani faqat qo‘shiq aytish emas, balki madaniyat, san’at, milliy qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida anglashlari uchun fanlararo bog‘lanishdan samarali foydalanish muhimdir.Innovatsion metodlar samarali. Multimedia vositalari, zamonaviy texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar orqali darsni qiziqarli tashkil etish – o‘quvchilarda musiqaga mehr uyg‘otadi.Kasbiy rivojlanish uzluksiz. Musiqa madaniyati o‘qituvchisi o‘z ustida muntazam ishlashi, ijodiy faoliyat olib borishi, musiqiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim.Natija sifatida aytish mumkinki, musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik mahorati – bu o‘z kasbini sevish, musiqani chuqur bilish va uni o‘quvchilarga ta’sirchan, qiziqarli, estetik ruhda yetkaza olish qobiliyatidir.Ma'lumki, didaktikaning predmetini o‘rgatish, o‘rganish hamda ta'lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir – biri bilan uzviy aloqada bo‘lib, ulardan birortasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.Ishni o‘rganish yoki o‘rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani (qaysi mazmundagi o‘quv materialini) o‘rganmoqchimiz yoki o‘rgatmoqchimiz, degan savol tug’iladi.O‘rgatish ham, o‘rganish ham ularning ohirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog’liq. Har xil mazmundagi matnlarni o‘ziga xos usullar bilan o‘zlashtirish qabul qilinganligi uchun o‘rgatishning qanday bo‘lishi uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o‘rganishni tashkil etuvchi, ya'ni o‘rgatuvchiga bog’liq.Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik

texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog’lanadi. Azaldan Sharq, jumladan, o‘zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy, musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi.Bunda o‘quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo‘lib xisoblaniladi Shuningdek, o‘quvchilar musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o‘quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy extiyojlarini qondirish musiqa ta'lim – tabiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jaxon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o‘rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga moyillik bo‘lgan madaniy durdonalardan baxramand bo‘lishni ta'minlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to‘xtab qolmaydi, uning g’ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi bu tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham musiqa madaniyati o‘qituvchisi, o‘quvchilarni ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatining shakitllantirishi, milliy g’ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o‘stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakillantirib borish lozimdir. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi. Anketalashtirish material to‘plash maqsadida amalga oshiriladi. Mahoratli o‘qituvchi barcha o‘quvchilar kabi maktab xujjatlarini o‘rganishi lozim. Bunga o‘qituvchilarning shahsiy delalari, metodistning habarlari, kundaliklar, majlis bayonnomalaridan habardor bo‘lishi nazarda tutiladi. Shuningdek darsdan tashkari musikiy to‘garak ishlarini olib boradi. Jumladan: Qadimgi Gretsiyada musiqa yordamida donolikni, mardlikni tarbiyalashi mumkin deb hisoblangan. haqiqatdan har bir san'at insonga ruhiy ta'sir ko‘rsatadi. Musiqa aynisa emotsional ta'sir etishda katta kuchga ega. Shuning uchun ko‘pgina davlatlarda musiqadan ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha keng

foydalaniladi.Maktablar faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o‘quv tarbiya jarayonini yangi yullarini amalga oshirish va uni olib borishning ko‘plab variantlari mavjud. har bir muallif hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o‘zining individual ulushini qo‘shadi.

XULOSA

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimida raqobatbardosh, yangicha fikrlaydigan, o‘z kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib boradigan musiqa o‘qituvchilariga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarni musiqa orqali milliy qadriyatlarga sadoqatli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik yondashuvi beqiyos ahamiyat kasb etadi.Musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik mahorati — bu nafaqat o‘quvchilarga musiqa bilimlarini yetkazish, balki ularning estetik didini shakllantirish, ma’naviy olamini boyitish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash jarayonida asosiy omil hisoblanadi. O‘qituvchining mahorati uning shaxsiy badiiy saviyasi, ijrochilik qobiliyati, psixologik yondashuvi va metodik bilimlarining uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi.Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, AKT vositalaridan samarali foydalanish, xalq qo‘shiqlari, milliy kuy va ashulalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu esa musiqiy-pedagogik mahoratni nafaqat bilim berish jarayoni, balki tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning muhim bo‘lagi sifatida belgilaydi.Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy pedagogik mahorati o‘quvchilarning shaxs sifatida kamol topishi, ularning badiiy-estetik tafakkuri va ma’naviy barkamolligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘qituvchidan o‘z ustida muntazam ishlash, ijodiy izlanish, milliy va jahon musiqiy merosini chuqur o‘rganish va amaliy faoliyatda qo‘llash talab etiladi. Ana shu jarayonlargina ta’lim-tarbiyada kutilgan samarani beradi hamda kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladiShunday qilib, musiqa madaniyati o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik mahorati – bu ta’lim jarayonida musiqani nafaqat o‘rgatish, balki uni inson ruhiyatiga singdirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning kuchli vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev. Pedagogik kompitentlik va kreativlik asoslari T-2015
2. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 126-130.

3. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3, 127-132.
4. Kobilova, Ye. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. Mejdunarodnыy mulьtidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok, 1(1), 156-159.
5. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. University Research Base, 46-49.
6. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O ‘QITISHNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 99-100.
7. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 192-195.
8. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. Pedagogikada ilmiy izlanishlar, 2(1), 28-31.
9. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(02), 44-49.
10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.

BOLALARNI SOLMIZATSIYA METODI ORQALI MUSIQA VA SAN’ATGA QIZIQISHINI OSHIRISH

Ruxshona Odilova,
Qo‘qon davlat universiteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: E.Qobilova
Qo‘qon davlat universiteti
Musiqa nazariyasi kefedrasi professori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada solmizatsiya metodi asosida bolalarning musiqa va san’atga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Solmizatsiya usuli orqali musiqiy idrokni kengaytirish, ohang va ritmni his etish, tovush balandligini farqlash va ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda pedagogik

va musiqiy metodlar qo‘llanib, maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda samaradorlik natijalari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Solmizatsiya metodi, musiqa ta’limi, bolalar ijodi, ritm, ohang, musiqiy idrok, san’atga qiziqish, maktabgacha ta’lim.

Annotation: This article discusses the issues of developing children's interest in music and art based on the solmization method. The possibilities of expanding musical perception, feeling melody and rhythm, differentiating pitch, and forming interest in creative activities through the solmization method were analyzed. The study used pedagogical and musical methods to study the results of effectiveness in developing musical abilities in preschool children.

Keywords: Solmization method, music education, children's creativity, rhythm, melody, musical perception, interest in art, preschool education.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonida bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularning estetik dunyoqarashini kengaytirish va san’atga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Zero, musiqiy ta’lim bolalarning nafaqat badiiy didini, balki intellektual rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, ularda zamonaviy metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.Musiqa ta’limida qo‘llanilayotgan metodlar orasida **solmizatsiya metodi** alohida o‘rin tutadi. Ushbu metodning asosiy mohiyati – musiqiy tovushlarni maxsus belgilar va intonatsiyalar orqali oson idrok etish, ohangni yodda saqlash va ritmik sezgirlikni rivojlantirishdir. Solmizatsiya bolalarda musiqiy eshituv qobiliyatini kuchaytiradi, ularni ohanglarni farqlashga o‘rgatadi, shu bilan birga ijodiy fikrlash va san’atga bo‘lgan mehrini kuchaytiradi.Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqaga bevosita qiziqadigan davrda bo‘ladilar. Shu sababli ularda musiqiy qobiliyatni shakllantirishning eng qulay yo‘li – ularni amaliy faoliyatga jalb etish, ya’ni kuylash, ritmik harakatlar qilish, musiqani tinglash orqali o‘zlashtirishdir. Solmizatsiya metodi bu jarayonda o‘zining oddiy va qulayligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, nota savodini oson o‘rganishga, musiqiy tafakkurni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.Shu jihatdan olganda, solmizatsiya metodidan foydalanish nafaqat musiqiy tarbiya samaradorligini oshiradi, balki bolalarning san’atga qiziqishini ham kuchaytiradi. Kodalining fikricha, har bir insonning musiqiy qobiliyati bor va ideal holda, musiqa ta'limi inson hayotida imkon qadar erta - avval uyda, keyin esa maktab o‘quv dasturida boshlanishi kerak.Zoltan Koday qo‘shiqchilik barcha musiqa ta'limining asosi bo‘lishi kerak deb hisoblardi."Qo‘shiqchilik musiqa ta'limining eng yaxshi boshlanishini ta'minlashi uzoq vaqtdan beri qabul qilingan haqiqatdir; bundan tashqari,

bolalar biron bir asbob bilan ta'minlanmasdan oldin musiqa o‘qishni o‘rganishlari kerak ... hatto eng iste'dodli san'atkor ham qo‘shiq aytmasdan ta'limning kamchiliklarini hech qachon yengib chiqa olmaydi" Ovozdan foydalanish Koday yondashuvining eng aniq xususiyatlaridan biridir. Ovoz barcha asboblar ichida eng qulayidir va bu uni musiqiy o‘qitish uchun eng mos qiladi va yuqori darajada rivojlangan musiqiy quloqqa olib kelishi mumkin. Musiqa bilan shug'ullanish, qo‘shiq aytish, o‘ynash, harakat qilish va zavqlanish orqali o‘rganishga e'tibor qaratish orqali musiqa tabiiy o‘rganish jarayonining bir qismiga aylanadi.Bugungi kunda ushbu metodni maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyotiga keng joriy etish musiqiy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida bolalarni milliy va jahon madaniy merosiga qiziqtirish, musiqiy estetik didini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Musiqa mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan zamonaviy metodlardan biri bu — solmizatsiya metodi bo‘lib, u nafaqat musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki bolalarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi, san’atga muhabbat uyg‘otadi. Solmizatsiya orqali nota belgilarini oson o‘zlashtirish, kuyni intonatsion tarzda idrok qilish va musiqiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida ushbu metodni samarali qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqa pedagogikasida bolalarning estetik tarbiyasini shakllantirish, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, mashhur musiqashunos va pedagoglar – Zoltán Kodály, Karl Orff, Edgar Willems kabi olimlar musiqiy ta’lim jarayonida solmizatsiya va boshqa amaliy metodlarning samaradorligini isbotlab berganlar. Jumladan, Kodály tizimi solmizatsiya asosida bolalarda musiqiy eshituvni shakllantirish, ularni xalq qo‘shiqlari orqali musiqaga yaqinlashtirishni nazarda tutadi. Bu tizim keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda musiqa ta’limining metodik asosiga aylangan.O‘zbekiston olimlari orasida esa M. Ortiqboyeva, Sh. Shodiyev, D. Qo‘shjonov, N. Musayevlarning ilmiy tadqiqotlarida musiqiy ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar, xalq qo‘shiqlari, zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Ularning izlanishlarida musiqaning tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy ahamiyati keng tahlil qilingan bo‘lib, bolalarda musiqiy didni shakllantirishda solmizatsiya kabi metodlarning samaradorligi ta’kidlab o‘tilgan bunda .bolalarda eshitish xotirasini kuchaytirish,musiqiy idrokni sezgir qilish,ritmik harakatlar orqali musiqiy hisni shakllantirish,vokal va instrumental ijrochilikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

1. Nazariy tahlil usuli – xorijiy va mahalliy manbalardagi ilmiy adabiyotlar, maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar tahlil qilinib, solmizatsiya metodining pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi.

2. Pedagogik kuzatuv – maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini kuzatish orqali bolalarning musiqaga qiziqishi, mashg‘ulotlarda ishtiroki va metod samaradorligi baholandi.

3. Amaliy-tajriba usuli – tajribaviy mashg‘ulotlar tashkil etilib, solmizatsiya asosida qo‘shiq kuylash, tovushlarni farqlash, ritmik mashqlar bajarish orqali bola qobiliyati va qiziqishi o‘lchandi.

4. Solishtirish va tahlil usuli – an’anaviy musiqa mashg‘ulotlari bilan solmizatsiya metodiga asoslangan mashg‘ulotlar taqqoslandi, natijalar tahlil qilindi.

5. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash – tajribaviy mashg‘ulotlar yakunida bolalarning musiqiy qiziqishi va faoliyatidagi o‘zgarishlar son va foiz ko‘rinishida umumlashtirildi.

Natijada ilmiy adabiyotlarda ta’kidlangan nazariy qarashlar va o‘tkazilgan tajribaviy izlanishlar bir-birini to‘ldirgan holda solmizatsiya metodining bolalar musiqiy tarbiyasidagi samaradorligini yanada isbotlab berdi. Ushbu metod musiqiy eshituv, ritmik sezgi, ijodiy qobiliyat va estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagilar asos qilib olindi:

1. Pedagogik kuzatuv — mashg‘ulotlarda bolalarning qiziqishi, faol ishtiroki o‘rganildi.

2. Amaliy tajriba — solmizatsiya asosida mashqlar tashkil qilinib, oddiy ohanglarni ijro etish orqali bola qobiliyati baholandi.

3. Solishtirish usuli — an’anaviy musiqa mashg‘ulotlari bilan solishtirib, solmizatsiya metodining samaradorligi o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan kuzatuv va eksperimental mashg‘ulotlar shuni ko‘rsatdiki, solmizatsiya metodi musiqiy ta’lim jarayonida o‘zining yuqori samaradorligini namoyon etadi. Avvalo, an’anaviy usullarda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda bolalar ko‘proq passiv ishtirok etishi kuzatildi, musiqiy tovushlarni eslab qolishda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ammo solmizatsiya metodidan foydalanilganda, bolalarda musiqiy jarayonlarga qiziqish kuchaydi, ular faol ishtirok eta boshladilar. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, solmizatsiya metodi bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.Musiqiy tovushlarni farqlash qobiliyati keskin yaxshilanadi,mashg‘ulotlarga qiziqish oshadi, bola faol ishtirok etadi,ritmik harakatlar va kuylash uyg‘unlashib, musiqaga mehr ortadi,san’atga bo‘lgan umumiy estetik munosabat shakllanadi.

Solmizatsiya metodining o‘ziga xos afzalliklari mavjud:

- Musiqiy eshituvni rivojlantirish – bolalar tovush balandligini aniqroq farqlashni o‘rgandilar.
- Ritmni sezish – solmizatsiya mashqlarida qo‘shiq va harakat uyg‘unligi bolalarda ritmik sezgirlikni kuchaytirdi.

- Ijodkorlik – oddiy kuylarni kuylash jarayonida bolalar o‘zlari yangi ohanglarni takrorlashga intildilar.
- Estetik did – musiqaga ongli yondashuv shakllanib, san’atga bo‘lgan umumiy qiziqish kuchaydi.

Molmizatsiya metodidan foydalangan guruh bolalarida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi:

1. Musiqiy eshituv qobiliyati 25–30% ga yaxshilandi.
2. Mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish darajasi oshib, bolalarda mustaqil kuylashga qiziqish ortdi.
3. San’atga bo‘lgan umumiy munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi: bolalar qo‘shiqlarni zavq bilan kuylash, musiqaga mos harakatlar qilish orqali mashg‘ulotlarda faol qatnashdilar.
4. Pedagog va ota-onalarning fikriga ko‘ra, solmizatsiya metodidan so‘ng bolalarning uyda ham musiqa tinglash va kuylashga qiziqishi ortdi.

Shuningdek, metodik tahlil natijalariga ko‘ra, solmizatsiya metodining samaradorligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ldi:musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish tezligi oshdi;nota belgilarini eslab qolish osonlashdi;musiqaga ijodiy yondashuv shakllandi.Umuman olganda, o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, solmizatsiya metodi nafaqat musiqiy savodxonlikni rivojlantiradi, balki bolalarda san’atga mehr uyg‘otadi. Ushbu metod musiqiy ta’limni o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali qiladi.Masalan, 5–6 yoshli bolalarda solmizatsiya mashqlaridan so‘ng kuyni tezroq yod olish, ijro etishda xotirjamlik va ishtiyoq sezildi. Bu metod nafaqat musiqiy ta’lim, balki bolalarning ijodiy qobiliyatini ham rivojlantiradi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlil va natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, solmizatsiya metodi bolalarda musiqiy qobiliyat va san’atga qiziqishni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod musiqiy ta’lim jarayonini bolalar uchun sodda, qiziqarli va tushunarli qiladi. Bolalarda musiqiy eshituv, ritm sezgirligi va ohangni idrok etish qobiliyatlari izchil rivojlanadi.,mashg‘ulotlarda bolalarning faolligi va mustaqil ishtiroki ortadi, ular musiqiy faoliyatga ongli ravishda jalb qilinadi,solmizatsiya orqali nota savodini egallash jarayoni yengillashadi, musiqiy tafakkur shakllanadi,bolalarda ijodiy qobiliyat kuchayib, ular o‘z musiqiy g‘oyalari va ohanglarini yaratishga intiladilar,eng muhimi, solmizatsiya metodi san’atga bo‘lgan umumiy qiziqishni, estetik didni va musiqaga mehrni kuchaytiradi.Sólmizatsiya metodi — bolalarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish va san’atga qiziqishini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. U orqali bola musiqiy tovushlarni oson idrok etadi, ohangni eslab qoladi, estetik dunyoqarashi kengayadi. Metodning amaliyotda qo‘llanishi musiqiy tarbiya jarayonida yuqori natijalar beradi. Shuningdek,

bu metod bolalarda musiqiy eshitish, ritmni sezish va ijodkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinflarda solmizatsiya metodini keng qo‘llash tavsiya etiladi.Shunday qilib, maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich sinflarda solmizatsiya metodidan muntazam foydalanish musiqiy-pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Bu metod nafaqat musiqiy ta’lim sifati, balki bolalarning ma’naviy va estetik kamoloti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.B.Qobilova “Ritmika va xoreografiya asoslari” o‘quv qo‘llanma. T“Javoxirilm -nashr ”2023yil
2. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(9), 126-130.
3. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*, 127-132.
4. Kobilova, Ye. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. *Mejdunarodnыy mulьtidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok*, *1*(1), 156-159.
5. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. *University Research Base*, 46-49.
6. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O ‘QITISHNING AHAMIYATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *12*, 99-100.
7. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(26), 192-195.
8. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. *Pedagogikada ilmiy izlanishlar*, *2*(1), 28-31.
9. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *4*(02), 44-49.
10. Qobilova, E. (2024). *THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.*

EVRITMIKA METODIDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI MUSIQA MASHG‘ULOTIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH

M.Djumaboyeva,
Qo‘qon davlat universiteti
Musiqa nazariyasi kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda evritmika metodining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Bolalarning estetik didi, ritmik sezgisi hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda evritmik mashg‘ulotlarning pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi. Shuningdek, evritmikaning zamonaviy ta’lim jarayonida samarali qo‘llash usullari ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: evritmika, musiqiy ta’lim, maktabgacha yosh, ritm, qiziqish, ijodkorlik, musiqiy tarbiya.

Annotation: This article highlights the role and importance of the eurythmy method in forming children's interest in music of preschool age. The pedagogical possibilities of eurythmy lessons in developing children's aesthetic taste, rhythmic intuition and creative abilities were analyzed on a scientific basis. Also, methods of effective application of eurythmy in the modern educational process are shown.

Keywords: eurythmy, music education, preschool age, rhythm, interest, creativity, musical education.

KIRISH

Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya bolaning ma’naviy olamini shakllantirish, estetik didini rivojlantirish hamda ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalarning qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga jalb qilish uchun turli metodlardan foydalaniladi. Shulardan biri evritmika metodidir.Evritmika musiqiy ohang va ritmni harakatlar bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. U orqali bola musiqani eshitibgina qolmay, uni his etadi, tanasi orqali ifodalaydi. Shu sababli evritmika mashg‘ulotlari maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning musiqiy savodini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning estetik didini shakllantirish, ularni musiqa san’atiga qiziqtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, musiqa inson qalbini tarbiyalovchi, hissiyotlarini boyituvchi, ma’naviyatini yuksaltiruvchi kuchli vosita sifatida qadrlanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqiy tarbiya berish jarayonida ilg‘or pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday

metodlardan biri – Evritmika metodi bo‘lib, u mashhur shveysariyalik pedagog Emile Jak-Dalkroz tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metod musiqiy ritmni harakatlar orqali ifodalash, bolaning tanasi, his-tuyg‘usi va ongini uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Evritmika orqali bola nafaqat musiqani tinglaydi, balki uni sezadi, his qiladi va jismoniy harakatlar orqali ifodalaydi. Natijada, musiqaga qiziqish, ijodkorlik va estetik idrok tabiiy ravishda shakllanadi.Maktabgacha ta’limda evritmik mashg‘ulotlardan foydalanish bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, ritmni sezish, harakatlar uyg‘unligini topish, shuningdek, ularning ijtimoiy-emosional holatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolalar musiqiy ohang bilan uyg‘unlashgan holda turli harakatlar bajarib, musiqaga yanada chuqurroq qiziqadi, o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.Shu bois, “Evritmika metodidan foydalanib maktabgacha ta’limda bolalarni musiqa mashg‘ulotiga qiziqishini shakllantirish” mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, hozirgi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

1. Evritmika (Dalcroze) metodining kelib chiqishi va asosiy tamoyillari

Evritmika — Émile Jaques-Dalcroze tomonidan yaratilgan musiqiy-pedagogik yondashuv bo‘lib, musiqiy vaqt, ritm va dinamika tushunchalarini tananing harakatlari orqali o‘rgatishga asoslanadi. Metodning uch asosiy elementi: euritmika (harakat orqali musiqiy ifoda), solfej (nafas/eshitish mashqlari) va improvizatsiya hisoblanadi. Bu yondashuv musiqiy tushunishni jismoniy tajriba bilan bog‘lashga urinadi.

2. Nazariy asoslar — harakatga asoslangan o‘rganish va “embodied learning”

So‘nggi adabiyotlar harakat va musiqani integratsiyalash pedagogikasi (music–movement integration) ning bolalar ta’limidagi samaradorligini ta’kidlaydi: tana orqali musiqa tajribasi musiqa tushunchalarini chuqurroq idrok etishga yordam beradi, hamda motori¬ka va ritmiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bu yondashuv nafaqat musiqiy, balki kognitiv va ijtimoiy-emosional rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Empirik tadqiqotlar va natijalar (maktabgacha yoshda)

Bir qator tadqiqotlar evritmika yoki Dalcroze-ga asoslangan mashg‘ulotlarning ritmik qobiliyat, motor ko‘nikmalar hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini bildiradi. Masalan, Orff va Dalcroze faoliyatlarini maktabgacha yoshdagi bolalarda qo‘llashni o‘rganilgan tadqiqotlar ritmik qobiliyatlarni oshirishda ma’lum darajada samarali ekanligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda natijalar dasturning davomiyligi, qatnashuvchi yosh va tartibga bog‘liq holda

farqlanadi — ya’ni metodni amaliy joriy etishda dizayn va muddat muhim omil hisoblanadi.

4. Musiqa-harakat pedagogikasining kengroq ta’siri va tizimli ko‘rib chiqishlar

So‘nggi tizimli sharhlar va maqolalar music–movement pedagogikasi bo‘yicha empirik adabiyotlar bazasini ko‘rib chiqib, harakatga asoslangan yondashuvlarning turli yosh bosqichlarida (shu jumladan maktabgacha) o‘rganishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, metodologik xilma-xillik (eksperimental, quasi-eksperimental, sifatli tadqiqotlar) ham mavjudligini ta’kidlaydi.

5. O‘qituvchilarni tayyorlash va joriy etish amaliyotidagi muammolar

Maqolalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, evritmika asosida mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish uchun tarbiyachilarning mos malaka va ishonchi zarur. Kasbiy rivojlanish (PD) va coaching dasturlari o‘qituvchilarning musiqaviy va harakat pedagogik qobiliyatlarini oshirishda samarali bo‘lgan. Shu sababli, dastur joriy etish bosqichida o‘qituvchi tayyorgarligiga e’tibor qaratish zarur.

6. Maktabgacha ta’lim konteksti (O‘zbekiston misolida)

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim sohasida so‘nggi yillarda sifat va qamrovni oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda; sifatli dastur va ijodiy metodlarni joriy etishning amaliy ahamiyati ko‘p muhokama qilinadi. Evritmika kabi harakatga asoslangan metodlar reforma maqsadlari bilan mos keladi, ammo mahalliy kadrlar va resurslarni tayyorlash, dasturning moslashtirilishi va normativ jihatlarning hisobga olinishi muhim.

Adabiyotlar tahlilidan chiqarilgan xulosalar (qisqacha):

- Evritmika nazariy va amaliy jihatdan maktabgacha yoshdagi musiqiy tarbiyani boyitish uchun istiqbolli usul hisoblanadi.
- Empirik tadqiqotlar evritmika/harakat-musiqa integratsiyasi dasturlarining ritm, motor va ijtimoiy ko‘nikmalarga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, lekin natijalar dastur uzunligi va sifatiga bog‘liq.
- Mahalliy joriy etishda o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘lchov-instrumentlarni moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Evritmika metodini ilmiy asoslab bergan olimlardan biri shveysariyalik pedagog E. Jakes-Dalkroz bo‘lib, u musiqiy tarbiyada ritmik harakatlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Uning tadqiqotlarida musiqiy ritm orqali bolaning idrok, tafakkur, xotira va emotsional dunyosi boyitilishi qayd etilgan.

O‘zbekiston olimlari – N. Yo‘ldosheva, D. Qodirova va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqaga jalb etishda evritmika mashg‘ulotlaridan foydalanish samaradorligi o‘rganilgan. Adabiyotlarda evritmikaning musiqiy-ritmik

sezgini shakllantirish, bolalarda koordinatsiya, his-tuyg‘u va ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o‘rni keng yoritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi pedagogik kuzatuv va tahlillar amalga oshirildi:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishi – oddiy qo‘shiqlarni ijro etish va musiqaga mos harakatlar qilish orqali ortadi.
2. Ritmik sezgi rivoji – evritmika mashg‘ulotlarida turli tezlik va ohanglarda bajarilgan harakatlar bolalarda ritmni sezish qobiliyatini mustahkamladi.
3. Ijodiy ifoda – bolalar musiqaga mos holda o‘z harakatlarini mustaqil topish va ijodkorlikni namoyon qilishga intildilar.
4. Ijtimoiy ko‘nikmalar – evritmik o‘yinlar jamoaviylikni, bir-biriga moslashishni, musiqaga uyg‘un harakat qilishni o‘rgatdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, evritmika metodidan foydalanilgan guruhlarda bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishi, mashg‘ulotlarda faol ishtiroki va ijodiy tashabbuskorligi yuqori darajada bo‘ldi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, evritmik mashg‘ulotlar orqali bolalarda nafaqat musiqiy ko‘nikmalar, balki umumiy motorika, diqqat, ijtimoiy muloqot va estetik idrok ham rivojlanadi. Shu bilan birga, metodni samarali qo‘llash uchun tarbiyachilarning metodik tayyorgarligi, musiqiy pedagogik mahorati va zamonaviy yondashuvlardan xabardorligi muhim shart hisoblanadi.Metodologik jihatdan olib borilgan tadqiqotlar evritmikaning maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Dastur muntazam va tizimli tashkil etilganda bolalarning faol ishtiroki, musiqiy ritmlarni tezroq o‘zlashtirishi va musiqaga ijobiy munosabati shakllanadi.

Xulosa

Evritmika metodi maktabgacha ta’limda bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. U nafaqat musiqiy tarbiya jarayonini jonlantiradi, balki bolalarning umumiy rivojlanishiga, estetik didining shakllanishiga, jismoniy faolligi va emotsional dunyosining boyishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limda evritmika mashg‘ulotlarini keng qo‘llash bolalarda musiqiy madaniyatni yuksaltirishga, kelajakda san’atni sevuvchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning musiqaga qiziqishini shakllantirish ularning estetik didi, ijodiy fikrlash qobiliyati hamda ijtimoiy-emosional rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Evritmika metodi musiqiy tarbiyaning samarali vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur metod bolalarning musiqiy ritmni sezishi, ohang va harakatni uyg‘unlashtirishi, o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalashi hamda musiqaga ichki ehtiyoj sifatida qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.Shunday

qilib, Evritmika metodidan foydalanish maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni musiqaga kengroq jalb qilish, ularning musiqiy tarbiya jarayonida faol ishtirokini ta’minlash hamda kelgusida san’atga bo‘lgan mehrini mustahkamlash uchun dolzarb va samarali yondashuvdir. Ushbu metod maktabgacha ta’lim muassasalarida keng joriy etilsa, musiqiy pedagogika sifatini oshirish, bolalarda musiqaga qiziqish va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jakes-Dalkroz E. Ritm va musiqiy tarbiya. – Shveysariya, 1921.
2. Yo‘ldosheva N. Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va davlat dasturlari.
4. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 126-130.
5. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3, 127-132.
6. Kobilova, Ye. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. Mejdunarodnыy mulьtidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok, 1(1), 156-159.
7. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. University Research Base, 46-49.
8. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O‘QITISHNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 99-100.
9. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 192-195.
10. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. Pedagogikada ilmiy izlanishlar, 2(1), 28-31.

FURQATNING MUSIQA NAZARIYASIGA OID QARASHLARI

Sh.Turdiyev,
Qo‘qon davlat universiteti
Musiqa nazariyasi kafedrasi, dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan mashhur o‘zbek shoiri va ma’rifatparvar adib Furqatning musiqiy nazariy qarashlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Uning musiqaga bo‘lgan munosabati, nazariy fikrlari, san’atni jamiyat ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni haqidagi qarashlari yoritiladi. Shuningdek, Furqat ijodidagi musiqiy obrazlar, she’riy merosida uchraydigan musiqiy atamalar hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqolada musiqiy ta’lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilinib, mavjud tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, mavzu doirasida ilg‘or pedagogik qarashlar, ilmiy adabiyotlar tahlili va muhokamalar asosida samarali xulosalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: Furqat, musiqiy qarashlar, ma’rifatparvarlik, san’at va jamiyat, musiqashunoslik, she’riyat, ma’naviyat, Sharq musiqasi, an’ana.

Abstract: This article analyzes the musical theoretical views of the famous Uzbek poet and enlightener writer Furqat, who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries, on a scientific basis. His attitude to music, theoretical ideas, and views on the role of art in shaping the spirituality of society are highlighted. Also, musical images in Furqat's work, musical terms found in his poetic heritage, and their theoretical and practical significance are considered. The article is also valuable from the point of view of the mutual integration of musicology and literary studies. This article analyzes the theoretical and practical foundations of musical education and upbringing, studies existing experiences. It also aims to develop effective conclusions based on advanced pedagogical views, analysis of scientific literature and discussions within the framework of the topic.

Keywords: Furqat, musical views, enlightenment, art and society, musicology, poetry, spirituality, Eastern music, tradition.

KIRISH

Musiqa san’ati har bir xalqning ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining boy madaniy merosida musiqaning nazariy va amaliy jihatlari adabiyot, falsafa, tarix kabi sohalar bilan chambarchas bog‘langan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat (1858–1909) o‘z davrining eng yirik

ma’rifatparvar shoirlaridan biri bo‘lib, uning adabiy merosi nafaqat she’riyat, balki musiqa nazariyasini o‘rganishda ham muhim manbadir. Furqat musiqani jamiyatning axloqiy va estetik kamolotida beqiyos kuch sifatida ko‘rgan va musiqiy qarashlarini o‘zining she’rlarida ham ifoda etgan. Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotida ma’naviy va madaniy hayotning yuksalishi, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi hamda ularni yosh avlod ongiga singdirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu jarayonda san’at, xususan, musiqa san’ati va uni o‘qitish metodikasi alohida o‘rin tutadi. Zero, musiqiy tarbiya nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki shaxsda milliy g‘urur, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, musiqiy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Musiqa fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirish va ularni milliy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning musiqa va san’atga oid nutq va qarorlari hamda qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar bu sohaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi beqiyos o‘rnini yanada mustahkamlab bermoqda. Shu jihatdan olganda, ilmiy tadqiqotlar va pedagogik izlanishlarda musiqiy ta’limni samarali tashkil etish, musiqaning inson ruhiy olamiga ta’sir mexanizmlarini o‘rganish, o‘quvchilarni estetik tarbiyalashda milliy va jahon musiqa durdonalaridan foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalq ijodiyoti namunalarini, mumtoz san’at asarlarini, zamonaviy musiqiy oqimlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali musiqiy savodxonlikni oshirish zarurati ortib bormoqda.Furqat ijodini o‘rgangan olimlardan H. Yoqubov, A. Qayumov, O. Sharafiddinov va boshqalar uning ma’rifatparvarlik ruhini keng tadqiq etishgan. Musiqa tarixiga oid tadqiqotlarda (M. Yunusov, T. Alimatov, A. Rajabov) esa o‘zbek mumtoz musiqasining nazariy asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, Furqatning musiqaga oid qarashlari maxsus ravishda ilmiy tadqiq qilinmagan bo‘lib, bu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqiy ta’lim va tarbiya jarayonini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasini ham shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, xalq ijodi, mumtoz meros va zamonaviy musiqaning uyg‘un holda o‘rgatilishi o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did hamda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, musiqa darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni

yanada oshiradi. Masalan, interaktiv metodlar, AKT vositalari, musiqiy o‘yinlar va multimediali dasturlar yordamida o‘quvchilarning fanga qiziqishi ortadi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi. Bu esa ta’limning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Muhokama davomida aniqlanishicha, musiqiy tarbiyada quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

-Musiqa darslarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslab tashkil etish;
-Milliy va jahon musiqiy merosidan samarali foydalanish;
-O‘quvchilarni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilish;
-Zamonaviy axborot texnologiyalarini musiqiy ta’lim jarayoniga tatbiq etish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy ta’lim jarayonida ilmiy asoslangan yondashuv, metodik yangiliklar va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali samaradorlik yuqori bo‘ladi. O‘quvchilar nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, balki estetik tafakkur, ma’naviy yetuklik va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shu tariqa, musiqiy ta’lim jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasiga aylanadi.Furqat o‘z davrida musiqani nafaqat san’at, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ko‘rgan. Uning nazariy qarashlarini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Musiqa – ruhiy poklanish vositasi.

Furqatning she’rlarida musiqa inson qalbini noziklashtiruvchi, ruhiyatini yuksaltiruvchi san’at sifatida tasvirlanadi. U musiqani axloqiy tarbiya bilan bog‘lab, jamiyatni yuksaltirish quroli sifatida talqin qiladi.

2. Musiqa va ma’rifat uyg‘unligi.

Shoir musiqani ilm va ma’rifat bilan qo‘shib o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Uning nazarida, haqiqiy san’atkor nafaqat kuy ijrochisi, balki bilimli, adabiyotdan, falsafadan, tarixdan xabardor shaxs bo‘lmog‘i kerak.

3.Sharq musiqa an’analari.

Furqat o‘z davrida mashhur bo‘lgan maqom yo‘llarini, ularning ruhiy-estetik ta’sirini yuqori baholaydi. Uning she’riyatida “maqom”, “navo”, “shashmaqom” kabi musiqiy atamalar uchrashi bu fikrni isbotlaydi.

4. She’riyat va musiqaning uzviyligi.

Furqat nazarida she’r musiqadan ajralmas san’at turi hisoblangan. U g‘azal va ruboiylarida musiqiy obrazlardan keng foydalangan, kuy va she’r uyg‘unligiga alohida e’tibor bergan.

5. Musiqa ijtimoiy ahamiyati.

Furqat musiqani millatni uyg‘otuvchi, ma’naviy birlashtiruvchi kuch sifatida ko‘rgan. Uning nazariy qarashlari bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida dolzarbligini yo‘qotmagan.

Xulosa

Bugungi kunda ta’lim tizimida bu ikki sohani integratsiyalash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Adabiyot darslarida musiqiy asarlar, qo‘shiqlar, kuy va ashulalardan foydalanish o‘quvchilarda badiiy matnni chuqurroq his qilishga yordam beradi. Xuddi shuningdek, musiqa darslarida adabiy namunalar, she’riyat va dramatik asarlarni qo‘llash musiqiy ohanglarning mazmunini yanada boyitadi.

Furqatning musiqiy nazariy qarashlari o‘z davrida milliy san’atimizning rivojiga katta hissa qo‘shgan. U musiqani faqat estetik zavq manbai sifatida emas, balki ijtimoiy-ma’naviy yuksalish vositasi sifatida talqin qilgan. Shoirning qarashlari o‘zbek musiqa madaniyatining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Furqatning musiqaga oid qarashlari o‘quvchilar va talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, musiqa va adabiyot fanlarining uyg‘unligi o‘quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ularning dunyoqarashini, ma’naviy barkamolligini va ijodiy qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, adabiyot inson qalbini so‘z sehrida tarbiyalasa, musiqa ohanglar orqali ruhiy olamga ta’sir etadi. Shu bois, ikki fan bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa va adabiyot fanlarining uyg‘unligi o‘quvchi shaxsining estetik tarbiyasini ta’minlaydi, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlaydi hamda ijodkorlikka bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi. Bu esa jamiyatimizda barkamol, ma’naviy yetuk va ijodkor avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qayumov A. Furqat hayoti va ijodi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
2. Alimatov T. O‘zbek xalq musiqasi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(9), 126-130.
4. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*, 127-132.
5. Kobilova, Ye. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. *Mejdunarodnыy mulьtidissiplinarnыy jurnal issledovaniy i razrabotok*, *1*(1), 156-159.

6. E’zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O ‘ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. *University Research Base*, 46-49.

7. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA’LIMDA MUSIQA O ‘QITISHNING AHAMIYATI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *12*, 99-100.

8. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O ‘ZBEK XALQ AN’ANALARI-TARBIYA OMILI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(26), 192-195.

9. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O ‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR. *Pedagogikada ilmiy izlanishlar*, *2*(1), 28-31.

10. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *4*(02), 44-49.

MUSIQA VA TEXNOLOGIK TA’LIM FANINING INTEGRATSIYASI

E. Sotvoldiyev,
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa va texnologik ta’lim fanlarini integratsiyalashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Integratsiyalashuv jarayonida o‘quvchilarning nafaqat ijodiy, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Musiqa san’ati o‘quvchilarda estetik didni shakllantirsa, texnologik ta’lim ularni hayotiy amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Shunday qilib, ikki fan integratsiyasi o‘quvchining har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, texnologik ta’lim, integratsiya, innovatsion yondashuv, ijodkorlik, STEAM, milliy qadriyatlar, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, terma, ijodkor, o‘lan, an’ana, odat, qo‘shiq, odob ta’lim, bilim san’at, qobiliyat.

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical foundations of the integration of music and technological education. The possibilities of developing not only creative, but also practical skills of students in the process of integration are shown. If the art of music forms an aesthetic taste in students, technological education prepares them for practical life activities. Thus, the integration of the two disciplines serves the development of the student as a comprehensively developed person.

Keywords: music education, technological education, integration, innovative approach, creativity, STEAM, national values, development of the student's personality, term, creator, olan, tradition, custom, song, etiquette education, knowledge art, ability.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya masalasi dolzarb hisoblanadi. Xususan, musiqa va texnologik ta’lim fanlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, estetik dunyoqarash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Integratsiya nafaqat bilimlar uyg‘unligini ta’minlaydi, balki o‘quvchilarni milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar ruhida tarbiyalaydi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib umrbod musiqadan zavq topadi. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan bo‘lishi kerak. Olimlardan birlari «Odam Shaxs bo‘lish uchun, u ruhiy tomonidan rivojlanishi, o‘zini bir butun inson deb his qilmog’i kerak»- degan edi.Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rinni tutgan inson shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Musiqa tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofidagi go‘zal narsalarni to‘g’ri idrok etishga va kadrlashga o‘rgatadi. O‘quvchilarga kasbga sadoqat tuygusini shakllantirishdaumumta’lim maktablaridagi, musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. O‘quvchilar san’at sirlarini tushunishni va qadrlashni, san’atdan baxramand bo‘lishni avvalo maktablarda o‘rganadilar

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O‘zbek va xorijiy olimlar integratsion ta’limning samaradorligi haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan.Pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, musiqa san’ati bolaning emotsional dunyosini boyitadi (Komenskiy, Ushinskiy, Zunnunov).Texnologik ta’lim esa o‘quvchini mehnatsevarlik, mustaqillik va amaliy faoliyatga tayyorlaydi (Avloniy, Yusupov, Abdullayev).STEAM-ta’lim konsepsiyasida san’at (Art) va texnologiya (Technology) uyg‘unligi alohida o‘rin egallaydi. Kasbga sadoqat tuygusini shakllantirish uchun esa, musiqa madaniyati dasturlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ahamiyati katta. Chunki, sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy va to‘garak shakllarida bolalar yalpi tarzda jalb etiladi. Zotan, musiqa tarbiyasi sozanda yoki xonandani emas, eng avvalo insonni tarbiyalaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni musiqa, go‘zallik olamiga olib kiradi. Chunki, musiqa inson hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega va ahloqiy-nafosat bilan bir qatorda kasbga muxabbat tuygusining muhim vositasidir. Insoniyat yaratilibdiki mexnat qilib yashash ko‘nikmasi mavjud.Bu xar bir insonga berilgan.Mehnat qo`shiqlari – xalq og`zaki

ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etadi. Xususan, bu aytimlar mehnat jarayonini bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko`mak berishi qatorida yana mehnatchi qalbiga ko`tarinkilik kayfiyatini jo qilgan, ruhiy dalda bo`lib xizmat qilgan. Mehnat aytimlarining ijtomiy ko`lami o`tmishdda yashagn avlod-ajdodlarimiz uchun yanada keng bo`lgan. Bu toifa aytimlari turli topinish va e’tiqodlar bilan bog`liq rasm-rusm va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo`lib kelgan. Har holda bizga qadar yetib kelgan mehnat aytimlari misolida shunga ishora alomatlar saqlanib kelganligini aytishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda bizga ma’lum bo`lgan mehnat qo`shiqlarini ta’riflashga kirishar ekanmiz, ularga xos quyidagi tasnifiy belgilarni alohida ko`rsatib o`tamiz:

a) mehnat qo`shiqlarida jo`rsozlik vazifasini bajaruvchi musiqiy cholg`ular qo`llanilmaydi; b) mehnat qo`shiqlarida she’riy bandlar oldidan yoki ulardan so`ng mustaqil naqoratlar deyarli qo`llanilmaydi, ammo band misralariga ulanib keluvchi maxsus takroriy so`z iboralar va bu jarayon texnologik ta’lim darsida kayfiyat uchun foydalanishda ijobiy ta’sirga ega. Mehnat jarayoniga mansub aytimlarning yana bir turkumiga hunarmandchilik qo`shiqlari tashkil etadi. Bu namunalar asosan charx (ip) yigirish, gilam tuqish do`ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan bog`liq xotin-qizlar ijodi bo`lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo`shiqlariga nisbatan keyinroq shakllangandir. Bu aytimlarning kuy-ohanglari esa yuqorida kurib o`tilgan mehnat aytimlari sadolariga yaqinligi va unda yettilik bo`g`in-ritmi qo`llanganligi bilan tavsiflanadi. Shunga oid misolni ip yigirishda kuylangan “urchuk” aytimida ko`ramiz. Mazkur aytim yondosh pog`onalardan tarkib topgan kichik uchlik shaklidagi oddiy ohang tuzilmasi negizida yangraydi

Musiqa va texnologik ta’lim fanlarining integratsiyasi quyidagi natijalarni beradi:

1. Ijodiy tafakkur rivoji – musiqa darslarida texnologik vositalardan (multimedia, elektron dasturlar) foydalanish orqali o‘quvchi o‘z ijodiy g‘oyalarini amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

2. Milliy qadriyatlarni singdirish – milliy cholg‘u asboblari yasash, ularning tovush xususiyatlarini o‘rganish texnologik darslarda amaliy topshiriqlar sifatida qo‘llanadi.

3. Hayotiy ko‘nikmalar shakllanishi – musiqa san’ati orqali estetik tarbiya, texnologik ta’lim orqali esa amaliy mehnat ko‘nikmalari shakllanib, o‘quvchi kelajak hayotida muvozanatli bilimlarga ega bo‘ladi.

4. Zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish – raqamli dasturlar, elektron musiqiy qurilmalar, 3D-modellashtirish kabi usullarni qo‘llash integratsiyaning samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Musiqa va texnologik ta’lim fanlarining integratsiyasi o‘quvchilarda ijodiy, intellektual va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi. Integratsion yondashuv orqali estetik tarbiya va mehnat madaniyati uyg‘unlashib, zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, mas'uliyat hissi va muammolarni hal etish qobiliyati shakllanadi. Shuningdek, bu yondashuv ta'lim jarayonida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratib, ularning turli sohalarda muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Natijada, musiqa va texnologik ta’limning integratsiyasi o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topish, kreativ fikrlash va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotda qo‘llashda katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jabbor Eshonqul. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Zarifov X.T. O‘zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya.
3. Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 291-295.
4. Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 291-295.
5. Bakirovna, Q. Э. "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 1.1 (2021): 117-120.
6. Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4.02 (2024): 44-49.
7. Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4.02 (2024): 44-49.
8. Qobilova, Ezozxon. "The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons." Onomázein 62 (2023): December (2023): 1382-1388.
9. Qobilova, E. B., et al. "QADIMIY MUSIQIY SAN’ATNING SHAKLLANISH JARAYONI." Science and innovation 2.Special Issue 14 (2023): 560-565.

10. Jamoliddinova, D., et al. "BO‘LAJAK MUSIQA TALIMI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. E’zozxon Qobilova." 269.

O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINING INNOVATSION KASHFIYOTLARI
(“Lazgi” baleti misolida)

Surayyo Ismatova,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
xoreografiya fakulteti san’atshunoslik
yo‘nalishi magistranti.
Jamshidbek Mirsoliyev,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
xoreografiya fakulteti san’atshunoslik
yo‘nalishi 4- kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoga mashhur Xorazm “Lazgi” raqsining yangi talqini – “Lazgi” baletining badiiy-estetik, etnografik – ma’rifiy xususiyatlari va ijro uslublari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, madaniy meros, plastika, qadriyat, “Lazgi”, marosim, “Xonchiqar, balet, innovatsion yondashuv.

Annotation. This article studies the artistic, aesthetic, ethnographic and educational features and performance styles of the “Lazgi” ballet, a new interpretation of the world-famous Khorezm “Lazgi” dance.

Keywords: Khorezm, cultural heritage, plastic, value, “Lazgi”, ritual, “Khonchikar, ballet, innovative approach..

Bugun butun dunyo san’atsevarlarini hayratga solayotgan “Lazgi” baletining qadim ildizlarida Xorazm raqs maktabiga oid eng nozik elementlarning mohiyati, qadimiy va hamisha navqiron “Masxaraboz Lazgisi”, “Qayroq Lazgisi”, “Dutor Lazgisi”, “Surnay Lazgisi”, “Saroy Lazgisi”, “Changak Lazgisi”, “Xiva Lazgisi”, “Garmon Lazgisi”, “Xorazm Lazgisi” kabi bir-birini takrorlamaydigan, zamon va makonlarni tutashtirib turgan to‘qqiz muhtasham ezgulik halqalarining surati bor. Mazkur asar vatanimiz tuprog‘ining qanchalar ulug‘ va muqaddasligini, milliy raqs san’atimizning qanchalar serqirra ekanligini anglatuvchi bebaho xazinadir.

Alisher Navoiy nomidagi davlat Akademik katta teatrida «Lazgi — muhabbat va qalb raqsi» nomli balet namoyish etilishi muhim madaniy – ma’rifiy voqelik bo‘ldi. Xorazm raqslarining muxlislari bilan bir qatorda xorijlik mutaxassislarning e’tiborini tortgan mazkur asar Berlin milliy opera va balet maktabi bitiruvchisi, Dortmund teatri bosh baletmeysteri

NRW Juniorballet Dortmund rahbari, balet bosh xoreografi Raul Raymondo Rebek tomonidan sahnalashtirildi. Bosh maslahatchi - O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Urganch filiali professori Gavhar Matyoqubova.

Dunyo xoreografiya tajribasi tarixida birinchi marta sof milliy raqs elementlari to‘liq saqlangan holda, uning zamirida zamonaviy balet yaratildi. Eng asosiy yakka raqslardan birini shu zaminda tug‘ilib o‘sgan xorazmlik yosh raqqosa, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi magistranti Dilnoza Artiqova ijro etdi. “Lazgi”ning “Avesto” bilan tutashib ketgan eng nozik nuqtalarini, eng murakkab jarayonlarini raqs shaklida ifodalab, tomoshabinlarning mehrini qozondi. Uning ijrosida milliy raqsning eng nurli zarralari tarix qa’ridan otilib chiqib, hozirgi zamon xoreografiyasi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ldi.

Insonning o‘z-o‘zini anglashi chin muhabbat va uni yuksaklikka ko‘taruvchi qalban ulg‘ayish jarayonida shakllanadi. Qadimiyat saslari eshitilib turgan o‘tmishdan bugungi kunga birgalikda odimlayotgan “Muhabbat” va “Qalb”asrlar to‘fonida qayta-qayta ziddiyatlarga duch keladi. Qop-qorong‘i sahnaning markazida samoga tutashgan olovrang libosdagi “Lazgi” (D.Ortiqova).qahramonlik raqsi - “Surnay Lazgi”sini ijro qiladi. Murakkab elementlarga boy zamonaviy ko‘rinishdagi balet ko‘hna va hamisha navqiron muhabbat mavzusining falsafiy talqiniga bag‘ishlangan. Bir-birini to‘ldiruvchi ko‘ngil va tafakkur javohiri uyg‘unlashib boraveradi, kelajak sari mag‘rur nigoh tashlaydi. Ularni barcha quvonchu dardlari bilan sevuvchi insonning muhabbati sari talpinadi. Makon va zamon, tug‘yon va ehtiroslar tutashgan ko‘ngillar hududini ma’naviy bir butunlikka aylantirgan “Lazgi” olamni hayratga chulg‘aydi. Bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi o‘zbek xalqining eng olijanob fazilatlari o‘tmish va kelajakni raqsda mujassam qilgan timsol sifatida O‘zbekiston boy tarixining yorqin sahifasi, qalb va muhabbatning mangulik qo‘shig‘i bo‘lib qolaveradi!Bu qo‘shiqning avj pardalarida muzaffar“Lazgi”ni yaratgan buyuk o‘zbek xalqiga, tamaddun beshigi O‘zbekistonga, “Avesto”dan meros “ezgu so‘z, ezgu amal, ezgu fikr”ga, mo‘jizalar o‘lkasi Xorazmga, milliy raqs san’atining tadqiqotchi-targ‘ibotchisi, chinakam jonkuyari, O‘zbekiston xalq artisti Gavharxonim Matyoqubovaga bo‘lgan cheksiz muhabbat va ehtirom ohanglari bor. Zamonaviy balet ko‘hna “Lazgi”ning ochilmagan qirralari ko‘p ekanligini isbotladi.Ularni izlab topish, tarixi va bugungi kundagi taraqqiyotiga oid elementlar va ma’lumotlarni umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasida tadqiq qilish hamda ularning ta’sir kuchi va ahamiyatini saqlab qolish dolzarb muammodir.

Professor G.Matyoqubovaning fikricha, “Raqs tarixi Xorazm xalqi madaniyatida faqat o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Chunonchi,

tomosha, xalfachilik va baxshichilik san’ati, xalq musiqasi, maqomlari, suvoralari, laparlari, yallali raqslari, masxarabozlik o‘yinlari, turli ommaviy raqslari, ayniqsa, urf-odatlar va marosimlari O‘zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda Xorazmda ko‘proq qadimiylik alomatlarini o‘zida saqlab, uni hozirgi zamon an’analari bilan boyitib kelayotir. Albatta, san’at turlari ichida milliy raqs inson ruhiyati va ongu shuuriga nisbatan tezroq ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi. Yoshlar qalbida tarixga qiziqish va hurmat, qadim qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda, ularni mafkuraviy tahdidlar va ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi tura oladigan komil insonlar qilib tarbiyalashda ham milliy raqs san’ati muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rt sahna ko‘rinishidan iborat librettoning birinchi fasli “Ipak yo‘li vohasi” deb nomlangan. Rejissor “Lazgi” ning o‘tmishi va an’analarini bir ayol timsolida mujassam etadi hamda uni “Qalb” deb ataydi. Raqs va madaniyatga bo‘lgan muhabbat tarixining bardavomligi, asrlar sinoviga bardosh berib bugungi kungacha yetib kelgan noyob qadriyatlari insoniyatni hamon hayratga soladi. Buyuk Ipak yo‘lida tug‘ilgan bu muhabbat bir tomondan ikki qalbning sevgi qissasi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan raqs va musiqaga bo‘lgan samoviy ishqdir.

Fikrlar va manfaatlar kurashi ketayotgan bu shiddatli dunyoda o‘tmish, bugun va kelajak bir zumda to‘qnashib, bir raqs zamirida vobasta bo‘ladi. Ruhiyati baquvvat millat har qanday sharoitda ham o‘zligini yo‘qotmaydi, qalb ozodligi uchun kurashadi. Ko‘ngilga ilhom, estetik zavq baxsh etib, – rang-barang manzaralar va an’analarga boy madaniyatning avlodlarni bir-biriga bog‘lab turadigan, turli millatlarning ruhan yaqinligini ta’minlaydigan yorqin ifodasiga aylanadi. Har qanday taraqqiyot milliy zaminga tayanadi. Zero, milliy zamin o‘tmishni bugun va istiqbol bilan bog‘lab turuvchi oltin ko‘prik hisoblanadi. Eng qadim zamonlardan boshlab olam va odamning kelib chiqishi, odamning olamga munosabati insoniyatni o‘yga toldiradi. To‘rtinchi sahna ko‘rinishi. “Muhabbat va qalb” deb nomlanadi.

Rejissorning yuksak mahorati tufayli, milliy zaminga, xilma-xil uslubga ega, favqulodda xalqchil, hayotbaxsh “Lazgi” milliy ruh va milliy xususiyatlarini saqlagan holda o‘zining yangi qirralarini kashf qildi. Zamonaviy balet sifatida san’at orqali dunyo xalqlarini yaqinlashtirishning yangi sahifasini ochdi. Qalbni hayratga solgan nozik va jo‘shqin harakatlardan yuksak ezgu g‘oyalar, ilhombaxsh sevgi sehri ufurib turgan nafis manzaralar yaratdi. Raymondo o‘zbek xalqining “Avesto” bilan bog‘liq tarixiga Gavhar Matyoqubovaning boy tajribasi, o‘tkir idroki va keng tafakkuri ko‘zi bilan boqishga urindi. U atoqli san’atkor yaratgan raqslarning harakatlari to‘lqinida suzib yurgan Xorazm o‘tmishini ko‘rdi. Rejissor tarixning raqsdagi ifodasini topish uchun asosan atoqli san’atkor bilimi, fantaziyasi va zakovatiga tayandi. Birinchi ko‘rinishdagi ibtidoiy

o‘yinlar ko‘zni qamashtiradigan darajada go‘zal, yorqin holatlar va ranglarga, nozik qochirimlarga boy, ehtirosli raqsga aylanib boradi. Zamonlar kesimidagi fantaziya va tafakkur ko‘lamining kengligi nuqtai nazaridan uni bemalol raqsiy roman deyish mumkin. Ibtidodan intihogacha – ilk yaralmishdan bugungi kunga qadar masofani qamrab olgan “Lazgi” asrlar osha insonlar uchun erk va ozodlik, tuyg‘ular jangi, qalb va muhabbat sifatida talqin etiladi.

“Lazgi” raqsini O‘zbekiston xalq artisti G.Matyoqubovaning shogirdi Dilnoza Artiqova ijro etdi. Uning qizil va sariq libosi otashparastlarning olovli dilidan rang olganday lovullab turibdi.Mayin parvoz bilan taqdir qushlari ko‘rinadi.Uning nigohlaridagi sog‘inch yuzidagi xayol pardasini sekin ko‘taradi. “Lazgi”ning jon o‘rtaguvchi rezi boshlanadi. Firoq dashtini kezayotgan, yuzidan iztirob pardasi ko‘tarilmagan , yurak qoni ila ranglangan libosdagi Dilnoza “Lazgi” ohangida uchayotgan qushga aylanadi.

O‘tmish ruhi, “Avesto” gohlari tomoshabin ongu shuurini sehrlaydi. Raqqosaning ko‘z ilg‘ar-ilg‘amas samoviy kenglikdagi parvozlari dillarni asir etadi. O‘zbekiston tarixining zar bilan bezalgan sahifalari, ilm va ijodning mashaqqatli yo‘llari, abadiyat va hikmatdan dars aytguvchi buyuk ajdodlarning ruhlari tilga kiradi. Ikki bosh qahramon - Dilnoza Artiqova va Nodira Xamraevaning harakatlarda ifodalangan ko‘ngil ehtirosi, plastik matni, imo – ishoralardagi tasviriy nutqi nihoyatda jozibali. Ulug‘bek Olimov, Rodion Isyanov, Elmira Yusupovalar o‘z ijrolari bilan tomoshabinlar qalbini butunlay zabt etdilar. Asar biri-biridan sirli, sehrli, yorqin lavhalarga boyligi bilan xotiraga muhrlanadi.

Rejissor lavhadan-lavhaga bo‘yoqlarni quyuqlashtiradi. Qulog‘i ostida “Avesto”ning “goh”lari yangrab turgan tomoshabin Nodira Xamraevaning kapalak qanotidek nafis parvozlarining, sirli dardlarining asiriga aylanadi. Dilnozaning o‘tli raqslari uning yuragini yondiradi. Qahramonlarning o‘tmish va kelajak oralig‘idagi bir-biriga va go‘zallikka muhabbati qalb tug‘yonlarini chertadi. Beqasam to‘ndagi cholg‘uchilar “Xonchiqar” kuyini chaladilar. Muhabbat vodiysida vasl ishqidagi qushlar paydo bo‘ladi. Tabiatning eng go‘zal gulu chechaklari baxtu zavq qo‘shig‘iga raqsga tushadilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning san’at, adabiyot va ma’naviyatga e’tibori jahon siyosiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Dunyo hamjamiyati daqiqa sayin yangilanayotgan O‘zbekistonni hayrat bilan kuzatib turibdi. Rejissor “Lazgi” baletida o‘zbek xalqining qadimiy ildizlarini, jahon tamadduniga o‘z ta’sirini o‘tkazgan shohona qadriyatlarini mujassam etishga urindi.

San’atsevar o‘zbek xalqining samimiyati, mehmondo‘stligi xorijlik mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi. Kelajakda yana birgalikda ijodiy hamkorlik qilish niyatini bildirishdi. Insoniy tug‘yonlar, ruhiy

ehtiroslarning ta’sirchan va haqqoniy ifodasi, o‘zbek milliy raqsi va zamonaviy baletning vobastaligi bilan dunyoni maftun etmoqda. Turli yosh va dunyoqarashdagi tomoshabinga “Lazgi” baletining asosiy mohiyati tushunarli, romantikasi sevimli bo‘lishi uchun rejissor juda ko‘p izlandi. Bular hammasi baletni yorqin alangadek yoritib, baletning g‘oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik, milliy-umuminsoniy chizgilarini chuqurlashtirishga, ta’sirchanligini oshirishga yordam berdi.

G.Matyoqubova bosh maslahatchi sifatida germaniyalik rejissor yaratayotgan har bir harakatni yangi milliy bo‘yoqlar va ifoda vositalari bilan boyitib, sayqallab boraverdi. Rebek atoqli o‘zbek san’atkorini ustoz deb biladi va uning tavsiyalari tufayli balet yanada jilolanib borayotganligini his qilardi. “Lazgi ”raqs-baleti ham Gavharxonimning, ham germaniyalik rejissor Rebekning san’atkor sifatida yangi qirralarini, raqs tarixiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga qarashlarini ifodalaydi. O‘tmish voqealari xayol va hayratning surati sifatida tomoshabin qalbiga ko‘chadi. Tarixning har bir lahzasi o‘ziga xos qarama-qarshiliklarga ega. Raqsda ifodalanayotgan hayotning yaralishi,insonning dunyoga kelishi bilan boshlangan ziddiyatli vaziyatlar, fikrlar, e’tiqodlar kurashi tomoshabinni mulohazaga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lazgi” xalqaro festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zA, 2020 yil 28 sentabr.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti.,2021.
3. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1976.
4. Matyoqubova G. Toxtasimov Sh. Hamroyeva H. Xorazm “Lazgi” raqsi: tarixi va tavsifi. T.: 2022y.

MUSIQA MADANIYATI VA YOSHLAR MA’NAVIYATI
(“Bola dunyoni tebratar” asari misolida)

Mirmuhsin G‘afurov,
Sherali Jo‘rayev nomidagi
musiqa va san’at oliy maktabi direktori.

Annotatsiya. Mazkur maqolada A’zam O‘ktamning “Bola dunyoni tebratar” asarida musiqa va qo‘shiqchilik san’atining badiiy talqini, musiqa madaniyatining tarbiyaviy xususiyatlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Musiqa, milliy madaniyat, san’at, adabiyot, musiqiy tarbiya, ustoz-shogird an’anasi.

Annotation. This article examines the artistic interpretation of music and singing in Azam Oktam's work "The Child Shakes the World", as well as the educational features of musical culture.

Key words: Music, national culture, art, literature, musical education, teacher-student tradition.

Insoniyat yaralibdiki, vatanga bo‘lgan muhabbat qalb harorati bilan uyg‘unlashib, aniq ijtimoiy mazmun va mohiyat kasb etadi. Aslida inson tabiati tuyg‘ular va ehtiroslar, hissiyotlar majmuidan iborat.musiqa san’ati shu tug‘yonlar va ehtiroslarni, ruhiyatdagi evrilishlarni ezgulik va yaxshilik tomon yo‘naltiradi.

Salkam 40 yildan beri qo‘lma-qo‘l o‘qilayotgan mo‘jazgina kitobcha serqirra iste’dod sohibi A’zam O‘ktam qalamiga mansub “Bola dunyoni tebratar” qissasi xalqimizning sevimli hofizi, Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev tilidan yozilgan.

Musiqa beqiyos tarbiyaviy qudratga ega bo‘lib, bizda mavjud lug‘atlarda unga shunday izoh berilgan: “Musiqa (yun. mousiche – muzalar san’ati) inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (*ton, nag‘ma*) lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (mas. ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadakorlik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va b.)ni o‘zida mujassamlashtiradi.” [11, 145].

Darhaqiqat, musiqa madaniyati hamma zamonlarda ham inson ma’naviyatini boyitishga, ruhiyatiga ko‘tarinkilik baxsh etishga xizmat qilayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.bIstiqlol yillarida yoshlarimiz orasida musiqiy madaniyatni shakllantirish, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini ko‘tarish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash eng muhim masalalar hisoblanadi. O‘quvchi va talabalarning ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda muhim o‘rin egallagan ustoz san’atkorlarning, musiqa ilmi allomalarining betakror musiqiy merosidan bahramand bo‘lishlarida hikmat ko‘p.

Musiqiy - badiiy obrazlar orqali dunyoni his qilish estetik didni shakllantiradi, go‘zal hissiyotlar olamiga, ezgulik va yaxshilikka oshno qiladi. Ma’naviy taraqqiyotning yuksak cho‘qqilariga chorlaydi. Musiqiy meros – mo‘tabar vatanimizning o‘tmishi, ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy olami sari qo‘yilgan oltin ko‘priklardir. Umid bilan yashayotgan har bir inson farzandining ma’naviy, ruhiy balog‘atini orzu qiladi. Oila va millat manfaatlari, bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalari asosida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ommaviy ravishda soz chalishni o‘rganishi

ularning ongu-shuurida milliy va umumbashariy qadriyatlar shakllanayotganligidan darak beradi.

Ayniqsa, maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning bironta musiqa asbobini chala olishi – uning kelajagi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Sharqning buyuk allomalaridan biri, Abdurahmon Jomiy aytganidek, “Musiqadan lazzat topmaslik inson ruhining huzurbaxsh kayfiyatga burkanmasligi, uning ruhiy olami jismoniy nafsoniyat darajasida qolib ketganidan, ma’naviy barkamollik sari qadam tashlamaganidan darak beradi” [10, 74].

Ma’lumki, har bir odam o‘z Vatanini ona tili orqali taniydi. Shu ulug‘ kuch va ona allasi tufayli dunyoni ham, o‘zini ham anglashga urinadi. Shu ulug‘ kuch bilan ulg‘ayib, dunyoni tebratadi. Kitobga buyuk adib Chingiz Aytmatovning quyidagi so‘zlari epigraf qilingan: “Hayot, o‘lim, muhabbat, shafqat va ilhom – hammasini musiqa aytadi, zotan biz musiqada eng oliy hurlikka erishamiz. Bu hurlik uchun esa, ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab butun tariximiz davomida kurashganmiz. Lekin unga faqat musiqadagina noyil bo‘lganmiz. Faqat musiqagina barcha zamonlarning aqidalarini yengib o‘tib, doimo kelajak sari intiladi... Shuning uchun ham biz aytolmagan narsalarni u aytadi, u shunga chorlangan” [3, 5].

Buyuk san’atkorimiz Tamaraxonim, “Sherali Jo‘rayev qo‘shiqlarini befarq tinglash mumkin emas. Uning ovozi qorli cho‘qqilardan tog‘u-toshlarga urilib, to‘lib-toshib oqayotgan sharqiroq soyni eslatadi”, degan edi [3, 20]. A’zam O‘ktam sharqiroq soyni eslatuvchi betakror ovoz sohibining bolaligi haqida hikoya qilar ekan, hofiz tilidan shunday deydi: “Bobom ham, otam ham uloqchi o‘tishgan. Bobom ko‘pkari paytida halok bo‘lgan. Akam Zokirjon ham ko‘pkarida qatnashadi. Tomirimda shu odamlar qoni borligini doimo his etaman. San’at ham mazmunan ko‘pkariga yaqin turadi. Uloqchidan qo‘rqmas, chapdast va dovyuraklik talab qilinadi. Eng avvalo zo‘r otingiz bo‘lishi darkor. San’atkorga esa bilim, tug‘yonli qalb, ovoz kerak. Har ikkisida ham halollik birinchi o‘rinda turishi lozim. G‘irromlik qilsangiz ham, to‘g‘ri bo‘lsangiz ham – barchasi xalqning ko‘z o‘ngida, u barini ko‘rib, bilib, eshitib turadi” [3, 25].

Qissada Sherali Jo‘rayev o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’ati va musiqa san’atining bilimdoni, jonkuyari, targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. U mamlakatimizning zafarli kunlarida o‘zining betakror va muzaffar qo‘shiqlari bilan xalqni mamnun etardi. Hofiz “O‘zbegim” qo‘shig‘ining yaratilish tarixi, qo‘shiqning bosib o‘tgan yo‘li xususida to‘lqinlanib hikoya qiladi. Oiladagi musiqiy tarbiyaning asoslari va ota-onaning mas’uliyati to‘g‘risida ham o‘z mulohazalarini bildiradi.

“Keyingi paytlarda ovoz yozish studiyalarining soni juda ko‘payib ketdi. Hozir har bir tuman markazi, ayrim qishloqlarda ham ana shunday

studiyalar ishlab turibdi. Ularning yonidan o‘tish, ulardan taralayotgan qo‘shiqlarni eshitish men uchun benihoya azob. Kuylari bachkana, mazmuni sayoz va suyuq ashulalar tinglovchi didining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga yoshlar tarbiyasiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Bunday muassasalar ishi har doim qattiq nazorat qilib borilishi lozim. U joylarga faqat texnikadan emas, shu bilan birga musiqadan ham xabardor odamlar kerak. Faqat menga emas, boshqa hofizlarga ham zo‘rma-zo‘raki taqlid qiladigan havaskor ashulachilar aytgan jumlalar bizning nomimiz bilan sotilishi meni g‘azablantiradi ”, deydi Sherali Jo‘raev [3, 35].

A’zam O‘ktam atoqli hofizning bolalik va o‘smirlik davri, hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘qigan yillari, san’at olamidagi ilk qadamlari, duch kelgan qiyinchilik, mashaqqatlar haqida yozar ekan, atoqli adib Chingiz Aytmatovning “Yozuvchilikni kishining bolaligi beradi” degan fikrini keltiradi. Kitobda Sherali Jo‘rayevning fidoyi, millatparvar san’atkor sifatidagi shakllanish bosqichlari, har bir qo‘shig‘i ustida ishlash, izlanish, matn tanlash jarayoni, Rossiya, Ukraina, Amerika, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlatlariga gastrollari, san’atsevarlar bilan uchrashuvlari, O‘zbekistonni va o‘zbek xalqini madh etuvchi qo‘shiqlari, ularning dunyoga kelish tarixi, bu qo‘shiqlarning odamlar diliga olam-olam zavqu-shavq baxsh etgani, hofizning yuraklarni larzaga soluvchi jo‘shqin va betakror ovozi, ustoz - shogirdlik an’analariga sadoqati izchil tahlil qilinadi.

“Bola dunyoni tebratar” kitobi taniqli ijodkor A’zam O‘ktam iste’dodi va salohiyatining yana bir qirrasini namoyon qilgani bilan hamda o‘zbekning ulug‘ hofizi Sherali Jo‘rayevning bolaligi, san’atga mehr qo‘ygan o‘smirlik yillari haqidagi ajoyib hikoya usuli, ustoz san’atkor ijodi haqidagi ilk jiddiy va salmoqli asar ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kitob bundan 32 yil oldin yozilgan, lekin unda tilga olingan qo‘shiqchilik va musiqa san’ati haqidagi fikrlar, muammolar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, “Siz yoshlarda esa hayotga to‘g‘ri qadam bosishga barcha imkoniyatlar bor. Bir kun kelib, afsus-nadomat chekmaslik uchun hozirdan kurashmoq kerak. Siz faqat ota-onangizning farzandi emassiz, balki katta tarixga ega bo‘lgan, necha zamonlardan beri faqat tinimsiz ishlash, ter to‘kish evaziga non topib yeydigan kamtarin va buyuk xalqning farzandisiz. Siz uning tarixini o‘rganishingiz, buguniga yarashingiz, kelajagiga ega bo‘lishingiz darkor. Xalqimizning noyob va muqaddas adabiy yodgorliklari, o‘lmas san’ati bor. Uni o‘rganish, egallash uchun bilimdon, hushyor va tirishqoq bo‘lmoq lozim”, deydi el suygan mashhur ustoz san’atkor [3, 43].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, atoqli shoir, mohir tarjimon, publitsist A’zam O‘ktamning “Bola dunyoni tebratar” qissasi o‘sib kelayotgan yosh avlod ongu-shuurida o‘zbek milliy san’atiga hurmat,

milliy qadriyatlarga, madaniy merosga, oiladagi musiqiy tarbiyaga, ustoz-shogirdlik an’analariga ehtirom tuyg‘usini shakllantirish borasida yana uzoq yillar xizmat qilishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yoshlar - bizning kelajagimiz. Yoshlarga donolar o‘giti. T.:2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25-son.
3. Жўраев Ш. Бола дунёни тебратар. Юлдузча. Т.: 1988.
4. Карим Б. Аъзам шоирнинг ўктам овози. Руҳият алифбоси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т., 2018.
5. Ўктам А. Кузда кулган чечаклар. Т: 1989.
6. Ўктам А. Тараддуд. Т: 1993.
7. Кароматов Ф. Ўзбек халқ мусиқа мероси. 2 –китоб. Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
8. Абдуллаева О. Мусиқа ва ҳаёт фалсафаси. Т: 1997.
9. Акбаров И. Мусика луғати. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1997.
10. Жомий А. Рисолаи мусиқий. Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 1998.
11. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.6-ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2003.

SAMARQAND BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING UMUMXALQ BAYRAMLARIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Ismoil Xusainov,
Samarqand shahar, 3-son
bolalar
musiqa va san’at maktabi direktori.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand bolalar folklor raqslarining o‘ziga xos estetik – etnografik xususiyatlari va umumxalq bayramlaridagi o‘rni hamda ahamiyati tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: moziy, Samarqand, o‘yin, bayram, raqs, uslub, estetik tarbiya, milliy qadriyat, Navro‘z, urf-odat, an’ana, bolalar.

Annotation: This article studies the unique aesthetic and ethnographic features of Samarkand children's folklore dances and their place and significance in national holidays.

Keywords: maziy, Samarkand, game, holiday, dance, style, aesthetic education, national values, Navruz, customs, traditions, children.

Istiqlol sharofati bilan yurtdoshlarimizda ruhiy va ma’naviy kamolotlarini, milliy o‘zlik, ona vatanga muhabbat, ona tiliga, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini namoyon qilish imkoniyati tug‘ildi. Harakatlar strategiyasida belgilanganidek, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirish bugungi taraqqiyot davrida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda har yili mustaqillik va Navro‘z ayyomlari umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. yuqori saviyada o‘tkazilishi an’ana tusini olganligi juda ham quvonarli holdir. Muhimi, bu umumxalq bayramlarida asosan o‘zligimizni tarannum etadigan milliy raqslar, jozibador bolalar folklor raqslari sahnalashtiriladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaqin qo‘shnichilik munosabatlari yanada mustahkamlanishida umumxalq bayramlari katta rol o‘ynaydi. Bu bayramlarda qadim tariximiz, boy madaniy merosimiz aks etadi. Biroq bu umumxalq bayramlarida ijro etilgan milliy raqslarimiz ilk istiqlol yillaridan to shu kungacha bo‘lgan davr mobaynida hali to‘laligicha o‘rganilmaganligi, har bir raqs o‘z xususiyati va ijro etilish uslubi hamda mazmun mohiyatiga qarab nazariy tomonlama batafsil tahlil qilinmaganligi dolzarb masalalardan biridir. Xususan, mustaqillik bayramida har bir viloyatimiz o‘z an’analariga xos bo‘lgan raqslar bilan chiqishadi-yu, biroq bu raqslar boshqalaridan qanday xususiyatlari bilan farq qilinishi jumboqligicha qolmoqda.

San’atshunos N.N.Vashkevichning fikricha, «Milliy raqslarning ilk kurtaklari folklor o‘yinlari, marosim, tomosha va maydon raqslaridan boshlangan»[6, 29]. Istiqlol yillarida xalq sayllari, ommaviy tadbirlar, davlat rag‘bati va ko‘magi bilan umumxalq bayrami sifatida tantanali nishonlanmoqda. Bu o‘z navbatida raqs san’atining ham tomosha auditoriyasini bir necha bor kengaytirib bormoqda. Natijada, o‘zbek milliy raqs san’atining tarixiy ko‘rinishlarini tiklash, sahnalashtirishga keng ehtiyoj sezilmoqda.

Rang – barang va betakror Samarqand bolalar folklor raqslarida asosiy e’tibor uzoq asrlik tarixga ega udumlar, qadriyatlar va an’analarning qadim ildizlarini va milliy qiyofasini saqlab qolishga qaratiladi. Quvnoq va bolalarcha beg‘ubor raqslar tomoshabinga ko‘tarinki kayfiyat, estetik zavq baxsh etadi. “Noni Osiyoi”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Boychechak”, “Beshqarsak”, “Samarqand non”, “Qizg‘aldoq”, “Dutor”, “Kim oladi-yo, shuginani-ya...”, “Registon tongi”, “Kichkinajon, kichkina...”, “Sumalak”

kabi Samarqand bolalar folklor raqslari O‘zbekistonda juda mashhur. Ular orasida “Afrosiyob gullari”raqsi o‘zining jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, dunyo bo‘ylab “ommaviy madaniyat” deb atalmish yot madaniyat unsurlarining xalq milliy madaniy qadriyatlariga tahdidi oshib borayotgan bir davrda bu ehtiyoj yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlarda xalq ijodiyotiga murojaat qilish dolzarb masaladir. Afsuski, XX asr boshlarida xalq ijodiyoti milliy raqs san’atini oziqlantiruvchi asosiy manba sifatida qaralib, bir qancha nodir raqs namunalari yaratilgan bo‘lsa, hozirda mavjud raqslarni xorij raqs elementlari bilan boyitish urf bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida milliy raqs san’atimiz qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois raqs san’atini badiiy-estetik jihatdan boyitishda xalq ijodiyotiga murojaat etish, uning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb masaladir.

Istiqlol yillari umumxalq bayramlarida milliy raqslarimizning sahnalashtirilishi yuzasidan bir qator ajoyib ishlar amalga oshirildi. Jumladan, umumxalq bayramlarida har yili sahnalashtiriladigan milliy raqslarimiz zamonaviy talqinda, rang-barang liboslar, o‘zgacha musiqalar bilan boyib bormoqda. Bunday o‘zgarishlar milliy raqslarimiz saqlanishiga katta zarar yetkazsada, biroq tahsinga loyiq tomonlari ham talaygina. Xususan, milliy musiqalarimiz asl mohiyatini yo‘qotmagan holda zamonaviy ohangda kuyga solinmoqda, shunga mos ravishda raqslarimiz ham o‘zgacha ko‘rinish kasb etib bormoqda. Faqatgina bu o‘zgarishlarning, ya’ni innovasion g‘oyalarning ilmiy izohlanmayotganligi dolzarbligicha qolmoqda. Bugungi kunda umumxalq bayramlarida baletmeysterlik qilayotgan bir qator ijodkorlar zamon talabini his qilmayotganga o‘xshaydi. Ular qachonlardir buyuk raqs ustalari tomonidan sahnalashtirilgan ommaviy raqslar bilan chegaralanib qolmoqda, o‘zlari yangi ko‘rinishdagi milliy ommaviy raqslar yaratishmayapti.

“Bayram xalqning shodlik va xursandlik kuni” [8, 31], - degan edi Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy. Darhaqiqat, bayramlar yordamida hayotdagi xursandchilik, shodiyona, tantanavorlik holatini vujudga keltirgan yirik voqealar, muhim sanalar, ulkan yutuqlar nishonlanadi. Bayram insoniyatning o‘zi bosib o‘tgan yo‘llarni chuqur anglashi, qo‘lga kiritilgan g‘alabalardan mag‘rurlanishi, ertangi kunga yaxshi umid bilan qarashiga yordam beradi.

Bayramlar asosan muvaffaqiyatlar, g‘alaba natijalarini e’tirof etish, nishonlashdir, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Mustaqillik yillarida bayramlarni o‘tkazishga talab kuchaydi. Chunki bu tadbirlarning zamirida insonlar manfaati, ularning estetik zavq olish imkoniyatlari yotibdi. Tarbiyaviy jarayonlar ahamiyati esa bunda yuz barobarga ko‘payadi. Shu bois ham hayotimizning barcha sohalari qatori milliy ma’naviyatimiz,

san’atimiz ham tom ma’noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarjimada ekvivalentligi masalalari yoritiladi. Terminlarning xalqaro, milliy va metaforik qatlamlari alohida tahlil qilinib, ularning to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentsiz holatlari misollar orqali ko‘rsatib beriladi. Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev va Barak Obama nutqlari hamda xalqaro manbalardan olingan siyosiy terminlar qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqolada siyosiy terminlarni tarjima qilish jarayonida nafaqat lug‘aviy moslik, balki ideologik yuklama, milliy-madaniy konnotatsiya va pragmatik vazifa ham hisobga olinishi zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy termin, tarjima, ekvivalentlik, siyosiy diskurs, milliy-madaniy konnotatsiya.

Abstract. This article discusses the issue of equivalence in the translation of socio-political terms. The analysis distinguishes between international, national, and metaphorical layers of terminology, focusing on cases of full equivalence, partial equivalence, and non-equivalence. Examples are drawn from the speeches of Islam Karimov, Shavkat Mirziyoyev, and Barack Obama, as well as international political discourse. The study emphasizes that in translating socio-political terms, not only lexical correspondence but also ideological meaning, cultural connotation, and pragmatic functions must be preserved.

Keywords: socio-political term, translation, equivalence, political discourse, cultural connotation**.**

Kirish. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya zamonaviy tarjimashunoslikda eng muhim qatlamlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Chunki siyosiy matnlar faqatgina lingvistik birliklar majmuasi bo‘lib qolmay, balki ideologik yuklama, milliy-madaniy konnotatsiya va kommunikativ-pragmatik maqsadlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi [1:58]. Siyosiy nutqning o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘pincha xalqaro munosabatlar, milliy manfaatlar, davlat xavfsizligi, demokratiya, erkinlik, barqarorlik kabi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, siyosiy terminlarning tarjimasi nafaqat lingvistik moslikni, balki ideologik yuklama va madaniy konnotatsiyani ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Tarjima nazariyasi bo‘yicha ko‘plab olimlar ekvivalentlik masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Xususan P. Nyumark ekvivalentlikni tarjimaning asosiy masalasi sifatida baholaydi va ko‘p hollarda to‘liq semantik moslik

emas, balki “*funksional ekvivalentlik*”ka erishish muhimligini ta’kidlaydi [2:104]. E. Nida esa ekvivalentlikni “formal” va “dinamik” turlarga ajratib, ikkinchisini ya’ni maqsad auditoriya uchun qabul qilinadigan variantni ustuvor hisoblaydi. Ingliz tilshunosi J. Kettford tarjimadagi ekvivalentlikni “*lingvistik muvofiqlik*” nuqtayi nazaridan ko‘radi. M. Beyker esa ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarjimasida kontekst, diskurs va madaniy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini qayd etadi [3:64].

Tarjima nazariyasidagi bu yondashuvlarning barchasi ijtimoiy-siyosiy terminlar tarjimasida o‘z aksini topadi. Chunki siyosiy terminlarning bir qismi xalqaro xarakterga ega bo‘lsa (*demokratiya – democracy, konstitutsiya – constitution*), boshqasi milliy va madaniy xususiyatlarga ega (masalan: *mahalla*, impeachment, checks and balances). Shu bois, tarjimon nafaqat lingvistik bilimga, balki siyosiy-madaniy kontekstdan ham xabardor bo‘lishi lozim. O‘zbek tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiya asosan mustaqillikdan keyin faol shakllangan bo‘lsa-da, uning ildizlari ancha chuqur. Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida “*xavfsizlik”, “barqarorlik”, “taraqqiyot”, “demokratiya”* kabi terminlar tizimli ravishda qo‘llangan. Ingliz tilida esa siyosiy terminologiya, xususan, AQSh va Buyuk Britaniya siyosiy diskursida keng o‘rganilgan. Masalan, Obama nutqlarida *“democracy”, “freedom”, “power of people”* kabi terminlar markaziy o‘rin tutadi [4:48].

Demak, ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarjimada ekvivalentligi masalasi ikki til qiyosida nafaqat lingvistik, balki siyosiy va madaniy nuqtayi nazardan ham dolzarbdir. Ushbu maqolada terminlarning xalqaro, milliy va metaforik qatlamlari tahlil qilinadi, shuningdek to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentsiz terminlar misollar orqali ochib beriladi.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning tasnifi. Ijtimoiy-siyosiy terminlar murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni uch asosiy qatlamda ko‘rib chiqish mumkin: xalqaro qatlam, milliy qatlam va metaforik qatlam. Ushbu tasnif terminlarning semantik xususiyatlarini, madaniy ildizlarini va tarjimada yuzaga keladigan muammolarni aniqlash imkonini beradi

1. Xalqaro qatlam. Xalqaro terminlar asosan yunon, lotin, fransuz va ingliz tillaridan kirib kelgan bo‘lib, ular deyarli barcha tillarda bir xil shaklda va ma’noda qo‘llanadi. Masalan: *demokratiya – democracy, konstitutsiya – constitution, parlament – parliament.* Bu terminlar siyosiy tizimning universal tushunchalarini ifodalaganligi sababli tarjimada muammo tug‘dirmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham, AQSh Konstitutsiyasida ham ushbu terminlar bir xil shaklda mavjud. Misol uchun, Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida “*demokratiya*” tushunchasi davlatning kelajak taraqqiyoti va fuqarolik

jamiyatini shakllantirishda asosiy mezon sifatida qo‘llanadi. Xuddi shu tushuncha Barak Obama nutqlarida ham ko‘p bora tilga olinadi: “*Democracy is the cornerstone of our foreign policy*”. Har ikkala matnda termin bir xil ma’no yukini saqlab qoladi, bu esa to‘liq ekvivalentlikning yorqin namunasi hisoblanadi.

2. Milliy qatlam. Milliy qatlam terminlari muayyan xalqning tarixiy-madaniy tajribasi asosida shakllanadi va boshqa tillarda bevosita ekvivalentga ega bo‘lmaydi. O‘zbek tilida *mahalla* shunday terminlardan biridir. U nafaqat geografik hududni, balki ijtimoiy boshqaruv tizimini ham anglatadi. Shuning uchun ingliz tiliga “*community-based self-governing body*” yoki “*neighborhood committee*” tarzida izohli tarjima qilinadi.

Aksincha, ingliz tilidagi *impeachment* yoki *checks and balances* terminlari o‘zbek tilida bevosita ekvivalentga ega emas. Ularni “davlat rahbarini lavozimidan chetlatish jarayoni” yoki “hokimiyat tarmoqlarining o‘zaro muvozanati va nazorati” tarzida izohlash talab etiladi. Bu holatlar tarjimada izohli strategiyalarning qo‘llanilishini ko‘rsatadi

3. Metaforik qatlam. Siyosiy diskursda metafora asosida shakllangan terminlar ham keng qo‘llanadi. Masalan: *siyosiy maydon – political arena (sport sohasidan), davlat mashinasi – state machinery (texnikadan), winds of change – o‘zgarish shamoli (tabiatdan).* Bu turdagi terminlarni tarjima qilishda metaforaning obrazliligini saqlash muhim. Chunki metafora ijtimoy-siyosiy matnning nafaqat semantik, balki pragmatik va ideologik ma`nosini ham oshirishga xizmat qiladi.

Ekvivalentlik masalalari. To‘liq ekvivalentlik holatlari. To‘liq ekvivalent terminlar o‘zbek va ingliz tillarida bir xil semantik mazmun va funksiyaga ega bo‘ladi. *Demokratiya – Democracy*. O‘zbek tilida: “*Biz demokratiya sari dadil qadamlar qo‘ydik* [5:154]”. Ingliz tilida: Obama: “*Democracy is the cornerstone of our foreign policy*”.

Har ikki til matnida ham “*demokratiya/democracy*” bir xil siyosiy tushunchani bildiradi. Bu to‘liq ekvivalentlikka misol bo‘la oladi.

Konstitutsiya – Constitution. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: “*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlatning asosiy qonunidir*”. AQSh Konstitutsiyasi: “*This Constitution shall be the supreme Law of the Land*”. Har ikki til matnida mazmunan ham, funksional jihatdan ham bir xil.

Barqaror rivojlanish – Sustainable development. Ushbu termin Sh Mirziyoyev nutqlarining xalqqa murojaatlarida ko‘rinadi.: “*Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bizning asosiy vazifamizdir*”. Ingliz tilida esa BMT hujjatlarida *sustainable development* bu terminning to‘liq ekvivalent sifatida qo‘llanadi: *Sustainable Development Goals*.

Parlament – Parliament. O‘zbek tilida “*parlament*” Oliy Majlisni anglatadi, ingliz tilida esa Britaniya parlamenti yoki boshqa davlatlarning

qonun chiqaruvchi organi tushuniladi. Semantik mazmuni bir xil bo‘lgani uchun tarjimada muammo tug‘dirmaydi.

Qisman ekvivalentlik holatlari. Qisman ekvivalentlik terminlar o‘zbek va ingliz tillarida umumiy ma’noga ega bo‘lsada, kontekstual farqlar mavjud bo‘ladi. Masalan: *Xalq – People/Nation.* Shavkat Mirziyoyev BMT nutqida: “*Biz xalq ishonchini oqlash uchun harakat qilamiz*”. Obama nutqida: “*The American people expect us to work together*”. Bu yerda “*xalq*” ingliz tilida *people* so‘zi orqali ifodalangan. Biroq *people* va *nation* o‘rtasida semantik farq mavjud: people – aholi, nation – millat. O‘zbek tilidagi “*xalq*” esa har ikki ma’noni o‘z ichiga oladi.

Xavfsizlik – Security. O‘zbek tilidagi *xavfsizlik* atamasi davlatning siyosiy, ijtimoiy va harbiy himoyasini anglatadi. U milliy manfaatlarni saqlash va davlat barqarorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Ingliz tilida *security* esa ko‘proq keng semantik qamrovga ega: u nafaqat davlat xavfsizligi (national security), balki shaxsiy xavfsizlik (personal security), iqtisodiy xavfsizlik (economic security) va kiberxavfsizlik (cybersecurity) kabi turli kontekstlarda ham qo‘llanadi. Shu bois, *xavfsizlik* va *security* terminlari semantik maydonda qisman mos tushadi, biroq ingliz tilidagi *security* termini ko‘lamdor ma’noga ega. Tarjima jarayonida ushbu farqni hisobga olish va kontekstual aniqlik kiritish zarur.

Hope – Umid. Ingliz tilida *hope* termini siyosiy diskursda odatiy lug‘aviy ma’nosidan kengroq ideologik yuklamaga ega. Barak Obama nutqlarida u kelajakka ishonch, yangilanish va birlik g‘oyalarining ramzi sifatida qo‘llanadi. O‘zbek tilida *umid* so‘zi lug‘aviy jihatdan mos bo‘lsada, ingliz tilidagi siyosiy retorikadagi kuchli pragmatik funksiyani to‘liq bera olmaydi. Shu bois, tarjimonda ekvivalent tanlash bilan birga, qo‘shimcha izohlash orqali ma’naviy-mafkuraviy mazmunni ham yetkazib berish lozim.

Kuch – Power/Force Karimov: “Qurolli kuchlar davlat xavfsizligining kafolatidir”. Obama: “The balance of power must be preserved”. O‘zbek tilidagi “*kuch*” umumiy so‘z bo‘lib, siyosiy kuch ham, qurolli kuch ham bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida esa ular farqlanadi: *power* – siyosiy hokimiyat, *force* – qurolli kuchlar.

Davlat – State/Government. O‘zbek tilida “*davlat*” so‘zi ham mamlakat, ham hokimiyat, ham byurokratik tizimni anglatadi. Ingliz tilida esa *state* siyosiy birlik, government ijro hokimiyatini bildiradi. Shu sababli tarjimada har doim mos kontekst tanlash zarur.

Ekvivalentsiz terminlar. Ba’zi terminlar tarjimada bevosita ekvivalentga ega emas. Masalan: *mahalla* termini. O‘zbekistonda mahalla qadimiy ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Uni ingliz tiliga “*community-based self-governing body*” tarzida izohlash mumkin. Shavkat

Mirziyoyev mahallani “*xalqni davlat bilan bog‘lovchi ko‘prik*” sifatida ta’riflagan.

Checks and Balances. AQSh Konstitutsiyasida: “The system of checks and balances ensures that no branch of government becomes too powerful”. O‘zbek tilida buni “*hokimiyat tarmoqlarining o‘zaro muvozanati va nazorati*” deb izohlash mumkin.

Impeachment. Impeachment – AQSh siyosiy tizimiga xos termin. “Donald Trump impeachment trials” sarlavhasi ostida The New York Times maqolalari chop etilgan. O‘zbek tilida “*davlat rahbarini lavozimidan chetlatish jarayoni*” tarzida izohlanadi.

Lingvopragmatik va ideologik jihatlar. Ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilishda faqat lug‘aviy moslik emas, balki ularning ideologik yuklamasi va pragmatik vazifasi ham hisobga olinishi zarur. Masalan, Islom Karimovning “xavfsizlik” va “barqarorlik” tushunchalari davlat siyosatining asosiy g‘oyalarini ifodalagan bo‘lsa, Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida “yangi O‘zbekiston” tushunchasi modernizatsiya va islohotlar jarayonining ideologik ramziga aylangan. Ingliz tilida esa Obama tez-tez “change”, “hope”, “justice” kabi so‘zlarni ishlatib, ularning pragmatik vazifasini kuchaytirgan.

Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy terminlar tarjimasida semantik ekvivalentlikdan tashqari, ularning milliy-madaniy konnotatsiyasi va ideologik yukini ham saqlab qolish zarur.

Xulosa. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarjimada ekvivalentligi masalasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Terminlar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki ijtimoiy-madaniy, ideologik va pragmatik yuklama tashuvchi vosita sifatida ham qaralishi zarur.

1. To‘liq ekvivalent terminlar (demokratiya – democracy, konstitutsiya – constitution, parlament – parliament) tarjimada muammo tug‘dirmaydi. Ular xalqaro xarakterga ega bo‘lgani sababli har ikkala tilda ham mazmunan va funksional jihatdan bir xil qo‘llanadi.

2. Qisman ekvivalent terminlar (xalq – people/nation, kuch – power/force, davlat – state/government) esa kontekstual farqlar sababli izoh va moslashtirishni talab qiladi. Bunday hollarda tarjimon terminning semantik qamrovini va pragmatik maqsadini hisobga olib qaror qabul qilishi lozim.

3. Ekvivalentsiz terminlar (mahalla, impeachment, checks and balances) esa izohli tarjimani talab qiladi. Ularning mazmuni milliy yoki siyosiy tizimga xos bo‘lgani uchun bevosita ekvivalent topish imkoni yo‘q. Shu sababli funksional ekvivalentlik yoki deskriptiv tarjima strategiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilish jarayonida lingvopragmatik va ideologik jihatlar alohida e’tiborga olinishi lozim. Chunki siyosiy matn auditoriyani ishontirish, mafkuraviy g‘oyalarni singdirish va muayyan pozitsiyani mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi. Tarjima jarayonida bu funksiyalarni saqlab qolish siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, ijtimoiy-siyosiy terminlarni tarjima qilishda nafaqat lug‘aviy moslikka, balki madaniy konnotatsiya, ideologik yuklama va pragmatik maqsadlarga ham e’tibor qaratish lozim. Bu nafaqat tarjimonning lingvistik kompetensiyasini, balki uning siyosiy-madaniy bilimini ham talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: CUP, 2003.
2. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011.
4. Obama B. State of the Union Addresses. – Washington: Whitehouse.gov, 2010–2016.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992, 2017 tahriri).
7. Jalolov J. Mahalla institutining tarixiy ildizlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
8. Charteris-Black J. Politicians and Rhetoric. – Palgrave Macmillan, 2011.
9. The Constitution of the United States, 1787.
10. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi (2021-yil 21-sentabr). – UzA.uz.

TARIXIY REALIYALAR TARJIMASIDA PRAGMATIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Sug‘diyona Ergasheva,
Qo‘qon universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayonida pragmatik yondashuvning ahamiyati tahlil etilgan. Tarixiy realiyani xalqning madaniy va tarixiy xotirasi, til tizimi hamda milliy identifikatsiyaning muhim unsuri sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda

tarjimonning asosiy vazifasi tarixiy realiyani boshqa tilga o‘tkazishda nafaqat leksik ma’nosini, balki madaniy kontekst va estetik ruhni ham saqlab qolishdan iborat ekani ta’kidlanadi. Maqolada Vlahov va Florinning “Neperevodimoe v perevode” asari hamda V. N. Komissarovning “Lingvistika perevoda” asari g‘oyalari asos qilib olingan. Ularning qarashlariga tayangan holda tarixiy realiyalar tarjimasida pragmatik ekvivalentlik tushunchasi, ya’ni tarjima matnining o‘quvchiga manba matndagi kabi kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati tahlil qilinadi. Maqola tarixiy realiyalar tarjimasini nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va pragmatika nuqtayi nazaridan o‘rganadi hamda tarjimon oldida turgan asosiy vazifa — pragmatik muvozanatni ta’minlash ekanini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tarixiy realiyalar, arxaizatsiya, pragmatik ekvivalentlik, madaniy kontekst, tarjima strategiyasi, funksional yondashuv, turkiy tillar, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarixiy kolorit.

Annotation: This article analyzes the importance of the pragmatic approach in the translation of historical realia. Historical realia is examined as a crucial element of a nation's cultural and historical memory, linguistic system, and national identification. The research emphasizes that the translator's primary task in transferring historical realia to another language consists not only of conveying lexical meaning but also preserving cultural context and aesthetic spirit. The article is based on the ideas from Vlahov and Florin's work “Neperevodimoe v perevode” (The Untranslatable in Translation) and V. N. Komissarov's “Lingvistika perevoda” (Linguistics of Translation). Building upon their perspectives, the concept of pragmatic equivalence in the translation of historical realia is analyzed, namely the ability of the translated text to produce a communicative effect on the reader similar to that of the source text. The article studies the translation of historical realia not only from a linguistic perspective but also from the viewpoint of intercultural communication and pragmatics, and substantiates that the main task facing the translator is to ensure pragmatic balance.

Keywords: historical realia, archaization, pragmatic equivalence, cultural context, translation strategy, functional approach, Turkic languages, intercultural communication, historical coloring.

Tarixiy realiyalar — bu ma'lum bir xalqning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan va o‘sha jamiyatning madaniy xotirasida mustahkam o‘rin tutgan maxsus tushunchalar, voqealar, shaxslar va hodisalardir. Bu realiyalar har bir xalqning o‘ziga xos tarixiy tajribasini aks ettiradi va tilning leksik tarkibida o‘ziga xos iz qoldiradi. “Har bir badiiy yodgorlik muayyan bir davrda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Shunga ko‘ra, tarixiy mavzuda yozilgan asar hozirgi zamon

kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Tabiiyki, bunday asar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda had-hisobsiz tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladiki, ular kitobxon ko‘z oldida davr ruhini, nafasini jonlantirish bilan birga asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini ham oshiradi. Asliyat ruhini bekami-ko‘st qayta yaratish mas'uliyati tarjimon oldiga til vositalarini asliymonand istifoda etish yo‘li bilan asar yaratilgan davr ruhini haqqoniy talqin etish vazifasini qo‘yadi”[1,111]. Shu boisdan tarjima jarayonida tarixiy realiyalarni to‘g‘ri yetkazish eng murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Tarjimon asarda o‘tmish ruhini his qiladigan, lekin uni zamonaviy o‘quvchiga tushunarli shaklda yetkazadigan vositachi bo‘lishi kerak. Arxaizatsiya esa me’yorida bo‘lishi lozim: haddan tashqari eski tildan foydalanish matnni og‘irlashtiradi, lekin butunlay zamonaviylashgan tilda tarjima qilish — tarixiy koloritni yo‘qotadi. Tarixiy realiyalarni tarjima qilish — madaniy va tarixiy kontekstni saqlash san’atidir. Fyodorovning fikricha, “Tarjimonning vazifasi — qadimiy matnni zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli, ammo tarixiy koloritni yo‘qotmagan holda yetkazishdir.

Ya’ni tarjimon zamonaviy til vositalaridan foydalanadi, lekin ular orqali tarixiy perspektiva — o‘sha davr ruhi, tili va muhitini sezdiradi. Fyodorov “zamonaviy til” deganda faqat grammatika yoki lug‘atni emas, balki tarixiy realiyani to‘g‘ri saqlashni ham nazarda tutadi”[2,133].

Vlahov va Florinning mashhur asari — “Neperevodimoe v perevode” (1980) — tarixiy realiyalarni tarjima qilish masalasini kulturologik va lingvistik nuqtayi nazardan eng birinchi chuqur tahlil qilgan manbalardan biridir. Ular “realiya” atamasini keng talqin qiladi. Ular uchun “realiya — bu muayyan xalqning hayoti, tarixi, madaniyati, ijtimoiy muhitiga xos, boshqa tillarda to‘liq ekvivalenti bo‘lmagan birlikdir”[3,47]. Shu sababli tarixiy realiyalar milliy-madaniy ma’lumot tashuvchi so‘zlar sirasiga kiradi.Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda tarjimon bir qancha murakkab muammolarga duch keladi. Eng asosiy muammo — bu realiyalarning maqsad tilda ekvivalentining yo‘qligi yoki qisman mosligidir. Har bir xalqning o‘z tarixiy yo‘li noyobdir va shu sababli bir tildagi tarixiy realiya boshqa tilning madaniy kontekstida to‘liq analogiga ega bo‘lmasligi mumkin. Ikkinchi muammo — tarixiy-madaniy kontekstni saqlab qolish zaruratidir. Tarjimon nafaqat so‘z yoki iborani o‘tkazishi, balki uning ortida turgan butun tarixiy voqelikni, uning emotsional va assotsiativ qatlamlarini ham yetkazishi kerak. Bu ayniqsa badiiy asarlar va tarixiy hujjatlarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi muammo — tarjima maqsadiga qarab yondashuvni tanlashdir. Ilmiy tarjimada aniqlik va obyektivlik birinchi o‘ringa chiqsa, badiiy tarjimada emotsional ta'sir va badiiylik muhimroq bo‘lishi mumkin.

Tarjima nazariyasi tarixiy realiyalarni yetkazishning bir necha asosiy usullarini taklif etadi. Transkripsiya va transliteratsiya usuli realiya so‘zini

asl tildan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fonetik yoki grafik jihatdan o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu usul ayniqsa nomlar, geografik nomlar va tarixiy shaxslar nomlarini tarjima qilishda keng qo‘llaniladi. Masalan, “Khan”, “Emir”, “Samarkand” kabi so‘zlar ko‘plab tillarga shunday holda o‘tkaziladi. Kalka yoki so‘zma-so‘z tarjima usuli realiya tarkibiy qismlarini birma-bir tarjima qilishni nazarda tutadi. Bu usul ayniqsa murakkab atamalar va tavsifiy nomlar uchun qulay. Masalan, “Oliy Majlis” so‘zini ingliz tiliga “Supreme Assembly” deb tarjima qilish mumkin. Tavsifiy tarjima usuli realiyaning mohiyatini tushuntirib beruvchi tavsif orqali amalga oshiriladi. Bu usul o‘quvchiga realiya haqida to‘liqroq tasavvur beradi, lekin matn hajmini oshiradi va ba'zan badiiylikni pasaytiradi. Funktsional analog topish usuli maqsad til madaniyatida shu realiyaga yaqin funksiyaga ega bo‘lgan boshqa realiya bilan almashtirishni nazarda tutadi. Biroq bu usul ma'lum darajada madaniy spetsifikani yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Badiiy adabiyotda tarixiy realiyalar ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. Ular asarning tarixiy muhitini yaratadi, davr ruhini yetkazadi va personajlarni tarixiy kontekstda joylashtirishga yordam beradi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani, Oybekning “Navoiy” romani yoki Cho‘lponning asarlari bunday realiyalarga boy. Badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimon ikki muhim vazifani muvozanatlashi kerak: bir tomondan, tarixiy realiyalarning o‘ziga xosligini saqlab qolish, ikkinchi tomondan, asarning badiiy ta'sirini yo‘qotmaslik. Bu ayniqsa she'riy asarlar va folklorni tarjima qilishda murakkab masalaga aylanadi.

Tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayonida eng murakkab vazifalardan biri pragmatik ekvivalentlikka erishishdir. Pragmatik ekvivalentlik — bu tarjima natijasida maqsadli o‘quvchida asl matn o‘quvchisida paydo bo‘ladigan kommunikativ ta’sir va funksiyani imkon qadar o‘xshash tarzda yaratishdir. Tarixiy realiyalar (siyosiy mansablar, diniy yoki ijtimoiy institutlar, antik nomlar, geografik atamalar, mahalliy meros elementlari) madaniyatga xos konnotatsiyalar va tarixiy bilish fondiga ega bo‘ladi. V. N. Komissarovning “Lingvistika perevoda” (“Tarjima lingvistikasi”) nomli mashhur asari tarjima nazariyasida ekvivalentlik masalasini juda chuqur tahlil qiladi. Komissarovning fikricha, “tarjimada ekvivalentlik — bu asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi ma’no va kommunikativ tenglik darajasi”[4,45]. U ekvivalentlikni so‘zma-so‘z moslik deb emas, muloqotdagi maqsadning saqlanishi sifatida talqin qiladi. Komissarov ekvivalentlikning pragmatik jihatini ham alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tarjimon manba madaniyati va qabul qiluvchi auditoriya orasidagi kommunikativ masofani to‘ldirishi kerak. Bu holatda tarjima faqat semantik jihatdan emas, balki ta’sir jihatidan ham aslga teng bo‘lishi lozim. Tarjima — bu ikki madaniyat o‘rtasida pragmatik muvozanatni yaratish jarayoni.

Pragmatik ekvivalentlik muammosi turli tillarda bir xil tarixiy realiya turli darajadagi tanishlik va turlicha baholanishga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bir madaniyat uchun keng ma'lum va qadrlangan tarixiy realiya boshqa madaniyat vakillari uchun mutlaqo notanish yoki hatto begona bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tarjimon faqat leksik ekvivalent topish bilan chegaralanib qololmaydi, balki pragmatik ta'sirni ham hisobga olishi zarur. Pragmatik ekvivalentlikning uch asosiy komponenti mavjud: kognitivlik (o‘quvchining tushunishi), emotsionallik (hissiy ta'sir) va baholovchilik (munosabat). Tarixiy realiyani tarjima qilishda bu uchta komponentni muvozanatlash kerak, lekin ko‘pincha ularni bir vaqtning o‘zida to‘liq saqlab qolish qiyin. Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda turli xil pragmatik yo‘qotishlar yuzaga kelishi mumkin. Referentsial yo‘qotish — bu realiyaning aniq tarixiy ma'nosining noaniq yoki noto‘g‘ri uzatilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, “*kolxoz*” so‘zini oddiy “*collective farm*” deb tarjima qilish bu institutning sovet jamiyatidagi o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rolini to‘liq yetkazmaydi. Konnotativ yo‘qotish realiyaga bog‘liq assotsiativ va emotsional ma'nolarning yo‘qolishini anglatadi. “Jadidchilik harakati” o‘zbek xalqi uchun progressivlik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg‘onish bilan bog‘liq kuchli ijobiy konnotatsiyalarga ega. Biroq bu realiyani boshqa tillarga tarjima qilishda bu emotsional yuklanish ko‘pincha yo‘qoladi. Madaniy yo‘qotish esa realiyaning madaniy konteksti va undagi o‘rni haqidagi ma'lumotning etishmasligi natijasida ro‘y beradi. Tarixiy realiya nafaqat yakka hodisa emas, balki madaniy xotiraning bir qismi, milliy o‘ziga xoslikning ko‘rsatkichi. Bu kontekstni yo‘qotish realiyani oddiy tarixiy faktga aylantiradi. Stilistik yo‘qotish realiyaning asl matndagi uslubiy funksiyasining o‘zgarishi yoki yo‘qolishi bilan bog‘liq. Tarixiy realiyalar ko‘pincha matnda davr koloritini yaratish, tarixiy muhitni gavdalantirish funksiyasini bajaradi. Agar tarjimada bu funksiya amalga oshmasa, matnning umumiy badiiy ta'siri zaiflashadi. Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlikka erishish uchun turli strategiyalar qo‘llaniladi. Domestikatsiya strategiyasi realiyani maqsad til madaniyatiga yaqinlashtirish, ya'ni funksional analog topish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu strategiya o‘quvchi uchun tushunishni osonlashtiradi va kommunikativ ta'sirni saqlaydi. Masalan, “*qozi*” so‘zini “*mahalliy sud*” deb tarjima qilish mumkin, garchi bu aniq ekvivalent bo‘lmasa ham, funksional jihatdan yaqin. Biroq domestikatsiya strategiyasi madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun ko‘pincha foreignizatsiya strategiyasi afzal ko‘riladi — bu realiyaning begona xususiyatini saqlab qolish va izohlar orqali tushuntirish. Bu yondashuv madaniy xilma-xillikni hurmat qilish printsipiga mos keladi. Badiiy tarjimada esa pragmatik ekvivalentlik eng murakkab ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Tarjimon bir vaqtning o‘zida tarixiy aniqlik, badiiy ta'sir va o‘quvchining estetik qoniqishini ta'minlashi kerak. Bu erda hamma uchta

pragmatik komponent — kognitivlik, emotsionallik va baholovchilik — teng ahamiyatga ega. arixiy realiyalarni tarjima qilishda muhim omil — tarixiy masofa, ya'ni voqea yuz bergan vaqt bilan hozirgi zamon o‘rtasidagi farqdir. Qadimgi tarixiy realiyalar zamonaviy realiyalarga nisbatan tarjimada turlicha muammolar tug‘diradi. Bu holda tarjimon ikki tomonlama vazifani bajaradi: nafaqat tillar orasida, balki tarixiy davrlar orasida ham vositachilik qiladi. Pragmatik ekvivalentlik bu yerda tarixiy kontekstni to‘g‘ri yetkazish va zamonaviy o‘quvchining tushunishini ta'minlashdan iborat. Yaqin tarixga oid realiyalar (masalan, sovet davri realiyalari) boshqa xil pragmatik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu realiyalar asl matn o‘quvchilari uchun yaxshi tanish va emotsional jihatdan yuklangan bo‘lishi mumkin, lekin tarjima o‘quvchisi uchun begona yoki hatto salbiy assotsiatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Tarixiy realiyalarni tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlikka intilish tarjimondan yuqori mas'uliyat va etik ongsni talab qiladi. Tarjimon nafaqat til mutaxassisi, balki madaniyatlar orasidagi ko‘prik, tarixiy xotira va milliy o‘ziga xoslikning himoyachisidir. Har bir tarjima qarori — realiyani qanday tarjima qilish, qanday izoh berish, qanday kontekst yaratish — maqsad til o‘quvchilarining tarixiy voqelik haqidagi tushunchasiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, tarjimon maqsad til va madaniyat xususiyatlarini ham hurmat qilishi kerak. Haddan tashqari begonalashtirish yoki tushunarsizlik ham yomon natija. Maqsad — ikki madaniyat o‘rtasida haqiqiy dialog yaratish, o‘zaro tushunish va hurmatni rivojlantirishdir.

O‘zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo‘lishiga qaramay, ikki xalqning tarixiy rivojlanishi, madaniy tajribasi va ijtimoiy-siyosiy sharoitlari turlicha bo‘lganligi sababli, tarixiy realiyalarni tarjima qilishda jiddiy pragmatik muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi tarixiy realiyalarni turk tiliga va aksincha tarjima qilishning amaliy jihatlarini konkret misollar asosida tahlil qilamiz.

O‘zbek tilida “*qozi*” so‘zi islom huquqshunosi va sud arbobini bildiradi. Turk tilida uning muqobili “*kadı*” hisoblanadi. Bir qarashda, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent kabi ko‘rinadi, lekin pragmatik jihatdan farqlar mavjud. O‘zbek kontekstida “*qozi*” so‘zi nafaqat yuridik funksiyani, balki ijtimoiy hurmat, diniy avtoritet va jamiyatdagi yuqori mavqeni anglatadi. “*Qozikalon*” mansabi esa davlat boshqaruvida muhim o‘rinni egallagan. O‘zbek o‘quvchisi uchun bu so‘z tariximiz, milliy huquqiy an'analarimiz bilan bog‘liq ijobiy konnotatsiyalarga ega. Turk tilida “*kadı*” ham tarixan shu ma'noni anglatgan, lekin zamonaviy turk o‘quvchisi uchun bu so‘z ko‘proq Usmoniylar davri bilan bog‘liq va ba'zan arxaik, hatto zamonaviy sekulyar jamiyatga mos kelmaydigan tushuncha sifatida qabul qilinishi mumkin. Tarjima strategiyasi: O‘zbek matnini turk tiliga tarjima qilishda “*qozi*” so‘zini “*kadı”* deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish mumkin, lekin pragmatik ekvivalentlik uchun kontekstual izoh

zarur: “*kadı* (*İslam hukukunun temsilcisi ve toplumda saygın bir mevki*)” yoki matn ichida qo‘shimcha tushuntirish berish. Shu sababdan “Pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to‘la-to‘kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o‘qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan ta'assyrot darajasida ta'sirlanadi”[5,61].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy realiyalar — bu nafaqat tilshunoslik va tarjima nazariyasining obyekti, balki xalqlarning madaniy xotirasi va tarixiy o‘ziga xosligini saqlash vositasidir. Ularni tarjima qilish murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, chuqur tarixiy bilim, madaniy sezgirlik va professional mahoratni talab etadi. Tarjimon tarixiy realiyalar bilan ishlashda bir necha tamoyillarga rioya qilishi kerak: tarixiy aniqlik, madaniy hurmat, maqsad auditoriyasini hisobga olish va badiiy yoki ilmiy maqsadga muvofiqlik. To‘g‘ri tanlangan tarjima strategiyasi xalqlar o‘rtasida haqiqiy madaniy dialog o‘rnatishga, bir-birining tarixiy tajribasini tushunishga va hurmat qilishga yordam beradi. Kelajakda tarixiy realiyalar tarjimasi sohasida yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borilishi, umumiy standartlar va tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur. Bu nafaqat tarjima sifatini oshirishga, balki madaniy xilma-xillikni saqlash va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. arixiy realiyalarni tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlik muammosi zamonaviy tarjimashunoslikning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Bu muammo oddiy til masalasi emas, balki madaniy, tarixiy, ideologik va etik jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab hodisadir. Pragmatik ekvivalentlikka erishish uchun esa tarjimon chuqur tarixiy bilimga, madaniy sezgirlikka, professional mahoratga va kreativ yondashuvga ega bo‘lishi kerak. U turli strategiyalarni moslashuvchan ravishda qo‘llashi, har bir aniq vaziyatni alohida tahlil qilishi va maqbul yechim topishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musayev Qudrat,Tarjima nazaryasi asoslari: Fan. -2005. - B. 111
2. Vlaxov, S. I., Florin, S. P. Neperevodimoe v perevode. — Moskva: Mejdunarodnыe otnosheniya, 1980. — 133 s.
3. Vlaxov, S. I., Florin, S. P. Neperevodimoe v perevode. — Moskva: Mejdunarodnыe otnosheniya, 1980. — 47
4. Komissarov, V. N. Lingvistika perevoda. — Moskva: Mejdunarodnыe otnosheniya, 1980. — 45 s.
5. Musayev Qudrat,Tarjima nazaryasi asoslari: Fan. -2005. - B. 61
6. Salomov G‘.,Tarjima nazaryasiga kirish.O‘qituvchi,Toshkent 1978

7. Oripova K. Tarjimaning pragmatik jihati//International scientific journal of Biruni. – 2024. – 3.

8. Ochilov Ergash. Tarjima nazaryasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T.,2012.

THE ROLE OF LINGUISTIC DEVICES IN TRANSLATION AND THEIR EFFECTIVE APPLICATION

Mirzabadalova Shaxloxon Ravshanjon qizi,
Qo‘qon universiteti, Jahon tillar
kafedrasi, Xorijiy til va adabiyot
yo‘nalishi talabasi

Gmail: shaxloxonmirzabadalova@gmail.com

Abstract: This paper explores the significance of linguistic devices in the field of translation and emphasizes their effective application for producing accurate, meaningful, and culturally relevant texts. The study investigates how phonological, morphological, syntactic, and semantic tools can be used to preserve the integrity of the source text while adapting it to the target language. The findings highlight that successful translation requires not only linguistic competence but also awareness of cultural, pragmatic, and stylistic nuances.

Keywords: Translation, linguistic devices, phonology, morphology, syntax, semantics, effective application

Introduction

Translation is not merely a word-for-word substitution but an intricate process of transferring meaning, style, and cultural essence from one language into another. It requires sensitivity to both linguistic structures and cultural contexts in order to convey not only information but also the tone, style, and intention of the original text. Linguistic devices play a crucial role in ensuring that this transfer is accurate and natural. These devices, which include structural, semantic, and stylistic tools, help translators reproduce the sense of the source text while maintaining fluency in the target language.

Moreover, translation involves making deliberate choices about vocabulary, grammar, and discourse patterns. By employing linguistic devices such as syntactic variation, lexical equivalence, and cohesive markers, translators can shape the target text into a coherent and culturally acceptable product. Without the effective use of these resources, translations risk becoming mechanical, ambiguous, or culturally inappropriate, ultimately failing to communicate the intended meaning of the source text. Therefore, understanding and applying linguistic devices effectively is central to the art and science of translation.

Literature Review and Methodologies

Scholars such as Nida (1964) and Newmark (1988) argue that linguistic devices function as essential instruments in achieving equivalence in translation. Nida highlights the concept of dynamic equivalence, where linguistic choices are expected to evoke the same response in the target audience as in the source audience. His approach emphasizes that successful translation is measured not only by linguistic accuracy but also by the emotional and cognitive impact it has on readers. Meanwhile, Newmark (1988) stresses the importance of semantic and communicative translation strategies. Semantic translation focuses on preserving the original meaning and stylistic nuance, whereas communicative translation prioritizes naturalness and comprehensibility in the target language. Both approaches rely heavily on the effective manipulation of linguistic resources.

More recent studies continue this discussion by underscoring the translator’s need to balance literal accuracy with creative adaptation. For instance, Baker (2011) explores how cohesion, register, and lexical patterns function as linguistic devices that shape translation choices. Venuti (1995) also emphasizes that translators must consider not only linguistic equivalence but also cultural mediation, since many stylistic devices carry culturally embedded meanings. Collectively, these works suggest that translators navigate between fidelity to the source text and fluency in the target text by deploying a wide range of linguistic strategies. Thus, linguistic devices are not secondary elements but central mechanisms that enable translators to reconcile structural and stylistic differences between languages.

Results

The analysis reveals that linguistic devices play a vital role in shaping both the accuracy and artistry of translated texts, as they serve as bridges between the structural and cultural features of the source and target languages. Phonological devices such as rhythm, rhyme, alliteration, and assonance are particularly significant in literary translation. They help preserve the musicality and emotional resonance of the original text, which is often central to the author’s artistic intent. For example, in poetry and prose with stylistic rhythm, the translator must recreate similar sound patterns in the target language to evoke comparable aesthetic responses. While this process is highly challenging, especially when languages differ greatly in phonetic structure, the use of phonological devices ensures that the translation does not lose its artistic depth. Morphological devices, including processes such as word formation, affixation, derivation, and compounding, enable translators to maintain precision and conciseness. This is especially relevant in technical, scientific, and academic translations where terminological accuracy is paramount. By carefully applying morphological resources, translators can create terms that are

both faithful to the original concept and natural within the linguistic system of the target language. Moreover, morphological strategies help avoid ambiguity and ensure that new or complex concepts are conveyed effectively to the target audience.Syntactic devices, such as sentence structure, voice, and word order, further contribute to coherence, logical flow, and readability in the translated text. The translator often faces the challenge of balancing structural fidelity with naturalness, particularly when the syntactic norms of the source language differ from those of the target. Through the strategic manipulation of syntax, translators can produce texts that are accurate in meaning but also stylistically appropriate and accessible to readers. This ensures that translations do not appear rigid or mechanical but instead flow smoothly as authentic texts in the target language.

Discussion

The findings suggest that linguistic devices are indispensable in translation because they function as mediators between meaning and expression, bridging not only linguistic structures but also cultural and stylistic dimensions. Each category of device—phonological, morphological, syntactic, and semantic—plays a distinct role, yet they collectively contribute to the overall fidelity and naturalness of a translated text. The analysis highlights that the translator’s task extends beyond lexical substitution, requiring a sophisticated awareness of how language operates on multiple levels of communication. For instance, in literary translation, phonological features such as rhyme, rhythm, and alliteration are often central to the aesthetic impact of the source text. Translators may restructure these sound patterns to fit the natural prosody of the target language, thereby ensuring that readers experience a similar emotional and artistic effect. While perfect replication is often impossible, creative adaptation of phonological devices demonstrates how translation becomes a re-creation of artistry rather than a mechanical transfer of words. This confirms earlier arguments by scholars like Bassnett (2014) that literary translation is a form of rewriting shaped by both linguistic and cultural constraints. In contrast, fields such as legal, medical, or technical translation prioritize precision over artistry. Here, morphological accuracy—through careful use of affixation, compounding, and word formation—ensures clarity, consistency, and avoidance of misinterpretation. Even minor deviations in terminology can lead to ambiguity or miscommunication, which may carry significant consequences in professional contexts. Thus, morphological devices are not only linguistic tools but also safeguards for reliability and authority in specialized discourse.

Cross-cultural communication further demonstrates the importance of semantic flexibility. Idioms, metaphors, and culturally bound expressions often lack direct equivalents in the target language. In such cases, translators employ strategies like substitution with culturally appropriate expressions or compensation in other parts of the text to preserve the intended effect. This shows that semantic devices are instrumental in maintaining not just meaning, but also pragmatic resonance and cultural accessibility. By choosing the right equivalents, translators act as cultural mediators, ensuring that the target audience interprets the message in a way that aligns with the source text’s purpose.

Conclusion

In conclusion, linguistic devices serve as the backbone of effective translation, functioning as both structural tools and artistic instruments. Their skillful application enables translators to preserve not only the informational content of the source text but also its stylistic integrity and cultural resonance. Phonological devices maintain aesthetic qualities in literature, morphological devices ensure precision in technical and scientific contexts, syntactic devices provide coherence and readability, and semantic devices allow for cultural and pragmatic adaptation. Together, these strategies demonstrate that translation is not a purely linguistic activity but also a creative and interpretive process.Translators, therefore, must go beyond mastering the grammatical and lexical systems of the source and target languages. They are required to develop the sensitivity and creativity needed to adapt linguistic resources in a way that balances fidelity with fluency. The ability to apply linguistic devices strategically according to genre, purpose, and audience is what distinguishes effective translations from mechanical renderings. This highlights the dual role of the translator as both a linguistic technician and a cultural artist.

Looking ahead, future studies should explore systematic methodologies for training translators in the effective use of linguistic devices across a variety of disciplines, including literature, law, medicine, and intercultural communication. Such research could provide valuable insights into how linguistic strategies can be taught, practiced, and evaluated, ultimately contributing to higher standards in translation quality. By integrating theory with practice, translation studies can continue to refine its understanding of how linguistic devices shape meaning, style, and cultural exchange across languages.

References

1. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.
2. Bassnett, S. (2014). Translation Studies (4th ed.). Routledge.

3. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.
4. Hatim, B., & Munday, J. (2019). Translation: An Advanced Resource Book (2nd ed.). Routledge.
5. Lefevere, A. (1992). Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame. Routledge
6. Yokubjonova , D.(2025). THE ROLE OF THE TEACHER: TRADITIONAL VS. MODERN APPROACHES. International Journal of Political Sciences and Economics, 1(1), 140–144. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/84903

FRANSUZ TILIDA “NUTQIY XUSHYORLIK”(LE POLITIQUEMENT CORRECT)NING NUTQIY MULOQATDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.L.Mamatkulov,
Qo‘qon universiteti Andijon
filiali professori, f.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Le politiquement correct” (Nutqiy hushyorlik) kabi ijtimoiy hodisani tilshunoslik nuqtai nazardan o‘rganilishining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Nutqiy xushyorlik nutq faoliyatida har qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslikni, noqulay iboralarni qo‘llamaslikni bildiradi..

Kalit so‘zlar: Le politiquement correct, litoto, nutqiy xushyorlik, til, tafakkur, ibora.

Abstract: This article discusses the importance of studying such a social phenomenon as discursive vigilance from a linguistic point of view. Discursive vigilance implies the avoidance of any discrimination in speech activity, the rejection of the use of profanity.

Keywords: Political correctness, lit, discursive vigilance, language, thinking, expression.

Tilning asosiy vazifasi kishilar o‘rtasidagi aloqadan iborat ekanligi sababli tatqiq etishda muloqotni shakllantiruvchi asosiy sub’ektlarni o‘rganish bugungi tilshinoslikning ustivor yo‘nalishlaridan sanaladi. Shu sababli hozirgi kunda jahon tilshunoslikgida lingvistik faktlarga antroposentrik nuqtayi nazardan e’tibor qaratilyapti. Har qanday axborot ma’lum shaxs (adresant)tomonidan uzatilyotgani va u boshqa shaxs (adresat)tomonidan qabul qilinishini e’tiborga olsak, til ma’lum shaxslarning ozaro fikr almashinuvi ekani etirof etiladi. Bunda shaxs fenomeni birinchi planga chiqadi.

Ijtimoiy hodisa sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan til doimiy harakatda bo‘lib, to‘xtovsiz rivojlanib boradi. Til nafaqat tafakkur mahsuli, ma’lum

bir fikrni ifoda etuvchi vosita, balki butun bir olam, koinotning tarkibiyu mazmun-mohiyatini inson ongida aks ettirishga xizmat qiladi. Jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda albatta o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham tilning tarkibiy qismi hisoblangan “Le politiquement correct” (Nutqiy hushyorlik) kabi ijtimoiy hodisani tilshunoslik nuqtai nazardan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

“Le politiquement correct” (Nutqiy hushyorlik) – tilshunoslikdagi yangicha yondashuv bo‘lib, nutq faoliyatida har qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslikni, noqulay iboralarni qo‘llamaslikni bildiradi. Bu tushunchaning asl mohiyati nutq jarayonida u yoki bu mayda etnik (irqiy, jinsiy, ijtimoiy va b.) guruh vakillarining izzat-nafsiga tegib ketmaslik yoki hayotdagi nohush voqea-hodisalarni yashirish yoki niqoblash, so‘zlovchining maqomi va gapning nima haqida borayotganligini aniq ko’rsatishdan iborat. Shunga e’tiboran tilda yangi-yangi tushunchalar paydo bo’la boshlaydi, ular nutq ob’ektini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, dangal, oshkora ifodalamay, uni yumshoqroq, qochirimlar yo‘li bilan tavsiflashga xizmat qiladi. “Nutqiy hushyorlik” turli lisoniy vositalar, ko‘chimlar va yoyiq sintaktik tuzilmalar bilan bir qatorda bir qancha ilmiy istilohlar, xorijiy so‘zlar, qisqartma atamalar vositasida o‘zligini namoyon qiladi. E’tirof etilgan bu barcha hodisalar yangi lisoniy tushunchani uslubiyat nuqtai nazaridan tadqiq etishni taqozo etadi.

Til, jamiyat va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi ko‘pdan buyon tilshunoslik fanining tadqiqot manbai bo‘lib kelmoqda. XIX asrda yashab o‘tgan taniqli nemis tilshunosi va faylasufi Vilgelm fon Gumboldt tilni “xalq ma’naviy kuch-qudratining ifodasi”, “xalq tafakkuri va hissiyotini ifodalovchi muhim vositadir”, deb ta’riflagan edi. [1, 349].

Hozirgi zamon tilshunosligi oldida turgan dolzarb muammolarning biri – bu til va madaniyatning o‘zaro munosabatini o‘rganishdir. S.G.Ter-Minasova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “til – madaniyat ko‘zgusi, unda xalqning o‘z-o‘zini ijtimoiy anglashi, uning mentaliteti (o‘ziga xosligi), milliyligi hayot tarzi, an’analari, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari, qadriyatlari tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi” [2,14].

Shuningdek, til vositalari tarbiya, bilimlarni ommalashtirish, odamlarning eng muhim xayotiy muammolarini hal etish vositasi bo‘lib kelgan, hozir ham shunday, bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. [3,82]

Keyingi paytlarda ko‘proq ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda “Political Correctness”, (fransuzchada — “le politiquement correct”,ruschada- politkorrektnost, o‘zbekchada (bizningcha) –“nutq odobi”, “siyosiy nutqiy hushyorlik”, “nutqiy hushyorlik”, “nutqiy andishalilik”) deb atalgan madaniy va lisoniy hodisa paydo bo‘ldi.

“Le politiquement correct” – tilshunoslikdagi yangicha yondashuv bo‘lib, nutq faoliyatida har qanday kamsitishlarga yo‘l

Öktem’in dil ve tarih bilinci göze çarpar. Söylenen bir Özbekçe türkünün yankılanarak yayılması, anasının ineğini sağması, süt sağarken çıkarılan seslerin -türkü çağrışımı olarak- tasvirleri dikkat çekicidir. Bu tasvirler, Öktem’in millî kültürle yoğrulan toplumsal yaşayış karşısında yüreğinin heyecanı ve bu heyecanın şiirlerine taşması halidir.

SONUÇ

Öktem’in şiirlerinde ele aldığı dil, tarih ve kültürel unsurlara bakıldığında onun bakış açısını oluşturan unsuları şu şekilde sıralayabiliriz.

1. Azam Öktem’e göre milli birliğin bugününü ve yarınını ancak Ana dil kullanmakla mümkündür. Ana dilini kullanmayan bir ulus yok olmaya mahkûmdur. Ne olursa olsun ana dil bir ses bayrağı misali dalgalandıkça, ulusun geleceği teminat altında olacaktır.
2. Tarih bilincini Özbek Türkü olan her birey kati olarak kazanmalıdır. Zira Özbek Türkleri bütün dünyaya medeniyeti öğreten büyük ve kadim Türk kültürünün öz mirasçısıdır.
3. Özbek Türk kültürünün canlı olarak yaşaması onun için geleceğe bakmanın en doğru yoludur. Çünkü Öktem’e göre geçmişi bilmeyen ve bugünü anlamayanlar geleceğe yön veremezler.
4. Kültür unsurları içinde basit kültür unsuru yoktur. En küçük bir detay dahi Öktem için toplumsal varlığın çekirdeğidir. Örneğin bir at toynağı sesinden dahi muazzam bir ordunun ihtişamını görebilmektedir.
5. Öktem’e göre Tarihe ve milli kültüre sahip çıkmak için tarihi şahsiyetleri tanımak ve anlamak gerekir. Çünkü bu şahsiyetler kendilerini karanlıkta bırakmak pahasına aydınlığı milletine miras bırakmışlardır.

Bu doğrultuda Yesevi, Çolpan, Hazini; Timur, Babür kadar kıymetlidirler çünkü Nevai, Yesevi, Çolpan gibi sanatçılar dil sahasında asırlar boyu sürecek bir savaşın önderleri ve komutanları olmuşlardır. Ve bu savaş halen devam etmektedir. Türkçenin özgürce konuşulamadığı coğrafyalarda tutsaklığın baş göstereceği bir hakikattir. Türkler tarih boyunca özgürlük ve adaletin timsali olmuş

bir millettir. Dilinden öte kalbinde Türkçeyi ana dil olarak kullanan bütün Türklerin dil ve devlet birliğini yeniden sağlayacağı günlere olan inancı tamdır. Bilge Kağan’ın dediği gibi “*Ey Türk ulusu üstte mavi gök basmasa ve altta yağız yer delinmese dili ve töreni kim bozabilecekti*.”

Yine ulu önder Mustafa Kemal Atatürk’ün asırları aşacak şu sözleri hepimiz için çok kıymetlidir: *“Uyuyan milletler ya ölür ya da tutsak olarak uyanır.*

KAYNAKÇA

1. Korkmaz, M. (2025), Çağdaş Özbek Şairi Azam Öktem’in Şiirleri Üzerine Bir İnceleme. Niğde Ünv. Sosyal Bilimler Ens. Basılmamış Doktora Tezi.

2. Korkmaz, M. (2022). Cedid Hareketi ve Cedid Hareketinin Dil Politikaları ile Alfabe Çalışmalarındaki Etkisi. Z. Karacagil (Ed.), *Sosyal Bilimlerde Güncel Tartışmalar 11* (1. Baskı, pp. 770–793). Ankara: Bilgin Kültür Sanat Yayınları.

3. O‘ktam, A. (1990a). *Kuzetish*. Toshkent: Yash Gvardiya Neshriyot.

4. O‘ktam, A. (1990b). *Kuzda Kulgan Chechaklar*. Toshkent: Gafur Gulam Edebiyat ve Sanat Yayınevi.

5. O‘ktam, A. (1999). *Qırqınchi Bahor*. Toshkent: Qayorpol-Kamolot Neshriyot.

6. O‘ktam, A. (2014). *Sahar Vaqti Yurak Yig‘lar* (Nabijon Boqy, Ed.). Toshkent: Maveraunnahir Nashriyot.

7. Özkan, N. (1997). *Türk Dünyası (Nüfus Sosyal Yapı Dil Edebiyat)*. Kayseri: Geçit Yayınları

8. Thomsen, V. (2020). *Orhon Yazıtları Araştırmaları* (V. Köken, Trans.). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

9. Uygur, C. V. (2008). *Özbekçe (Özbek Türkçesi)*. Isparta: Fakülte Kitabevi.

AZAM OKTAMIN BƏDII YARADICILIĞI VƏ ƏDƏBI ŞƏXSIYYƏTI
AZAM OKTAM’S ARTISTIC CREATIVITY AND LITERARY PERSONALITY

Şəkər Məmmədova,
Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru
Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti, Türkoloji mərkəz,
Bakı, Azərbaycan
shakarmammadova1986@gmail.com
ORCID: 0009-0005-5385-4733

Xülasə

1990-cı illərdə Sovet İttifaqının dağılmasından sonra müstəqillik qazanan? Çağatay ədəbiyyatından qaynaqlanan müasir özbək ədəbiyyatı geniş bədii irsə malikdir. Bu dövrdən sonra yaranan əsərlər “azadlıq, yoxsa istiqlal” ədəbiyyatı

adlanır. Müstəqillik dövründə şairlərin ərsəyə gətirdikləri əsərlərin əsas mövzusunu araşdırdıqda onların cəmiyyətdə milli oyanış başlatmaq, özbək xalqını maarifləndirmək məqsədi daşıdığını görürük. Bu araşdırmada müstəqillik dövründə özbək ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi olan Azam Oktam bədii yaradıcılığı və ədəbi şəxsiyyəti haqqında məlumat verilir.

Şeirlərində milli düşüncə və müstəqilliyin yalnız təhsil vasitəsilə mümkün ola biləcəyini vurğulayan Azam Oktam keçmişdə yaşanmış acıların vətən, azadlıq, haqq, insanlıq uğrunda çəkildiyinə şahid olmuşdur. Bu şahidlik onun gələcəyə və vətənə inamını möhkəmləndirmiş, ona “inanmış bir şair” kimliyi qazandırmışdır. Yazdığı əsərlər və mövzularla uzun müddət təzyiq və qadağalarla susdurulmağa çalışılan ifadəsində güclü və gur bir səs olan Oktam, Müstəqillik Dövrü Özbək ədəbiyyatının ən mühüm qələm sahiblərindən biri kimi türk ədəbiyyatı səhnəsində öz yerini tutmuşdur. Sonrakı nəsillər üçün sənət və poeziyanı ictimai gerçəkliklə yoğuran; insanlığa, tarixə, sənətə həssas yanaşan; inamını itirmədən millətini aydınlatan güclü bir fənər olmuşdur.

Açar sözlər: Azam Öktem, Müstəqillik Dövrü Özbək ədəbiyyatı, milli şüur, vətənpərvərlik, türk ədəbiyyatı

Abstract

After the collapse of the Soviet Union in the 1990s, modern Uzbek literature, which originates from Chagatai literature, gained independence and inherited a rich artistic tradition. The works created during this period are referred to as the literature of “freedom or independence.” When analyzing the main themes of the works produced by poets in the Independence Period, it becomes evident that their aim was to initiate a national awakening in society and to enlighten the Uzbek people. This study provides information about the artistic creativity and literary personality of Azam Oktam, one of the prominent representatives of Uzbek literature during the Independence Period.
In his poems, Azam Oktam emphasized that national consciousness and independence could only be achieved through education. He witnessed that the pains endured in the past were for the sake of homeland, freedom, justice, and humanity. This testimony strengthened his faith in the future and in the homeland, earning him the identity of a “believing poet.” Through his works and themes, Oktam became a strong and resonant voice in expression that had long been silenced by oppression and restrictions, and he secured his place in the stage of Turkish literature as one of the most important figures of the Independence Period Uzbek literature. For future generations, he became a strong beacon who intertwined art and poetry with social reality, who was sensitive to humanity, history, and art, and who illuminated his nation without losing his faith.

Keywords: Azam Oksam, Independence Period Uzbek Literature, national consciousness, patriotism, Turkish literature

Giriş. XX əsrin əvvəllərində Özbəkistanın müstəqillik əldə etməsindən sonra ədəbiyyatı da öz azadlığını qazanaraq “istiqlal, suverenlik dövrü” ədəbiyyatı adlanmağa başlamışdır. Müstəqillik dövründən qabaq yazılan bədii nümunələrdə bəhs edilən mövzularla bağlı ifadə olunan duyğu və düşüncələr aydın və açıq şəkildə ifadə edilməmiş, əvəzinə simvollar və gizli üslub vasitəsilə çatdırılmağa cəhd edilmişdir. “Sovyetler döneminin Rus etkisinden kurtulmak, ulusal haklarını savunmak,1960-1990’lı yılların şiirine mahsus üstü kapalı ifade tarzından serbest anlatıma geçiş; özgürlük, Türklük, vatan sevgisi temaları ile millî bir sanat yaratmagayreti bağımsızlık dönemi Azerbaycan ve Özbek şairlerinin ortak özelliği olmuştur” (1, s.466)

Əgər XIX–XX əsrlərdə meydana çıxan və müxtəlif ədəbi cəmiyyətlər tərəfindən tanınan dünya və özbək şair–yazıçılarının əsərlərini diqqətlə müşahidə etsək, görərik ki, onların yaradıcılıq yolu və baxış bucaqları iki mərhələdə– istiqamətdə öz vəzifəsini yerinə yetirmişdir. Əvvəlcə bu dövrün nümayəndələri qələmlərini lirik janrlarda sınamış, müəyyən bir müddətdən sonra isə xalqı oyatmağa, insanların ümumi düşüncəsini inkişafa yönəltməyə xidmət edən yaradıcılıq nümunələri yaratmağa başlamışlar. Bu hadisəni Avropa və Amerika ədəbiyyatında (realizm, sərt realizm, sürrealizm, cazibədar realizm, absurd, şüuraltı cərəyan, dekadent ədəbiyyat), rus ədəbiyyatında və özbək ədəbiyyatında da görmək mümkündür.

XX əsrin sonu və XXI əsrin əvvəllərində özbək ədəbiyyatı yeni inkişaf mərhələsinə qədəm qoymuşdur. Bu dövrdə ədəbi prosesdə fərdi üslub axtarışları, mənəvi-fəlsəfi mövzulara maraq və milli dəyərlərin yeni bədii ifadəsi ön plana çıxmışdır. Həmin mərhələnin diqqətəlayiq nümayəndələrindən biri Azam Oktam (1960–2002) olmuşdur. O, şeir, nəsr, publisistika və tərcümə sahələrində zəngin irs yaratmış, milli poeziyanın inkişafına mühüm töhfələr vermişdir. “1990-cı illərdə ədəbi sahəyə qədəm qoyan nəsil reallığa bir qədər fərqli yanaşması ilə seçilir. Onlarda yuxarıda vurğulanan emosional və əqli idrakla yanaşı, gerçəkliyi “ilahi risalət”in tələblərinə uyğun dərk etmək meyli də üstünlük təşkil edir. Bu tendensiya ədəbiyyatda yaranmış boşluğu dolduran, mövcud çoxəsrlik ənənələri davam etdirən əsas amillərdən birinə çevrilmişdir. Bu dövrdə ədəbiyyata qədəm qoyan nəslin nümayəndəsi Azam Oktamın yaradıcılığında gerçəkliyin dərk edilməsinə orijinal və ənənəvi münasibət müşahidə etmək olar”. (2, s.398)

Açıq qəlbli, milli yaraları olan şair Azam Oktamın yaradıcılığı da bu ənənədən kənarda qalmır. Əvvəlcə gənc şair Azam Oktam lirik poeziyanı özünə məxsus şəkildə mənimsəmiş, gənclik ilhamlarından su içmiş, sevinc qanadlarında səmaya uçmuşdur. Yetkinlik ərəfəsində isə müxtəlif ədəbi dairələrdə müəyyən mənada milli ideyaların təsiri altında ictimailəşmişdir. “Azam Öktem de bu dönemin en önemli sanatçılarından biri olarak şairlik yönüyle karşımıza çıkmaktadır. Edebiyatta şiirin gücü, duyguların ifadesinde ve iletişiminin kudretiyle ayrı bir öneme sahiptir. Bu gücü arkasına alan Öktem de toplumsal konuları geçmişte yaşanılan acı tecrübelerle irdeleyerek içinde bulunduğu dönemle harmanlayabilen bir şairdir. Tematik olarak ele alınan şiirlerinden hareketle şairin sorgulayan yanı, içindeki mücadeleci ruhu, dinî temâyülü, bedel ödeme ve vatan gibi kavramları ele

alış biçimi değerlendirilmiştir. Bireysel bir sanat gayesinden ziyade didaktik bir misyon üstlenen şairin toplumsal seslenişini ele alığımız şiirlerinde de görmekteyiz”. (3, s.252). Şairin sonrakı şeirlərində millətin dərdləri, xalq, Vətən, nəsillərin kədəri, dini görüşlər, islam qaydaları, mistik əxlaq tərənnümü, ictimai ədalətsizliklər və bu problemlərin aradan qaldırılması uğrunda qəlbində qaynayan hisslər poetik dildə mükəmməl şəkildə ifadə olunmuşdur. Buna görə də Azam Oktam poeziyasının əsas xüsusiyyətlərini üç mövzuda ümumiləşdirmək olar: 1)Lirik şeirlər; 2)Millətçilik və vətənpərvərlik mövzulu şeirlər; 3) Dini, fəlsəfi və maarifçi mövzulu şeirlər. “Azam Oktam, çoxistiqamətli istedada malik bir şəxs olaraq, sözlə musiqinin ümumiliyini dərin şəkildə duyur. Məhz buna görə də onun poeziyası musiqililiyi və daxili ahəngi, dilinin çoxruhluluğu ilə seçilir. Azam Oktam üçün yazdığı hər mövzu olduqca önəmlidir və təsadüfən seçilmiş mövzu anlayışı yoxdur. Şeirdən-şeirə milli vətənpərvər şairin düşüncə və baxışlarında ardıcıllıq, reallıq və beynəlmiləlçilik güclənir və bu xüsusiyyətlər artıq yeni tədqiqatların mövzusuna çevrilir”.(4, s.409)

Əslində, lirik şeirlər insana gözəl, təsirli və əbədi görünür. Onlar emosiyaları sənət əsəri kimi ifadə edərək orijinal ədəbiyyat nümunəsi ola bilər. Bu ümumbəşəri çalarlar və pafos Azam Oktamın lirik poeziyasında aydın görünür. A’zam O’ktam poeziyası əsasən insanın daxili aləminin poetik inikası ilə seçilir. Onun şeirlərində “mən”, “sən”, “başqası” və “öz” obrazlarının qarşılıqlı münasibəti yaradıcı üsul kimi mühüm yer tutur. Bu, şairin lirikasına dərin psixoloji təsir gücü qazandırır (5).

Azam Oktam formalaşmış dünyagörüşə malik bir şair kimi dünyanın və insanın əbədi suallarına cavab axtarır, insanın həyatda yeri, münasibətlərin mürəkkəbliyi, tale barədə düşüncələrini şeirlərinə hopdurur. O, ailə, övlad, atalıq, gələcək peşə, vacib və təsadüfi əməllər barədə fikirlərini incəliklə şeirlərində əks etdirir. Şair ürəyi ustad, özünü isə bu ustadın yetirməsi hesab edir. Bəzən şeirlərində kədərli əhval-ruhiyyə hiss olunur. “Həyat möcüzədir, ölüm hikmətdir”, “Yaşamaqdan yoruldum” kimi etirafları oxucunu kədərləndirsə də, “Cəsarət borcdur, igidlik sünnədir” kimi nikbinlikləri oxucunu sevindirir. Şairin “Kuzda kulgan chechaklar” (1989), “Ziyorat” (1992), “Taraddud” (1993), “Ikki dunyo saodati” (1998), “Qirqinchi bahor” (2000) kimi toplularında təbiət təsvirləri, iman, insan taleyi, həyat və ölüm münasibəti bədii ifadəsini tapır (6). Təbiət təsvirləri yalnız dekorativ deyil, daxili hiss və düşüncələrin simvolik təcəssümü kimi təqdim olunur.

Şairin əsərlərinin “özünəməxsusluğu” onun fərdi xarakterindən, müstəqil yaradıcılıq temperamenti və sistemli formalaşmasından qaynaqlanır. Azam Oktam öz poetik dünyasını yalnız ona uyğun mövzularda ifadə edərək, şəxsiyyətini və poeziyasını tarazlı şəkildə təqdim edir.

Oktamın poetik dili sadəliyi, obrazlılığı və dərin semantik tutumu ilə seçilir. O, minimal ifadə vasitələri ilə emosional təsir gücü yaradır. Xalq dilinin frazeoloji vahidlərindən, obrazlı ifadələrindən istifadə onun poeziyasını daha da canlı və xalq ruhuna yaxın etmişdir (7). Azam Oktam hələ qırx yaşına çatmamış dini, mistik və maarifçi ideyaları əsərlərində poetik şəkildə cilalayırdı. Sadə kəndçi ailəsində doğulub böyüməsinə baxmayaraq, imanlı və dindar ailə mühitində formalaşmış,

islam nuru və yaradılışın məqsədi kimi ali həqiqətlərə hörmət ruhu onun qəlbinə hopmuşdur.

Şairin “Bola dunyoni tebratar” (1988) adlı əsəri və “Xabar” qissəsi (1995) insanın mənəvi dünyasını, ictimai ziddiyyətləri poetik-fəlsəfi şəkildə əks etdirir. Onun publisistik məqalələrində isə ədəbiyyat, maarif və din məsələləri aktuallıq qazanmışdır.

Azam Oktam həmçinin Qurani-Kərimin mənalarının özbək dilinə tərcüməsində və nəşrində fəal iştirak etmişdir. Bu tərcümə sayəsində “Şərq Ulduzu” jurnalı iki yüz min tirajla çap olunurdu.

Azam Oktam dünya ədəbiyyatına da diqqət yetirmiş, Rabindranath Tagore və Nikolay Rubtsov kimi şairlərin əsərlərini özbək dilinə tərcümə etmişdir. Bu fakt onun yaradıcılığında milli və bəşəri dəyərlərin sintezini gücləndirmişdir (8).

Azam Oktamın ədəbi şəxsiyyəti milli ruhun qorunması ilə yanaşı, bəşəri idealların ifadəsi ilə də səciyyələnir. Onun yaradıcılığında iman, mənəviyyat, insanın daxili azadlığı və sosial ədalət ideyaları mühüm yer tutur. Ədəbi prosesdə o, klassik ənənələrlə müasirlik arasında körpü rolunu oynamış, özbək poeziyasına yeni nəfəs gətirmişdir (5).

Səmimi və canlı əsərlər yaza bilən Öktəm, qəlbində mənəvi çirkinliyə dözümü olmayan bir sənətkar kimi yaradıcılıqla məşğul olmuşdur. Sözləri və obrazları seçərək incə bir həssaslıqla işlədən şair, tək istiqamətli bir sənətkar olmaqdan çox düşünən, araşdıran, müdafiə edən və şüur aşılamaq üçün xalqa müraciət edən çoxsəslı bir ziyalı kimi qarşıya çıxır. Maarifçilik ideyasını yaşadığı cəmiyyətə çatdırmaq üçün sözlərini xalqın anlaya biləcəyi sadəliklə seçmiş, ictimai mövzuları ehtiva edən həssaslıqları səmimiyyətlə dilə gətirmişdir.

Nəticə. Azam Oktamın bədii irsi mövzu zənginliyi, poetik dilin sadəliyi və dərinliyi, milli-mənəvi dəyərlərin bədii təcəssümü ilə seçilir. Onun yaradıcılığı yalnız özbək ədəbiyyatı üçün deyil, ümumtürk ədəbi məkanı üçün də əhəmiyyətli hadisədir. Şairin qısa ömründə yaratdığı irs gələcək nəsillərin ədəbi düşüncəsi üçün mühüm qaynaq olaraq qalacaqdır.

Azam Oktam da milli, folklorik, iman dolu şeirlərini özünəməxsus şəkildə təqdim etməklə, ədəbiyyatsevərlərin qəlbində xüsusi yer tutmuşdur. Onun adı artıq sevimli şairlərin sırasında çəkilir, kitabları oxucuların kitabxanalarında ehtiramla qorunur və zövqlə oxunur.

Ədəbiyyat

1. Terane, H. (2018). Bağımsızlık Döneminde Azerbaycan ve Özbek Şiirinin Ortak Özellikleri. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 18/2.
2. Ғулом Бобожонов, Поэтик Ижодда “Илоҳий Хабар” Воқелиги, “A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020
3. Kurbanova, M. ve Korkmaz, M. (2021). Bağımsızlık Dönemi Çağdaş Özbek Şairlerinden Azam Öktem ve Edebî Kişiliği. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD). 5.Cilt, 2. Sayı

4. Sh. Toxtasimov, H.Hamroeva, S. Hojieva Art Theme In The Poetry Of Azam Uktam. The USA Journals Volume 02 Issue 10-2020
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/a-zam-o-ktam-1960-2002
6. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2016/06/160628_latin_literature_bbcuzbek_azamuktam
7. https://uzpedia.uz/pedia/azam_shoirning_oktam_ovozi
8. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/azam-oktam-sherlar-olloyor-begaliyev-azam-oktam-bir-yol-korinur.html

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI HAQIDA AYRIM QAYDLAR

Dilmurod QURONOV,
Andijon davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada A’zam O‘ktam she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Xususan, unda A’zam O‘ktam she’rlari tahlili orqali shoir badiiy mahorati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oksyumoron, postmodern davri badiiy tafakkuri ijtimoiy muammolar, badiiy niyat, poetik vositalar, she’r arxitektonikasi, tematik kompozitsiya.

Abstract: The article discusses the ideological and artistic features of Azam Uktam's poetry. In particular, it highlights the poet's artistic skill through the analysis of Azam Uktam's poems.

Keywords: oxymoron, postmodern artistic thinking, social problems, artistic intention, poetic means, poetic architectonics, thematic composition.

Hayotga favqulodda teran nigoh tashlay bilgan, aql ko‘zi tiyraklashib, fikri g‘oyat keskirlashgan odamgina eng oddiy haqiqatlarni, qaysiki, hamma so‘zsiz e’tirof etuvchi haqiqatlarni taftish qilishga o‘zida jur’at topa oladi. Hozirgina, A’zam O‘ktamning “Qirqinchi bahor” to‘plamiga kirgan, qirq yosh chegarasida yozilgan she’rlarini o‘qib o‘tirib shu o‘y keldi xayolimga... Nazarimda, bunaqa taftish qilmoq uchun dunyoga tamom boshqa o‘lchamdan, nima desam ekan, ikki olam oralig‘idagi bo‘sag‘adan turib, ya’ni hech bo‘lmasa fikran bir oyog‘ini boqiy dunyoga qo‘ygan holda fikrlay olmoq kerak. Qarang, aslida, biz A’zam O‘ktam bilan tengdoshmiz: dunyoga atigi yigirma kunlar farq bilan kelganmiz, faqat, unga berilgan umr qisqaroq bo‘lgani uchunmi, mezonlar ham o‘zgacharoq: bizdan ko‘ra ancha oldin yetishib qolgan, fikri to‘lishgan, teranlashgan ekan, deb o‘yladim. Zero, uning she’rlaridagi ko‘p nozik nuqtalar asrlar chegarasida, masalan, kaminaning xayoliga kelgan emas, bilmadim, havoyiroq ekanmizmi. Mayli, she’rlarining ulug‘ zotlar diqqatiga sazovor tomonlarini qo‘ya turay, ularni chinakam his etmog‘imiz

uchun hali dil qulflarimiz ochilishi zarurga o‘xshaydi. Shunchaki aql bilan, ya’ni qol ahli ham anglay oladigan tomonlarini olay.

“Laylatul qadrdan keyingi kunlar” turkumiga kirgan she’rlarda bu tomonlari, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Turkumning ilk she’ri mana bu:

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq”
Bu gapni aytgan-ov zamonning o‘zi.

Misralar sindirilganini aytmasak, ikki qatorgina she’rda necha-necha zamonlardan beri asl haqiqat o‘laroq amal qilib kelinayotgan, yana xalq hikmati deya qadri baland tutiluvchi aqidaga isyon qilinayotir, uning beshak haqiqat ekaniga shubha bildirilayotir. Xolis ayting: hamma ham shunday shubhalanib o‘tiradimi?! Yo‘q, ko‘pchiligimiz manfaatimizga muvofiq kelsa, salmoqlab-salmoqlab aytaveramiz, to‘g‘ri kelmasa, eslamayoq qo‘ya qolamiz: ha- da, matal anqoning tuhumi emas, mosrog‘i qurib ketibdimi?! Maqolni o‘z foydamizga moslab tushunish, faqat manfaatga mos kelgandagina amal qilish bizni murosasoz qilib qo‘yganini o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Haq so‘z oshig‘i shoir esa bunday qilmaydi, qilolmaydi: maqolning zamiridagi aqidaning zaif tomonini, u shu choqqacha keltirgan va keltirishi mumkin ziyonni ko‘ra oladi – unga nisbatan o‘quvchisida shubha uyg‘otishga, ko‘zimizni ochishga intiladi. To‘g‘ri, xalq tajribasi katta, maqolu matallarda o‘sha tajribaning qaymog‘i aks etgani ham bor gap. Biroq har qanday tajriba ham foydalimi, u har qanday hayotiy holatga ham to‘g‘ri kelaveradimi?! Shoir shu haqda o‘ylaydi, o‘ylatadi. Bejiz emas, sababi u millatning tarixiy burilish pallasida shaxs va shoir o‘laroq shakllangan, o‘zini “jadid” o‘laroq his qiladi. Shu bois aksar yozganlarida holat yo narsa-hodisaga tamom o‘zgacha rakursdan qarash bor, shoir nigohi tuyqus o‘sha holat yo narsa-hodisani ko‘z oldingizda siz shu choqqacha ko‘rmagan qirrasi bilan namoyon etadi – hayrat tug‘iladiki, bu – inkishof hayrati, ya’ni “Ie, bu tomonini o‘ylab ham ko‘rmagan ekanman-a?!” deya beixtiyor ich-ichidan tan olish bo‘ladi. Mana, yana bitta, ming bora eshitilgan va har gal to‘g‘ri deya bosh irg‘aganimiz “Maqolga sharh”:

“Uzoqning bug‘doyidan
Yaqinning somoni yaxshi”
Agar bug‘doy emas,
Somon yeydigan bo‘lsang.

Avvalo, oddiygina bu she’r A’zam O‘ktamning zamona ruh-kayfiyatini teran his qilib yashaganiga dalolat qiladi. Ha, biz ko‘p zamonlar “Uzoqning bug‘doyidan yaqinning somoni yaxshi” deb, o‘z qishlog‘i, hatto mahallasidan chetga chiqishni-da fojia deb bilib yashadik. Ha, hatto yaqin-yaqinlargacha farzandining Toshkentda qolib ishlayman deyishi ham ota-ona uchun xuddi katta bir yo‘qotishdek, shungami, farzand ham bunga iztirobli ichki kurashlarsiz jur’at qilolmas edi. Holbuki, dunyo tubdan o‘zgarayotgan, odamlar ilm izlab yo o‘z imkonlarini ro‘yobga chiqarish niyatida jahonning turli hududlariga dadil borib yashash, o‘sha joylarga tomir yoyishni odatiy hol deb bila boshlagan edilar. O‘zgargan dunyo kayfiyatini ilg‘agan shoir yuzaga kelayotgan holat mohiyatini shu tarz g‘oyat sodda-to‘pori yo‘sinda anglatadi. To‘g‘ri, kimgadir qo‘pol tuyular: lekin “odam o‘zini nimaga loyiq ko‘rsa shunga sazovor bo‘ladi” degan haqiqatni yurtdoshlarga anglatish, ularni qitiq patiga

tegib qo‘zg‘atish uchun shunday yo‘l tutish zarur ham edi. Ya’ni xuddi ming yillar narida bolosog‘unlik Yusuf bobosi:

Asl kishi(lar) ikki turlidir, ko‘rgin,
Biri – beg, biri – dono, kishilar boshi.
Bundan boshqa barchasi yilqi sanaladi
Istasang bunisini tanla, istasang bunisini, -

degani kabi. Mushtaraklikni qarang: taxtni turkiy sulolalar egallagan markazlashgan davlatda turkiy ulusga bilim nechog‘li muhimligini anglatish uchun Yusuf Xos Hojib o‘quvchisini “yilqi – odam” tanlovi qarshisiga qo‘yganidek, A’zam O‘ktam o‘quvchisini “bug‘doy yeydigan – somon yeydigan” toifalardan qay biriga mansubligini aniqlab olishga undaydi. Albatta, bu shunchaki o‘xshashlik emas, yo‘q, bu – qonuniyat, zero, ikkisi ham – shoir, asl shoir esa el-yurti uchun muhim pallalarda xotirjam bo‘lolmaydi, yonib va yondirib yashaydi, to‘g‘ri va zarur gapni aytmay qo‘ymaydi – o‘zini ham, o‘zgani ham ayamaydi.

Aytilganlardan A’zam O‘ktam xalq maqollarining inkorchisi ekan degan yanglish tasavvur hosil bo‘lmasin, yo‘q, u bugunning gapini, bugun uchun zarur fikrni xalq hikmatlariga asoslangan holda – goh ularga ishora qilib, goh ularni rivojlantirib, goh esa inkor qilib va, muhimi, joy-joyiga yetib boradigan qilib aytish payida bo‘ldi, xolos. Shoir ayrim she’rlarida maqol, matal va iboralarni bir-biri bilan mazmuniy munosabatga kiritib, ularning ajib chatishuvida original fikr-xulosalarni ifoda etadi. Uning maqollarni qo‘llashi, tamsil qilsak, sirkdagi jonglyorning koptokchalarni o‘ynatishi kabi: “Hammayam qilishi mumkin!” deya o‘ylayverasan-u, lol bo‘lib tomosha ham qilaverasan. Ha, juda oddiy, sodda yozilgandek, lekin shunday yozish shu choqqacha birovning kallasiga kelgan emas-da! Ta’kidlab qo‘ymoq zarur: bu shunchaki soddalik emas, badiiy tafakkuri va uslubi kamolga yetgan ijodkorga xos soddalik, ya’ni yuksak darajadagi soddalik. Mana, bir she’ri “Ko‘rga hassa” deb nomlangan, sarlavhaning o‘zi – ibora, u she’r adresatiga ishora qiladiki, o‘qib bo‘liboq tanib olasiz uni:

Solmaganman og‘zimga talqon,
qo‘rqaman odamdan qo‘rqishga.
Xafa qilma - beparvo kulma,
Sindirib tashlasang-da,
Mendan o‘pkala —
Men - oynaman,
sening basharang qiyshiq.

Adresat – lirik qahramon idealiga zid odam, ya’ni uning “basharasi qiyshiq”; aksiga olib, lirik qahramon “og‘ziga talqon solgan emas”, ya’ni o‘ylaganini ochiq aytadigan xilidan. Ko‘ramizki, bu yerda ibora bilan maqol orasida mavjud mazmuniy zidlik reallashtiriladi, bir butunlikka – she’r maydoniga olib kiriladi. Natijada, xuddi ikki qutbiy zaryad to‘qnashganida uchqun chiqqanidek, original mazmun ro‘yobga chiqadi. Adresat – loqayd odam, beparvo odam, u lirik qahramonning gapiga hech qanday reaksiya bildirmay o‘taverishi, o‘z ishini bemalol davom ettiraverishi mumkin. Lekin lirik qahramon buni istamaydi, yana maqolni taftish qiladi “mendan o‘pkala” deya xitob etadi. Sababi, adresatning befarq

bo‘lmasligini, harakatga kelishini istaydi, chunki harakatgina o‘zgarish, yangilanish, tozarish garovi ekanligini teran anglaydi. Shu o‘rinda bu gaplar shoirning e’tiqodidan kelib chiqib aytilgani, biroq bu e’tiqod ko‘z-ko‘z etilmayotgani, faqat ifoda etilgan o‘y- fikrlaru his-tuyg‘ularga poydevor bo‘lganini alohida ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Ikkinchi misrada – “qo‘rqaman odamdan qo‘rqishga”iqrorida e’tiqod mujassam ifoda topayotir. Bu – odamdan qo‘rqib gapirmay turishga Allohdan qo‘rqadigan odam iqrori, buni u ko‘ksiga mushtlab aytayotgani yo‘q, shunchaki, aytib o‘tyapti, chunki bu uning uchun hayotiy a’molga aylanib bo‘lgan. Sirasi, buni ta’kidlash kerak, A’zam O‘ktam lirik qahramonida islomiy e’tiqod kishisi bilan zamonaviy inson hech bir zo‘rakiliksiz, sun’iyliksiz – uyg‘un birlashadiki, bu uning she’riyatiga xos, ehtimolki, eng muhim va marg‘ub jihatdir.

A’zam O‘ktamga xos uslub, ifoda yo‘sini o‘quvchidan diqqat bilan o‘qish, ohang tovlanishlariga diqqat bilan quloq tutish, zehniyat quvvatini mazmun jilolarini ilg‘ab olmoqqa safarbar etishni taqozo etadi. Tamsil qilsak, o‘quvchi she’rdagi o‘y-fikrlar, his-tuyg‘ular oqimida shoir bilan tengma-teng quloch otishi, ya’ni zarur paytda etagini tutib oladigan masofada bormog‘i zarur, aks holda, suvga bo‘kishi va yo cho‘kib ketishi hech gap emas. Mana, misol uchun “Botir” deb nomlangan she’rini olaylik:

Tili uzun, og‘zi polvon,
garchi paydo bo‘ldi kechroq:
sal kechikdi — yov qochdi.
Dadil-dadil so‘zlayotir,
Faqat... ketgan dushmanning
qaytish ehtimolin nazarda tutib.

Ilk misrada “tili uzun, og‘zi polvon” deyiladi, misra sarlavhaga zidlanadi – hech bir daromadsiz asosiy gapga o‘tiladi. Yaxshi bilasiz, Abdulla Qahhorning hikoyalarini tugundanoq boshlashi, ya’ni o‘quvchini hech bir tayyorgarliksiz hikoya voqeligiga olib kirib keta olishi haqida ko‘p aytilgan. A’zam O‘ktamning “Botir” she’ri ham kompozitsion qurilishi jihatidan shunga o‘xshash: unda boshlanma yo‘q. Sarlavha bilan ilk misrani qarshilantirish bilan asosiy konflikt ro‘yobga chiqarildi: ziyrak o‘quvchi “botir” bilan “tili uzunlik”, “og‘zi polvonlik” sifatlari mazmunan zidligini, gap aslo botir haqida emas, aksincha, shuning da’vosida-yu, aslida da’vosi puch kimsa haqida ekanligini fahmlaydi. Ikkinchi misrada “garchi paydo bo‘ldi kechroq” deyilishidan o‘quvchi tushunishning to‘g‘ri yo‘lida ekanligiga amin bo‘ladi, uchinchi misrada “yov qochdi” deyilishi bilanoq “Yov qochsa botir ko‘payar” maqoli yodiga keladi. Qarang: shoir shunchaki fikr ifodalayotgani, ya’ni o‘quvchiga o‘yidagini yetkazayotgani yo‘q, u fikrni o‘quvchi ongida izchil shakllantirib boryapti. She’r yozilgan davr o‘quvchisi, jumladan, A’zam O‘ktamning o‘zi ham yov qochganda qo‘ziqorinday bodrab chiqqan botirlarning juda-juda ko‘pini ko‘rgan: shu umumiy kontekst asosida shoirning o‘tkir kinoyasi yuzaga chiqadi. She’rning davomida esa bu kinoya yanada o‘tkirlashib, ijtimoiy tanqidning keskir tig‘i “dadil-dadil so‘zlagani” holda ketgan dushman qaytib qolishi ehtimolini nazardan qochirmayotgan munofiqlarga qaratiladi...

Darvoqe, kinoya posmodern adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri emasmidi?! Shunday, A’zam O‘ktamning davr bilan hamnafasligi, ijtimoiy va badiiy tafakkurdagi siljishlarni teran his qilgani postmodernizmga xos jihatlar ijodida bo‘y ko‘rsatishiga zamin bo‘lgan ko‘rinadi. Ma’lumki, an’analarni inkor etuvchi modernizmdan farqli o‘laroq, postmodernizm an’analarni o‘ziga singdirgan holda ularga kinoyaviy monosabatda bo‘ladi. Ko‘rib o‘tganimiz maqol-matallarga munosabatda shu narsa sezilmaydimi?! Yoki postmodernizm xaos deb bilgan olamni o‘yin tariqasida o‘zlashtirishga intilishi-chi?! A’zam O‘ktamning she’rlarida ham kinoya zamirida quv nigoh, aksar jiddiyat niqobini yuzga tortganicha dunyoning ishlari haqida o‘yinnamo mulohaza yuritayotgan odam ko‘zga tashlanmaydimi?! Nazarimda, shunday va bunga amin bo‘lish uchun “Muloyim xunuk”, “Chumchuq”, “Vahimachi”, “Hadikchiga”, “Kelin salom”, “Mehmondo‘stlik”, “Murosa”, “Aksta’sir”, “Peshona” kabi qator she’rlarni o‘qib-mushohada etish kifoya qiladi.

“Muloyim xunuk” deb qo‘yilgan sarlavhadagi ichki mazmuniy-mantiqiy ziddiyat (oksyumoron) she’r mazmun-mundarijasiga mos. Shoir nihoyatda jo‘n, hatto imzo desa kishining haqi ketadigan imzo haqida so‘zlaydi:

Shuyam imzo emish —
bir erinchoqning
mudrab qog‘oz tirnagani-ku...

Shundayku-ya, lekin shoir shugina “aji-buji” yozuv qancha-qancha odamni “uyg‘onmaydigan qilib uxlatishi” yoki “uyqusini o‘chirishi” mumkinligini ham yaxshi biladi. Ko‘rib turganimizdek, gap insonlar taqdiri bitta imzo bilan, shu imzo egasi istaganidek hal qilinishi mumkin bo‘lgan mustabid tuzum haqida. G‘oyat jiddiy mavzu, nihoyatda o‘tkir muammo – she’r yozilgan davr uchun esa yanada jiddiy va yanada o‘tkir! Lekin shoir shu haqda ham o‘ynab yozadi, so‘zlarni o‘ynatib, miyiqda alamli kulib yozadi. Xuddi yetkazilayotgan mazmun emas, uning qanday yetkazilayotgani ko‘proq muhimday tutadi o‘zini. Darvoqe, ritorikaga – mazmunning qanday ifoda etilayotganiga e’tiborning ustuvorligi ham posmodernizmga xos emasmi?! Shunday. Jumladan, “Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r” maqoli mana bu tarzda “o‘ynatilgan” quyidagi she’rda ham ifoda birlamchi:

Bas qil, endi kelmakda malol,
Chekaverma bunchalar oh-zor.
Uchirmasdan tuyani shamol,
Echki, senga osmonda ne bor?!

She’r “Vahimachi” deb nomlangani uchun o‘quvchi kinoya ob’ektini hech adashmay tanib oladi – uni o‘z atrofidagi shu toifa kishilarga, har qanday harakatda bir havf ko‘rishga o‘rgangan, hali yo‘q xatar qarshisida bo‘ynini qisib yashashga ko‘nikkan va boshqalarni ham shunga da’vat qiluvchi odamlarga qiyoslaydi. Ya’ni she’r o‘zining missiyasini bajaradi: shu toifa kishilar tutgan ijtimoiy mavqega nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, bundaylar bir qarashda u qadar ahamiyatli emasdek ko‘rinadigan, lekin taraqqiyot zarariga sezdirmaygina bo‘lsa ham muttasil ishlaydigan, boshqalarga “yuqishi” jihatidan

g‘oyat xavfli ijtimoiy-ruhiy illatdir. Shu o‘rinda yana bir muhim jihatga e’tiborni tortish joiz: she’rning ijtimoiy ahamiyati haqida aytilgan bu gaplar matnda yo‘q, lekin she’r o‘quvchini biz aytganga o‘xshash xulosalarga boshlaydi. Negaki, shoir ijtimoiy muhim muammolarni san’atkorona yo‘sinda – obrazli tarzda taqdim etadi, shuning uchun yozganlari eng avval so‘z san’atining vakili o‘laroq namoyon bo‘ladi. Bu esa, shubhasiz, ijodiy yetuklik belgisidir.

Yubiley bahona yozganlarim A’zam O‘ktam she’riyati haqida aytilishi mumkin bo‘lgan fikrlardan bir shingil, xolos. Umid qilamanki, bular shoir ijodining o‘ziga xos jihatlariga yosh hamkasblarimiz e’tiborini qaratar- da, ularning shoir merosini jiddiy va keng ko‘lamda o‘rgana boshlashlariga turtki bo‘lar. Zero, postmodern davri badiiy tafakkuri va A’zam O‘ktam ijodi orasidagi mushtaraklik, davrining o‘tkir ijtimoiy muammolarini san’atkorona aks ettirgani, o‘ziga xos ifoda yo‘sini, badiiy niyat ijrosi uchun poetik vositalarni qo‘llash mahorati, she’rlarining o‘ziga xos arxitektonikasi va tematik kompozitsiyasi kabi biz birozgina teginib o‘tgan masalalar maxsus tadqiq etishga loyiq, ular hozirgi o‘zbek she’riyatning poetik xususiyatlari haqida ahamiyatli ilmiy xulosa va umumlashmalar chiqarishga puxta asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘ktam. A. Ikki dunyo saodati: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1998.
2. O‘ktam. A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T. : Qatortol-Kamolot, 1999.
3. O‘ktam. A. Osmon yaqin,.. : She’rlar. – T. : Abu Matbuot - konsalt, 2011.
4. O‘ktam. A. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. –T. : Movarounnahr, 2014.

O‘YCHAN VA MAG‘RUR SHE’RIYAT

Abdulla ULUG‘OV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Iqtidorli shoir A’zam O‘ktam (1960–2002) – zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri. Uning gazeta-jurnallarda e’lon qilingan, to‘plam tarzida bosilib chiqqan she’rlari adabiy jamoatchilik va keng o‘quvchilar ommasi e’tiborini tortgan. Shoirning she’rlarida uning qalbidagi dard, iztirob, og‘riqlar aks etgan. Ular hech kimni befarq qoldirmaydi, o‘yga toldiradi, mushohada qilishga, halol yashashga undaydi. Maqolada “Taraddud”, “Qirqinchi bahor”, “Sahar vaqti yurak yig‘lar... ” to‘plamlari muallifining she’rlariga xos xususiyatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mushohada, A’zam O‘ktam, shoir, she’r, ijtimoiy hayot, e’tiqod, ishonch, din, o‘ychan, dardkash, qadriyat.

Annotation: The talented poet Azam Uktam (1960–2002) is one of the brightest representatives of modern Uzbek poetry. His poems, published in newspapers and magazines and published in collections, have attracted the attention of the literary community and a wide audience of readers. The poet's poems reflect the pain, suffering, and anguish in his heart. They leave no one indifferent, fill one with thought, encourage reflection, and live honestly. The article discusses the characteristics of the poems of the author of the collections “Taraddud”, “Kirqinchi Bahor”, “Sahar Wami Yurak Yiğlar...”.

Keywords: reflection, Azam Uktam, poet, poem, social life, belief, faith, religion, thoughtful, suffering, value.

Qalbga chuqur ta’sir etib, unda turli tuyg‘ular hosil qiladigan, o‘ylab, mushohada yuritib, mehnat qilishga rag‘batlantiradigan she’rlar chuqur hayotiy asosga ega bo‘ladi. Ayni xildagi she’rlarga insonparvarlik ruhiga yo‘g‘rilgan she’riyat namunasi sifatida qaraladi. Taniqli shoir A’zam O‘ktam ijodiy merosida bunday she’rlar katta salmoqni tashkil etadi. Insonparvarlik ruhi baland she’rlar, kishini o‘ychan qilib qo‘yadi, qalbini poklaydi.. Ular boshqa turdagi she’rlardan avvalo shu jihati bilan ajralib turadi. Bunday she’rlar hech qachon kishini e’tiborsiz qoldirmaydi, har gal o‘qiganda ezgu tuyg‘ular uyg‘otib, fikrlashga, mehnat qilishga chorlaydi. Zero, shoir, adibning asarlari uning xulqi, tabiatidagi talaygina jihatlarni o‘zida aks ettiradi. Chunki har bir ijodkor o‘zi ko‘rib kuzatgan hodisalarni va ular ta’sirida his qilgan holat, kechinmalarini qalamga oladi. A’zam O‘ktamning she’rlari u yurish-turishi, xatti-harakati, qarashlari, so‘zlash tarzi, ovoziga salobat bera biladigan, viqor bilan doim oldinda yurishga intiladigan, davralarda o‘zining borligini bildirishga harakat qiladigan, taniqli kishilar bilan tanishishga talpinib, ularning e’tiborini qozonganidan quvonadigan, so‘zamollarga mahliyo bo‘lib qaraydigan, ko‘pchilik manfaati uchun shaxsiy huzur-halovatidan bemalol voz kecha oladigan, uy-ro‘zg‘or yumushlari, kundalik turmush tashvishlaridan ko‘ra, umumga tegishli muammolar xususida gapirishni xush ko‘radigan, atrofdagilar diqqatini tortishga beparvo bo‘lmagan, halollikni e’zozlaydigan, och qolganida ham haromdan hazar qiladigan, har qanday vaziyatda adolatni yoqlaydigan, so‘zning salmog‘ini his qiladigan, uning ma’no jilolarini farqlashdan zavqlanadigan, o‘z qadrini biladigan, g‘ururi baland inson bo‘lganidan dalolat beradi. Baland bo‘yli, keng yelkali, qaddi- qomati kelishgan, salmoqlab so‘zlaydigan, qomatini tik tutib, boshini xiyol eggancha shaxdam qadam tashlab, allanimadan bezovtaday o‘ychan va mag‘rur yuradigan, bug‘doyrang, yuz-ko‘zi ko‘rkam bu alomat yigitning ko‘rinishiga erkaklar tan berardi, qizlar ko‘zining osti bilan mo‘ltillab termulishdan o‘zini tiyolmasdi, ayollar suqlanib-suqlanib qarardi. Ko‘rinishining o‘ziyoq kishining e’tiborini tortib, havasini qo‘zg‘aydigan bu yigit shoirdan ko‘ra, kattaroq amaldorga, arbobga o‘xshardi. Uning suratidagi ana shu holat siyratini aks ettirgan she’rlarida ham yaqqol bilinadi. A’zam O‘ktamning she’rlari xashaki, mayda, jo‘n “timtima”lardan emas. Shoirning “Taraddud”, “Qirqinchi bahor” to‘plamlaridagi

she’rlarning aksariyati adabiyotda har kuni paydo bo‘lavermaydigan asarlar sirasiga kiradi. Ammo ana shu e’tirofimni hayotligida o‘ziga izhor etib yoki matbuotda e’lon qilib, A’zam O‘ktamni quvontirmaganimdan afsuslanaman. A’zam O‘ktamning she’rlari to‘g‘risidagi bu fikrimni Hulkar Hamroevaga aytganimda, u ko‘zlariga yosh olib, mahzun bo‘lib qolgan edi. A’zam O‘ktamning to‘plamlari ijtimoiy-ma’rifiy qimmati baland she’rlardan tarkib topgan. Vaqt o‘tgan sari ularning qadri oshib, salmog‘i ortib boraveradi. Chunki A’zam O‘ktamning o‘zi kabi salobatli, viqorli she’rlari har bir kishini o‘zini anglash, hayot o‘tkinchiligini his qilish, uning har bir lahzasini qadrlash to‘g‘risida va yana dunyoning boshqa ko‘p muammolari xususida o‘ylantiradi. Bu esa shoirning so‘z qadrini bilgani, so‘z dunyoning gultoji insonni o‘zgartira oladigan ilohiy vosita ekanini his qilganidan darak beradi. Xususan, “Taraddud” to‘plami A’zam O‘ktam har bir she’ri haqida istagancha gapirish, istagan tarzda talqin qilish mumkin bo‘lgan shoirlar sirasiga kirishiga isbot bo‘la oladi. “Taraddud” to‘plamidagi she’rlar ermak uchun, havas uchun yozilmagani, ular hayot haqida azoblanib o‘ylash, so‘z ustida iztirob chekishning “meva”si ekani bilinib turadi. Chunki A’zam O‘ktam el-yurt ahvoliga befarq bo‘lmagan inson sifatida ko‘pchilikning qalbini qiynoqqa soladigan, odamlarning tili uchida turadigan hodisalarni qalamga olgan. Jumladan:

“Bugun g‘amgin tashlashar nazar,
Hol so‘rashar astagina yo
Do‘ppi yoxud chopon kiysang gar,
Jiddiy, xomush yursang mabodo.
Buni, hatto, o‘ris ham bilar,
Ko‘nikkan bu el ahvoliga.
Kimdir bo‘lar, nimadir bo‘lar
O‘zbek qaytsa asl holiga!”

degan. Shoir ushbu misralar bitilgan she’riga “Izoh shart emas” deb sarlavha qo‘ygan. U istibdod davrida xalqimiz milliy o‘zligidan mahrum qilinganiga, to‘g‘rirog‘i, shunday ayanch ahvolga tushib qolganiga shu tarzda ishora qilgan. “Izoh shart emas” achchiq iztirob silqigan bu o‘tkir kinoya har bir kishini darhol sergak torttiradi. Chunki shoir “Izoh shart emas” deya barchamizning haqiqiy holatimizni ayon etadi. Xalqimizning tashqi milliy belgilaridan sanalgan do‘ppi va chopon A’zam O‘ktam she’rlarida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoir o‘z she’rlarida kishilarimiz faqat to‘y tantanalarida va aza marosimlarida o‘zining asl holatiga tushadi. Milliylikni namoyon qilishning bu tarzi mavsumiy xarakterda bo‘lib, u sanoqli soatlar, sanoqli kunlar bilan cheklanadi. Boshqa paytda kishilarimiz milliy qadriyatlarni butkul unutib qo‘yadi, deydi. Millatsevar kishilar esa eldoshlarini hamisha asl holida ko‘rishni istaydi. Lekin shiddat bilan o‘zgaradigan zamon juda ko‘p yangi narsalarni taqdim etib, barcha xalqlarning turmush tarziga muttasil o‘zgarishlar olib kiradi. U, jumladan, milliy qadriyatlarga “tahrir” kiritib, birinchi galda, kiyim-kechak, liboslarga bosim o‘tkazadi. Shu boisdan qizi onasi liboslari bichimini yoqtirmaydi, buvisining kovushini kiyib yurishdan uyaladi. O‘g‘ilning ahvoli ham shu – otasi singari chopon, do‘ppida o‘qishga, ishga bormaydi. Chunki zamona avlodlarning xuddi ajdodlari singari kiyinishi, ro‘zg‘or tutishini “hazm”

qilmaydi. Shu bois zamonning ko‘ziga yomon ko‘rinmaslik uchun hozir Osiyoda ham, Yevropada ham, Amerika qit’asida ham, Avstraliyada ham kundalik hayotda odamlar deyarli bir xil kiyinishadi. Bugun dunyoning barcha mamlakatlarida kishilarning ustida “Made in China” tamg‘asi bosilgan liboslar turibdi. Xitoyda ishlab chiqarilgan zamonaviy bichimdagi kiyim-kechaklarni nasroniylar ham, yahudiylar ham, musulmonlar ham hech bir moneliksiz xarid qilishadi. Bundan do‘ppi, chopon singari ust-bosh buyumlari milliylikning shunchaki surati – tashqi belgisi ekani, insonning libosi uning siyrati – haqiqiy holatini ko‘rsatib berolmasligi oydinlashadi. A’zam O‘ktamning boshqa she’rlari ham kishini ana shunday fikrlashga undab, qalbda iliq hislar uyg‘otadi.

“Taraddud” to‘plamidagi she’rlar A’zam O‘ktam o‘ychan, vazmin, bosiq, odamlarga mehribon shoir, islomiy aqidalarga amal qilishga intilgan el- yurt tashvishi bilan yashagan dardkash inson ekanini ko‘rsatib turadi. Undagi she’rlarda shoir o‘z-o‘zi bilan savol-javob qilib, zamon va makonlar osha kishilarga murojaat etadi. Natijada, “Izoh shart emas”, “Ishq haqqi”, “Ne’mat”, “Ibodat” she’rlarini o‘qigan she’rxon o‘z-o‘zidan o‘yga botadi. Shoir o‘rtanib, azoblanib bitgan satrlarni o‘qiyotganida kishining vujudini hayrat, zavq va yana allaqanday tuyg‘ular chulg‘ab oladi. Anig‘i shuki, A’zam O‘ktamning aksariyat bitiklari she’r sirli hodisa ekani, unda qandaydir hikmat yashiringanigа ishontiradi. Shoirning “Taraddud” va boshqa to‘plamlari hayot va adabiyotning ko‘p masalalari, inson tabiatining sirli jumboqlari to‘g‘risida mulohaza yuritish – mehnat qilish imkonini beradi. Muttasil ijodiy mehnat – ko‘p mutolaa qilish, hayotni sinchiklab kuzatish, ko‘rib kechirgan, eshitgan hodisalari, his qilgan holatlarini so‘z bilan ifodalash uchun mashaqqat chekish “meva”si bo‘lgan she’rlar shunday xususiyat va shunday salmoqqa ega bo‘ladi. A’zam O‘ktam viqorli, o‘ychan, vazmin, bosiq inson bo‘lgani, muttasil she’r dardida yashagani, so‘zlarni xuddi qo‘lida salmoqlab ushlaganday satrlarga tizgan shoir ekaniga ishonch hosil qilish uchun uning birgina “Yo‘l” she’rini o‘qish kifoya:

“Yil yiqilar yilning ustiga,
Xotiralar tipirchilar xit.
Yelkam og‘rir, qaqshar ustuxon,
Yuk ostida siltanar umid.
Beraymikan taqdirimga tan,
Nahot bari tugadi yohu!
Yildan-yilga yetaklab o‘tgan –
Orzularim ushalmadi-ku?!
Sergak qadam tashlayman, axir,
Yurar yo‘lim — qalin tikanzor.
Benihoyat uzundir umr,
Bittagina oq ko‘ylagim bor.
Yuksaklarga cho‘zibman qo‘lni,
Omon yetay unga ishqilib.
Tanladim sal og‘irroq yo‘lni,
Sal yengilroq jon berayin deb.

Qadam bosish tobora qiyin,
Umr kiftda. Qaqshar ustuxon.
Olg‘a qarab yurganim sayin
Yil yiqilar yilning ustiga... ”.

Bu she’rdagi “Yil yiqilar yilning ustiga” satrida o‘tayotgan yillar varaqlanadigan taqvimga o‘xshatiladi. Ammo taqvim to‘g‘risida bir so‘z ham aytilmaydi. Avvallari varaqlanadigan ixcham yil taqvimi – kalendar har bir xonadonda turardi. Shoirning “Yo‘l” she’ridagi dastlabki misra o‘sha yaqin zamonni eslatib, shirin xotiralarga boshlaydi va undagi

“Yildan yilga yetaklab o‘tgan
Orzularim ushalmadi-ku?!”

satrlari qalbni obdon og‘ritib, kishini dabdurustdan o‘ychan qilib qo‘yadi hamda ko‘cha-kuyda ketayotganida nimadandir diqqati oshganday boshini xiyol oldinga egib yuradigan A’zam O‘ktamning viqorli qiyofasini xotirada jonlantiradi. She’rdagi “Bittagina oq ko‘ylagim bor” satri esa halqumini pok tutib, haromdan, qalloblikdan hazar qilib o‘tgan shoirning asl ahvolidan xabardor etadi. Haromdan hazar qiladiganlar, o‘z-o‘zidan ayonki, uchar ustamonlarning istagini hech qachon qondirolmaydi, qanoatlantirolmaydi. Ucharlar boriga qanoat qilib, ro‘zg‘orini amal-taqal qilib tebratadiganlarni ko‘rganida o‘z- o‘zidan asabi buzilib, ular bilan yumma talashib, urishgisi kelaveradi. Ucharlarning bu tug‘ma talantiga tan berib, ular bilan murosa yo‘lini tutmaganlar esa xo‘p azobga qoladi.

“Yo‘l” she’ridagi satrlardan qalloblarga to‘la bu dunyo bilan murosa qilolmagan shoirning qalbini azoblagan achchiq alam, iztirob silqib turadi. Bu she’r tevarak-atrofdagi adolatsizlik, nopoklik, aldamchilik, riyodan ko‘p azob chekkan kishilarning alamli faryodi bo‘lib jaranglaydi. “Yo‘l”da sodda, ishonuvchan odamlarning ezgu orzu-istaklari ro‘yobga chiqishiga nafsi hakalak otgan, qanoat neligini bilmaydigan, boshqalarga bepisand qaraydigan ucharlar ko‘p to‘sqinlik qilishi to‘g‘risida so‘z ketadi. Yurtning dardkash shoiri ushbu she’rlarida ham boshqa she’rlaridagi kabi shaxsiy kechinmalari orqali umummanfaatiga daxldor muammoga e’tibor qaratadi. “Yo‘l” she’rida shoir o‘ziga ko‘p vaqt hamroh bo‘ladigan ruhiy holatni, armon, istaklarni, hayotda o‘zi amal qilgan aqidani ifodalagan. Umuman, A’zam O‘ktamning she’rlarida uning turlicha kayfiyati, shoirona ruhining parvozlari aks etadi.

“Taraddud” to‘plamidagi she’rlarning lirik qahramoni, aniqrog‘i, ularni bitgan shoir qalloblar makridan, manfaatparast, xudbin kimsalar fitnasidan, yolg‘onchilarga aldanishdan toliqib, umidsizlikka tushgan va qalbidan ma’yuslik arimay qolgan insondek taassurot qoldiradi. Shoir bu she’rlarida o‘zi yashab turgan muhitdan, atrofidagilarining riyokorligidan azoblanib, odamlarga ishonchi so‘ngan kishilarning siyratini ochib beradi. Bunday xususiyat faqat oriyati baland, o‘z qadrini biladigan ijodkorlar asarlarida bo‘rtib turadi. A’zam O‘ktam o‘z she’rlarida “Hamma o‘z Vatanini menday sevsin, dinini menday qadrlasin!” deydi. Undagi bunday dadillik qayoqdan paydo bo‘lgani, buning boisi nimadaligini shoirning she’rlarini o‘qiganlar, albatta, tushunib yetadi. “Taraddud”, “Qirqinchi bahor” to‘plamlaridagi she’rlaridan shu ayon bo‘ladiki, odamlarning buqalamunligi,

yolg‘onchiligi, qallobligi, qo‘rqoqligi A’zam O‘ktamning qonini qaynatadi. Shoir ularga qarata: “Sizlar uchun or-nomus ham, din va diyonat ham, Vatan va millat ham bekorchi narsa. Bunday ahmoqlikdan uyalmaysizlarmi?” degisi keladi. A’zam O‘ktamning ko‘pgina she’rlari xayolda shoir qiyofasini odamlarga murojaat qilayotgan bir holatda jonlantiradi. Bu she’rlar A’zam O‘ktam hayotning norasoliklarini o‘ylayverib, diqqati oshgani, lekin u tevarak-atrofdagi odamlarning qallobliklaridan qalbi ozurda bo‘lib qolganini sezdirmaslik uchun o‘zini mag‘rur va jiddiy qilib ko‘rsatishga harakat qilganini oydinlashtiradi.

Shoir she’rlarining birida “Asablar qaqshaydi dunyoga boqsam” degan. Demak, u tevarak-atrofida kechayotgan voqelikka hech qachon befarq qaramagan. Aniqrog‘i, qarayolmagan. Shuning uchun yuqoridagi satr bitilgan she’rida

“Shoirmas so‘zni ming ko‘ylarga solgan,
She’rni deb ming ko‘yga tushganlar shoir!”

deya hayqirgan. Demak, u she’rni dunyoning barcha moddiy ne’matlaridan, turmushning huzur-halovatidan baland deb bilgan va odamlarning dunyoqarashini ezgu so‘z o‘zgartirishiga, bunda she’r vosita bo‘lishiga astoydil ishongan. Shuning uchun: “She’rsiz – bedard kunlar bisyor bunchalar” deb nola qilgan. Demak, u she’r bitish iztirobi fikru zikrini butkul egallab olganidan “ro‘zg‘or” atalmish kundalik turmush tashvishlariga o‘ralashib, ko‘pchilikning biri bo‘lib umrguzaronlik qilishni istamagan. To‘g‘rirog‘i, tug‘ma tabiati uning bunday yashashiga yo‘l qo‘ymagan. Yuqorida iqtiboslar keltirilgan she’riga shoir “Onamga” deb sarlavha qo‘ygan. Chunki u ushbu she’rni:

“Yig‘iga o‘xshagan tabassum bilan
Yana qoshingizga qaytmoqdadirman.
Bu yerda hech kimsa parvo qilmagan,
Dil rozimni sizga aytmoqdadirman”

deya onasiga murojaat qilish bilan boshlagan va keyin unga:

“Men osmondan yerga tushib qolganman,
Do‘stlar xiyonati boshimni egib.
Muhabbat, visoldan bezib qolgandim
Hatto, baxtiyorlik jonimga tegib”

deb alam, iztirobga to‘lib so‘zlagan. “Qirqinchi bahor” to‘plami muallifi “Onamga” she’rida agar ijodkor hayot lazzatlariga o‘ch bo‘lib, aysh-ishratga berilsa, uni ilhom tark etishiga ishora qilib:

“Shodumon kunlarim ortiq ko‘paydi
Ilhom meni sernoz malikalardek
“Fuqaro, fuqaro, fu, qaro! deydi”

deya alohida ta’kidlagan. Chunki u shoir, yozuvchi, rassom, xonanda, kompozitorlardan ko‘pginasi ichkilikka berilib, ayanchli ahvolga tushgani, oqibatda, iste’dodi so‘nganini ko‘rib kuzatgan. O‘zi uchun emas, boshqalar uchun ko‘proq jon kuydirgan A’zam O‘ktam sharobxo‘rlik, kashandalik, shariat taqiqlagan yana boshqa iflos ishlar iste’dodli insonlarni ham tubanlashtirib, beburd, subutsiz qilib qo‘yishi, ularni boshqalar emas, oilasi davrasida ham beobro‘, behurmat kimsaga aylantirishini kuzatib, ko‘p aziyat chekkan va ana shu girdobga tushib qolganlarni

bu yo‘ldan qaytishga da’vat qilgan. Chunki aysh-ishratning har qanday turi vujudni zararli virus kabi yemirib ado qilish barobarida kishining imoni, vijdonini ham g‘orat etib, uni subutsiz, yolg‘onchi, qallob, uyatsiz, pastkash kimsaga aylantiradi. Maishatga berilgan kimsalarning qiyofasi allaqanday xunuklashib, badbashara bo‘lib qoladi. “Taraddud” to‘plamidagi she’rlar A’zam O‘ktam ana shu haqiqatni ko‘ra olgani, islom dini insoniyatni rasvogarchilik, tubanlikning har qanday ko‘rinishidan muhofaza qila oladigan mustahkam qo‘rg‘on ekanini chuqur his qilganini namoyish etadi. Rostdan ham islom dini mast qiluvchi narsalar iste’mol qilishni taqiqlamaganida bashariyatning ahvoli g‘oyatda ayanchli bo‘lardi. El- yurt g‘ami bilan yashagan A’zam O‘ktam bu ilohiy dinning tartib-talablariga amal qilmaydiganlar, juda kuchli, aqlli, iste’dodli ekaniga qaramasdan xor-zor holda kun kechirishini ko‘rib, behad ta’sirlangan va o‘zining bilib-bilmasdan qilgan gunohlari uchun chin dilidan tavba-tazarru qilgan. Aslida ana shu holat – istig‘for uni o‘ychan va dardkash she’rlar bitishga ilhomlantirgan. Chunki u, yuqorida qayd etilganidek, ezgu so‘z vositasida she’r orqali odamlarni haq yo‘lga boshlash, nafsiga aldanganlarga haqiqatni tanitish mumkinligiga o‘zining hayoti tajribasi orqali astoydil ishonch hosil qilgan. Shoirning turli kayfiyat, kechinmalari, hayotining turli bosqichlari aks etgan she’rlari, ayniqsa, “Taraddud” to‘plami shunday xulosa chiqarish uchun to‘la asos beradi. O‘ylatadigan, mushohadaga undaydigan hikmatomuz she’rlar esa odamlarni ma’naviy oziqlantiradigan muhim manba sanaladi. Agar bu manbadan mahrum bo‘lganida odamzod hozirgidek koinot gultoji emas, balki Yer yuzidagi eng ojiz mavjudot bo‘lib qolardi. Shuning uchun odam faqat moddiy ne’matlar tufayli tirik emas. Insonning yashashi, hayot kechirishi uchun ko‘zga ko‘rinadigan moddiy ne’matlar qanchalik zarur bo‘lsa, ko‘zga tashlanmaydigan nomoddiy, ya’ni ma’naviy ne’matlar ham shunchalik shart. Chunki non, suv kabi moddiy ne’matlar insonning vujudini oziqlantirsa, alla, qo‘shiq, musiqa, she’r, surat kabi nomoddiy ne’matlar uning qalbi, ruhiga quvvat bo‘lib quyiladi, deyiladi. A’zam O‘ktamning ijodiy merosi shunday salmoqqa ega. El-yurt dardida yashagan o‘ychan shoirning oh-nolasini ifodalagan she’rlari kishilarni mushohada qilishga, fikrlashga, halol yashashga, oqibatli bo‘lishga undab, ularning qalb og‘riqlarini olar ekan, shoir tiriklarning koriga yarab, ular bilan hamnafas yashayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oripov A. Ehtiyoj farzandi: Adabiy-tanqidiy maqolalar, suhbatlar, badiiy publitsistika. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1988.
2. Muxtor A. She’r – shoirning vijdoni: maqolalar, suhbatlar, kundaliklar, qaydlar, janrini topmagan satrlar, bibliografiya. – Toshkent: “Mumtoz so’z”, 2011.
3. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar: She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
4. O‘ktam A. Ziyorat: She’rlar. – Farg‘ona: “Yangiqo‘rg‘on” nashriyoti, 1992.
5. O‘ktam A. Ikki dunyo saodati: She’rlar. – Toshkent: “Cho‘lpon” 1998.
6. O‘ktam A. Kuzatish: She’rlar. – Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1990.

7. O‘ktam A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – Toshkent: “Qatortol-Kamolot”, 1999.
8. O‘ktam A. Osmon yaqin...: She’rlar. – Toshkent: “Abu Matbuot-konsalt”, 2011.
9. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. –Toshkent: Movarounnahr, 2014.
10. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: “Cho‘lpon” 1993.
11. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar.–Toshkent: “Muharrir”, 2019.
12. Eshonqul N. Mendan “men”gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: “Akademnashr”, 2014.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: “Sharq”, 2004.
14. Parfi R. Sabr daraxti: She’rlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
15. Cho‘lpon. Adabiyot nadir: Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho‘lpon haqida xotiralar. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 1994.
16. Vohidov E. So‘z latofati. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2018.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA RUHIYAT TASVIRI

Qurdosh QAHRAMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada A’zam O‘ktam ijodi haqida so‘z yuritiladi hamda uning o‘ziga xos badiiy olami yoritib beriladi.
Kalit so‘zlar: ruhiyat, tasvir, evrilish, ma’naviy inqiroz, badiiy-estetik talqin, mavzu, g‘oya, obraz, badiiy olam, o‘zlikni anglash.
Annotation: This article discusses the work of Azam Uktam and describes his unique artistic world.
Keywords: spirituality, image, evolution, spiritual crisis, artistic and aesthetic interpretation, theme, idea, image, artistic world, self-awareness.

XX asrda o‘zbek xalqining boshidan o‘tgan kechmishlar badiiy tafakkur orqali bugun ham odamlarni uyg‘otmoqda. Yetmishinchi yillar oxiri saksoninchi yillar she’riyati evrilishlar davri boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa o‘tish davrida ro‘y bera boshlagan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy inqirozlar nafaqat odamlar dunyoqarashida, ayni paytda badiiy tafakkurda ham aks- sado bera boshladi. Bu davr she’riyatida ijtimoiy-ma’naviy, badiiy-estetik talqinlar birdek, uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘la boshlagan edi. Xalqning ilg‘or ziyoli qatlami ongu-shuurida o‘zlikni anglashga kuchli ishtiyoq bo‘y ko‘rsata boshladi.

Bu jarayon ayniqsa ijodga endi qadam qo‘yayotgan bir guruh yosh ijodkorlar, shu jumladan A’zam O‘ktam she’rlarida ham o‘ziga xos tarzda ko‘zga tashlanadi. Shoirning aksariyat she’rlari davr o‘zgarishi bilan uyg‘unlashgan holda, baqadamti bitilganini ko‘ramiz. Uning she’rlarida odam va olam bosh mavzu bo‘ldi.

Inson qalb dramalari, ruhiy olam evrilishlari ikki asosga ko‘ra – shoir badiiy tafakkuri davr o‘zgarishlariga faol munosabat shaklida shakllandi, she’r bo‘lib qog‘ozga to‘kildi. Ayni paytda ijtimoiy borliqdagi yangilanishlar, evrilishlar, baland-past po‘rtanalar lirik “men” ongu-shuurida aks-sado berdi va bu holat ham she’riy satrlarga muhrlandi. Mana shu ikki asos shoirning lirik qahramoni ma’naviy olamini to‘la-to‘kis namoyon etdi.

Binobarin, A’zam O‘ktam she’riyatining xos xususiyati shoir tuyg‘ularining davr o‘zgarishi bilan birikib, uyg‘unlashib ketishida ko‘rinadi. Shoir ijodi bilan tanisharkanmiz, uning aksariyat she’rlarida tasvirlanayotgan qalb kechinmalari tashqi olamda ro‘y berayotgan voqelikka munosabat sifatida namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Bunday munosabat hech shubhasiz o‘sha yillar she’riyat maydoniga kirib kelgan ko‘pgina yosh shoirlar uchun mushtarak holatlardan biri edi. Lirik kechinma bilan faol grajdanlik tuyg‘usini bir butun holda tasvirlash o‘sha davr she’riyatining yetakchi belgilaridan biri hisoblanadi. Buni biz shoirning “Onamga”, “Andijon” kabi she’rlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Bir qarashda “Onamga” she’rida “yig‘iga o‘xshagan tabassum bilan” ona bag‘riga shoshilayotgan farzand tuyg‘ulari aks etgandek taasurot qoldiradi. Lekin she’rni o‘qish davomida uning ma’no qatlamlarida kengroq, shoirning nafaqat ijtimoiy, balki ijodiy-estetik prinsiplari ham o‘ziga xos badiiy shakllarda ifodalanayotganiga guvoh bo‘lamiz. She’rda she’r va shoirlik, vatan va vatanparvarlik hamda lirik qahramon “men”i qalbini nurlantirayotgan ishq motivi o‘ziga xos rangin bo‘yoqlarda tasvir etiladi. She’rda “so‘zni ming ko‘yga solgan” emas, aksincha she’r deb o‘zini ming bir qiynoqqa duchor qilganlar, she’r dardi, she’r ishqi bilan yonganlar haqiqiy shoirlardir, degan konsepsiya yetakchilik qiladi. Bu o‘rinda shoir hatto shodumon kunlarning ko‘payishidan ham norozi. She’r va shoirlikning takrorlanmas ijodiy jarayon ekanini shoir quyidagicha tasvirlaydi.

Shoirmas so‘zni ming ko‘ylarga solgan,
She’rni deb ming ko‘yga tushganlar shoir!

Bir qarashda bu fikrlarda she’r va shoirlikning o‘ziga xos jihatini yoritish maqsad qilingandek tuyulsa-da, mohiyatan she’riyat darddan tug‘iladi, degan ma’noning o‘ziga xos bo‘lgan badiiy ko‘rinishi sifatida baholanishga loyiq. Bugina emas. She’rda nafaqat she’r va shoirlik, balki shoirlikni o‘zining qismati deb bilgan tom ma’nodagi ijodkor shaxsiyati ham o‘z tajassumini topmoqda. Shoir naznida bunday shaxslar nafaqat o‘z ko‘ngli olamini, balki hayotda bo‘layotgan voqea hodisalarga ham faol munosabatini ifoda etishlari lozim. Buni quyidagi o‘tli satrlarda bayon etadi.

Asablar qaqshaydi dunyoga boqsam –
Hanuz to‘qnash kelar yetimlar, tullar.
Urush o‘chog‘ining nafsi yomondir –
Unga o‘tin bo‘lar bolalar, gullar!...

A’zam O‘ktam she’rda fikrlarni davom ettirib, shoir shaxsiyatini vatan degan muqaddas kalom bilan bog‘laydi va yuksak vatanparvarlik motivlarini ilgari suradi. “Biz vatanga kerak, Bizlarga vatan!// Yasholmasang butun hayoting bekor – bir qalbda ishq bo‘lib, saodat bo‘lib”. Ko‘rinib turibdiki, shoir she’ri garchi onaga

atalgan bo‘lsa-da, faqat shaxsiy his-tuyg‘ular bilan bog‘lanib qolayotgani yo‘q, ya’ni onaga bo‘lgan sog‘inch tuyg‘ularinigina ifadalayotgan yo‘q. Balki onaga bo‘lgan ehtirom vositasida she’r va shoirlik, dunyo va vatan kabi ijtimoiy-ma’naviy motivlar ham she’r mohiyatiga singdirib yuboriladi. Aslida ham insonning tirikligi mana shunday yaratuvchanlik bilan, qalbda ishq degan tuyg‘u bilan yashash zavqida o‘zligini namoyon etadi. Shoir she’rlarida vatanparvarlik motivlari yuksak pardalarda kuylanadi. “Andijon” nomli she’rda shoir tug‘ilgan yurtga bo‘lgan chuqur farzandlik mehri aks etadi. Ona yurt qadri balandligi eng avvalo, shu zaminda yashayotgan odamlarining insoniy sifatlari bilan belgilanadi, deydi shoir. She’rda o‘z tug‘ilib o‘sgan maskanini ulug‘lar ekan “Dunyoning hech qaysi burchida yo‘qdir // Yo‘qdir Kuyganyor deb atalgan maskan” degan ta’riflarni beradi. Unga bo‘lgan mehrini quyidagicha chiroyli so‘z o‘yini bilan ifodalaydi.

Men ham bir kuygan yor bo‘lib ketarman,
Endi sho‘rlik ko‘ngil bir umr to‘lmas.
Voh, endi angladim – nechun bu yurtdan
“Anda jon qoldi” deb ketmasa bo‘lmas!...

Shoirning mahorati tug‘ilgan qishlog‘i nomini keyinga misralarda so‘z birikmasi sifatida poetiklashtirib, yor ishqida kuygan oshiq timsolini yaratishida, Andijonni “Anda jon qoldi” degan mashhur tarixiy iboraga aylantirishida ko‘rinadi.

Shoirning bu tipdagi she’rlarida xalqimizga xos bo‘lgan kamtarlik, andishalilik ham xarakterli detallar orqali topqirlik bilan misralarda bitiladiki, buni shoir badiiy olamini ko‘rsatuvchi iste’dod sifatida bilan baholash mumkin.

Kesmadilar egilgan boshni.
Oro kirib qoldi,
Uning joniga,
G‘ilofdagi qilich - andisha.

Shoir she’rda xalqimizning “Egilgan boshni qilich kesmas” maqolini poetik shaklga solib, unga ijodiy yondoshib millat mintalitetiga xos bo‘lgan andishaning mazmunini ham kengaytirib yuboradi. Andishaning “g‘ilofdagi qilich” ekani “egilgan bosh”ning ojizligini emas, balki kuch- qudratini namoyon etmoqdaki, bu kontras tasvir xalqimizning yana bir yovqur xislatini namoyon qilishga yo‘naltiradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, A.O‘ktam she’rlarining aksariyati o‘zining hayotiy voqeligi bilan, davrning qaysi bir nuqtasi bilan uzviy bog‘liq holda yaratilganini ko‘ramiz. Shoirning iqrornomalari, haqiqatni bayon qilishlari sodda, samimiy qalb tug‘yonlari nihoyatda jonli va tabiiy tarzda tasvir etiladi. Shoirning “Yupanch” nomli she’ri qizi To‘marisga bag‘ishlangan. Shoir endigina tug‘ilgan qizi oldidagi xijolatbozligidan, uyatli ekanidan iztirob chekadi.

Sendan juda xijolatdaman,
uyatliman sening oldingda:
Ijara uyda tug‘ilasan, bolam.

Biz mazkur she’rda qishloqdan ezgu niyatlar bilan ilm-u ijod qilaman, deya kelgan yoshlarning aksariyati boshidan kechirgan manzaraning guvohi bo‘lamiz. O‘n yillab ijara uylarda turib katta shaharda o‘z o‘rnini topishga, uyli-joyli bo‘lishga harakat qilgan bu jamoaning barchasi ham muayyan vaqt o‘tgach shoirdek

rostgo‘ylik bilan o‘z iqrornomalarini bitavermaydi. She’rdagi Dusya xola ham hammaga tanish obrazlardan biridir. Ijarada yashagan jot borki, to o‘z kulbasiga ega bo‘lguncha, bu kabi dusiya xolalar sabab yuragining bir chekkasida hadik bilan yashagani haqiqat. Shoir o‘z vatanida Dusiya xolalarnikida ijarada yashashidan xijolat chekar ekan, qizi To‘marisning o‘zidan ko‘ra epchilroq, jur’atliroq bo‘lishini tilab quyidagicha murojaat qiladi.

Ayira olarsan o‘z haqqingni sen,
Kechirasan otangni ham bemalol.
Har narsani tushunadigan,
Keng fe’lliroq bo‘lsang kerak,
Ijara uyda tug‘ilgan bolam...

Bu mavzu shoirning boshqa she’rlarida ham davom ettirilib, davrga nisbatan o‘tkir aybnomaga aylanadi. Shu jihatdan “Voqea” she’ri xarakterli. She’rda o‘tgan asrning saksoninchi yillarida ro‘y bergan hayotiy vokea – urush yillari Stalin qatag‘oniga uchrab O‘zbekiston kelib qolgan tatarlarning o‘z vatanlariga qaytishi vokeasi asos qilib olinadi. Shoirning mahorati shundaki, ayni shu voqeadan vatan haqida o‘ziga xos poetik ma’no chiqara oladi va uni sho‘ro davri fojialaridan biri darajasiga ko‘taradi.

She’r vokeasini begona yurtdagi uyini sotib, o‘z zaminiga oshiqayotgan odam quvonchi bilan o‘z yurtida shu sotilayotgan uyda ijarada turgan va qish faslida yangi joy topish tashvishi bilan yonayotgan lirik “men” iztiroblari tasviri tashkil etadi.

Tatar sohib ichar o‘zin yo‘qotib,
Sevinchi qalbiga hech sig‘mas, toshar:
Begona eldagi o‘z uyin sotib,
O‘z yurtidan bir joy olmoqqa shoshar.

She’r yakunida har ikki millat vakilining ham ruhini birlashtirib, ularning har ikkalasini ham o‘z yurtida vatansiz qilgan sho‘ro siyosati va uning yo‘lboshchilariga hukm o‘qilishi barobarida bu yuksak tushunchaning qadr-qimmati xususida poetik xulosa chiqariladi:

So‘kdik Stalinni hech ayamasdan,
Ichimizdan qaynab kelaverdi so‘z.
Kuyladik:
“Nimadan boshlanar Vatan?”
So‘ngra to tonggacha
Yummay chiqdik ko‘z...

Shoirning “Xalqimiz dushmanlariga” she’ri ham yuksak millatparvarlik motivlari cho‘lponona o‘tli misralarda bitiladi. She’rda “Paxta deya jon beradigan o‘zbek”ning dardlari birma-bir bayon etiladi. She’r o‘tkir fosh qiluvchi pafos bilan yozilgan bo‘lib, mazmunan saksoninchi yillarda millatimizga qo‘yilgan “O‘zbeklar ishi”, “Paxta ishi” kabi ayblovlarga javobat bitilgani anglashiladi. She’rda millat dushmanlarining xalqimizni “tekinxo‘r”, “boqimanda”, “poraxo‘r”, mushtimzo‘r” deya atashlariga javoban “Mehnatkashi boylik yig‘magan”i, “mehmonini ket, deb urmagan”i, “darvozasi tanba ko‘rmagan”i bilan javob qaytaradi. Ayni paytda endi

millat g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, o‘z haq- huquqini taniyotgani, milliy mustaqillik uchun kurashayotiganini quyidagicha cho‘lponona sartlarda to‘kadi:

Haq yo‘lida endi tinmayur,
Yolg‘onlarga uchmas, ko‘nmayur,
Egiladi balki, sinmayur,
O‘zbeklarni karu ko‘r demang.

Shoirning bir turkum she’rlarida “men”ning senga bo‘lgan munosabati – murojaati o‘ziga xos rangin bo‘yoqlarda aks etadi. Bu tipdagi she’rlarda shoir iste’dodining yangi-yangi qirralari namoyon bo‘ladi. “Sen – sog‘inch... ”, “Sevgilim... ”, “Kelmading... ” deb boshlansvchi she’rlaridagi poetik ma’no lirik qahramon qalbining beorom kechinmalarini, shoir shaxsiyatining murosasiz ijtimoiy-estetik pozitsiyasini belgilab keladi.

Sen - sog‘inch,
Men - o‘tinch,
Qaydasan, Qo‘shiq?
Visol - quyosh,
Baxt – quyosh,
Qalblar – darchalar.
Armon – qora bulut qoplagan osmonim.

Ushbu misralardagi katta harflar bilan bitilgan Qo‘shiq va Armon shoir ijodiy pozitsiyasining yadrosini tashkil etadi. Ushbu poetik obrazlar lirik qahramon qahramon qalbining poetik timsollari har qanday g‘ayirliklarga murosasiz ekanini, yashash va ijod qilish prinsiplarini belgilab beradi. Bular mohiyatan yuqorida ko‘rib o‘tganimiz millat dushmanlariga monanddirlar, shu bois shoir qalbi ular bilan mudom kurashda. Shoir g‘animlarga qarata xitob qilar ekan, “hurlar ichra hur gulyuzni sevgilisini o‘ylayotganda” o‘ylariga to‘r solmaslikni, O‘zbek bulbuli Sherali Jo‘raev kuylayotganda xalab bermaslikni talab qiladi. Bundaylarning to‘ng‘izlarin gul bilan boqib, farishtalariga shaytonlar dars berishidan ogoh etadi.

Shoirning “Kelmading... ” deb boshlanuvchi she’ridagi Sen ham ko‘pma’noli poetik timsoldir. Uni sevikli yor yoxud ilhom parisi sifatida ham talqin qilish mumkin. Shuningdek, haqiqat va adolat timsolida ham qabul qilish mumkin.

She’rdagi o‘tli ramziy armon – gullarini tikonlar, dillarini shaytonlar avrab, to‘tilar bulbulning ustidan kulib, baqalar tovusning patini yulgan pallada “mangu yashillikning qo‘shig‘in tugal// kuylolmasdan juvormang ketgan sap sariq xazonlar”, bir vaqtlar sadoqlarini bo‘shatib “nishonga bexato urgan kamonlar” haqqini talab qilganda “men” isyon qilish o‘rniga shirin xayollar og‘ushida sarxo‘sh she’rlar bitib yana“ne zamon yashash”ning iztirobli armoni aks etadi.

She’rning avvalida naqorat bo‘lib kelgan

Kun ketdi –
Mung ketdi –
Un ketdi”
misralarining yakunda
“Kun ketar –
Kun qolar –

Mung ketar –
Un ketar –
mung qolar –
un qolar”

tarzida o‘zgarishi she’rda kun, mung va unga katta ma’no yuklanganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, A’zam O‘ktam she’rlarida shoirlik va shoir qismati masalasi doimo shoirni bezovta qilgan, o‘ziga, bitayotgan har bir misrasiga katta mus’uliyat bilan yondashganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan ko‘chirma bashoratgo‘y motivlar sifatida shoir qalbining qo‘ng‘irog‘i bo‘lib “Kun qolar, mung qolar, un qolar” jaranglayotgandek go‘yo. Shoir qalb to‘g‘yonlarining mangu barhayotligi ham shundadir ehtimol.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘ktam A. Osmon yaqin,.. She’rlar. – T:, 2011.
2. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar... She’rlar. –T:, 2014.
3. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.
4. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. – Toshkent: Muharrir, 2019.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Beg‘am QARAYEVA,
Moskva davlat Lingvistika
universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining betakror, zabardast shoirlaridan biri A’zam O‘ktam she’riyatida tilning badiiy – tasviriy vositalari tahlil qilinadi, Shoirning so‘z qo‘llash mahorati misollar asosida tushuntiriladi, shoir ijodini o‘rganilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, til birliklari, she’r, badiiy−tasviriy vositalar, o‘xshatishlar, iboralar, xalq og‘zaki ijodi, shoir ijodi, so‘z qo‘llash mahorati.

Annotation: The article analyzes the artistic and descriptive means of language in the poetry of Azam Uktam, one of the unique and outstanding poets of the Uzbek people. The poet's mastery of word use is explained on the basis of examples, and recommendations are given for studying the poet's work.

Keywords: Uzbek language, language units, poetry, artistic and descriptive means, similes, expressions, folk oral creativity, poet's work, mastery of word use.

Yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, integratsion jarayonlarga tezkorlik bilan kirib borayotganligi nafaqat iqtisodiyotda, balki dunyoqarashimizga ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviyat sohasida katta o‘zgarishlar bo‘layotganligi ko‘rsatmoqda. O‘zbek olimlari xalqimiz tarixida ikki Renessansning bo‘lganligi va mutaxassislarning fikricha bugungi kunda uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yganligimiz haqida aytadilar. Buni o‘zbek tilida Uyg‘onish davrlari deb aytiladi [3].

Ma’naviyat esa, eng avvalo adabiyotimiz, tilimiz taraqqiyotida aks etadi. O‘zbek tilining dunyodagi eng boy va rivojlangan tillardan biri ekanligini ham ana shu adabiyotimiz va unda yaratilgan badiiy asarlarda aks etib turadi. O‘zbek tilining eng boy va chiroyli tillardan biri ekanligini soha mutaxassislari, ayniqsa, turkiyshunos olimlar tomonidan ko‘p bora ta’kidlangan. XV−XVI asrlarda turkiy adabiyotning gullab-yashnagan bir paytida eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, rivojlanishi davri bo‘ldi va uning asoschisi ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bo‘ldi (1441− 1501) [2, 9].

Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, adabiy tilimizga asos solgan buyuk Alisher Navoiydan tortib, bugungi adabiyotimiz vakillari, shoir va yozuvchilarimiz o‘zbek adabiy tilimizni avaylab-asrab, saqlab kelayotgan va uning rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan insonlar deyishimiz mumin. O‘ylaymizki, bugungi kitobxonlar, tilimiz va adabiyotimiz ixlosmandlari zamondoshlarimiz bo‘lgan ijod ahlining o‘z asarlari bilan tilimiz ravnaqi va adabiyotimizda tutgan o‘rni haqida bilib, sezib turamiz. Ularning so‘z qo‘llash san’atini ko‘rib, ta’bi nazmimiz yanada boyib, fikrlarimiz yanada tiniqlashib, tozarib boraveradi. Ana shunday ijodkorlardan biri, XX asrning 80-yillarida she’riyatimizga shijoat bilan, qalb tug‘yonlari bilan kirib kelgan betakror shoirimiz A’zam O‘ktam bo‘ladi. Xalqimizning yana bir iste’dodli farzandi, O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdieva A’zam O‘ktamni zabardast o‘zbek shoiri, deb aytgan edilar. A’zam O‘ktam she’rlarining mazmuni, badiiy jihatlari qalblarimizni, ongimizni boyitsa, uning asarlari tili esa o‘zbek tilini yanada boyitadi va uning go‘zalligini yana bir karra bizga namoyish etadi. Shoirning badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi ustaligi esa uning til bilish, so‘z boyligi va undan foydalana olish mahoratini ko‘rsatib turadi.

Shoirning onalar mavzusidagi she’rlari va ularda qo‘llangan xalqona turg‘un birikmalar diqqatimizni tortadi:

Kun o‘tkazmoq kun sayin og‘ir,
ko‘nglim hamon notinch, intiqdir.
Yo‘l poylaydi xira ko‘zlarim,
ipim uzun, ignam siniqdir. [1, 12].

Xalq qo‘shiqlaridan birida “Otim oriq, yo‘lim olis, manzilimga yetolmayman...” satrlari bor. Har holda qo‘shiqdagi lirik qahramonning dardlarini anglaymiz, lekin yuqorida bitilgan misralarni anglash uchun nihoyatda nozik ta’b bo‘lishi kerak, ”Xosiyat momoning armoni” she’ridagi o‘zbek ayoli tilidan aytilgan misralarni yozayotganida sevikli shoirimiz qay darajadagi kuztatuvchanlik bilan bu dardni ilg‘agani, sezgani va uni xalqona ohanglarda o‘quvchiga yetib boradigan qilib tasvirlagani uni tilimizning zukko bilimdoni ekanligini ko‘rsatib turibdi. She’rning keyingi bandlarida yana shunday misralar bor:

Qaldirg‘ochni kutdim bolam deb,
shu o‘y qishdan chiqarib oldi.
Diydoriga to‘yar-to‘ymasdan,
u ham tashlab ketdi-da, qoldi [1, 12].

Xalqimizda “Agar shu qishdan omon chiqsam...” iborasi bor, hayotda esa so‘z boyligi yetarli bo‘lgan zukkolargina bu jumlani qo‘llay oldilar. Bu jumlada xalqona bir shukronalik, ertangi kunga ishonch bor. Biz esa yana shoirning so‘z qo‘llashiga, mushfiq momojonning dardlarini his etib, qishdan omon chiqishga ko‘mak bergan qaldirg‘ochga shukronalik keltiryotgani va yana undan ozgina ranjib turganligini his qilamiz. Buni his qilishda esa shoirning so‘zlari bizga yordamga keladi, chunki bu o‘rinda “diydoriga to‘ymoq” iborasi ham mohirlik bilan qo‘llangan.

Shoirning “Ilk she’r”ida “ko‘kragida qaldirg‘ochlar vijirlayotgan” lirik qahramonning qulog‘iga tong yellari “Baxtli bo‘l” deb pichirlayotganini ko‘z oldiga keltirish ham maroqli, shoirning marjondek ipga terayotgan inja fikrlari kitobxonning zavqini keltiradi. Shoirning naqadar sergak kuzatuvchi ekanligini quyidagi misralarda yana his qilamiz:

Yangrar o‘zbekcha qo‘shiq,
Tinglab potirlar yurak:
Onam sog‘ar sigirin−
Kuylab yuborar chelak [1, 14].

Bir qarashda oddiy manzara, lekin onasi sigir sog‘ayotganida chelakning kuylab yuborishini his qilgan o‘smir lirik qahramonni ko‘z oldimizga keltiramiz. Shoirning bu holatni shu qadar topqirlik bilan bera olish, bu manzarani badiiy tasvir vositasi sifatida so‘z bilan ifodalay olishi esa yana bir karra alohida bir zavq beradi.

O‘zbek she’riyatida ona diyor tasviri alohida madh etilgan. A’zam O‘ktam she’riyatida ham she’riyat ixlosmandlari ajoyib manzaralarni ko‘radilar. Ulug‘ adibimiz Oybek tasvirlagan “Oltin vodiydan shabadalar”ni qayta−qayta his qilamiz. Shunday she’rlardan biri “Rahimaga” deb nomlanadi. “Farg‘onaning o‘rikzorlari” yodiga tushib, “birdan yuragi gullagan” lirik qahramon faxrlanib aytadi:

Men ham sendek yurtni eslasam,

bir dunyo farahga to‘laman:
Axir, Bahor o‘zi sog‘inib –
Keladigan joydan bo‘laman [1, 13].

“Oppoq yurtining oppoq tonglari”ni sog‘ingan qahramon o‘z holatini “oppoq tongdek kiray saharda” deb, tasvirlaydi va yurtiga intiladi, nozik iboralarni mohirlik bilan ishlatib, fikrlariga yakun yasaydi:

Xumor, juda xumordir ko‘ngil,
baxt bitilgan peshonamizga.
Sog‘inchimiz tumordir, singlim,
Ko‘z tegmasin Farg‘onamizga! [1, 13].

Qalb tug‘yonlari ko‘pchilikda bo‘lishi mumkin, lekin so‘zlarni marjondek ipga tiza olish va til sezgisi Yaratgandan berilgan in’om. Shoir A’zam O‘ktam ijodining muxlisi sifatida aytishimiz mumkinki, bu she’rlardagi badiiy so‘zlarni hali ko‘p o‘qiymiz, shoirning o‘zini esa sog‘inamiz. Yoshlarimiz esa bu iqtidor egasi yaratgan she’riyatning ham badiiy, ham lisoniy jihatlarini tadqiq etadilar deb, o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat. – T. : 2019. – 91b.
2. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. :, Л. : 1960. – С. 446.
3. ҳттпс://www. ёутубе. ком/ватч?в=_кС_бз9ХWд4 Қарши ДУ профессори Абдураҳим Эркаевнинг интервюси, 2020.
4. Ўктам А. “Қузда кулган чекаклар”, Тошкент (1989). Ўктам А. “Кузатиш” Тошкент (1990).
5. Ўктам А. “Зиёрат”, Тошкент (1992).
6. Ўктам А. “Тараддуд”, Тошкент (1993).
7. Ўктам А. “Икки дунё саодати”, Тошкент (1998).
8. Ўктам А. “Қиркинчи баҳор” Тошкент (2000).
9. Doktorlik dissertatsiyasi ÇAĞDAŞ ÖZBEK ŞAIRI AZAM ÖKTEM’IN ŞIIRLERI ÜZERINE BIR INCELEME – Mustafo Qorqmaz, Turkiya, 2025.
10. Çağdaş Özbek Şairi Azam Öktem’in Şiirleri Üzerine bir Inceleme

O‘XSHATISHLARNING STRUKTURAL-KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI
(A’zam O‘ktam she’riyati misolida)

Yoqub SAIDOV,
Buxoro davlat universiteti professori
Gulrux SAYIDOVA
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada A’zam O‘ktam she’rlaridagi o‘xshatishlar ikki guruh – to‘liq o‘xshatishlar hamda to‘liqsiz o‘xshatishlarga ajratilib tasnif etilgan hamda ayrim o‘xshatishlarning semantik va struktural-kompozitsion xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish uzvlari, o‘xshagan, o‘xshatilgan, o‘xshatish qaydi, o‘xshash, to‘liq o‘xshatish, to‘liqsiz o‘xshatish, o‘xshatish, tashbih.

Annotation: In this article, similes in Azam Oktam's poems are classified into two groups - complete similes and incomplete similes, and the semantic and structural-compositional features of some similes are revealed.

Keywords: simile elements, similar, simile, simile note, similar, complete simile, incomplete simile, simile, metaphor.

O‘xshatishlardan qadim davrlardan boshlab nutqni boyitish maqsadida keng foydalanilganligi bo‘yicha ilmiy manbalarda yetarlicha ma’lumotlar mavjud. Masalan, eramizdan avvalgi IV asrda yashagan buyuk mutafakkir Aristotel (384-322) “Poetika” asarida poeziya o‘xshatish (mimesis) san’atidan o‘zga narsa emasligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Uning yozishicha, poetik san’atning kelib chiqishiga ikkita sabab bo‘lgan: birinchisi, o‘xshatish, taqlid. Mutafakkir fikricha, inson dastlabki bilimlarni o‘xshatishdan oladi va u uchun bu usul eng samaralidir. Umuman olganda, poeziya o‘xshatish zaminida yuzaga kelgan. Aristotel mazkur usul prozadan ko‘ra she’riy nutqga ko‘proq mos kelishini ta’kidlaydi: “O‘xshatish prozada juda oz o‘rinda foydali, u, asosan, she’riyat sohasiga taalluqlidir, chunki u she’riy nutqni yanada nafis va muvaffaqiyatli qiladi” [1, 24].

Millatning madaniy birligi bo‘lgan o‘xshatishlarning mazmun- mohiyati, estetik qiymati, struktural-kompozitsion xususiyatlari kabilarni adabiyotshunoslik hamda tilshunoslik aspektida o‘rganish jahon filologiyasi fani uchun har doim dolzarblik kasb etadi. Shunga ko‘ra badiiy asarlar tilidagi o‘xshatishlarning poetik qiymatini baholash, estetik ta’sir mexanizmini ochib berish va konstruksion jihatlarini aniqlash, voqelanish tartibini belgilash o‘zbek tilshunosligi uchun ahamiyatlidir. O‘xshatishni baho kategoriyasidan ajratib tasavvur kilib bo‘lmaydi, chunki odam atrofidagi olamni va, albatta, o‘zini kiyoslash-o‘xshatish va baholash yo‘li bilan anglab boradi [4, 131].

O‘xshatish kitobxonga badiiy asarda ifodalangan fikrni idrok etishga, uning mazmuniga chuqurroq kirib borishga katta yordam beradi. U o‘quvchida boy obrazli tasavvurlarni vujudga keltiradi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar yoki

ifodalanayotgan his-tuyg‘ularga nisbatan katta qiziqish uyg‘otadi. Ayonki, o‘xshatishlarning ayrimlari ko‘p qo‘llanilganligi natijasida vaqt o‘tishi bilan barqaror birlikka aylangan. Bunga misol sifatida *quyon kabi qo‘rqoq, tulki kabi ayyor, bo‘ri kabi och* kabilarni aytib o‘tish mumkin. Bunday o‘xshatishlar nutqda ham, badiiy asarlar tilida ham faol qo‘llaniladi. O‘xshatishlar matnga ekspresivlik, yorqinlik, aniqlik, ta’sirchanlik beradigan, biror voqea-hodisa, narsaning xususiyatlarini yoki kishining fazilatlarini boshqa voqea-hodisalar va narsalarning xususiyatlari yoki kishilarning fazilatlari bilan farqlarini yoki o‘xshashliklarini aniq hamda obrazli ifodalashga yordam beradigan badiiy vositadir.

Shu uchun o‘xshatishlarni barcha shoirlarning asarlarida uchratish mumkin. Bu fikr e’tirozga sabab bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz. Chunki o‘xshatish orqali shoirlar muayyan bir narsaning muhim xususiyatini ajratib tasvirlashga, kitobxonning diqqatini unga qaratishga har doim ehtiyoj sezadilar. O‘xshatish o‘quvchi ongida qo‘shimcha tasvirlarni jonlantiradi. Shu uchun tashbih aksariyat shoirlar uchun eng muhim ko‘chim turlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda o‘xshatishning tarkibi to‘rt unsurdan tashkil topishi xususida deyarli bir xil fikr mavjud, biroq ularda o‘xshatish unsurlarning nomlanishi turlicha ifodalangan. Fikrimizcha, ular orasida eng to‘g‘ri, aniq va mantiqli nomlanish Abdurauf Fitratga tegishlidir. Shunga ko‘ra, tashbihning to‘rt unsurini Fitrat qarashlari asosida izohlashga harakat qilamiz. Olim *Ahmat arslon kabi boturdir* jumlasi bo‘yicha o‘xshatish unsurlarini talqin etadi. Uning yozishicha, mazkur jumlada qo‘llangan *Ahmat* o‘xshagan, *arslon* o‘xshatilgan, *kabi* o‘xshatish qaydi, *botur* esa o‘xshashdir [7, 50-52].

Ayonki, o‘xshatishlar unda uzvlarning ishtirokiga ko‘ra ikki turga ajratiladi: 1) to‘liq o‘xshatishlar; 2) to‘liqsiz yoki qisqa o‘xshatishlar. To‘liq o‘xshatishlarda o‘xshatiluvchi ob’ekt, o‘xshovchi obraz va o‘xshatma belgi leksik birliklar bilan kelishi asosiy mezon hisoblanadi [5, 30]. To‘liqsiz o‘xshatishlarda esa o‘xshatma belgi leksik birlik bilan ifodalanmaydi. Aytilganlarga ko‘ra, *o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri* A’zam O‘ktam poetik asarlaridagi o‘xshatishlarni mazkur turlar bo‘yicha tasnif etib, tegishlicha tavsif etish mumkin.

Avvalo, alohida qayd etish lozimki, A’zam O‘ktam she’rlari mazmuniga o‘zining pokiza ruhi, sof tuyg‘ulari, millat dardi va ezgu orzu- maqsadlarini noyob tashbihlar vositasida mahorat bilan singdirgan shoirdir. Uning she’rlari badiiy san’atning o‘ta yuksak talablariga to‘liq javob beradi, desak aslo xato qilmagan bo‘lamiz. Shoirning she’rlarida qo‘llangan tashbihlar san’at nuqtai nazaridan yuqori turishini, kitobxonni hayratlantira olish kuchiga egaligini alohida e’tirof etib o‘tish o‘rinlidir.

A’zam O‘ktam she’riy asarlarida o‘xshatishning barcha uzvlari ishtirok etgan, ya’ni to‘liq o‘xshatishlar muayyan miqdorda mavjud bo‘lib, ular shoirning badiiy-estetik qarashlari, ezgulik, yaxshilik kabi g‘oyalarini ifodalashda muhim tasviriy vosita bo‘lib xizmat qilgan. She’riyatda o‘xshatishning ahamiyati juda katta ekanligini yaxshi anglagan shoir ta’sirli, mazmunli, noyob va estetik jihatdan qimmatli badiiy asar yaratish, o‘z fikrlarini o‘quvchiga tushunarli, aniq, ochiq yetkazish, jonli, chiroyli, idrok etish hamda eslab qolish oson poetik obrazlar

yaratish uchun tashbihlardan keng foydalangan. Bunga misol sifatida quyidagi she’riy parchani keltirib o‘tamiz:

Qush potragan misoli
Notinch yurak to‘lg‘ona. [2, 163]

Ushbu misralar shoirning nomlanmagan she’ridan bo‘lib, u ishqiy mavzuda yozilgan. Shoir oshiq yuragini qushga qiyoslaydi. She’rda ko‘proq so‘zlashuv tilida qo‘llaniladigan *potragan* so‘zi (izoh sifatida aytish mumkinki, bu so‘z so‘zlashuv tilida *potirlamoq, patirlamoq* shakllarda ham qo‘llaniladi) ko‘chma, ya’ni *bezovta bo‘lmoq, shoshilib qolmoq* [6, 103] ma’noda ifodalangan. Shoir aytmoqchi, ishq o‘ti tushgan oshiq qalbi qush misoli bezovta bo‘lib, muhabbatning qaynoq olovidan odatdagi oromi, tinchi buzilgan, hayajon va iztirobga tushgan, halovati yo‘qolgan, shundan oshiq alam-iztirob va bezovtalikdan o‘zini u yon-bu yonga tashlab to‘lg‘onadi. Shoir oshiqning holatini yorqin, aniq va ta’sirli ifodalash maqsadida jamiyat kishilarining barchasi birdek biladigan hamda har doim sezgir, ziyrak va ayni paytda bezovta bo‘lgan qushga qiyoslaydi. She’rda *yurak* o‘xshagan, *qush* o‘xshatilgan, *misoli* o‘xshatish qaydi, *potragan* o‘xshash bo‘lib kelgan. Demak, mazkur she’riy parchada o‘xshatishning barcha uzvlari voqelangan. Alohida ta’kidlash o‘rinliki, shoir she’rlarida qushlar obraziga alohida o‘rin ajratgan, ularni ayricha mehr bilan ifodalangan. Uning “O‘xshashlik” she’ridagi quyidagi parcha fikrimizni dalillash uchun asos bo‘ladi deb o‘ylaymiz:

Ariqdan suv ichib turgan ul qushlar —
Og‘iz chayqayotgan muslimga o‘xshar. [2, 170]

Shoir she’rlarida chiroyli tashbehlar, yorqin obrazlar orqali kishilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish yetakchi o‘rinni egallaydi. Mazkur she’rda ariqdan suv ichib turgan qushlar og‘iz chayqayotgan muslimga qiyoslangan. Ma’lumki, she’rda qo‘llangan *muslim* so‘zi arabiy bo‘lib, *musulmon dinidagi kishi* degan lug‘aviy ma’noni ifodalaydi. She’rda *qushlar* o‘xshagan, *muslim* o‘xshatilgan, *o‘xshar* o‘xshatish qaydidir. Demak, mazkur she’riy parchada o‘xshatishning o‘xshagan, o‘xshatilgan, o‘xshatish qaydi uzvlari voqelangan. O‘xshash belgisi, ya’ni qushlarga xos xususiyat aniq ko‘rsatilmagan. Bunday tuzilmaviy o‘xshatishlarni to‘liqsiz o‘xshatishlar guruhiga kiritish mumkin. To‘liqsiz o‘xshatishlarda o‘xshatma belgi leksik birliklar bilan ifodalanmaydi [5, 30]. Mazkur qurilmali o‘xshatishlar o‘xshagan, o‘xshatilgan va o‘xshatish qaydi tarzida shakllanadi. A’zam O‘ktam she’riy asarlarida bu kabi to‘liqsiz o‘xshatishlar miqdori ancha ko‘p bo‘lib, shoir ulardan keng foydalangan. Quyida shunga doir misolni keltirib o‘tamiz:

Beshikni yodimga tushirdi tobut,
Go‘yoki miltiqdir osig‘liq tanbur. [2, 170]

She’riy parchada qo‘llangan *tanbur* – o‘xshagan, *miltiq* – o‘xshatilgan, *go‘yoki* – o‘xshatish qaydidir. Anglashiladiki, she’riy parchada o‘xshatish belgisi ifodalanmagan. Mazkur tipdagi o‘xshatishlarga yana *Tushunchalar ichra g‘arq o‘ldim, faqat, Olovga o‘xshaydi baribir Quyosh* [2, 170]; *Kun bo‘yi it singari kezmay, Aldamasdan xalqni, o‘zimni* [2, 174] kabilarni misol sifatida qayd etish mumkin. A’zam O‘ktam she’riy asarlaridagi o‘xshatishlarning struktural-kompozitsion tahlili jarayonida yana bir turdagi o‘xshatishlar borligi ko‘zga

tashlandi. Bunday qurilmali o‘xshatishlarda faqatgina o‘xshagan va o‘xshatilgan uzvlari voqelanadi, xolos. Anglashiladiki, bu kabi o‘xshatishlarda o‘xshatish qaydi hamda o‘xshatish belgisini ifodalovchi uzvlar bo‘lmaydi. O‘xshatishning mazkur turiga oid misolni quyida keltirib o‘tamiz:

Baxtsizlik — yov.
G‘animning biroq
Ko‘z oldingda turgani ma’qul... [2, 191]

Ushbu she’riy parcha shoirning “Javob” she’ridan bo‘lib, unda baxtsizlik holati yovga o‘xshatilgan. Mazkur o‘xshatishda o‘xshatish qaydi va o‘xshash belgisi qo‘llanilmagan. Mazkur tipdagi o‘xshatishlarga yana *Ziyorat qilganim – ko‘kka boqqanim, Yulduzlar – qabridir nolalarimning* [2, 299]*; Ko‘ngil poshsho bu dam, men unga mirzo, Sevmak, sevmak erur farmonlarimiz* [2, 333]*; Tandir — yuvosh duogo‘y kampir, Teraklar saf tortgan yigitlar* [2, 366] kabilarni misol sifatida aytib o‘tish mumkin. Tahlillar natijasiga ko‘ra aytish mumkinki, shoir asarlarida to‘liqsiz o‘xshatishlarning ikki turi mavjud. Birinchi turida o‘xshagan, o‘xshatilgan va o‘xshatish vositasi ishtirok etadi. Shoir mazkur turdagi o‘xshatishlarni voqelantirish uchun *kabi, misoli, o‘xshash, o‘xshaydi bamisoli, bamisli, -dek, singari, go‘yo, go‘yoki* kabi o‘xshatish qaydlaridan keng foydalangan.

Alohida ta’kidlash o‘rinliki, shoir she’riy asarlarida to‘liqsiz o‘xshatishlarning ikkinchi turi, ya’ni o‘xshagan va o‘xshatilgan qurilmali o‘xshatishlar muhim o‘ringa ega. Ular shoir poetik asarlarida alohida tizim sifatida shakllangan. Bunday turdagi o‘xshatishlar ta’sirchanligi, badiiy- estetik zavq uyg‘otishiga ko‘ra tashbih badiiy san’ati tizimida, Abdurauf Fitrat aytganidek, “eng kuchli”sidir[7, 51].

Shoir asarlarida an’anaviy o‘xshatmalar (*yuzning oyga, oshiqning bulbulga, ma’shuqaning gulga* tashbih etilishi kabilar) bilan bir qatorda uning ijodigagina xos bo‘lgan, boshqa ijodkorlar qo‘llamagan tashbihlar ko‘plab uchraydi. Masalan, shoir tanburni miltiqqa, qayroq toshni kundaga, haq so‘zni qonga, tuyg‘ularni tongga, tunni yaldoga, kunni saratonga, yulduzlarni nolalar qabriga, tandirni yuvosh duogo‘y kampirga, teraklarni saf tortgan yigitlarga tashbih etganki, bunday o‘xshatishlar o‘zbek adabiyoti uchun original yaratmalardir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, A’zam O‘ktam she’riy asarlarida o‘xshagan hamda o‘xshatilgan qurilmali o‘xshatishlar boshqa strukturali o‘xshatishlardan nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi. Original, o‘ziga xos, ta’sirli, estetik qiymati yuqori darajali tashbihlar yaratishda ushbu qurilma shakliga ega o‘xshatishlar katta samara berishini shoir yaxshi anglagan bo‘lsa, ajab emas. Shoir turli badiiy san’atlar, chunonchi, tashbih san’atidan keng foydalanib she’rlarini haqiqiy san’at darajasiga chiqara oldi. Uning ijodi o‘zbek she’riyatida juda katta yangilik bo‘lganligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Shoirning asarlaridagi tashbih kabi badiiy san’atlar o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida alohida o‘ringa ega. Shu bois uning asarlarini filologiyaning turli aspektlari va yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganish har doim dolzarblik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Poetika. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. -352 b.
2. O‘ktam A. She’rlar va tarjimalar. –Toshkent: 2019. -467 b.
3. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2013. -320 b.
4. Mixnyuk K. O vzaimosvyazi kategoriy sravneniya i otsenki // Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik. – 2011. -№ 1. –S. 129-133.
5. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. –Toshkent: Fan, 1976.
6. Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972.
7. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. V jildlik. -Toshkent: Ma’naviyat, 2006. -IV jild. –B. 11-88.

A’ZAM O‘KTAM IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI

Hulkar Hamroyeva,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoiri A’zam O‘ktam she’rlaridagi ozodlik, vatan, millat, din, muhabbat, tabiat, ijtimoiy tanqid talьinining, asarlari va she’riy uslublarining o‘ziga xos jihatlari tahlili o‘tkazilgan. Uning ijodi o‘zbek she’riyatining yangilanishiga, milliy ruhning uyg‘onishiga va jahon adabiyoti bilan hamohangligiga katta hissa qo‘shganligi haqida dalillar keltirilgan, xorijda o‘rganilishiga doir ayrim masalalar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: A’zam O‘ktam, o‘zbek she’riyati, mustaqillik davri, ozodlik, vatansevarlik, xorij, Qozog‘iston, diniй motivlar, ijodiy uslub, adabiy aloqalar.

Annotation. This article analyzes the themes of freedom, homeland, nation, religion, love, nature, social criticism in the poems of the poet Azam Uktam, the specific features of his works and poetic style. Evidence is provided that his work has made a great contribution to the renewal of Uzbek poetry, the awakening of the national spirit and its harmony with world literature, and some issues related to its study abroad are studied.

Keywords: Azam Uktam, Uzbek poetry, the period of independence, freedom, patriotism, abroad, Kazakhstan, religious motifs, creative style, literary connections.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish, bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”[1]. Darhaqiqat, asriy sinovlarni boshidan o‘tkazgan o‘zbek adabiyotining hamma davrlarida milliy ruh, komillikka intilish,

insonparvarlik, bag‘rikenglik, diyonat va iymon hamda milliy qadriyatlarning o‘rni muhim bo‘lgan..

O‘zbek adabiyotining o‘tmishi va zamonaviy o‘rganadigan har bir olim yoki kitobxon uchun A’zam O‘ktam (1960. – 2002.) ijodi o‘ziga xos bir hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshi o‘zbek she’riyatining eng yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlarida milliy ruh, ozodlik va diniĭ g‘oyalar ustuvorlik qiladi. A’zam O‘ktam (haqiqiy ismi – A’zam Xudoyberdiev) 1960-yil 4-oktyabrda Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida tug‘ilgan. Bu hudud o‘zbek madaniyatining qadimgi beshiklaridan biri bo‘lib, unda Navoiy, Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning ilhom manbalari yashagan. Shoirning bolaligi Farg‘onaning tabiatiy go‘zalliklari orasida o‘tgan bo‘lib, bu uning keyinchalik she’rlarida tabiat va vatan mavzularining chuqur talqin etilishiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning kasbiy faoliyati matbuot va adabiyot sohasida kechgan bo‘lib, shoir o‘zining qisqa hayoti davomida nafaqat betakror nazmiy va nasriy asarlar yaratdi, balki tarjima va muharrirlik bilan jiddiy shug‘ullanganligi, va vataniy ishlarda ham faol ishtirok etganligi sababli, uning ijodiy merosi o‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Shoirning hayoti sobiq sho‘ro davrining oxiri va O‘zbekiston istiqlolining boshiga to‘g‘ri kelib, bu davrlardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar uning she’riyatida o‘z aksini topgan.

A’zam O‘ktam she’riyati mudom fikrlashga, tafakkur qilishga undaydi, tushkunlikdan va befarqlikdan qutqaradi. Uning keskir so‘zlari jamiyatning so‘qir qalbidagi mudroq tuyg‘ularni uyg‘otishga harakat qiladi, oliy maqsadlarga intilishga va ruhiyatning nurafshon cho‘qqilariga chiqishga chorlaydi. So‘zlar qa’ridagi dardli nido o‘zining mardona ruhi, milliy yolqini va ma’naviy jasorati bilan yuraklarda aks-sado beradi, ming xil rangda tovlanadi. Fikrlab yashash imkoniyati cheklangan sobiq sho‘ro davrida shoirning har bir so‘zi isyon bo‘lib, qilichdek yaraqlab turdi. O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfining fikricha, “O‘zbek she’riyati bog‘idan A’zam O‘ktam daraxtini tuyqus ilg‘ay olasiz. Bu daraxtning salqinlarida, shamollarida necha bor yo‘qlik va borlik haqida o‘ylaganmiz. Uning ko‘zlari o‘tkir, quloklari ziyrak, yuragining qa’rlarida iztirobli sirlari bor edi. Dunyoning alamli g‘ovurlari, achchiq g‘uluvlari uni tez ulg‘aytirib qo‘ygan edi.shoirni ichkin anglash, tushunish hakmisha og‘ir kechadi. Satrlarning ortida, satrlarning sathida, uning teran tublarida nelar borligini barcha ham idrok etolmaydi.” [5, 5]

Uning “Taxmin”, “Voqea, “Haqiqat”, “So‘roq”, “Ibn Sino”, “Buxoroga borganda...”, “Alisher Navoiy”, “O‘ttiz yettinchi yil she’ri”, “Cho‘lpon”, “Sog‘inch”, “Yurt kezganda” she’rlarida, “Qochayotgan qon”, “Diydor” dostonlarida, “Xabar” qissasida, publitsistik maqolalarida mudom uyg‘oqlikka, milliy o‘zlik tuyg‘usini, milliy qadriyatlarni asrashga da’vat qiladi. “Taxmin” she’rida isyon ifodasining alohida usulini tanlagan muallif she’riy san’atlardan mohirona foydalanadi:

Bosh tursa ko‘krakda, yelkada emas,
Ezilib, dimiqib o‘lsa hamiyat,
Hech kim yo‘l topmasa, chiqarmasa sas,
Bahona qilinsa muhit, jamiyat –

Uzrlar gunohdan
Yomonroq bo‘lar.

Dunyoda hamiyatning o‘lgani – har bir millat uchun ohir fojia. Tuzalmas dard. Shoir real voqelikdan insonni uzoqlashtirmaydi, mavhum fikrlarni aytmaydi, sarob narsalarni, tuyg‘ularni tasvirlashga urinmaydi. Har bir inson erkin va farovon hayot uchun kurashishi kerakligiga, jamiyatni bahona qilib, bosh egib yashash gunoh ekanligiga ishora qiladi. Zero, or – nomusli, qalban ozod, qalban go‘zal insongina so‘zdan go‘zallik yaratishga va hamisha haq gapni aytishga qodir bo‘ladi.

Sening poyingga qonimni
Socharman gulning o‘rnig‘a,
Qasam Allohgakim, endi
Bu yo‘ldan qaytarim bo‘lmas!

Uning she’riyatida milliy an’analar bilan zamonaviy poetik shakllar uyg‘unlashib, o‘zbek she’riyatining rivojlanish jarayoniga salmoqli hissa qo‘shgan. A’zam O‘ktam she’rlaridagi uslubiy xususiyatlar, badiiy vositalar va mavzuviy kenglik uning ijodini tadqiq qilishni dolzarb masalaga aylantiradi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi yangi tendensiyalarni tushunish va ularning tarixiy ildizlarini ko‘rib chiqishda A’zam O‘ktam ijodi muhim ahamiyatga ega. O‘zbek she’riyati o‘z tarixi davomida turli davrlarda o‘ziga xos uslub va yo‘nalishlar bilan boyigan. XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoirlar orasida A’zam O‘ktam o‘z faoliyati bilan muhim o‘rin egallaydi.

Shoir ijodi uch davrga bo‘linadi: yoshlik she’rlari (his-tuyg‘ularga boy), mustaqillik g‘oyalariga bag‘ishlangan asarlar va hayot ma’nosini kuylagan she’rlar. Uning she’rlari rus, belorus, turk, arab, indonez, tay, hind, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu tarjimalar shoir ijodining jahon miqyosidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. U Robindranat Tagor, Nikolay Rubsov, Bernar Bua Dade, Vladimir Visoskiyning she’rlarini o‘zbekchaga tarjima qilgan bo‘lib, bu orqali o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti bilan bog‘lagan.

Uning she’rlarida sobiq mustabid tuzum siyosatiga qarshi kurash, milliy qadriyatlarni himoya qilish, vatan ozodligi va millat erki uchun qayg‘urish mavzulari markaziy o‘rin tutadi. Ba’zi tadqiqotchilar uning she’rlarini Cho‘lpon ijodi bilan qiyoslashadi, chunki A’zam O‘ktam ham ozodlik va millat manfaatlarini ustuvor qo‘ygan. Uning diniй mavzularga urg‘u bergani kitobxonlarni hayratga solgan, chunki bu sobiq sho‘ro davrida xavfli hisoblangan. Ko‘pchilik olimlar uning she’rlarini o‘zbek she’riyatida yangilanish sifatida baholaydi. Munozaralarda A’zam O‘ktamning ijodi o‘zbek adabiyotida milliylikning lirik talqini sifatida ko‘rsatiladi.

A’zam O‘ktam asarlarida diniй qarashlar va imon hissiyoti poetik obraz sifatida talqin qilinadi. Masalan, “Qirqinchi bahor” she’rida shoir hayotning ma’nosini va insonning ichki dunyosini tasvirlaydi. "Ikki dunyo saodati"da diniй mavzular hikoyaviy uslubda ifodalangan. Uning she’rlarida ramzlar (qush, gul, yo‘l) ko‘p uchraydi, bular orqali millat uyg‘onishi va ozodlik g‘oyalari tasvirlanadi.

A’zam O‘ktam ijodining xorijda o‘rganilishi

Shoirning “Azon” nomli she’riy to‘plami dastlab, 2022-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarida chop etildi.(Tarjimon – Asror Allayorov) Shundan so‘ng Misr Arab respublikasi, Indoneziya. Tailand, Hindiston, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarboyjon va boshqa davlatlardagi nashriyotlardan ushbu to‘plamni o‘z ona tillariga tarjima qilish va chop etish bo‘yicha takliflar bo‘ldi. Hozirda ingliz va arab tillarida chop etilgan “Azon” she’riy to‘plami va ingliz, indonez, hind tillarida nashr qilingan “Qo‘qon shamoli” kitobi xorijliklar tomonidan sevib o‘qilmoqda.

A’zam O‘ktam ijodi Hindiston, Misr Arab respublikasi, Qozog‘iston, Indoneziya, Ozarboyjon, Tailand, Rossiya va boshqa davlatlarda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda yuksak baholangan. Hozirda 10ga yaqin chet ellik olimlar uning ijodi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Shoirning bir turkum she’rlari filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Ma’rufjon Yo‘ldoshev tomonidan turk tiliga tarjima qilindi.

DILEK

Şiir - bela, aşk - bela, söz - bela,
Belalar başlardan eksilmesin hiç.
Şiir - özlem, aşk - özlem, söz - özlem,
Dünyadan özlemsiz gitmeyelim hiç.
Saadet, sadakat - alevdir.
Biz sonsuz yanalım alevde.
Ev- Vatan, küy - Vatan, hayal –
Vatan, Arzular gerçek olsun Vatanda...

Taniqli tarjimon Rahmat Bobojon shoirning falsafiy she’rlarini ozarbayjon tiliga o‘girdi, natijada ozar kitobxonlari A’zam O‘ktam ruhiyatini, uning asarlaridagi qalb ozodligini sevib qoldilar:

İŞÇİ ADAM

Gözləməyəcəkmi səhəri darıxıb,
Qəzəb eyləyirmi əksinə;
Bülbül səsindən deyil,
saat zəngindən oyanacaqmi
işləyən adam?

Həmdərdimi və ya dostunu deyil, yox,
gözləyəcəkmi avtobusu yorğun;
bir maşın vuran adama dəstək vermədən işinə
"Gec qaldım" deyə gedəcəkmi
adam?

Faqir atasına,
qəmgin anasina bir məktub deyil,

"İzahlı məktub" yazacaqmi;
Onlara bir az pul deyil,
Yalnız haqqı ödəyəcəkmi
işləyən adam?

İşğalçıdan deyil,
düşməndən deyil,
Sədrindən qorxurmu;
Yalançılara qarşı yazılan
etiraz məktubunu deyil,
imzalayacaqmi yalnız
"İntizam dəftəri"ni
işləyən adam?

Ölkə tarixini kənara qoyub,
nağılları oxumaqdan uzaqlaşıb,
lazımsız sənədləri titəcəkmi;
Ən nüfüzlü ləvazimləri
yalançı, namərd və kafirlər
sahibi olsa hələlik
Onların yerinə təmiz uşaqlarin
çıxan anlarini deyil,
Yalnız iş saatın sonunu gözləyəcəkmi
işləyən adam?

Nə vaxt işləyəcək?
Nə zaman işləyəcək İşləyən Adam?

2023-yilda A’zam O‘ktamning “Qo‘qon shamoli” kitobi hamda Jumabek Tashenev universiteti magistri, xalqaro jurnalist Asror Allayarovning “A’zam O‘ktam she’riyati” nomli monografiyasi Indoneziyada indonez va ingliz tillarida chop etildi. Gadjah Mada universitetida o‘tgan Xalqaro ilmiy –nazariy konferensiyada olimlar she’rlar va monografiya haqida katta qiziqish bilan gapirishdi, iliq fikrlar aytishdi. She’riy kitob va monografiya shoir ijodi haqida xorijlik kitobxonlarga keng tushuncha berdi.

2025-yilda Turkiyaning Neyde universiteti doktoranti Mustafo Korkmas “Çağdaş Özbek Şairi Azam Öktem’in Şiirleri Üzerine bir Inceleme” mavzusidagi dissertatsiyasi[15]da A’zam O‘ktam she’rlarining asosiy mavzulari va uslublari ko‘rib chiqilgan. Uning asarlarida ozodlik, vatan, millat, muhabbat, din, tabiat va ijtimoiy tanqid ustuvor ekanligi ta’kidlangan. Uning fikricha, “Qirqinchi bahor” she’rida shoir hayotning ma’nosini va insonning ichki dunyosini tasvirlaydi. “Ikki dunyo saodati”da jahon adabiyotida birinchi marta buyuk muhaddis Imom Buxoriy hazratlari to‘plagan ayrim hadislarning she’riy talqini yaratilgan, diniй mavzular

hikoyaviy uslubda mohirona ifodalangan. Uning she’rlarida ramzlar (qush, gul, yo‘l) ko‘p uchraydi, bular orqali millat uyg‘onishi va ozodlik g‘oyalari tasvirlanadi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va Qozog‘iston ilmiy – adabiy aloqalarida yangi sahifa ochildi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Ulug‘bek Yesdavlat to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo xalqlarining ming yillik dostonlari va boqiy an’analari bor. Bugun mintaqa bo‘ylab adabiy aloqalar rivojlanish bosqichiga ko‘tarilgan. Qozog‘istonda o‘zbek adabiyotini o‘rganuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Darsliklarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa mutafakkirlar ijodi o‘rganilmoqda. Xalqlarimizning adabiy hamkorligi bizni yanada yaqinlashtiradi”. O‘zbekiston va Qozog‘iston xalqlarining ijodiy – ma’naviy hamkorligi san’at va madaniyat, xususan, adabiy – ilmiy tadqiqotlar sohasida yanada kengaymoqda. 2025-yilda Qozog‘iston Respublikasidagi Jumabek Tashenev nomli universitet o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistri Feruza Qodirova o‘z tadqiqotida shoir she’riyatining uslubiy xususiyatlarini tahlil qildi.

Tadqiqotda A’zam O‘ktam she’riyatining uslubiy xususiyatlari uning she’rlari misolida o‘rganildi va ularning o‘zbek she’riyatida tutgan o‘rni belgilandi. A’zam O‘ktamning ijodiy yo‘li va she’riyatining tashakkul topish jarayoni, she’rlarda qo‘llangan badiiy vositalar tadqiq qilindi. Shoir ijodi XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi o‘zbek she’riyatidagi o‘zgarishlarning muhim namunasi sifatida o‘rganildi, bu esa universitetning zamonaviy adabiy jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan umumiy strategiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari o‘zbek she’riyatining uslubiy rivojlanish yo‘nalishlarini chuqurroq tushunish va ularni universitetning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga va ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda yordam beradi.

Adabiyotlar bir-birlarining ta’sirida rivojlanadi, boyiydi. O‘z navbatida tajribali yozuvchilarning ijodi yoshlar uchun mahorat maktabi vazifasini o‘taydi. Shu bois mashhur qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov o‘z davrida "Yoshlar faqat o‘qishi emas, balki Tolstoy, Avezov, Oybek kabi ulkan san’atkorlarning qimmatli ijodiy tajribalarini mukammal o‘rganishi, o‘zlashtirishi kerak" [16, 77], degan edi.

A’zam O‘ktam ijodining tarixiy konteksti

O‘zbek adabiyotining rivojida A’zam O‘ktam ijodi o‘ziga xos o‘rin egallaydi, chunki u sobiq sho‘ro davrining oxiri va istiqlol davrining boshiga to‘g‘ri kelgan. Sobiq Ittifoq davrida adabiyot siyosiy senzura ostida bo‘lgan, shoirlar milliy mavzularni ochiq talqin qilishdan qo‘rqardi. A’zam O‘ktam esa o‘z she’rlarida isyon ruhini saqlab qolgan. Uning ijodida milliy an’analar – Navoiy, Bobur, Cho‘lpon kabi klassiklarning ta’siri seziladi. Masalan, u Navoiyning g‘azal uslubini zamonaviy talqinda qo‘llagan.

Istiqlol sharofati bilan o‘zbek adabiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. A’zam O‘ktam she’rlarida bu o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Uning asarlari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Shoirning she’rlarida san’at va madaniyatning ahamiyati ta’kidlanadi, bu esa o‘zbek madaniyatining globallashuv jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Inson tafakkuri, ruhiyati va ichki kechinmalarining asosini bildiruvchi his-tuyg‘ular aynan san’atda namoyon bo‘ladi. Azal-azaldan qadim tamaddun beshiklaridan biri bo‘lgan ko‘hna Turon zamini bebaho madaniy merosi, betakror an’analari, urf-odatlari va milliy qadriyatlari bilan faxrlanadi. Umummilliy taraqqiyotning zamonaviy davriga qadam qo‘ygan turkiy xalqlar madaniyati va tarixi, an’ana va etnografiyasi, adabiyoti va san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillikni mustahkamlash, integratsiya va globallashuv jarayonida madaniy meros haqidagi tarix haqiqatlari yuzaga chiqmoqda. Inson ertangi kuniga ishonch bilan yashashi, milliy madaniyat muhitida o‘zini erkin his qilishi uchun madaniy merosni bilishi shart.

Xulosa

O‘zbek xalqining qadimiy madaniyati juda boy an’analarga ega bo‘lib, u o‘z ildizlari bilan uzoq asrlar tarixiga tutashgan. Istiqlol sharofati bilan tarix haqiqatlari tiklandi. Madaniy meros – ota makonning shonli o‘tmishi, millat va xalqning hayot falsafasidir. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Turon qadim zamonlardan buyon Sharq bilan G‘arb xalqlari o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar ravnaqida muhim ahamiyat kasb etgan.A’zam O‘ktamning ijodi aynan shu madaniy merosning davomi sifatida ko‘riladi. Uning she’rlarida turkiy xalqlarning umumiy qadriyatlari – ozodlik, adolat, imon – talqin etiladi. Olovqalb shoir o‘zbek adabiyotining mustaqillik davridagi yetuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida iymon, milliy ozodlik va qalb erkinligi, xalq tarixi kabi g‘oyalar ustunlik qiladi.. Uning mudom barhayot nazmiy va nasriy asarlari yoshlar ongu shuuriga milliy o‘zlik, vatanga sadoqat, ona tuproqqa muhabbat, uluh ajdodlarga ehtirom tuyg‘ularini singdirishda davom etmoqda. Kelajakda shoir ijodining yanada chuqurroq o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi // “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. O‘zA, 2018, 7 avgust.
2. Prezident Sh. Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O‘zA, 2023 yil, 23 dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. T.: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Yesdavlat U. Qozog‘istonda o‘zbek adabiyotini o‘rganuvchilar ko‘pchilik. Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik. To‘plam. – Toshkent: “MASHHUR–PRESS”, 2018.
5. Parfi R. Men bahorman.Muzlagan otash. //So‘zboshi. A’zam O‘ktam. Sahar vaqti yurak yig‘lar. Toshkent: Movarounnag‘r, 2014. –B. 5.
6. Jo‘raev N. Vaqt va fazo. T.: “Ma’naviyat”, 2021.
7. Seydanov Q. Navoiy va Abay. O‘zbek-qozoq adabiy aloqalari. “Mashhur-press”. T., 2018.

8. O‘ktam A. “Quzda kulgan chekaklar”, Toshkent (1989).
9. O‘ktam A. “Kuzatish” Toshkent (1990).
10. O‘ktam A. “Ziyorat”, Toshkent (1992).
11. O‘ktam A. “Taraddud”, Toshkent (1993).
12. O‘ktam A. “Ikki dunyo saodati”, Toshkent (1998).
13. O‘ktam A. “Qirqinchi bahor” Toshkent (2000).
14. Doktorlik dissertatsiyasi ÇAĞDAŞ ÖZBEK ŞAIRI AZAM ÖKTEM’IN ŞIIRLERI ÜZERINE BIR INCELEME – Mustafo Qorqmaz, Turkiya, 2025.
15. Çağdaş Özbek Şairi Azam Öktem’in Şiirleri Üzerine bir Inceleme
16. Ibraimov O. Chingiz Aytmatov “Molodaya gvardiya” M.2018 .

A’ZAM O‘KTAM YODI

BAHODIR KARIM,
Filologiya fanlari doktori, professor

Odamning ko‘ngli ko‘ngliga yaqin bo‘lsa, bir-birining diydorini, suhbatlarini sog‘inadi, bunday ichkin tuyg‘u samimiy, chin-haqqoniy bo‘ladi. Eng muhimi, ko‘ngildoshlik biror mahalla, makon yoki zamonni ham, geografik hududini ham tanlamaydi. A’zam O‘ktamning chin do‘stidan biri chiroqchilik, ikkinchisi ishtixonlik edi. Garchand *“Bitta do‘stim yo‘q mening, oh, Shu bo‘ldimi taqdirim?”* deb yozgan bo‘lsa-da, shoir ikki jonajon do‘st topgan edi. Odamning havasi kelardi ularning inoqligiga. Uch og‘ayni – haqiqiy do‘stlar edi. Ishtixonlik shoir do‘sti ba’zan tirikchilik ko‘yida, halol rizq ilinjida g‘ishtdan devor ko‘tarar, loy tepib paxsa urardi. A’zam O‘ktamga hamyurt bir tanishi shu do‘stini qattiq ishlatadi. Biroq og‘ir jismoniy mehnatining haqini tugal bermay izza qiladi, chamasi. A’zam O‘ktam adolatparvar, haqgo‘y emasmi, haqiqat va to‘g‘rilik himoyasi uchun maydonga otlangan musulmon askaridek shitob bilan o‘sha hamyurtining oldiga boradi; muammoni chikka-pikkasiga jiddiy muhokama qiladi, mardona hal etadi. Do‘sti hali shu kungacha eslab quvonadi. A’zam O‘ktam o‘zidan biror narsa ketsa ham, do‘stlari uchun jonini tikadigan jondo‘st odam edi. A’zam aka rahmatli bo‘lib ketgandan keyin bir qurdoshimiz uning shu ajib fazilatini qayta-qayta so‘zlar va bir voqeani yodga olardi. Mahram izlab, ko‘ngliga yaqinlarni qidirgan A’zam aka do‘stga sodiq edi, diliga o‘tirgan kimsani qattiq hurmat qilardi. Bir kuni yo‘lovchi uloviga puli yetmayroq turgan haligi birodariga cho‘ntagidagi oxirgi sariq chaqasigacha berib, uni yengil avtomashinaga o‘tqizib, o‘zi uyiga poyu piyoda ketadi. Holbuki, uning uyi ham haligi do‘stinikidan yaqin emasdi. Yo‘lida pastkashlarga duch kelganda mardlarni, haqgo‘ylarni, iymon orasta baland odamlarni yodga oladi odam. Ayniqsa, ular ziyoli, olim yo A’zam akadek shoir bo‘lsa, boshqacha sog‘inasiz.

A’zam O‘ktam o‘zidan go‘zal she’rlar qoldirib ketdi. Uning she’rlari o‘qilganda shoirning tirik mahalidagi fayzli suhbatlari rostdan qayta tiriladi; yurakdagi sog‘inch chanqog‘i shu nazmiy buloqlardan suv ichadi. Men bugun

A’zam O‘ktam bilan do‘st edim, xuddi aka-ukadek yaqin edim, har vaqt birga tushlik qilardik yoki doimiy hamsafar edik biz, tarzidagi gaplarni yozsam, ommaviy xotirachilardan farqim qolmaydi. Barcha qatori menchilik xastaligiga chalingan va birov bilib o‘tiribdimi, degan bema’ni o‘yda hech qisinmay-netmay allanimalarnidir to‘qib tashlagan bo‘laman. Ko‘p gaplashganmiz, to‘g‘ri. Ba’zan toshhovuzlik Farhod degan kursdoshidan so‘z ochardi. Bizdan 5-6 yosh ulug‘ bo‘lgani bois, har qanday suhbatlarda A’zam akani eshitar edik. Gaplarida, o‘zi aytganidek, ichi yig‘lab, tashqarisidan kulardi. Bu kulgining hech ham shodlik-quvonch kulgisidek aks-sado berganiga deyarli guvoh bo‘lmaganman. Hamisha kulardi, bu alamli, o‘kinchli, pichingli kulgi edi. Odam bir zamonlar yonida yurgan shunday a’zamlarni sog‘inib yodga olar ekan, shunday o‘ktamlarni sog‘inar ekan.

A’zam O‘ktam 2020 yilning kuzida oltmish yoshga to‘ldi. O‘n yillar oldin yozgan bir maqolamni hali ham yaxshi ko‘rib o‘qiyman. Uni A’zam O‘ktam o‘qigani yo‘q, ushbu maqolani ham o‘qiy olmaydi, afsus. O‘ylanib qolaman. Negadir biz – kechirasiz – men odamlarning qadriga o‘lganidan keyin yetadigan bo‘lib qolibman, shekilli...

Shaxsan o‘zim o‘z vaqtida ayta bilmay qolgan yaxshi so‘zlarni armon bilan eslash jarayonida yana bir shoir xayolimni band qildi. A’zam O‘ktamlar avlodiga mansub, unga tengdosh – Abduvali Qutbiddin. Shoir bilan ikki-uch marta uzoq, dildan suhbatlashgan edim. Oltmish yoshida “hormang” aytish uchun shu suhbatlardan ilhomlanib, yaxshi niyatda maxsus maqolaga sarlavha ham qo‘ygan ekanman. Ammo u ajoyib shoirni Yaratguvchi o‘z dargohiga chaqirib olishi aslo o‘yimga kelmagan ekan. Maqola endi xotiraviy tus olsa kerak...

Yaxshi so‘zni qo‘ldan kelsa, yaxshilarga hayot paytida gapirish, yozish kerak-ku!..

“Taraddud” she’riy kitobini o‘qigan davrimizning ulkan ulamosi Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq o‘z qarashlarini, aynan shoirning ko‘nglini quvontirgan fikrlarini A’zam aka tirik mahalida bayon qilgan edi. Rahmatli Shayx hazratlari bu borada ham barchaga ibrat bo‘ldi. Hazratning maqolasini qayta o‘qidim.

“Hammaga ma’lumki, bizning yurtimiz Movarounnahr – Turkiston butun dunyo she’riyatida o‘ziga xos o‘rin tutgan buyuk shoirlari bilan faxrlansa arziydigan, jahon xalqlari she’riyat xazinasiga o‘zining oltin sahifalarini, oltin baytlarini boshini baland ko‘targan holda taqdim etgan bir yurtdir. Albatta ana shu maqtovga sazovor she’riyat, she’riy asarlar, shoirlar, ularning faoliyati, saviyasi – hamma-hammasi shu diyorning qadimdan muqaddas dini bo‘lib kelayotgan Islom dini bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ham hech kimga sir emas... Yana bir haqiqatkim, shunday insonparvar, ma’rifatparvar va oliy insoniy qadriyatlarni madh etgan va o‘z o‘rinlarini ajoyib bir shaklda tutgan shoirlarimiz bilan birga, manfaat shoirlari, ba’zi shaxslarning maddohlari ham bo‘lgan. Lekin o‘sha shoirlar ham, ularning she’rlari ham tezda unutilgan. Chunki ular xalq uchun emas, haq uchun emas, haqiqat uchun emas, boshqa narsa uchun she’r aytgan edilar...”.

Hazratning adabiyotimizning uzoq va yaqin o‘tmishiga doir bunday haqiqatlari, teran nazari, so‘z kuchi va manfaati, gunoh va savob haqidagi tiniq shayxona fikrlari hamon meni o‘ylantiradi; asl adabiyot tahlili uchun dasturiy qiymat kasb etadi. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar sukut saqlagan bir pallada A’zam O‘ktam she’rlari qadrini juda o‘rinli, munosib baholagan va uning she’riyatidagi iymon taftini birinchi bo‘lib his qilib bayon etgan zot ham Shayx hazratlari edi: “Bu she’rlar kimnidir o‘ziga qaratish uchun aytilgan emas. Yoki keskin gaplarni gapirib o‘zini ko‘rsatish uchun emas. Balki butun vujudga singgan, yurakning to‘ridan samimiyat bilan chiqqan bir hazin ohangdir. A’zam O‘ktamning she’rlarini o‘qir ekanmiz, Islomiy ibodatlarga, namoz, ro‘za kabi Allohning bandalariga, mo‘min-musulmonlarga amr etgan farz ibodatlariga alohida e’tibor, ularni bajarishga mo‘min-musulmon inson qanchalik tayyor turishi va undan rohatlanishi lozim ekanligiga ishoralar, ajoyib bir turtki bo‘lgan satrlar, misralar keladi. Bu albatta juda yaxshi bir holat. She’riyat uslubi bilan insonlarni ezgulikka da’vat qilish, o‘zining bandalik burchini anglashga da’vat qilish uslubi hisoblanadi. Bu narsani shoir juda ustalik bilan ifoda etgan...”. Shayx hazratlari garchand o‘zida “adabiy tanqidchilik malakasi”, “she’rlarga baho berish da’vosi” yo‘qligini, yozadigan gaplari “oddiy bir she’rxonning fikr-mulohazalari” ekaniga urg‘u bersalar ham, aslida musulmon ajdodlardan o‘tib kelgan asl adabiyot va she’riyatning mezonlarini aynan A’zam O‘ktamning “Taraddud” to‘plami munosabati hamda undagi “O‘tinch”, “Mo‘jiza”, “Ne’mat”, “Qutlov”, “Izoh shart emas”, “Sog‘inch” kabi she’rlari tahlili orqali tushuntirgan edilar. She’rlari tabiatiga xos o‘z vaqtida berilgan yuksak bahoni eshitib, A’zam O‘ktam mamnun bo‘lgan edi, albatta.

A’zam O‘ktamning she’rlari orasida “Bir kun” va “Bir tun” sarlavhali ikkita uzun, biri-birini to‘ldiradigan egizak she’r bor. Shoirning ichi, o‘yi, iztiroblari, atrof-muhitga, yoru birodarlariga, “sen” orqali “men”iga, munosabati bayonidir ular. Ishlaridan ko‘ngli to‘lmagan, norizo kayfiyatli, ammo mezonlari e’tiqodiga mos odam dilining sharhi.

O‘, bular odammi?
Ayanch naqadar –
Bu nojins to‘daning qolmagan sharmi.
“Kofirga o‘lim!” – deb
Tig‘ tortsang agar
Qirilib ketardi elingning yarmi.

Savod chala, ibodat chala, ishonch – omonat, suhbatlar g‘iybat, har ishda aldov, xiyonat, dushman kim, oshno kim – bilib bo‘lmaydi. She’rda shularni o‘ylagan bezovta odamning bir kuni “sen”ga – ikkinchi shaxsga yo‘naltirib beriladi. Nurli yo‘l, umrning saodatli tuganchiga oson yetib bo‘lmaydi. Buning uchun *“O‘zingdan kerakdir o‘zingga hujum, O‘zingga kerakdir o‘zdan himoya”.* O‘zni anglash saboqlarini eslatadi. Demak, odam ehtiyot bo‘lishi, beparvo bo‘lmasligi lozim.

“Bir tun” yuqoridagi she’rga mohiyatan o‘xshaydi. Bunda hodisa va tuyg‘ular shoirning o‘ziga juda yaqinlashadi va “men”i vositasida bayon qilinadi. A’zam O‘ktamning bu she’ri o‘zlikka nazar, o‘zini taftish etish, nafsiga tanbehlar, shafqatsiz oshkora iqroriga ko‘ra dunyo adabiyotidagi eng nodir “Iqrornoma”lardan aslo kam emas. Bunda bolaliknig beg‘uborligi, yoshlik g‘ayratlari, ota-onaga, farzandlar va uzoq-yaqin tanishlarga munosabatlar taafakkur elagidan o‘tkaziladi.

Yomon tushdim. Qattiq adashdim yana –
Ulug‘ yo‘lda topdim pastkash hamrohlar.
“Ulug‘ zot qulimiz”, derlar-u, biroq
Nafs yo boshlig‘iga dastyordir bular.

Shoirning lirik qahramoni o‘zi uchragan to‘dani tark etolmay qiynaladi. *“Shartta ketay desam dushmanmas bular, Ketmay desam biroq – do‘stim ham emas”.* Kunlaridan hafsalasi pir bo‘lar ekan, o‘yga tolaveradi. taskin izlaydi. Boshqalardan bezib qolgan – tasalliga asos yo‘q. So‘ngra asta o‘ziga boqadi. “Men o‘zim yomonman, yo‘q mendan yomon” – o‘zini yomonlaydi. Buyuk g‘amxo‘r Yaratguvchiga yukinadi. Shu o‘rinda she’rning qolgan qismida ikki rakatli bomdod namozining she’riy bayonini keltiradi. Diqqat qilinsa:

“Bismillahir rohmanir rohim.
Olamlar sarvari, mehru rahmli,
Mahshar kuni shohi – Ollohga hamdlar.
Inoyat so‘raymiz o‘zingdan yakkash,
Ibodat qilgaymiz faqat o‘zingga.
Bizni g‘azabingga duchor bo‘lmagan,
Rost yo‘ldan toymagan zotlarga bergan
Yo‘ling bo‘lmish – To‘g‘ri yo‘lga tushirgin”,

degan misralarda har doim namozning birinchi rakatida o‘qiladigan “Fotiha” surasining mazmuni berilgach, “Falaq” surasi keladi. Takbirlar aytiladi. Tonggi ibodatning ikkinchi rakatida yana “Fotiha” o‘qiladi, endi unga “Nas” surasi zam qilinadi. Ruku, sajda va qa’dadagi barcha takbirlar bayon qilinadi va nihoyat she’r tuganchida:

“Assalomu alaykum va rohmatulloh.
Assalomu alaykum va rohmatulloh”,

deya ibodat ichidan tashqi dunyoga chiqiladi. Tong otgan. Orom, xotirjamlik va fayzu halovat ibodatdan topiladi. Nazarimda, Kalomullohning kichik suralari mazmunining she’riy bayoni, ibodat jarayonining tizimli ifoda tajribasi hozirga qadar A’zam O‘ktamdan boshqa shoir ijodida uchramaydi.

A’zam O‘ktam buvaydalik ajoyib dilkash inson Qodir Dehqonni e’zozlardi. Bu insonni men ham tanirdim. Kursdoshim Akram Dehqonning tabarruk padari buzrukvori. Nazmga mayli bor edi. “Mening dalam” nomli ixcham she’riy to‘plami bosilgan edi. *“Sen ko‘hna zamonlardan afsona Buvaydamsan, Mehringga to‘yolmasman sen ona Buvaydamsan”* – shunday g‘azallar yozardi Qodir Dehqon. Cho‘lpon g‘azaliga muxammasini o‘qib bergani yodimda. A’zam aka davralarda suhbat yo‘li Akram taraf burilsa, garchand o‘zidan yosh bo‘lsa ham, otalari hurmati uchun uning gaplarini ayricha diqqat ila tinglar va, ehtimol, ustoziga shu zaylda shogirdlik ehtiromini ko‘rsatardi. A’zam O‘ktam “Ziyorat” degan she’riy kitobiniing ichmuqovasiga “Ustoz Qodir Dehqon xotirasiga bag‘ishlayman” deb yozgan, ayni to‘plamdagi “Ziyorat” nomli she’rga ham epigraf o‘laroq “Alvido Mahshargacha Qodir Dehqon” deb bitilgan ekan:

Tuproq hali issiq,
Goh-goh seskanar.
Roziman yotarga mangu yuztuban.
Qucholmaganidan
Xijolat chekar
Tuproqqa aylanib
Ulgurmagan tan...

O‘ziga xos ifoda.

Talabalik yillari Uchko‘prikka folklor amaliyotiga borganmiz. So‘z izlab, so‘z jamlab atrof qishloqlarni kezganmiz. Shunda amaliyot rahbarimiz – zukko tilshunos, professor Miraziz Mirtojievning yaqin do‘sti bo‘lgan Qodir Dehqon biz talabalarni ustozimiz haqqi-hurmati uylariga mehmonga chorlab, o‘tkir so‘zli qiziqchi Muhiddin Darvesh bilan ajoyib bir gurung uyushtirib bergan edi. Qayta qurish zamonlari bo‘lgani uchun shu ijtimoiy hodisaga mosu xos bo‘m-bo‘sh zambilg‘altakni taraqlatib bir tomondan ikkinchi tomonga surib yurgan bir “qaytaqurishchi” obrazidan so‘zlagani hamon esimda qiziqchining.

A’zam O‘ktam ustozi Qodir Dehqonni, yana hamqishlog‘i shoir Shuhrat Ne’matni, uning ukalari Odiljonni boshqacha e’zozlardi. Talabalikning bir bahorida Qo‘qon pedagogika institutiga talabalar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Respublika olimpiadasiga borganimizda Shuhrat Ne’mat uyida mehmon bo‘lgan edik.

Darvoqe, xotiramda Qo‘qon bilan bog‘liq bir ovoz bor. Qo‘qonga ilk borishim. Talabalar yotoqxonasida tunadik. Saharda uyg‘onib ketdim. Boshqacha bir ovoz. Tong saharda, toza havoda, sukunat ichra azon ovozi jaranglab eshitildi: “Allohu akbar, Allohu akbar... Acsolatu xoyrun minan navm...”. Boshqacha bo‘lib ketdim. Sergaklanib hayratlandim. Qachonlardir tingan edi bu ovoz o‘lkada. Qayta osmon gumbaziga urilib, takror jaranglab turibdi. Inchunin, bizning Toshhovuz muhitida bu ovozni eshitish amrimahol edi. Hatto markaz Toshkentda ham masjidlarda azon hali aytilmagan bir zamon edi... Tingladim, Qo‘qonda ovoz kuchaytirgichda azon ovozi jaranglaydi. Chug‘urchuqlar bir lahza tingan va yam-yashil, so‘lim, bahaybat chinorlar ham some’... Hayotimda eshitmaganman, eshitilmagan, eshittirilmagan bu

ovoz ahli musulmonni bomdod ibodati uchun chorlayotgan edi. Tarixiy Xo‘qandi latif, xonu amirlar, jannatmakon Umarxon – Amiriylar istiqomat qilib o‘tgan bu tabarruk shahar men uchun shunisi bilan qadrli; shu azon ovozi hurmatidan men uchun qo‘qonliklar, uchko‘prikliklar, buvaydaliklar hali ham qadrdonlarim, ko‘nglimga yaqin. Kimki shu shahardan gap ochsa, albatta, yuqoridagi taassurotni maroqlanib, sog‘inib so‘zlab beraman...

...Qo‘qon pedagogika institutida ishlaydigan Shuhrat Ne’mat uyida ekanmiz, mehmondorchilik mahali bizdan bir-ikki yosh kichik, endigina harbiydan qaytgan ukasi Odiljonga imo qilib, “Xudo xohlasa, sizlarning safingizga qo‘shiladi”, dedi. Haqiqatan ham, Odiljon Umarov ToshDU o‘zbek filologiyasi fakultetida bizdan ikki-uch yil keyin o‘qidi. Talabalar safiga qo‘shildi. Taqdir bitigini qarangki, oradan o‘n yillar o‘tib, “qalam va iztirob”ni ukasiga tashlab Shuhrat Ne’mat safdan ketdi. Uning yaxshi she’rlari bor edi. “Yoshlik” jurnalidagi birinchi chiqishiga Rauf Parfi oqyo‘l yozgan edi. Shu mitti oqyo‘lda quyidagi gaplar bor: “Shuhrat Ne’mat she’rlaridagi iztirob uzoq payt o‘zini aldab kelgan gaplarning aslida puch va yolg‘on ekanligini, nogahon, ammo chuqur anglashdan tug‘ilgandir. Bunday paytda odam yo gapirolmay qoladi, yo bo‘lmasa birdaniga shunchalik ko‘p narsani aytib tashlaydiki, birining biriga qanday aloqasi borligini daf’atan aniqlash qiyindek tuyuladi:

O‘tmish – xatolardan iborat mazmun,
O‘tmish – xotiraga o‘yilgan surat.
Gunohim kim uchun, savob kim uchun,
Hayot – qarz uzmoqqa berilgan fursat.

Shuhrat she’rlarida beshafqat tiriklikni badiiy idrok etish sururi baland. Buni – endi yolg‘onga uchmasligini, aldanmasligini bilib qolgan insonning o‘ychan g‘alabasi yanglig‘ qabul qilish kerak.

Shuhrat Ne’mat she’riy madaniyatini kundan-kun rivojlantirayotgan, o‘z so‘zini aytish uchun shaylanayotgan shoirdir. Uning hayot va o‘lim, Vatan va millat haqidagi qarashlari tabiiy, aniq, teran. Busiz she’riyatning o‘zi puch narsa ekani barchaga ma’lum gap.

Biz zaminsiz dard va sevinchlarni ifoda etgan she’rlarni ko‘p o‘qiganmiz. Shuhrat Ne’mat mashqlarida zamin dardi va quvonchlari samimiy, muhimi – ishonch tarozisida tortilgandir.

Anglash – qiynalib nurlanish shodligi. Yosh shoir do‘stim Shuhrat Ne’matga umri uzun og‘riq-lazzatlar tilayman” *(“Yoshlik” jurnali, 1988 yil 8-son, 34-bet).*

Darhaqiqat, shunday. Muxtasar va aniq tavsif. Jurnalda Shuhrat Ne’matning “Bolalikni qo‘msash”, “Kurashlarga o‘zingni urgin”, “Kuz keldi”, “Tuman” kabi she’rlari berilgan. “Tuman, tuman, ket yo‘qol, Inson topay dunyoda” – atrof to‘la odamga, ammo shoirlar hamma zamonlarda chin insonni, o‘ziga dildosh izlashadi. “Olchoq bo‘lsa, do‘stlaringdan kech, Maydonlardan qolsang ham yolg‘iz...”. Shuhrat Ne’mat yaxshi insongina chin do‘st bo‘lishini yaxshi bilgan.

Shuhrat Ne’matdan “Ovozsiz suhbat” degan kichik she’riy to‘plam meros qoldi. She’rlarida his-tuyg‘ular tig‘iz va yuksak. Ruh bilan suhbatlashadi: *“Dilingga she’r yog‘di osmondan, Sen yerlikka hech o‘xshamaysan”.* Darhaqiqat, shunday inson edi u. “O‘lmagan ruhimning jonidir she’rim”. Bugun Shuhrat Ne’mat ruhi, she’ri, o‘zi bilan ovozsiz suhbat quramiz... To‘plamdagi she’rlar baland, ancha boshqacha, ko‘ngil she’rlari. Muharriri – A’zam O‘ktam.

A’zam O‘ktam shaxsiyati hamisha Buvayda adabiy muhiti markazida turadi. Uning yonida Qodir Dehqon, yuqorida so‘z ochganim, rahmatli Shuhrat Ne’mat bor. Bu muhit haqida gap ketganda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti muallimi Akram Dehqonning bugungi ish faoliyatini ham eslash zarur. U XIX asrda Qo‘qon muhitida yashab ijod etgan Muhayyir adabiy merosi bo‘yicha tadqiqot olib bordi, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. O‘tgan asrning 90-yillarida matnshunos olim Rashid Zohid bilan birga “Muxtasar” (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) kitobini arabiy yozuvimizdan joriy alifboga o‘tkazdi. Kitob “Cho‘lpon” nashriyotida ko‘pming nusxda bosildi. O‘sha mahalda ijodiy guruh rahbari va kitob muharriri A’zam O‘ktam edi. Keyin So‘fi Ollohyorning “Maslak ul-muttaqin” asarini adabiyotshunos Sayfiddin Sayfulloh bilan birga nashrga tayyorladi. Qo‘lidan kelgancha talabalarga saboq berib, adabiy-ilmiy maqolalar yozib yuribdi. Akram Dehqonning og‘zaki luftlari, she’rlari, to‘rt qatorli beozor bag‘ishlovlari o‘zimizning gurunglarda ora-sira aytiladi. Uning yashirin she’riy bisoti bir kun oshkor bo‘lsa kerak...

Darvoqe, eng muhimi, bu adabiy muhit yana bir yaxshi inson, yaxshi adabiyot muallimi va yaxshi shoir – Odil Og‘a nomi va uning odilona she’rlari bilan boyidi. Odiljon Umarov – Xonobod qishloq maktabida adabiyot o‘qituvchisi. Unga kasbi, “nozik ta’bu did” otasidan o‘tgan. She’rdan ko‘ngil uzgan emas. Odil Og‘a taxallusi bilan “Ilova” nomli she’riy kitobi bosildi. Talab yoki taklif, non yoki nom ilinjida she’r yozmaydi. Siqilgan, to‘liqqan yuragi chigalini yozish uchun she’r bitadi u. Odiljon akasi Shuhrat Ne’mat vafotiga bag‘ishlangan “Yod” she’riga og‘asining *“Oqqan daryo qadriga yetamiz endi, Mening otam dorul baqoga ketdi...”* degan ikki misrasini epigraf qilib olibdi. Balki Shuhrat aka bisotida bosilmay qolgan bunday she’rlar anchadir. Odil Og‘a Shuhrat Ne’matni yodlagan o‘sha she’ri yetti band. Ulardan biri bunday:

Kim ovoz beradi, uni chaqirsam?
Kim suyab qoladi, endi qoqinsam?
Kim ko‘nglim to‘ldirar uni sog‘insam –
Mening akam dorul fanoga ketdi...
Jonim akam dorul baqoga ketdi...

Ko‘ngli o‘kinch va sog‘inchga to‘la ukaning dil izhori bu!
A’zam O‘tkamning “Qirqinchi bahor” nomli ixcham to‘plami bor:

Valloh, yetdi mening ham galim,
Shart guvranib o‘rnimdan turdim:
Ketmay turib qarg‘alar hali,
Qaldirg‘ochlar kelganin ko‘rdim!

To‘plam ana shunday bolig‘ va fasih she’rlardan tarkib topgan. Odil Og‘a bir she’riga shu kitobcha nomiga uyqash qilib “Qirqinchi qish” deya sarlavha qo‘yibdi va she’rni ustozi A’zam O‘ktamga bag‘ishlabdi. Qirq yoshga kirgan qalamkashning o‘ylari, sarhisoblari, iziga qarashi, o‘zini taftish etishi... Ammo oxirgi band boshqacha – odilona xulosa:

Ko‘nglimni hech kimga ko‘rsatmagayman,
U – muzlik ostida mavjlangan anhor.
Yana yuzta qishni yengishga shayman,
Menga kuch beradi qirqinchi bahor!

Odil Og‘a bu shiddatli she’riy dil izhorini ayni qirchillama yoshida yozdi. Qirqinchi bahori va undan keyingi kunlari barakali bo‘ldi. Qirqinchi bahoridan kuch olgan Odiljon elliginchi bahorida “Olisdan ovoz” nomli she’riy to‘plamni nashr ettirdi. Kitobcha shoirning hayot yo‘lidan bir parcha, u kechinmalar tarixi, tuyg‘ular rasmi, qiyofasi. “Merosxo‘r” qisqa she’r:

Bu shaklu shamoyil bobomdan meros,
Nozik ta’bu did dadamdan o‘tgan.
Qalam va iztirob qolgan akamdan,
Va suyak surguvchi qondagi g‘urur.
Xullas, boyman, sizga ehtiyojim yo‘q!..

Odiljonning shajarasi, ma’naviy qiyofasi, tarjimai holi, o‘jar tabiatining suvrati bu. Ba’zan boshqa she’rlarida ham kuzatiladigan bir sifat – haqiqatni shartta yo piching-la aytish A’zam akadan olingan saboqdir balki. Odiljon – ko‘ngil odami. To‘g‘risi, *“Uning aqlin olgan edi hech kim bilmas ko‘hna kuy, Uni maftun etgan edi ko‘nglidagi Tojmahal”.* Insoniyat bor ekan, uning ko‘ngli turfa ranglarga kiradi, gohida she’riy yo‘sinda sharhlanadi ham. Ayniqsa, ko‘ngilda Tojmahal – ma’naviyat qasri qadr rostlagan bo‘lsa, xususan, she’rda yashash mohiyati, “o‘lim haybati” aks etib tursa, ko‘ngilning ham, she’rning ham sharhi boshqacha bo‘ladi. Odil Og‘ada oddiygina xabarlardan to‘rtburchak shakl yasash istagi yo‘q. Vazifasi ulug‘, tilagi cho‘ng. Dili tubidan chiqqan chinakam bitta she’r bo‘lsa, aqalli *“Bir satr bo‘lsayu o‘qigan unda Ko‘nglimni, ko‘nglingni, ko‘nglini ko‘rsa”.* Bunday shoirona ko‘ngil, sirli va “go‘zal dunyo”dan hamisha ziynatli she’r bunyod bo‘ladi. Uning nafrati, qasdi ham ziynatlangan, o‘tkir, keskir, obrazli ta’birlari esda qoladi. Ana, majozan hasharotlarga ko‘chgan kimsalar qiyofasini ko‘rish uchun “vish...sh...sh...”illab turgan kinoyali “Ilon qo‘shig‘i”ni bir o‘qing! Odiljon gohida dunyoga sig‘maydi, qishloqqa inchinun. “Dunyo Xonoboddan kengroq”, deydi.

To‘g‘ri. Ammo tabarruk maskan – “Xonobod – she’rgoh, ko‘ngilgoh”. Zero, bu qishloqdan hamisha she’rning sadosi eshitiladi. Odil Og‘aning “Tavsif”i, ya’ni ustozini ta’riflagan she’ri *“She’riyatning hayqiriq ovozi – A’zam O‘ktam, Jasoratdan yo‘nilgan ham sozi – A’zam O‘ktam”* degan bayti bilan boshlanadi.

Qo‘qonshamol kuyiga qo‘shiq aytar yulg‘unlar,
Buvaydaning yuz yillik bayozi – A’zam O‘ktam...

Hali buvaydaliklar o‘ktam yurakli bu insonni, toza iymonli ko‘nglini she’rga solgan a’zam shoirni ko‘p eslashadi. Chunki Buvayda adabiy muhitining sardori u. A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati, insoniyligi, to‘g‘riso‘zligi, halolligi zamonaviy o‘zbek she’riyatida, xususan, o‘ziga tengqur adabiy avlod ichida yorqin yulduz kabi chaqnab ko‘zga tashlanadi.

Haqiqatni aytmasa, A’zam O‘ktamning ichi yonib ketadi, kerak bo‘lsa dushmaniga sherday tashlanadi va yanchadi ham xumordan chiqib. Chunki shoir e’tirof etadiki:

Turaverar kerib ko‘kragin,
A’zam O‘ktam o‘lar – egilsa...
Chip-e, bo‘lsang kimning ko‘ppagi,
Pisht-e, kimning mushugi bo‘lsang!

Yana bir she’rida o‘ziga o‘zi dalda beradi; iymon nuridan, elning yoniq chirog‘idan gap ochadi: *“Ko‘nmagil hali o‘chmoqqa, o‘r bo‘l, ey A’zam O‘ktam”.* A’zam O‘ktamning bunday umri uzoq she’rlari to‘g‘rilik va jasoratdan, o‘rlik va hurlikdan, mardlik va oriyatdan – yuksak insoniylikdan dars beradi; Odil Og‘a ta’biri bilan aytganda, “A’zam O‘ktam nazmining parvozi ham to qiyomatgacha pastlamas, inshaalloh”.

Shoirning she’rlari hali ko‘p yillar sevib o‘qiladi. Xonobodliklar, buvaydaliklar, farg‘onaliklar, O‘zbekiston ahli o‘qiydi. Dunyo tillariga tarjima qilinsa, uni jahon she’riyati muhiblari o‘qiydi...

A’zam O‘ktam shaxsiyati va she’riyati haqida o‘ylaganda ustozlari, do‘stlari va shogirdlarining dil so‘zlari, xotiralari, e’tiroflari, nazmiy bag‘ishlovlari esga keladi.

Men bu o‘rinda A’zam O‘ktamni yodlab, unga qadrdon insonlarning ham bir oz ta’rifini keltirdim. O‘tganlarini Alloh rahmat qilsin, hayotlarining umri va ijodi barakali bo‘lsin.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA BARQAROR BIRIKMALARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Ra’no SAYFULLAEVA,
O‘zMU professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir A’zam O‘ktam she’riyatidagi barqaror birikmalarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: til, tafakkur, barqaror birikmalar, frazema, parema, ibora, maqol, matal, poetik ifoda.

Annotation: This article examines the specific features of stable compounds in the poetry of the poet Azam Uktam.

Keywords: language, thinking, stable compounds, phraseme, pareme, expression, proverb, saying, poetic expression.

Inson ruhiyatidagi ma’naviy evrilishlar, rang – barang tuyg‘ular eng avvalo she’riy asarlarda namoyon bo‘ladi. Ijodkor aniq va obrazli ifoda yaratish maqsadida tilning beqiyos boyligi bo‘lgan iboralardan keng foydalanadi. Bu esa milliy ruhiyatni ifodalashdagi eng qulay vositalardan biridir. Shoirlar iboralarni qo‘llash jarayonida nutq ta’sirchanligini oshirish maqsadida tilda mavjud bo‘lgan iboralarning yangi-yangi ma’no qirralarini ham kashf eta borib, originallikka erishadi.

Taniqli shoir A’zam O‘ktam she’rlarida tiniq tuyg‘ular, muhabbat ham, nafrat ham, alam-iztirob ham, yurt qayg‘usi ham yaxlit va otashin holda qog‘ozga to‘kilganki, har bir she’ri bir parcha cho‘g‘ni eslatadi. Professor N. Mahmudov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “A’zam O‘ktam dastlabki bir-ikki kitobi bilanoq o‘z muxlislarini va, demak, o‘z yo‘lini topa olgan yoshlardan. Uning deyarli har bir she’rida o‘ktam bir jur’at bilan bugungi jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatning tahlil qilinganligini, so‘zning mantiqiy mag‘zi bilan hissiy larzalarning o‘ziga xos uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Uning she’rlari ortiqcha balandparvozlik, baqir-chaqirlardan, nursiz tushkunlikdan xoli, o‘ychan she’riyatdir. U inson qalbini, ruhini xushyorlik bilan tadqiq etishga intiladi.” [1]

A’zam O‘ktam she’rlarini tahlil jarayonida ham til birliklarini she’riy misralardan ajratib, “uzib” olib, qismlarga ajratishning imkoni bo‘lmay, she’rni yaxlitgicha tadqiq qilishga to‘g‘ri keladi. Bu esa shoirning tug‘ma iste’dod sohibi bo‘lganligini, har bir she’ri yuragining bir parchasi ekanini ko‘rsatadi.

*Shu qora yer **tushgan chekimga**,*
***Uzolmadim ko‘ngilni** oydan.*
Hasratidan to‘yib yupunning,
***Hafsalam ko‘p pir bo‘ldi** boydan.*

Elparvar shoir bu she’rdagi *“chekiga tushmoq”, “ko‘ngil uzmoq”, “hafsalasi pir bo‘lmoq”* iboralari orqali olam va odam haqidagi kechinmalarini qisqa va lo‘nda tarzda bayon qiladi. Tilshunoslikda maqol- matal va hikmatli so‘zlar «paremalar»

deb ham yuritiladi. Paremalar mantiqiy fikrlashning mahsuli bo‘lishi jihatidan umuminsoniy hodisa bo‘lsa ham, har bir xalqning o‘ziga xos yashash sharoiti, tarixiy rivojlanishi, dunyoqarashi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bu mantiqiy xulosalarning ifodasi bo‘lmish paremalar mazmuni, intonatsiyasi, tuzilishi, ifodalanishi jihtidan milliy xususiyatga ham ega bo‘ladi [2. B. 11]. Barqaror birikmalar, xususan, maqol va matallarni tasniflash va tavsiflashda turlicha fikrlar mavjud bo‘lib, keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar samarasi o‘laroq, bu boradagi qarashlar ancha mukammallashdi.

“O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati»da maqol va matalga quyidagicha ta’rif beriladi:

Maqollar — grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir: *Qizim, senga aytaman kelinim, sen eshit. Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi* kabilar.

Matallar — tarbiyaviy, pand-nasihat ma’nolarini ifodalovchi, grammatik jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma’nosida — to‘g‘ri ma’noda qo‘llanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir: Kattaga *hurmatda bo‘l kichikka izzatda bo‘l! Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod qoladi. Odam olasi ichida, mol olasi tashida* kabilar [2. B. 11]. Bizningcha, *Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l!* kabi tarbiyaviy, pand-nasihat ma’nolari maqolda ifodalanadi deyilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi. *Odam olasi ichida, mol olasi tashida* kabi tavsiflovchi fikrlar esa matalning ifoda doirasiga kiradi. Bu jihatdan quyidagi fikrlarni ancha o‘rinli deb hisoblaymiz: “Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, Maqolda esa to‘la tugallangan fikr, xulosa ifodalanadi. ” [7] Badiiy asarlarda barqaror birliklar eng samarali omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Boshim qotdi tag‘in ko‘p yomon
Yana yolg‘iz uf tortdim chuqur.
Yetti o‘lchash ekan-ku oson,
Qiyin ekan bir kesish qurg‘ur.

Shoir A’zam O‘ktam “Etti o‘lchab bir kes” maqolini shaklan o‘zgartirib, “o‘lchash oson-u, kesish qiyin” qabilida qo‘llaydi. O‘lchash, kesish fe’llariga nisbatan qarama-qarshi ma’noli oson – qiyin sifatlarini qo‘llab, ma’noning kengayishiga va zidlantirish (antiteza) hodisasining ham yuzaga kelishiga erishadi. Bu esa lirik qahramon holatini tasvirlashda o‘zgacha ifoda yo‘sinini hosil qilib, kishini o‘ylantiradigan bir holatni kitobxon ko‘z oldiga keltirib qo‘yadi, lirik kayfiyat yaratadi.

Kesmadilar egilgan boshni,
Oro kirib qoldi
uning joniga
g‘ilofdagi ***qilich*** *– andisha.*

Shoir “Egilgan boshni qilich kesmas” matalini ajoyib bir tarzda to‘rt satr ichiga singdirib yuboradi. Bizningcha, bu misralarda matalning doimiy tarzda tushuniladigan egilgan boshni alqash ma’nosi emas, aksincha, kesmagan qilichning andishasini ulug‘lash ma’nosi qabariq holdagi original shoirona topilmadir.

*Ko‘raverib **qotib ketdi ko‘z***
Shundoq edi,
Shu bo‘lar mangu:
Kor qiladi na buyruq, na so‘z:
soyga, faqat soyga oqar suv!

Shoir ushbu kichik hajmli she’rda *“ko‘z qotishi”* iborasini hamda *“Boy boyga boqar, suv soyga oqar”* maqolining ikkinchi qismini gap bo‘laklari tartibini o‘zgartirgan holda qo‘llaydi. Soyga so‘zining takror qo‘llanishi esa lirik qahramonning mavjud holatdagi kechinmalarini yanada bo‘rttirib tasvirlash, kichik she’riy matn ortiga yashiringan pragmatik ifodalarni ta’kidlash vazifasini bajaradi.

Shoir biror fikrni maqoldagi ma’nodan foydalanib ifolaydi. Bir qarashda muayyan nutqiy birlik mustaqildek ko‘rinadi, lekin fikr yuritilsa, ijodkorning xalq maqollaridagi ma’noni o‘ziga xos boshqa so‘zlar bilan ifolaganini anglash mumkin bo‘ladi.

Zarblardan etimiz qotdi
Gaplardan
Betimiz qotdi:
Qotiramiz endi biz ham.

Ushbu misralarda “Ursang eti qotadi, gapirsang beti qotadi” matalining o‘zgargan varianti orqali fikr bayon qilinib, unga javoban “qotiramiz endi biz ham” jumlasi orqali kinoya, piching ma’nosi yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, taniqli shoir A’zam O‘ktam she’rlarining lingvopoetik tadqiqi tilimiz taraqqiyoti amaliy jarayonlarini yoritishda boy manba bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. So‘z ziyorati / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 18. 09. 1992.
2. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T: O‘qituvchi, 1984.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2007.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T: Sharq., 2002.
5. Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent: Fan, 1970.
6. Kilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi., 1985.
7. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar... : She’rlar. – T., 2014.
8. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.
9. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –Toshkent: Muharrir, 2019.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI TILI

Ma’rufjon YO‘LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Har qanday she’rni o‘qish uchun ham ma’lum darajada saviya kerak bo‘ladi. Ayniqsa, A’zam O‘ktam she’rlarini shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. Tanish tuyg‘ular, aniq holatlar uning e’tiborini tortadi. Eng kichik tasodiflarga ham qiziqib qaraydi va ilhom oladi. Ulardan kutilmagan falsafiy ifodalar chiqaradi, so‘zlarni topib aytadi. Xalqona so‘z va iboralardan kutilmagan ma’nolar hosil qilib, falsafiy xulosalar chiqaradi. Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri A’zam O‘ktam sheriyati lingvopoetik rakursda tahlilga tortilgan bo‘lib, shoirning so‘z qo‘llash mahorati ayrim she’rlari misolida ko‘rib chiqilgan. Xalq maqollari va iboralarining shoir ruhiyati manzaralari va e’tiqodi sobitligini yoritishdagi muhim xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: A’zam O‘ktam, she’r, shoir, lingvopetika, badiiy matn, intertekstuallik, kinoya, maqol.

Cheksizlik girdobiga tushib qolgan inson adabiyot ko‘rsatgan tomondagi yorug‘lik sari intiladi. Adabiyot insonni yo‘q bo‘lib ketishdan, maqsadsizlik va ma’nisizlikdan asraydi. Adabiyot, eng avvalo, insonga xayol qilishni, tafakkur va tasavvur qilishni o‘rgatadi. Dinlar va mifologik ta’limotlar zamirida ham ayni ma’no yashiringan. Ya’ni isyonkor ruhni hechlik botqog‘idan qutqarib muqaddaslik martabasiga olib chiqish. A’zam O‘ktam she’riyatining asosini ham ayni shu haqiqat tashkil etadi. Uning she’rlarini o‘qiganda, mayda tashvishlardan ancha balandda turadigan samimiyatni, begidir haqiqatni tuyasiz. Uning hech kim ko‘rmagan noyob bir manzarani, so‘zni yoxud fikrni topa olgani uchun emas, hammaga ma’lum bo‘lgan manzara, so‘zni yoki holatni o‘ziga xos tarzda ko‘ra olgani va o‘z uslubiga muvofiq ifodalay olgani uchun yoqtirib qolasiz. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim bir maqolasida shoirni shunday ta’riflaydi: “A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati va qiyofasini, iste’dodining asosiy qirrasini she’riy asarlari belgilaydi. Bu she’rlar egasining mavqeini, obro‘sini tabiiy ravishda baland ko‘taradi; yaxshi she’rgina shoirni abadiyatga daxldor qiladi. Chunki bu she’riyat egasida ichki bir mag‘rurlik, g‘olibiyat seziladi; u birovlarga yaltoqlanishni, ayniqsa, haqsizlik qoshida bo‘yin egilishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. A’zam O‘ktam she’rlari o‘zi kabi ancha o‘jar va odamning yuziga, haqiqatning ko‘zlariga tik qarab turadigan, inson yuragiga tez yetib boradigan samimiy, jonli ijod namunalaridir.”

Har qanday she’rni o‘qish uchun ham ma’lum saviya kerak bo‘ladi. Ayniqsa, A’zam O‘ktam she’rlarini shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. Islomiy aqida va hikmatlardan bexabar kimsa shoir she’rlaridagi goh oshkora goh yashirin holda ifodalangan ma’naviy xazinalardan bebahra qolishi tayin. Aslida, A’zam O‘ktam she’r uchun mavzuni uzoqlardan qidirmaydi. Tanish tuyg‘ular, aniq holatlar uning e’tiborini tortadi. Eng kichik tasodiflarga ham qiziqib qaraydi va ilhom oladi. Ulardan kutilmagan falsafiy ifodalar chiqaradi, topib aytadi. Har bir so‘zga, iboraga

hikmat nazari bilan qaraydi. Masalan, yomg‘ir haqida juda ko‘p she’r bor. Biroq “yomg‘ir – bu pichirlab qilingan duo” satri sodda va aniqligi bilan uni bir marta o‘qigan kitobxonning xotirasiga muhrlanib qoladi. Uning xalq tilidagi maqol-matallardan, frazeologik birliklardan foydalanish tarzi ham nihoyatda o‘ziga xosligi bilan e’tiborga loyiq. Masalan, tilimizda “zamon senga boqmasa, sen zamonga boq” maqoli mavjud. Shoir shu maqolning mazmunini so‘roqlab ko‘radi:

“Zamon senga boqmasa,
sen zamonga boq.”
Bu gapni aytgan-ov
zamonning o‘zi. (“Ehtimol”)

Shoirning shubhasi sizga ham o‘tishi tabiiy. Siz ham shoirga qo‘shilib beixtiyor so‘zlar zamiridagi ma’nolarni uqishga, anglashga va farqli rakurslardan baho berishga urinasiz. “Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq” maqoli mazmunida tobelik, musallamlik bor. Shoir har qanday itoatni emas, Ollohga yaqinlashtiradigan itoatni yoqlagani bois, mazkur maqolning haqiqatiga ham shubha bilan qaraydi. Shoir ochiq aytmasa ham maqolda ifodalangan ma’noning aksini yoqlashi anglashiladi. Quyidagi she’r ham xuddi shu tarzda shakllantirilgan. Maqol va uning ma’nosiga kinoyaviy munosabat:

“Uzoqning bug‘dayidan
yaqinning somoni yaxshi.”
Agar bug‘doy emas,
somon yeydigan bo‘lsang. (Maqolga sharh)

Badiiy matnning til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda, intertekstuallik atamasidan foydalaniladi. Intertekstuallik atamasi muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligiga nisbatan ishlatiladi. Ta’kidlash lozimki, har qanday badiiy matn intertekstual bo‘lishi shart emas, bu yozuvchining badiiy maqsadi, uslubi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy matnga olib kiriladigan har qanday boshqa matn yoki uning unsuri asosiy matn mazmuni va lisoniy qurilishi bilan uyg‘unlashib, yozuvchining estetik niyati ro‘yobi uchun xizmat qiladi. Badiiy matnning intertekstualligi xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Asosiy matnga olib kiriladigan o‘zga matn yoki uning muayyan unsuri yozuvchi niyatiga ko‘ra asosiy matn strukturasining turli qismlaridan joy olishi mumkin. Yuqoridagi she’rlarda maqol yaxlit holda olib kirilgan va unga munosabat bildirilgan. Maqol bu she’rdan tashqarida ham mustaqil va yaxlit holda o‘z ma’no doirasiga ega. She’rga olib kirilgandan keyin butunning parchasiga aylanadi va ma’nosi undan keyin kelgan parcha asosida anglashiladi. Bu tarzdagi she’rlari bilan shoir o‘quvchiga har narsaga taqlidiy, ko‘r-ko‘rona ishonib ketavermay, surishtirib, aniqlab hodisaning haqiqatiga yetgandan keyin ishonish kerakligini uqtirishga harakat qiladi.

Solmaganman og‘zimga tolqon,
qo‘rqaman odamdan qo‘rqishga.
Xafa qilma – beparvo kulma,
Sindirib tashlasang-da,
Mendan o‘pkala –

Men – oynaman,
sening basharang qiyshiq. (Ko‘rga hassa)

Bu she’rda “basharang qiyshiq bo‘lsa, oynadan o‘pkalama” maqolini yoyib tashlaydi va bir she’r shaklida qayta tiklaydi. Endi maqolning mohiyati butunlay o‘zgaradi. Islom aqidasiga ko‘ra “musulmon musulmonning oynasidir.” Buning aksi bo‘lsang, demak musulmon emassan. Shoirning ma’naviy dunyosini hisobga olganda, bu she’rning ma’nosi yanada teran anglashiladi.

Qor yoqqani yaxshi – izlar bosilar,
Ma’qul shamol kelgani –
Quviladi dardu gard.
Yomg‘ir yuvar g‘uborni.
Hammasidan yov qochgani zo‘r –
bolalaydi botirlar. (Bahonada)

Ushbu she’rda “qor yog‘di – izlar bosildi” va “yov qochsa, botirlar ko‘payadi” maqollari intertekstuallikni yuzaga keltirgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, shoir she’rlarini kuzatganda, uning hayotga nisbatan kuchli ironik munosabati anglashiladi. Turmush tashvishlari ham, amal-mansablar ham shoir nazdida mayda narsalar. U bularning barini kuzatadi va ilhom oladi. Kuzatish, ehtimol, hayotning ma’nisini ilg‘ash uchun ilhomlantiradigan eng to‘g‘ri va yagona yo‘ldir.

Yirik lingvopoetist olim Roland Bart fotosuratlar tahlili orqali muallifning estetik olamini yoritish jarayonida ikkita atamadan foydalanadi: “*studium*” va “*punctum*”. *Studium* atamasi orqali olim muallifning maqsadi va natijasini izohlaydi. Suratda aks etgan holatlar, narsa-buyumlarning ma’no-mazmuni va yozuvchining ularga yuklagan ma’nosi haqida fikr yuritadi. *Punctum* atamasi esa suratda aks etmagan ammo suratni tomosha qilgan insonning xayolotida aks etgan qandaydir tasavvurlar, allaqanday kayfiyatni uyg‘otuvchi eslamlar (assotsiatsiya) va ilhomlarni hosil qiluvchi “nimadir”ni ifodalash uchun ishlatiladi. Adabiyotshunoslar mazkur atamalardan badiiy asarlarni tahlil qilishda ham foydalanishadi. *Studium* xususiy holatni tadqiq qilishda, *punctum* esa nisbatan kengroq, bir necha asari uchun mushtarak bo‘lgan nuqtani aniqlashda ishlatiladi. A’zam O‘ktam she’riyati uchun umumiy nuqta ya’ni *punctum*ni belgilash zarurati tug‘ilsa, ehtimol, ko‘pgina she’rlariga xos bo‘lgan kuchli kinoyaviy munosabatni aytish mumkin bo‘lar. Chunki shu tarzdagi kinoya uning boshqa she’rlarida ham kuzatiladi. Masalan:

Kun ko‘rmay kunim ko‘rdim:
Tez kech kirdi, tongdan dil xufton.
O‘sib qariyapman,
Y*engilish – yengil ish.*
Har tun hayot marhum,
Doim tirik o‘lim:
hayot menga do‘stmas, ha, yot. (Kuzda kulgan chechak)

She’rni ilk marta o‘qiganda, lirik qahramonning hayotdan norizoligi, taqdirdan shikoyatzadaligi va bularning bariga kuchli bir kinoya bilan qarashi seziladi. Buni “kun yuzini ko‘rmaslik”, “kunini ko‘rmoq”, “yengilish – yengil ish”, “hayot marhum”, “hayot do‘stmas, ha, yot” kabi o‘ziga xos ifoda shakllari ta’kidlab turadi.

Quyidagi she’rdan ham shoirning til tabiatini, milliy til mantig‘ini naqadar teran anglashini sezishimiz mumkin. “Sichqon sig‘mas iniga g‘alvir bog‘lar dumiga” maqolidan o‘z hayot hikoyasiga aloqador holatlarni topadi. Maqoldan kelib chiqadigan obrazli mazmun she’rda ifodalangan asosiy fikr-g‘oyani yaxlit holatda o‘zida mujassamlaydi. Maqolni o‘qigandayoq o‘quvchi matndagi asosiy g‘oyaning umumiy chizgilarini tasavvur qiladi.

To‘g‘ri, to‘g‘ri. E’tirozim yo‘q:
Sichqon g‘irt ovsar-da –
sig‘maydi-yu iniga,
g‘alvir bog‘lar dumiga.
Tushundim:
daxli bor bu gapning menga.
Ammo sizga anglatay qandoq –
O‘, na qadar suluvdir g‘alvir,
uni sudra-ab yurish –
naqadar zavqli. (Tushuning...)

“Egilgan, taslim bo‘lgan har qanday narsada isyon bor. Yoylar tortilganda go‘zal bo‘ladi, chunki tortilmaslik uchun chiranadi. Dunyodagi inson ijodi bo‘lgan barcha go‘zalliklar buyuk marhamatga isyon va alaloqibat tobelikning hosilalaridir. Hamma narsa egilmay-bukilmay to‘ppa-to‘g‘ri o‘sishni, yuksalishni istaydi. Ammo, ming shukrki, ularning hech biri buni uddalay olmaydi. To‘ppa-to‘g‘ri o‘sishga harakat qilavering, hayot sizni egib oladi.” – deydi ingliz yozuvchisi Gilbert Chesterton. Isyon va itoat A’zam O‘ktam ijodining poydevorini tashkil etadi. Uning she’riyatini boshdan-oxir kuzatgan odam, shoir isyonining bora-bora itoatga, o‘jarligining marhamatga, kinoyasining taslimiyatga aylanib borish jarayonini anglab yetadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining ta’biri bilan aytganda, uning she’rlarida “musulmon inson, dinini xuddi cho‘g‘ni tutgandek tutib, dindan ajrab qolgan bir jamiyatda yashab kelgan insonning fikrlari, uning qiynalishlari, o‘rtanishlari va xalqi uchun kuyunishi o‘z ifodasini topgandir”.

AZAM UKTAM: CREATIVITY AND CULTURAL PERSPECTIVES IN UZBEK LITERATURE

Gavhar MATYAKUBOVA,
People’s Artist of Uzbekistan, professor,
Dilnoza ARTIKOVA,
“Nihol” State Prize Winner, Researcher

Introduction. Azam Uktam (1960-2002) stands as a prominent figure in late 20th-century Uzbek literature, renowned for his poetry, prose, translations, and publicistic works. Despite his relatively short life, Azam Uktam's contributions enriched Uzbek literary traditions by blending philosophical depth, emotional sincerity, and a profound engagement with national heritage. His works, which include poetry collections such as *Observation* (1990), *Pilgrimage* (1992), *Preparation* (1993), *The Happiness of Two Worlds* (1998), *Fortieth Spring* (1999),

and posthumous publications like *The Heart Cries in the Morning* (2014) and *Interview with Tumaris* (2019), reflect a unique voice that harmonizes personal introspection with broader socio-cultural themes. Azam Uktam's creativity is characterized by its aesthetic ideals, drawing from folklore, religious motifs, and classical Uzbek influences, while his cultural perspectives emphasize patriotism, spiritual enlightenment, and the preservation of national identity amid historical upheavals. This article explores Uktam's literary output and his views on culture, highlighting how his art serves as a bridge between individual experience and collective memory in Uzbek society.

Azam Uktam's entry into literature was marked by a thirst for knowledge and a wide-ranging outlook, influenced by historical, religious, and traditional values. He worked as an editor in publishing houses, where he facilitated the release of scientific, artistic, and religious texts suppressed during ideological pressures. His poetry often exhibits succinctness, multi-layered meanings, and a prayer-like depth, where language is economical yet evocative, akin to musical compositions. Critics like Ozod Sharofiddinov and Sheikh Muhammad Sadik Muhammad Yusuf have praised his "fire in heart and words," noting his integration of religious and educational tones into modern Uzbek poetry. Azam Uktam's prose, though less voluminous, includes notable stories like "Khabar" (Message, 1995), which chronicles socio-political tragedies, and biographical works such as "The Child Shakes the World" about folk artist Sherali Juraev.

Literary Contributions and Aesthetic Ideals

Azam Uktam's poetry is a testament to his innovative approach, often described as a "unique and rare artistic phenomenon" born from inner rebellion and philosophical wisdom. He employs metaphors with profound essence, encouraging deep reflection, while his verses harmonize observations of nature, human psyche, and societal realities. Themes of pure love—likened to angelic purity or flames—permeate his work, underscoring that true happiness stems from faith and spiritual purity. For instance, in poems like "Kokand Wind" and "When I Go to Bukhara," Azam Uktam evokes national pride through vivid imagery of Uzbekistan's landscapes and historical sites, blending romantic uplift with emotional sincerity.

A central aesthetic ideal in Azam Uktam's creativity is the interplay between art forms, particularly literature, music, and dance. He views art as essential to life and national identity, portraying it as a mirror of the human soul and a tool for educating youth in patriotism and delicacy. Poems such as "Song," "You Are Longing," and "Mamajon Singer" glorify performers like Mamajon Hafiz, who capture the people's aspirations through melody, emphasizing that true art demands emotional depth to preserve cultural integrity. Azam Uktam incorporates folklore elements—baxshi style, epics, and traditional dances like Lazgi— to enrich his verses, fostering philosophical feelings and national pride. His language features repetition, similes, and color imagery for precision, as seen in quotes like:

"I will never play this drum,
I open the layers of the heart one by one.
A squeaky voice, with an old heart,

It's not easy to sing about love."

In prose, Azam Uktam extends these ideals to narrative forms. "Khabar" exemplifies his ability to reflect socio-political life, set in mid-20th-century Kokand and Khanovot village amid Soviet oppression, war hardships, and religious aspirations. The story, structured in three parts with Quranic epigraphs from Surah an-Naba, explores conflicts between faith and ideology through protagonists like Akram and Tavfuqbek, depicting psychological tragedies and the quest for spiritual maturity. This work innovates Uzbek short story traditions by avoiding one-sided character assessments, instead delving into mental states and deeds of faith, thus contributing to the genre's evolution.

Azam Uktam's translations further showcase his aesthetic versatility, rendering works by Rabindranath Tagore and Nikolai Rubtsov into Uzbek, while his religious interpretations, such as poetic renditions of Imam Bukhari's hadiths in "The Happiness of Two Worlds," infuse literature with divine wisdom. Overall, his creativity prioritizes sincerity, logical strength, and humanistic ideas, warning against societal vices like slander and urging self-improvement.

Cultural Perspectives and Societal Reflections

Azam Uktam's cultural views are deeply rooted in patriotism, national identity, and spiritual enlightenment, positioning his works as a call to preserve Uzbekistan's heritage amid modernization and historical traumas. He perceives the world through the lens of national interests, addressing complexities like the Aral Sea's desiccation and the nation's contradictions. Themes of homeland love, freedom, and independence dominate, as in verses expressing longing for Fergana's apricot gardens and defending ancestors against accusations of illiteracy: "Our ancestors were not illiterate, they built homes like books." His poetry awakens dormant national feelings, preparing readers for independence by blending patriotism with internationalism.

Religiously, Azam Uktam integrates Islamic motifs to promote kindness, honesty, and faith, viewing love as divine and urging purification from unbelief. In "Preparation," he poetically interprets hadiths, such as one on mistreating animals during eclipses, to illustrate ethical wisdom. Culturally, he advocates safeguarding ancient arts like maqom and baxshi traditions, seeing them as vital to spiritual and psychic harmony. His works honor classical figures like Alisher Navoi and Abdullah Qadiri, linking contemporary literature to enlightenment roots.

Through prose like "Khabar," Azam Uktam critiques socio-political injustices, portraying resistance through faith against Soviet policies, thus reflecting cultural resilience. His perspectives emphasize humanity's highest qualities—affection, truth, and self-confession—while harmonizing individual emotions with collective realities.

Conclusion

Azam Uktam's legacy lies in his ability to infuse literature with aesthetic depth and cultural relevance, making his works a "great school" for Uzbek readers. His creativity, marked by philosophical introspection and artistic innovation, alongside

his views on national pride, faith, and heritage preservation, continues to inspire. Though his life was brief, Azam Uktam's contributions endure as a beacon of sincerity and cultural vitality in Uzbek literature, warranting further scholarly exploration.

References

1. Uktam, Azam. *Flowers Bloomed in the Fall*. Tashkent: Ghafur Ghulam Literature and Art Publishing House, 1988.
2. Uktam, Azam. *Observation*. Tashkent, 1990.
3. Uktam, Azam. *Pilgrimage*. Tashkent, 1992. (Poems exploring spiritual journeys, national heritage, and religious motifs.)
4. Uktam, Azam. *Preparation*. Tashkent, 1993.
5. Uktam, Azam. *The Happiness of Two Worlds*. Tashkent, 1998. (Poetry blending faith, love, and humanistic ideals, including renditions of religious texts.)
6. Uktam, Azam. *Fortieth Spring*. Tashkent, 1999.
7. Uktam, Azam. *The Heart Cries in the Morning*. Tashkent, 2014.
8. Yusupova, D. "The Main Features of Azam Uktam Prose." *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, Vol. 2, No. 11, 2022, pp. 31-35. (An analysis of Uktam's story "Khabar," discussing its socio-political themes and narrative innovations.)

A’ZAM O‘KTAMNING “DIYDOR” DOSTONINING BADIIY - FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Bahodir RAHMONOV,
Andijon davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli shoir va tarjimon A’zam O‘ktamning “Diydor” dostonining badiiy – falsafiy xususiyatlari tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: so‘z, iymon, “Diydor”, hayot haqiqati, davr nafasi, tarix, istiqbol, isyon.

O‘zining olovdek isyonkor so‘zlari bilan XX asr o‘zbek she’riyatiga kirib kelgan A’zam O‘ktam asarlari ma’naviy-ma’rifiy-falsafiy manba sifatida faqat bugungi kunga emas, balki istiqbolga ham xizmat qilishi aniq. Chunki, ularda kelajakda ham jamiyat taraqqiyoti va ravnaqiga xalaqit beradigan muammo va illatlarning tub mohiyatini ochilgan. She’riyat xalq ko‘ngliga yaqin bo‘lganligi sababli unda ko‘tarilgan g‘oyalar, qarashlar o‘quvchi diliga tezroq yetib boradi.Qaysi davr va jamiyatda bo‘lmasin, haqgo‘y ijodkorlar o‘z asarlarida insonning dunyoqarashi, intilish va kurash yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy hodisalarni aks ettiradi. A’zam O‘ktam ona yurt, ona xalq tarixining har bir sahifasini ko‘ngil va tafakkur ko‘zi bilan o‘qigan adib edi.

Davrning har bir nafasini, millatning dardlarini, zamondoshlarining tashvishu muammolarini qalb qulog‘i bilan tinglardi.

Uning kitoblariga kirmagan asarlaridan biri “Diydor” dostonidir. Dostonga so‘zboshi yozgan tadqiqotchi T.Butunboevaning fikricha, “XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast shoirlaridan biri A’zam O‘ktamning yozuv stolida qolgan mazkur dostoni mustaqillikning ilk kunlarida yozilgan bo‘lib, unda turg‘unlik davridagi ziddiyatlar, ijtimoiy adolatsizliklar, ikkiyuzlamachilik, har xil ko‘rinishdagi ma’naviy – axloqiy illatlar bilan bog‘liq ayanchli voqealar ifodalangan.”

Ma’lumki, sobiq tuzum xalq hayotini parokanda qiluvchi salbiy hodisalarga qarshi keskin kurash olib bormadi. 90-yillar boshida ma’naviy kurashlar maydonida o‘zbek she’riyatining ovozi hayqiriqqa aylandi:

Ne manzil ko‘zlasam ko‘zlarim tindi,
ortimga qaramay ketdim ortimga.
qadam bosar-bosmas bor shahdim so‘ndi –
sig‘mayman shekilli endi yurtimga...

Shoirning dadil va o‘ktam fikrlari hayot qatlamlariga chuqurroq razm solishga, o‘ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladi. Taraqqiyot yo‘lida katta to‘siqqa aylangan jamiyatning eng og‘riqli muammolarini ayovsiz fosh qiladi. Bu nuqsonlar hukmronlik qilgan siyosat va g‘oya tanazzulga yuz tutdi. Xalq istiqlolga erishdi. Lekin o‘tish davrining qiyinchilik va mashaqqatlaridan butunlay qutulish ham oson kechmadi. Doston qahramonlaridan biri shunday deydi:

“Qishloq ahli ketdi bir chetda qolib,
kelmaydigan qildi shaharga davlat.
Qo‘qqis chaqib olar yo‘lkira – chayon,
Narxlar asov otdek sapchir osmonga.
O‘ylang, bir maoshga berar nechta non,
erk og‘irlik qildi O‘zbekistonga”.

Dostonda hayot va inson, jamiyat va inson munosabatlari kundalik voqealar zamirida insonning o‘tmishi, bugungi hayot yo‘li va kelajagi mantiqan bir-biri bilan bog‘lanadi. Achchiq haqiqatni o‘z vaqtida ko‘rgan shoir jamiyatni qayta qurish uchun birinchi navbatda iymon va insof, halollik va vijdon shart ekanligini aytadi. Isyonkor g‘oyalarni, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini yoshlarning ongu-shuuriga singdirishga harakat qiladi:

Asli qishloq ahli xirmonda odam,
Kengbag‘ir va saxiy qiladi dala.
To‘nini ters kiyar ishsiz qolgan dam,
Mayda gap, jizzaki, gumroh bir gala.
Birov bosh qotirib o‘ylamas go‘yo
Qaysi jamiyatda yashayotganin...

Inson hayotining negizi vijdoniy poklik ekanligi haqiqat, lekin bu haqiqatga qanday yetishish mumkin? Shoir yurtdoshlarining iztiroblariga hamdard va hamnafas, uni millatning ayanchli taqdiri qiziqtiradi, u chinakam hayotiy to‘qnashuvlar, ziddiyatlar orqali jamiyatning ma’naviy- axloqiy muammolarini

ochadi. Millat va inson sha’niga dog‘ bo‘lib tushadigan illatlarni qoralash bilan kifoyalanmaydi, ularga qarshi kurashga da’vat qiladi. Doston xotimasida shoir shunday fikrga keladi:

Savollar to‘xtamas, berurman javob,
Yoshlar haqiqatga tashnadir mutloq.
Ravshan oq-qoraday gunohu savob,
demak, ko‘zlarini uqalar qishloq...

A’zam O‘ktam “ko‘zlarini uqalayotgan qishloq” timsolida uyg‘onayotgan, milliy o‘zligini taniyotgan, milliy g‘ururini his qilayotgan millatning ertangi kunini ko‘radi. O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon aytganidek, “A’zam O‘ktam ijodining salohiyati, yuguroq ko‘zlarga tezda chalinavermaydigan ichki qudrati, o‘xshashi yo‘q nafosati haqida taniqli adabiyotshunoslar, qalamkash do‘stlari bir – biridan mazmundor, ko‘tarinki maqolalar yozishgan. Ulardan o‘tkazib aytishim qiyin. Ishonchim komilki, mutaxassislar bu iqtidorli adib merosiga hali qayta – qayta murojaat qilishadi. Uning yangidan – yangi qirralarini kashf etishadi. Shoir ijodining o‘rganilmagan, o‘rganilishga juda-juda arziydigan jihatlari ko‘p.”[1;5]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, taniqli shoir A’zam O‘ktamning “Diydor” dostoni badiiy - falsafiy va lingvopoetik jihatdan alohida o‘rganilishga munosib asarlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Obidjon A. Yasharib borayotgan shoir. Osmon yaqin... T. 2011.
2. Mahmudov N. So‘z ziyorati O‘zAS 1992 18 sentyabr
3. Bahodir K. A’zam shoirning o‘ktam ovozi. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2018.
4. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar. T. 1989. 5. A’zam O‘ktam. Taraddud. T. 1993.
5. O‘ktam A. Diydor. «Ijod olami” jurnali, 2019 yil, 5-son.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. A’zam O‘ktamni xotirlab / Sahar vaqti yurak yig‘lar... – T. “Movarounnahr” 2014.
7. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019.
8. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T: Fan, 1977
9. Xudoyberdieva H. Tanlangan asarlar. – T. Sharq, 2019.
10. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar: She’rlar. – T.: 1990.
11. O‘ktam A. Kuzatish: She’rlar. – T: Yosh gvardiya, 1990.
12. O‘ktam A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T:, 1999.
13. O‘ktam A. Osmon yaqin...: She’rlar. – T:, 2011.
14. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. – T:, 2014.
15. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.
16. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –Toshkent: Muharrir, 2019.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA NUTQIY AKTLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Muhammadjon Mamajonov,
Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor
Nizomiddin Qo‘ldashev,
Farg‘ona davlat universiteti ,
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri, taniqli shoir va adib A’zam O‘ktam she’riyatida nutqiy aktlarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: nutq, so‘z, diologik nutq, milliy o‘zlik, qadriyat, maqol, madaniyat, munosabat, hadis, monologik nutq.

Annotation: This article examines the specific features of speech acts in the poetry of Azam Uktam, one of the prominent representatives of 20th-century Uzbek literature.

Key words: speech, word, dialogical speech, national identity, value, proverb, culture, attitude, hadith, monologue speech.

She’riyat - o‘quvchi - yoshlar tarbiyasiga benihoyat katta ta’sir ko‘rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy-estetik zavq va didni shakllantiradi, ularni bir birlariga yaqinlashtirib, insoniy fazilatlarini yuksaltiradi, fikr tuyg‘ularini birlashtiradi, go‘zallikni idrok etishlarida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, nutq madaniyati darsi boshqa darslardan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va o‘quvchilarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi.

Texnika asri shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda mamlakatimizda asriy sinovlarga bardosh bergan milliy qadriyatlarni, millat ruhi bo‘lmish ona tilini o‘rganish va o‘rgatishga davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda. Milliy o‘zligini, ulug‘ ajdodlardan meros an’analarini, ona tilini ulug‘lagan va asrab-avaylagan, ularni muttasil boyitib borgan millat hamisha muzaffardir. Muhtaram Prezidentimiz to‘g‘ri ta’kidlaganidek: Adabiyot ixlosmandlari orasida “imon shoiri” deb nom qozongan so‘z san’atkori A’zam O‘ktamning o‘zbek tili imkoniyatlaridan mohirona foydalanish qobiliyati personajlar nutqida yanada yorqin namoyon bo‘ladi. U personajlar o‘rtasidagi kommunikativ jarayonning ro‘yobga chiqishida nutqiy va nutqiy bo‘lmagan vositalarni birgalikda qo‘llaydi. Binobarin, adabiyot so‘z san’ati ekan, badiiy matnning shakllanishida ishlatilgan har bir til unsurlari asar mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi.

A’zam O‘ktamning “Kuzatish”, “Kuzda kulgan chechaklar”, “Ziyorat”, “Taraddud” kabi kitoblaridan o‘rin olgan asarlarida milliy o‘zlikni anglash, farzandlik burchini his qilish tuyg‘usi ona vatanga va ona tiliga muhabbat

ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shoir qo‘llagan har bir so‘z o‘z o‘rnida betakror ma’no kasb etadi. U xalq maqollarini shunday mahorat bilan qo‘llaganki, ular kitobxonda zavq uyg‘otadi. Shoir so‘zlarning ko‘chma ma’nolaridan obrazlarni inviduallashtirish va nutqqa estetik bo‘yoq berishda juda qulay manba sifatida foydalanadi. ”Ko‘rga hassa”, “Maqolga sharh”, “Muloyim xunuk”, “Tajriba”, “Bahonada”, “Ehtimol”, “O‘zingga ehtiyot bo‘l” kabi she’rlarida A’zam O‘ktam she’riy san’atlarning eng go‘zal namunalarini yaratadi.

Ko‘p asrlardan beri til va madaniyat, til va qadriyat munosabati muammosi kun tartibining eng dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda. Tarixning turli davrlarida bunday munosabatlar jamiyat ehtiyojiga ko‘ra umumiy va juz’iy mezonlarga bo‘linadi. Zero, har doim insonning tili, ya’ni nutqi, uning odobi, ichki madaniyatini namoyon qiluvchi vosita deb qaralgan. Ajdodlarimiz har bir shaxsning tiliga, uning tilga munosabatiga, nutqining qay tarzda namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor berishgan. Shunday qarashlar tufayli zamonlar o‘tishi bilan nutq odobini, muloqot madaniyatini belgilovchi ma’lum mezonlar vujudga kelgan.

Atoqli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor M.Hakimovning fikricha, “Nutqiy aktlar muloqotta kirishuvchi kishilarning o‘zaro sotsial munosabatlari asosida shakllanadi. Nutqiy muloqot aktlari nutqiy aktlar nazariyasining tadqiqot ob’ekti sanaladi. So‘zlashuvchilarning nutq vaziyati bilan bog‘liq o‘zaro aloqa-aralashuv jarayonidagi verbal muloqoti nutqiy aktlarni tashkil qiladi. Nutqiy akt tushunchasi nutq hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqiy muloqot jarayonida so‘zlovchi, tinglovchi va nutq vaziyati ta’sirida nutqiy akt paydo bo‘ladi. Nutqiy aktlar gap va undan katta birliklar orqali ifodalanadi. Nutqiy akt, bir tomondan, lug‘aviy birliklarga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular o‘ziga xos mazmuniy strukturaga ega bo‘ladi, shu jihatlari bilan lug‘aviy birliklardan keskin farklanadi. Nutqiy aktlar nutq yoki matnda, asosan, implitsit shaklda namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar gap yoki nutq mazmuni asosida yuzaga chiqadi. Ularning ma’nosi kontekstga nisbatan belgilanib, o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘ladi. Ifoda intonatsiyasi ta’sirida nutqiy aktlarning mazmuni xabar, so‘roq yoki buyruq kabi ma’nolar bilan almashinib turadi. ”. [9;38]

Ma’lumki, A’zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati” kitobida buyuk muhaddis Imom Buxoriy hazratlari to‘plagan ayrim hadislarning she’riy talqini yaratilgan. Buning uchun muqaddas hadislarning bolalarga taalluqli bo‘lganlari tanlab olingan. Maqsad – o‘sib kelayotgan yosh avlodni go‘dakligidan komillikka, yuksak ma’naviyat va ma’rifatga da’vat qilishdir. **“YOMONLIK QILMASLIK – SADAQA”** she’riga *«Har bir ezgu amal — sadaqadir!»* deyilgan hadis asos qilib olingan. Unda diologik nutqning eng mukammal namunalarini kuzatamiz:

Rasulullоh derlar: «Musulmon -
Qilmoqligi lozimdir ehson».
So‘radilar: «Ne qilsa bo‘lar,
Bunga loyiq mol topmasa gar?»
Derlar: «Qilsin qo‘l birla mehnat,
O‘zi, birov topsin manfaat».

As’hob tag‘in berdi savolin:
«Etmasa-chi ishlashga holi?»
Rasulullоh aylar marhamat:
«Bersin nochor, muhtojga madad».
So‘rab qoldi tag‘in bir odam:
«Bo‘lmasa-chi qodir shunga ham?»
Rasulullоh topur chorasin:
«Yaxshilikka elin chorlasin».
Kim o‘tganin aytdi dilidan:
«Kelmasa-chi bu ham ko‘lidan?»
Ayladilar muruvvat Janob,
Some’larga shu bo‘ldi javob:
«Yomonlikdan o‘zini tiysin,
Hatto shuni sadaqa bilsin».[22, 6]

Monologik nutq dialogik nutqqa nisbatan psixologik va lisoniy jihatdan ancha murakkab jarayon bo‘lib, u muallifdan o‘z fikrlarini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalarini talab etadi. Shoir monologik nutq vositasida o‘zining ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi:

ORALIQDA
Jonimga tegmoqda barchasi bir-bir,
Jon esa halqumga kelar oxiri.
Bitta men yo‘q bo‘lsam ne bo‘pti axir —
O‘zbekning kamayib qolmas shoiri.[23, 7]

Shoir xalqona iboralar, maqol va matallardan ham keng foydalanadi. “Bahonada” she’rida shunday deydi:

Qor yoqqani yaxshi – izlar bosilar,
Ma’qul shamol kelgani –
quviladi dardu gard.
Yomg‘ir yuvar g‘uborni.
Hammasidan yov qochgani zo‘r,
bolalaydi botirlar.

Bu mo‘jazgina she’rda bir emas, ikkita maqol qo‘llanyapti. Shoir “Qor yog‘di izlar bosildi”, “Yov qochsa botir ko‘payar” maqollarini mazmunini saqlagan holda o‘zgartirishi natijasida she’rning falsafiy teranligi va ta’sirchanligi kuchaymoqda.

A’zam O‘ktam “Onam fotihasi” she’rida ona tili millatning eng noyob va asl qadriyati ekanligini alohida ta’kidlaydi:

Seni jo‘natishsa olis yurtlarga,
Agar xalqi o‘zga tilda gapirsa,
Hech taqlid qilmagin sur, beburdlarga,
So‘kmagin uyidan senga joy bersa.

Shoirning “Tilim”, “O‘zi pokning dili pok”, “O‘tinch”, “Til”, “Onamga”, “Tilak”, “Sahar vaqti yurak yig‘lar... ”, “Qo‘shiq” kabi she’rlarida ona tili milliy

o‘zlik, milliy g‘urur, milliy qadriyat va vatan timsoli ekanligi obrazli – falsafiy talqin etilgan.

Bugungi kunda ta’limning zamonaviy sharoitlarida barcha fanlar qatori, nutq madaniyati fanidan ham darslarni zamonaviy innovatsion- pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga, an’anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi zamonaviy innovatsion g‘oyalarni izlab topish maqsadida tobora jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Dars o‘tishning turli xil yo‘l-yo‘riq va vositalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, mashg‘ulot darsi, kinoli dars, teatrli dars, chizma darsi, BBB usuli (bilaman, bilishni xohlayman, bildim), shuningdek, musiqa ta’limi jarayonida keng qo‘llanib kelinayotgan “Aqliy hujum”, “Juftlikda ishlaymiz”, “Xotira charxi”, «Tarmoqlash» kabi yangi pedagogik texnologiyalar va intefaol usullar shular jumlasidandir. Bu usullar ta’lim samaradorligini, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda juda muhim o‘rin egallaydi.

Kelajagimiz vorislari bo‘lmish yoshlarni vatanga, ona tiliga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda, ularning nutqini o‘stirishda millatparvar shoir A’zam O‘ktam she’rlarining ahamiyati va o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi//O‘zbekiston ovozi gazetasi. 21. 10. 2019; https://uza. uz
2. Karim B. A’zam shoirning o‘ktam ovozi. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2018.
3. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar. T. 1989.
4. O‘ktam A. Taraddud. T. 1993.
5. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat. T. 2019.
6. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992.
7. Hakimov M. Farg‘ona pragmalingvistika maktabi 1 qism. Farg‘ona davlat universiteti, -2022.
8. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Ma’nolar mahzani. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
9. O‘zbek xalq maqollari. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
10. Mahmudov N. Zarif so‘z saodati. T.: “Tubo Nashr”, 2023.
11. Chimkent armug‘oni. To‘plam. Chimkent.: “Elem” nashriyoti, 2021.
12. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo‘llanma. T.: “O‘qituvchi”, 1987.
13. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2014.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-j. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
15. Yoqubov O. So‘z. Toshkent.: “Sharq”, 2007.
16. Yefimov A.I. Stilistika xudojestvennoy rechi. Moskva.: “Nauka”,1981.

HISTORICAL AND MODERN SIGNIFICANCE OF AZAM UKTAM'S POETRY

Bakhtiyorjon Rasulov,
Rector of the Andijon State Pedagogical Institute,
Doctor of History, Professor.

Abstract

This article examines the historical context of Azam Uktam's work during Uzbekistan's transition from Soviet rule to independence, highlighting how his poetry reflects cultural revival and national identity formation. It also explores his modern relevance, including pedagogical applications, spiritual depth, and influence on subsequent generations of writers. Through analyses of selected poems from collections such as "Flowers Bloomed in the Fall" (1989), "Pilgrimage" (1992), "Hesitation" (1993), "Happiness of Two Worlds" (1998), and "Fortieth Spring" (1999), the study demonstrates Azam Uktam's use of art motifs, religious allusions, and humanistic themes to bridge past and present. English translations are provided to illustrate his stylistic mastery. Drawing on scholarly critiques, the article argues that Azam Uktam's legacy endures in fostering ethical awareness, aesthetic appreciation, and cultural preservation amid globalization. His contributions not only enrich Uzbek literary canons but also offer universal insights into resilience and spirituality, advocating for greater global recognition.

Keywords: Azam Uktam, Uzbek poetry, historical context, modern relevance, cultural revival, national identity, art motifs, religious themes, humanistic ideals, post-Soviet literature, pedagogical value

Introduction

Azam Uktam, born in the Fergana Valley, Uzbekistan, emerged as a versatile literary figure whose poetry, prose, and translations profoundly shaped modern Central Asian discourse. Graduating from Tashkent State University's Journalism Faculty in 1985, Azam Uktam pursued careers in journalism, editing, and translation, which honed his linguistic precision and cultural sensitivity. His life, tragically cut short in 2002 at age 42, spanned the late Soviet era and early independence, periods marked by ideological shifts and national reawakening. Azam Uktam's oeuvre includes poetry collections like "Flowers Bloomed in the Fall" (1989), "Farewell" (1990), "Pilgrimage" (1992), "Hesitation" (1993), "Happiness of Two Worlds" (1998), "Fortieth Spring" (1999), "The Sky Is Near" (2011 posthumous), "The Heart Weeps at Dawn" (2014 posthumous), and "Conversation with Tumaris" (2019 posthumous). He also authored prose such as "The Child Shakes the World" (1988) and translated works by Rabindranath Tagore and Nikolai Rubtsov, introducing global perspectives to Uzbek readers.

Historically, Azam Uktam's poetry captures the turbulence of perestroika and independence, critiquing Soviet homogenization while reclaiming indigenous

traditions. In the modern era, his verses resonate with themes of spiritual maturity, ethical humanism, and artistic heritage, influencing educational curricula and cultural festivals. Scholars praise his integration of folklore, music, and Islamic elements, positioning him as a bridge between classical Uzbek literature (e.g., Alisher Navoi) and contemporary voices. This article contends that Azam Uktam's significance lies in his ability to synthesize historical legacies with modern aspirations, fostering national pride and universal empathy. The discussion will analyze poems like "Hesitation" from "Hesitation" (1993), "In Between" from "Pilgrimage" (1992), "The Night of Power Is Not in Another Month" from "Flowers Bloomed in the Fall" (1989), "Song" from "Happiness of Two Worlds" (1998), and "Clouds Did Their Job" from "Fortieth Spring" (1999). Through textual examinations, translations, and contextual insights, we illuminate his enduring impact, supported by factual data from literary analyses and socio-historical events.

Historical Context: Uktam's Poetry in the Soviet and Post-Soviet Eras

Azam Uktam's emergence in the 1980s coincided with Gorbachev's glasnost, a period of tentative cultural liberalization amid Soviet decline. His early works, like "Flowers Bloomed in the Fall" (1989), subtly reintroduced religious and national motifs suppressed under Russification, reflecting the underground revival of Islamic traditions in Fergana. Historically, Uzbekistan's literature had been co-opted for socialist realism, but Azam Uktam drew from classical roots—Navoi's philosophical lyricism and Chulpan's modernist irony—to critique societal ills without overt dissent. Post-1991 independence amplified his role; collections like "Hesitation" (1993) captured the "hesitation" of nation-building, addressing economic chaos and ethnic tensions in Fergana, his birthplace.

Azam Uktam's translations of Tagore and Rubtsov introduced Eastern mysticism and Russian nature poetry, enriching Uzbek discourse during decolonization. Factually, his work aligned with President Karimov's (1989–2016) emphasis on national spirituality, contributing to the 1990s cultural renaissance. His poetry's historical significance lies in documenting generational shifts, from Soviet conformity to independent self-reflection, positioning him as a chronicler of resilience.

Modern Relevance: Educational, Spiritual, and Cultural Impacts

In the 21st century, Azam Uktam's poetry remains vital for its pedagogical value, inspiring youth through themes of humanism and art. Initiatives like Uzbekistan's baxshi and maqom festivals, endorsed by President Mirziyoyev since 2017, echo his motifs of folk music and dance, preserving intangible heritage amid globalization. Modern scholars highlight his linguistic innovations, filling "gaps" with dialectal elements to counter Russification, influencing contemporary poets like Minhojiddin Mirzo. His religious tones, as in hadith interpretations, promote spiritual maturity in an era of secular challenges. Factually, posthumous publications like "The Sky Is Near" (2011) have been integrated into curricula, fostering ethical awareness and national pride. Azam Uktam's modern significance extends to diaspora communities, where his verses sustain cultural ties.

Analysis of "Hesitation": Existential Critique and National Awakening

From "Hesitation" (1993), this titular poem reflects post-Soviet uncertainty.

Nothing is certain, everything is veiled in fog,
If I ponder my faults—madness overtakes the mind.
The sky, open like a maiden's face,
Prepares for the clouds' arrival.
A single candle flickers in the night breeze,
Perhaps dressed in ash, but at core, it's sorrow.
If an invader comes to another's land,
This is the preparation for eventual expulsion.
I saw eyes cold, hearts frozen,
Tempted to play with fire for warmth.
If the environment heralds winter's onset in autumn,
What purpose in living if not facing it head-on?
The path is clear, no turning back.
I am leaving now. What has passed—
I no longer ponder my soul.
I need but one field—to wage my battle:
Let death not find me idling in bed!

Historically, it critiques imperial legacies, drawing from 1993's ethnic strife. Modernly, it inspires resolve amid global crises. The fog metaphor teaches introspection, while the candle symbolizes fleeting hope, fostering ethical courage. Focusing on four lines:

The sky, open like a maiden's face,
Prepares for the clouds' arrival.
A single candle flickers in the night breeze,
Perhaps dressed in ash, but at core, it's sorrow.

These evoke vulnerability, highlighting Azam Uktam's aesthetic ideal of blending nature with human emotion for spiritual insight.

Analysis of "The Night of Power Is Not in Another Month"

From "Flowers Bloomed in the Fall" (1989), this quatrain distills irony.

Though it kills, the arrow brings delight,
The heart, sated, yearns for the sky.
My Lord is endlessly merciful,
yet The Night of Power exists in no other month.

Historically, it reintroduces faith during glasnost. Modernly, it fosters devotion. The entire quatrain.

Analysis of "Song": Artistic Heritage and Moral Vigilance

From "Happiness of Two Worlds" (1998), this folk-style poem celebrates culture.

The melody of the heart is eternal, echoing through valleys,
In the rhythm of the dutar, our stories unfold.
Fergana's gardens bloom in song, eternal and pure,
Where love and betrayal dance in the same tune.
Sing of the ancestors, their wisdom in every note,
The river flows with melodies of forgotten lore.

The melody of the heart is eternal, echoing through valleys, In the rhythm of the dutar, our stories unfold. Fergana's gardens bloom in song, eternal and pure, Where love and betrayal dance in the same tune. Highlight art's role in national identity.

Broader Implications: Uktam's Enduring Legacy

Azam Uktam's poetry influences modern Uzbek literature by integrating art and ethics, as seen in comparisons to Seamus Heaney. His work supports cultural policies, enhancing global

Azam Uktam's poetry holds profound historical and modern significance, documenting Uzbekistan's evolution while inspiring contemporary values. Analyses reveal his mastery in weaving heritage with relevance. His legacy demands continued study for cultural enrichment.

References

1. Karimov, B. (2020). Art Theme in Azam Uktam's Poetry. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*.
2. Mukhamedjanova, M. (2022). Azam Uktam and Seamus Heaney's Poetry. *Conference Proceedings*.
3. Hasanov, A. (2021). Linguistic Features in Azam Uktam's Works. *Samarkand State University Journal*.
4. Isroilov, G. (2021). Poetic Discourse in Azam Uktam and Minhojiddin Mirzo's Poetry. *zienjournals.com*.
5. Karimov, B. (2020). Aesthetic Ideal in Azam Uktam's Work. *Conference Publication*.
6. Nishonova, K. (2022). Features of Azam Uktam Prose. *Inovatus Journals*.
7. Uktam, A. (Various Years). Poetry Collections as Listed. Tashkent Publishers.
8. Scholarly Analyses (2020-2022). *ResearchParks* and *Ziyouz.com*.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MILLIY RUH VA MILLIY XARAKTER IFODASI

Minhojiddin MIRZO,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisining birinchi o‘rinbosari,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli shoir A’zam O‘ktam ijodida milliy ruh va milliy xarakterning ifoda usullari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy ruh, xarakter, el, ma’naviy sarchashma, qadriyat, diniy-ma’rifiy ta’limot, badiiy mahorat, A’zam O‘ktam.

Annotation: This article studies the methods of expression of the national spirit and national character in the work of the famous poet Azam Oktam.

Keywords: national spirit, character, people, spiritual source, value, religious and educational teachings, artistic skill, Azam Oktam.

Ma’naviyat va tafakkur yuksalishi millat tarixi, madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyati va ahamiyatini xolisona bilish, ulardan oqilona foydalanish, rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Milliy ruh - xalqimizning moziy sinovlaridan o‘tib kelayotgan boy madaniy va ma’rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf - odat va an’analari, erku saodat yo‘lidagi jasorati, tafakkur xazinasi, aql-zakovati, axloqiy tamoyillari, millat oldidagi burch va sadoqati ifoda etilgan ilg‘or g‘oyalardan iborat. Zero, “...adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”[1]

...Bu so‘zlar milliy istiqlol tafakkurining shakllanishida, millat ma’naviy kamolotida, uning badiiy so‘z vositasida o‘zligini anglashida uyg‘oq so‘z, adabiyot naqadar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib turibdi. Har qanday milliy adabiyotning asosini uning millatga ruh bag‘ishlovchi tarixi va tili, yuksak insoniy da’vatlar tashkil etadi..

Taniqli shoir va tarjimon A’zam O‘ktam bu borada mustabid tuzumning mustamlakachilikka asoslangan “qadriyatlari”ga nisbatan murosasiz, isyonkor va yovqur she’riyati bilan XX asr o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash jarayonlari takomiliga, adabiyotda erk va ozodlik tarannum etilgan asarlar yaratilishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Kuzda kulgan chechaklar”, “Kuzatish”, “Ziyorat”, “Taraddud”, “Ikki dunyo saodati”, “Qirqinchi bahor” she’riy to‘plamlari, “Bola dunyoni tebratar”, “Xabar” kabi nasriy asarlari, publitsistik maqolalari tabiatidagi mardona ruhning mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Ayniqsa, “Taraddud” kitobi nafaqat shoir ijodida, balki milliy adabiyotimiz taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim O. Sharafiddinovning fikricha, “Eng muhimi, u birinchilardan bo‘lib zamonaviy o‘zbek she’riyatiga diniy–ma’rifiy ohanglarni olib kirdi. Uning “Taraddud”, “Ikki dunyo

saodati” kitoblari Qur’oni Karimdan chuqur bilimga ega bo‘lganligining isbotidir”. [12, 287]

Shoir inson va tarix, inson va davr o‘rtasidagi yangi ruhiy rishtalarni izladi. Uning asarlarida inson umri va ruhiyatida kechadigan evrilishlar fasllar misol muayyan vaqt doirasida o‘zligini namoyon etadi va o‘zidan keyingi faslga yo‘l ochib beradi. Shoir aytganidek, na iltijo, na ko‘zyosh, na pushaymon o‘tgan fursatni ortga qaytaradi. O‘z-o‘zidan inson falakning aylanishi, zamonlarning o‘tishi, tabiat qonunlariga qarshilik qilolmaydi. Shunday ekan, fursat g‘animatligini anglamoq A’zam O‘ktam ijodida ko‘p bor ta’kidlangan. (“Yil yiqilar yilning ustiga”, “Tugab bormoqdadir yoshlik...”, “Taraddud”, “Dimog‘imga zulmatning...”, “Oroldagi o‘ylar”, “Uyqum qochgan kechada”).

Shoir kundalik voqea-hodisalardan o‘ziga xos alohida falsafasi va go‘zalligi bilan ruhiyatimizni yayratadigan, ko‘ngil ko‘zimizni yashnatadigan, ilohiy-irfoniy olamimizni boyitadigan poetik shakllar yaratdi. Uning she’rlarida avvalo iymon ziyosi, vijdon sha’mi, ozodlikka tashna yurak shiddati, chuqur tafakkur bilan uyg‘unlashgan ajib haroratli sehr, maftunkorlik va samimiyat uchqunlari porlab turardi. Har bir so‘zining nafaqat o‘z tarovati va ohangi, balki qalbi, ruhi bor edi. Zukko kitobxon uning ma’yuslik ichra o‘ktamlik ovozi eshitilib turgan so‘zlaridan allanechuk nur taralayotganini osongina ilg‘ab olardi. Shoir xotirjamlikka toqatsiz bo‘lib, vaqti, umr lahzalarini maqsadga bo‘ysundirishga intilardi. Umri mehnat, zahmat, izlanish ichra kechardi. U qadim Sharq va jahon adabiyotining hikmat to‘la durdonalari bilan bir qatorda yangi dunyo adabiyoti silsilalarini ham sevib mutolaa qilardi. Robindranat Thakur, Bernar Dade, Nikolay Rubsov asarlari bilan bir qatorda Vladimir Visoskiy she’rlarini ham o‘zbek tiliga tarjima qildi. Tarjimalari alohida ilmiy tadqiqot uchun asos bo‘lishga arzirli.

To‘g‘ri, har bir navqiron avlod yangi adabiyotga o‘z ovozi bilan kirib keladi. Hazrat Navoiy iboralari bilan aytganda, “so‘z chamani”ga yangi mavzu, rang, ohang olib kiradi va bu adabiyot kechagi adabiyotdan butunlay farq qiladi. A’zam O‘ktam o‘zining 42 yillik qisqa umri davomida nihoyatda og‘ir va murakkab dovonlarni bosib o‘tdi. Uning so‘zlari qa’rida birda dilxun, birda dilkash farg‘onacha tabiiy sado yangrab turadi. A’zam O‘ktam lirik qahramonning ichki kechinmalari, sog‘inchi va dardu armonlari, iztiroblarini ifodalashda xotira qatlaridagi yog‘duni samimiy va haroratli satrlarga ko‘chiradi.

Milliy o‘zlikni anglash o‘z tabiatiga ko‘ra emotsional hodisadir va uning asl qiyofasi millat ozodligi uchun kurash, uning manfaatlari, or-nomus va g‘ururini, qadriyatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “A’zam O‘ktam janoblarining “Taraddud” kitoblarini o‘qiganda kamina xodimingizda mutloq boshqa bir fikr paydo bo‘ldi. Ko‘pdan beri o‘ylab, izlab yurgan she’riyat mana shu darajaga chiqsa edi degan xohish, istakni aynan “Taraddud” kitobida ko‘rdim. Avvalo tan olib aytishim kerakki, men A’zam O‘ktamni yaxshi tanimas ekanman. Bu ehtimol kamchiligimizdir. Lekin shunchalik she’r bitishga iqtidori bor shoir, ham vatandoshni tanimaslik albatta biz uchun obro‘ ham bo‘lmas.

Menga bu kitob kimdir tarafidan hadya tariqasida bir necha kitoblar orasida yuborilibdi. Ba’zi bir kitoblarni olib birinchi sahifasini o‘qigandan so‘ng, ikkinchisini ochishga inson o‘ylanib qoladi. Lekin «Taraddud» kitobining birinchi sahifasidagi she’rni o‘qib bo‘lgan inson esa sergaklanishi, tezroq ikkinchi sahifani ochishga urinishi, menimcha, turgan bir gapdir. Shuning uchun “Taraddud” kitobidagi she’rlar to‘g‘risida aytiladigan kamtarona mulohazalar shoir shaxsini mutlaqo tanimagan insonning mulohazalari bo‘ladi. Albatta, kamina xodimingizda shoirlik yo‘q. Adabiy tanqidchilik malakasi yo‘q. She’rlarga baho berish da’vosi ham yo‘q. Lekin kelguvsi gaplar oddiy bir she’rxonning fikr-mulohazalari va sizlar bilan o‘rtoqlashish uchun aytiladigan fikrlar bo‘ladi desam xato qilmagan bo‘laman.”[12, 285]

O‘z davrida ko‘pchilikni hayratga solgan va va hozir ham hayratga solayotgan “Taraddud” to‘plamidagi birinchi she’rni o‘qiymiz. “O‘tinch”. U shunday boshlanadi:

So‘zim, jonbaxsh so‘zim, yordin
Menga shirin hikoyat qil.
Ko‘zim, yig‘la, bu yorsizlik,
Bu hijrondin shikoyat qil.

Cho‘lponona nafas ufurib turgan bu satrlarla shoir ulug‘ ne’mat – So‘zga ilohiy yor ilinjida iltijo qiladi, betoqatlik, hijronzodalik ichra chorasiz taskin izlaydi. Aslida bu chorasizlik, uzoq yillar cho‘zilgan hijron tuni ichra chora yog‘dusiga intilmoq, asl yor-Haqqa yetishmoq sog‘inchi mavjud. Shoir nurlanib tug‘ilgan so‘zdan, uning zamiridagi betimsol taftdan, ruhiy saodat, ma’naviy qudrat va quvvat oladi. Muqaddas so‘z, uyg‘oq so‘z, pok so‘z millatni, ko‘ngli yuksak elning o‘zini ham yuksaklikka ko‘tarishiga, tarbiyalashiga ishonadi.

Shoir she’rlarini o‘qir ekansiz, mustabid tuzum davrida, zulm iskanjasida Pok qalbda nurga cho‘milgan So‘z milliy ruhga ta’sir qilib, millat tafakkurini o‘zgartirishga, ulg‘aytirishga qanchalar ta’sir qilganini qalbdan his qilasiz. Shoir dard bilan yozar ekan, So‘zga arz qiladi, So‘zdan madad kutadi, So‘zdan himoyat o‘tinadi:

Qo‘lim, yopgil quloqlarni,
Eshitma hech malomatni.
Yurak, ochgil u daftarni,
Yana boshtin rivoyat qil.
Oyog‘im, yur, ketaylik bu
Zulmkorlarni yonidin,
Yetib borgach sinib bitgil,
Bugun ammo himoyat qil.

Bu she’rlarda uzoq yillik ma’naviy-ruhiy tashnalikdan so‘ng muqaddas islom dini ma’rifati, komillik axloqi sarchashmalaridan bahramand bo‘lgan insonning fikrlari, iztiroblari va xalqi uchun kuyunishi o‘z ifodasini topgandir. Darhaqiqat, ruhan poklanish, qalban ulg‘ayish, iymon nuri, milliy o‘zlikni izlagan va anglagan ko‘ngilgina xalq va vatan uchun, millat uchun kuyunishi mumkin.

Fikrlovchi odam umr bo‘yi tashqi to‘siqlar bilangina emas, balki, o‘z nuqsonlari bilan ham kurashadi. Jamiyatga befarq bo‘lolmagan insonning ichki dunyosida xilma-xil fikrlar, bir-biriga zid tuyg‘ular tinimsiz olishadi. A’zam O‘ktam she’rlarida hayot va umr qadri, ma’naviy bedorlik to‘laqonli aks etadi. U ko‘ngil evrilishlarini ifoda hamda tasvirda yangilanayotgan vosita va usullarini kashf etadi.

Shoir “Mening ertagim” she’rida xalqimiz o‘tmishi, ulug‘ ajdodlarimiz tarixi bilan uzviy bog‘liq ekanligiga, Hazrat Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi allomalarimizning dunyo siyosati va ma’naviyati, madaniyati va san’ati taraqqiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazganiga urg‘u beradi. U dunyoda o‘zbek ertaklaridek yuksak tarbiya maktabi yo‘q ekanligini biladi va lekin bu ertaklar bolalarni uxlatish uchun aytilishini xohlamaydi.

She’rdagi har bir uyg‘oq so‘z o‘sha teran tomirlarning aks-sadosi ekanligini bildirib turadi. Shoir o‘z xalqining o‘tmishini bilmaslik millat farzandlari uchun ma’naviy fojia, ruhiy inqiroz ekanligini tag ma’nolarga singdiradi. Mantiq va ehtiros rishtalarini faqat o‘ziga xos uslubda bog‘laydi. Dard bilan, yurak nidosi bilan hayqiradi:

Bolammassan, mudrasang –
bu juda uzun ertak.
Tingla, agar bo‘layin
desang haqiqiy erkak.

Boq, xalqing o‘tmishiga
ertangni o‘ylagan payt:
Ertak aytsang o‘g‘lingga,
uxlatmaslik uchun ayt!

O‘z munosabati, dunyoqarashi, fikrlarini, yurtining o‘tmishini o‘ylab, ezilib kuyinganini ertak obrazi orqali to‘laqonli va haqqoniy ifodalaydi. Shoir uchun ma’naviy adolat, milliy o‘zlik va milliy g‘urur egizak tushunchalardir.

She’rdagi tuyg‘ular ziddiyati ijodkorning shaxsiy istagi emas, balki jamiyat hayoti va inson ongu shuurida yuz berishi kerak bo‘lgan qaltis burilishlar hamda shoir estetik idealidagi keskin o‘zgarishlar bilan aloqador holda yuz berayotgan ob’ektiv ijodiy jarayon mahsulidir. Favqulodda tashbehlar, poetik obraz strukturasidagi barcha evrilishlar she’riyatdagi tuyg‘ular ziddiyatining ta’sirida yuzaga kelmoqda:

Qulsan, desa o‘z yurtimda birov,
So‘karman, tilga solsa-da g‘arov
Qalbimni bosib ololmaydi yov,
Ko‘ksimni kersam – ziynatim bo‘lmas.

A’zam O‘ktam “Qizimga hasrat” she’rida “Qalb bor manov yerda, unda bor tugun” deya o‘kinadi. Negaki¸ shoir insoniyat uchun eng oliy baxt qalb ozodligida deb biladi. Zulm zanjirlari bilan bog‘langan mehnatkash, jafokash o‘zbek xalqi o‘z elida ko‘ksini kerib yashashi kerakligini yurak- yuragidan his qiladi va “Qalbimni bosib ololmaydi yov”, deya hayqiradi. Mustaqillikdan oldin O‘zbekistonda barcha hujjatlarning rus tilida yuritilishi millat uchun katta fojia edi. Xalqning ko‘ngliga va

milliy qadriyatlariga butunlay begona bo‘lgan so‘zlar begona o‘tlar kabi millat gulzorlari va bog‘larini bosgan, bunda sharqona zebo atirgullarning erkin o‘sishi, nafas olishiga to‘sqinlik qilardi. O‘zligini anglagan shoir boshini mag‘rur tutib, milliy g‘ururni kuylaydi:

Begona o‘tlar yerimda o‘ssa,
Gulmas, tikanlar yo‘limni to‘ssa,
Asl do‘stsan, deb yov qo‘lim qissa,
Yuz ming dam ursam – Millatim bo‘lmas!

O‘tgan asr 80-yillarining oxirida g‘o‘zaga sepilgan zaharli dorilar tufayli o‘zbek qishloqlarini yuqumli sariq kasalligi vaboday bosib ketgan, butun boshli oilalar juda katta talafot ko‘rgandi. Shoirning “Qishloqqa xat” she’ri aynan o‘sha uqubatli davrning jarohatlari, og‘riqlarini esga soladi:

Xat keladi tez-tez qishloqdan,
Menga tashvish obkelar bular.
Mador ketar qo‘lu oyoqdan,
O‘qib turib dod degim kelar:

“Sariq bilan og‘ridi Oybek,
So‘ngra yuqib qoldi Boburga”.
“Abdullaning mazasi yo‘qdek,
Nodiradan o‘tdi Nosirga... ”

She’rning mohiyati uning kurashchanlik ruhining balandligida ko‘rinadi. Aslida ham yurti uchun qayg‘urgan bedor qalbning umri haqiqat va adolat uchun ayovsiz kurashlarda o‘tadi. Adolat va isyon bilan vobasta eng ezgu orzular himoyachisi bo‘lgan ijodkorning maqsadi, qismat yo‘llari millat tarixidagi kurashlar silsilasi bilan uyg‘unlashib ketadi:

Ismlarin bir o‘ylang axir,
O‘ynab kulib o‘tmagan bari.
Nahot shundoq ketar bir umr,
Bizni mangu qiynaydi sariq?!

A’zam O‘ktam she’riyati yuksak hur fikr, mustabid tuzumga isyon va chuqur his-hayajonning uzviy birikishiga asoslangan. Shoir o‘z xalqi, uning jigarbandlarini har qanday balolar va ta’sirlardan asrash, jamiyatni poklash, muhitni sog‘lomlashtirish uchun qayg‘uradi:

Hamqishloqlar, bo‘lingiz hushyor,
Kelajakni unutmang bir dam.
Dalalarga yo‘latmang zinhor,
Bolani ham, dorilarni ham.

“Bad nom” demas bolani hech kim,
Elni tildek asrang har mahal.
Ehtiyotlang kasaldan doim
Ismlari haqqi loaqal...

She’rdan – she’rga A’zam O‘ktam yuragidagi kurashchan, isyonkor ruh o‘sib boradi. Shoir yuragidagi armonlar, alamlarni cheksiz iztirob bilan ifodalaydi. Vatan sog‘inchida o‘rtangan Zahiriddin Muhammad Bobur, xassos qalbi, buyuk iste’dodi uchinchi kuchlar ta’siridagi saroy fitnalari tufayli xazon bo‘lgan Nodirabegim, sobiq mustabid tuzumda nohaq jabr chekkan Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va Oybekning tabarruk ismlari bilan atalgan bola asli daho bo‘lishga munosib ekanligini, ularni g‘o‘zalarga sochilayotgan dorilardan, turli kasalliklardan asrash kerakligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Buyuk millatning vorislari paxta yakkahokimligi tufayli sobiq tuzumning qurboniga aylanayotganligini ochiq aytadi. Bu o‘sha davr uchun nihoyatda muhim va jiddiy masala edi. A’zam O‘ktam she’rlarining hayotiyligi va haqqoniyligi, mazmundorligi ham shunda. Shoir xalqini qiynayotgan ruhiy kechinmalarni katta ijtimoiy muammolarga bog‘laydi.

To‘g‘ri, milliy mustaqillik tufayli she’riyatda voqelikni va uning ta’sirida tug‘ilgan kechinmalarni butun murakkabligi, ziddiyati bilan aks ettirishga imkon tug‘ildi. Lekin, A’zam O‘ktamning bu yovqur she’rlari istiqloldan oldin yozilganligi bilan biz uchun qimmatlidir. “O‘ttiz yettinchi yil she’ri”da shoir iztirob bilan shunday deydi:

Seni suysalar ham, suymasalar ham,
seni deb kuysalar, kuymasalar ham.

Dilingni bilsalar, bilmasalar-da,
tilingni bilsalar, bilmasalar-da.

Imkon bera bilding yayrab yurishga,
va bunda bearmon davron surishga.

Kindik qoni tomgan yurt, ota makon, ona tili mavzusi fikrlari shiddatli, haqiqatparast shoirning ma’naviy olamidagi yorug‘lik singari namoyon bo‘ladi. Ona-Vatanimiz o‘zbek xalqining dilini va tilini bilmaganlar tomonidan ayovsiz toptalgan 1937-yilni shoir yuragi to‘la dard bilan tasvirlaydi:

Qanday dilbandlaring bor edi, eh-he,
Yovqur farzandlaring bor edi, eh-he.

Bilmaymiz qaydadir? Bu nechuk jabr –
olislarda ne-ne nur to‘la qabr.

Bag‘ringga sig‘madi sho‘rliklar, e voh,
senga do‘stlar dushman ataldilar goh.

Ko‘plar bir ko‘rarga zor edi, xalqim,
peshonang shunchalar tormidi, xalqim?

Haq so‘zning ildizi chuqur, tarixi uzoq, yo‘li mashaqqatli. Shoir davrni barcha fojialari bilan ko‘rsatyapti. Uning fidoyi qalbi millat manfaatlari, haqiqat va qalb ozodligi uchun g‘oyalar jangiga kirishar ekan, katta qarshiliklarga duch kelishi aniq edi.

O‘zi aytmoqchi, “Tanladim sal og‘irroq yo‘lni, sal osonroq jon berayin deb”. Birgina “Jo‘natilmagan maktub” qancha-qancha sirli tug‘yonlarning pinhona dardi, armoni, pinhona qo‘shig‘i, dil hayqirig‘i, qancha-qancha yovqur qalblarning ko‘ksiga ko‘milgan faryodidir!

Nozikta’b musavvirning qilqalamidan tortilgan nurli manzara: “Ko‘rdim og‘ir hansirab, botayotgan quyoshni, Zulmat kundasiga jim yotayotgan quyoshni... ” shoir “kun botyapti”, demaydi. “Zulmat kundasi” o‘sha holatni yanada chuqurroq, ta’sirdorroq ifoda etadi. Badiiy sintez teranligi, ramziy majoziy mohiyat ustuvorligi, ruhning oniy lahzalarini ilg‘ashga intilish kuchli. Quyosh va zulmat faqat tazod emas, balki unda inson tanazzulidan keyin yuz beradigan ruhiy holat ifodasi, quyoshda umidvorlik tuyg‘usi yashirin.

Shoirning badiiy mahorati shundaki, u mehr va qahr, diyonat va xiyonat, adolat va adovat oralig‘idagi hayot lahzalarini vaqtning shafqatsiz harakatidan to‘xtatib, go‘yoki uni abadiyatga muhrlayotgandek bo‘ladi. Tuyg‘u bilan fikrning, aql bilan yurakning g‘oyatda nozik, g‘oyatda ta’sirchan uyg‘unligini topadi, bosh maqsadini tug‘yonlar mavjiga singdirib yuborgan holda ifodalaydi. Quruq ritorika, mavhum mushohadalardan o‘zini tiyadi.

Botayotgan quyoshning botayotib ham qalbingni isitishiga, yo‘lingni yoritishiga ishonasan. Haqiqiy shoirning so‘zi ham shunday afsun va sehrga, qudratga ega bo‘ladi. She’rlaridan shoirdagi o‘tkir qalam, o‘ktam so‘z, o‘tkir nigoh, a’zamona ohang sezilib turadi. Ko‘hna dardu iztiroblarning yangi suratlariga duch kelasiz. Hissiy, tafakkuriy, rangin to‘lqinlar iskanjasiga tushib qolgandek his qilasiz o‘zingizni. Uning yovqur she’rlari butun bir avlodning nafasi, butun bir davrning nafasi edi. Shoir ko‘ngil qa’ridagi iymonni ming bir rangda, ming bir ovozda, ming bir qirrada namoyon etadi. O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi aytganidek, “Shoirni ichkin anglash, tushunish hamisha og‘ir kechadi. Satrlarning ortida, satrlarning sathida, uning teran tublarida nelar borligini barcha ham idrok etolmaydi. Lekin, bilamizki, she’riyat yovuzlikka sudrayotgan nafsga qarshi kurashadi. Kichikni ulug‘laydi, katta ketganni yerga imlaydi. Baribir haqiqatni aytadi, aytaveradi. She’riyat shuning uchun ham abadiydir.” [13, 5] A’zam O‘ktam har safar birinchi marta yozayotganday hayajon va hayrat bilan yozardi she’rlarini.

“Soddagina xulosam” she’rida shoir shunday deydi:

Faqat O‘zbekiston yo Rossiyadamas,
Hatto Amerikada ham
Bosqinchini sevmas ekan
Yerini sevgan odam.

Sotmas ekan do‘stlarini
Eliga kuygan odam.
Kamsitmas ekan elni
Tilini suygan odam.

She’rda inson ichki dunyosi va ichki isyonining nihoyatda chuqur ifodasi, qator ijtimoiy masalalar qalamga olingan. Hayot oqimidagi murakkab jarayonni

ko‘rsatadi. Dunyoda sodir bo‘layotgan voqeliklar mohiyatini teran ochadi, eng qaltis masalalar to‘g‘risida jasorat bilan yozadi:

Millati yo‘q bu tuyg‘uning,
tuzumi ham yo‘q ekan.
Yopib bo‘lmas ekan hech qanday –
Qizilmi, qorami etaklar bilan,
Charaqlab turgan quyoshni.
Hamma tik ko‘tarib yurarkan
Shartta tikib qo‘ygan narsasi – boshni...

A’zam O‘ktam she’riyati ijtimoiy mazmunining salmoqdorligi, o‘tkir publitsistik pafosi, mardona ruhi bilan ajralib turadi. Uning “Oroldagi o‘ylar”, “Uyqum qochgan kechada”, “Xalqimiz dushmanlariga”, “Jallod hukmin o‘qidi oxir”, “Buxoroga borganda”, “37-yil she’ri”, “Qishloqqa xat”, “Soddagina xulosam”, “Xosiyat momo armoni”, “Azaga-ku so‘z yo‘q..., ”Qishloq chevari”, “Cho‘lpon”, “Tongdagi o‘ylar”, “Dalil” kabi she’rlari XX asrning eng qizg‘in ijtimoiy-siyosiy voqeligining, ma’naviy- siyosiy fojialarining badiiy ko‘zgusidir.

Milliy o‘zlikni anglash insonni ruhiyatini poklaydi, g‘uborlarini yuvadi. Insonni anglash aslan qiyin edi, globallashuv davrida bu jarayon yanada murakkablashdi. Ming yillar davomida insoniyat qadriyat muhofaza qilinmasa, u asl qimmatini yo‘qotishi haqida qayg‘uradi. Har qanday ilm, badiiy ijod zamirida inson kamoloti, uning fikriy yuksalishi bo‘lsa, o‘q ildizida milliy o‘zlikni anglash tarbiyasi turgan. Zero, milliy o‘zlik tuyg‘usini anglamasdan komillikka erishib bo‘lmaydi.

Shoir yurtdoshlari hayotini, o‘zi yashab turgan muhitni haqiqat asosida o‘zgartiruvchi, tarixni yaratuvchi kuch sifatida tasvirlamasa, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi haqida gapirish ortiqcha. Izlanish-intilishlar qat’iylik, dadillik bilan muayyan maqsad asosida olib borilsagina samara beradi. Inson ongu-shuuridagi aynan shu jarayonni A’zam O‘ktam badiiy- mantiqiy izchillik, yuksak mahorat, haqqoniylik bilan ko‘rsata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zR Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi / Xalq so‘zi. –Toshkent, 2017, 4 avgust.
2. G‘afurov I. Oltin qoziq T.: “Sharq” 2018y.
3. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar: – T. : Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
4. O‘ktam A. Ziyorat: She’rlar. – Farg‘ona: “Yangiqo‘rg‘on” nashriyoti, 1992.
5. O‘ktam A. Ikki dunyo saodati: She’rlar. – Toshkent: “Cho‘lpon” 1998.
6. O‘ktam A. Kuzatish: She’rlar. – T.: “Yosh gvardiya”, 1990. – 56 b.
7. O‘ktam A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T.: “Qatortol-Kamolot”, 1999.
8. O‘ktam A. Osmon yaqin,.. : She’rlar. – T.: “Abu Matbuot - konsalt”, 2011.

9. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. –T.: “Movarounnahr”, 2014.
10. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – T.: “Cho‘lpon” 1993.
11. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –T.: “Muharrir”, 2019.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA “SEVGI” KONSEPTINING IFODALANISHI

To‘maris A’zam Butunbayeva,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
tumaris1987@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada A’zam O‘ktam she’riyatida “sevgi” konseptining ifodalanishi, sevmoq mazmunini ifodalash uchun turli shakllardan foydalangani xususida so‘z boradi. Shuningdek, shoirning sevmoq mazmunini ifodalagan she’rlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasvir, ona tili, sevaman, so‘z san’atkorlari, ibora.

Abstract. This article discusses the expression of the concept of "love" in the poetry of Azam Oktam, the use of various forms to express the meaning of love. The poet's poems expressing the meaning of love are also analyzed.

Keywords: image, native language, lover, word artists, phrase.

Har bir ijodkor o‘z davri, o‘z xalqi adabiyotida ma’lum bir iz qoldiradi. O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov aytganidek: “Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasvir, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi”.[1;5] Adibning nigohi qanchalik o‘tkir, tafakkur quvvati boy, o‘zi esa inson tabiatining siru-asroridan qanchalik boxabar bo‘lmasin, qalami o‘tmas, uslubi tumtoq, tili g‘aliz bo‘lsa, uning ezgu niyatlari qog‘ozda qolib ketadi. Ijodkor hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma’naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalarni kitobxonga til orqali yetkazadi, so‘z sehri bilan kitobxonga ta’sir ko‘rsatib, uning fikriy dunyosi, ruhiy olamini harakatga keltiradi. Badiiy asar tilini o‘rganar ekanmiz, birinchi navbatda muayyan asarning o‘z xalqi tarixi, madaniyati, dunyo tarixida o‘ziga xos o‘rni borligini qanchalik ko‘rsata olganini tahlil qilamiz. Bu jihatdan tilshunos olimlarimiz bu borada jiddiy ishlar olib borishgan. A.Rustamov, A.Shomaqsudov, I.Qo‘chqortoyev, S.Karimov, I.Mirzayev, B.Yo‘ldoshev, M.Qodirov, X.Doniyorov va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqoqtlarida ona tilimiz xususiyatlarining badiiy asarlarimizda qanday aks etganini tahlil etishgan.

Mazkur jarayonni o‘rganish ijodkorning o‘ziga xos badiiy vositalarini aniqlash, uning badiis mahoratini, o‘ziga xos uslubini o‘rganishga keyingi yillarda anchagina ilmiy ishlar bag‘ishlandi. Bizni qiziqtirgan ijodkor — A’zam O‘ktam she’riyati xususiyatlari professor I.Mirzayev o‘zbek tilida asos solgan lingvopoetik tadqiq nazariyasi zaminida yaratilgan M.Yo‘ldoshev, G.Keldiyorova, G. Muhammadjonova, R.Normurodov, S.Boymirzayeva[2;] kabilar tadqiqotlarida qisman bo‘lsa-da, o‘z ifodasini topgan.

Shoir she’rlarida asrlar davomida mashhur so‘z san’atkorlari ijodida kuylangan bir tuyg‘u -sevgi tuyg‘usi chiroyli tarzda ifodalangan. Avvalo uning ona Vatanga bo‘lgan sevgisi qanday ifodalanganini ko‘ramiz. Chunonchi to‘qqiz to‘rtlikdan iborat bo‘lgan “Xavotir” she’rining to‘qqizinchi to‘rtligida “Haqni deb, xalqni deb bo‘lsam bas ado” misrasi ishlatilgan. “Xalqimiz dushmanlariga” she’ri beshta to‘rtlikdan tashkil topgan va ulardagi har bir misra vatanga muhabbat tuyg‘usini bildirmoqda. Ularning hammasida shoir yurtidan g‘ururlanib, o‘z muhabbatini izhor qilayotgani sezilib turibdi. “Lekin” deb nomlangan to‘rt misrali she’rning birinchi satri “Yurtim shudir, yo‘q boshqa orzu”, deb boshlanadi. Shoir faqat o‘z vatani, xalqini sevishini qisqa va aniq tarzda ifodalaydi. Shoir sevmoq mazmunini ifodalash uchun turli shakllardan foydalangan ammo shu mazmunni aks ettiruvchi neytral, dominanta birlik bo‘lmish men sizni yaxshi ko‘raman, sevaman kabi shakllarni nihoyatda kam qo‘llaydi. Masalan, “Sevib qoldim” deb aytmasam, o‘laman”. Shu tuyg‘uni ifodalovchi sevib qolmoq birligi qo‘llangan. Misrada keltirilgan inkor (aytasam) va tasdiq (o‘laman) shakllaridagi so‘zlar she’rning ta’sir kuchini yana-da oshirmoqda. Shoirning “Kuzda kulgan chechaklar” turkumidagi bir qator she’rlarning 5 tasida bevosita sevgi tushunchasi ifodalangan ammo ularda bu ma’no bildiruvchi so‘zlar qo‘llanmagan bo‘lsa-da, muallif bu mazmunni chiroyli shakllardan foydalangan.

Misol:

a) o‘lmoq fe’li ifodolovchi hodisa orqali sevish ma’nosini bildirish:

men judayam istarman bir kun
o‘lsam, siz ham o‘lishingizni

(“Mehr”)

O‘lsam, tirilsam, so‘ng ko‘rsam to‘yaman.

(“Iqror”)

Shunday birliklardan foydalangan muallif yorga bo‘lgan muhabbatini aniq, qisqa va o‘ta ta’sirli shaklda beradi;

Bir armon o‘rtaydi tunlari meni,
Yig‘lab janozamga kelsang, o‘lardim.

Shu misralarda o‘lardim so‘zi qahramon sevgisining nihoyatda kuchliligini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Bu she’rlarida shoir sevish va o‘lish o‘rtasiga tenglik alomatini qo‘yar ekan, bu shakl ekspressivlik kasb etgan. “Tushuning...”, “Qizg‘anish” she’rining har bir to‘rtligidan muhabbat mazmuni anglashiladi:

...Siznikiman, deb qo‘ysang,
Osmonga ustun bo‘laman.

misralarida ana shu tuyg‘u ifodalanmoqda. Bu sevgi shunchalik kuchliki, qahramon o‘z sevgilisini Xudoga ham bergisi kelmasligini aytadi:

Sen borsanki, ko‘nglim to‘q,
Menikisan, tasadduq.
Olar hammani, ammo
Xudoga ham bergim yo‘q.

(“Qizg‘anish”)

Odatda, tamom bo‘lmoq fe’li tugatilish, marraga yetishni bildiradi. Ammo A’zam O‘ktam she’riyatida shu fe’ldan ham sevmoq tuyg‘usini bildirish uchun foydalanilgan:

...Sen balki xor bo‘lding, men tamom bo‘ldim.

(“Sog‘inish”)

Shoir qahramonning yorni sevishini yuragi qon bo‘lmoq iborasini o‘zgartirgan holda qo‘shma gapning ikkinchi qismi sifatida qo‘llaydi:

...Shartta yulib beray, qon yuragim ol,...

Bu misrada sevgi azobidan qahramon shunchalik qiynalganki, o‘zi shundoq ham qon bo‘lgan yuragini yoriga qat’iyat bilan yulib berishga tayyorligi ko‘rinib turibdi. Shoir yuqorida qayd etilgan parchalarda qahramonning sevgisini izhor qilish orqali uning fe’l-atvorini ham, qisman bo‘lsa-da, ko‘rsatadi. Masalan, undagi shijoat, sevgi uchun kurashish, g‘urur bilan yalinish kabi har bir insonga ma’lum bir sharoitlarda, ma’lum bir yoshda xos bo‘lishi mumkin bo‘lgan fe’l-atvor aks etgan. Qahramon ichki hayotidagi ziddiyat, o‘z-o‘zi bilan kurashish va ilojsizligi, quyidagi misralarda nihoyatda ta’sirli berilgan:

...Istamasman baxtsiz bo‘laring, ammo
Baxtli deb o‘ylasam, so‘kingim kelar.

A’zam O‘ktam ijodida shunday she’rlar borki, ularni parchalarga bo‘lib tahlil qilish mumkin emas. Bulardan biri “Jo‘natilmaydigan xat”. To‘rt qismdan iborat bo‘lgan bu she’rning deyarli har bir misrasidan kuchli iztirob, ilojsizlik, istihola sababli sevib-sevilish hissini, inson ich-ichidan vulqonday otilib chiqayotgan tuyg‘uni jilovlashga majburligi tasvirlanadi.

Nechun seni ko‘rsam, g‘amlarim ketar,
Ko‘zlari g‘ussaga to‘lgan guloyim?

G‘am nedir, ortig‘u kamlarim ketar,
Bor-yo‘g‘im zer-zabar qilgan guloyim?

Sulton bo‘lolmasman uyingda sening,
Sen ham bo‘lolmassan g‘amxo‘r, dastyorim.
Nahot yaralgansan sho‘rimga mening,
Hamisha bemorim, hamisha zorim?

Hali yer ostiga emasmiz loyiq.
Farishta emasmiz ko‘kka chiqarga.
Ajabki, hakamdir bizga xaloyiq,
Kuch yo‘qdir tog‘nimas, so‘zni yiqarga.

Hargiz borolmasman sen tomon bosib,
Sen ham chiqolmassan ostona hatlab.
Men o‘qib yig‘layman o‘zim xat yozib,
Senga yetib bormas men bitgan xatlar.

She’rdagi parchalarni va ular tarkibidagi misralarni o‘zgartirish shoir fikrining kuchini yo‘qotish mumkin: ularning har biri chuqur o‘ylangan holda o‘ziga mos ravishda joylashtirilgan.

Bu maqolada “sevmoq” konseptining ikki qirrasi- Vatan va yorga muhabbatni. Bu konseptning ota-ona, farzandlar, ko‘ngilga yaqin insonlar, tabiat manzaralariga nisbatan shoir ifodalagan tuyg‘ular va ulardan kelib chiquvchi mazmun tadqiqi o‘z navbatini kutmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent., 1986.-B5

2. Keldiyorova G.S. O‘zbek badiiy nutqida antiteza: Filol.fan.nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

3. Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982; Karimov S.A. O‘zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fan. dokt. ... diss. – T.,

5. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand. SamDCHTI nashri, 2007. 44 b.

6. Mamaziyayev O. O‘zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2004. – 21 b.

MUSHTARAK TUYG‘ULAR TALQINI

(*Shayx Kamoliddin Iqoniy Aliobodiy va A’zam O‘ktam g‘azallari misolida*)

Rahmatjon Abdusattorov,
mustaqil tadqiqotchi
(Qozog‘iston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asr oxiri XV asr boshida yashab o‘tgan Shayx Kamoliddin Iqoniy Aliobodiyning hikmatlari va A’zam O‘ktamning diniy – ma’rifiy mavzudagi g‘azallarining badiiy – estetik, falsafiy – ma’naviy jihatlari qiyosiy o‘rganilgan va tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Iqon, adabiy muhit, Turkiston, hikmat, g‘azal, ijodiy uslub, adabiy ta’sir, A’zam O‘ktam.

Annotation. This article comparatively studies and researches the artistic, aesthetic, philosophical and spiritual aspects of the wisdom of Sheikh Kamoliddin Iqoniy Aliabadi, who lived in the late 14th and early 15th centuries, and the religious and educational ghazals of Azam Uktam.

Keywords: Iqon, literary environment, Turkestan, wisdom, ghazal, creative style, literary influence, Azam Uktam.

Tarixni anglashning ilk ko‘rinishlari paydo bo‘lganidan beri ular insoniyat tafakkuri takomillashuvi bilan birga dinamik tarzda taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tayotganligi hech kimga sir emas. Ulug‘ ajdodlardan qolgan meros, avlodlar shajarasi, vorisiylik orqali paydo bo‘lgan munosabatlar, qadriyat sifatida tafakkurning o‘sishi va rivojlanishiga olib keladi. Odam va olam o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, muloqotlar, fikr almashuvlar vaqtlar o‘tishi bilan xalqlarning o‘ziga xos urf - odatlarini, madaniy an’analarini, rasm - rusumlarini yaratdi. Har bir inson xotirasi o‘z xalqining tarixini o‘rganish orqali turli qonuniyatlarning ravnaqiga asos soladi.

Qachonlardir bitta shaxsga bog‘liq bo‘lgan vaziyat yoki jarayon vaqti kelib, alohida - alohida shaxslarning birligidan tashkil topgan jamiyatga aylanadi. Tarixni bilish, undagi voqeliklarni to‘g‘ri belgilash va to‘g‘ri tushunish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Olamni anglash, dunyoni tushunish, inson qalbini his qilish, jamiyatdagi voqeliklarni idrok etish o‘tmishni o‘rganishga daxldor bo‘lgan bilimlarni oshirish bilan belgilanadi. Aslida tarixning mazmunida insonning mohiyati, uning an’anaviy uzviyligi mujassam, masalaga kecha, bugun

va kelajak bilan bog‘liqlik nuqtai nazaridan yondashishda badiiy adabiyot beqiyos qudratga ega ekanligini his qilamiz.

2023-yilda Samarqandda matnshunos olim Mehrojiddin Amonovning “Iqoniy” nomli risolasi chop etildi[14]. Mazkur risola yana bir buyuk hamyurtimiz, turkistonlik alloma - Shayx Kamoliddin Iqoniy Al-Obodiy hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Samarqand viloyatining Jomboy va Payariq tumanlari chegarasidagi Dovchar qishlog‘ining yuqori qismida “Yakanshik ota” nomi bilan atalgan ziyoratgoh mavjud. Olimlarimizning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘ldiki bu ziyoratgoh o‘rta asrlarda yashagan alloma Shayx Kamoliddin Iqoniyning so‘nggi manzillari ekan. Shayx Kamoliddin XV asrning boshlarida Turkiston viloyatining Iqon qishlog‘ida tug‘ilgan. Tarixchi olim Faxriddin Ali Safiyning “Rashxot” asarida Shayx Kamoliddin Mavdud Shayxning as’hoblaridan bo‘lganligi aytilgan. Xoja Axror Vali aytganlarki, Kamol Shayx Mavdud Shayxning muriydi va Xodim Shayxning birodar tariqatidir. Kamol Shayx Xoja Ahror Vali oldilariga kelganda, avliyo undan Zikri arra aytishni so‘raydi. Kamol Shayx yetti- sakkiz martta zikri arra aytgach, Hoji Ahror Vali “Arshdin to falshg‘acha yondi” deb uni to‘xtatadi va ungv yuksak ehtirom ko‘rsatadi. Shayx Kamoliddinning yassaviya tariqatining Iqoniya tarmog‘iga asos solganligi qayd etilgan. Shayx hazratlari Iqoniy taxallusi bilan she’rlar va hikmatlar ham yozgan.

Devonda qayd etilishicha, “Bu haqda “Rashahot”da “Az kibor asxobi Mavdud turg‘onni bildiradir”. 1093 – 1680 yillarda buxorolik mufti Zinda Ali (to‘liq ismi Muhammad Mirak ibn Azizon xoja Mir Husayniy) ning “Samaratul mashoyix” (Ulug‘lar mevalari) ” [15] otli kitobida ham, “Lamahot”da ham Kamol shayxning tarjimai holi yozilg‘onda “Mazkur eshonning laqabi Iqoniy bo‘lib, Samarqandning Aliobod mavzesidan va shu yerda vafot etgan”[14], deb ma’lumot berilgan.

1906 yilda Qozonda nashr etilgan “Baqirg‘on kitobi”dan Shayx Kamoliddin Iqoniyning 260 misradan iborat 19 ta parcha hikmatlari ham o‘rin olgan. “Kerak bo‘lsa hayot jovidona...” deb boshlanguvchi hikmatida avliyo bobomiz shunday deydilar:

Kerak bo‘lsa hayot jovidona,
Nazar qilma tan va jon ravona.

Muningdek bo‘lsa qon doim talabda,
Sanga sandin ochilg‘oy bir nishona.

Asar qolmas o‘zingdun o‘z-o‘zingga,

Bo‘lur andin sanga bu sir ayona.

Iymon o‘ldi jahonda olam zohir,
Vale sir ilmi sig‘momish jahona.

Mosivodin din kesilsang ey Iqoniy,
Qulovuz ul chig‘org‘a osmona.

Insonning ruhiy-axloqiy dunyosini ostin-ustun qiladigan, mudroq ko‘zlarni ochadigan fikrlar! Bularni anglasak biz o‘zligimizni anglay boshlaymiz. Bir-birimizni va hayotni tushunishni o‘rganamiz. Tafakkurning cheksizligi, munosabatlarning turlichaligi, fikrlarning xilma-xilligida hayotning serqirraligi namoyon bo‘ladi. Demoqchimizki, Iqon tuprog‘ida azaldan serkirra iste’dod sohiblari kamol topgan.

Yana bir haqiqat: asl iste’dodlar makon va zamon tanlamaydi. Ularning asarlarida tilga olingan ilohiy – falsafiy fikrlari hech qachon o‘z qadr – qimmatini yo‘qotmaydi. Buyuk alloma, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shayx hazratlari to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “Hammaga ma’lumki, bizning yurtimiz Movarounnahr — Turkiston butun dunyo she’riyatida o‘ziga xos o‘rin tutgan buyuk shoirlari bilan faxrlansa arziydigan, jahon xalqlari she’riyat xazinasiga o‘zining oltin sahifalarini, oltin baytlarini boshini baland ko‘targan holda taqdim etgan bir yurtdir. Albatta ana shu maqtovga sazovor she’riyat, she’riy asarlar, shoirlar, ularning faoliyati, saviyasi, hamma-hammasi shu diyorning qadimdan muqaddas dini bo‘lib kelayotgan Islom dini bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ham xech kimga sir emas. Ulug‘ shoirlarimizning pur hikmat baytlari, Qur’oni Karim oyatlari Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasal¬lam¬ning hadislari, musulmon ulamo¬lardan chiqqan hikmatlarga yo‘g‘rilgan ekanligi ham ham¬mamizga ochiq oydin ravshan. O‘ylab qaraydigan bo‘lsak, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiydan boshlab mavlono Lutfiy yoki boshqa ulug‘ shoirlarimizning nomlarini aytib o‘tishning o‘zi ham juda ko‘p vaqt oladi. Ularning hammalari diniy ilmlardan yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan va ko‘plari tasavvuf tariqatlaridan birini mahkam tutgan, hatto ba’zilari tariqatlarga shayx bo‘lgan ulug‘ insonlar edilar. Shuningdek shoiralarimiz, o‘tgan buyuk zakovat egasi bo‘lgan momolarimiz ham ana shundoq diniy ma’lumotdan, Islomiy ma’rifatdan va shariat ta’limotlaridan nihoyatda ajoyib bir uslub bilan foydalanib she’r yozganlaridan, ularning she’rlari purhikmat va doimo ichida sobit bir o‘rinni tutib keladigan darajada teran chiqqan”. [16, 285]

Shayx hazratlari shunday teran she’riyat sifatida shoir A’zam O‘ktamning diniy mavzudagi asarlarini tilga oladilar.

Taniqli o‘zbek shoiri, mohir tarjimon A’zam O‘ktam (1960. – 2002.) ijodi bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda sevib o‘qilmoqda, o‘ziga xos adabiy hodisa sifatida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. U o‘tgan asrning 80 – yillari boshida o‘zbek adabiyotiga yovqur va isyonkor she’rlari bilan kirib keldi.

Ilk she’rlarini A’zam Xudoyberdiev imzosi bilan e’lon qilgan yosh ijodkor so‘zga bo‘lgan haqiqiy, pokiza , beta’ma ishqi, tinimsiz izlanishlari tufayli adabiyot ixlosmandlari ko‘z o‘ngida chin A’zam, chin O‘ktam shoirga aylandi. U 1960 yil 4 oktabrda Farg‘ona viloyati, Buvayda tumanining Xonobod qishlog‘ida, paxtakorlar oilasida tavallud topgan.

Qadim Turkistonning Iqon qishlog‘ida tug‘ilib, voyaga yetgan, Toshkentning Zangiotasida kamolga yetgan, Samarqandda vafot etgan Shayx Kamoliddin Iqoniy Aliobodiy bilan ularni yillar emas, asrlar ajratib turibdi.Ular ijodidagi ilohiy ruh, insonparvarlik, umr mazmuni, e’tiqodga sobitlik kabi mushtarak tuyg‘ular bizni hayratga soladi. Iqoniy hazratlari yozadilar:

Kel ey mo‘min, ibodat qil, sahar vaqtinda uyg‘onib,
Qilib tavba, yaqong tutg‘il, nadomat birla bulg‘onib.

Yigitman deb, qadam qo‘ydung, ma’siyatlarga
Qoridung , emdi qil tava,yamon ishu fe’lingdin.

Yigitlik ishrati o‘tdi, qarilik navbati yetdi,
Na bilursan, uluklardek kafan to‘niga chulg‘onib.

Jahon ishrati birla semurtgon taningni ul go‘rda
Yegoylar jam bo‘luyu qurtlar kiriga o‘qronib.

Sani inson etib, Rahmon yubordi “o‘qu” deb Qur’on,
Kim ul hayvonsifat ermas, o‘psun mango o‘xshatib.

Tiling borinda ayg‘il, ey, Iqoniy,ydi Subhon,
Kim o‘tgay ushbu davronning yana kelmas sanga yonib.

Chin shoirlar dunyoni qalb ko‘zi bilan ko‘radilar. Yuraklari bilan idrok qiladilar. Mo‘min doimo sahar vaqti uyg‘onadi, ruhan poklanadi. Iqoniyning “Kel,

ey mo‘min, ibodat qil, sahar vaqtinda uyg‘onib,Qilib tavba, yaqong tutg‘il, nadomat birla bulg‘onib” degan nidosi asrlar silsilasini yengib o‘tadi. A’zam O‘ktamning “Sahar vaqti yurak yig‘lar...” deb boshlanuvchi g‘azali hech kimni befarq qoldirmaydi. ollohni tanigan chin mo‘min shunchaki ibodat qilmaydi, u Yaratganga munojot qiladi, iltijo qiladi:

Sahar vaqti yurak yig‘lar,
Tilab rahmu shafoatlar,
Duo mendin, nido mendin,
Bo‘lur sendin ijobatlar.

O‘zingdan o‘zgaga ko‘ngul,
Ko‘ngil qo‘ymakka intilmas,
Riyomu, chinmu - bilmasman,
Tilim aytgan sadoqatlar.

Meni ham tinglayurmu deb,
Gumonlar o‘rtayur, chunkim,
Gunohdan charchagan badbaxt,
Qilur tinmay tilovatlar.

Bosar daryo yuzin muzlar,
O‘chirgaydur olov suvni,
Axir mo‘minning izida,
Yurar qancha kasofatlar.

Oting aytmoqqa qizg‘ansam,
Ular tinmay etar takror.
Dilim og‘ritdi, qaqshatdi,
Bu yolg‘onlar, haqoratlar.

Muhabbatsiz, qanoatsiz,
Kular - ku, sabru ahdimdan.
Meni bog‘laydi qattiqroq,
O‘zingga bu malomatlar.

Ishonchim endi ortiqdur,
Bu orzular emas bejiz.

Kelib bir kun, sen aytgan kun,
Qilarsanku, adolatlar.

Dunyoni, voqelikni inson qalbi va faoliyati bilan uzviylikda poetik etish A’zam O‘ktam ijodidagi serko‘lamlilik, fikrlar ifodasidagi ekspressivlik yangi tafakkur uyg‘otadi. Davr va hayot, voqelik taqozosi bo‘lsa, ikkinchidan, yosh shoirning kamolot pallasida iste’dodini har tomonlama takomillashtirib, ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. “A’zam O‘ktam janoblarining «Taraddud» kitoblarini o‘qiganda kamina xodimingizda mutloq boshqa bir fikr paydo bo‘ldi. Ko‘pdan beri o‘ylab, izlab yurgan she’riyat mana shu darajaga chiqsa edi degan xohish, istakni aynan «Taraddud» kitobida ko‘rdim. Avvalo tan olib aytishim kerakki, men A’zam O‘ktamni yaxshi tanimas ekanman. Bu ehtimol kamchiligimizdir. Lekin shunchalik she’r bitishga iqtidori bor shoir, ham vatandoshni tanimaslik albatta biz uchun obro‘ ham bo‘lmas” [16, 286], deydilar Shayx hazratlari..

Davrning dolzarb ma’naviy – axloqiy, ijtimoiy – iqtisodiy muammolari jamiyatning diqqat markazida turgani kabi, qalbning halovat topmog‘i ham oson emas. Shoir inson qalb xotirjamligini faqat O‘ziga ko‘ngil bog‘lamoqda deb biladi. Va hamisha shu e’tiqodida sobit turishga intiladi, o‘zini – o‘zi tinmay taftish qiladi:

O‘zingdan o‘zgaga ko‘ngul,
Ko‘ngil qo‘ymakka intilmas,
Riyomu, chinmu - bilmasman,
Tilim aytgan sadoqatlar.

Yurakni o‘rtaydigan o‘tli satrlarning sirini bilmoq uchun yana Shayx hazratlarining tafakkurlariga tayanamiz: “Bu she’rlar kimnidir o‘ziga qaratish uchun aytilgan emas. Yoki keskin gaplarni gapirib o‘zini ko‘rsatish uchun emas. Balki butun vujudga singgan, yurakning to‘ridan samimiyat bilan chiqqan bir hazin ohangdir. A’zam O‘ktamning she’rlarini o‘qir ekanmiz Islomiy ibodatlarga, namoz, ro‘za kabi Allohning bandalariga, mo‘min- musulmonlarga amr etgan farz ibodatlariga alohida e’tibor, ularni bajarishga mo‘min-musulmon inson qanchalik tayyor turishi va undan rohatlanishi lozim ekanligiga ishoralar, ajoyib bir turtki bo‘lgan satrlar, misralar keladi. Bu albatta juda yaxshi bir holat. She’riyat uslubi bilan insonlarni ezgulikka da’vat qilish, o‘zining bandalik burchini anglashga da’vat qilish uslubi hisoblanadi. Bu narsani shoir juda ustalik bilan ifoda etgan. Va u A’zam O‘ktam ijodini kuchli qilib turibdi.” [16, 293]

Bu kuchli she’riyatni anglash uchun bugungi kitobxonning qalb ko‘zi ochiq bo‘lishi kerak. Ollohni tanishi, odamlarning dardu – tashvishiga sherik bo‘la olishi zarur. Bizning nazarimizda Shayx Kamoliddin Iqoniy Al-Obodiy va A’zam O‘ktam ijodini olti asr ajratib turgan bo‘lsa-da, e’tiqodga sobitlik, millat uchun kuyunish, olam va odamni pokiza ko‘rmoq, mudom ezgulik va yaxshilikka chog‘lanmoq orzusi mushtarak tuyg‘ular misol ular ijodini bog‘lab turibdi. Zero, fidoyi insonlarning fikri – zikri, tafakkuri hamisha millat taqdiriga qaratilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yесдавлат У. Қозоғистонда ўзбек адабиётини ўрганувчилар кўпчилик. Адабий дўстлик – абадий дўстлик. Тўплам. – Тошкент: “MASHHUR–PRESS”, 2018.
2. Парфи Р. Мен баҳорман.Музлаган оташ. //Сўзбоши. Аъзам Ўктам. Саҳар вақти юрак йиғлар. Тошкент: Моваройуннағр, 2014.
3. Жўраев Н. Вақт ва фазо. Т.: “Маънавият”, 2021.
4. Сейданов Қ. Навоий ва Абай. Ўзбек-қозоқ адабий алоқалари. “Машҳур-пресс”. Т., 2018.
5. Ўктам А. “Қузда кулган чечаклар”, Тошкент (1989).
6. Ўктам А. “Кузатиш” Тошкент (1990).
7. Ўктам А. “Зиёрат”, Тошкент (1992).
8. Ўктам А. “Тараддуд”, Тошкент (1993).
9. Ўктам А. “Икки дунё саодати”, Тошкент (1998).
10. Ўктам А. “Қирқинчи баҳор” Тошкент (2000).
11. Докторлик диссертацияси ÇAĞDAŞ ÖZBEK ŞAIRI AZAM ÖKTEM’IN ŞIIRLERI ÜZERINE BIR INCELEME – Мустафо Қорқмаз, Туркия, 2025.
12. Çağdaş Özbek Şairi Azam Öktem’in Şiirleri Üzerine bir Inceleme.
13. Ибраимов О. Чингиз Айтматов “Молодая гвардия” М.2018 .
14. Аманов М. Иқоний. Самарқанд: “Фан булоғи” нашриёти, 2023.
15. Зинди Али. Самаротул машойих. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди.инв.№1336., 2619/11, 3424/1.
16. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Аъзам Ўктамни хотирлаб. //Ўктам А.Саҳар вақти юрак йиғлар....Тошкент: “Моваройуннаҳр” нашриёти, 2014.

NUR BO‘L, EY A’ZAM O‘KTAM

Ozodaxon Musayeva,
J. Tashenev nomli universitet
katta o‘qituvchisi.
(Qozog‘iston)

Annotatsiya: Maqolada A’zam O‘ktam she’rlarining lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ijodkorning murakkab insoniy munosabatlar, axloqiy va ijtimoiy to‘qnashuvlarni tasvirlashda qo‘llagan badiiy tasvir vositalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: biografik, metod, qiyofa, ruhiyat, kognitiv - semantik, kognitiv metafora, kontekst, fikr, iztirob, obraz.

Annotation. The article discusses the linguopoetic features of Azam Uktam's poems. The means of artistic expression used by the author to describe complex human relationships, moral and social conflicts are studied.

Keywords: biographical, method, image, spirit, cognitive - semantic, cognitive metaphor, context, thought, suffering, image.

Har bir ijodkor o‘zicha bir olam. Fransuz yozuvchisi Andre Morua “Sent - Byov himoyasiga doir” deb nomlangan maqolasida o‘sha olimning: “Men daraxt qanday bo‘lsa, mevasi ham shunaqa, deya mamnuniyat bilan aytaman. Shunga monand, adabiy tadqiqot meni psixologik izlanish - tadqiqotlar sari yetaklaydi,” – degan fikrlarini keltiradi. Yuqorida keltirilgan fikrlar bilan tanishar ekanmiz, badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizini ochishda haqiqatdan ham biografik metod muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetamiz.

Zotan, A’zam O‘ktam ijodini chuqur o‘rganib, uni har tomonlama tahlil qilgan adabiyotshunos olim Bahodir Karim “A’zam shoirning o‘ktam ovozi” maqolasida: “A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati va qiyofasini, iste’dodining asosiy qirrasini she’riy asarlari belgilaydi. Bu she’rlar egasining mavqeini, obro‘sini tabiiy ravishda baland ko‘taradi; yaxshi she’rgina shoirni adabiyotga daxldor qiladi. Chunki bu she’riyat egasida ichki bir mag‘rurlik, g‘olibiyat seziladi; u birovlarga yaltoqlanishni, ayniqsa, haqsizlik qoshida bo‘yin egishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. A’zam O‘ktam she’rlari o‘zi kabi ancha o‘jar va odamning yuziga, haqiqatning ko‘zlariga tik qarab turadigan, inson yuragiga tez yetib boradigan samimiy, jonli ijod namunalaridir”, – deb yozadi.

Adabiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra inson hayoti, qalbi, ongi bilan bevosita bog‘liq. Shoir A’zam O‘ktam ijodi bilan tanishar ekanmiz, ijodkorning asari, yaratgan

obrazlaridan muallif dunyoqarashi, e’tiqodi va turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi, barcha fazilat va orzu-istaklari, bir og‘iz so‘z bilan aytganda qalbini his etganday bo‘lamiz. Shoir she’rlarini o‘rganar ekanmiz, uning har bir misra zamiriga singdirilgan ruhiy - psixologik qiyofasiga duch kelamiz, shoirning so‘z tanlash, holatni, ruhiyatni jonli, obrazli anglata olish iste’dodiga qoyil qolamiz. Uning she’rlaridagi besaranjomlik, ruhiy - hissiy kechinmalar, to‘lqinlanish, og‘riqli dardlar ruhiyatimizni junbushga keltiradi. Shoirning “Yig‘iga o‘xshagan tabassum bilan, Yana qoshingizga qaytmoqdadirman”, “Men osmondan yerga tushib qolganman”, ” Yuragim hirqirab so‘z aytdi og‘ir” (“Onamga” she’ridan), “Yo‘l poylaydi xira ko‘zlarim, ipim uzun, ignam siniqdir”, “Men bolamning yetimi bo‘ldim”, “Qaldirg‘ochni kutdim, bolam deb”, (“Xosiyat momo armoni”), “Armonlarim endi ayta boshlasam – Uni sharhlab qo‘yar bitta xo‘rsiniq”, “Har kun nasibasi haqorat, qarg‘ish, Bahori bir lahza, uzun umri qish” (“Iqror”) kabi misralar zamiriga singdirilgan lirik qahramon: tushkunlikka tushgan yigit, bedarak ketgan farzand sog‘inchida adoyi tamom bo‘lgan ona, alamzada inson, baxtsiz ayol timsoli yaqqol gavdalanadi, yurak og‘rig‘i, iztirobi bizga ko‘chgandek bo‘ladi. Shoir tanlagan ifoda usuli uning badiiy niyatini o‘quvchisiga yetkazishga xizmat qiladi. So‘z “hirqirab” yurakning holatidan xabar bersa, “ipim uzun, ignam siniq” misralari ostiga “osmon uzoq, yer qattiq” maqolining ma’nosi ustalik bilan singdirilganligining guvohi bo‘lamiz. “Iqror” she’ridan keltirilgan misolni kuzatadigan bo‘lsak:

Har kun nasibasi haqorat, qarg‘ish,
Bahori bir lahza, uzun umri qish.
Bir istagi qolish, ming ahdi ketish,
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

Shoir bahorga qishni, bir lahzaga uzun umrni qarshi qo‘yib antiteza san’atini qo‘llagan holda, yil fasllarini inson turmush tarziga mengzab, chuqur mushohadaga chorlaydi. Hayotda tez - tez uchraydigan murakkab insoniy munosabatlar, axloqiy va ijtimoiy to‘qnashuvlarning poetik obrazini yaratadi. “Iqror” she’rini o‘qishda davom etamiz:

Aldamchilik, yolg‘on mendan naridir;
U mening jonimdir, malak, paridir.
Birov deb yashnadi, men deb qariydir,
Bir baxtsiz ayolni sevaman...

“Bir istagi qolish, ming ahdi ketish”, “Endi o‘lgim kelar jim quchib uni” kabi misralar zamirida lirik qahramonning ruhiy iskanjadagi o‘kinishi, ichikishi, ichki bezovtaligi aniq seziladi. Hayotning murakkabligini, musbat va manfiylar to‘qnashuvini o‘ylab xayolga botasiz.

Lirik qahramon ruhiyatidagi qarama - qarshi tuyg‘ularni yetkazib bergan, ong osti istaklari, ruhiy hayajoniga ishontirishga erishgan ijodkorning so‘zni niyatga xizmat qildirish quvvatiga tan berasiz. Buning sirini izlaysiz. Balki bu quvvat “Bir istagi qolish, ming ahdi ketish”dagi “bir” va “ming”, “qolish” va “ketish” antitezani qo‘llashidadir. Yoki she’r yakunidagi qahramonning g‘ayritabiiy orzusidami: “Endi o‘lgim kelar jim quchib uni”. Umuman, “Iqror” she’rida matnning kognitiv - semantik xususiyatlarini yaratishda shaxs ruhiyatini ochishda aql, his va ruhiyatga ta’sir qiluvchi kognitiv metaforalar kuchli ta’sirini ko‘rsatgan.

A’zam O‘ktam she’rlarida hikmatli so‘zlar, iztirobli o‘ylar turli she’riy san’atlarni ustalik bilan qo‘llash orqali dunyoga kelgan. Ijodkor o‘zi uchun muhim bo‘lgan axborotni oshkora emas, misralarga tagma’no yuklab, bayon qila oladi:

Yil yiqilar yilning ustiga,
Xotiralar tipirchilar xit.
Yelkam og‘ir, qaqshar ustixon,
Yuk ostida silkinar umid.

(“Yo‘l”)

She’rda qo‘llangan “yiqilar” fe’l so‘z turkumiga qarashli so‘z asli ma’nosiga ko‘ra harakatni bildiradi, ammo u mavhum ot “Yil”ning ustiga beixtiyor yiqilishi she’rni ekspressiv ta’sir kuchini oshiradi. Shu to‘rtlikning o‘zida: “Xotiralar tipirchilar”, “Yuk ostida siltanar umid” misralaridagi aynan, xotira “tipirchilar”, umid “ silkinar” fe’llari tushkunlikka tushgan, yuksak orzu - istaklari ushalishidan umidini uzgan lirik qahramon holatining aniq manzarasini yaratishga xizmat qiladi. Albatta, ziyrak o‘quvchi shoirning kontekst ostidagi fikrini anglaydi.

A’zam O‘ktam she’rlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, olam va odamning o‘zaro bog‘lanishini anglatadigan va jonli metaforalarga boy, tagma’noli: “Daraxtlar bo‘ldi ustozim – Saxovatdan berur darslar”, “Sendan qochgandayin oqmasin soylar”, “Qovog‘ini solib o‘sar bug‘doylar”, “Yuragimda gulladi birdan, Farg‘onaning o‘rikzorlari”, “Bir qaltis quladi kech kuzgi oftob, Cho‘qqidan cho‘qqiga urilib sindi”, “Yel yig‘lar yer tirnab, tuproq seskanar, Maysalar qaltirab qilurlar sajda” kabi misralar orqali ijodkorning aytmoqchi bo‘lgan fikrini ilg‘ash, yurak dardini anglash mumkin.

Shoir she’rlarida uchraydigan: “Qo‘ziqorin bodrab chiqqanda yerdan, Zarb bilan tugilgan mushtlarga o‘xshar”, “Toshdek so‘zlar kun o‘tgan sayin”, “O‘qtalgan musht kabi turar minorlar, Maqbara qubbasi dubulg‘a kabi”, “Beshikni yodimga tushirdi tobut, Go‘yoki miltiqdir osig‘liq tanbur”, “Men – tog‘. Sen ketyapsan – cho‘karman bugun, men – bog‘. Sen – mevamni to‘karman bugun”

kabi favqulodda go‘zal, ta’sirchan, iztirobli har qanday qoliplarni buzib o‘tadigan betakror o‘xshatishlar kitobxonni teran mulohazaga yetaklaydi.

Muallifning yurt qayg‘usi, xalq dardi, vatanparvarlik tuyg‘usini ifodalovchi fikrlari “Dalil”, “Cho‘lpon”, “Andijon”, "Adashding”, ”O‘ttiz yettinchi yil she’ri” kabi ko‘plagan she’rlarida namoyon bo‘ladi.

Haqni ezgan xalqni
ezgan sanalgay!
Tegramga sinchiklab boqarman, ko‘ray –
Kimlar o‘rab olgan o‘ngu so‘limni?!

A’zam O‘ktam she’rlarini o‘qir ekanmiz, goh shoir tabiatiga mos keskinlik, qat’iyat, goh askiya, hazilga moyillikni ko‘ramiz:

Qo‘qonda askiya qilayotgandek,
Tuyuladi hatto choyxonalar ham.
Engashib gap tashlar piyolalarga,
Go‘yoki qiqirlab choynaklar bu dam.

(“Manzara”)

Shoir shunday go‘zal milliy manzara yaratadiki, beixtiyor Qo‘qonga borging, o‘sha soqollari xushnud silkinayotgan nuroniy chollarning askiya payrovlarini eshitging keladi. Choynakni gapi nash’a qilib chayqalib kulayotgan choynak obrazi dilingizni yayratadi. Yoki o‘zbekona turmush tarzi, boshdan oyoq milliy ruh, milliy koloritni namoyish etuvchi “Chorbog‘” she’riga e’tiborni qaratamiz:

Poklanmoqqa suv eltar ariq,
Qaldirg‘ochlar tushirar takbir.
Sajdadan bosh ko‘tarmas poliz,
Tandir – yuvosh duogo‘y kampir.

Teraklar saf tortgan yigitlar,
Makkajo‘xorilar bir maydon ayol –
Yo‘rgaklangan bola quchoqlab,
Shukr namoziga saflangan.

“Chorbog‘” she’rini o‘rganar ekanmiz, she’rda yuragida islomiy aqidalarni yuqori tutgan, dunyoning yaratilishida, har bir nihol, har bir giyohda Ollohning yaratuvchilik qudrati – ilohiy sirni anglagan va anglatish istagida bo‘lgan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o‘z ta’riflarida “A’zam O‘ktam janoblari” deb ko‘klarga ko‘targan, "dinini xuddi cho‘g‘ni tutgandek tutib” yashagan musulmon insonning inson va islom haqidagi qorishib ketgan tasavvurini

ko‘ramiz. Shoir keltirgan qator ohorli, individual o‘xshatish, tasviriy vositalar milliy turmush tarzi, milliy ruhning tasviri shoir ijodiga qiziqishni yanada oshiradi.

A’zam O‘ktam she’rlaridan hech kimga o‘xshamagan o‘ktam ovozi eshitiladi. Uning she’rlari orqali shoirning vatanparvar qalbi, oshiq qalbi, otalik, farzandlik, chin insonlik qiyofasi jilvalanib turadi. Mag‘rur, o‘jar, samimiy, diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan zabardast inson gavdalanadi. Shoir bir she’rida yozganidek:

O‘t - o‘lan aytar salovat,
Jo‘r bo‘l, ey A’zam O‘ktam.
Iymoning bo‘lsin salomat,
Nur bo‘l, ey A’zam O‘ktam.

A’zam O‘ktam she’rlari hamisha muxlislari e’tiborini tortadigan, ko‘plagan ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘ladigan she’rlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳодир К. *“Руҳият алифбоси”: Аъзам шоирнинг ўктам овози*. Алмати. “ЭСПИ” нашриёти, 2021й.
2. Йўлдошев М. *Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари*. Тошкент, "Фан", 2007 й.
3. Мукаррамов М. *Ўзбек тилида ўхшатишлар*. Тошкент - 1976 й.
4. Абдуллаев А. *Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши*.Т.,1983 й.
5. Аъзам Ўктам. “Тўмарис билан суҳбат”. Тошкент, “Муҳаррир нашриёти”, 2017.
6. Ўктам А. Кузда кулган чечаклар. Т. 1989.
7. Ўктам А. Тараддуд. Т. 1993.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATINING POETIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Tursunova Namunaxon Xaydarali qizi,
Qo‘qon universiteti dotsent v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada A’zam O‘ktam she’riyatining poetik o‘ziga xosliklari tahlil qilingan. Shoir ijodida poetik obrazlarning shakllanish jarayoni, ularning estetik mazmuni va badiiy vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi. A’zam O‘ktam she’riyatida tabiat manzaralari, insoniy kechinmalar, diniy-falsafiy g‘oyalar va tasavvufiy tafakkur uyg‘unlashganligi ko‘rsatiladi. Uning

ijodida tashbeh, tashxis, ramz kabi tasviriy san’at vositalaridan samarali foydalanilishi, she’rlarning qisqa, lo‘nda va mazmunan teran bo‘lishi alohida ta’kidlanadi. Shoir asarlarida Qur’on oyatlari, hadislar hamda diniy hikmatlar poetik shaklda ifodalanib, inson ruhiyati va ma’naviyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: A’zam O‘ktam, poetik obraz, tasviriy vosita, diniy-falsafiy tafakkur, tasavvuf, o‘zbek she’riyati, badiiy ifoda, timsol, tashbeh, tashxis, ramz, tasviriy vosita.

Abstract

This article analyzes the poetic features of A’zam Oktam’s poetry. The process of formation of poetic images in the poet’s work, their aesthetic content and the features of expression through artistic means are revealed. The harmony of natural landscapes, human experiences, religious and philosophical ideas and mystical thinking is shown in A’zam Oktam’s poetry. The effective use of visual art tools such as allegory, diagnosis, symbol in his work, and the short, concise and deep content of the poems are emphasized. In the poet’s works, verses of the Quran, hadiths and religious wisdom are expressed in poetic form, serving to educate the human psyche and spirituality.

Keywords: A'zam Oktam, poetic image, figurative means, religious and philosophical thought, Sufism, Uzbek poetry, artistic expression, metaphor, allegory, diagnosis, symbol, figurative means.

Adabiyot — bu so‘z san’ati, unda insoniyat ruhiy dunyosi, hayotiy kechinmalari va estetik qarashlari obrazlar vositasida ifoda etiladi. Ayniqsa, poetik obrazlar she’riyatning asosiy badiiy unsurlaridan biri bo‘lib, ularning vositasida muallif o‘z ichki dunyosini, qarashlarini va tuyg‘ularini badiiy shaklda ifodalaydi. Har bir adib o‘z davri, tili va ma’naviy muhitiga mos ravishda obraz yaratadi. “Badiiy obraz — borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan, ideal asosda qayta ishlangan, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan aksidir”[1.90], deb so‘ngi yillardagi nazariyaga oid kitoblarda ta’riflar berilgan. Real hayotdagi hodisa, shaxs, holatning badiiy umumlashtirilgan, estetik qayta ishlangan ko‘rinishidir. Poetik obrazlar faqat tashqi voqelikni emas, balki shoirning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ham aks ettiradi. Badiiy obrazlar badiiy tasvir va ifoda vositalari, badiiy san’atlar orqali tasvirlanib, kitobxon ko‘z oldida gavdalantiriladi.

O‘zbek she’riyati bog‘idan o‘zining o‘rniga ega bo‘lgan, o‘zining latif va o‘ktam she’rlari, tarjimalari, dolzarb mavzular ko‘tarilgan maqolalari bilan ko‘plab adabiyot muxlislari ko‘nglidan joy olgan A’zam O‘ktamning alohida o‘rni bor. A’zam O‘ktam she’riyatida poetik obrazlar rang-barang bo‘lib, ular: Tabiat va real voqelik ya’ni atrof-muhit, tabiat hodisalari, jamiyatdagi holatlar asosida obrazlar yaratgan masalan, “Manzara” she’rida:

Engashib gap tashlar piyolalarga,

Go‘yoki qiqirlab choynaklar bu dam. [2.72]

Bir qaraganda ushbu she’r Erkin Vohidovning “Garchi shuncha mag‘rur tursa ham piyolaga egilar choynak, shunday ekan manmanlik nechun, Kibr-u hayo

nimaga kerak” misralarini eslatadi. Erkin Vohidov she’rida kamtarli bo‘lish g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, A’zam O‘ktam misralarida umuman boshqa mavzu: ko‘tarinkilik kayfiyati, ya’ni choynakning piyolaga egilib choy quyishini, gap otayotgan sho‘x insonlar qiyofasini gavdalantiradi.

Sarlovha qo‘yilmagan quyidagi she’rida xasadgo‘y insonga hech narsa yoqmasligi terak va majnuntol obrazlari orqali ifodalangan. Bilamizki, terak tik o‘sadi meva bermaydi. Majnuntol yerga qarab o‘sadi. Xasadgo‘y terakni tikligini ko‘rib, “menman” deb aytadi. Majnuntolni esa telba deb ustidan kuladi:

Xasadgo‘y: “mevasiz manman”,
Deya so‘ksa daraxtlarni.
Tag‘in “Majnun” deya kulgay,
Boshin bukkan bu tolimni. [2.26]

Mazkur she’rdagi terak, majnuntol poetik obrazlari inson obrazlarni yoritib berish uchun vosita vazifasini bajargan. Xasadg‘oy insonga hech narsa yoqmasligi shu obrazlar orqali ko‘rsatilgan.

Xalqimizda “Qiz saqlaguncha tuz saqla” yoki “bir nafar qizni chiroyli tarbiyalagan otalarga jannat eshiklari ochiladi” degan mazmunda hadislar bor. Shoir ayoli va qizining or-nomusi yelkasida og‘ir yukligini eslatib:

Shamolday beqaror yengil,
Yashash bizlarga begona.
Yuki yelkamdadur endi,
Qizim birla ayolimni. [2.26]

deb barcha mard erkaklarga xitob qiladi. Qizlar ham otalari va akalarining yuzini yerga qaratadigan ish qilmasligi misralardan anglashiladi.

Pand-nasihat ruhida yozilgan:
Endi sen hukumat odami bolam,
Qo‘linga bir qog‘oz berdi o‘qitib,
Unutma—sen kimsan, kim ota onang,
Yurma qog‘oz bilan elni qo‘rqitib. [2.98]

“Onam fotifasi” she’ridagi mazkur fikrlarni har bir inson o‘z farzandlariga uqtiradigan bo‘lsa, bolalarimiz, faqat diplom uchun emas, barkamol, el-yurtga nafi tegadigan bo‘lib voyaga yetadi. Misralarda olg‘a surilgan g‘oya shuki, “O‘zligingni unutma, ma’lum bir mansabdor shaxs bo‘lganingda ham, mansabingni sueste’mol qilma! Xalq, millat manfaatlarini ko‘zla! Seni ota-bobolaring kimlar bo‘lib o‘tgan. Buni yodingdan chiqarma!” deya xitob qiladi.

A’zam O‘ktam so‘zamollikdan uzoq, so‘zini tejovchi shoir. She’rlari qisqa, lekin lo‘nda va nihoyatda mazmunli so‘zlar bilan tavsiflanadi:

“Qanoat” she’rida o‘qiymiz:

Asl aybim —
Tekis yo‘lda qoqinmokdir.
Asl baxtim —
O‘zing ko‘rmay sog‘inmokdir.
Yeru ko‘kdan mudom izlab
Xato qildim.
Seni topmoq yo‘li
Doim topinmoqdir.[2. 177]

Ushbu she’r lirik qahramonning yaratganga qarata aytgan shukronaligi, ya’ni eng oliy baxt Allohni ko‘rmay yaxshi ko‘rishligimizni anglashimizda! Shu tushunchani ma’nosini anglagan har qanday insonning qalbida sakinat paydo bo‘ladi. Bu dunyoning matohlariga beriladigan bo‘lsak, asl baxtdan ayrilishimiz uqtiriladi. Yoki, “Ibodat” she’rida tabiat unsurlari ham Yaratganga ibodatda ekanligi tashbeh, tashxis san’atlaridan foydalanib, misralar qatiga tizilgan.

Tog‘lar some’ bo‘lib o‘tirishar jim,
Takbir aytgan chog‘i guldurab samo.
U yanglig‘ munojot qila olur kim,
Yomg‘ir bu pichirlab qilingan duo.
Yel yig‘lar yer tirnab. tuproq seskanar,
Maysalar qaltirab qilurlar sajda.
Duolar ijobat bo‘lgan sanachar,
Kun nurlari bundan keltirar mujda. [2. 190]

“Some’” — eshituvchi, ilohiy haqiqatni anglovchi degan ma'noni anglatadi. Tog‘larning “some’ bo‘lishi” — ularning Alloh kalomini, takbirni idrok etishi — bu tasavvufiy tafakkur bo‘lib, tabiat ham ilohiy haqiqatni anglaydi. “Takbir aytgan chog‘i guldurab samo” — bu yerda osmon ham takbirga javob qaytarganday, go‘yoki u ham ibodatda ishtirok etmoqda.

U yanglig‘ munojot qila olur kim,
Yomg‘ir bu pichirlab qilingan duo.

“Yomg‘ir — pichirlab qilingan duo” — bu **shoirning poetik topilmasi**, tashbehning haddi a’losidir. Duoning samimiyligi, sokinligi va ichki dardi yomg‘ir orqali ifodalangan. Yomg‘ir — ruhning ichki yig‘isi, samoviy rahmat sifatida berilgan.

Yel yig‘lar yer tirnab. tuproq seskanar,
Maysalar qaltirab qilurlar sajda.

Mazkur misralarda tabiat unsurlari — yel, yer, tuproq, maysa jonlantirilib, barchasi ruhiy holatni aks ettiruvchi tirik mavjudot kabi ko‘rsatiladi. Yel yig‘lashi**,**

tuproqning seskanishi**,** maysaning sajda qilishi — bu Allohga bo‘lgan qo‘rquv, Uning izmidaligini ifodalab kelgan.

Ajab, dil shod bo‘lur tinglab
Qiyomatdan xabarlarni.
Tobora shavqim ortgaydir
Sezib kelgich xatarlarni.
Na rohat, na azob bois
Sen aytgan yo‘lga kirmishman.
Shu ishq haqqi, xatarsiz qil
O‘zing sori safarlarni.[2.155]

Qiyomat — odatda qo‘rquv uyg‘otuvchi tushuncha, ammo shoir bu yerda qiyomatdan eshitilgan xabarlarni “dil shod” bo‘lib tinglaydi. Bu tasavvufiy g‘oya sanalib, haqiqiy oshiq uchun o‘lim yoki qiyomat qo‘rqinchli emas, balki ro‘baro‘ bo‘lishni intizorlik bilan kutgan holat deb hisoblaydi.

Shoir Allohga murojaat qilmoqda — “Sening yo‘lingga na rohat uchun, na azobdan qo‘rqib emas, balki ishq haqqi uchun kirdim”. Bu tasavvufiy e’tiqodning markaziy g‘oyasi: Allohga muhabbat bilan bandalik qilish, manfaat yoki qo‘rquv uchun emasligi eslatiladi. So‘nggi misralarda: “Ishq haqqi uchun chiqqan bu safarlarni, iltimos, xavfsiz qil” — deya duo qilinmoqda. Yana bir she’rida hayotning eng muhim va eng kuchli qatlamlaridan biri o‘limni qo‘rqinch emas, haqiqat bilan yuzlashuv deb qabul qilishni aytadi:

Janozaga borsam, negadir
Ko‘zim quvnab bo‘lurman behol.
Faqat shundoq o‘xshaydi axir
Er erkakka, ayolga ayol.
Bir dard o‘rtab yubordi dilni,
Yozarkanman titratib qo‘lim:
O‘z asliga qaytarsa elni,
O‘lim bo‘lsin har kuni, o‘lim.[2. 138]

”Janozaga borish” — o‘lim bilan yuzma-yuz kelish, hayotning yakuniy haqiqatini ko‘rish.

Lekin odatda motam va qayg‘u ifoda etiladigan joyda “ko‘zim quvnab” deyilgan. Bu paradoks: shoir o‘lim sahnasida ruhiy uyg‘onish, haqiqat bilan to‘qnashuvdan hosil bo‘lgan tetiklikni his qiladi. Hayotda sinfiy, ijtimoiy, jinsiy farqlar bor — lekin o‘lim oldida barchamiz tengmiz. Aynan janaozada, tabut atrofida turgan odamlar yuzidagi soddalik, tabiiylik — shoirga “asl inson”likni eslatadi. Bu satrlar she’rning eng keskin, eng kuchli joyi.

“O‘z asliga qaytarish” — bu xalqning, jamiyatning, hatto butun insoniyatning asl qadriyatlariga, Alloh bergan fitratga, halollik, rostlik, soddalikka qaytishi demak.

Shoirning iltijosi shunday: agar o‘lim bu uyg‘onishning yagona yo‘li bo‘lsa — unda o‘lim har kuni bo‘lsin! Bu — ruhiy fidoiylik, poetik isyon va so‘fiyona sadoqatning namunasidir.

Ramazon mashaqqat sinovlar oyi,
O‘ttiz qorang‘u kun, o‘ttiz yorug‘ tun.
Tonglar nasib etdi toza havoyu
Bulbulningf ovozin saxarlik uchun.
Achchiq so‘z chiqmaydir , yopiqdir og‘zim.
Birovga qadalib tikilmak tamom.
Ko‘ngul to‘q. ruh yengil.
Xushbaxtman o‘zim—
Gul isin iftorlik uchun berdi shom. [2. 154]

“Ne’mat” she’rida esa butun musulmonlarning eng ulug‘ bayrami ramazon oyining sifatlari xalqona uslubda, soda so‘zlar bilan misralarga terilgan.

Shoirlar o‘z qalbidagi individual tuyg‘u, sezgi va ichki kechinmalar tuyg‘ularni ramziy obrazlar orqali ifodalaydi. A’zam O‘ktamning deyarli she’riyati diniy-falsafiy ruhda bo‘lib, bandalik fazifalari eslatiladi va Qur’on oyatlari, hadislar va diniy hikmatlarga ishoralar qilib fikrlarini dalillaydi. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytgan 24 ta hadisning she’riy talqini asosida tuzilganligi, ya’ni har bir nasihat diniy-hikmat asosida poetik shaklda berilgan ’zam O‘ktam adatda oyat, hadis, hikmatlarni o‘rgatuvchi tarzda emas, balki musulmon insonning hayotidagi fikr, iztirob, e’tiqod holatini poetik ifoda bilan yetkazadi. Bu uslub “Ikki dunyo saodati” to‘plamida ham davom etib, hadis mazmunini ichki ziddiyat, ruhiy qayg‘u, va iymon bilan to‘qilgan she’rlar maskaniga aylantiradi.

“Ikki dunyo saodati” to‘plami hadislarni olib, uni zamonaviy va hissiy poetik obrazlarda berish bilan ajralib turadi. Shoir bu orqali “ikki dunyo saodatini”— dunyoda va oxiratdagi baxtni izlash jarayonini, iymonni poetik izhor bilan birlashtiradi. Diniy ruh bilan to‘qilgan: Hadis mazmunlari inson qalbiga ta’sir qiladigan ruhiy izlari bilan yetkaziladi. Har bir she’r iymon-e’tiqod, ruhiy sinov va Yaratgan marhamatidan umidlarni o‘quvchiga his qildiradi.

“Ikki dunyo saodati” — A’zam O‘ktamning ijodida diniy va poetik tafakkur sinteziga xizmat qiluvchi yuksak asar bo‘lib, hadislarni nafaqat ma’no bilan, balki ruhiyat bilan ham yetkazadi. Bu to‘plam orqali shoir “ma’rifatli she’riyat”, “iymon bilan to‘qilgan falsafa”ni taqdim etadi. Mazkur to‘plam alohida tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Umuman olganda, A’zam O‘ktam she’riyati o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning ijodida tabiat manzaralari, insoniy tuyg‘ular, diniy-falsafiy ruh va tasavvufiy tafakkur uyg‘unlashib, poetik obrazlar orqali o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Shoir qisqa, ammo mazmunan chuqur va lo‘nda misralari bilan kitobxon qalbida o‘ziga xos estetik zavq uyg‘otadi. She’rlarida Qur’on oyatlari, hadislar va hikmatlardan foydalanishi ularning diniy-ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi. Insonni poklanish, iymon-e’tiqod va ma’naviy barkamollikka da’vat qiladi. Demak, A’zam O‘ktam ijodi diniy-ma’rifiy mazmun bilan sug‘orilgan, inson qalbini tarbiyalovchi, o‘zbek she’riyatining boy xazinasiga munosib hissa qo‘shgan adabiy meros sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. A’zam O‘ktam. Sahar vaqti yurak yig‘lar. She’rlar. Toshkent: Movaraunnahr, 2014.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI VA SHAXSIYATI

Rustam SHARIPOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada iymon shoiri A’zam O‘ktam she’riyati va shaxsiyatining o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi.
Kalit so‘zlar: shoir, so‘z, badiiy tafakkur, qadriyat, dard, diyonat, adabiyot, ruhiyat talqini, diyonat, iymon, milliy g‘urur.
Annotation: This article examines the unique aspects of the poetry and personality of the poet of faith, Azam Oktam.
Keywords: poet, word, artistic thought, value, pain, religion, literature, interpretation of spirituality, religion, faith, national pride.

A’zam O‘ktam she’riyatida insonning o‘zini o‘zi anglashi masalasi alohida mavqega ega. Har bir so‘z shoirning ichki nidosi, qalb hayqirig‘i bo‘lib yangraydi.ziddiyatli, murakkab, rang – barang olam va odam ruhiyatidagi evrilishlarni tasvirlaydi. Ular o‘ziga xos falsafiy – ma’rifiy, badiiy – mantiqiy, ilohiy – dunyoviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.shoir inson ruhiyatini uning butun borlig‘idan ko‘ra kengroq va chuqurroq tushunishga intiladi.

She’riyat - hazrat Navoiydan meros maydon. Unga har kim o‘z yuki bilan kirib keladi. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf deganimizda ko‘z oldimizga o‘zgacha bir dunyo, ruh va ehtiros namoyon bo‘ladi, qalbimizda noan’anaviy shakldagi ohanglar yangray boshlaydi. Nozik qalb sohibi, salohiyatli shoir A’zam O‘ktam ham mana shu benazir siymolar qatoridan o‘rin egallaydi.

A’zam O‘ktam qisqa ammo shu bilan birga juda sermazmun hayot yo‘lini bosib o‘tdi. Uning she’rlari yengil-yelpi, navbatchi mavzulardan yiroq bo‘lgani singari shaxsiyati ham o‘tkinchi ehtiroslarga yaqin kelmadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning she’rlarida ichki g‘urur, oriyat kabi fazilatlar bilan bir qatorda yolg‘on, ko‘zbo‘yamachilik, munofiqlik va haqsizlikka nisbatan murosasizlik va ba’zi o‘rinlarda isyon tuyg‘ulari ham bo‘rtib chiqqanining guvohi bo‘lamiz. Uning nazdida milliy g‘urur – bu Haqiqat, Adolat va Iymon... edi.

Darhaqiqat, Iymon shoir ijodi, e’tiqodi va hayot yo‘lining mazmunini tashkil etdi. Ustoz Ozod Sharafiddinovning A’zam O‘ktam haqida bitgan ushbu samimiy

so‘zlari buning isbotidir: “Tariximizda birinchi marta Qur’oni Karim o‘zbek tiliga tarjima qilindi. A’zamjon bu ulug‘ ishning tashabbuskorlari safida bo‘ldi, oilasi bilan nusxa ko‘chirishdi, tabarruk kitobimiz uning muharrirligi ostida chop etildi. U “Boburnoma”, “Muxtasar”, “To‘rt ulus tarixi”, “Sabotul-ojizin” kabi noyob kitoblarga muharrirlik qildi. Cho‘lponning “Bahorni sog‘indim” to‘plami uzoq yillik ayriliqdan so‘ng A’zamjonning sa’y harakatlari bilan chop etildi. Sobiq “Yulduzcha” nashriyotining nomini Cho‘lpon deb o‘zgartirilishi ham A’zam O‘ktamning tashabbusi edi. O‘sha yillari biz bu haqda ko‘p fikrlashgandik. Nasrdagi izlanishlari ham nazmidek ravon va ta’sirchan. Eng muhimi, u birinchilardan bo‘lib zamonaviy o‘zbek she’riyatiga diniy – ma’rifiy ohanglarni olib kirdi. Uning “Taraddud”, “Ikki dunyo saodati” kitoblari Qur’oni Karimdan chuqur bilimga ega bo‘lganligining isbotidir. Anchadan beri o‘ylab yuribman, u haqda bir narsa yozish niyatim bor. Yuragida, so‘zida olov bor, adabiyotda ham, hayotda ham bir xil diyonatli, iymonli edi” **[**2, B. 3**]**.

Shoir shaxsiyati ko‘lamini yanada teranroq anglash, ijodi falsafasini chuqurroq his qilish uchun yana bir mo‘tabar zot, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlaridan iqtibos keltirishni lozim topdik. Ul zot A’zam O‘ktam ijodiga yuksak baho berib, shunday deb yozgan edilar:

“A’zam O‘ktam janoblarining “Taraddud” kitoblarini o‘qiganda kamina xodimingizda mutloq boshqa bir fikr paydo bo‘ldi. Ko‘pdan beri o‘ylab, izlab yurgan she’riyat mana shu darajaga chiqsa edi degan xohish, istakni aynan “Taraddud” kitobida ko‘rdim. Avvalo tan olib aytishim kerakki, men A’zam O‘ktamni yaxshi tanimas ekanman. Bu ehtimol kamchiligimizdir. Lekin shunchalik she’r bitishga iqtidori bor shoir, ham vatandoshni tanimaslik albatta biz uchun obro‘ ham bo‘lmas.

“Taraddud” kitobidagi she’rlar diniy mavzudagi boshqa she’rlardan farqli o‘laroq ba’zi bir oyatlarning, hadislarning yoki Islomiy hikmatlarning tarjimasi emas, balki musulmon insonning hayot jarayonida qorishib ketgan fikrlari, o‘zining aytadigan o‘ylari, fikr-mulohazalari va xalqi uchun, dini uchun kuyunishi, iymon-e’tiqodi uchun yonib yashashi aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Ana shu narsalarni “Taraddud” kitobini sahifalab she’rlarni o‘qiganimizda yaqqol ko‘ramiz. Bu she’rlarda musulmon inson, dinini xuddi cho‘g‘ni tutgandek tutib, dindan ajrab qolgan bir jamiyatda yashab kelgan insonning fikrlari, uning qiynalishlari, o‘rtanishlari va xalqi uchun kuyunishi o‘z ifodasini topgandir” **[**2, B. 383**]**.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, A’zam O‘ktam XX asr o‘zbek adabiyotining eng noyob iste’dodli ijodkorlaridan biri edi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning “Kuzda kulgan chechaklar”, “Kuzatish”, “Ziyorat”, “Taraddud”, “Ikki dunyo saodati”, “Qirqinchi bahor” kabi she’riy to‘plamlariga kirgan she’rlarini o‘qib, inson xilqati va ruhiyatining nozikligini, uning komil shaxs sifatida shakllanish jarayoni nihoyatda mashaqqatli ekanligini anglagandek bo‘lamiz.

Shoir o‘z ijodida tilimizning yashirin imkoniyatlarini izlab topish, uning ichki jozibasini ochib berish, shuningdek she’riyat tilining badiiyatidan unumli

foydalanish yo‘lida tinimsiz izlangani, bunda Xazrat Navoiy ijodidan malham topgani, undan ma’naviy-ruhiy ozuqa olib, ijod qilganini his etamiz.

Masalan, shoir o‘zining “Alisher Navoiy” nomli hajman mo‘jazgina she’rida buyuk allomaning ruhiy-badiiy qiyofasini yaratar ekan, tildagi tasviriy vositalardan foydalanishda so‘zlarga o‘ziga xos uslubiy vazifa yuklaydi. Poetik asarlar tilining hissiy–badiiy saviyasini, ta’sirchanligini ta’minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o‘xshatishdir. She’r «*Ko‘k - dasturxon, oymomo - non muqaddas, Tegrasida sochilmishdir ushoqlar*» satrlari bilan boshlanadi. Shoir Hazrat Navoiyga murojaat qilib, “Siz osmondek ulug‘ va yuksak, oymomodek tanhosiz” demaydi, ko‘pchilikka tanish so‘zlardan va siyqasi chiqqan oddiy tashbehlardan qochadi, balki zamonaviy tilshunoslikda yetakchilik qilayotgan antropotsentrik yo‘nalishga mos keladigan yangi poetik tasvir yaratadi hamda o‘xshatish vositasida shu fikrni isbotlashga urinadi.

A’zam O‘ktam Hazrat Navoiyning komillik fazilatlarini osmonga mengzaydi - yuksak va qo‘l yetmas, uning nazdida dasturxon tegrasida sochilgan ushoqlar ulug‘ mutafakkir qalamidan to‘kilgan munavvar durlardir. “Ko‘k - dasturxon, oymomo - non muqaddas” satridagi *dasturxon* va *non* konsentlari o‘zida dunyodagi jami ijobiy fazilatlarni, muqaddas qadriyatlarni ifodalaydigan, inson ruhiyatiga taskin va malham beruvchi tushunchalar uyg‘unlashib, o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydigan poetik manzara hosil bo‘ladi - “*Tegrasida sochilmishdir ushoqlar”.*

A’zam O‘ktam poetik ta’sirchanlikni kuchaytirish maqsadida *uchoq* obrazini matnga olib kiradi. *Toptay olmas izg‘isa ham basma – bas, Turli nomlar olib uchgan uchoqlar*” – Hazrat Navoiyning dunyo bo‘ylab sochilib ketgan va hamon dunyoni hayratga solayotgan, turli davrlarda “*turli nomlar bilan izg‘igan* ” tuzumlarning sinovlariga bardosh bergan asarlarining mohiyati bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotmaganligi, u hamma zamonlarda osmondek yuksak va nondek muqaddas ekanligi ishonch bilan ta’kidlanadi.

Go‘yo A’zam O‘ktam ulug‘ mutafakkir ruhiy olamidagi ziddiyatlarga yechim izlayotganday tasavvur paydo bo‘ladi. Shoirning ichki iztiroblari, dramatik kechinmalari shu o‘rinda o‘z kulminatsion nuqtasiga chiqadi va muallif metafora yordamida o‘z maqsadini bayon qiladi: “*Eb qo‘yolmas shart sindirib hech inson, hech qanday kuch terolmas bu ushoqni”.* She’riy satrlarning ushoqqa nisbat berilishi o‘quvchi ko‘ngliga qandaydir sokinlik olib kiradi, unga lirik qahramon ichki kechinmalari, ruhiyatidagi to‘fonlar va evrilishlar haqida ishora beradi. “*Tupurolmas – muqaddas bu dasturxon, ezg‘ilolmas hech kimsaning oyog‘i*”. Shoir satrdan – satrga poetik tasvirni kuchaytirib boradi, uning o‘xshatish vositasida kutilmagan xulosaga kelishi kitobxonni o‘ylashga majbur qiladi.

A’zam O‘ktamning “Alisher Navoiy” she’ridagi falsafiy ruh inson hissiyotining turli epkinlar girdobidagi holatini metafora yordamida ishonarli va ta’sirchan ifodalaydi. Ma’lumki, individuallik, ya’ni o‘ziga xoslik har bir ijodkorning so‘z tanlash san’ati bilan belgilanadi. Shu tarzda shoirning badiiy tafakkuri, so‘zni his qilishi, idrok etishi, eng asosiysi uning lisoniy layoqati, ya’ni lingvistik mahorati haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

She’riyat ixlosmandlarida “Shoir bo‘lish uchun tug‘ma iste’dod bo‘lishi kerakmi yoki bunga oliygohlarda ham o‘rgansa bo‘ladimi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, shoirlik Olloh tomonidan berilgan bir in’om. Shoirlik martabasiga erishish uchun insonda uchun juda ko‘p xislatlar mujassam bo‘lmog‘i darkor. Iste’dod, bilim, mehnatsevarlik, zamon va makon tuyg‘usi, kurashchanlik, fidoyilik, hayratlanish... va eng muhimi qalb, yurak... Faqat shu xislatlargina she’rni chinakam badiiy asar darajasiga ko‘tarish imkonini beradi. Fikrimizcha, bu xislatlarning barchasi shoir shaxsiyatida mujassam bo‘lganligi uning ijodiy merosi ko‘lamini belgilab bergan.

A’zam O‘ktam bor yo‘g‘i 42 yil umr ko‘rdi. Uning dardlari bu dunyoga sig‘madi...

U hayotni juda-juda sevardi. Uning atrofdagi ko‘z ilg‘amas jilvalarni qalb ko‘zi bilan ko‘ra olishi va olgan taassurotlarini o‘quvchiga yetkazib berish qobiliyati yurakdan sirg‘alib chiqqan xayqiriqni eslatardi. Uning she’rlarini o‘qisangiz dam armonli, dam qayg‘uli, dam iztirobli, dam umidli satrlarga duch kelasiz va beixtiyor o‘yga cho‘masiz.

Noyob qalb, ajoyib iste’dod sohibi, yuraklari vodiydek keng vodiylik shoir A’zam O‘ktam juda qisqa umr ko‘rgan bo‘lishiga qaramay o‘zidan keyin munosib ijodiy meros, uni tanigan-bilgan do‘stlari qalbida o‘chmas iz qoldirib ketdi. Xalqimizning eng tabarruk zotlari, allomalari tomonidan A’zam O‘ktam ijodiga berilgan yuksak baholar ham uning shaxsiyati ko‘lamini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qilishi shubhasiz. Xususan, benazir ustozimiz Ozod Sharafiddinov A’zamjonni talabalik yillaridan yaxshi bilgan va yaxshi ko‘rgan. Domlaning shogirdi sifatida ularning ko‘p suhbatlariga guvoh bo‘lganman. Ustoz A’zamjon va Hulkarni, ularning shoirtabiat oilasini ayricha mehr bilan qadrlardi. A’zamjonning adabiyot, olam va odam haqidagi dadil hamda isyonkor fikrlarini qiziqish bilan tinglar, ba’zan ikkalasi bahslashib ham ketishardi. A’zam O‘ktam o‘z ismiga munosib, nihoyatda dadil va o‘ktam edi, ularning xuddi tengdoshlardek bahslashishlariga havasimiz kelgan paytlar ham ko‘p bo‘lgan. Navqiron shoirning, sadoqatli shogirdining bevaqt vafotidan ustozning nihoyatda iztirob chekkani ham esimda. Ammo A’zam O‘ktamning yuraklarni to‘lqinlantiruvchi ajoyib asarlari, do‘stlar davrasida aytilgan o‘zidek kamtar, kamsuqum va oqko‘ngil fikrlari, dunyoqarashi ummondek keng, iymoni mustahkam inson haqidagi xotiralar qalbimizni nurlantiradi. Qolaversa, aqlli, ziyoli, zukko, oqibatli farzandlari biz bilan, bizning qatorimizda ekanligidan ko‘ngillarimiz xotirjamlik tuyadi. Xalqini, millatini jon-dili bilan sevgan shoir zurriyodlariga To‘maris va Temurbek ismlarini berganida, “Qizim To‘maris isyonkor malika To‘marisdek elparvar, o‘g‘lim Temurbek Sohibqiron bobosidek mard-jasur bo‘lsin”, deya niyat qilgan bo‘lsa, ajab emas... Biz oilaviy do‘st edik, A’zamjon “Bola dunyoni tebratar”, “Kuzda kulgan chechaklar”, “Kuzatish”, “Taraddud” kitoblariga chiroyli dastxat yozib bergandi.

Fikrlarimizni O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberievaning A’zam O‘ktamni xotirlab yozgan “Yig‘ladim” she’ridagi bilan yakunlashni lozim topdik. Zotan, unda yaqin do‘st va zabardast shoirni, ulkan shaxsni yo‘qotish dardi, armonlari mujassam.

Bo‘ydor bir do‘st ketdi. Keldi bo‘ydor g‘am,
Kuyundim. Bo‘taday bo‘zlab yig‘ladim.
Ayriliq – yuk. Bosdi. G‘ichirlab sindim,
Quyun ichga urdi. Muzlab yig‘ladim.
Faqat oldga oqar daryo ekanmiz,
Qaytmas daryolarni izlab yig‘ladim.
Ro‘zi mahshardami endi ko‘rishmoq…
O‘zim o‘z-o‘zimga so‘zlab yig‘ladim.
Hazin-hazin nayning nolasi keldi,
Menam shul nolaga moslab yig‘ladim.
Bu kech tik terakka suyanganimcha
Ketgan do‘stlarimni eslab yig‘ladim. ”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. A’zam O‘ktamni xotirlab / Sahar vaqti yurak yig‘lar... – T. “Movarounnahr” 2014.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019.
3. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T: Fan, 1977.
4. Xudoyberdieva H. Tanlangan asarlar. – T. Sharq, 2019.
5. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar: She’rlar. – T.: 1990.
6. O‘ktam A. Kuzatish: She’rlar. – T: Yosh gvardiya, 1990.
7. O‘ktam A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T:, 1999.
8. O‘ktam A. Osmon yaqin...: She’rlar. – T:, 2011.
9. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. – T:, 2014.
10. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.
11. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –Toshkent: Muharrir, 2019.

MULOHAZA. MUSHOHADA. MUKOSHAFA

Mo‘minjon SIDDIQOV,
Turon FA akademigi,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri - shoir, tarjimon va adib A’zam O‘ktam ijodining o‘ziga xos falsafiy mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Millat, Buvayda, taqdir, e’tiqod, islomiy ruh, tarix, isyon, hayrat, qadriyat.

Annotation: This article discusses the unique philosophical essence of the work of one of the outstanding representatives of 20th-century Uzbek literature - poet, translator and writer Azam Uktam.

Keywords: Nation, Buvayda, fate, belief, Islamic spirit, history, rebellion, wonder, value.

I

XX asr dunyo xalqlari, jumladan, turkiy qavmlar uchun benihoya og‘ir kechganligi sir emas. Hazrati Yofas (a.s.) avlodi bo‘lgan turkiy xalqlar o‘z boshlaridan nechog‘lik musibatlarni kechirganliklari haqida turli xil bitiklar ko‘pdan ko‘p darak beradi. Iskandar bosqini, Kir va Doro otlig‘ ahamoniylarning qutqusi, keyin arablar, mo‘g‘ullar istilosi va bunga qo‘shimcha tarzda mahalliy zolimlarning o‘z qavmlariga nisbatan zulmlari, o‘z qardosh-qarindoshlarini talash, poymol etish, xo‘rlash va boshqa buzg‘unchiliklari ular tarixining ayanchli sahifalarini tashkil qiladi. Biroq bu bosqinlar XX asrda turkiylar taqdiriga yog‘ilgan sho‘rishlar oldida unchalik mahobat kasb eta olmasligini ko‘pchilik yaxshi fahm etsa kerak. Shuni e’tirof etish lozimki, dunyoning katta qismida yoyilib nashu namo topib kelayotgan turkiy xalqlar – o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, uyg‘ur va turkmanlar, chuvash va boshqirdlar, qoraqalpoq va qorachoylar, shor va no‘g‘aylar XX asr davomida muttasil ezib kelindi. Yaqinda Y.Xo‘jamberdiyevning “Sog‘uniy” romanini mutolaa qilish asnosida ushbu fikrlar o‘tdi yodimdan: turkiy xalqlar Sovet deb atalmish mustabid tuzumning azob-uqubatlarini boshqa xalqlar, deylikki, slavyanlar, boltiqbo‘yiliklardan, o‘n, balki yuz chandon ortiq tortgan bo‘lsa kerak; xo‘rlash va ezishlar, aldov va talashlarning eng chirkin ko‘rinishlarini boshdan kechirganliklari bugunga kelib oshkor qilindi. To‘g‘ri, bitta kitob qaydlari so‘nggi xulosani chiqarishga kamlik qilar, biroq do‘ppini olib qo‘yib jiddiy aztahidil mushohada qilinsa, turkiy qavmlar boshiga tushgan bundayin ayanchli musibatlarni hech bir millat taqdirning bir yozig‘i sifatida, shularning natijasi o‘laroq, qo‘rquv saltanati ostidagi mutelik, xuddi yosh bolaning aldash chog‘ida bo‘lgani kabi mungli mo‘ltirashlar yanglig‘ kutib olmagan ekan... Ayni chog‘da, xalqning, millatning tiyrak ahli bu zulmlarga goh yashirin tarzda, goh oshkora, gohida o‘limlarni-da bo‘yinlariga olgan holda millat, el-yurt taqdiri, erki va ozodligi uchun kurashga otlanganlar. Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Munavvarqori, Hamza... Bu ro‘yxatni davom ettirsak adog‘i yo‘q. Ular yurt istiqloli, xalq istiqboli uchun goh siyosat maydoniga chiqib, goh o‘tkir qalamlarini ishga solib kurashdilar. Ular turkiy millatning qon-qoniga singib ketgan bag‘rikenglikni mutelikka yo‘ygan, andishaning otini qo‘rqoq qo‘yganlarga qarshi bosh ko‘tardilar; savodsiz, o‘tmishi ham, kelajagi ham puchak pulga arzimaydigan bir xalq deb kamsitilgan, “oyoqlar ostida toptalgan” (Cho‘lpon iborasi) xalqni himoya qilib chiqdilar, turli xil usullar bilan ularo‘z xalqining mudroq ko‘zini ochishga sa’y qildilar. Buning uchun adabiyotni, teatrni, matbuotni, maktab-maorifni minbar qildilar. Ular xalqqa qarata, “Kishan kiyma, bo‘yin egma Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsen” (Cho‘lpon satri), deya murojaat etdilar. Va tabiiyki, ular qaysidir ma’noda, qaysidir shaklda o‘z muddaolariga erishdilar ham. Biroq bu yutuqlar vaqtinchalik ekanligi sal keyinroq ayon bo‘lib qoldi. Sovetning manfur va mustabid siyosati bu erkin ovozlarni aldovlar, qo‘rqitishlar, xo‘rlashlar, qamashlar, otib tashlashlar bilan bo‘g‘ib tashladi. Bu bo‘g‘ilish kam emas, ko‘p emas salkam yetmish yil davom qildi.

Insoniyatning, inchunun, bir millatning tarixi, taqdiri spiralsimon kechadi degan aqida to‘g‘riga o‘xshaydi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan va biz mulohaza yuritgan tarix shu asrning ikkinchi yarmining o‘rtalariga kelib sal boshqacharoq tarzda takrorlandi. Tevarak atrofda hukm surgan qo‘rquv saltanati, millat ustiga yog‘dirilgan bo‘xtonlar, asossiz ayblovlar, ba’zi bir kishilarning muhit va siyosatga ko‘nikuvi yangidan uyg‘onmoqda bo‘lgan millatsevar, xalqparvar fozillar, ziyolilar, shoiru adiblarni sukutda yashashlariga monelik qila boshladi. Xuddi ana shu paytda Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Nurali Qobul, Usmon Azim, Xurshid Davron, Karim Bahriev va yana o‘nlab fidoyilar siyosat va adabiyot maydonida o‘zlari mansub qavmlarini himoya qilib chiqdilar, ularni haqiqatga tik boqishga, o‘zligini anglashga, tarixini tiklash va qadrlashga undadilar. Shunday fidoyilardan biri buvaydalik hassos shoir A’zam O‘ktam bo‘ldi, deyilsa hech istisnosiz to‘g‘ri bo‘ladi. Zero mazkur shoir ilk she’rlaridayoq bunday misralarni tizgan edi:

Qul bo‘lgan emasmiz hech, birodarlar,
Garchi ko‘p talovlar, bosqinlar o‘tdi.
O‘qtalgan musht kabi turar minorlar,
Maqbara qubbasi dubulg‘a xuddi.
Va butkul savodsiz emasdik hecham,
Bunga ishonmayman, bu gap ko‘p og‘ir:
Hatto uy shiftining vassalari ham
Kitoblar shaklida terilgan axir.

A’zam O‘ktamning bu va ana shu mavzudagi boshqa she’rlarini o‘qib, uning she’r va shuur bilan she’riyat hamda siyosat maydoniga yonib kirib kelgani, millatning o‘zligini xuddi Cho‘lponlaru Qodiriylar, Behbudiyu Avloniylar yanglig‘ tanitishga sa’y qilganiga amin bo‘lamiz.

II

Gapni bu kabi uzoqdan boshlashimning bir sababi bor. Mening nazarimda, A’zam O‘ktamning ijodiy yo‘li quyidan yuqoriga qarab, o‘zbekona odob doirasida tadrij etgan ko‘rinadi. Lekin bu tadrij boshqa qalamkashlarda bo‘lgani kabi asta-sekinlik bilan, pog‘onama-pog‘ona yuzaga kelgan emas. Shoir ijodining haddi a’losida asosiy unsurga aylangan millatsevarlik, qavm manfaatini ko‘zlab tizilgan fikrlarning uchqunlari ijodining ilk pallalarida yaratilgan she’rlarida-da bo‘y ko‘rsatganini alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, uning ilk she’riy to‘plamlariga kirgan she’rlaridagi biz nazarda tutayotgan masalalarga daxldor jo‘shqin fikrlarni xuddi olov yoqishga hozirlangan bir to‘p o‘tin ichida astalik bilan yallig‘lanayotgan cho‘g‘ga mengzash mumkin bo‘ladi. Olov alamazon bo‘lmasdan oldin bir to‘p o‘tinning ichkarisida - bolalar koptogidek joyda cho‘g‘ yallig‘lanadi. Keyin shu cho‘g‘ birdan alanga olib, butun bir g‘aram o‘tinni olov qamrab oladi. A’zam O‘ktam she’riyatida keyinchalik ustuvor yo‘nalishga aylangan isyonkor motivlarning ildizlari ana shu cho‘g‘ misol dastlabki she’riyatida ham bo‘rtib turgan, “mana men deb ko‘zga tashlanib turgan. Dastlabki she’riy to‘plami “Kuzatish”da bunga dalillar ko‘p. A’zamjon bularni sharqona odob bilan, musulmon qavmlarga xos bosiqlik va zukkolik bilan havola etadi:

Bulutning qo‘ynidan chiqmasa oftob,
Nishonlar o‘rnini bossa sovutning;
Bo‘ronlar jimligi sanalsa odob,
Ko‘tarsa ayollar, qizlar tobutni –
Go‘daklar er yetmas,
Yigitlar o‘lar.
Bosh tursa ko‘krakda, yelkada emas,
Ezilib, dimiqib o‘lsa hamiyat;
Hech kim yo‘l topmasa, chiqarmasa sas,
Bahona qilinsa, muhit, jamiyat –
Uzrlar gunohdan
Yomonroq bo‘lar.

Bu satrlarning mag‘zini chaqish o‘zingizga havola. Har gal shu she’rni o‘qiganimda To‘ra Sulaymonning xalqona, dono she’riyati yodimga tushadi. Har gal shu she’rni o‘qiganimda Shavkat Rahmonning “Turkiylar” otlig‘ she’ri miyamda charx uradi. Keyin o‘ylayman: To‘ra Sulaymon umrining oxirlarida bejiz A’zamjon shaxsi va she’riyati haqida shunday jiddiy kuzatishlarini ko‘pchilik bilan baham ko‘rmagan ekan. A’zamjonning o‘zi bejiz Shavkat Rahmonni xuddi tug‘ishgan og‘asidek ko‘p tilga olmas ekan va unga bag‘ishlab she’r bitmagan ekan. Bunda ham qandaydir bir ilohiy hikmat borga o‘xshaydi, vallohi a’lam.

III

Aslida, har bir she’r hayratdan tug‘iladi. Hayrat esa kutilmagan g‘aroyibotlar, favqulodda tilsimli hodisotlar, kishini larzaga soluvchi voqeotlardan aqlning ajablanishi sifatida qog‘ozga ko‘chadi. Hayrat ko‘ngil tilsimi bo‘lib, inson ruhining bu hududsiz koinot, jamiyat va uning mehvari bo‘lgan bani basharning asroridan ijodkorning taajjublanishi ekanligini inkor qilib bo‘lmaydi. Bundoq qaraganda, har qanday shoir hayrat kishisi hisoblanadi. Agar qalamkashda ana shu hayrat bo‘lmasa, uning yaratiqlarining kuchi-qudrati, yashovchanligi shubha ostida qoladi. Shoirda hayrat bo‘lmasa, yetuk bir she’rning dunyoga kelishi ham mushkul. Shoirga ilhom beruvchi hayratlarning esa manbalari bisyor: Yaratganning qudrati, uhroviy va dunyoviy ma’shuqaning husni jamoli, kamolidan hayratlanish, davr nosozliklari, zamona ahlining bevafoligidan ozorlanish tufayli paydo bo‘lgan shunday holatlar va boshqa hayratlarga duch kelish mumkin. Yana shunisi borki, she’r shoirning voqelikdan ta’sirlanishi natijasi bo‘lib, uning qalb qo‘ridan o‘tgan, o‘zgacha jilo topib shakllangan fikr va tuyg‘ulardir. Shundanmi, Abdulla Qahhor “Poeziya – yuksak san’atdir” nomli maqolasida bunday fikrlarni aytgan ekan:

“She’r – fikr ekstrakti bo‘lishi jihatidan hikmat, ko‘ngulga yo‘l topishi, undan o‘ziga hamohang sado chiqarishi jihatidan musiqa. She’r – oshiqning ohi, musibatdiydaning ko‘z yoshi, saodat va surur ifodasi bo‘lgan qahqaha tovushi. She’r – ko‘ngilning oynasi, ko‘ngilda nima bo‘lsa, shuni aks ettiradi. She’r – ma’sum go‘dak, riyoni bilmaydi. Riyo bo‘lgan yerda she’r bo‘lmaydi. She’r – bir mo‘jiza. Uning mo‘jiza – sirlaridan xabardor bo‘lish bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo‘lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa

yana nimadir kerak”. Ulug‘ adib fikrlarini bu tariqa davom ettirish mumkin: she’r ziynatli, ma’nodor nutq, kerak bo‘lsa, bir ma’viza. U fikrni yuzaga keltiruvchi so‘zlarning oddiy yig‘indisi emas. To‘rtta so‘zni bir satrga qofiyali qilib solib qo‘ygan bilan she’r bo‘lib qolmaydi. She’r badiiy ijodning eng murakkab va qiyin shakli. Unda fikr bo‘lishi tayin va bu fikr avvalo ijodkorning o‘zini, keyin esa o‘qig‘uvchini hayajonga solishi darkor. She’riy nutq – murakkab sistema. Chunki she’riy asar ritm, vazn, bo‘g‘in (hijo), turoq, qofiya, band (strofa) she’r sistemalari (barmoq, aruz, oq, nasriy), intonatsiya, poetik figuralar va boshqalarning yaxlit uyushuvidan tashkil topadi. Bular she’rning shakliy tomonlari. Mazmun (g‘oya) har qanday asarning, shuningdek, she’rning ham asosi hisoblanadi. She’rda g‘oya mana shu shakliy komponentlar vositasida ifoda etiladi. Demak, she’rda ham shakl mazmunga xizmat qiladi, shakl va mazmun mutanosibligi shu tariqa yuzaga chiqadi. Mazmun va shakl komponentlari hamda ularning aloqasi haqida mumtoz shoirlarimiz bir qancha mulohazalarni ilgari surganlar. Masalan, Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asarida shunday deydi.

Oqil agar so‘z birla so‘zni yopar,
Orif o‘shal so‘zda o‘zini topar.
Ulki bilur so‘z guhari qiymatin,
So‘zda topar so‘zlaguchining otin...
So‘zda kerak ma’niyu ma’nida zavq,
So‘zlaguchida so‘z uchun dardu shavq.

Mazmun mohiyatini shakl va uning ko‘rinishini belgilaydigan vositalardan yuqori qo‘ygan Alisher Navoiy esa bir g‘azalida mazkur masala borasida shunday deydi:

E*y Navoiy, chu Xusrav bila Jomiy shavri*
San’atu rangin qo‘y, so‘zda kerak dard ila so‘z.

Hazrat Navoiyning zikr qilingan bayti xayoldan o‘tdi-yu, ko‘nglimizdan ushbu mulohazalar kechdi: Sharqda so‘z ustasiga so‘zdan saboq berib bo‘lmaydi, degan hazilomuz naql bor. Balki bu rostdir. Nega deganda o‘zi so‘zdan, uning bemisl sehru sinoatidan, jozibasidan saboq bersa-yu, sen uning turli masalalarda demoqda bo‘lgan so‘zlarini taftish qilib o‘tirsang, kishiga malollik yetadi. Ayrim so‘z san’atkorlarining ijod mevalarini o‘qir va tahlil qilar paytimizda ko‘proq shularni o‘ylaymiz. Alloh bandasiga o‘zgalarga so‘z aytmoq, so‘z bilan ko‘ngilga kirib borishdek hammaga ham nasib qilavermas iqtidorni mukofot etibdimi, shunisiga tan berish kerak; so‘z xizmatkoriga qulluq etmoq darkor. Bu maqtov yoki yaltoqlanish bo‘lmas. Yana masaladan uzoqlashib ketmadikmi? Menimcha, yo‘q. Zero A’zam O‘ktam degan shoirni chuqurroq bilish uchun gapni xuddi shu tariqa uzoqroqdan boshlash, tarixga nazar tashlash zaruriyati bor...

Bir tumanning bir-biridan uncha olis bo‘lmagan qishloqlarida yashagan bo‘lsak-da, A’zam O‘ktam bilan o‘tgan asrning 70-yillari oxirida tanishganmiz. O‘shanda kamina o‘zni adabiyotning yosh fidoyisi sanab, she’rlar mashq qilib, hikoyalar yozib turardim. Tuman gazetasi qoshida yosh ijodkorlarning to‘garagi bo‘lib, uni tumanning yetuk shoiri Qodir Dehqon boshqarar, A’zamjon uning eng faol ishtirokchilaridan edi. Qodir Dehqon tumanning nufuzli rahbarlaridan

bo‘lganidan ba’zan to‘garak mashg‘ulotlarida ishtirok eta olmay qolardi. Bu paytda to‘garakni A’zamjon boshqarardi. To‘garak mashg‘ulotlarining birida Gulchehra Yo‘ldosheva degan shoira tengdoshimizning she’rlari muhokama qilindi. Uning she’rlarini tahlil qilgan A’zamjon Gulchehra she’rining bir misrasida ishlatgan “zimiston” so‘zi va uning ma’no qirralarini sharhlab, bilmadim, anchagina so‘zladi. O‘yladim: nahot bitta so‘z shunchalik qimmatli bo‘lsa she’r uchun. Keyinchalik (aqlimiz to‘lishganda) So‘zning qimmati she’r uchun juda muhim ekanligini A’zamjon ilk she’rlaridanoq fahm etgan va bir umr ana shu e’tiqodga sodiq qolgan, so‘zga yaxshi ma’noda xasislik bilan yondashgan va uning sohir quvvati oldida hamisha hayratda bo‘lgan, degan xulosaga keldim. Darvoqe, uning ilk she’rlaridan tortib, yetuklik davrida bitganlarigacha So‘z tom ma’noda jilvalanadi, so‘zlar tom ma’noda jilolanadi. So‘z O‘zining butun saxtu sumbatini ko‘rsatadi (Shunda Erkin Vohiddek shoir bejiz “So‘z - zabarjad” demagan ekan! degan o‘yga borasan kishi). Biz to‘pori, oddiy sanab yurgan so‘zlar shoirning takrorlanmas iqtidori, zehnu fahmi tufayli yangidan - yangi qirralarini namoyon qiladi. Shoir avvalgi she’rlarining birida bunday yozgan edi:

O‘n oy yerga,
Chillada shiftga
Qarab o‘tdi otam va bobom.
Bu odatni buzdimu shartta
Tik qarashga o‘rgandim tamom.

Darhaqiqat, “tik qarashga o‘rgangan” shoir ana shu e’tiqodiga bir umr sodiq qoldi va buni ushbu satrlar ham tasdiqlaydi:

Turaverar kerib ko‘kragin,
A’zam O‘ktam o‘lar – egilsa.
Chip-e, bo‘lsang kimning ko‘ppagi,
Pisht-e, kimning mushugi bo‘lsang.

Bunday so‘zni aytish uchun shoirlik iqtidorining o‘zi kamlik qiladi. Atrofdagi turfa voqealardan yurak yonib turishi kerak. Turli xil gap-so‘zu xatti xarakatlarni adolatli baholay bilish darkor. Va tabiiyki, shoir o‘zining so‘ziga o‘qiguvchini to‘la ishontira bilishi ham kerak. Bundayin satrlarni o‘qigan she’rxonda iddao va savol tug‘ilmasin. A’zamjon she’rlarida har bir so‘z, har bir misra va har bir she’r bir isyonkor sifatida kurashga otlanadi va o‘zgalarni ham bu kurashga undaydi:

Musht - duoga ochilgan qo‘lim,
Sherday turdim o‘rnimdan sapchib:
Rabbim, berma sen yovga o‘lim,
O‘zim chiqay xumordan yanchib.

Shoir, A’zamjon aytganidek, o‘t bilan o‘ynashadi. Agar o‘zgalar atrofda yuz berayotgan hodisalarga beparvo qarasa, endi maydonga shoir otiladi. Zero shoir she’r bitib atrofdagilarni maftun etuvchi shaxsgina emas. U yurtda adolatni ustuvor bo‘lishini istagan va shu yo‘lga o‘zini ham, iqtidorini ham, qisqasi, bor-budini tikkan shaxs hisoblanadi.

Bitta sham o‘chgaydir shabboda yelsa,
Kulgu libos balki, asli u qayg‘u.

Bosqinchi birovning yurtiga kelsa,
Bir kun quvilishga hozirligi shu.
Ko‘zni sovuq ko‘rdim, yuraklarni muz,
Shaylandim o‘t ila o‘ynashmoq uchun.
Muhit bo‘lsa, qishni boshlab kelar kuz,
Yuzma-yuz chiqmasang, yashamoq nechun?
Yo‘l aniq, qaytish yo‘q
Men ketdim endi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Q. Yoshlar bilan suhbat. T., 1968.
2. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar: – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
3. O‘ktam A. Ziyorat: She’rlar. – Farg‘ona: “Yangiqo‘rg‘on” nashriyoti, 1992.
4. O‘ktam A. Ikki dunyo saodati: She’rlar. – Toshkent: “Cho‘lpon” 1998.
5. O‘ktam A. Kuzatish: She’rlar. – T.: “Yosh gvardiya”, 1990.
6. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –T.: “Muharrir”, 2019.
7. O‘ktam A. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T.: “Qatortol-Kamolot”, 1999.
8. O‘ktam A. Osmon yaqin,.. : She’rlar. – T.: “Abu Matbuot - konsalt”, 2011.
9. O‘ktam A. Sahar vaqti yurak yig‘lar... : She’rlar. –T.: “Movarounnahr”, 2014.
10. O‘ktam A. Taraddud: She’rlar. – T.: “Cho‘lpon” 1993.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON SHAXSINING NAMOYON BO‘LISHI

Rahmon QO‘CHQOROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti ,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodkor shaxsning davr hodisalariga nisbatan egallagan pozitsiyasi yuzasidan munozaralar, shoir A’zam O‘ktamning “Kuzatish” nomli kitobiga kirgan she’rlarida aks etgan motivlar, xususan, millat va mamlakat taqdiri, kelajagi bilan bog‘liq muammolarga lirik qahramon – shoir “meni”ning faol munosabati tahlil va talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: shoir A’zam O‘ktam, estetik hodisa, “Kuzatish” kitobi, milliy uyg‘onish, istibdod, “chekkagir qalamkashlar”, pafos, fikr va tuyg‘u oqimi, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari, “Lolazor” romani, shoir Shavkat Rahmon.

Annotation: This article analyzes and interprets the debates over the position

of the creative person in relation to the events of the time, the motifs reflected in the poems of the poet Azam Uktam included in the book "Observation", in particular, the active attitude of the lyrical hero - the poet "me" to the problems related to the fate and future of the nation and the country.

Keywords: poet Azam Uktam, aesthetic phenomenon, the book "Observation", national awakening, tyranny, "borderline penmen", pathos, the flow of thought and emotion, Orhun-Enasay Tashbitiks, the novel "Lolazor", poet Shavkat Rahmon.

Adabiyot va san’atning ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati, ta’siri xususida, ijodkorning o‘zi yashayotgan va kelajak avlodlari yashayajak zamin taqdiriga munosabati borasida bir-birini keskin inkor etuvchi qarashlar istagancha topiladi. Bir qism muxlis adabiyot va san’at, o‘z mohiyati va maqsadiga ko‘ra estetik hodisa ekanini eslatib, sanoi nafisa o‘tkinchi davr muammolaridan yuqori turishi lozimligini uqtirsa, boshqa bir tomon zamonga, xalq va inson qismatiga befarq ijodning bo‘lishi mumkin emasligini, mana shu befarqlikning o‘zi ham bir nuqtai nazar – insoniy hamda ijodiy aqida ekanini isbotlashga urinadi. Eng qizig‘i – har ikki tomon o‘z da’vosini asoslash uchun dalil va misollarni ham xohlagancha topishadi.

Bizning bugungi maqsadimiz mazkur bahsda kim haqu kim nohaqligini aniqlashtirish, qaysidir bir tomon himoyasiga chog‘lanish emas, albatta. Qolaversa, har qanday masala xususida turli fikr-qarashlarning bo‘lishini tabiiy, hatto zaruriy hol sifatida qabul qilmoqqa o‘rganishimiz vaqti allaqachon kelgan.

Biz bir shoirning birgina kitobi mazmun-mohiyati xususida shaxsiy fikrlarimiz bilan o‘rtoqlashamizki, shu asnoda yuqorida eslaganimiz masalaga munosabatimiz ham oydinlashsa, ajab emas.

Demak, shoirning ismi – A’zam O‘ktam, uning 1990 yilda chop etilgan ilk kitobi nomi – “Kuzatish” [1]. Kitobga shoirning ustozi, millat fidoyilaridan biri Anvar Obidjon jamoatchilik asosida muharrirlik qilgan.

Xo‘sh, gapni aynan shu faktlarni eslatmoqdan boshlashimizning boisi nimada?

Gap shundaki, o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmi va 90-yillari boshlarida sho‘rolar qo‘l ostidagi barcha respublikalarda bo‘lgani singari bizning yurtimizda ham milliy uyg‘onishning juda kuchli to‘lqini kechdi. Aksariyat gazeta va jurnallar o‘sha paytga qadar tasavvurga ham sig‘maydigan, bir-biridan o‘qishli, ta’sirli maqola va suhbatlarni chop etar, ularda respublikadagi real ahvol, xalq turmushining og‘riqli muammolari dadil muhokama qilinar edi. She’r, hikoya, qissa, dostonu romanlar, sahna va ekran asarlari, hatto bolalar yoki o‘smirlarga mo‘ljallangan kitoblarda ham xalqni yuzyillik istibdoddan ozod qilish, millatning tili, sha’ni va g‘ururini tiklash, yurtning bangiga aylanayozgan yerini va zaharga do‘ngan suvini poklash, xo‘rlik va muhtojlikka qarshi o‘ziga o‘t qo‘yish bilan isyonini namoyish qilayotgan qiz-juvonlarini asrash... singari hayot-mamot masalalari ro‘yi rost aytila boshladi.

Poytaxtning Pushkin ko‘chasi 1-uy manzilida joylashgan Yozuvchilar uyushmasida tashkil etiladigan yig‘inlarda millat va mamlakat taqdiriga daxldor o‘tkir masalalar yuzasidan muhokama va munozaralar shu darajada qizg‘in tusga

kirar ediki, endi bu to‘lqin hech qachon pasaymaydigandek, endi bu xalq g‘aflat va jaholatga boshqa botmaydigandek, uning mavjud va tug‘ilajak shoir-yozuvchilari faqat va faqat haqiqat, millat dardu tashvishi yo‘lida o‘zini fido qiladiganday tuyulardi...

Bu kurashlardan har ehtimolga qarshi chetga turmoqni afzal bilib, o‘zining bu holini turli vajlar bilan izohlab-oqlashga uringan “Chekkagir qalamkashlarga” qarata, masalan, Mirzo Kenjabek mana bunday xitob qilgandi:

“Mendan ijod qolar”, deydi u shoir,
She’r sotib, jimgina yeydi u shoir...
Ey, shoir, xonasher, maydong‘aribim,
“Mendan ijod qolar” degan raqibim,
Nahotki, quyondan farqing qolmasa,
Ijod kimga qolur, xalqing qolmasa?!

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Gulchehra Nurillaeva, Halima Xudoyberdievalar izidan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Muhammad Rahmon, Mirzo Kenjabek, Muhammad Yusuf singari o‘nlab shoirlar, iste’dodli yozuvchi va dramaturglar o‘z asarlari bilan xalqimiz ruhiyatida o‘zlik, o‘zbeklik, hurlik tuyg‘ulari uyg‘onishiga erishishdiki, bu faktni, bu fidoyilikni, ishonamizki, tarix unutmaydi.

Albattaki, o‘sha ikki katta avlod yonida turib bir so‘z aytish, aytganda ham ularga o‘xshatmasdan aytish aytishgagina oson edi. Ne tongki, o‘zbekning qora ko‘z o‘g‘il-qizlari orasidan navqiron yuragida mana shu ijodiy salohiyat yashnab o‘sayotgan yana bir avlod maydonga chiqdi. Bu avlod peshqadamlari ichida zaminga oyog‘ini mahkam bosuvchi, ayni zaminni o‘zi uchun beshik va behisht deb anglaguchi, shu zamindek hokisor millatini tezroq ozod ko‘rmoqdan boshqa baxtni bilmaguchi bir shoir dadil odimlardi. Agar A’zam O‘ktamning “Kuzatish” kitobi muqovasidagi rasmiga qarasangiz, uning qalbida, butun ruhiyatida kechayotgan shiddatli g‘alayon, sajiyasidagi tolmas va qaytmas shijoat, o‘ziga bo‘lgan qat’iy ishonch balqib turganiga guvoh bo‘lasiz.

She’riy asarning tug‘ilishiga faqat jo‘shqin ilhom, oniy kayfiyatgina asos bo‘lolmasligi, u muallifdan o‘tkir tafakkurni, uchqur xayolni, chuqur bilim va tahliliy tafakkurni ham talab qilishi – allaqachon isbotlangan haqiqat. Masalan, “Nil va Rim”dek [3.122] o‘lmas asarni yozganida Usmon Nosir bor-yo‘g‘i 23 yoshga to‘lgan bo‘lsa, “Turksib yo‘llarida” [4.14] she’rini bitganida G‘afur G‘ulom endi 27 ga kirgandi. Bu she’rlardagi tizginsiz, biroq o‘quvchi qalbi va ongini to‘la qamrab-chirmab oluvchi kuchga ega yaxlit pafosni, hodisalar bayonida misralar ichidan chiqib kelayotgan shiddatli fikr va tuyg‘u oqimini bir chetga qo‘yaylik-da, shoirlarning uzoq va yaqin o‘tmishni qanchalar chuqur bilishiga, tarixni qanchalar teran idrok etishi va o‘z zamonasiga qiyoslay olishiga e’tiborni qarataylik.

Shunga o‘xshash A’zam O‘ktamning “Betobligimda” nomli mo‘jaz she’ridagi quyidagi misralar ham shoirning ona xalqi tarixini yaqindan bilishi va eng muhimi, undan, avvalo, o‘zi kerakli ibrat o‘zlashtirgani hamda yurtdoshlarini ham shunga da’vat etishni istayotganidan dalolatdir:

Garchand tilinmadi yer,

Bosmadi ustdan osmon,
Ezsa biroq bir-birin
Elning to‘ri to‘zarkan... [1. 16]

Harqalay, ziyrak o‘quvchi bu misralar qaysi tarixiy manbani yodga tushirishini, o‘sha manbaga darj etilgan so‘nmas alamli nidoning aksi va sadosi ekanini allaqachon ilg‘agan bo‘lsa kerak: O‘rxun-Enasoy toshbitiklariga mangu muhrlangan mana bu achchiq savol, afsuski, tayinli javobini hali hamon topgani yo‘q: ***“Ey, turk budun (turkiy xalq), tepadan osmon bosib tushmayotgan bo‘lsa, pastdan yer yorilib yutmayotgan bo‘lsa, kim va nima sening orangni buzadi, nima seni to‘zg‘itadi?!”***

Mana shu – elni chinakam el bo‘lishdan, olomonni xalqqa aylanishdan to‘sib, cheklab turgan illatlarga har qadamda duch kelayotgan shaxs – shoir ularni ko‘rib ko‘rmaslikka, sezib sezmaslikka olish kelajak oldidagi katta jinoyat ekanini chuqur his qiladi:

Bulutning qo‘ynidan chiqmasa oftob,
Nishonlar o‘rnini bossa sovutning;
Bo‘ronlar jimligi sanalsa odob,
Ko‘tarsa ayollar, qizlar tobutni –
Go‘daklar er yetmas,
Yigitlar o‘lar.
Bosh tursa ko‘krakda, yelkada emas,
Ezilib, dimiqib o‘lsa hamiyat;
Hech kim yo‘l topmasa, chiqarmasa sas,
Bahona qilinsa muhit, jamiyat –
Uzrlar gunohdan
Yomonroq bo‘lar.

Boya eslaganimiz – 90-yillar avvalidagi milliy uyg‘onish to‘lqiniga kuch bergan asarlar orasida Murod Muhammad Do‘st yaratgan “Lolazor” romanining o‘rni va ahamiyati o‘zgachadir. Ana shu asarning ne-ne qahramonlarini yo‘ldan ozdirgan, pokiza niyatlarini ixtiyoriy-majburiy tuproqqa qorishtirgan, oxir-oqibat, ularni ildizi qirqilgan terak hamda tuxmi irigan lolaga aylantirgan kuchga “qutqu” nomi beriladi.

Asar muallifi mardona e’tirof etganidek: ***“Har kishining o‘z zamoni va o‘z Oshnosi bor, har kishi o‘zicha bir buyuk qutquga duch keladi”.*** Darhaqiqat, avvalgi chiqishlarimizning birida biz ham buni tan olgan edik: “Har birimizning shaxsiy tabiatimiz – xarakterimiz, ko‘nglimiz, didimiz, istak-xohishlarimiz... bir so‘zga jamlab aytsak, nafsimiz – bizning doimiy oshnomiz-da! Undan qayga qochib qutulamiz? Bu – Shivaning qo‘llariday ko‘pqo‘lli oshnoning panjalaridan xalos bo‘lishning imkoni bormi o‘zi?

Agar ochig‘iga o‘tadigan bo‘lsak, aksariyatimiz bir kun Oshno, boshqa kun Yaxshiboev, birda Qurbonoy, iloj qolmagan paytlar bo‘lsa, hatto, Chorshanbi qiyofasiga kirib yashamaymizmi, kunimizni o‘tkazmaymizmi?., ” [5. 93]

Shu nuqtai nazardan, o‘ziga va qilib yurgan ishlariga tik qaray olish, ularni ro‘yi rost nomlash hamda baholash A’zam O‘ktam shaxsiga hurmatni oshirsa

oshiradiki, aslo kamaytirmaydi. Shoirning birinchi navbatda o‘ziga qarata bergan savoli – “Nega?” deb nomlangan she’rning butun mazmunida o‘zidan norozi shaxsning tazarrusi aks etadi:

Mahkam bog‘lasam-da rost yo‘lga belni,
Ko‘ngil ravshan emas, dog‘i bor dilning,
Yurtimni tanidim, bildim-ku elni,
Biroq unutmadim o‘zimni hanuz. [1. 10]

Ayni kayfiyat to‘plamdagi “Qizimga hasrat” she’rida ham teran ifodalangan bo‘lsa, “So‘roq” she’rida ochiqdan-ochiq o‘zdan norizolik siyoqini oladi:

Qishda qushlarga don sepgan qo‘lingni,
Nopok luqmalardan qochgan qo‘lingni,
Olloh, deb duoga ochgan qo‘lingni –
Uzatding yeyishi, ishi haromga... [1. 6]

A’zam O‘ktamning shoir akasi va ustozi Shavkat Rahmon shaxsi va ijodiga nisbatan tuygan chuqur ixlosi uning “Qirqinchi bahor” to‘plamiga kirgan “Shoirning onasi” she’rida ham bilinib-sezilib turadi. Unga bu jo‘mard shoir his qilgan tuyg‘ular yot emasligi, u ham xalq istiqboli yo‘lidagi ulug‘ safarbarlikka o‘zni tayyorlash, bu kurashlarda har qanday ojizlikdan qutulish istagi bilan yonayotgani “Shubha” she’rida yaqqol ko‘rinadi.

Yodingizda bo‘lsa, Shavkat akaning “Titroq sezdingmi hech bir shum lahzada... ” misralari bilan boshlanuvchi va

Yo‘ldir bu,
Nafsning botqog‘i emas,
Qilichning damiday chaqnagan yo‘ldir.
Bu yo‘lga yuzingni burishdan avval
O‘ldir, ichingdagi xoinni o‘ldir [6. 287]

degan xitob bilan xotima topadigan she’ri bor. Ichdagi xoin bo‘lmish **qo‘rquv** hissidan xalos bo‘lish, “bizda ham bola-chaqa bor” degan “insoniy oqlov”ga kuni qolmaslik istagi A’zam O‘ktamga ham “Menga nima bo‘ldi? Qo‘rqyapman nechun... ” deya o‘zini so‘roqlash va:

Bu la’nati kuchni yengmasam bo‘lmas,
Yo‘qsa bosa kelib, yengar muqarrar.
O, unda yildan yil,
Kundan kun emas,
Har lahza lahzadan bo‘ladi battar! [1. 29]

deya o‘zni omonsiz kurashlarga chog‘lashga kuch beradi. Bu – qanday qilib bo‘lmasin kun o‘tkazish, tuproqdan tashqarida yurish, qorin-qursoq g‘ami bilan bog‘liq mayda g‘amlar yo‘lida titrab-qaqshash emas, balki inson bolasiga bir marotaba beriladigan umrda hur va erkin yashash, ona xalq ro‘shnoligini ko‘rish, mamlakati va millati istibdod hamda xo‘rlikning har qanday shaklidan ozod bo‘lishi yo‘lida kechadigan buyuk muxorabaga qo‘shilish demakdir.

Mana shu holdan kelib chiqib, suhbatimiz avvalida eslaganimiz masalaga – adabiyot va san’at ahlining real hayotga, ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati, ta’siri, ijodkorning o‘zi yashayotgan va kelajak avlodlari yashayajak zamin taqdiriga

munosabati qanday bo‘lishi borasida bir to‘xtamga kelsak, bizningcha, adolatli ish bo‘ladi...

A’zam O‘ktamning olam va odamga aytmoqni istagan fikr-o‘ylari, ularga sog‘ingan pokiza tuyg‘ulari, xalqining baxti, millatining kamoli yo‘lida qilmoqqa chog‘langan ishlari hali juda-juda ko‘p edi. U bir kitobiga sarlavha uchun tanlagani hol – ulug‘ TARADDUD pallasiga yetganida, afsuski, ko‘p shikast yegan yuragi, o‘zi xohlab-xohlamayin, pand berdi.

Biroq shoirning qilib ulgirgan ko‘pdan-ko‘p savobli ishlari, bitib qoldirgan asarlarining o‘zi ham o‘zbek milliy adabiyotida A’zam O‘ktam otlig‘ fidoyi ijodkordan o‘chmas iz qoldi, deyish uchun yetarlidir. Shoir she’rlarining birida ortidan qolajak xalqiga mana bunday iltijo qilgan edi:

Tark etmasin qo‘limni,
Oydin qilib yo‘limni,
Nari quvar o‘limni –
Qalamga duo denglar. [1. 50]

Filologiya fanlari doktori, professor B.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati va qiyofasini, iste’dodining asosiy qirrasini she’riy asarlari belgilaydi. Bu she’rlar egasining mavqeini, obro‘sini tabiiy ravishda baland ko‘taradi; yaxshi she’rgina shoirni abadiyatga daxldor qiladi. Chunki bu she’riyat egasida ichki bir mag‘rurlik, g‘olibiyat seziladi; u birovlarga yaltoqlanishni, ayniqsa, xaqsizlik qoshida bo‘yin egilishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. A’zam O‘ktam she’rlari o‘zi kabi ancha o‘jar va odamning yuziga, xaqiqatning ko‘zlariga tik qarab turadigan, inson yuragiga tez yetib boradigan samimiy, jonli ijod namunalaridir.[3, 129]

Zamonaviy ta’lim –tarbiyada yoshlarni vatanparvar, elparvar, ezgulik va nafosatga oshno qilib tarbiyalashda ma’naviy tarixiy ildizlarimizning boshqa manbalari kabi san’atning ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. kabi she’rlarida san’atga munosabat orqali hayotga va insoniyatga cheksiz muhabbat ifodalangan.

Mumtoz san’atimiz durdonalarini o‘rganish va ularni ziyon - zahmatsiz yoshlarga o‘rgatish hamma zamonlarda ham muhim hisoblangan. Shoir to‘g‘ri ta’kidlaganidek, haqiqiy hofizlikning yuki va mas’uliyati nihoyatda ulug‘. Uni o‘rganish ham o‘rgatish ham oson emas.

Shuningdek, kabi she’rlari ham yoshlarga ularni yuksaklarga intiltiruvchi estetik zavq berish bilan birga, o‘ziga xos ta’limiy, tarbiyaviy mohiyati bilan ajralib turadi. Eng avvalo ularda ona Vatanga, uning tarixi va san’atiga bo‘lgan cheksiz muhabbat tarannum etiladi. Hayot uchun natija muhim, adabiyot va san’at uchun esa jarayon.

Haqiqiy she’riyat insonni hamisha tafakkurga, teran mushohadaga undaydi. She’riyat olami yetti rangni yetmish rangdek bizning ko‘z o‘ngimizda namoyon qiladi. So‘z san’ati musiqa va raqs san’ati bilan uyg‘unlashganda chinakam mo‘jiza yaratiladi. Ijtimoiy ong taraqqiyotining turli bosqichlarida hodisalarga yondashish tamoyillari o‘zgarib, takomillashib borishini badiiy adabiyotda, aynan taniqli shoir A’zam O‘ktam asarlarida kuzatishimiz va tadqiq qilishimiz yangi innovatsion g‘oyalarga asos bo‘lishi aniq. Uning O‘zbekiston xalq hofizi Sherali Jo‘raevning hayoti va ijodi haqida hikoya qiluvchi “Bola dunyoni tebratar” nasriy asari, “Qo‘shiq”, “Sen – sog‘inch... ”, “Mamajon hofiz”, “O‘yin”, “Bulutlar o‘z ishin qildilar oxir... ” deb boshlanuvchi she’rlari adabiyotimiz xazinasiga asl durdona bo‘lib qo‘shildi.

Darhaqiqat, so‘z va musiqa yo‘li o‘ziga xos ziddiyatlarga to‘la, qancha qarshiliklar bo‘lsada, asrlar sinoviga bardosh bergan muhtasham va qadrli yo‘ldir. “Mamajon hofiz” she’ri xalq orasida Mamajon hofiz nomi bilan katta shuhrat qozongan marg‘ilonlik atoqli san’atkor, 1939 yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan Ma’murjon Uzoqovga bag‘ishlangan. Dili to‘la dard shoir buyuk san’atkor Mamajon hofiz siymosida o‘zbek xalqining musiqaga vobasta og‘riqlari va armonlarini, yo‘qotishlarini ko‘radi:

Men bu nog‘orani chertmasman aslo,
yurak qatlarini ocharman bir-bir.
Xirqiragan ovoz, keksa qalb bilan
ishq haqida kuylash osonmas axir

Agar bizning yoshlarimiz Mamajon hofizdek san’atimiz fidoyilarining, o‘tnafas xonandalarining qalb ingroqlarini anglasa, demak millatimiz, qadim madaniyatimiz nomiga dog‘ tushirmaydi. Shoir aytganidek:

Qayda kuy bo‘lmasa, turnalar shunda,
xayollar – turnalar uchar yoshlikka.
Kimsasiz hovlidir – jasoratsiz qalb,
hanuz dil ketadi sho‘x, beboshlikka.

Turnalarning qo‘shig‘iga o‘xshash haqiqiy, jonli kuyning yaralishi tug‘ma iste’dod degani, uni bilish va anglash yo‘li bitta – u ham bo‘lsa o‘qish va izlanish, Mamajon hofiz kabi buyuk hofizlarning ijodini, qo‘shiq yo‘llarini o‘rganishdir.

Ochig‘ini aytishimiz kerak, yaqin yillarda ham bizning dostonlar va maqomga munosabatimiz ham, ular haqidagi bilimlarimiz ham haminqadar edi. Keyingi yillarda olam ahlini hayratga solib, bizning qalbimizdagi iftixor tuyg‘ularini alanga oldirib, Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoev maqom va baxshichilik san’atiga alohida e’tibor berdilar, Shahrisabzda maqom, Termizda baxshichilik san’ati bo‘yicha xalqaro festivallar o‘tkazildi. O‘ttiz yildan beri qadimiy Samarqand “Sharq taronalari” xalqaro musiqa bayramiga mezbonlik qiladi. Bular biz uchun ham faxr,

ham mas’uliyatdir. Bizning musiqa, raqs, maqom va baxshichilik san’atimizning ildizlari nihoyatda qadimiy, bu ko‘hna va qadimiy yo‘lda ne – ne buyuklarning izlari, ruhlari va so‘zlari qolgan. Biz ularni o‘rganishimiz, jahon tamaudunining tamal toshini qo‘ygan buyuk madaniy merosimizni asrashimiz shart.

Hissiyot inson ruhiyatiga hamma narsadan ko‘ra qattiqroq va kuchliroq ta’sir o‘tkazadi. A’zam O‘ktamning “Bulutlar o‘z ishin qildilar oxir,..” deb boshlanuvchi she’rida ijodkorning ichki olami, go‘zallik va nafosatga shaydo ta’sirchan ko‘ngli, unda kechayotgan quvonch va tashvishlar, iztiroblar ishonarli tasvirlangan:

Ichar, irg‘ishlashar bir to‘p yigit-qiz,
Bir mengina chetda, yonarman takror.
Jonlarimga tekkan qish-ku, bilaman,
Hech kelmay ichimni og‘ritdi bahor.

Shoir, musiqa odamlar bir- biriga ishonishi va samimiy munosabatda bo‘lishlari, hayotni, vatanni, kelajakni yaxshi ko‘rishlarida, bir - birlarini hurmat qilishlari, milliy qadriyatlarni anglashlari va asrashlarida muhim vosita ekanligini chin yuragidan his qiladi va shu hissiyotlarni yoshlar tushunishlarini istaydi. Biz shoir qalamida buyuk san’atkorning ichki siyratini ko‘ramiz:

Mashshoqni chorlayman birdan hayqirib,
Ovozim gitarlar shovqinin bo‘lar...
So‘z qotar jimlikdan zerikkan mashshoq:
“Haydalish kuyi”ni chalaymi?” – Kular.


Bugungi kunda “mashshoq” atamasi faqat tarixiy mavzudagi asarlarda qolgandek tuyuladi. Asosan “sozanda” atamasi qo‘llaniladi. .

MASHSHOQ [*a*. o‘qituvchi, ustoz; usta] – Xalq cholg‘u asboblarida musiqa asbobi chaluvchi sozanda.[12, 562]

Bir seskandim. Etim jimirlab ketdi,
Tirilar – o‘, meni o‘ldirar “Navo”!
Og‘riydi, ko‘kragim sanchib og‘riydi,
Yodga tushib ketar Qodiriy bobo...

Har bir ramzda olam – olam ma’no bor. “Navo” o‘zbek xalqining eng mashhur kuylaridan bo‘lib, unga mavjud lug‘atlarda unga shunday izoh berildi:

NAVO (kuy, ohang) – 1. 13 – 17 – asrlarda O‘rta Osiyo, Ozarbayjon va Xuroson xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan o‘n ikki maqomning uchinchisi hisoblanib, tovushqatori hozirgi o‘qilishida eoliy ladiga, ya’ni:



ga to‘g‘ri keladi. 2.Shashmaqomga kiruvchi maqomlardan uchinchi. “Navo” maqomi boshqa maqomlardan cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) bo‘limlariga bo‘linib, bular bir necha kuylardan iborat; cholg‘u qismiga Tasnif, Tarji’, Gardun, Oraz, Bayot muxammasi, Husayn muxammasi va Saqillar kiradi[15, 189].

So‘z va san’at ahlining nafaqat iste’dodi va salohiyati, balki dardlari, uning qalbidagi hali musiqaga aylanib ulgurmagan iztiroblar qog‘ozga ko‘chgan. So‘z va musiqa tuyg‘u va tafakkur toriga tirmashib yuksaklikka, ozod so‘z, ozod ohang saltanatiga intiladi. “Navo” timsolida odamlarning yuragini timdalayotgan ohang, shoir qalbiga tinchlik bermayotgan so‘z sehri kitobxonni o‘ziga rom etadi:

Yarim tun. Jo‘nayman g‘udrab, takrorlab,
Mashshoqning mung ila aytgan gaplarin:
“Haydalish kuyi”ni chaldim ko‘plarga,
Ammo Otabekka duch kelmadim men!”

A’zam O‘ktam she’rlari qatiga yashiringan ramziylik va hikmatni anglashga intilish bizni adabiyotning san’at bilan uyg‘unlashgan yangi nuqtalarini topishga, kashf qilishga undaydi.

Haqiqiy she’riyat - ko‘zgu. Unda hamisha olam va odam, qalb va ruh aks etadi. Eng qadimiy manbalar – qoyatoshlar va g‘orlardagi rasmlar, amaliy bezak va tasviriy san’at asarlarida aks etgan holatlar va sozlar o‘zbek raqs san’ati juda qadimiy tarixga ega ekanligini bildiradi. O‘sha qoyatoshlardagi rasmlar dastlabki raqslar va o‘yinlar, musiqa asboblari haqida ma’lumot beradi. Lekin bu manbalarning ko‘pchiligi hali to‘la o‘rganilmagan. San’at va madaniyat olamidagi evrilishlar adabiy jarayonga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Musiqa va raqs san’ati bir - birini mudom to‘ldiradigan, xalqimizning ma’naviyati, ruhiyati, o‘tmishi va bugunini qamrab olgan bebaho xazinadir. Uning asosi milliy an’analarimiz va qadim qadriyatlarimiz negizida tug‘ilgan.

Buyuk mutafakkir bobomiz, Mir Alisher Navoiy hazratlarining bolalik chog‘larida shahzoda Husayn Boyqaro bilan birgalikda alifbo saboqlari qatori musiqa san’ati sirlarini, xususan Xoja Yusuf Burhondan bastakorlik an’analarini o‘rganganligi ma’lum. Demak, hamma zamonlarda ham badiiy va musiqiy ijod uyg‘unligi qadrlangan. Serqirra iste’dod sohibi A’zam O‘ktam so‘z va musiqaning mushtarakligini nozik his qiladi, chuqur idrok etadi. Shuning uchun ham uning she’riyati musiqiyligi va ichki ohangdorligi, tilining ko‘p ma’noviyligi bilan ajralib turadi. A’zam O‘ktam uchun o‘zi qalamga olayotgan har bir mavzu nihoyatda muhim, ularning orasida shunchaki, tasodifiy tanlangan mavzu yo‘q. She’rdan – she’rga millatparvar, vatanparvar shoirning fikr va qarashlaridagi izchillik, reallik va xalqonalik kuchayib boradiki, bu xususiyatlar endi yangi tadqiqotlarga mavzu bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25- son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF -6000 –sonli Farmoni. O‘zA, 2020 yil, 26 may.

3. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. O‘ktam A. Kuzda kulgan chechaklar. – T., 1989.
5. O‘ktam A. Taraddud. – T., 1993.
6. O‘ktam A. To‘maris bilan suhbat. – T., 2019.
7. Fitrat A. O‘zbek musiqasi to‘g‘risida.Tanlangan asarlar. Toshkent.: “Ma’naviyat”, 1998.
8. Rajabiy H. Rajabiynoma. Yunus Rajabiy monologi. T.: “ART-PRESS”, 2016.
9. Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
10. Mavrulov A. Ta’lim tizimida madaniyat masalalari . T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2008.
11. Ibrohimov O. San’atshunoslik masalalariga doir. San’atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.: 1998.

A’ZAM O‘KTAMNING BADIIY TIL MAHORATI

Andaniyazova Dilrabo Ro‘ziqulovna,
Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
andaniyazova1406@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek millatining ardoqli shoiri A’zam O‘ktamning badiiy til mahorati yoritilgan. Xususan, shoir ijodiga xos bo‘lgan idiostil, ya’ni individual o‘ziga xoslik diniy leksemalar, etnografizmlar, iboralar, o‘xshatishlar orqali ochib berilgan. Shuningdek, tilshunoslikda idiostil masalasining o‘rganilishi, uning badiiy asar tili tadqiqidagi ahamiyati haqida ham qisqacha mulohazalar keltirilgan.

Abstract: This article highlights the artistic language skills of the beloved Uzbek poet A‘zam O‘ktam. In particular, the idiostyle characteristic of the poet's work, that is, individual originality, is revealed through religious lexemes, ethnographisms, phrases, and similes. Also, brief reflections are given on the study of the issue of idiostyle in linguistics, its importance in the study of the language of a work of art.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, A’zam O‘ktam, she’riy matn, idiostil, individuallik, diniy leksemalar, frazeologik birliklar, ta’sirchanlik, kommunikativ maqsad.

Keywords: literary text, A’zam O‘ktam, poetic text, idiostyle, individuality, religious lexemes, phraseological units, expressiveness, communicative purpose.

Har bir ijodkorning badiiy til xazinasidan o‘rin olgan o‘ziga xos ifodalar, individual ijodiy qo‘llanishlar bo‘ladiki, bular muallif idiostilini belgilovchi muhim

jihatlar hisoblanadi. Yozuvchi, shoirlarning idiostili masalasi tilshunoslikda alohida tadqiq etilgan bo‘lib, bu borada olimlar quyidagilarni qayd etadi: “Idiostil muallif tomonidan ko‘zlangan kommunikativ maqsadni yuzaga chiqarish uchun tanlab olingan leksemalar ishtirokida yaratilgan nutqiy birliklarning individual sistemasidir”. [1,10] Idiostilni belgilashda ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati asosiy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Y.V.Larchenkoning qayd etishicha, yozuvchilarning individual uslubi (idiostili)ni o‘rganish, muallif uslubiga diqqat qaratish dastlab fransuz tilshunosligida ritorika masalalariga bag‘ishlangan asarlarda, paydo bo‘lgan. [2, 110]

O‘zbek tilshunosligida bu borada salmoqli izlanishlar olib borgan tilshunos M.Abdupattoyev ta’kidlashishicha, “muallif idiostilining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turuvchi eng birinchi belgisi uning so‘z tanlash mahorati hisoblanadi. Yoritilayotgan mavzuni har tomonlama mukammal ifodalashda mavzuga va muallif maqsadiga mos so‘z tanlash nutq tuzishning birinchi shartidir. Fikrga mos so‘z tanlash, o‘zbek tilining boy leksik imkoniyatlaridan unumli foydalanish har bir muallifning maqsad-muddaosidir. Lekin har bir muallif ulardan o‘z iste’dodi va imkoniyati darajasida foydalanadi. Ana shu iste’dod va imkoniyat idiostilni shakllantiradi”. [3, 118]

Darhaqiqat, badiiy matnda leksik birliklar doirasiga kiruvchi shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlardan unumli foydalanish, so‘zning o‘z ma’nosi va ko‘chma ma’nolarini farqlab ishlatish, frazeologik birliklarni o‘rinli qo‘llash va tilning tasviriy vositalarini tashkil etuvchi barcha leksik birliklarning nutqiy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, okkazionla so‘zlarni qo‘llash muallif idiostilini yaratadi. Muallifning o‘ziga xos uslubi ayniqsa she’riy matnlarda yorqinroq namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, she’riy matn – xalq tilining eng nozik, eng muhim qirralarini mujassam etadigan maydondir. Unda tinish belgidan tortib, ohang, har bir so‘z, har bir ifoda vositasi o‘zining ma’no va estetik ta’siriga ega bo‘ladi. Muayyan asarda ularning qanday ro‘yobga chiqishi, avvalo, shoirning badiiy til bobidagi mahoratiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, she’riyat tilini o‘rganish, bir tomondan, ijodkorning mahorat darajasini belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, tilning ifoda imkoniyatlari qanchalik keng va serqirra ekanini ko‘rsatib beradi.

Mahoratli shoir A’zam O‘ktam she’riyatida kuzatuvchanlik va nozik his etish xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning har bir she’ridan hayotiy mushohadalar va mantiqiy xulosalarning ravshanligi sezilib turadi. Bu holat shoirning nafaqat shaxsiy tafakkur mahsuli, balki milliy she’riyat taraqqiyotidagi muhim bosqich sifatida ham ahamiyatlidir.

A.O‘ktamning o‘ziga xos ifoda uslubi sifatida uning asarlarida qo‘llangan diniy leksemalar mazmun-mohiyati, badiiy salmog‘i jihatdan betakrorligini aytish mumkin. Shoir she’riyatida, diniy leksemalar, didaktik xarakterdagi ifodalar o‘ziga xos holda qarshingizga chiqadi. Bu mazmundagi so‘zlarning badiiy-estetik yuki yuqori bo‘lganlari sinchilik bilan tanlangani hamda matnning umumiy mazmuni bilan badiiy umumlashma hosil qilingani kuzatiladi. Quyidagi matnda *topinmoq* polisemantik so‘zi oqali shunday badiiy manzarani kuzatish mumkin:

Asl aybim –

Tekis yo‘lda qoqinmoqdir.

Asl baxtim –

O‘zing ko‘rmay sog‘inmoqdir.

Yer-u ko‘kdan mudom izlab xato qildim.

Seni ***topmoq*** *yo‘li*

Doim ***topinmoq****dir*. (“Qanoat”)

Ma’lumki, ko‘p ma’noli so‘zlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashuvchi lisoniy vositadir. Badiiy matnda yozuvchi yoki shoirning mahorati bilan bir so‘zning birdan ortiq ma’nosi harakatga keltiriladi va ayni so‘z poetik aktuallashadi. Yuqoridagi matnda keltirilgan *topinmoq* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da diniy leksema sifatida *sig‘inmoq, cho‘qinmoq* ma’nolarida qayd etilgan. [4.135] Shoir esa *topinmoq* so‘zining ko‘chma ma’nosi bo‘lgan *sajda qilmoq, bosh egmoq* ma’nolaridan foydalangan. Matnda, shuningdek, *topinmoq* fe’lining *topmoq* fe’li bilan birga qo‘llanishi misradagi oquvchanlik, ohagdorlikni ta’minlagan.

A.O‘ktamning chuqur mushohadaga boy she’rlaridan bo‘lgan “Ibodat” nomli she’rida ham *some’, takbir aytmoq, munojat qilmoq, duo* kabi diniy leksemalarning o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llangan. Bu esa “Ibodat” biblionimini yoritishga hamda matn butunligini ta’minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, matnda diniy leksemalar jonlantirishni yuzaga keltiruvchi poetik vosita sifatida ham qimmat kasb etgan. Bunda *some’* so‘zining “eshituvchi”, “tinglovchi” ifoda semalari qabariq ifodalangan. Viqorli tog‘larning tabiatning ajib manzarasi qarshisida vazmin turishi obrazli tarzda ifodalangan:

Tog‘lar ***some’*** *bo‘lib o‘tirishar jim,*
Takbir aytgan *chog‘i guldurab samo.*
U yanglig‘ ***munojot qila olur*** *kim,*
Yomg‘ir bu pichirlab qilingan ***duo***. (“Ibodat”)

Shuningdek, shoirning “Azon” she’rida ham badiiy-estetik ifodaga xizmat qiluvchi *xudoga shukr, hamd, sano, haq, banda, rasul, ummat, farishta, behisht, zakot, jannat, mardlik farzdir, tantilik – sunnatdir* kabi diniy leksema va gap tarzidagi ifodalarlar matnni shakllantirib, mazmunni to‘la-to‘kis ifodalashga xizmat qilgan.

Bobom o‘tib, qartaygach otam,
O‘g‘il berdi ***xudoga shukr****.*
Dunyo ko‘rdi tag‘in bir odam,
Ismi uning bo‘ladi Temur.
Hamd*lar o‘qib, ayturman* ***sano,***
Haqqa *banda,* ***rasulga ummat****.*
Bilki, shayton do‘koni dunyo,
Mardlik farzdir, tantilik -sunnat.
Har kiftingda ***farishta*** *tursin,*

Qutul hasad asoratidan.
*Sendan **behisht** bo‘yi ufursin,*
***Zakot** bergil jasoratingdan.*
Umring bersin, o‘saver durkun,
Ins-u jinsning tegmasin ko‘zi.
*Kirib borsang **jannat**ga bir kun*
“Salom” desin Tangrining O‘zi. (“Azon”)

Aytish lozimki, A’zam O‘ktam she’riyatida xalqona iboralar, o‘xshatishlarning o‘ziga xos betakror namunlarini ham kuzatish mumkin. Mazkur vositalar lisoniy mohiyati jihatidan farqli xususiyatlarga ega bo‘lmasa-da, badiiy-poetik jihatdan o‘ziga xosdir. A’zam O‘ktam she’riyatidagi har bir o‘xshatish kuzatuvchan shoirning o‘tkir nigohi, nafis va vazmin mushohadasining mahsulidir. Hayot va tabiatning chin oshig‘i bo‘lgan shoir so‘zning jilosini, turfa tushunchalarning badiiy timsollarini hamisha tabiatdan, hayotning o‘zidan izlaydi va uni butun mukammalligicha topish baxtiga muyassar bo‘lgan. Masalan, quyidagi matnda keltirilgan “Yulduzlar – qabridir nolalarimning” jumlasida yulduzlarning lirik qahramon nolalari qabriga o‘xshatilishi shoirning teran va o‘tkir nigohi mahsulidir:

Oh urib, dod dedim ichim yongan dam,
Ovozim jon berdi yetmay osmonga.
Endi har kech ko‘kka termulaman jim
Ziyorat qilganim – ko‘kka boqqanim,
Yulduzlar – qabridir nolalarimning.

A’zam O‘ktam ijodi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan etnomadaniy jihatlarni o‘zida namoyon etishi bilan ham diqqatga molik. Shoir “Mehmondo‘stlik” deb nomlangan she’rida mehmon kutishdek milliy qadriyatni e’zozlashini etnografizmlar orqali ta’sirchan yoritib bergan. Matnda lirik qahramon mehmonga har qancha izzat-hurmat ko‘rsatishga tayyorligi, biroq tuzlug‘i, ya’ni tuz solinadigan idishini ko‘rsatishni istamasligini nihoyatda mohirlik bilan tasvirlaydi. Bu orqali tagma’noga ega bo‘lgan *tuzini yeb (yoki ichib) tuzlug‘iga tupurmoq* iborasiga ham ishora qilingan. Ma’lumki, *tuz* so‘zining ko‘chma ma’nodagi “Kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan (yegan-ichgan) ovqati” ma’nosi so‘zlashuvda faol ishlatiladi. Shoir har qanday holatda ham tuzini yegan inson aziz bo‘lib qolishini xohlaydi, u ziddiyatlarni istamaydi, ko‘ngil qolishdek salbiy holatning oldini olishni o‘ylaydi, yaqinlarini yo‘qotishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Bularning barchasini poetik yo‘sinda ifodalash uchun muallif tomonida juda o‘rinli topilgan ifoda she’rga falsafiy ruh, chuqur estetik salmoq baxsh etgan:

Qadamlariga hasanot, keling!
Uy bir oz tor, ko‘ngil keng biroq.
Uch kun bilmang izzatingizni,
Qirq kun salom shart emas,
yopsangiz bas eshikni sekin.
Faqat – ehtiyot shart –
ko‘rsatmayman hech
Tuzlig‘imni biron mehmonga. (“Mehmondo‘stlik”)

Xulosa sifatida aytish lozimki, A’zam O‘ktam she’riyatiga xos bo‘lgan individul holatlarni alohida tadqiq etish lozim. Bu orqali tilimizning sarhadsiz imkoniyatlariga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Цилевич Л.М. Принципы анализа литературного произведения как художественной системы / Л.М.Цилевич // Филологические науки. Научные доклады высшей школы. – М.: Высшая школа, 1988 - №1. – С. 9–14.

2. Bu haqda qarang: Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Фил. фан. д-ри ...дисс. – Фарғона, 2021. (Ларченко Е.В. Индивидуальный стиль и жанровые признаки: на материале творчества Жака Шарпантро. Автореф… дисс…канд…фил…наук. – Смоленск, 2016)

3. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Фил. Фан. д-ри ...дисс. – Фарғона, 2021.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. To‘rtinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 824 b.

5. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.

6. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси: Монография. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MILLIY ESTETIK VA AXLOQIY QADRIYATLAR TALQINI

Zulfiya MARUFOVA,
O‘zDSMI “O‘zbek va jahon filologiyasi”
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID ID- 0009-0006-1822-4151

Annotatsiya. Bugungi kunda tilshunoslik fani an’anaviy leksik, grammatik va sintaktik tahlillardan tashqari, tilning inson ongidagi konseptual bilimlar tizimi bilan bog‘liq qirralarini o‘rganishga yo‘naltirilmoqda. Ayniqsa, tildagi estetik konseptlar — ya’ni "go‘zallik", "nafosat", "zebolik", "badiiylik" kabi tushunchalarni lingvopoetik va kognitiv nuqtai nazardan o‘rganish zamonaviy lingvistikada muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Maqolada xalqimizning sevimli shoiri A’zam O‘ktam she’riyatidagi o‘zbekona estetik va axloqiy qarashlarning poetik talqini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: A’zam O‘ktam, estetik konsept, milliy madaniyat, go‘zallik, axloqiy me’yor, milliy ruh.

Annotation: Today, the field of linguistics is expanding beyond traditional lexical, grammatical, and syntactic analyses to explore aspects of language connected to the system of conceptual knowledge in the human mind. In particular,

the study of aesthetic concepts in language — such as *beauty*, *elegance*, *gracefulness*, and *artistry* — from a linguopoetic and cognitive perspective is emerging as an important direction in contemporary linguistics.

This article analyzes the poetic interpretation of Uzbek aesthetic and ethical values in the poetry of one of the nation's beloved poets, A’zam O‘ktam.

Keywords: A’zam O‘ktam, aesthetic concept, national culture, beauty, moral norm, national spirit.

Estetik kategoriyalar xalqning tarixiy-madaniy tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular tilda turli leksik-semantik vositalar orqali ifodalanadi. Shu bois estetik konseptlarni tadqiq etish nafaqat til va adabiyot o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi, balki xalqning ma’naviy dunyosi, ideallari va estetik anglash tarzi haqida ham chuqur tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Ayni paytda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda muayyan metodologik muammolar – estetik konseptlarning lingvistik belgilari, ularning diskursiv va janr xususiyatlari, milliy mentalitet bilan bog‘liq qirralari to‘liq yechimini topmagan. Shu jihatdan ushbu mavzuda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Go‘zallikning mohiyati va unga nisbatan yondashuvlarni falsafiy-estetik kontekstda tahlil qilgan olim B.Husanovning fikriga ko‘ra, “go‘zallik – bu, voqelik (tabiat, jamiyat, san’at) hodisasi bo‘lib, biror narsaga his-tuyg‘u orqali ta’sir o‘tkazish bilan insonda jismoniy va ma’naviy kuchlar oqimining ko‘payishiga, shodlik, zavqlanish, ma’naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi... Go‘zallik “chiroyli”, “ko‘rkam”, “nafis”, “jozibador”, “maftunkor” kabi tushunchalarga nisbatan ustuvorroqdir [1, 12]. H.G‘afurova go‘zallikning yaponcha talqini haqida so‘z yuritib, “Tashqi go‘zallikni yaratish qiyin emas, biroq insondagi tashqi go‘zallik o‘qimishlilik, odob-axloq qoidalari, xulq-atvor chegaralari bilan belgilangan estetika me’yorlarini o‘z ichiga oluvchi ichki go‘zallik bilan uyg‘unlashgandagina tahsinga loyiq” [2, 188], – deb yozadi. Emotsional baho kategoriyalari insonning voqelikka munosabati asosida shakllanadi, shu sababli emotsional baho subyektiv xarakterga ega bo‘ladi. Zero, ushbu baho voqelikning alohida shaxs tomonidan idrok etilishi, unga tegishli qiymatlar mezoni bilan bog‘liqdir. Bu tushunchalardagi mushtarak insoniy-ma’naviy jihatlar umumbashariy go‘zallik haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Go‘zallikning tugal ilmiy ta’rifi haqida biror qat’iy fikr mavjud emas.

Go‘zallik haqidagi tasavvurlar xalqning milliy-etnik madaniyati, estetik qarashlari asosida shakllanadi. M.Rahmatova ta’biri bilan aytganda, “nutqda voqelanish jarayoni xalqning diniy, milliy qadriyatlarini kategoriyalashtirish natijasida amalga oshadi” [3, 21].

A’zam O‘ktam ijodida ham ana shu milliy estetika, go‘zallik va madaniyatning o‘zbekona talqini yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning she’riyatida bir maxzun ruh bor. Uni hassos qalb tubidan sizgan va go‘zal badiiyatga qorilgan tuyg‘ular soyasi,

deyish mumkin. Ijodkorning “Chorbog‘” nomli she’rida so‘z yordamida yaratilgan mo‘jaz bir manzara ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi:

Poklanmoqqa suv eltar ariq,

Qaldirg‘ochlar tushirar takbir.

Sajdadan bosh ko‘tarmas poliz,

Tandir – yuvosh duogo‘y kampir.

Teraklar – saf tortgan yigitlar,

Makkajo‘xorilar – bir maydon ayol –

Yo‘rgaklangan bola quchoqlab,

Shukr namoziga saflangan.

Misralarda ibodatga chog‘langan ko‘ngilning muazzam kechinmalari balqib turadi. *Poklanmoq, takbir, sajda, duogo‘y, shukr namozi* kabi diniy qatlamga xos leksemalar oddiy tabiat va predmetlar bilan muayyan belgilar aloqadorligida berilar ekan, o‘quvchi oddiy qishloqdagi dala manzarasi fonida ilohiy bir fayzni tuyadi. Ariqning suv eltishi – gorizontal harakatga asoslangan jonlantirish usulida ifodalangan bo‘lsa, qaldirg‘ochlarning takbir aytishida – zoomorfik leksemaga tovush belgisi orqali insoniy xususiyat yuklatilgan. Shoir qushlar ichida aynan qaldirg‘ochni tanlagani bejiz emas: qaldirg‘och o‘zbek milliy lingvomadaniyatida “ezgulik”, “insonning do‘sti” tushunchalarini ifodalovchi stereotipga aylangan. “Sajdadan bosh ko‘tarmas poliz” ifodasi palaklarning yer bag‘irlab o‘sishi haqidagi tasavvur va “sajda” so‘zlarini bog‘lovchi *quyi, past, yer* semalari asosiga qurilgan. Tandir hovlining xilvat bir burchagida turishi, har zamon bir ishlatilishi, unda non – rizq-ro‘z yopilishi *kamtarlik, yuvoshlik, duogo‘ylik* sifatlariga ega nuroniy kampir obrazi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Teraklar esa bir qator ekilgani va tik shakl-shamoyili tufayli saf tortgan yigitlar tasavvurini beradi. Makkajo‘xorilarning bola quchoqlagan bir maydon ayolga o‘xshatilishida dalani to‘ldirgan makkajo‘xorilarning mevasi bilan yo‘rgaklangan chaqaloq o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik asosga olingan. Ushbu metaforik ifoda qishloq hayoti, paxta dalalarida o‘zbek ayollarining bolalarini opichlab mehnat qilayotgani, shiyponlarda tebrangan belanchaklar kabi tanish manzaralarni yodga soladi. Xalqimiz shukurli xalq. Bola quchoqlagan ayollar shukur namoziga saflangan. Shoir chorbog‘da ko‘ziga tashlangan har bitta detalning holatini ibodatga va islomiy e’tiqod maslagiga yo‘naltiradi. Misralardan taralayotgan ajib bir sokinlik, ilohiy ruhiyat o‘quvchi qalbiga chuqur kirib boradi.

A’zam O‘ktam xalqimizga xos milliy etika, estetika, madaniy qadriyatlar va milliy mentalitet xususiyatlarini so‘z bilan namoyon eta olgan shoir. “Armon” she’rida urushga ketayotgan o‘g‘il сиймосида содда қишлоқ йигитининг tarbiyasi, ma’naviy dunyosi, madaniyati mujassam:

— *Hech narsa demagan.*

Faqat fashistni —

Bir yomon so‘kkanu...

Qizarib ketgan.

Jim qolaveribman qarab ortidan,

Diydoriga to‘ysam bo‘lar ekan-ku?

Ilk bora uyatli so‘kinganidan —

Yuzimga boqolmay ketgan edi u...

Fashistni so‘kkani uchun onasi oldida uyalib ketish tasviri orqali shoir o‘zbek yigitining xarakterini chizadi. Farzandini urush domiga kuzatgan onaning soddagina, ammo og‘riqli armoniga, afsus-nadomatiga, ya’ni bolasining diydoriga so‘nggi bor to‘yib qarolmaganiga sabab ham ana shu uyatchanlik, ana shu tarbiya!

“Mehr” nomli she’rida ham milliy estetik va axloqiy xususiyatlarning yorqin namunasini ko‘ramiz. Sharqona go‘zallik konsepti periferiyalari qatlamida ayol go‘zalligini *hur, pari, sanam, фapuuma* kabi diniy-ilohiy obrazlar nomi bilan atash an’anasi mavjud. A’zam O‘ktam ayol go‘zalligini hurga qiyoslash bilan birga *xonim* leksemasini ham qo‘llaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da xonim so‘zining 3- ma’nosi *“Go‘zal, barno ayol; xushbichim juvon”* deb berilgan. Shoir mana shu ma’noni nazarda tutgan holda go‘zal va munis, hurkak, ibo-hayoli, kamtar, tortinchoq o‘zbek ayolining tipik siymosini yaratadi:

Hurday xonim, xayolida ham gunoh qilib ko‘rmagan xonim; hurkib holim so‘rmagan xonim; jinni-sang‘i she’rlar o‘qisam, bosh egib, jim tinglagan xonim; dilimdagin ko‘zim aytsa ham, bilaturib "bilmagan" xonim.

Xulosa qilib aytganda, A’zam O‘ktam she’rlari islomiy ma’rifat, axloq, o‘zbekona ruh, milliy-madaniy va estetik qadriyatlar tizimini poetik libosga o‘rab taqdim etilgan va inson ruhiyatini sokin bir manzillarga yetaklovchi o‘ziga xos ma’naviy olamdir.

Sevimli shoirimizning ruhlari shod bo‘lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хусанов Б.Э. Шахс ва жамият муносабатларида гўзалликнинг намоён бўлиш хусусиятлари: Дисс…. фалс. фан. номз. – Тошкент, 2004. –Б.12.
2. Ғафурова Ҳ. Хитойча ҳикмат, японча қалб // Жаҳон адабиёти, 2013. – №5.- Б.188
3. Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “Гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Б.21.
4. Ўктам. А. Қирқинчи баҳор. Шеърлар тўплами. Тошкент "Қатортол-Камолот", 1999

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA TARIXIYLIK FALSAFASI

Shahodat ISAXONOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a’zosi, adiba

Annotatsiya. Mazkur maqolada A’zam O‘ktam she’riyatida tarixiylik falsafasining o‘ziga xos badiiy – estetik, ma’naviy – ma’rifiy - ijtimoiy xususiyatlari “Ibn Sino”, “Alisher Navoiy” kabi she’rlari misolida tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar. moziy, milliy ruh, A’zam O‘ktam, madaniy meros, badiiy tafakkur, maydon, she’r,tarixiylik.

Annotation. This article studies the unique artistic - aesthetic, spiritual - educational - social characteristics of the philosophy of historicism in the poetry of Azam Uktam using the example of such poems as "Ibn Sino", "Alisher Navoi".

Keywords. myth, national spirit, Azam Uktam, cultural heritage, artistic thinking, field, poetry, historicism.

Har qanday milliy adabiyotning taraqqiyoti, dunyo hamjamiyatidagi mavqei tarixiy mavzularning keng yoritilishi, madaniy – ma’rifiy, adabiy – ilmiy munosabatlarning mustahkamligi bilan belgilanadi. Jahon tamadduni va insoniyat ravnaqiga juda ulkan hissa qo‘shgan millatning qalbida bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat, madaniy merosga hurmat tuyg‘usining kuchayib borishida adabiyot beqiyos ta’sir qudratiga ega.

Adabiyot - nafaqat ma’naviy ehtiyoj, balki ma’naviy – ma’rifiy jihatdan anglangan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy zarurat hisoblanadi hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda adabiy-madaniy aloqalarning umuminsoniy qadriyat sifatida yuqori bosqichga ko‘tarilishi xalqaro munosabatlar taraqqiyotida yangi sahifa ochdi. Taniqli shoir va tarjimon A’zam O‘ktamning “Azon” she’riy to‘plami ingliz va arab tillarida Misrda, “Qo‘qon shamoli” kitobi ingliz va indonez tillarida Indoneziyada, ingliz va hind tillarida Hindistonda nashr etilishi qadim ildizlari tutash mamlakatlarda haqiqiy adabiyot bayramiga aylanib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Birinchi navbatda, yoshlarning ongu-tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim”[2]. Inson ma’naviyatining shakllanishida, uning qalbida Vatan taqdiriga mas’uliyat hissi qaror topishida jamiyatning hal qiluvchi kuchlarini ezgu g‘oyalar va bunyodkorlikka safarbar qilishda she’riyatda tarixiylik mavzusining yoritilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk allomamiz shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari shoir ijodiga nihoyatda yuksak baho beradilar: “Taraddud” kitobidagi she’rlar diniy mavzudagi boshqa she’rlardan farqli o‘laroq ba’zi bir oyatlarning,

hadislarning yoki Islomiy hikmatlarning tarjimasi emas, balki musulmon insonning hayot jarayonida qorishib ketgan fikrlari, o‘zining aytadigan o‘ylari, fikr-mulohazalari va xalqi uchun, dini uchun kuyunishi, iymon-e’tiqodi uchun yonib yashashi aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Ana shu narsalarni «Taraddud» kitobini sahifalab she’rlarni o‘qiganimizda yaqqol ko‘ramiz. Bu she’rlarda musulmon inson, dinini xuddi cho‘g‘ni tutgandek tutib, dindan ajrab qolgan bir jamiyatda yashab kelgan insonning fikrlari, uning qiynalishlari, o‘rtanishlari va xalqi uchun kuyunishi o‘z ifodasini topgandir. Yana shuni aytib o‘tishimiz kerakki, «Taraddud» she’riy to‘plami jiddiy kuyunib yozilgan she’rlar to‘plami desak xato qilmaymiz.” [5, 283] A’zam O‘ktamning tarixiy mavzudagi «Ibn Sino», «Buxoroga borganda...», «Alisher Navoiy», «O‘ttiz yettinchi yil she’ri», «Cho‘lpon», «Sog‘inch», «Yurt kezganda» she’rlarida, «Xabar» qissasida ham shayx hazratlari tilga olgan vatanparvarlik, milliy o‘zlik, milliy g‘urur, yurtga sadoqat g‘oyalari ilgari surilgan.

«Ibn Sino» she’rida shoir kuyunchaklik bilan shunday deydi:

Yuzimga tupurmoq bo‘lding, dedilar,
Ko‘z tegmasin deya, tuflamoq bo‘lsam.
Kulbamni buzar deb cho‘chib ketdilar,
Bo‘ronday shahd ila guvlamoq bo‘lsam.
Qo‘ldagi tig‘imni ko‘rib qochdi el,
Ay, kesarmidim –a, egilgan boshni.
Loaqal shu tig‘da ko‘rsin deb edim.
Shundoq bosh ustida turgan quyoshni.
Xalqqa musht urayotgan bo‘lib tuyuldim,
Boshga ko‘taray deb qo‘l cho‘zgan chog‘im.
Shivirlab, «baribir sevaman», dedim,
Ammo og‘ir edi uning qulog‘i.

Tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino kabi jahon tan olgan allomalarning hayot yo‘li, yaratgan kashfiyotlari millat yoshlari uchun milliy iftixordir . Shoir xalq tarixining adabiy jarayon bilan, uning taraqqiyot yo‘li bilan bevosita, uzviy ravishda bog‘liq ekanligini yaxshi biladi. Zero, hamma zamonda dunyodagi barcha millatlar tarixida adabiyot ijtimoiy hayot jarayonidan, hayotning katta hvqiqatlaridan chetda turgan emas. Adabiyotning ravnaqi uchun voqeliklar kerak , mazmun kerak. Mazmunni esa hayot haqiqatlari beradi.

A.O‘ktam dunyo , borliq , mavjudot haqida bahs ochar ekan, inson xilqatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ibn Sinoning hammaga ma’lum fazilatlarini ta’riflamaydi, uning buyuk daholik iste’dodini kutilmagan fikr bilan bayon qiladi:

Qo‘ldagi tig‘imni ko‘rib qochdi el,
Ay, kesarmidim –a, egilgan boshni.
Loaqal shu tig‘da ko‘rsin deb edim.
Shundoq bosh ustida turgan quyoshni.

Shoir nazdida, hayot, butun borliq, koinot cheksiz chegarasiz azim bir maydondir. tafakkurlar, munosabatlar to‘qnashadigan kurash maydoni. A’zam O‘ktam «Alisher Navoiy» she’rida ham shu maydonga ishora qiladi:

Ko‘k - dasturxon, oymomo – non muqaddas. Tegrasida sochilmishdir ushoqlar. Toptay olmas izg‘isa ham basma-bas, turli nomlar olib uchgan uchoqlar.

Yeb qo‘yolmas shart sindirib hech inson, hech qanday kuch terolmas bu ushoqni. Tupurolmas – muqaddas bu dasturxon, ezg‘ilolmas hech kimsaning oyog‘i.

Uning «Peshona» sarlavhali falsafiy to‘rtligi bor. Unda vatan tarixining qora sahifalari, millatimiz boshidan kechgan eng og‘riqli, eng dardli kunlar tasvirlangan:

Bir –biriga qayishmas hech kim,
Anglaganim – kun – kundan battar.
Yonib ketar jim tursam ichim,
Men duduqman, hamsuhbatim kar.

Sobiq sho‘ro tuzumi davrida o‘zbek xalqi «duduq» va «kar» bo‘lib yashashga mahkum etildi. Tarixidan mahrum qilindi. Ulug‘ ajdodlarimizning nomi unutildi, millat o‘zining yaratuvchilik va bunyodkorlik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmadi. Shuning uchun ham A’zam O‘ktam kabi millat oydinlari har bir satrini «ichi yonib», millatdoshlarini yondirishga intilib yozdi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda eng ko‘p aylanayotgan she’rlardan biri A’zam O‘ktamning «Sog‘inch» asaridir. Shoir millatimiz va tariximizning adabiyotimizning iftixori bo‘lgan amir Umarxon va benazir malikamiz Nodirabegimlar haqidagi rivoyatni keltiradi.

Men «Nodirai Davron» tarixiy romanimni yozish jarayonida xalq orasida Nodirabegim to‘g‘risida ko‘plab rivoyatlar bloligiga guvoh bo‘lganman. A’zam O‘ktam eng ta’sirchan rivoyatlardan biri she’r ruhiga mahorat bilan singdiradi.

Butun dunyoda yangi tarixiy davr ma’rifat davri, ma’naviyat va ilm – fan davri sifatida e’tirof etilmoqda. Odamlarning o‘tmishga, bugungi va kelajaka munosabatlarini ijobiy tarafga o‘zgartirish uchun, muayyan manfaatlarga yangicha yondoshish psixologiyasini shakllantirish orqali erishish mumkin. Faqat fuqarolarning ma’rifatliligi orqali ma’rifatli jamiyat tuzish mumkin. Aslida tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma’rifatli jamiyat tuzishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, moziyni anglash, unda ro‘y bergan hodisalarni to‘g‘ri tahlil qilish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jamiyatni ma’naviy isloh qilishga intilish paydo bo‘ladi. Xalqning dunyoqrashi, madaniy va ma’rifiy qadriyatlarga ongli munosabatda bo‘lishi uning o‘z yurti va xalqi tarixini qay darajada bilishi bilan belgilanadi. Tarix orqali inson kamolotga erishadi. Jamiyatda o‘z mustahkam mavqe’iga ega bo‘ladi. Tarixni anglash orqali hayotnni anglash, xatolardan to‘g‘ri xudlosa chiqarish qobiliyati shakllanadi. Istiqbolli rejalar tuzish falsafasi ham tarix falsafasini anglashdan, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashdan boshlanadi. A’zam O‘ktam she’rlarida ustuvor bo‘lgan mavzular o‘sib kelayotgan yosh avlodga jahon tammaddunining tamal toshini qo‘ygan buyuk ajdodlarimizni tanitadi, ular qalbida o‘tmishni o‘rganish orqali milliy g‘urur va milliy o‘zlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh.MirziyoYevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O‘zA, 2023 yil, 23 dekabr.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25 son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Sharq taronalari” o‘n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi. O‘zA, 2022 yil, 25 avgust.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. A’zam O‘ktamni xotirlab. ”Sahar vaqti yurak yig‘lar... ”, T.Movarounnar, 2014.
6. Fitrat A. O‘zbek musiqasi to‘g‘risida.Tanlangan asarlar. Toshkent.: “Ma’naviyat”, 1998.
7. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Aadabiyot va san’at nashriyoti.1990.
8. Konrad N.I. Zapad i Vostok. M.: Izd. Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturы,1972.
9. Ibrohimov O. San’atshunoslik masalalariga doir. San’atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.: 1998.
10. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at.//Maqolalar to‘plami. T: “O‘zbekiston”, 1996
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-j. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
12. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
13. Muhammadjonov A. Tarix falsafasi -ma’naviyat ko‘zgusi. T.: «O‘zbekiston», 2015.

A’ZAM VA O‘KTAM SHOIR

Sobirjon OTABOYEV,
Farg‘ona viloyati, “Buvayda ko‘zgusi” gazetasining
sobiq bosh muharriri, faxriy jurnalist

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida tug‘ilib o‘sgan taniqli shoir A’zam O‘ktam she’riyati va shaxsiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Buvayda, ijod, muhit, badiiy tafakkur, qadriyat, dard, diyonat, adabiyot.

Annotation: This article discusses the poetry and personality of the famous poet Azam Uktam, who was born and raised in the Buvaida district of the Fergana region.

Keywords: Buvaida, creativity, environment, artistic thinking, values, pain, religion, literature.

A’zam O‘ktam yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan va zabardast shoiri edi. Biz buvaydaliklar uchun esa alohida faxrlanadigan jihati bor. U ham bo‘lsa, uning vatandoshimiz bo‘lganligi, katta va alangali IJOD, aynan, Buvaydada cho‘g‘ olib, dunyoni hayratga soladigan darajada olovlanganligida deyishga to‘la haqliman. A’zam O‘ktam 1960 yilda Farg‘ona viloyati Buvayda tumani Xonobod qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tavallud topdi. Padari buzrukvori O‘ktam ota Xudoyberdiev dehqonchilikda nom qozongan, mehnatkash, xokisor inson edi. Volidai muhtaramasi Zulayho ona esa umr yo‘ldoshiga munosib pokiza, sodda, kamsuqum va mushfiqa ayol bo‘lishgan.

“... maqolani yozib, oqqa ko‘chirgunimcha bir soat vaqtim ketdi. Buning o‘rniga “Ixlos”ni besh yuz marta o‘qisam bo‘lmasmidi? Biroq “Boburnoma” ni kimlardir o‘qimagandir, o‘qigan bo‘lsa ham unutgandir, degan xayolga bordim...” degan edi suhbatlarning birida A’zamjon. U judayam e’tiqodli shoir edi.

Anglashiladiki, halol rizq, mehnat bilan topilgan nonni yeb katta bo‘lgan, har qanday nobakorlik, tamagirlikdan yiroq, ayni paytda birovga muhtojligi va tobeligi ham bo‘lmagan muhitda kamol topgan A’zam shoirning ijodidagi keskirlik, to‘g‘rilik, shiddat va jasorat hamda badiiy mahorat tasodif emas, uning xarakteriga mos tabiiylikdir.

Men A’zamjonni bolaligidan bilaman. U meni ustoz deb atardi. Koshkiydi... Men ijodda uning shogirdligiga arzisam, o‘zimni baxtiyor his qilardim. Ammo ikkimiz o‘rtamizda hamfikrlik (adabiyot sohasida), bir- birimizni tushunish va yana qandaydir kishibilmas yaqinlik bor edi. Ehtimol, bunga har ikkimiz yagona ustoz - shoiri davron Qodir Dehqon shogidlari bo‘lganligimiz ham sababdir. U Toshkentda yashab ijod qilardi. Men esa tuman miqyosida turli lavozimlarda, har holda, odam taniydigan e’tiborli joylarda ishlardim. A’zamjon Toshkentdan keldi deguncha, meni izlab topar va qaytib ketgunga qadar birga bo‘lardik. U keliboq menga qaerdandir telefon qilardi (U paytlar uyali telafonlar unchalik ommalashmagan).

- Aka, men keldim, ertaga “ishga chiqaman”, darvoqe, qaerda ishlayapman? - derdi u. Bu degani hozir qaerda ishlayapsiz, idorangiz qaerda, degani bo‘lardi.

Bir safar u o‘zi bilan 6 yoshli qizchasi (To‘maris)ni yetaklab keldi. U yangi kitob ustida ishlayotgani, u ham bo‘lsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning hadisi shariflarini oddiy xalqqa tushunarli sodda va she’riy talqinlari ekanligini aytdi.

- Yozilgan har bir Hadis sharhini mana shu 6 yoshli qizchamga o‘qib beraman, agarda “dada, manavi joyi nima degani” deb qolsa, ha, hali soddalashmapti, deyman-da qayta ishlayman, dedi u, - maqsadim Hadis so‘zlari va mazmunini hamma tushunsin. Kitob haqida shu va boshqa mavzularda suhbatlashdik, fikr almashdik.

Ko‘p o‘tmay u kitob “Ikki dunyo saodati” nomi bilan bosilib chiqdi. Kitob muxlislar tomonidan katta shov-shuv bilan kutib olindi. Ana shunday qimmatli asarning dunyoga kelish jarayonida hissam borligi mening katta quvonchim.

Ba’zan, ijodkorlarga baho berishda adabiyot maydoniga “gurullab” kirib keldi, degan mahobatli iboralar qo‘llanadi. Agar A’zam O‘ktam ijodiga shunday baho berilsa, bu unchalik mubolag‘a emas. Hali u A’zam O‘ktam emas, oddiygina A’zamjon Xudoyberdievlik davridayoq, o‘zining she’r va maqolalari bilan ko‘pchilikni hayratga solgan edi.

Faxriy jurnalist va yozuvchi Erkin Xo‘jaev xotirlaydi:

- Tuman gazetasida adabiy xodim edim. Ustoz jurnalist Mahkam Nazarov bilan bir xonada o‘tirib ishlardik. Yoshgina bir yigit uyalibgina xonamizga kirib keldi.

“9-maktabning sakizinchi sinf o‘quvchisiman, maqola olib keluvdim”, dedi ovozi sal qaltirab. Maqolani olib qoldim. Yigitcha chiqib ketdi. Qog‘ozni ochib avvaliga xafsalasizlik bilan o‘qiy boshladim, birdaniga jiddiylashdim, oxirigacha qattiq hayajonga tushdim. “A.Xudoyberdiev” deb imzo chekkan bu yigitcha o‘zining vafot etgan o‘qituvchisi haqida shunday ta’sirli so‘zlar bilan maqola bitgan ediki, bu oddiy o‘smir bolaning dil kechinmalaridan ancha yuqori edi.

Maqolani ustozga uzatdim va “o‘qib ko‘ring-a”, dedim. Mahkam aka ham uni berilib o‘qidi. Chekayotgan sigaretini uzun simirdi va uzoq puflab, “mana shu boladan bir nima chiqadi”, dedi. Qisqa umri davomida o‘zining betakror ijodi bilan barchani lol qoldirib ketgan A’zam O‘ktamning adabiyotga kirib kelishi ana shunday boshlangan edi.

A’zamjonning shoirlik iqtidori, uning badiiy mahorati, ijtimoiy- falsafiy qarashlari haqida fikr bildirishdan ojizman. Lekin uning e’tiqodi, halolligi, to‘g‘riligi, jasurligi, qaytmasligi va boshqa insoniylik fazilatlari haqida uni yaxshi bilgan kishi sifatida bemalol guvohlik bera olaman.

U ichi to‘la dard, alam bilan yashagan bo‘lsa-da, zohiran xushchaqchaq, hazilkash inson edi. Har qanday vaziyatga yengil kulgu va hajv bilan o‘z ta’sirini o‘tkaza olardi. U Yangiqo‘rg‘onda bo‘lgan davrida bizning hazil-huzullarimizni eshitib, qiziq-qiziq gaplarni Toshkentga olib ketar, va ayni paytda poytaxtdagi katta doiralardan va taniqli ijodkorlar hayotidan olingan ichak uzdi hangomalarni bizga olib kelib kuldirardi.

A’zamjonda boshqalarga o‘xshamagan va so‘z bilan ifodalab ham bo‘lmaydigan, yurak tubidan otilib chiqadigan qandaydir g‘ayrioddiy, samimiy kulgi bor edi. Keyin bilsam, u aytilgan voqeaning o‘ziga emas, undan kelib chiqadigan “kosa ostidagi nim kosa” ga kular ekan. Hayotda uchraydigan ayrim nohaqliklar, mahalliy rahbarlarning noshudligi, soxta va chalasavod dindorlarning kirdikorlari, “samozvanes” shoirlar va boshqalar uning “kulgu”siga sabab bo‘lardi.

U favqulodda talant va iste’dod sohibi edi. Afsuski, u hayotdan erta ketdi. Ehtimol, bunda ham bir hislat bordir. Aytishadiku, “xudo yaxshi ko‘rgan bandasini o‘ziga erta chaqiradi”. Qaysi bir faylasuf yozgan ekan, “talantlar qishloqda tug‘iladi va shaharda o‘ladilar”. Mana shunday qismatga doxil bo‘lgan ulug‘ insonlardan biri bizning qadrdonimiz a’zam va o‘ktam shoir A’zamjon Xudoyberdiev edi. Butun O‘zbekistonning suyukli farzandi bo‘lgan A’zam O‘ktamni buvaydaliklar, ayniqsa, hurmat va iftixor bilan tilga oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. A’zam O‘ktamni xotirlab / Sahar vaqti yurak yig‘lar... – T. “Movarounnahr”2014. 283-b.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019.
3. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – T: Fan, 1977.
4. Xudoyberdieva H. Tanlangan asarlar. – T. Sharq, 2019.
5. A. O‘ktam. Kuzda kulgan chechaklar: She’rlar. – T.: 1990.
6. A. O‘ktam. Kuzatish: She’rlar. – T: Yosh gvardiya, 1990.
7. A. O‘ktam. Qirqinchi bahor:She’rlar. – T:, 1999.
8. A. O‘ktam. Osmon yaqin...: She’rlar. – T:, 2011.
9. A. O‘ktam. Sahar vaqti yurak yig‘lar...: She’rlar. – T:, 2014.
10. A. O‘ktam. Taraddud: She’rlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993.
11. A. O‘ktam. To‘maris bilan suhbat: She’rlar. –Toshkent: Muharrir, 2019.

A’ZAM O‘KTAM IJODIGA NAZAR

Musharrafxon Imomaliyeva Ilhomjon qizi,
Qo‘qon universiteti *dotsent v.b*
Tel: (91) 2002073, e-mail:imomaliyevamusharrafxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek zamonaviy adabiyotida muhim o‘rin tutgan A’zam O’ktam jodi tahlil qilinadi. Shoirning milliy qadriyatlar, ona yurtga muhabbat, millat tarixi va xalq hayotidagi muammolarni o‘zbek she’riyatining boy estetik an’analarida ifodalash usullari yoritilgan. Maqolada A’zam O’ktam ijodining falsafiy, badiiy va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, uning zamonaviy o‘zbek she’riyatiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Iste’dod, she’riyat, ruhiyat, bolalik, aziz ota, savol, badiiy poklik, e’tiqod,Vatan.

Abstract

This article analyzes the poem A’zam Uktam, which occupies an important place in modern Uzbek literature. The poet’s methods of expressing national values, love for the motherland, the history of the nation and the problems of people’s life in the rich aesthetic traditions of Uzbek poetry are highlighted. The article analyzes the philosophical, artistic and social aspects of A’zam Uktam’s work, as well as his contribution to modern Uzbek poetry.

Keywords: Talent, poetry, spirituality, childhood, dear father, question, artistic purity, faith, Homeland.

A’zam O‘ktam – o‘zbek she’riyati olamida e’tiqodga asoslangan, teran ilhom va tug‘ma iste’dod bilan yondashgan kamtar, ammo kuchli ovoz egasi. Uning she’rlari ruhiy borliq, o‘ziga xos yo‘nalish va badiiy poklik namunasi sifatida ajralib turadi. A’zam O‘ktam iste’dodining eng yuksak belgisi — kam so‘z bilan ko‘p

mazmun berish, she’rda sukut va so‘z o‘rtasidagi nozik chegarani tutish.U mantiqan chuqur, lekin poetik jihatdan sodda tilda yozadi. Bu esa xalq bilan yaqinlikni ta’minlaydi. She’rlari noziklik, sukunat va sadoqat bilan boyitilgan.

Inson umri savollardan iborat. Mevali daraxt bahorda qiyg‘os gulga kirganidek, inson ham umrning turli fasllarida savollardan iborat gullarga burkanadi. Bolalikdagi bu savollarning aksariyati boshqalarga berilsa, bora-bora faqat o‘ziga atalgan savollarga javob izlash tafakkur bandalarining mashg‘ulotiga aylanib qoladi. Savolsiz odamlar esa mevasiz daraxtdek o‘tinlikka yaraydi, xolos. Shoirning ko‘plab she’rlari biror savolga yoki savollar karvoniga asoslangan holda yoziladi yoki savol berish bilan tugaydi:

...O‘zingni kim deya bilding dunyoga?[1,12]

“Nimadan boshlanar Vatan?” [1,20]

Sen qanday sig‘yapsan yorug‘ dunyoga? [1,12]

...Bir kun kelsa (chindan-da kelar),

Qandoq javob beraman ul on:

Qalamlarga til bitsa agar,

Bitsa agar qog‘ozlarga jon?

...Girdobiga tortar o‘jar savollar.

A’zam O‘ktam she’rlarida fikr va his-tuyg‘u o‘zaro uyg‘unlikda ijtimoiy-falsafiy ko‘lam hosil qiladi. Uning bitta she’rini tugal tushuntirish, talqin va tahlil qilish uchun istaysizmi-yo‘qmi deyarlik har bir so‘zi, misrasi borasida mulohaza yuritish lozim. Masalan, *“Aldamang, ustoz!”* degan ixcham bir she’rida yozadi: *“Siz mendanki, Tortinmadingiz, Aniq – uyalmaysiz Tangridan, aslo”*. To‘rt qatorga joylangan bu matn bor-yo‘g‘i yettita so‘zdan iborat. Ammo unda salmoqli bir fikr va tuyg‘u mujassam. Aldangan shogird qalbidagi alam hislari ifodalangan. Bundagi pafos nafosatdan ko‘ra haqoratga yaqin; bu quyushqondan chiqqan kishining alamdan chiqish uchun yozgan yetti dona so‘zi, ustozidan ko‘ngli qolgan bir kimsaning dardi bu. Buning qofiyasi yo‘q, vazni va ohangi ham o‘ziga yarasha. Ammo bunda amali so‘ziga muvofiq kelmaydi deya tasavvur qilinayotgan kimsaning g‘aroyib suvratiga ixcham bir chizgi ko‘rinadi [2,3].Teran yozish uchun teran bir tasavvur va tafakkur lozim. Ijodkor o‘z ma’naviy dunyosini, chinakam botiniy qiyofasini, toza borlig‘ini yozmasa, yolg‘on rebuslar to‘qishga, o‘zidan avliyo yasash yo‘liga o‘tib oladi. Shoir she’rlarini o‘zidan, **“men”**idan ayirib talqin qilish mumkin emas. She’r har kimga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, odam uni turlicha qabul qiladi. Bunday zavqni talqin qilishning ham o‘z gashti bor. She’rning tavallud

ayyomini, kimga bag‘ishlangani, qachon, qanday sharoitda nima uchun yozilganini aniqlab, tarjimai hol yo‘sinda tahlil qilish ham adabiyotshunoslik tajribasida mavjud usullardan biri, albatta.

A’zam O‘ktam she’rlari, nasriy va publitsistik asarlari mohiyatiga oyat, hadis va hikmatlarni singdirib yozdi. *“Haq so‘zni bitmakka sarflangan siyoh Jangda tomgan qondek qadrli bo‘lar!”* Yana bir she’rida: *“Bugun tongda negadir otam Qarab qo‘ydi norizo bo‘lib”*, deydi. Otani norizo qilish ko‘ngilni besaranjom etadi. Bu o‘rinda, ota-onaning roziligiga oid hadis yodga tushadi. Darvoqe, A’zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati” kitobi Rasulullоh sallollohu alayhi vasallam aytgan qirq to‘rtta hadisning she’riy talqin va izohlaridan tarkib topgandir.

Adabiyot inson qalbining eng nozik tuyg‘ularini ifodalash vositasi sifatida hamisha jamiyat hayotidagi eng muhim ma’naviy ustunlardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, diniy-estetik ruhda yozilgan she’rlar kishining ruhiy olamini, imoniy kechinmalarini va ijtimoiy mas’uliyatini yuksak badiiy ifoda bilan yoritib beradi. A’zam O‘ktam qalamiga mansub *“Rabbim, huzuringda cho‘kadurman tiz,/ Ummatim dermisiz, Payg‘ambarim, siz?”[1,262]* misrasi bilan boshlanuvchi she’r ana shunday asarlardan bo‘lib, unda ilohiy huzur, bandalik, Payg‘ambar (s.a.v.) shafqatiga intilish va ummatlik tuyg‘usi teran falsafiy hamda badiiy yo‘sinda talqin etiladi. Ushbu she’rning keying misrasida:

Loyiqmanmi sizga, ey aziz otam,

Sig‘dirarmi meni siz qoldirgan iz?

Bu misralarda “aziz otam” so‘zi ikki ma’noga ega: bu — Payg‘ambar (s.a.v) ham, shu bilan birga ruhiy ustoz, ajdod, otaxon ramzidir. Shoir o‘zini ular qoldirgan axloqiy va ma’naviy yo‘lga munosib kela olmaslikdan xavotirga tushadi. “Iz” — bu yerda oddiy iz emas, balki tarixiy izdir: bu yo‘ldan chiqib ketgan har qanday shaxs — o‘zini yo‘qotgan hisoblanadi.

O‘xshamak istarmi o‘g‘ilcham menga,

Suyib onam derman, quvnarmi bu qiz?

Bu bandda shoir o‘z o‘rnini farzandlari, ya’ni kelajak avlod nuqtai nazaridan baholaydi. “O‘g‘ilcham menga o‘xshamak istarmi?” degan savolda yashiringan xavotir bor: men qanday shaxsman? Qanday meros qoldiryapman? Onani sevish — mehr, lekin bu sevgi qanchalik chin? “Quvnarmi bu qiz?” — ya’ni mening mehrim unga shodlik olib keladimi, yo‘qmi? Bu savollar bugungi ota-ona va jamiyat muloqotining axloqiy muhokamasidir.

Alanglab boqurmiz atrofimizga:

Kim erdik, kim bo‘ldik, kim bo‘lurmiz biz?

Bu yerda “boqurmiz” fe’li — davomli harakat, lekin natijasi noaniq. “Kim erdik?” — bu tarixiy anglash. “Kim bo‘ldik?” — hozirgi holatga tanqidiy nigoh. “Kim bo‘lurmiz biz?” — esa xavotirli istiqbol. Shoir zamonlar oralig‘ida yo‘qolgan

milliy o‘zlikni izlaydi. Bu misralar XX-XXI asr o‘zbek ziyolilarining eng asosiy savollarini o‘zida jamlaydi.

Ko‘ngil poshsho bu dam, men unga mirzo,

Sevmak, sevmak erur farmonlarimiz.

Shoir she’r oxirida tashqi savollardan ichki kechinmalarga o‘tadi. “Ko‘ngil poshsho” — qalb egasi, tuyg‘ular hukmdori. “Men unga mirzo”, ya’ni men ichki ko‘ngil saltanatiga xizmat qiluvchi bir mirzoman, yozuvchi, uni ifodalovchi. Eng oliy “farmon” esa “sevmak”. Bu yerda muhabbat faqat shaxsiy tuyg‘u emas, balki Yaratganga, insoniyatga, ona-yurtga bo‘lgan ruhiy intilish, buyuk ma’naviy qadriyat sifatida talqin etilgan.

Xulosa qilib aytganda, she’rlaridan ishq nafasi ufurgan Bobur ham, har so‘zidan otash chiqqan Mashrab ham bu dahri dunning kajraftorligidan shikoyat qilib o‘tdi. XX asr boshlarida millat dardi bilan yashash, uning orzu-armonlarini kuylash Cho‘lpon-u Fitrat kabi shoirlarning chekiga tushdi. Qismat har kimning boshiga bir sinovni bergandek bu dunyoda. Bu sinovlar, ayniqsa, shoirlarning boshiga boshqacha keladi. Shoirlar garchi dunyoni o‘zgartirolmasa ham, ana shu orzu bilan yashayveradi. Shu bois ularning hayot yo‘li murakkab. Atrofidagilarning ma’rifatli bo‘lishini, dunyoni go‘zal va mukammal ko‘rishni istaydi ular. Bu sinovlarni shoir A’zam O‘ktam o‘z she’rlarida baloga menzab, shunday ***“Tilak”*** yozgandi:

She’r – balo, ishq – balo, so‘z – balo

Faqat balo ko‘rib yashaylik.

She’r – armon, ishq – armon, so‘z – armon,

Dunyodan armonsiz ketmaylik.

Saodat, sadoqat – gulxandir,

Biz mangu yonaylik gulxanda.

Uy — Vatan, kuy — Vatan, o‘y — Vatan,

Orzuga yetaylik Vatanda...

Shoir Rauf Parfi ta’kidlaganidek, A’zam O‘ktam yuragining qa’rlarida iztirobli sirlari bor edi [3,178]. Dunyoning alamli g‘ovurlari, achchiq g‘uluvlari uni tez ulg‘aytirib qo‘ygandi. A’zam O‘ktam she’rlari mazmunan rang-barang. Lekin ularning barchasi zamirida katta ma’rifat yotadi. Bu ma’rifat she’rxonni katta manbalar sari yetaklaydi. Barcha ulkan ijodkorlar kabi dunyoni yanada go‘zal, insonni mukammal ko‘rishni istagan shoir o‘z she’rlarida insonning tasavvur oynalari muqaddas manbalar tufayli yorishishiga qattiq ishonadi:

Ruhimda chaqinlar, dovul, qaldiroq,

yer–osmon, suv–olov qorishib ketar.

Bir hadis tusharak yodimga nogoh

tasavvur oynasi yorishib ketar:... A’zam O‘ktam o‘zidan go‘zal she’rlar qoldirdi. “Men, ashraful mahluqot bo‘libnima qilyapman? O‘z rabbimni taniymanmi? Haqqini ado etyapmanmi? Butun mavjudod o‘z zabonida Yaratganga shukrona aytsa-yu, men nega behuda kezinyapman?”, - degan haqli savollar qurshovida qoladi. Bu savolarga javob topish uchun bel bog‘laydi. Insoniylik sharafiga loyiq bo‘lmoq istagida hayotini o‘zgartiradi. Ha, A’zam O‘ktam she’riyati bir nur. Nurki, yorug‘ manzillarga eltguvchi!

O‘t o‘lan aytar salovot,
jo‘r bo‘l, ey A’zam O‘ktam.
Iymoning bo‘lsin salomat,
nur bo‘l, ey A’zam O‘ktam![4,337]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A’zam O‘ktam. Sahar vaqti yurak yig’lar.Toshkent:2014. 20-bet
2. Karimov B. «Sharq yulduzi» jurnalining 2010-yil, 5-soni
3. Mullaxo‘jayeva K.Ma’rifatga oshno ko‘ngil. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 178-184b.
4. Qobilova Z. Nur bo‘l, ey A’zam O‘ktam. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 334-337b.
5. Jo‘raqulov U. A’zam O‘ktam she’riyatining uch asosi. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 255-261b.
6. Isajon Sulton. Diyonatli shoir, o‘ktam adib. “A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 186-188 b.
7. Quronov D. A’zam O‘ktam she’riyati haqida ayrim qaydlar. A’zam O‘ktam badiiy mahorati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari / Andijon, 2020. – 227-228-b.

MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORIDA JISMONIY TARBIYA G‘OYALARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI

Ergashev Shahboz Dilmurodjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek mavsumiy-marosim folklorida ifodalangan jismoniy tarbiya g‘oyalari tarixiy-pedagogik tahlil qilinadi. Navro‘z,

Lola sayli, Shoxmoylar, Loy tutish, Sust xotin, Boychechak, Halinchak, Oblo baraka va Gap-gashtak kabi marosimlar harakat komponenti, verbal qatlam va tarbiyaviy funksiya nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Tadqiqot qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar turkumidagi barcha harakat an'analarini yagona mezonlar tizimida tahlil qiladi. Natijada mavsumiy-marosim folklorida beshta asosiy pedagogik g‘oya ajratib ko‘rsatildi: 1) jismoniy va aqliy kamolot birligi; 2) harakat faolligining bayram shakli; 3) mehnat va jismoniy chiniqish birligi; 4) sog‘liqni jismoniy va ruhiy birlikda tushunish; 5) jismoniy tarbiyaning so‘z vositasida qadriyatlashtirilishi. Maqolada ushbu g‘oyalarni zamonaviy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha «Navro‘z xalqona sport bayrami» namunaviy modeli va mezonlar tizimi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: mavsumiy-marosim folklori, jismoniy tarbiya, xalq pedagogikasi, folklor-pedagogik an'ana, Navro‘z, harakat madaniyati, milliy tarbiya g‘oyalari, sinkretik marosim.

Abstract. This article presents a historical-pedagogical analysis of physical education ideas embedded in Uzbek seasonal-ceremonial folklore. Ceremonies including Navro‘z (New Year), Lola sayli (Tulip Festival), Shoxmoylar (first ploughing), Loy tutish (canal digging), Sust xotin (rain-calling), Boychechak (spring herald), Halinchak (swing), Oblo baraka (harvest) and Gap-gashtak (winter gatherings) are examined from the perspectives of movement components, verbal layers and educational functions. Applying a unified analytical framework across all four seasonal cycles, the study identifies five core pedagogical ideas: 1) the unity of physical and intellectual development; 2) physical activity organised in festive and play forms; 3) the integration of labour and physical conditioning; 4) a holistic understanding of health as physical-spiritual unity; 5) the valorisation of physical culture through oral literary forms. The article proposes a sample model – the «Navro‘z Folk Sports Festival» – and a selection-criteria framework for incorporating this heritage into contemporary education.

Keywords: seasonal-ceremonial folklore, physical education, folk pedagogy, folklore-pedagogical tradition, Navro‘z, movement culture, national educational ideas, syncretic ritual.

Xalq pedagogikasi o‘z tarbiyaviy g‘oyalarini maxsus risolalar yoki dasturlarda emas, balki xalq hayotining tabiiy oqimiga singdirilgan vositalar: mehnat, o‘yin, marosim va og‘zaki badiiy ijod namunalarida mujassam etgan. Ushbu vositalar orasida mavsumiy-marosim folklori alohida o‘rin tutadi: u bir vaqtning o‘zida tarixiy xotira, ijtimoiy regulyator va tarbiyaviy mexanizm funksiyasini bajargan.

O‘zbek marosim folklori folklorshunoslik nuqtai nazaridan ancha mukammal tadqiq etilgan: B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev, O.Safarov kabi olimlar marosimlarning janrlar tarkibi, genezisi, poetikasi va mahalliy variantlarini atroflicha o‘rgangan. Biroq ushbu marosimlarning tarbiyaviy, xususan jismoniy-tarbiyaviy potensiali maxsus pedagogik tadqiqot predmetiga aylantirilmagan. Aynan shu bo‘shliq mavzu doirasida tadqiqot olib borish zaruratini belgilaydi.

B. Sarimsoqov ta'rifiga ko‘ra “Marosim – «inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan, tabiiy hodisalar, mehnat jarayonlari yoki hayotiy muhim voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan, ramziy xarakter kasb etgan jamoaviy amallar majmui»dir. Marosimning tarbiyaviy imkoniyati, eng avvalo, uning sinkretik tabiatidan kelib chiqadi: harakat (o‘yin, dramatik namoyish), so‘z (qo‘shiq, aytim, topishmoq) va ijtimoiy faoliyat (hashar, musobaqa, jamoa yig‘ini) unda yaxlit birlikda namoyon bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan marosimning quyidagi tarkibiy elementlari pedagogik ahamiyat kasb etadi: 1) jismoniy harakat komponenti (yurish, yugurish, sakrash, ko‘tarish, suzish, musobaqa); 2) jismoniy normalarni verbal ifodalash (olqish, qo‘shiq, maqol, topishmoq); 3) harakat bilan birga keladigan ijtimoiy motivatsiya (g‘alaba, nufuz, jamoa tan olishi); 4) yoshlarni katta avlod jismoniy madaniyatiga bosqichma-bosqich kiritish funksiyasi.

Bahorgi marosimlar turkumi

Bahorgi marosimlar turkumi jismoniy tarbiya g‘oyalari eng yorqin namoyon bo‘lgan guruhdir. Navro‘z va yilboshi tomoshalarida an'anaviy musobaqalar – ko‘pkari, kurash, uloq, poyga, chillak – jismoniy chidam, kuch va epchillikni jamoaviy baholash funksiyasini bajargan. M. Jo‘rayev ma'lumotlariga ko‘ra, qadimgi turkiylar qish va bahor almashinishini «kuchning sinalishi» deb bilgan bu tasavvur musobaqa va o‘yinlarda pedagogik mazmun kasb etgan.

Lola sayli – aholining tabiat qo‘yniga ommaviy chiqishi uzoq piyoda yurish, tog‘ va adirlarni aylanib chiqish, toza havoda bo‘lish kabi tabiiy jismoniy faollikni o‘z ichiga olgan. Shoxmoylar marosimida og‘ir jismoniy faoliyat: haydalgan yer, haydab bo‘lingan er – ijtimoiy tan olinish va nufuz bilan rag‘batlantirilgan.

Yomg‘ir chaqirish va harakatli marosimlar

«Sust xotin» marosimida ishtirokchilar qishloq bo‘ylab uyushgan yurish shaklida harakat qilgan. Bolalar ham bu marosimning faol ishtirokchisi bo‘lib, «Chala xotin» variantida qo‘g‘irchoq ko‘tarib, uylardan o‘tganlar. Pedagogik nuqtai nazardan bu marosimda uch jihat muhim: uzoq masofani piyoda bosib o‘tish (tabiiy jismoniy yuklama), suv bilan muomala qilish (suvga qarshilik va chidamlilik), jamoaviy harakat muvofiqlashtirish (ijtimoiy koordinatsiya).

«Boychechak» marosimida bolalar bahor elchilari sifatida hovlima-hovli yurib qo‘shiq kuylaganlar bu – bolaning ijtimoiy-jismoniy faolligini rag‘batlantirishning xalqona shakli. Halinchak (arg‘imchoq) uchish o‘yini esa muvozanat, koordinatsiya va ritmik harakat rivojlantiruvchi vosita sifatida ko‘rsatilgan.

Kuzgi va qishki marosimlar

«Oblo baraka» hosil yig‘im-terimi marosimida mehnat musobaqasining yorqin namunasi aks etgan: o‘rim oxirlab qolganda o‘roqchilar oxirgi boshoqlarni kim avval o‘radi, deb poyga qilganlar. Bu «musobaqa pedagogikasi»ning tabiiy ko‘rinishi ya’ni mehnatni o‘yingga aylantirish orqali jismoniy samaradorlikni oshirish.

Gap-gashtak an'anasi qishki davraning ijtimoiy-jismoniy funktsiyasini bajargan: jamoaviy ziyofat, qo‘shiq va o‘yin orqali qishki harakatsizlikni engish, jamoaviy ruhiy va jismoniy faollikni saqlab qolish. B. Sarimsoqov bu an'anani «o‘z davrining madaniy-oqartuv tadbiri» deb baholagan.

Mavsumiy-marosim folklorining to‘liq tahlili asosida beshta asosiy pedagogik g‘oyani ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

1. Jismoniy va aqliy kamolot birligi. Loy tutish marosimida kurash tushish, ariq qazish va topishmoq yechishning teng qiymatli to‘lov sanalishi buning yorqin dalilidir. Bu g‘oya Abu Ali ibn Sinoning «yaxshi tarbiya uchun ruh va tana birgalikda rivojlanishi zarur» tamoyili bilan to‘la uyg‘un.

2. Harakat faolligining bayram va o‘yin shakli. Navro‘z musobaqalari, o‘rim poygasi, halinchak uchish, bolalarning «Boychechak» yurishlari – barchasida jismoniy yuklanma bayram kayfiyati bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu zamonaviy «o‘yin pedagogikasi» (gamification) ning xalqona prototipi.

3. Mehnat va jismoniy chiniqish birligi. Shoxmoylar, Loy tutish, «Oblo baraka» marosimlari jismoniy tarbiyani ishlab chiqarish mehnatidan ayri holda emas, uning ichida ko‘radi: mehnat – tarbiya, tarbiya – mehnat.

4. Sog‘liqni jismoniy va ruhiy birlikda tushunish. Aytim-olqishlarda chaqaloqdan tortib qari-qartanggacha tana a'zolari tilaklari, chillaga tosh solish marosimi, badik va kinna, bularning barchasi sog‘lom tanani ruhiy barqarorlik bilan bog‘laydi.

5. Jismoniy tarbiyaning so‘z vositasida qadriyatlashtirilishi. Mavsumiy marosimlarning verbal qatlami: qo‘shiq, olqish, aytim, sanama va topishmoqlar harakat madaniyatini badiiy obrazlar orqali ijtimoiy qadriyatga aylantirgan.

Bu besh g‘oya Abdulla Avloniyning «tarbiyaning birinchi zaruriy sharti – badanning salomatligi va pokizaligi» tamoyili va Behbudiy pedagogik qarashlarida ko‘rsatilgan milliy tarbiya idealiga hamohangdir.

Izlanishlarimiz natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oliy ta'lim dasturlarining jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o‘yinlarni (Oq terakmi-Ko‘k terak, bekinmachoq, halinchak, arqon tortish) muntazam kiritish; har bir o‘yin uchun marosim konteksti va pedagogik izohni taqdim etish;

maktabgacha ta'lim muassasalarida Navro‘z, Lola sayli va Boychechak marosimlariga asoslangan harakatli tadbirlar tizimini joriy etish;

«Navro‘z xalqona sport bayrami» namunaviy modeli: 1) tantanali qism – Boychechak qo‘shig‘i bilan yurib kirish; 2) musobaqa qismi: kurash, chillak, arqon tortish, uzoqlikka tosh otish; 3) madaniy qism: folklor ko‘rgazmasi, topishmoq bellashuvi.

material tanlash mezonlari: yoshga moslik (harakat va aqliy yuklama), xavfsizlik (zarar keltirmasligi), pedagogik ahamiyat (aniq tarbiyaviy maqsad), madaniy haqiqiylik (mahalliy an'anaga asoslanish), qiziqarlilik.

o‘qituvchi tayyorgarligi: jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va maktabgacha ta'lim tarbiyachisi milliy o‘yinlarning faqat qoidalarini emas, folklor konteksti, tarixiy ma'nosi va pedagogik imkoniyatlarini ham bilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mavsumiy-marosim folklori xalq xo‘jalik kalendari bilan bog‘liq holda jismoniy tarbiya g‘oyalarining boy majmuini mujassam etgan: qishki marosimlarda davra madaniyati va ijtimoiy intizom; bahorgi marosimlarda musobaqa, mehnat va bahorgi harakatlilik; yozgi marosimlarda chidamlilik va ritmik harakat; kuzgi marosimlarda mehnat musobaqasi va jamoaviy natija.

Ushbu meros uch xususiyat bilan ajralib turadi: 1) yaxlitlik – jismoniy va ma'naviy tarbiya bir-biridan ajralmas; 2) tabiiylik – tarbiya sun'iy emas, hayotiy ehtiyojdan kelib chiqadi; 3) jamoachilik – individual emas, jamoaviy harakat va baholash ustunlik qiladi.

Zamonaviy ta'lim uchun bu meros nafaqat tarixiy qiziqarli, balki amaliy qimmatli manbadir. Ko‘rsatilgan pedagogik g‘oyalar va namunaviy modellar milliy jismoniy tarbiya metodologiyasini boyitishga, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash bilan birga jismoniy salomatlikni shakllantirish vazifasiga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклорининг поэтикаси. - Тошкент: Фан, 1986. 198 - б.

2. Жўраев М. Наврўз: тарихи, маросимлари, фольклори. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 144 б.

3. Сафаров О. Ўзбек болалар фольклори. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 156 б.

4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - 159 б.

5. Ибн Сино. Тиб қонунлари. I жилд. -Тошкент: Фан, 1981. - 380 б.

6. Волков Г.Н. Этнопедагогика. - Москва: Просвешчение, 1974. - 240 с.

A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA XALQONA RUH

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi,
Qo‘qon universiteti Ta’lim fakulteti
“Boshlang‘ich ta’lim” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Tel. raqam:+998905652242

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri — A’zam O‘ktamning hayoti va ijodi haqida so‘z yuritiladi. Shoirning badiiy qarashlari, she’riyatidagi asosiy g‘oyalar hamda xalqona ohanglar tahlil etiladi. Ayniqsa, uning “Ilk she’r” asari misolida Vatanga sadoqat, ona mehrini ulug‘lash, bolalik va yoshlik xotiralarini tasvirlashdagi o‘ziga xos badiiy uslubi ochib beriladi. Maqola davomida shoirning ijodiy merosi bugungi avlod tarbiyasida qanday ahamiyat kasb etishi haqida ham xulosa chiqarilgan.

KALIT SO‘ZLAR: A’zam O‘ktam, shoir, she’r, ijod, o‘zbek adabiyoti, to‘g‘rilik, samimiyat, vatanga muhabbat, ona timsoli, qishloq, bolalik, xotira.

ANNOTATION: This article discusses the life and creative work of one of the prominent representatives of modern Uzbek literature — A’zam O‘ktam. The poet’s artistic views, the main ideas of his poetry, as well as folk motifs are analyzed. In particular, through the example of his poem “The First Poem,” the author’s unique artistic style in depicting devotion to the homeland, glorification of motherly love, and memories of childhood and youth is revealed. The article also concludes with reflections on the significance of the poet’s literary heritage in the education of today’s generation.

KEY WORDS: A’zam O‘ktam, poet, poem, creativity, Uzbek literature, honesty, sincerity, love for the homeland, mother figure, village, childhood, memory.

KIRISH. A’zam O‘ktam ijodi o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Albatta u o‘zbek she’riyatida xalqona ruh, samimiy ohang va hayotiy obrazlarni o’zida uyg’unlashtirgan shoirlardan biri desak sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning she’rlari inson qalbiga iliqlik bag’ishlab, o‘quvchini chuqur o‘yga chorlaydi. U o‘z she’rlari orqali bolalik xotiralari, ona mehri, qishloq hayoti, mehnat go‘zalligi kabi bir qancha hislarni o’quvchi qalbiga muhrlaydi.

Shoir ijodida xalqona ruh, lirizm va falsafiy mushohada uyg’unlashgan bo‘lib, har bir asarida hayotiy haqiqatlar aks etadi.

A’zam O’ktam asl ismi A’zam Xudoyberdiyev bo‘lib, 1960-yil 4-oktyabrda Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida tug‘ilgan. 1985-yillarda Toshkent Davlat

Universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. A’zam O‘ktam o‘ziga xos ovozga ega bo‘lgan iste’dodli shoir, nosir, maqolanavis, mohir tarjimon, jonkuyar muharrir bo‘lgan. Shoirning “Kuzda kulgan chechaklar” (1989), “Kuzatish” (1990), “Ziyorat” (1992), “Taraddud” (1993), “Ikki dunyo saodati” (1998), “Qirqinchi bahor” (2000) kabi she’riy to‘plamlari, “Bola dunyoni tebratar” (1988), “Xabar” (1995) kabi nasriy asarlari nashr etilgan. Rabindranat Tagor va Nikolay Rubtsovning turkum she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shoir 2002-yili Toshkent shahrida vafot etgan. A’zam O‘ktam bu dunyoda ko‘p emas, 42 yil yashadi. Biroq mana shu qisqa umrning har bir lahzasi, samimiyat, mehr, izlanish va qalbdan chiqqan sadolar ila to’ldi desak sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning hayoti qisqa bo‘lsa-da, uning ortida ibratli faoliyat, milliy adabiyotimiz uchun qimmatli meros va yuksak ma’naviy qiyofa qoldi. Farg‘onaning go‘zal Buvayda tumanida tug‘ilib voyaga yetgan A’zam O‘ktamning she’rlari o‘z zamondoshlari qalbida iliq tuyg‘ular uyg‘otdi. Uning qalamidan to‘kilgan har bir misra go‘yo inson qalbini poklovchi, ruhga sokinlik bag‘ishlovchi “samimiy ibodat” nasimidek jaranglar edi. Shoir ijodida hayot haqiqatlari, insoniy tuyg‘ularning nozik jilolari, millat va zamon dardlari samimiy ohangda ifodasini topgan.

Bugun ham uning she’rlari qalblarga mehr, ruhlarga ishonch, tafakkurlarga chuqur o‘y olib kiradi. A’zam O‘ktamning qisqa umri ortidan qoldirgan adabiy xazinasi o‘zbek adabiyotining oltin sahifalaridan munosib o‘rin egallaydi.

A’zam O‘ktamni ijodkor va inson sifatida yaqindan biladigan hassos ustozlarimizdan biri u haqida: “…o‘z tengdoshlari ichida birinchi galda to‘g‘riligi bilan ajralib turardi. Keyin fidoyiligi, keyin kamgapligi va kamtarligi bilan… A’zam va u kabilar tirik bo‘lganida edi, dunyomiz chiroyi yanada boshqacha bo‘lardi balki. She’rlari ham to‘g‘rilik namunasi edi”, deganida ko‘plarning ko‘nglidagi gaplarni aytgan.[1]

Ushbu fikrlar ham A’zam O‘ktamning naqadar samimiy va halol inson bo‘lganidan dalolat beradi. Uning shaxsiy hayotidagi to‘g‘riligi, kamtarligi va fidoyiligi she’riyatida ham o‘z aksini topgan. Shoirning har bir misrasi pok qalbdan tug‘ilib, o‘quvchi ruhiga iliqlik bag‘ishlaydi.

Buyuk o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, o‘ziga xos shoir Rauf Parfi ham A’zam O‘ktam haqida o‘zining samimiy fikrlarini bildirgan. “Shoirni ichkin anglash, tushunish hamisha og‘ir kechadi. Satrlarning ortida, satrlarning sathida, uning teran tublarida nimalar borligini barcha ham idrok etolmaydi. Lekin bilamizki, she’riyat yovuzlikka sudrayotgan nafsga qarshi kurashadi. Kichikni ulug‘laydi, katta ketganni yerga imlaydi. Baribir haqiqatni aytadi, aytaveradi. She’riyat shuning uchun ham abadiydir. O‘zbek she’riyati bog‘ida A’zam O‘ktam daraxtini tez ilg‘ab olasiz. Bu daraxt ko‘p zamonlar ajoyibu g‘aroyib mevalarini armug‘on qilajak. Bu daraxt bog‘ni sarg‘aytirib qo‘ymaydi, doim qayta tug‘ilib, qayta o‘lib, qayta tirilib, shovullab turaveradi.” [2]

[1] *Sahar vaqti yurak yig‘lar: Sherlar* / A’zam O‘ktam; to‘plab, nashrga tayyorlovchi: N. Boqiy; muharrir: N. M. Raufxon. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – 304 b.

[2] *Sahar vaqti yurak yig‘lar: Sherlar* / A’zam O‘ktam; to‘plab, nashrga tayyorlovchi: N. Boqiy; muharrir: N. M. Raufxon. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – 304 b.

Ushbu fikrlar orqali A’zam O‘ktamni va uni ijodini yanada yaqindan tanish kerakligini bilib olamiz. Albatta A’zam O‘ktam iste’dodli ijodkor, o‘z davrida insoniyligi, kamtarligi va samimiyligi bilan ham ajralib turgan siymo sifatida xotiralarda abadiy qolajak.

ILK SHE’R

Bu sahar ko‘kragimda
aldirg‘ochlar vijirlar.
Tong eli qulog‘imga
“Baxtli bo‘l” deb pichirlar.
Yangrar o‘zbekcha qo‘shiq,
Tinglab potirlar yurak:
Onam sog‘ar sigirin —
Kuylab yuborar chelak.
Kim der — tole odamni
Mangu siylar bu qadar:
Meni qo‘rqinch tush emas,
Onam uyg‘otdi sahar.
“Qishlog‘im, bo‘l begona
Sen motam, nolalarga.
Ko‘chang to‘lsin onasi
Uyg‘otgan bolalarga.
Joylar bor — tong neligi
Ayon faqat bemorga.
Sen olib bolangni ham
Jo‘naysan paxtazorga”.
Men so‘zlarni uyg‘otib,
Uni kuylamoq bo‘lsam,
Ketib qobti dalaga
She’rimni tinglamay ham.

A’zam O‘ktamning bu ilk she’ri oddiy hayot manzaralaridan boshlanadi: saharda qushlarning vijirlashi, onaning sigir sog‘ayotgandagi kuychan ohangi, qishloq tongining tabiiy go‘zalligi. Shoir bu manzaralarni bolalik samimiyligi bilan ifodalaydi. She’rda ona obrazining yuksakligi alohida ta’kidlangan: shoirni uyg‘otuvchi ham, tongni go‘zal qiluvchi ham, mehr va barakani tarqatuvchi ham — ona. Qishloq tongining beg‘uborligi fonida paxta dalasiga otlangan onalar hayoti tasvirlanib, o‘zbek ayolining fidoyiligi va mehnatkashligi aks ettirilgan. She’rning so‘nggi misralarida esa shoir o‘zining “so‘z uyg‘otish”, she’r yozish orzusini bildiradi, biroq real hayot uni dalaga olib ketadi. Bu orqali u san’at va hayotning yonma-yon, ba’zan esa qarama-qarshi borishini ko‘rsatadi. Badiiy vositalar esa she’rni yanada boyitgan:

- **Personifikatsiya (jonlantirish):** “Tongi el qulog‘imga “Baxtli bo‘l” deb pichirlar” – shamol odamdek gapirayotganday tasvirlangan.

- **Qiyoslash va obrazlilik:** “Kuylab yuborar chelak” – oddiy buyum ham ovoz chiqarib, qo‘shiqdek jaranglayotgandek tasvir berilgan.
- **Mubolag‘a:** “Kim der – tole odamni mangu siylar bu qadar” – baxtning ulug‘ligi bo‘rttirib ko‘rsatilgan.

Ushbu she’rni o‘quvchi o‘qir ekan, qishloqning oddiy, ammo, o‘ziga xos hayot tarzini beixtiyor ko‘z oldida gavdalantiradi. Ona timsolini ulug‘lovchi ushbu she’r o‘quvchida o‘zgacha taassurot qoldiradi.

Xulosa qilib aytganda, A’zam O‘ktam ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan biridir. Shoirning badiiy qarashlari, xalqona ohang va samimiyat bilan sug‘orilgan she’rlari uning ijodiy dunyoqarashini yanada teranroq ochib beradi. Ayniqsa, “Ilk she’r” asarida shoirning Vatanga muhabbat, ona timsoliga hurmat, bolalik xotiralariga sadoqat kabi g‘oyalarini badiiy jiloda ifodalash mahorati ko‘zga tashlanadi. Shoirning bu kabi asarlari nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki unda mehnatsevarlik, sadoqat, mehr-muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlar kuylanadi. A’zam O‘ktam ijodi bugungi yosh avlodni ona yurtga sadoqatli, ota-onaga mehribon, xalq dardiga befarq bo‘lmagan komil inson bo‘lib yetishishga chorlaydi. Shoirning badiiy merosi nafaqat adabiy-estetik, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham beqiyos boylikdir. Uning she’rlari bugun ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilar qalbida yuksak tuyg‘ularni uyg‘otishda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sahar vaqti yurak yig‘lar: Sherlar / A’zam O‘ktam; to‘plab, nashrga tayyorlovchi: N. Boqiy; muharrir: N. M. Raufxon. – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – 304 b.

MUNDARIJA

G‘afurjon ZOHIDOV. ONA TILI – MILLATNING RUHI……4-5

Ma’rufjon USMONOV. GLOBALLASHUV JARAYONIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOIY ROLI……..5-7

Nizomiddin MAHMUDOV. TIL MAVQEI – EL MAVQEI ……..……7-8

G‘ayrat MAJID. BUYUK NE’MAT……9-10

1- SHO‘BA. ONA TILI VA MILLIY O‘ZLIK

Zohida RASULOVNA. TIL VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATNING IFODALANISHI……12-16

Gulchehra BOLTAYEVA. “SEN – MUHABBAT TILI HAMDA ERK TILI…”……16-23

Shahnoza JUMANOVA. ONA TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA MILLIY O‘ZLIKNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI……23-30

Sh.Abdullayev. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЯЗЫКОВОЙ СИТУАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ МУЛЬТИКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕСТВА И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ……..30-39

Shaxlo MAMUROVA. SO‘Z YASALISHGA KOGNITIV VA SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUVLAR……..40-45

Saydullo OLIMOV. GLOBALLASHUV SHAROITIDA KONFLIKTLI VAZIYATLARNI OLDINI OLISHDA TILNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI……...45-52

2-SHO‘BA: ADABIYOT VA MA’NAVIYAT

Maqsud ASADOV. TIL VA ADABIYOT–MA’RIFAT MEZONLARI.....54-58

**G`ayrat MAJIDOV.** HAMID OLIMJON VA XALQ OG`ZAKI IJODI……59-63

Shokirjon DONIYOROV. ZAMONAVIY O‘ZBEK VA TURK ROMANLARIDA FAZOVIY TAFAKKUR VA MIFOLOGIK TALQIN UNIVERSALLIGI……..……..63-67

Zebo QOBILOVA, Muhsim MO`MINOV. BIR MUXAMMAS XUSUSIDA……..……67-70

Zebo QOBILOVA, Hilola RAIMOVA. AMIRIYONA TASHBEHLAR……..……70-76

Feruza QURBONOVA. HIKOYA POETIKASIDA FOLKLORNING O‘RNI……..76-80

Muqaddas SAIDAKBAROVA. BOTIRXON AKRAMOV ILMIY FAOLIYATIGA MUNOSABAT……..…….80-84

Barno HASANOVA. JADIDCHILIK HARAKATIDA AYOLLARNING ROLI……..…….84-88

Zumradxon TESHABOYEVA. MAISHIY-IJTIMOIY MAVZULARNING BADIIY TALQINI…….……88-94

Nodira MO‘MINOVA. O‘ZBEK XALQ INONCH AYTIMLARI XALQ OG‘ZAKI IJODINING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA……94-98

Abdulaziz QODIROV. ADABIYOTSHUNOSLIKDA OLIM USLUBINING AHAMIYATI……98-102

Laylo SUVONQULOVA. USMON AZIM IJODIDA MOTIV OBRAZLARNING O‘RNI……...102-106

Shirin PAYG‘AMOVA. AMIRIY SHE’RIYATIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMNING BADIIY KO‘RINISHLARI (CHAVGON O‘YINI MISOLIDA)…….107-111

Dilnoza UMOROVA. KOMIL XORAZMIY G‘AZALLARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH…….111-115

Abdulaziz QODIROV, Gavxar KUCHKAROVA. MUNAQQID USLUB SHAKLLANISHIDA OLIM TILI VA MAHORATINING AHAMIYATI…115-119

Madinaxon MUXAMEDOVA. RASSOMNI ILHOMLANTIRGAN RAQQOSA……..119-123

Shakhodat MADAMINOVA. THE CONCEPT OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS…..…123-129

Xursandbek TO‘LIBOYEV. ULUG‘BEK HAMDAMNING “TOSH” HIKOYASIDA YOVUZLIK FORMULASI VA RAMZLAR SINTEZI…..129-133

Xosiyat BEKMIRZAYEVA. O‘ZBEK - QIRG‘IZ ADABIYOTI, TARJIMALAR…….…...133-141

Nilufarxon XALILOVA. QO‘QON XONLIGI DAVRI ANTROPONIMIYASIDA ISMLARNING UYQASHLIK XUSUSIYATI...141-146

Dilshunosxon INOMOVA. BORLIQNI ANGLASHNING FALSAFIY-BADIIY TALQINI (MUKARRAMA MURODOVA IJODI MISOLIDA)...146-149

Nilufar JAVHAROVA. “YURT” JURNALIDAGI “MARG‘INONIY. SOHIBI HIDOYA” NOMLI MAQOLA VA UNING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O‘RNI…….149-155

3-SHO‘BA. ONA TILI VA ADABIYOT TA’LIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Mashhuraxon DARMONOVA. ONA TILI VA ADABIYOT ORQALI NOMODDIY MADANIY MEROSNI SAQLASH HAMDA AVLODDAN-AVLODGA YETKAZISH……..……..157-161

Ehtiyotxon IBRAGIMOVA. USLUBSHUNOSLIKDA “IRONOLOGIYA” YO‘NALISHI XUSUSIDA……..161-167

Mirhojiddin JAMOLIDDINOV. ADABIYOT DARSLARIDA TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI BOG‘LAB O‘TISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH……..167-174

Barno ABDURAHMONOVA. O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH……..174-177

Shahnoza JUMANOVA. ELEKTRON ADABIYOT DARSLIKLARI: IMKONIYAT VA MUAMMOLAR……..177-183

Guljaxon ERKINJONOVA. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ONA TILINI O‘QITISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA ETNOESTETIK MADANIYAT UYG‘UNLIGI……....183-189

Madina MULLAYEVA. BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASINI MEXANIZMLARINI ISHLAB CHIQISH……..189-193

Dilzodaxon AKBAROVA. THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE UZBEK NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE…….193-198

Shaxlo MA’MUROVA. QO‘SHMA SO‘Z YASASH – UMUMIY SO‘Z YASALISH STRATEGIYASI SIFATIDA…….……198-205

Jo‘rabek YO‘LDASHEV. ETNONIMLAR DERIVATSIYASI…….205-209

Saida DAVLATOVA. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA FE’LLARNING SHAXS-SON QO‘SHIMCHALARINI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI…….209-215

Zeboxon SULTONOVA. THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LANGUAGE EDUCATION…….215-219

Ezoza FAYZULLAYEVA. IMPROVING MOTHER TONGUE AND LITERATURE EDUCATION THROUGH THE STEAM APPROACH……..219-224

Ulug‘bek SHARABAYEV. ZAMONAVIY O‘QITUVCHIGA QO’YILGAN TALABLAR…….…..224-230

Orifxon TILLAXO‘JAYEV. USTOZ-SHOGIRDLIK MAKTABLARI……..……230-235

4-SHO‘BA. TARJIMONLIK, LINGVOMADANIY MULOQOT VA SAN’ATSHUNOSLIK

Shuhrat TO‘XTASIMOV. MILLIY QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI: O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATI…….237-241

Sobir JUMAYEV. MILLIY MUSIQA SAN’ATI VA MILLIY O‘ZLIK TUYG‘USI…….241-244

O‘g‘iloy MUHAMMEDOVA. SAN’ATGA FIDO AYOLLAR…….244-249

Nozim QOSIMOV. O‘ZBEK LAPAR SAN’ATINING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI……..249-253

Shovkat UMAROV. MUSIQIY MEROS VA ZAMONAVIYLIK…..253-257

П.И. ТАШКЕНБАЕВ. ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ ВОСТОКА НА ТАНЦЕВАЛЬНОЙ СЦЕНЕ…….257-261

E’zozxon QOBILOVA. MUSIQA MADANIYATI O‘QITUVCHISINING MUSIQIY PEDAGOGIK MAHORATI……262-267

E’zozxon QOBILOVA, Ruxshona ODILOVA. BOLALARNI SOLMIZATSIYA METODI ORQALI MUSIQA VA SAN’ATGA QIZIQISHINI OSHIRISH……..…….267-272

M. DJUMABOYEVA. EVRITMIKA METODIDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI MUSIQA MASHG‘ULOTIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH……273-277

Sh. TURDIYEV. FURQATNING MUSIQIY NAZARIY QARASHLARI…….278-282

E. SOTVOLDIYEV. MUSIQA VA TEXNOLOGIK TA’LIM FANINING INTEGRATSIYASI……282-286

Surayyo ISMATOVA, Jamshidbek MIRSOLIYEV. O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINING INNOVATSION KASHFIYOTLARI (“LAZGI” BALETI MISOLIDA)…….286-290

Mirmuhsin G‘AFUROV. MUSIQA MADANIYATI VA YOSHLAR MA’NAVIYATI (“BOLA DUNYONI TEBRATAR” ASARI MISOLIDA)……..…290-294

Ismoil XUSAINOV. SAMARQAND BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING UMUMXALQ BAYRAMLARIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI……...294-298

Dilnoza JAMOLITDINOVA, Mokhinur AKHMADJONOVA. A LINGVOCULTURAL ANALYSIS OF CHILD-DIRECTED ADDRESS FORMS IN ENGLISH AND UZBEK……..…298-304

Dilnavoz YOKUBJONOVA. THE INTERPRETATION OF AESTHETIC AND ARTISTIC DEVICES IN THE PROCESS OF TRANSLATION……304-309

Dilnavoz YOKUBJONOVA, Munisa SHUKUROVA. THE PROBLEM OF EQUIVALENCE IN TRANSLATION AND ART TERMINOLOGY……..……309-314

Maftunabonu XOLJORAYEVA. IJTIMOIY-SIYOSIY TERMINLARNING EKVIVALENTLIGI MASALALARI……315-320

Sug‘diyona ERGASHEVA. TARIXIY REALIYALAR TARJIMASIDA PRAGMATIK YONDASHUVNING AHAMIYATI……..320-327

Shahloxon MIRZABADALOVA. THE ROLE OF LINGUISTIC DEVICES IN TRANSLATION AND THEIR EFFECTIVE APPLICATION……...…….327-331

A.L.MAMATQULOV. FRANSUZ TILIDA “NUTQIY HUSHYORLIK” (LE POLITIQUEMENT CORRECT)NING NUTQIY MULOQATDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI …..……..331-334

Nargiza SOBIROVA. GLOBALLASHUV DAVRIDA NOVERBAL VOSITALARNING O‘RNI…….……334-340

Farhodjon MULAYDINOV, Ruxshonaxon PO‘LATOVA. KATTALAR VA BOLALAR UCHUN XORIJIY TIL O‘RGANISH METODIKASIDAGI FARQLAR……...……340-352

5-SHO‘BA. A’ZAM O‘KTAM IJODI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI

Akhlaq AHMAD AHAN. THE LITERARY LEGACY OF AZAM UKTAM: A COMPREHENSIVE ANALYSIS OF HIS POETIC INNOVATION, PROSE DEPTH, AND TRANSLATIONAL CONTRIBUTIONS……..…..354-359

Mandavi SINGH. AZAM UKTAM AND THE POPULARIZATION OF HIS WORKS IN INDIA……..……360-364

Mustafa KORKMAZ. TARİH VE ANA DİL EKSENİNDE AZAM ÖKTEM……365-377

Şəkər MƏMMƏDOVA. AZAM OKTAMIN BƏDII YARADICILIĞI VƏ ƏDƏBI ŞƏXSIYYƏTI……377-382

Dilmurod QURONOV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI HAQIDA AYRIM QAYDLAR.....382-387

Abdulla ULUG‘OV. O‘YCHAN VA MAG‘RUR SHE’RIYAT.....387-394

Qurdosh QAHRAMONOV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA RUHIYAT TASVIRI.....394-399

Beg‘am QARAYEVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING O‘ZIGA XOSLIGI.....399-402

Yoqub SAIDOV, Gulrux SAYIDOVA. O‘XSHATISHLARNING STRUKTURAL-KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI (A’zam O‘ktam she’riyati misolida).....403-407

Hulkar HAMROYEVA. A’ZAM O‘KTAM IJODINING XORIJDA O‘RGANILISHI.....407-414

Bahodir KARIM. A’ZAM O‘KTAM YODI.....141-422

Ra’no SAYFULLAYEVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA BARQAROR BIRIKMALARNING O‘ZIGA XOSLIGI.....423-425

Ma’rufjon YO‘LDOSHEV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI TILI……..……426-429

Gavhar MATYAKUBOVA, Dilnoza ARTIKOVA. AZAM UKTAM: CREATIVITY AND CULTURAL PERSPECTIVES IN UZBEK LITERATURE.....429-432

Bahodir RAHMONOV. A’ZAM O‘KTAMNING “DIYDOR” DOSTONINING BADIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI……432-434

Muhammadjon MAMAJONOV, Nizomiddin QO‘LDASHEV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA NUTQIY AKTLARNING O‘ZIGA XOSLIGI……435-438

Bakhtiyorjon RASULOV. HISTORICAL AND MODERN SIGNIFICANCE OF AZAM UKTAM'S POETRY……..……..439-442

Minhojiddin MIRZO. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATID MILLIY RUH VA MILLIY XARAKTER IFODASI……443-451

To‘maris BUTUNBAYEVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA “SEVGI” KONSEPTINING IFODALANISHI……..……451-454

Rahmatjon ABDUSATTOROV. MUSHTARAK TUYG‘ULAR TALQINI……455-461

Ozodaxon Musayeva. NUR BO‘L, EY A’ZAM O‘KTAM……....462-466

Namuna TURSUNOVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATINING POETIK O‘ZIGA XOSLIKLARI……..…..466-472

Rustam SHARIPOV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATI VA SHAXSIYATI……..472-476

Mo‘minjon SIDDIQOV. MULOHAZA. MUSHOHADA. MUKOSHAFA……476-482

Rahmon QO‘CHQOROV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON SHAXSINING NAMOYON BO‘LISHI……....…482-487

Uzoq JO‘RAQULOV. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATINING UCH ASOSI.....488-492

Salimjon GANIYEV, Matluba SHUKUROVA. THE POETIC LEGACY OF AZAM UKTAM: INNOVATIONS……..492-498

Shahlo NARALIYEVA, Asror ALLAYAROV. THE PEDAGOGICAL FEATURES OF AZAM UKTAM'S POEMS: MORAL, SPIRITUAL, AND CULTURAL EDUCATION IN MODERN UZBEK POETRY……..…498-503

Aziz RAJABIY. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MUSIQA SAN’ATI TALQINI …….504-508

Dilrabo ANDANIYAZOVA. A’ZAM O‘KTAMNING BADIIY TIL MAHORATI……508-512

Zulfiya MARUFOVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MILLIY ESTETIK VA AXLOQIY QADRIYATLAR TALQINI ……512-515

Shahodat ISAXONOVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA TARIXIYLIK FALSAFASI……...….516-519

Sobirjon OTABOYEV. A’ZAM VA O‘KTAM SHOIR…….…….519-522

Musharrafxon IMOMALIYEVA. A’ZAM O‘KTAM IJODIGA NAZAR……..……..522-526

Shahboz ERGASHEV. MAVSUMIY-MAROSIM FOLKLORIDA JISMONIY TARBIYA G‘OYALARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI……..526-531

Nilufarxon MUQIMJONOVA. A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA XALQONA RUH……531-534